

# **TRAKTOR KONSTRUKSIYALARI**

---

---

**I qism**


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

## TRAKTOR KONSTRUKSIYALARI

### I qism

*Traktor motori, elektr jihozlari va transmissiyasi*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining  
Muvoqiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*



“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent – 2014

UO'K 621.142(075)  
KBK 39.34я722

Traktor konstruksiyalari I qism / professor Q. H. Mahkamovning umumiy tahriri ostida.  
– Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. – 480 b.

**Mualliflar:**

Mahkamov Q. H., Irgashev A., Imindjanov B. M.,  
Babashev Q. A., Po’latov T. R.

**Taqribchilar:**

Sh. V. Saidov – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent Davlat texnika  
universiteti;

I. I. Usmonov “Toshkent traktor zavodi” DAJ qoshidagi “Traktor” maxsus  
loyihalash byurosi direktori.

Darslikning mazkur qismida traktorlar haqida umumiy ma'lumotlar, traktor  
motorlari, elektr jihozlari va transmissiyasining tasnifi, vazifasi, tuzilishi, ularga  
qo'yilgan talablar, asosiy an'anaviy konstruksiyalar va ularning rivojlanish  
yo'llari hamda hisoblash usullari bayon etilgan.

В данной части учебника изложены общие сведения о тракторах,  
классификация, назначение, устройство тракторных двигателей,  
электрических оборудований и трансмиссий, предъявляемые к ним  
требования, а также основные традиционные конструкции, методы их  
расчёта и пути развития.

In given part of the textbook are stated information about tractor engine,  
electric equipment and трансмиссии, happens to the categorization, purpose.  
device, requirements put(deliver)ed to him, the main traditional designs and  
way of their development.

ISBN 978-9943-07-329-6

© “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2014.

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekistondagi sanoat tarmoqlarining barchasida traktor va uning bazasiga o‘rnatalgan mashinalar keng qo‘llaniladi. Qurilish, qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati va boshqa sohalarning ish faoliyatini traktorlarsiz tasavvur etish qiyin. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng yangi traktor modellarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, mashinalarga xizmat ko‘rsatish va kadrlar tayyorlashning yangi shakllari joriy qilindi.

Traktorlar konstruksiyasining rivojlanishi transport vositalari va mashina-traktor agregatlar (MTA) ish unumдорligini oshirish, haydovchining mehnat sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Mashinalar ishining texnik-foydanish va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari haydovchi va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning kasbiy malaka darajasidan kelib chiqadi. Bu masalalarning yechimi traktorning barcha mexanizmlari, qismlari va agregatlarining konstruksiyasini takomillashtirish, traktorsozlik sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash bilan bog‘liqdir.

Traktor konstruksiyalariga oid mavjud adabiyotlarda mamlakatimizda ishlatalayotgan traktorlar haqidagi ma’lumotlar yetarlicha to‘liq berilmagan. Bundan tashqari ularda traktorlar konstruksiyasining O‘zbekiston iqlim sharoitlariga moslanganlik masalalari yoritilmagan. Mualliflar bu kamchilikni to‘ldirishga harakat qildilar.

Mavjud adabiyotlarda traktor konstruksiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qisqartirilgan va kichik hajmda berilgani uchun ularni amaliy o‘rganishda ba‘zi noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli mazkur darslikda mualliflar zamonaviy traktor konstruksiyalari haqidagi ma’lumotlarni batafsilroq keltirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Darslik traktorlar konstruksiyasi fanining o‘quv dasturiga muvofiq yozilgan. Unda traktorlarning agregatlari va mexanizmlarini rivojlanish bosqichlari yetarlicha to‘liq yoritilgan. Zamonaviy traktorlarning konstruksiyasi, ularning ishlash tamoyillari qiyosiy tahlil bilan batafsil bayon etilgan. Ko‘p sonli mexanizmlarning prisipial sxemalari bo‘lajak muhandis-konstruktorga har bir mexanizmning ishlashini yaxshi tushunib olish va uning konstruktiv

yechimini to‘g’ri topishga imkon yaratadi. Har bir mexanizmni ko‘rib chiqish uning asosiy afzalliklari va kamchiliklari haqidagi ma’lumotlar bilan qo‘sib berilgan. Bu mavjud konstruksiyalarning tahlilini bajarish va ularning rivojlanish istiqbolini belgilashda yordam beradi. Darslikda mamlakatimizda va rivojlangan xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilayotgan traktorlarning konstruksiyalari haqidagi ma’lumotlar, ularning agregatlari va qismlarining alohida xususiyatlari, rivojlanish yo‘nalishlari aks ettirildi.

# **1- bob. TRAKTORLAR HAQIDA ASOSIY MA'LUMOTLAR**

## **1.1. O'zbekistonda traktorsozlikning rivojlanishi**


Yerga mexanik tortkich yordamida ishlov berish fikri paydo bo'lganiga ancha bo'lgan. Masalan, Leonardo da Vinci qo'lyozmalarida eng sodda mexanik tortkichning chizmalari keltirilgan.

Traktor yoki avtomobilni biror ixtirochi kashf etgani yo'q, albatta. Buning ustida juda ko'p iqtidorli kishilar – olim va muhandislar, ixtirochilar asrlar davomida qunt va mashaqqat bilan ish olib borganlar. Qilingan ishlar va murakkab o'zgarishlar natijasida traktor va avtomobillar hozirgi ko'rinishga keltirilgan.

Qadim Turkistonda qishloq xo'jaligidagi barcha ishlar asosan qo'l kuchi bilan bajarilar edi. Omoch, mola, ketmon va o'roq ish qurollari bo'lib, inson kuchi, ho'kiz, eshak va ot energetika vositasi hisoblanar edi.

1887-yil Germaniyada Dizel motori qurilgan. XIX-asrning 90-yillariga kelib Amerika Qo'shma Shtatlarida XOLT va «Mogul» firmalari kerosin motorli traktorlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan.

Rossiyalik F. A. Blinov 1896-yilda Nijniy Novgoroddagi Umumrossiya sanoat yarmarkasida ikkita gorizontal joylashgan bug'motorli o'rmalovchi traktorni ommaviy namoyish etgan.



**1.1-rasm. Y. V. Mamin konstruksiyasidagi «Rus traktori»**

1893–1895-yillarda Y. V. Mamin neft motoridan harakatga keltiriladigan «o'zi yurar arava», 1899-yilda yuqori siqish darajasiga

ega va nassos orqali yonilg'i purkaladigan motor qurdi. 1911-yilga kelib Y. V. Mamin neftda ishlovchi, quvvati 16 dan 60 ot kuchi (o.k.) gacha bo'lgan motorlar seriyasini yaratdi. Ularni o'zi ishlab chiqqan metall g'ildirakli konstruksiyadagi «Rus traktori» loyihasida (1.1-rasm) «Универсал» (16 o.k.), «Посредник» (30 o.k.) va «Прогресс» (60 o.k.) traktorlariga o'rnatdi. Uning uncha katta bo'limgan Balakov zavodida bu traktorlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda traktorsozlik tarixini sobiq Ittifoq davridagi rivojlanish va mustaqillik yillarda avtotraktor sanoatining jadal rivojlanishi bosqichlariga bo'lish mumkin.

### **Traktorsozlikning sobiq Ittifoq davrida rivojlanishi.**

1918–1929-yillarda Y. V. Mamin boshqargan Balakov zavodi «Возрождение» nomini oldi va 1919-yilda «ГНОМ» traktori, 1924-yilda esa neftda ishlovchi bir silindrli motor bilan, quvvati 12 o.k. bo'lgan «Карлик» traktori (1.2-rasm) yaratildi, keyinchalik to'rt g'ildirakli varianti ham ishlab chiqarildi.



**1.2-rasm. Y. V. Mamin konstruksiyasidagi «Карлик» traktori**

1918-yilda «Большевик» mashinasozlik zavodida (Petrograd yaqinida) besh va o'n tonnali o'rmalovchi traktorlarning kichik seriyadagi ishlab chiqarishi yo'lga qo'yildi. Bu traktorlar XOLT (AQSH) firmasining namunalari bo'yicha karbyuratorli quvvati 40 va 75 o.k. motorlari bilan armiya ehtiyojlari uchun chiqarilgan.

1920–1929-yillar mobaynida Kolomensk va Bryansk parovozsozlik zavodlarida g'ildirakli traktorlarni kichik seriyali ishlab chiqarish tashkil etildi. Dastlab bu ikki silindrli, gorizontal oppozit, kerosin motorli va massasi 5 t. atrofidagi «Mogul» (AQSH) turidagi

traktor edi. 1923-yilda bu model asosida neftda ishlovchi motorli, massasi 3,5 t ga yaqin «Коломенец-1» traktori yaratildi (1.3-rasm).




1.3-rasm. «Kolomenes-1» traktori

«Красний прогресс» zavodida (Tokmak shahri) 1923-yilda uch g'ildirakli «Запорожец» traktorlarini ishlab chiqarish boshlandi. Bu traktorlarga bir silindrli, kalorizator turidagi 12 o.k. quvvatli xom neftda ishlaydigan motor o'rmatilgan. Uning farqli xususiyati bitta, keng, yetaklovchi, metalldan tayyorlangan, tuproqqa ilashuvchisi bo'lgan orqa g'ildirakni qo'llanishi edi. Bu o'sha vaqt uchun ishlab chiqarish murakkab bo'lgan differensial qo'llashni istesno qilardi (1.4-rasm).



1.4-rasm. «Запорожец» traktori

Ganomag (Germaniya) firmasining Z-50 turidagi ХП3, G-50, G-75, Z-90 «Коммунар» o'rmalovchi zanjirli traktorlarni mamlakat mudofaa ehtiyoji uchun yirik seriyada ishlab chiqarish 1923-yilda Xarkov parovozsuzlik zavodida boshlangan edi. Ular kerosinli, keyinchalik esa benzinli 50–90 o.k. quvvatiga ega motorlar bilan jihozlangan (1.5-rasm).



1.5-rasm. Xarkov parovozsuzlik zavodining «Коммунар» traktori

Shu yilning o‘zida Petrograd «Красний Путиловец» zavodida (keyinchalik Leningrad Kirov zavodi) Ford (AQSH) firmasining Fordzon traktoriga o‘xhash «Фордзон-Путиловец» g‘ildirakli traktorini yirik seriyali ishlab chiqarish boshlandi. Bu traktorga to‘rt silindrli 19 o.k. quvvatli kerosin motori o‘rnataligan. (1.6-rasm).



1.6-rasm. «Фордзон-Путиловец» traktori

1927-yilda Pershanovka qishlog‘ida beshta o‘rmalovchi zanjirli va 22 ta g‘ildirakli mamlakatda va xorijda ishlab chiqarilgan traktorlarning eng yaxshi modellarini tanlov sinovlari o‘tkazilgan. Sinovlar natijasida «International» (AQSH) firmasining ikkita 15/30 va 10/20 modeldagi g‘ildirakli, hamda «Katerpiller» (AQSH) firmasining bitta 50/60 modeldagi o‘rmalovchi zanjirli traktorlari kelajakda traktor zavodlarida ishlab chiqarish uchun tanlab olingan.

1925-yilda qishloq xo‘jalik traktorlarini ommaviy ishlab chiqarish uchun Saritsin (hozirgi Volgograd) shahrida zavod qurilishi boshlandi va 1930-yilda – Stalingrad traktor zavodi (CT3) ishga tushurildi, CT3-1 g‘ildirakli traktor (15/30 ga o‘xhash) kerosinli, karbyuratorli, to‘rt silindrli motor bilan ishlab chiqara boshlandi. 1931-yilda shunday

traktor CXT3 markasi bilan Xarkov traktor zavodida chiqarila boshlandi (1.7-rasm).



1.7-rasm. CXT3 traktori

1932-yilda Chelyabinsk traktor zavodi (ЧТЗ) ishga tushdi. Bu o'rmalovchi zanjirli ommaviy traktorsozlikni birinchi zavodi bo'lib, quvvatli, o'rmalovchi, motori to'rt silindrli C-60 traktori (AQSH Katerpiller firmasining 50/60 modeliga o'xshash) ishlab chiqara boshladi (1.8-rasm). Bu traktor nafaqat qishloq xo'jaligida, balki sanoatda ham keng tadbiq etildi.



1.8-rasm. C-60 o'rmalovchi zanjirli traktori.

«Красний Путиловец» zavodida 1934-yildan «International» (AQSH) firmasining «Formol» traktoriga o'xshash ixtisoslashigan g'ildirakli chopiq traktorlari: baland poyali ekinlar (paxta, kungaboqar, jo'xori) ga ishlov berish uchun oldingi g'ildiraklari yaqinlashtirilgan «Универсал-1» lavlagi va boshqa past poyali ekinlarga ishlov berish uchun g'ildiraklari orasi kengaytirilgan «Универсал-2» ishlab chiqarilgan (1.9-rasm).




1.9-rasm. «Universal-2» traktori

Shunday qilib, sobiq Ittifoqda eng yaxshi chet el traktorlari konstruksiyalarining namunalarini va ularni ishlab chiqarish texnologiyasini ko‘chirish usuli o‘zini oqlagan. Bir necha yil ichida 30-yillar uchun eng mukammal bo‘lgan traktor modellari ishlab chiqaradigan qudratli, yuqori texnikali traktor sanoati vujudga kelgan.

Shu davrda ilmiy avtoraktor instituti (НАТИ), СТЗ va ХТЗ zavodlarining birlashgan konstruktorlik byurosiga yangi konstruksiyasidagi o‘rmalovchi traktor yaratish bo‘yicha ishlar olib borgan. Natijada o‘rmalovchi zanjirli traktorning qishloq xo‘jaligi uchun CXT3-НАТИ va transport ishlari uchun CT3-5 modifikatsiyalari ishlab chiqilgan va ular 1937-yildanoq bu zavodlarda g‘ildirakli traktor o‘rniga ishlab chiqarila boshlagan.

Romli konstruksiya ega, to‘rt silindrli, kerosinda ishlovchi, karbyuratorli, quvvati 52 o.k. motorli CXT3-НАТИ asos traktoridagi (1.10-rasm) balansir osma dunyoda birinchi marta qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan traktorda qo‘llangan. Bu o‘xshashi bo‘lmagan butunlay yangi konstruksiyadagi birinchi traktor edi. Muvaffaqiyatli umumiy joylashuv va balansir osma shu sinfdagi keyingi avlod traktorlarida ham ishlatilgan (ДТ-54, Т-74, ДТ-75, ДТ-175С, Т-150).



1.10-rasm. CXT3-НАТИ konstruksiyasidagi o‘rmalovchi zanjirli traktor

НАТИ va ЧТЗ birgalikda olib borgan «Katerpiller» (AQSH) dizelini takomillashtirish ishlari natijasida 1937 yilda Chelyabinsk traktor zavodi quvvati 75 o.k. bo‘lgan dizel motorli o‘rmalovchi zanjirli C-65 traktori ishlab chiqarishga o‘tgan.

Gazogeneratorli traktorlarni seriyalab ishlab chiqarish Chelyabinsk (ЧТЗ СГ-65) va Xarkov (ХТЗ-Т2Г) zavodlarida 1938-yildan boshlangan.

Leningrad Kirov zavodi (avvalgi «Красний Путиловец») «Универсал» chopiq traktorlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda o‘rmon sanoati uchun gazogenerator qurilmali, motor quvvati 45 o.k. bo‘lgan, maxsus o‘rmalovchi zanjirli sudrovchi KT-12 traktorlari ishlab chiqarishni 1939-yildan boshlagan.

1941-1945 urush yillarida traktor sanoatiga katta ziyon yetkazildi. Stalingrad, Xarkov, Chelyabinsk zavodlarida traktor ishlab chiqarish to‘xtatilgan. Rubsovsk shahriga 1941-yilda evakuatsiya qilingan XTZ asosida Oltoy traktor zavodi (AT3) qurilgan va unda 1942-yil 24-avgustda birinchi o‘rmalovchi g‘ildirakli CXTЗ-НАТИ traktori ACXTЗ-НАТИ markasi bilan yig‘ilgan, 1944-yil yanvarda konveyerdan 1000 shunday traktor tushgan.

1943-1944-yillarda qayta tiklangan CT3 va XT3 zavodlarida ham 1945-yildan CXTЗ-НАТИ qishloq xo‘jalik traktorlari ishlab chiqara boshlagan.

Yangi Lipesk zavodida birinchi tajribaviy KD-35 dizel traktori 1944-yil avgustda yig‘ilgan, quvvati 37 o.k. bo‘lgan o‘rmalovchi zanjirli dizel traktorlarni Lipesk zavodida seriyalab ishlab chiqarish 1947-yilda boshlangan.

Vladimir traktor zavodi 1943-yilda qurila boshlandi, 1944-yilda 260 ta «Universal-1» g‘ildirakli chopiq traktorlari tayyorladi, 1945-yil 24-aprelda esa uning konveyeridan 500 – «Universal-1» tushgan.

Misli ko‘rilmagan qisqa muddatlarda vayron bo‘lgan barcha traktor zavodlari nafaqt qayta tiklangan, balki traktorlarning eskirgan modellarini zamonaviyoqlariga almashtirish ham boshlangan. Masalan, 1946-yilda ЧТЗ da C-65 traktorini yanada quvvatliroq, motor quvvati 90 o.k. bo‘lgan, o‘rmalovchi zanjirli umumiy foydalanishga mo‘ljallangan C-80 traktoriga almashtirish bo‘lgan. 1949-yilda CT3 va XT3 da CXTЗ-НАТИ traktorini ishlab chiqarish

to‘xtatilgan va yangi konstruksiyadagi, motor quvvati 54 o.k. bo‘lgan DT-54 dizel traktori chiqarilgan. U 1950-60-yillarda mashhur bo‘lgan. (1.11-rasm).



**1.11-rasm. DT-54 o‘rmalovchi zanjirli traktor**

Traktorlar ishlab chiqarishning nomenklaturasi kengaydi. VTZda dunyo amaliyotida birinchi marta «Universal» chopiq traktorining ikkita yangi o‘zgartirilgan turi ishlab chiqildi: U-3 – sug‘oriladigan paxtaga qator oralab ishlov berish uchun va U-4 unga paxta terish mashinalari o‘rnatish uchun. Buning ustiga, oxirgi o‘zgartirilgan turda mamlakatda birinchi marta past bosimli pnevmatik shinali g‘ildiraklar qo‘llanilgan edi. LTZ da KD-35 traktori bilan bir qatorda 1949-yil oxirida KDP-35 o‘rmalovchi chopiq traktorini (KD-35 ni o‘zgartirilgan turi, yo‘l tirqishi va g‘ildiragi kengaytirilgan va o‘rmalovchi zanjir eni kamaytirilgan) ishlab chiqarish boshlandi (1.12-rasm).

1948-yil oxirida Minsk traktor zavodi konveyeridan KT-12 sudrovchi traktorlari tusha boshlaydi. Bir vaqtning o‘zida Kirov va Minsk zavodlarining konstrukturlari yangi sudrovchi traktorlar ТДТ-40 va ТДТ-60 (dizel motori bilan quvvati mos ravishda 40 va 60 o.k.) yaratish bo‘yicha tajriba-konstrukturlik ishlarini boshlaydilar. 1950-yilga kelib mamlakat traktor sanoati urushdan avvalgi traktor ishlab chiqarish darajasiga yetib oldi.

1950–1965-yillar yangi asos modellari va yangi traktor zavodlarini jadal qurish va safga kiritish davri bo‘lgan. 1954-yilda Minsk zavodining g‘ildirakli universal chopiq traktorlarini Janubiy mashinasozlik zavodida (Dnepropetrovsk shahri) avval MT3-2, keyinchalik esa MT3 5I/5M va IOMЗ- 6АКЛ/6АКМ ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.



**1.12-rasm. O'rmalovchi yengil KDP-35 traktori**

Xarkov traktor yig'uv zavodida (keyinchalik Xarkov o'ziyurar traktor shassilar zavodi) ДСШ-14 o'ziyurar shassi, keyin ДВШ-16 va T-16/16M ishlab chiqarilgan.

1956-yilda Onejsk traktor zavodi ishga tushgan, unda o'rmalovchi sudrovchi traktorlar quvvati 29/37 kvt (40/50 o.k.) bo'lgan TDT-40/40M va TDT-55 hamda o'rmon xo'jalik traktori quvvati 45,6 kvt (62 o.k.) bo'lgan LXT-55, keyinchalik TB-1/1M traktorlari ishlab chiqarilgan.

AT3da qishloq xo'jalik traktorlari bilan bir qatorda 1957-yilda o'rmalovchi sudrovchi traktorlar ТДТ-60 quvvati 80 kvt (110 o.k.) bo'lgan, 1961-yilda esa quvvati 55 kvt (75 o.k.) bo'lgan ТДТ-75 ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

1956-yilda mamlakat traktorlarini dizelga o'tkazish ishlari tugallangan.

Traktor sanoatining rivojlanishi va uni mashinasozlikning mustaqil kuchli sohasiga aylanishi ixtisoslashtirishni chuqurlashuvi va traktorning asosiy agregat va tizimlarini ixtisoslashgan ishlab chiqarishni rivojlanishi bilan birga kuzatildi.

Ixtisoslashish chuqurlashgan sari yonilg'i apparatlari ishlab chiqarish bo'yicha Noginsk (1949-yil), Xarkov (1951-yil), Yaroslavl (1962-yil) zavodlari qurildi va ishga tushurildi.

Bo'lingan agregatli usulda ishlash ularni ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashgan zavodlar yaratishga turki bo'ldi: Moskva gidroagregatlar zavodi (1957–58-yillar) – nasoslar va taqsimlagichlar; Kirovograd va Vinnisa gidroagregatlar zavodlari (1958–59-yillar) – nasoslar; Yelesk – gidrosilindrlar ishlab chiqarish bo'yicha (1957-yil);

Melitopol – silindrlar va taqsimlagichlar ishlab chiqarish bo'yicha (50-yillar oxiri).

1956-yilda motorsozlik sohasi kelib chiqdi: Minsk motor zavodi (1962-yil), Xarkov «Серп и молот» (1962-yil) va Xarkov traktor motorlari zavodi (1969-yil), Oltoy motor zavodi (1966-yil), Volgograd motor zavodi (1986-yil).

1960-yildan O'zbekiston traktor yig'uv zavodida (keyinchalik Toshkent traktor zavodi) T-28X3 va T-28X4 mos ravishda 40 va 50 o.k. quvvatlari paxtachilik traktorlari ishlab chiqarish boshlandi.

1962-yilda Kishinev traktor zavodi ishga tushdi. Unda o'rmalovchi zanjirli ixtisoslashgan: chopiq T-50V va uzumchilik T-54B, 1969-yildan esa lavlagi uchun T-54C traktorlari ishlab chiqarila boshlandi. Bu traktorlar «Belorus» oilasi g'ildirakli traktorlari bilan yuqori darajada birxillashtirilgan edi.

1963-yildan Leningrad Kirov zavodida hamma g'ildiraklari yetaklovchi va bir xil o'lchamli qishloq xo'jalik traktorlari K-700 (motor quvvati 154 kvt, 203 o.k.) ishlab chiqarish boshlandi. Hozirgi vaqtida uchinchi avlod «Kiroves» traktorlari K-744 (quvvati 350 o.k.) ishlab chiqarilmoxda.

1965-yildan keyingi davrida ixtisoslashgan ishlab chiqarish rivojlana boshladi: motorning qism va detallari (porshen halqalari, porshenlar va porshen guruhining boshqa detallari, radiatorlar va boshqalar), shesternyalar, yurish tizimi elementlari (o'rmalovchi zanjir zvenolari, g'altaklar), traktor o'rindiqlari.

1968-yilda Pavlodar traktor zavodi (Qozog'iston) Volgograd traktor zavodining (BrT3) konstruksiyasidagi ДТ-75М o'rmalovchi yer haydash traktorlarini (quvvati 66 kvt, 90 o.k.) ishlab chiqara boshladi.

Qishloq xo'jaligi traktorlari ishlab chiqarishi rivojlanishi bilan bir qatorda sanoat, o'rmon sanoati va o'rmon xo'jaligi traktorlari ishlab chiqarish bo'yicha zavodlar qurish davom etdi. 1974-yilda XT3 da g'ildirakli T-157 qishloq xo'jalik traktorlarining o'zgartirilgan sudrovchi turini ishlab chiqarish boshlangan. 1975-yilda sanoat traktorlari ishlab chiqarish rivojlanishida muhim bosqich boshlandi. T-330 (quvvati 330 o.k.) o'rmalovchi zanjirli sanoat traktorlarini ishlab chiqarish yangi Cheboksar sanoat traktorlari zavodida (ЧЗПТ) o'zlashtirilgan.

ЧТЗ ixtisoslashgan sanoat traktorlarining eng yirik ishlab chiqaruvchi bo'lib qolgan edi. Unda sanoat traktorlarining bir necha avlodi chiqarilgan: C-60/65; C-80; T-100/100M; T-130/130M; T-170; ДЭТ-250/250M.

1958–1980-yillarda umumiy maqsaddagi sanoat traktorlari (T-140, keyin esa T-180Г, quvvati 129 kvt, 175 o.k.) va quvur yotqizgichlar (Д-804М) Bryansk avtomobil zavodida chiqarilgan.

1990-yildan boshlab Rossiyaning Volgograd traktor zavodida 4 tortish sinfiga mansub BT-150 o'rnalovchi zanjirli qishloq xo'jalik traktori ishlab chiqarilmoqda. BT-150 traktorida 110 kvt li (150 o.k.) motor o'rnatilib undagi burovchi moment zaxirasi 30% tashkil qiladi.

2000-yildan boshlab Rossiyaning «Altayskiy traktor» zavodi tomonidan yangi T-404 qishloq xo'jalik traktori ishlab chiqarilmoqda, u avval ishlab chiqarilgan T-4A traktoriga nisbatan qator konstruktiv yechimlar bilan ajralib turadi, jumladan tayanch g'ildiraklariga individual torsion osmalar va rezinka-metall sharnirli zanjirli yuritkich o'rnatilganligi sababli traktorning harakat ravnligi ta'minlangan.

**Toshkent traktor zavodi** 1957–60-yillarda «Tashavtomash» deb nomlanib paxta xomashyosini qanorsiz tashish uchun 2PTC-4-793A rusumli tirkama ishlab chiqargan. 1960-yildan «Toshkent traktor yig'uv zavodi», 1966-yildan boshlab esa «Toshkent traktor zavodi» (TT3) deb atalgan. Bu yillarda tirkamalar ishlab chiqarish sur'atini pasaytirmagan holda paxtachilik modifikatsiyasidagi T-28X4 traktorini ishlab chiqishni o'zlashtirdi va 1970-yilda birinchi traktor ishlab chiqarilgan. 1977-yil MTZ-80X traktorlarni yig'ib jihozlash o'zlashtirilgan.

1981-yilda qurila boshlangan Toshkent motor zavodida ishlab chiqarish uchun Minsk motor zavodining Д-243 rusumli motori asos qilib olindi. 1985-yilda birinchi motor yig'ildi va 1987-yildan boshlab Д-243 motorlari seriyali ishlab chiqarila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qishloq xo'jaligi mashinasozlikdagi ilmiy-texnik muammolarni hal qilish yo'llari belgilanib olindi.

1993-yilda xalq xo'jaligini dizellar bo'yicha ta'jabin qondirish uchun Toshkent motor zavodi asosida «Adjind svissital» Italiya firmasi bilan birga qo'shma korxona tashkil qilindi. Qator tadqiqot

ishlari o'tkazilgandan so'ng 4B-3,9A va 6B-5,9A rusumli «Cimmins» firmasida chiqariladigan dizellar tanlandi. Qisqa davr ichida iste'molchilarga 4000 tadan ortiq «Kamminz» motorlari jo'natildi (1.13-rasm).



1.13- rasm. 4B-3,9A motori

1996-yildan boshlab Toshkent traktor zavodida «Keys Korporeyshn» (AQSH) firmasining MX-135 rusumli traktorlari «Jahongir» nomi bilan ishlab chiqarila boshlandi.



1.14-rasm. TTZ-100K.10 va TTZ-100K.11 traktorlari

Toshkent traktor zavodi mustaqillik yillarda traktorlarni takomillashtirish bo'yicha mustaqil tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlari olib bordi. Bu ishlarning natijasida mavjud turli chet el traktorlari konstruksiyalari asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan traktorlar yaratildi. Texnik darajasi oshirilgan TTZ-100K.10, TTZ-100K.11 (1.14-rasm) traktorlardan tashqari ko'rinishi (dizayni) yaxshilangan TTZ-30 (1.15-rasm), TTZ-60, TTZ-80 traktorlari, VU-300 rusumli mini-traktorlar va ularga osma qishloq xo'jalik qurollari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

**Paxtachilik traktorlarining evolyutsiyasi.** Traktorlar vazifasiga ko'ra: umumiy xizmatdagi, universal, haydov, bog'dorchilik va maxsus traktorlarga bo'linadi. Paxtachilik traktorlari maxsus traktorlarga tegishli bo'lib, paxtachilikda ishlataladi.



1.15- rasm. TTZ-30 traktori

Katta yo'l tirkishiga, kichik burilish radiusiga ega va orqa g'ildirak shinasi tor uch g'ildirakli paxtachilik traktorlari tor qator oralarida yurishga yaxshi moslashgan va turli qishloq xo'jalik mashinalari va qurollari bilan muvaffaqiyatli ishlataladi. Ular qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, yetishtirish, yig'ishni barcha texnologik jarayonlari va paxta ekish zonasidagi boshqa ishlarning energetik asosi hisoblanadi. Paxtani yig'ish ishlari mashinalariga paxta terish mashinalari, ko'rak terish mashinalari, dala sharoitida ishlaydigan ko'sak chuvish mashinalari, g'o'zapoyani sug'urgichlar va boshqalar kiradi.

1942-yilda birinchi paxta terish mashinasi «U-1» (universal, 1-model, motor quvvati 16 o.k.) traktoriga osilgan. «U-1» traktori 1934-yildan 1956-yilgacha ishlab chiqarishda bo'lgan, so'ngra ДТ-24-3 traktori bilan almashtirilgan. Tik (vertikal) shpindelli va yotiqliq (gorizontal) shpindelli paxta terish mashinalari «U-1» traktoriga osilgan. Bundan tashqari paxta terish mashinalarini ilish uchun МТЗ-1 (Belorus, 1-model, motor quvvati 25 o.k.), КЛП-35 («Kiroves», motor quvvati 35 o.k.), У-4М («Universal», 4-model, motor quvvati 20 o.k.) traktorlaridan foydalangan.

ДТ-24-3 (motor quvvati 24 o.k.) dizel traktori Vladimir traktor zavodi (ВТЗ) tomonidan 1955-yildan boshlab Д-24 traktorining paxtachilik turi sifatida chiqarilgan. ДТ-24-3 traktori 1955-yildan 1960-yilgacha ishlab chiqarishda bo'lgan. 1955–58-yillarda traktor

ДТ-24-3Т ва ДТ-24-3В modellari bilan takomillashtirildi. Т-28В dizel traktori (motor quvvati 28 o.k.) 1958–59-yillarda ДТ-24-3В markasi ostida ishlab chiqarildi, so'ngra Т-28Х traktori bilan almashtirildi. Т-28Х traktori (motor quvvati 28 o.k.) 1959-yilden 1962-yilgacha ishlab chiqarishda bo'ldi, 1963-yilden boshlab esa Toshkent traktor – yig'uv zavodi bu traktorlarni o'zi yig'a boshladи. Bu traktor T-28Х3 traktoriga (motori Д-37Б, quvvati 40 o.k.) almashtirildi.

1963-yilden 1968-yilgacha ishlab chiqarishda bo'lган T-28Х3 traktori Toshkent traktor zavodi (ТТЗ) ishlab chiqargan T-28Х4 traktori bilan almashtirildi.

T-28Х4 traktori Д-37Е motorli (quvvati 50 o.k.) avvalgi modellarga nisbatan 1,25 marta quvvatli T-28Х4М traktoriga Д-144 motorli (quvvati 60 o.k.) almashtirildi. Т-28Х4 traktori 1968-yilden 1976-yilgacha ishlab chiqarishda bo'ldi. Unga 14XB-2,4 va 17XB - 1,8Б paxta terish mashinalari osildi. Т-28Х4 traktori bilan bir qatorda paxta dalalariga MT3-50X traktori (motor quvvati 55 o.k.) chiqdi. Ishlab chiqarishda 1969-yilden 1976-yilgacha bo'lган bu traktorga 17XB -1,8Б paxta terish mashinasi osilgan. U MT3-80X traktori bilan almashtirilgan. Bu traktorlar orasidagi farq shundaki, Т-28Х4 traktoriga havo bilansovutiluvchi motor o'rnatilgan, MT3-80X traktori motori esa suv bilansovutiluvchi bo'lган.

1976-yilden 1994-yilgacha chiqarilgan T-28Х4М, T-28Х4МА traktorlari TTЗ- 60.11 traktori bilan almashtirildi. TTЗ-60.11 traktori Д-144 motori bilan (quvvati 60 o.k.) 1994-yilden 1997-yilgacha ishlab chiqarishda bo'ldi va TTZ-100K.11 traktori bilan almashtirildi. Bu traktorga 14XB-2,4Г paxta terish mashinasi osildi. 1976-yilden 1994-yilgacha ishlab chiqarishda bo'lган MT3-80X, MT3-80XA, MT3-80X2 traktorlari (motor quvvati 75 o.k.) TTZ-80.11 traktori bilan almashtirilgan. TTZ-80.11 traktori (motor quvvati 80 o.k.) 1994-1997-yillarda ishlab chiqarishda bo'lган, unga MX-1,8A; MXM-3,6 va XM-12 paxta terish mashinalari osilgan. Keyinchalik u «Toshkent traktor zavodi» DAJ va «Keys Korporeyshn» (AQSH) firmasi hamkorlikda ishlab chiqargan 4240X va 5230X «Jahongir» traktorlari bilan almashtirildi.

4240X traktori ДТ-268 motori bilan (motor quvvati 104 o.k.) 1997–1998-yillarda ishlab chiqarishda bo'ldi. Bu traktor «Kamminz»

firmsining 4BT-3,9A motori qo'yilgan (quvvati 92 o.k.) TTZ-100 K.11 traktori bilan almashtirildi.

5230X «Jahongir» traktori «Kamminz» firmsining 6B-590 motori qo'yilgan (quvvati 100 o.k.) 1997–1998-yillarda ishlab chiqarildi.

1997-yildan boshlab ishlab chiqarishda bo'lgan TTZ-100K.11 traktoriga MX-1,8; XM-02; XM-05; XM-06; XM-09; XM-12; XMT-0,4 paxta terish mashinalari osildi.

Paxtachilik modifikatsiyasi traktorlarining konstruksiyasini takomillashtirish motorni kuchaytirish hisobiga ularning quvvatini oshirish, traktor konstruksiyasi puxtaligini oshirish yo'nalishlarida olib borildi. Shuning uchun traktor konstruksiyasini ta'mirlashga yaroqligiga kam e'tibor berilgan. Bunday ishlar endilikda olib borilmoqda. Bundan tashqari modulli loyihalash asosida yangi traktor yaratish yo'lidagi izlanish ishlari ham boshlab yuborilgan.

### 1.1-jadval

#### Traktor va motorlarni rivojlanishini asosiy bosqichlari

Tadbiq qilingan yil	Traktor konstruksiyasi	Rusumi	Ishlab chiqarilgan korxona
1880	Karbyuratorli motor	Otto (ixtiro)	Germaniya
1887	Dizel motori	Dizel (ixtiro)	Germaniya
1896	Traktor	F. A. Blinov	Rossiya
1911	Neftda ishlaydigan motor	«Universal», «Posrednik», «Progress»	Balakov zavodi Rossiya
1912	Zanjirli traktor	«Xolt»	«Xolt», AQSH
1917	G'ildirakli traktor	«Fordzon»	«Ford», AQSH
1920	Karbyurator motori	G'ildirakli «Fordzon» zanjirli VD-50	«Ford» (AQSH) Gonomag (Germaniya)
1923	Dizel	«Doyts»	Doyts
1924	Karbyurator motori	«Fordzon-Putiloves»	«Krasniy-Putiloves»
1925	G'ildirakli chopiq traktor	«Farmol»	«Interneyshnl», AQSH
1937	Birinchi ittifoq dizeli	Zanjirli C-65	CHTZ

1937	Qishloq xo'jalik uchun zanjirli traktor	SXTZ-NATI	XT3, CT3
1938	Gazogenerator qurilmasi	Zanjirli C-65	CHTZ
1944	Paxtachilik traktori	«Universal» U-3	VTZ
1949	Tabiiy va suyultirilgan gazda ishlaydigan motor	«M.M. Standart lpg»	Minsapolismolin (AQSH)
1949	Zanjirli chopiq traktor	KDP-35	LTZ (Lipesk)
1950	O'ziyurar traktor shassi	AG-1305	Lans Aldog (Germaniya)
1954	G'ildirakli universal chopiq traktori	MTZ-2	YMZ, MTZ
1955	Dizellarni puflash usuli	Zanjirli D-9	Katerpiller (AQSH)
1961	T-62G <u>Gazli turbina</u>	NT-340	Interneshnl Xarveyster
1962	Barcha g'ildiraklari yetakchi traktor	«Interneshnl 4300»	AQSH
1962	Hamma g'ildiraklari yetakchi traktor	K-700	Leningrad Kirov zavodi
1962	Integral traktor	T-5	JIT3
1977	O'ziyurar traktor shassi	«Politrak- 150»	Daymler-Bens (Germaniya)
1976. ..83	Mobil energetik vosita	MT3-142 bazasida MЭB	HATI, MT3
1983	Mobil energetik vosita	T-150K bazasida MЭB	HATI-ХТЗ
1986	Universal energetik vosita	«MEKS mobil 8300»	Shteyer, Pettiniger (Avstriya)
1985	Keng ko'lamda traktor	365 GTA	Fendt (Germaniya)
1986	Universal energetik vosita	MЭC-06	ВИСХОМ, ХЗТСМ
1989	Doimiy quvvatli motor	Д-440	Oltoy motor zavodi
2001	Paxtachilik uchun universal energetik modul	2K2 (loyiha)	ToshDTU
2007	Birinchi o'zbek traktori	TTZ-820	Toshkent traktor zavodi

## **1.2. Traktorni tasniflanishi**

Traktorlar quyidagi asosiy belgilar bo'yicha tasniflanadi:

1. Qo'llanish sohasi bo'yicha – qishloq xo'jaligi, sanoat, o'rmon sanoati, o'rmon xo'jaligi.

2. Vazifasi va ixtisoslashishi bo'yicha quyidagi turlar:

***Qishloq xo'jalik traktorlari.***

*Umumiy vazifadagi* – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi energiya sig'imli ishlar (yer haydash, shudgorlash, chopiq qilish, ekish va boshqalar, chopiq qilinadigan ekinlarga ishlov berish va ularni yig'ib-terishdan tashqari);

*Universal* – umumiy vazifadagi ishlar, shuningdek chopiq qilinadigan ekinlarni yetishtirish va yig'ish bo'yicha ishlar;

*Universal-chopiq* – chopiq qilinadigan ekinlarni ekish, parvarish qilish va yig'ib-terib olish, tuproqni birlamchi ishlovida cheklangan foydalanish;

Ekin turlari va ishlab chiqarish sharoitlari bo'yicha *ixtisoslashgan* – paxtachilik, uzumchilik, lavlagichilik, sholikorlik, choychilik, tamakichilik, urug'chilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, issiqxona uchun, chorvachilik, tog', kichik gabarit o'lchamli va motobloklar.

***Sanoat traktorlari.***

*Umumiy vazifadagi* – yer qazish ishlari (buldozer va yumshatkich bilan agregatda).

*Botqoqlikda yuruvchi* – ko'tarish qobiliyati past yerdagi yer qazish va melioratsiya ishlari.

Ish turlari va ishlab chiqarish sharoitlari bo'yicha ixtisoslashgan:

*Yuklagichlar* – yuklash, yer qazish va yer qazish-transport ishlari;

*Quvur yotqizgichlar* – magistral quvur o'tkazgichlarni yig'ish va yotqizish bo'yicha ishlarni mexanizatsiyalash;

*Yer osti* – tog' qazishlarning tor sharoitlaridagi ishlar;

*Suvli joy va suv osti* – portlar, daryoakvatoriyasida 6–7 m chuqurlikdagi yer qazish ishlari, bir necha o'n metr chuqurlikda dengiz va okean tubida kontinental shelefdan foydali qazilmalarni qazib chiqarish;

*Kichik gabarit o'lchamli* – tor sharoitlarda kichik hajmdagi yer qazish-tozalash ishlari.

***O'rmon sanoati traktorlari.***

*Sudrovchi* – yog‘ochni yarim ortilgan holatda tayyorlash, yig‘ish va tashish;

*Botqoglikda yuruvchi* – ko‘tarish qobiliyati past yerlarda yog‘och tayyorlash;

*Suzuvchi* – daryoakvatoriyasida yog‘och oqizish va qirg‘oq zonasidagi ishlar.

### *O‘rmon xo‘jaligi traktorlari.*

*Umumiy vazifadagi* – o‘rmon tiklash ishlari, parvarish va kesilgan yog‘ochni sudrab tortish;

3. Yurish tizimining turi bo‘yicha – g‘ildirakli va o‘rmalovchi zanjirli.

G‘ildirakli traktorlar g‘ildiraklarning umumiy soni, yetakchi g‘ildiraklar soni va ularning o‘lchamini aks ettiruvchi «g‘ildirak formulasasi» bo‘yicha bo‘linadilar.

Shunday qilib, «an’anaviy» boshqariladigan oldingi g‘ildiraklari kichkina diametrali va yetakchi orqa g‘ildiraklari katta diametrali to‘rt g‘ildirakli traktor 4K2 formulasiga ega bo‘ladi. Agar xuddi shu ma’lumotlarda va oldingi g‘ildiraklar yetakchi, ammo kichik diametrali bo‘lsa traktorning g‘ildirak formulasasi 4K4a bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, hamma g‘ildiraklar yetakchi, «a» harfi esa oldingi yetakchi g‘ildiraklar diametri kichikligini ko‘rsatadi. Hamma to‘rtala g‘ildiragi yetaklovchi va bir xil diametrali traktor 4K4b formulasiga ega bo‘ladi, bu yerda «b» harfi oldingi va orqa g‘ildiraklar diametri tengligini ko‘rsatadi. Yetaklovchi g‘ildiraklar soni katta bo‘lgan traktorlar, ayniqsa o‘rmon sanoati va o‘rmon xo‘jaligi traktorlari orasida, uchrab turadi (6K6, 8K8).

Bundan tashqari traktorlar yarim o‘rmalovchi va g‘ildirakli o‘rmalovchi bo‘ladi. Birinchi holda ikkita harakatlantiruvchi (g‘ildirakli oldingi boshqariluvchi va o‘rmalovchi orqa yetaklovchi), ikkinchi holda esa – harakatlantiruvchilardan faqat bittasidan ish sharoitiga bog‘liq holda foydalaniadi.

4. Joylashish (kompanovka) turi bo‘yicha traktorlar an’anaviy va noan’anaviy joylashishga bo‘linadi.

5. Nominal tortish kuchi bo‘yicha qishloq xo‘jalik va o‘rmon xo‘jaligi traktorlarini o‘nta tortish sinfiga, sanoat traktorlarini esa – sakkizta tortish sinfiga bo‘ladilar (1.2- va 1.3-jadvallar).

1.2- jadval. Qishloq xo‘jalik va o‘rmon xo‘jaligi traktorlarining tortish sinflari

Tortish sinfi	Nominal tortish kuchi, kN
0,2	1,8 dan 5,4 gacha
0,6	5,4 dan 8,1 gacha
0,9	8,1 dan 12,6 gacha
1,4	12,6 dan 18 gacha
2	18 dan 27 gacha
3	27 dan 36 gacha
4	36 dan 45 gacha
5	45 dan 54 gacha
6	54 dan 72 gacha
8	72 dan 108 gacha

1.3- jadval. Sanoat traktorlarining tortish sinflari

Tortish sinfi	Konstruksion massasi, t
2	4 dan 6 gacha
6	6 dan 10 gacha
10	10 dan 15 gacha
15	15 dan 25 gacha
25	25 dan 35 gacha
35	35 dan 50 gacha
50	50 dan 70 gacha
75	70 dan 90 gacha

Qishloq xo‘jalik va o‘rmon xo‘jaligi traktorlarining nominal tortish kuchi etib, ular o‘rtacha zamindagi va yerning normal (8 dan 18 % gacha) namligida, ekini yig‘ishtirib olingan dalada, tortish foydali ish koeffitsiyenti (f.i.k.) qiymati maksimal bo‘lgan sohada, texnikaviy tavsifda ko‘zda tutilgan foydalanish massasida (g‘ildirakli traktorlar uchun ballast yuk bilan), shataksirashning 4K2 va 3K2 traktorlari uchun 18%; 4K4 uchun 16 %; o‘rmalovchi traktorlar uchun 5% chegaraviy qiymatlarida erishadigan kuchi qabul qilingan.

Sanoat traktorlarining nominal tortish kuchi etib, u quruq zich tuproqda amalga oshira oladigan eng katta tortish kuchi hisoblanadi. Bu kattalik traktoring konstruksion massasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgani sababli, sanoat traktorlarining tortish sinfini ba’zan uning diapazoni bo‘yicha aniqlaydilar.

Xorijiy amaliyotda Xalqaro standartlash bo'yicha tashkilot (ISO) mos ravishda qishloq xo'jalik traktorlarini, traktorning quvvat olish valida (QOV) motorning nominal aylanish chastotasida o'lchangan, quvvat kategoriyasi (mezoni) bo'yicha tasniflash qo'llaniladi (1.4-jadval).

**1.4- jadval. G'ildirakli qishloq xo'jalik traktorlarining ISO bo'yicha quvvat mezonlari**

Motor quvvati bo'yicha mezoni	I	II	III	IV
ISO standarti bo'yicha o'lchangan QOVda quvvatning qiymati, kvt	48 gacha	92 gacha	80...185	150...350

Tortish kuchi bo'yicha (Rossiya, MDH davlatlari) va quvvat mezoni bo'yicha (ISO) tasniflash, agar energiya sig'imli operatsiyalarda MTA ishchi tezliklari kattaligi bo'yicha bir xil agrotexnik va energetik chetlanishlar qabul qilinsa, bir-biri bilan almashtirilishi mumkin (1.5-jadval).

**1.5- jadval. G'ildirakli qishloq xo'jalik traktorlarini tortish sinflari va motor quvvati bo'yicha tasniflashlar orasidagi nisbat**

Traktorning tortish sinfi	0,6 dan past	0,6; 0,9	0,9; 1,4; 2	2; 3; 4	5; 6; 8
Traktorning motor quvvati bo'yicha ISO mezoni	I	II	III	IV	

Qishloq xo'jalik traktorlarini harakatchan energiya vositasi sifatida qo'llanishining kengayib borish istiqbolini ikki parametr – tortish kuchi va motor quvvati bo'yicha tasniflash yaxshiroq ifodalab beradi.

### **1.3. Traktorning asosiy mexanizmlari va tizimlari**

Traktor belgilangan vazifalarni bajaruvchi mexanizm va tizimlarning majmuasidan iborat bo'lib, ularni quyidagi asosiy guruhlarga bo'lish qabul qilingan: motor, transmissiya, yurish tizimi,

traktorning tagi, traktor harakatini boshqarish mexanizmlari, kabina, elektr jihozlari tizimi, ishchi va yordamchi jihozlar, traktorning osma gidravlik tizimi.

*Motor* traktorda harakatlanuvchi energiya vositasi vazifasini bajaruvchi energiya manbai hisoblanadi. Traktorga o'rnatilgan motor, uning ishiga xizmat qiluvchi qurilmalar bilan birga kuch qurilmasini tashkil etadi. Zamonaviy traktorlarda dizellar eng ko'p tarqalgan. Benzin motorlaridan kichik mexanizatsiya vositalarida va traktorlarning quvvatli dizellarni ishga tushiruvchi motor sifatida foydalanadilar.

*Transmissiya* burovchi momentni motordan yetaklovchi g'ildiraklarga va tobe quvvat olish vallariga (QOV) uzatish, uning o'zgarishi, yo'nalishini, etaklovchi g'ildiraklarning aylanish chastotasini o'zgartirish, traktorni joyidan ohista qo'zg'alishi va to'xtashi uchun xizmat qiladi. U asosan ketma-ket joylashgan agregatlar – g'ildirakli traktorda ilashish muftasi 4, uzatmalar qutisi (UQ) 10, markaziy (bosh) uzatma 5, differensial 9 (1.17- a rasm), oxirgi uzatmalarni birlashtiradi. O'rmalovchi – zanjirli traktor transmissiyasida (1.17- b rasm) differensial o'rniga burilish mexanizmi o'rnatilgan. Traktorning ishlash sharoiti va vazifasiga qarab, transmissiyaga uzatishlar sonini o'zgartirish uchun xizmat qiladigan qo'shimcha agregatlar: burovchi momentni ko'paytirgich va yurishni pasaytirgich, shuningdek 4K4 traktorlarida taqsimlovchi quti kiritilishi mumkin.

*Ilashish muftasi* 4 motor valini va UQ birlamchi valini qisqa vaqtga ajratish uchun xizmat qiladi. Bu uzatmalarni zarbsiz qayta ulash, traktorni qisqa muddatga to'xtashlari, uni joyidan ohista qo'zg'alishi, shuningdek tobe QOV ni boshqarish uchun zarur.

*Uzatmalar qutisi* 10 harakat tezligini va traktor berayotgan tortish kuchini o'zgartirish maqsadida transmissiyaning uzatish sonini o'zgartirish, orqaga yurishni amalga oshirish, uzoq vaqt to'xtab turishda va traktor statsionar ishlarni bajarishida transmissiyani ishlab turgan motordan ajratib qo'yish uchun xizmat qiladi.

Traktor jihozlarni tortishda yoki oldiga osilgan jihozni itarishida (masalan, buldozer otvalini) ilgakdag'i o'zgaruvchan yuklamalar sharoitida ishlaydi. Tashqi yuklamaning o'zgarish xarakteri ishchi quroqlning turiga, yer yoki tuproqning relyefi va tarkibiga, harakat

tezligiga bog'liq. Qisman yuklamalar motorni dinamik sifatlari hisobiga yengib o'tishi mumkin. Biroq, burovchi moment zaxirasi tugaganda motorni o'chib qolishini oldini olish va traktorni to'xtatish uchun pasaytirilgan uzatmaga o'tish zarur, ya'ni motor vali va etaklovchi g'ildirak orasidagi uzatish sonini o'zgartirish zarur. Ko'pchilik zamonaviy qishloq xo'jalik traktorlarida oldinga yurish uzatishlar soni 18–36 gacha va undan ko'p bo'lgan ko'p pog'onali mexanik UQ tarqalgan. Yuklamalarning katta dinamikligi bilan qishloq xo'jalik traktorlaridan farq qiluvchi sanoat va o'rmon ishlab chiqarishi traktorlarida mexanik pog'onali UQ bilan birgalikda gidrodinamik uzatmalardan keng foydalaniladi.

*Markaziy uzatma 5* umumiyligi uzatishlar sonini oshirish uchun, shuningdek, ko'pchilik traktorlarda burovchi momentni ularning ko'ndalang tekisligida joylashgan vallarga uzatish uchun xizmat qiladi. U odatda konusli yoki silindrik doimiy ilashmadagi tishli juftlik qilib bajariladi.

*Oxirgi uzatma 6* transmissiyaning umumiyligi uzatishlar sonini oshirish uchun, ba'zi hollarda esa – traktorni zaruriy yo'l tirqishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. U odatda doimiy ilashmadagi tishli g'ildiraklar juftidan iborat bo'ladi.


*Traktorning yurish tizimi* yetaklovchi g'ildiraklarning aylanma harakatini traktorni ilgarilanma harakatiga o'zgartirishda, traktor og'irligini tayanch yuzasiga uzatishda, shuningdek uni tagligini ushlab turishda xizmat qiladi. U birinchi ikki vazifani bajaruvchi harakatlantiruvchi (g'ildirakli yoki o'rnmalovchi zanjirli) va osma – harakatlantiruvchini traktor tagligi bilan ulovchi qurilmadan iborat.

*Traktorning tagligi* traktor agregatlarini o'rnatish uchun asos hisoblanadi. U rom, uning qismlari yoki quyma konstruksiya ko'rinishida bajariladi.

*Traktor harakatini boshqarish mexanizmlari* yurish tizimiga ta'sir ko'rsatib, traktorning harakat yo'nalishini saqlaydi yoki o'zgartiradi, uni to'xtatadi va qiyalikda qo'zg'almas holatda tutib turadi.

G'ildirakli traktorlarda ularga boshqariluvchi g'ildiraklarning yoki burilmaydigan g'ildiraklari bilan taglikni yarim romlarini zarur holatini o'rnatuvchi rul boshqaruvi va tormozlar kiradi. Turli tarafda joylashgan yetaklovchi g'ildiraklarning aylanish chastotalari nisbati

ularning o'zaro sirpanishiga yo'l qo'ymaydigan differensial bilan ta'minlab beriladi.



### 1.17-rasm. Traktorning asosiy agregatlari va qismlari:

- a - g'ildirakli; b - o'rmalovchi zanjirli; 1 – boshqariluvchi g'ildirak; 2 – oldingi ko'priki; 3 – motor; 4 – ilashish muftasi; 5 – markaziy uzatma; 6 – oxirgi uzatma; 7 – osish mexanizmi; 8 – etaklovchi g'ildiraklar; 9 – differensial; 10 – uzatmalar qutisi; 11 – yo'naltiruvchi g'ildirak; 12 – yetaklovchi g'ildirak (yulduzcha); 13 – planetar (sayyoraviy) burilish mexanizmi; 14 – tirkama qurilmasi; 15 – oraliq birikma; 16 – o'rmalovchi zanjir.

O'rmalovchi zanjirli traktorlarda burilish, turli bortlardagi o'rmalovchi zanjirlar harakat tezliklari nisbatini o'zgartiruvchi maxsus burilish mexanizmlari bilan amalga oshiriladi. Tormozlar ularning tarkibiy qismi hisoblanadi.

*Traktorning kabinasi* (ishchi o'rni bilan) traktor ag'darilib ketganda shikastlanishlardan, tushayotgan va kirayotgan narsalardan, noqulay tabiat – iqlim sharoitlaridan, motorning vibratsiyasi va shovqinidan himoya qilish uchun xizmat qiladi, traktorchiga unumdar va qulay ish sharoitini ta'minlab beradi.

*Elektr jihozlari tizimiga* elektr energiyasi manbalari (elektr generatorlar, akkumulyatorlar) va uni iste'mol qiluvchilar – motorni ishga tushurish qurilmasi, ichki va tashqi yoritish asboblari, tovush signalini, oyna tozalagichlar, nazorat asboblari, elektron jihozlar va shunga o'xshashlar kiradi.

*Ishchi va yordamchi jihozlar asosan, traktor ilgakdagagi tortish kuchidan foydalanish bilan ishlarni bajarishi uchun, uning motori quvvatini bir qismini shatakdagi mashina – qurollarning ishchi organlari yuritmalariga yoki motorni hamma quvvatini MTA statsionar ishlashiga uzatish uchun xizmat qiladi. Bunda *ishchi jihozlar* deganda odatda traktorga doimiy o'rnatilgan agregatlar – shatak qurilmasi, turli QOV ko'zda tutiladi, *yordamchi jihozlar* deganda esa alohida ishlarni bajarish uchun traktorga qo'shimcha o'rnatiladigan agregatlar – yuritma shkvilar, tirkamaning tormoz mexanizmlariga pnevmo-yuritmalar va shunga o'xshashlar nazarda tutiladi.*

Gidravlik osma tizim – traktor ishchi jihozlarining mustaqil qismi bo'lib, turli-tuman mashina-qurollarni bevosita traktorda maqsadga muvofiq joylashtirish ularni traktorchining ish joyidan turib boshqarishga imkon beradi. U MTA ishining texnologik jarayonini avtomatik sozlashga imkon beruvchi ko'tarish qurilmasi (osish mexanizmi) va gidravlik tizim (gidravlik mexanizmlar) dan iborat.

#### **1.4. Traktorni turkumlari va uni maqsadga muvofiq qurish negizlari**

Xalq xo'jaligida traktorlarni maqsadga muvofiq qo'llash uchun turli-tuman nusxa va modellarni yaratish bo'yicha ishlarni tartibga solish zarurligi turkumlarni ishlab chiqishga sabab bo'lgan edi.

*Traktorlarning turkumlari* – mamlakat xalq xo'jaligi ehtiyojini qondirish uchun mo'ljallangan traktorlarning bir andozadagi o'lchamlari va modellarini texnik va iqtisodiy asoslangan to'plamidir.

Turkum alohida sinflardan iborat bo'ladi.

*Sinf* deb traktorlarning bir xil asosiy tasniflash parametrlariga ega bo'lgan bir andozadagi o'lchamlari va modellarini to'plamiga aytildi.

*Traktorning bir andozadagi o'lchami* – ma'lum maqsadga, turga, tortish sinfiga va quvvatga mansub o'rmalovchi, umumiyl vazifadagi, 3-sinf, quvvati 150 o.k. bo'lgan qishloq xo'jalik traktori.

*Traktorning modeli* – berilgan bir andozadagi o'lchamli traktorni aniq konstruktiv bajarilishi.

*Asos modeli* – berilgan tortish sinfigagi o'zgartirilgan turlari bo'lgan traktorning eng ko'p tarqalgan modeli. Ular sinfda odatda

ikkitadan kam bo‘lmaydi: bittasi ishlab chiqarishda va foydalanishda, ikkinchisi esa foydalanishda, biroq ishlab chiqarishdan olingan bo‘ladi.

*O’zgartirilgan tur* – vazifasi yoki qo‘llanish doirasi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan, asos modelidan hosil qilingan, qator asosiy agregatlari va qismlari bo‘yicha u bilan bixillashtirilgan traktor.

Traktorlarini birinchi turkumlashni tayyorlash davrida sinfning asosiy eng barqaror tasniflash parametrlarini tanlashga muhim o‘rin ajratilgan edi. O’sha davrda eng ko‘p tarqalgan qishloq xo‘jalik traktorining tortish sifatlarini ta’riflovchi turli parametrlar sinchiklab tahlil qilindi – motor quvvati, tortish quvvati, u ishlay oladigan plugning korpuslari soni va bevosita ilgakdag‘i tortish kuchi. Foydalanish tajribasi ko‘rsatdiki, barcha bu ko‘rsatkichlar, oxirgisidan tashqari, nihoyatda barqaror emas va asosan, MTA ni harakat tezligiga, harakatlantiruvchining turiga va tuproq sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Traktorni yaqin tortish qarshiligidagi ega turli mashinalar-qurollar bilan aggregatlash imkoniyatini belgilovchi tortish kuchi eng barqaror ko‘rsatkich bo‘lib chiqdi. Yuqorida ta’rifi berilgan nominal tortish kuchi – sind turkumning asosiy tasniflash ko‘rsatkichini tanlashni belgilab berdi.

Turkumlashni qurish asosiga uchta asosiy negiz qo‘yilgan:

– traktor modeli ko‘rinishida amalga oshiriladigan bir andozadagi o‘lchamlar to‘plami va sonini iqtisodiy soz bo‘lishi. Bir andozadagi o‘lchamlar qancha kam bo‘lsa, ulardan har birini ishlab chiqarish ko‘lami o‘rtacha shunchalik katta, ya’ni tannarxi past bo‘ladi. Biroq agar ularning soni haddan tashqari chegaralansa, unda eng qulay o‘rniga haddan ziyod yoki haddan kichik traktorni ishlatishga to‘g‘ri keladi, bu tejamkor va unumdar emas.

– traktorning har bir sindagi nominal tortish kuchi va tezligi MTA eng yuqori unumdarligini ta’minlaydi.

– traktorning har bir sindagi tortish kuchi diapazoni (qamrovi) chekka ishchi uzatmalar tortishi bilan qo‘shni sinflar tortishini qaytadan qoplab olishni ta’minlaydi. Oxirgi nuqtai nazar MTA ni yuqori ish unumdarligini, ularning tortish qarshiliklarini har qanday qiymati uchun kafolatlaydi.

1946-yilda HATIda ishlab chiqilgan birinchi traktorlarni turkumlash oltita tortish sinfiga ega edi: 0.6; 0.9; 1,4; 2, 3 va 6 (9), bu

yerda oxirgi ikkala qiymat ham o'rmalovchi traktorning bitta modeliga tegishli bo'l shiga qaramay, 6-sinf qishloq xo'jalik traktorlariga, 9 esa - sanoat traktorlariga kiradi. Farq shundaki, qishloq xo'jalik traktorining asosiy tezligi 1 m/s (3,6 km/soat), sanoat traktorini esa – 0,6 m/s (2,2 km/soat) bo'lgan. Birinchi uchta sinfda harakatlantiruvchi g'ildirakli bo'lgan, qolganlarida esa – o'rmalovchi. Har bir sinfda motor quvvati va traktorning tezliklar diapazoni oldindan belgilab qo'yilgan.

Motor quvvati											
Tortish	30	100	150	200	250	300	350	400	450	500	kN
sinf	30	100	150	200	250	300	350	400	450	500	o.k
1.2	<input type="checkbox"/> 4K2 (universal, selektsiya uchun)										
1.3		<input type="checkbox"/> 4K2 (universal, o'ti yurur shassi)									
1.4			<input type="checkbox"/> 4K2, 4K4a (universal, o'ti yurur shassi)								
1.5				<input type="checkbox"/> 4K2, 4K4a; 3K2 (universal-haydov, pastachilik)							
1.6					<input type="checkbox"/> 4K2 (issiqsona uchun)						
1.7						<input type="checkbox"/> 4K2; 4K4a (universal-haydov)					
1.8							<input type="checkbox"/> 4K2, 4K4a, 3K2 (universal-haydov, pastachilik, sholikorlik, hik qayalik, tog' uchun)				
1.9								<input type="checkbox"/> 4K2; 4K4a; 3K2 (universal-haydov, pastachilik)			
2.1									<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (uzumchlik, lardagi, bog'dorchilik)		
2.2										<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (larda, tog' uchun)	
2.3											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (porta)
2.4											<input type="checkbox"/> 4K4a, 4K4b (universal-haydov)
2.5											<input type="checkbox"/> mobil energiega vositali (MEV)
2.6											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (umum foydalanshdagi, botqoqlik)
2.7											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (umum foydalanshdagi)
2.8											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri. 4K4e (umum foydalanshdagi)
2.9											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (umum foydalanshdagi, botqoqlik)
2.10											<input type="checkbox"/> 6K6 3...5 sinfdagi MEV
2.11											<input type="checkbox"/> 6K6 3...5 sinfdagi MEV
2.12											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (umum foydalanshdagi)
2.13											<input type="checkbox"/> 4K4B (umum foydalanshdagi)
2.14											<input type="checkbox"/> 4K4B (umum foydalanshdagi)
2.15											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (umum foydalanshdagi)
2.16											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (botqoqlik uchun)
2.17											<input type="checkbox"/> o'rmalovchi zanjri (umum foydalanshdagi)
2.18											<input type="checkbox"/> 4K4B (umum foydalanshdagi)


Eslatma: 6K6 - uch o'qli, hamma q'saralan yelakchi, bu xil diametri

### 1.18-rasm. Qishloq xo'jalik traktorlarini turkumlash

Hozirgi vaqtida amal qilayotgan 16 ta tortish sinfi ilgariroq ko'rib o'tilgan 1.2- va 1.3-jadvallarda keltirilgan, motor quvvati – tortish sinfi koordinatlarida qurilgan Hamdo'stlik mamlakatlari traktorlarining to'liq turkumlash 1.18- va 1.19-rasmlarda keltirilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, agar ilgari turkumlash traktor ishlab chiqaruvchi zavodlar uchun majburiy rejashash vazifasini bajargan bo'lsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan u faqat tavsiya xususiyatiga ega bo'lib qoladi. O'zbekistonda har ikkala turkumlash ham ishlataladi.

Traktorlarni istiqbolli turkumlashni ishlab chiqish ularning texnikaviy saviyasi va raqobatbardoshini muntazam oshirish talablariga javob beradi. Ular dunyo traktorsozligining eng barqaror g'oyalari – MTA unumidorligini oshirish, traktorchining mehnat sharoitini yaxshilash va traktorning ekologik sifatlarini takomillashtirishga muvofiq keladi.



**1.19-rasm. Sanoat, o'rmon ishlab chiqarishi va o'rmon xo'jaligi traktorlarini turkumlash**

## 1.5. MTA tarkibida ishlaganda traktorga qo'yiladigan talablar

Traktor turli-tuman mashinalar – qurollar bilan birga (MTA tarkibida) uning tasnifiy vazifasi sabab bo'lgan aniq texnologik jarayonni bajaradi. Qishloq xo'jalik traktorlari asosan tuproq yerda harakatlanadi, uning hosildorligiga harakatlantiruvchilarning ko'rsatayotgan bosimi ta'sir qiladi. Bunda ko'pchilik hollarda traktorlar yerga ekish oldidan ishlov berish davrida, qator hollarda esa haydaladigan ekinlarga keyingi ishlov berish uchun turg'un to'g'ri chiziqli harakatga ega bo'lishi kerak.

Umumiy vazifadagi sanoat traktorlari yaxshi o'tuvchanlik va turli ko'rinishdagи tuproqlar bilan ilashish, turli-tuman yer qazish va

shunga o'xshash ishlarni bajarishda yaxshi manevrchanlikka ega bo'lishi kerak.

Traktorlar ishlashining turli-tuman texnologik jarayonlari va atrof-muhit sharoitlari, ularga turlicha ba'zan qarama-qarshi talablar qo'yadi. MTA tarkibidagi traktorga turli foydalanish, iqtisodiy, texnik, ekologik va boshqa talablar qo'yiladi, ularni yuqorida keltirilgan talablar bilan birga shartli ravishda to'rtta asosiy guruhga bo'lismumkin: 1) MTA ishslash texnologik jarayonining talablari; 2) Texnik – iqtisodiy talablar; 3) Umumtexnikaviy talablar; 4) Mehnat muhofazasi, harakat xavfsizligi va atrof-muhitni himoyalash talablari.

*MTA ishslash texnologik jarayonining talablari* qilinayotgan ishni sifatli bajarish uchun sharoitni ta'minlab berishi kerak. Qishloq xo'jalik traktorlarining tuproqni buzilishi, hosildorligini pasayishiga va unga ishlov berish jarayoni yomonlashuvini keltirib chiqaradigan asosiy agrotexnik talablar quyidagilar hisoblanadi:

Harakatlantiruvchilarining yerga bosimi kichik bo'lishi (o'rnatilishga traktor uchun 0,045 MPa dan ortiq emas, g'ildirakli traktor uchun 0,08–0,11 MPa);

– traktor ishlov berilayotgan yer tuzilishini saqlash maqsadida nisbatan kichik harakat tezligi;

– mashina-qurollarning katta majmui bilan ularni traktorga o'rnatilishi bo'yicha ham, ilgakdagagi zaruriy tortish kuchi bo'yicha ham agregatlanish qobiliyatini;

– traktor tagligini eng kam burchak va chiziqli tebranishlarida MTA to'g'ri chiziqli harakatining ravnligi va barqarorligi;

– eng kam burilish radiusi bilan ta'riflanuvchi, qatorlarida ishlaganida MTAning harakat manevrchanligi;

– traktorning yetarlicha agrotexnik va yo'l tirqishi (klirens) va shudgorlanuvchi (chopiq) ekinlarga ishlov berish uchun himoya sohalari.

Oxirgi ikki talablar asosan g'ildirakli universal – chopiq traktorlariga tegishli.

*Texnik – iqtisodiy talablari* barcha traktorlarga taalluqli. Ulardan eng muhimi MTA yuqori unumdarligi va tejamkorligi hisoblanadi. Unumdarlik bir soatdagi ish hajmi bilan baholanadi. U qishloq xo'jalik MTA uchun, asosan, uning qamrov kengligi va harakat tezligiga (ga/soat), ya'ni traktorni tortish kuchi, uzatmalar soni va

qamrovi (diapazoni)ga, harakatlantiruvchilarning shataksirashi (joyida sirpanishi) kattaligiga bog'liq bo'ladi. Siklli ish tabiatiga ega sanoat MTA uchun bir soatdagi ish miqdori (hajmi) ko'pincha sikllar vaqtiga soniga, traktorning maksimal tortish kuchiga va surilayotgan tuproq massasiga (yer qazish ishlari uchun) bog'liq bo'ladi.

MTA ishining tejamkorligini odatda bajarilgan ish birligiga yonilg'i sarfi, ya'ni yonilg'i tejamkorligi bo'yicha baholanadi. Oxirgi ko'rsatkich esa asosan, motorning turli ish tartiblarida solishtirma yonilg'i sarfiga, MTA harakatining ishlamay to'xtab turgandagi yo'qotishlariga, uzatmalarini tanlashga va boshqa foydalanish sabablariga bog'liq bo'ladi. Yonilg'i tejamkorligining birliklari bo'lib, mos ravishda dala, yer qazish va transport ishlarini bajarishdagi kg/ga, kg/t, kg/(t.km) hisoblanadi.

*Umumtexnikaviy talablar* traktoring o'zini puxtaligini, unga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash qulayligini ta'minlashga qaratilgan.

Traktoring puxtaligi uning ko'pga chidamliligi, buzilmasdan (ishlamay qolishsiz) ishlashi, ta'mirlashga yaroqliligi va saqlanuvchanligi bilan ta'riflanadi.

Ko'pga chidamlilikning asosiy ko'rsatkichlari o'rtacha xizmat muddati va resurs hisoblanadi. Xizmat muddati – traktordan foydalanish jami vaqtining taqvimi (yillarda) davomiyligidir. Traktoring xizmat muddati 8–15 yil chegaralarida bo'ladi va uning yillik yuklanishi (ishlatilishi) hamda foydalanish sifatiga bog'liq. Resurs traktoring agregat va qismlarini ular chekli holatga yetguncha bajangan ish hajmini (soatlarda yoki motosoatlarda) ta'riflaydi. Turli agregatlar, qismlar va detallar uchun resurs 6–10 ming motosoat chegaralarida o'zgarib turadi.

*Mehnat muhofazasi, harakat xavfsizligi va atrof-muhitni himoyalash talablari* traktorchini MTA ishlaganda mehnatini yengillashtirish va xavfsizligiga butkul qaratilgan.

Ulardan asosiyлари quyidagilar hisoblanadi:

– traktorchining ishlash qulayligini ta'minlash (uning o'rindig'i osmasini takomillashtirish, kabina ichida zaruriy mikroiqlim yaratish, undagi shovqin darajasini kamaytirish va shunga o'xshashlar);

- traktorning harakati va gidroosma tizim ishlashini boshqarish organlarida kuchlar kichik bo‘lishi va ularni traktorchiga nisbatan qulay joylashuvi;
  - MTA harakatida, uni qiyaliklarda to‘xtab turishida tormoz mexanizmlari ishlashining puxtaligi;
  - traktorda shikastlanishdan xavfsiz, u ag‘darilib tushganda himoyalovchi moslamalari bo‘lgan kabina qo‘llash;
- MTA tashqi shovqin darajasi kichikligi;
- Ishlatilgan moy, yonilg‘i va boshqa zaharli moddalarni yerga tushmasligi, motordan chiqayotgan gaz (tutun) va tabiatni ifloslantiruvchi zaharli yejilish mahsulotlarini zarari kamligi.

## **2-bob. TRAKTOR MOTORLARI**

Dizel motori – traktorlarda qo'llaniladigan motorlarning asosiy turidir.

Dizel motori deb, silindrlar ichida hosil bo'ladigan havo-yonilg'i aralashmasining yonish jarayonida mexanik energiyani hosil qiluvchi porshenli motorga aytildi. Dizel silindrlari yonish kamerasiga mayda zarralar shaklida purkaladigan yonilg'ining o'z-o'zidan yonishi yonilg'i tomchilarining oksidlanishi va siqish jarayonida qizigan havo bilan kontaktga kirishuvi natijasida sodir bo'ladi.

Dizellarga yonilg'i sifatida xom neftdan to'g'ridan-to'g'ri haydash yoki boshqa texnologik jarayonlar orqali olinadigan va  $255\dots280^{\circ}\text{C}$  haroratda 50% miqdorda qaynab chiquvchi hamda  $330\dots360^{\circ}\text{C}$  haroratda deyarli to'liq (90%) qaynab chiquvchi uglevodorodlar ishlataladi. Uglevodorodli yonilg'i uchun harorat uning cho'kmalanishi uchungina emas, balki loyqalanishi uchun ham ta'sir qilib, bunda yonilg'i filtrlarini parafin kristallari bilan to'lib qolishi jadallahshadi.

Dizel motorlarning benzinli motorlarga nisbatan quyidagi afzallikkabi bo'lib, ularni traktorlarda ko'proq qo'llanilishiga olib keladi:

- nisbatan yuqori yonilg'i tejamkorligi (30...40 %);
- motorni ishlatalish va yonilg'ini saqlash jarayonida nisbatan kam yong'in xavfsizligi;
- dizel ishlatalilgan gazlarida zaharli va konserogen moddalarning kamligi;

Shu bilan birga bir xil quvvatli benzinli motorga qaraganda dizel:

- presizion yonilg'i ta'minlash apparaturasi hisobiga nisbatan yuqori narxi;
- silindrillardagi yuqori gaz bosimi natijasida yuqori yuklanishlarga uchraydigan detallarning mustahkamligi, issiqbardoshliligi va ishqalanishga chidamliligin oshirish uchun ko'proq metall sarfi;
- atrof-muhitning past haroratlarda yurgazib yuborishning qiyinlashuvi;
- shovqin va vibratsiyaning ortiq miqdorlarda bo'lishi kabi kamchiliklarga ega.

Traktor dizellarini ishlab chiqaruvchi yetakchi firmalar yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish ustida ko'plab tadbirlarni amalga oshirmoqdalar.

Benzinli motorlardan (juda kam miqdorda) mini-traktorda, motobloklarda, kichik mexanizatsiya vositalari va quvvatli dizellarni yurgazib yuboruvchi motorlari sifatida foydalaniladi.

## **2.1. Dizel motorining tuzilishi, uning ishchi sikli, energetik va iqtisodiy ko'rsatkichlari**

**Dizelning tuzilishi va ishlash tamoyili, uning mexanizmlari va tizimlari vazifasi** (2.1-rasm, a). Silindrlar porsheni 1, teskari to'ntarilgan stakan shakliga o'xshab, porshen barmog'i yordamida shatun 2 ning yuqori kallagi bilan sharnirli bog'langan bo'ladi, pastki kallagiga krivoship 3 ning shatun bo'yinchasi kiygazilgan. Krivoshipning tayanch (o'zak) bo'yinlari karter 5 ning yuqori yarmi ko'ndalang devorchalarda joylashgan podshipniklarda aylanadi. Krivoship o'zining bo'ylama o'qi atrofida aylanganida porshen, uning uchun yo'naltiruvchi yuza vazifasini bajaradigan 6 silindrda ilgarilanma-qaytma harakat sodir etadi. Karterning pastki yarmi poddon 4 bo'lib, u moylash materiali (moy) uchun rezervuar bo'lib xizmat qiladi.

Ko'p silindrli dizelda uning krivoshiplari yagona detal – tirsaklı valga, silindrler – silindrler blokiga yig'ilgan bo'ladi. Silindrler bloki va karterning mustahkamligini oshirish uchun ularning odatda yagona quyma detal–blok–karter tarzida ishlab chiqariladi. Blok–karter ust tomondan barcha silindrler uchun umumiy yoki har bir silindr uchun alohida kallaklar 7 bilan yopilgan bo'lib, ularda dizelning gaz taqsimlash mexanizmlari joylashgan bo'ladi. Ular silindrغا tozalagich 10, kiritish quvuri 8 va ochiq klapan 9 orqali o'tgan havoning kiritilishini, shuningdek yonish kamerasidan yonish mahsulotlarning ochiq chiqaruvchi klapan 12 va quvur 13 orqali atmosferaga chiqib ketishini ta'minlaydi. Klapanlar harakatini taqsimlash valida tayyorlangan kulachoklar 11 boshqaradi.

Silindr kallagidagi forsunka 14 orqali porshen tubida joylashgan yonish kamerasini to'lg'azgan havoga yonilg'i mayda zarralarga bo'linib purkaladi. Purkalgan yonilg'inining yonishidan hosil bo'lgan

gazlar silindriddagi bosimning keskin ortishiga olib kelib, porshenni pastga tushishini va krivoshipning (tirsakli valning) aylanishini keltirib chiqaradi, bu o'z navbatida traktorning transmissiya va yurish qismiga uzatiladi. Gazlar tomonidan bajariladigan ish va aytish mumkinki, dizelning quvvati purkaladigan yonilg'i miqdoriga bog'liq bo'ladi.


Lekin bunday o'zgarish silindrillardagi mavjud havo miqdoriga proporsional o'zgarishda bo'lmoq'i lozim, aks holda yonilg'inining yonishi to'liq bo'lmay, ishlatilib bo'lingan gazlarda zaharli moddalar va qattiq zarralar – qurum ortishiga olib keladi (uglerod oksidi, yonmagan uglevodlar va boshqalar).

Silindr havo bilan to'lishini ko'paytirish uchun havoni dastlab maxsus kompressorda siqib purkash qo'llaniladi.

Turbokompressor yordamida havoni purkash keng tarqalgan bo'lib, unda markazdan qochma kompressorning ishchi g'ildiragi gaz turbinasi g'ildiragi bilan birga valga mahkamlangan (2.1-rasm, b).

Dizel silindrlerda ishlab bo'lgan gazlar chiqarish quvuri 13 orqali turbinani yig'uvchi qismiga tushadi, undan ishchi g'ildirak 19 kuraklarining radial kanallariga o'tadi. Atmosfera havosi 21 quvur orqali kompressor g'ildiragining 20 kuraklarining qisqaruvchi kanallarga tushadi.

Markazdan qochma kuch ta'sirida havo siqiladi, yig'uvchi bo'shliqqa o'tib, bevosita dizel silindrleriga yoki sovitkich 22 ga tushadi.



2.1- rasm. Dizellarning prinsipial sxemasi:

a) purkagichsiz; b) gazoturbinali rostlatgichli purkagichli va purkaladigan havoni sovitish tizimli

Unda kompressordagi siqilgan havo soviydi va o‘z zichligini oshiradi. Purkaladigan havoning sovishi dizelning sovitish tizimi ventilyatori 23 tomonidan so‘riladigan atmosfera havosi orqali (sxemadagi kabi) yoki ushbu tizim radiatorlardan o‘tadigan suyuqlik tomonidan sovitiladi.

Turbokompressor tomonidan yaratiladigan purkalanuvchi havoning bosimi avtomatik klapan 16 tomonidan rostlanadi. Ma’lum bosimda diafragma 15 yuqoriga egiladi, klapan 16 ko‘tariladi va ishlab bo‘lgan gazlarning bir qismi turbina 19 ga bormay, dizel chiqaruvchi quvuri orqali chiqib ketadi. Bu holda turbokompressor motorning aylanishlar soni va u tomonidan yaratiladigan purkash bosimi stabillashadi.

Dizel ikki mexanizmga ega: krivoship-shatun mexanizmi va gaz taqsimlash mexanizmi.

*Krivoship-shatun mexanizmi* valning aylanma harakatini yuzaga keltirib, undan burovchi moment iste’molchilarga yetkazib beriladi.

Qo‘zg’almas detallarga quyidagilar kiradi:

– blok-karter, qopqoq va tirsakli valning o‘zak podshipniklar qistirmalari bilan birga;

– blok-karterga mahkamlangan umumiyligi (yoki alohida) silindrlar kallagi, moy poddoni, maxovik karteri, gaz taqsimlash mexanizmi yuritmasi qopqog‘i. Bu detallar dizel asosini tashkil etib, unga yordamchi agregatlar, shuningdek kronshteynlar o‘rnataladi.

Qo‘zg’aluvchan detallarga quyidagilar kiradi:

– kompressiya va moy sidirish halqlarini bilan porshen, porshen barmoqlari va uni mahkamlash detallari yig‘masi (porshen guruhi);

– porshen barmog‘i vtulka podshipnigi, uning krivoship kallagi qopqog‘i, shatunni mahkamlash boltlari bilan birga shatun, shatun podshipnigi qistirmalari (shatun guruhi);

– tirsakli val og‘irlilik toshlari, aylanma tebranishlar so‘ndirgichi, maxovik, gaz taqsimlash mexanizmi yuritma yetakchi detallari va yordamchi agregatlar bilan birgalikda (krivoship guruhi);

*Gaz taqsimlash mexanizmi* dizel silindrlarga atmosfera havosini o‘z vaqtida kirishi va ularda ishlatib bo‘lingan gazlarni chiqib ketishini ta‘minlaydi. U yuritmaning yetaklanuvchi detallari, klapanlar yuritmalari kulachokli taqsimlash vali, turtkichlar, shtangalar va o‘qli

eshkaklar hamda o‘qlar tayanchi, purjina, klapanlar va ularni mahkamlash detallaridan iborat.

Dizel tizimlari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

*Havo bilan ta’minalash tizimi* dizel silindrlariga tozalangan havoni bevosita atmosferadan, yoki kompressordorda siqilgandan so‘ng sovitkichdan kiritilishini ta’minlaydi. Bu tizim havo tozalagich, tozalangan havoning changlik darajasi indikatori, purkash agregati kompressorori, purkaladigan havoning sovitkichi va havo quvurlaridan iborat.

*Yonilg‘i bilan ta’minalash tizimi* traktorda yonilg‘i zaxirasini saqlash, uni tozalanishi, dizel ish tartibiga ko‘ra dozalanishi, silindrlarga berilgan qonuniyat asosida va eng maqbul vaqtida mayda tomchilar shaklida purkalishini amalga oshiradi. Tizim yonilg‘i baki, yonilg‘ini dag‘al va mayin tozalash filtrlari, haydovchi nasos, yuqori bosimli nasos, dizel aylanishi chastotasi rostlagichi, yonilg‘ini qismlab uzatish korrektori, yuqori va past bosimli quvurlar hamda forsunkalardan iborat.

*Ishlatilgan gazlarni chiqarib yuborish tizimi* silindrlardan yonish mahsulotlarini bevosita atmosferaga yoki purkash agregati turbinasi orqali chiqib ketishini ta’minlaydi. Ushbu tizim gazlarni o’tkazib yuborish kulachokli yoki busiz turbina, ishlab bo‘lgan gazzlardagi zaxarli moddalar va qurum miqdorini kamaytirish qurilmasi, uchqun so‘ndirgich, gaz quvurlaridan iborat.

*Sovitish tizimi* dizelni, uning ishlash tartibi va atrof-muhit haroratiga bog‘liq ravishda, yonilg‘i yonish chog‘ida va qo‘zg‘aluvchan detallar ishqalanishida ajralib chiqadigan issiqlikning bir qismini sovituvchi agentga uzatish hisobiga, eng maqbul issiqlik holatida bo‘lishini ta’minlaydi.

Sovitish agregati sifatida maxsus suyuqliklar yoki atmosfera havosi ishlatiladi. Sovitish tizimi agregati turiga ko‘ra: silindrlar va uning kollektrlarini sovitish ko‘ylaklari, nasos, ventillar, radiator, ularash quvuri va shlanglari; yoki silindr va uning kollektrlarini sovitish qovurg‘alari, ventilator, deflektorlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Ikkala tizim ham termostatlar, ventilator aylanishlar tezligini yoki uning elektr yuritmasini avtomatik rostlovchi qurilmalar, gidravlik, qovushqoq yoki elektromagnit muftalardan iborat.

*Moylash tizimi* dizel quvvatini uning harakatlanuvchi detallari ishqalanishiga sarf bo'lishini kamaytirish va ishqalanish issiqligini ular orasida moylovchi qatlam hosil qilish evaziga olib ketilishini ta'minlaydi. Tizim moy rezervuari, moy qabul qiluvchi nasos, dag'al va mayin moy tozalash filtrlari, moy sovitkichi, saqlovchi va o'tkazib yuboruvchi klapanlar, quyish bo'yinchasi, to'kish tiqini, moy sathini o'lchovchi qurilma, quvurlar va bog'lovchi shlanglardan iborat.

*Karterni ventilyatsiyalash tizimi* porshennenning komperession halqalari orasidan karterga o'tgan gazlar bosimini dizelning kiritish traktidagi siyraklashgan bo'shliqqa so'rish orqali berilgan chegaralarda tutib turishni ta'minlaydi. Bu soha quvur o'tkazgichda havo tozalagichdan keyin, lekin turbokompressor oldida joylashtiriladi. Bu tizim karter gazlaridan moy tomchilarini ajratgich va gazlarni olib ketuvchi quvurdan iborat.

**To'rt taktsli dizelning ishchi sikli indakator diagrammasi.** Dizel silindrida kechuvchi *ishchi sikl* deb birma-bir ketma-ketlikda kechuvchi fizik va kimyoiy jarayonlar majmuasiga aytilib, uning natijasida yonilg'i yonishidan hosil bo'lgan issiqlik miqdori mexanik ishga aylanadi.

Ishchi sikl dizel silindri ichidagi gazlar bosimi  $P$  (MPa) ning egallagan yoki porshen usti hajmiga nisbatan ( $\text{sm}^3$  yoki l) o'zgarish bog'liqligini xarakterlovchi indikator diagrammadan iborat (2.2-rasm).

Diagramma hisobiy yoki tajriba yo'li bilan olinishi mumkin. Birinchi holatda ma'lum termodinamik bog'liqliklar, ikkinchi holatda bosim o'lhash, signalni kuchaytirish va qayd qiluvchi asboblardan iborat majmuadan foydalaniladi.

Takt deb porshenni YCHNdan PCHNgacha yoki teskari siljishiga aytildi. Porshennenning yuqori qirrasi krivoship o'qidan eng yuqori holatda turish tekisligi YCHN (2.1-rasm) deyiladi. Porshennenning ushbu holatida krivoship yuqoriga yo'nalgan, shatur uning davom ettiruvchi va ularning ikkalasi ham silindr o'qi bo'ylab joylashadi. Porshen yuqori qirrasining krivoship o'qidan minimal uzoqlikda joylashuv tekisligi pastki chekka nuqta PCHN deyiladi. Ushbu holatda krivoship vertikal pastga yo'nalgan bo'ladi.

Ishchi sikl ikki va to'rt taktda amalga oshishi mumkin. Ko'pchilik traktorlar dizellari to'rt taktsli sikl asosida ishlab, bu holda yaxshi

yonilg'i iqtisodi, ishlab bo'lgan gazlarning eng kam tutunligi va zahariligidagi erishiladi.

Ikki taktli siklda dizellarning ishga tushiruvchi benzinli motorlar ishlamaydi.

Purkagichsiz (2.2-rasm, a) va purkagichli (2.2-rasm, b) dizellarning indikator diagrammasi, shuningdek ularing gaz taqsimlash fazalarining aylanma diagrammasi (2.2-rasm, d) da berilgan bo'lib, bunda kirituvchi va chiqaruvchi klapanlarning ochilish va yopilish momentlari keltirilgan.

I takt – kiritish takti  $r - \alpha$ , bunda krivoship  $\varphi = 0^\circ$  dan  $\varphi = 180^\circ$  buriladi, porshen o'z navbatida YCHNdan PCHNgacha siljiydi.

Ushbu takt davomida ochiq kiritish klapani orqali atmosfera havosi silindrda porshen bo'shatgan hajmni to'ldiradi. Kiritish klapanining ochilishi (I nuqta) porshen YCHNga kelgunicha boshlanadi. Kiritish klapanining bunday  $\varphi_1$  burchakka ilgarilab (tirsaklı val burilishi  $\varphi_1=10\ldots20$  YCHN gacha) ochilishini silindrga havo kiritish chog'ida klapan tirqishining ma'lum otish kesimini ta'minlash uchun kerak.

Krivoshipning keyinchalik burilishida klapan to'liq ochilishga erishadi, so'ngra yopilishi boshlanadi, ammo porshen PCHN ( $\alpha$  nuqta) ga kelguncha u qisman ochiq bo'ladi.


Silindrga tushuvchi havo oqimi silindr kallagidagi kiritish kanali vintsimon shaklda yoki silindr doirasiga tik qilib yasalganligi bois aylanma harakatga erishadi. Havoning ushbu aylanma harakati keyingi takt oxirigacha saqlanib qolinib, yonish kamerasiga purkaladigan yonilg'i bilan yaxshi aralashuviga olib keladi.

Purkagichsiz dizel silindrлardagi havo bosimi (2.2-a rasm) kiritish takti vaqtida atmosfera bosimi  $p_0$  dan past bo'lib, havo oqimining silindrлargacha bo'lgan harakatlanishida kiritish taktining qator qarshiliklariga uchraydi (havo tozalagichda, quvurlar yuzalarini burumlari va g'adir-budirliliklarida, kiritish klapani tirqishlarda). Shuning uchun kiritish takti oxirida bosim  $P_\alpha = 0,08\ldots0,09$  MPa ga teng.

Silindrga kiruvchi havo oldingi taktdan qolgan  $V_s$  hajmga va yuqori (1000 K gacha) haroratga ega ishlab bo'lgan qoldiq gazlar bilan aralashadi. Bundan tashqari, havo qaynoq yuzalar bilan (porshen tubi va silindrлar kallagi, shuningdek devorlari) tegishi natijasida

qiziydi. Natijada kiritish takti oxirida havo va ishlab bo‘lgan gazlar aralashmasi harorati  $T_a=310\ldots350$  K ga chiqadi. Ushbu qizish havo zichligini, binobarin, silindrni og‘irlilik jihatidan to‘lishini pasaytiradi. Purkashda (2.2-rasm, *b*), havoni kompressorda dastlabki siqishda uning bosimi kiritish takti oxirida 0,15…0,18 MPa ga, harorati 380…400 K gacha ortadi.

Purkaladigan havoning sovitilishi ushbu haroratni 330…340 K ga tushishiga, uning zichligi kamayishini muvozanatlashga olib keladi.



### 2.2-rasm. Dizellarning indikator diagrammalari:

*a* – purkashsiz; *b* – purkagich bilan; *d* – gaz taqsimlagich fazasi diagrammasi

II – takt – siqish takti *a* – *s* (2.2-rasm, *d*) bo‘lib, unda krivoship  $\varphi = 180^\circ$  dan  $\varphi = 360^\circ$  ga buriladi, porshen PCHNdan YCHNgacha silijiysi.

Ushbu takt boshlanishida kiritish klapanining yopilishi kechikishi  $\varphi_2=40\ldots60^\circ$  bo‘lib. o‘z yopilish yo‘lida harakatlanishiga qaramasdan silindr kallagidagi kiritish teshigini qisman ochiq qolishiga olib kelib faqatgina to‘liq 2 nuqtada yopilishga olib keladi. Ushbu davrda kirituvchi quvurda harakatlanayotgan havo oqimi inersiya kuchi natijasida silindrga uning ichidagi bosimni yengib kira boshlaydi.

Kiritish klapani yopilgandan so‘ng to‘lish jarayoni tugaydi va silindrda havoning siqilishi uning bosimi va harorati ortishi bilan amalga oshadi.

Indikator diagrammasidagi s' nuqtaga mos keluvchi porshen holatida, yonish kamerasiga forsunka orqali yonilg'i purkala boshlaydi. Bunda YCHNgacha porshen burilmay qolgan burchak–yonilg'i purkash boshlanishi ilgarilanma burchagi  $\theta$  deyiladi.

Purkalish chog'ida yonilg'i yuqori bosimi natijasida 60...150 MPa, shuningdek forsunka soplo teshiklarining kichik diametrlari hisobiga (0,17...0,35 mm), uning tomchilar mayda donachalarga (10...80 mkm) bo'linib ketadi. Uning 700...900 K dagi qizigan havo bilan siqish taktida aralashib ketish aralashma hosil bo'lishi jarayoni deb atalib, unda yonilg'i tomchilar qiziydi va oksidlanadi, shuningdek o'z-o'zidan yonishiga tayyorlanadi, bu esa porshenning indikator diagrammadagi s nuqtasiga mos holatida kechadi.

Porshenni YCHNgacha kelish momentida silindrda gazlar bosimi  $P_s$  va harorati  $T_s$  purkagichsiz dizellarda mos ravishda 4...5 MPa va 800...900 K ga teng bo'ladi. Purkagichli dizellarda bosim va haroratning yuqori qiymatlari natijasida bu parametrlar mos arvishda 6...7 MPa va 1000...1600 K ga teng bo'ladi.

III – takt – kengayish takti  $s - z - b$  bo'lib, buning davomida krivoship  $\varphi=360^0$  burchakdan  $\varphi=540^0$  gacha buriladi, porshen YCHN dan PCHN gacha siljib, ishchi yurish yo'lini bosib o'tadi. Ushbu takt davomida silindrda uchta jarayon sodir bo'ladi. yonish, yonish mahsulotlari kengayishi va ularning chiqishi – boshlanishi, vaholanki yonish siqish taktining oxiridayoq amalga osha boshlaydi.

Yonilg'ini yonish jarayonida silindrda gazlar bosimi va haroratining keskin oshishi yuzaga keladi. Silindrda yonilg'ini purkalishi davom etadi va YCHNdan keyin krivoshipning bir necha gradus burilishida tamom bo'ladi. Silindrda gazlar bosimining maksimal bosimi YCHN dan keyin  $10...15^0$  da, diagrammadagi z nuqtada yuzada kechib, purkalgan yonilg'i yonish natijasida ko'p miqdorda purkagichsiz dizellarda 7...9 MPa, purkagichli dizellarda 10...12 MPa ni tashkil etadi. Mos ravishda siklning maksimal haroratlari ham (1900...2000 K va 2100...2300 K) farq qiladi. Yonilg'i yonish mahsulotlari kengayishi jarayoni porshenni YCHNdan uzoqlashuvi jarayonidan boshlab kecha boshlaydi. Ushbu jarayon davomida kengayayotgan gazlar foydali mexanik ishni amalga oshiradi.

Indikator diagrammasidagi 3 nuqtaga mos keluvchi porshen holatida, chiqarish klapani ochila boshlaydi. Yonilg'i yonish mahsulotlarining chiqarilishi jarayoni krivoship chiqarish klapani ochilishini ilgarilash burchagi  $\varphi_3=40\ldots60^\circ$  to'liq  $540^\circ$  ga burilib ulgurmaganda boshlanadi.

Ushbu davr mobaynida silindrda yuqori bosim ostida chiqarish quvuri  $60\ldots70\%$  yonish mahsulotlari chiqib ulguradi. Silindrda quvuri 60...70% yonish mahsulotlari chiqib ulguradi. Silindrda quvuri 60...70% yonish mahsulotlari chiqib ulguradi. Silindrda yonish mahsulotlari chiqarish quvuriga yoki dizel turbokompressoriga tushadi.

Kengayish taktining oxirida silindrda gazlar bosimi va harorati quyidagicha ( $b$  nuqtada): purkagichsiz dizellarda  $P_b = 0,2\ldots0,3 \text{ MPa}$  va  $T_b = 1000\ldots1100 \text{ K}$ ; purkagichsiz dizellarda  $P_b = 0,4\ldots0,5 \text{ MPa}$  va  $T_b = 1200\ldots1300 \text{ K}$ . Ushbu parametrlar bilan gazlar traktorining chiqarish quvuriga yoki dizel turbokompressoriga tushadi.

IV – takt – chiqarish takti  $b - r$  bo'lib, buning davomida krivoship  $\varphi=540^\circ$  dan  $\varphi=720^\circ$  ga buriladi va ikkinchi aylanish tugallanadi, porshen PCHNdan YCHNga siljiydi. Porshen tomonidan siqilayotgan yonish mahsulotlari bir qator gazodinamik qarshiliklarni bosib o'tadi – klapan tirqishlari, chiqarish quvuri yuzalari burilishlari va g'adir-budirliklari, turbokompressor o'tish qismida, chiqarish shovqin pasaytirgichida, uchqun so'ndirgichda. Shuning uchun bunda ushbu taktda silindrda haydab chiqarilayotgan gazlar bosimi atmosfera bosimidan yuqori bo'lib, mos ravishda  $P_r = 0,12\ldots0,2 \text{ MPa}$ , harorat  $T_r = 900\ldots1100 \text{ K}$  ni tashkil etadi.

Lekin ushbu paytda chiqarish jarayoni tugallanmaydi, balki keyingi ishchi sikl (4 nuqta) boshlanishigacha chiqarish klapani yopilishi davom etadi. Chiqaruvchi klapanning yonishi ishning kechilish burchagi  $\varphi_4=10..20^\circ$  bo'lib, bunda kiritish klapani orqali kirayotgan havo orqali silindrda ishlab bo'lgan gazlarni siqib chiqarishga imkon beradi. Buning natijasida ishlab bo'lingan gazlar bilan havoning qizishi oqibatida silindrimi miqdoriy jihatdan ko'proq havo bilan to'ldirish imkonii bo'ladi.

Ikkita ketma-ket sikl orasidagi krivoshipning burilish intervali  $\varphi_1+\varphi_4$  (bunda kiritish klapani ochilishi boshlanadi, chiqarish klapani yopilishi tugallanadi, ya'ni ikkita klapan ham ochiq holatda bo'ladi) klapanlar ochiqligi deyiladi.

**Dizelning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.** Ishchi siklning o'rtacha indikator bosimi  $P_i$ , indikator diagrammasidagi qandaydir jarayonini tasvirlovchi chiziq ostidagi yuza, silindrda ushbu jarayonni gazlar tomonidan amalga oshiriladigan yoki uni bajarishga sarf etiladigan ishga proporsionaldir.  $F_{mszn}$  diagramma yuzasi yonish, kengayish va chiqarish jarayonlaridagi gazlar tomonidan bajariladigan ishga proporsionaldir (2.3- rasm).

$F_{nasm}$  yuza siqish jarayonini amalga oshirishga sarflanadigan ishga proporsionaldir.

Shunday qilib, foydali mexanik ishga o'zgartirish mumkin bo'lgan gazlaring natijaviy ishi ushbu yuzalar farqlariga proporsionaldir:

$$F_{foyda} = F_{mszn} - F_{nasm}$$

Silindrda porshen orqali gazlarni siqib chiqarishga doimo ish sarflanadi. Silindrni havo bilan to'lg'azishda ish sarflanishi (purkagichsiz dizellarda), shuningdek, sarflanmasligi mumkin (purkagichli dizellarda). Bu holda kompressorda siqilgan havo bosimi porshenni YCHNdan PCHNg'a siljishiga yordam beradi.


Indikator diagrammalarining siklning o'rtacha indikator bosimini aniqlash maqsadidagi qayta ishlashda sarflangan ishlarga nisbatan kichikligi bois, dizel mexanik yo'qotishlari sifatida qaratadi.

$F_{foyda}$  yuzani  $e$   $f$   $g$  lar to'g'ri to'rburchak yuzasiga yaqin qilib tasvirlanishi mumkin bo'lib, u  $V_h$  'silindr ishchi hajmi asosida qurilgan bo'ladi. Bunda ushbu to'g'ri to'rburchakning  $ef$  balandligi silindrda gazlar bosimi bir takt davomida bajargan va ular to'rt takt davomida bajaradigan ishga teng bo'lgan shartli o'zgarmasga teng deb olish mumkin. Ushbu bosim siklning o'rtacha indikator bosimi  $P$ , deb ataladi.

To'rt taktli dizelning indikator quvvati (kvt), ya'ni vaqt birligi mobaynida barcha silindrda gazlar  $R$ , bosim ostida bajarishi mumkin bo'lgan ish quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$N_t = \frac{P_i V_h n}{120}$$


bunda:  $P_i$  – bir silindrda sikhning o'rtacha indikator bosimi, MPa;  $i$  – dizelning silindrler soni;  $V_h$  – bir silindrning ishchi hajmi, l;  $n$  - dizel tirsakli valining aylanishlar soni, minutda.



2.3-rasm. Siklning o'rtacha indikator bosimini geometrik talqini

**Механик F.I.K.** Dizel silindrlardan sodir bo'ladigan ishning bir qismi uning detallarining ishqalanishiga, gaz taqsimlash mexanizmi va yordamchi agregatlar yuritmasi, shuningdek gaz almashuv jarayonlarini amalga oshishiga sarf bo'ladi. Gazlarning ushbu ish sarfi dizelni mexanik F.I.K  $\eta_m$  deb yuritiladi. Zamonaviy traktor dizellarida ushbu ko'rsatkich 0.8...0.9 chegarasida bo'lib, purkagichli dizellarda ko'proq qiymatga ega: Ishchi siklning o'rtacha samarali bosimi  $P_e$  dizel silindrda gazlar tomonidan bir siklni bajarishga sarflanadigan va mexanik FIK bilan bog'liq yo'qotishlarning hisobga olmagandagi bajaradigan ishga proporsionaldir. Ushbu ish dizel tirsakli vali orqali traktor transmissiyasiga uzatiladi. Ishchi siklning o'rtacha samarali bosimi  $P_e = P_i \eta_M$  MPa.

Quyida dizel nominal quvvat tartibida ishlashidagi  $P_e$  qiymatlari keltirilgan: Purkagichsiz  $P_e = 0,7 \dots 0,8$  MPa; Purkagichli  $P_e = 0,9 \dots 1,0$  MPa; Purkagichli va havo sovitgichli  $P_e = 1,0 \dots 1,2$  MPa;



#### **2.4- rasm. Dizelning tashqi tezlik tavsifi**

To‘rt taktli dizelning samarali quvvati (kvt) indikator quvvatining tenglamasiga o‘xhash ravishda bo‘ladi:

$$N_e = \frac{P_e i V \lambda n}{120}$$

$N_e$  samarali quvvatning dizel tirsakli vali aylanishlar soni  $n$  ga nisbatan o‘zgarish bog‘liqligi uning samarali quvvati tezlik xarakteristikasi deb ataladi. Agar bunda dizel silindrlarga purkaladigan yonilg‘i maksimal bo‘lsa (traktoring to‘liq yuklanishida mos ish tartibida), ya’ni yonilg‘ini yetkazib berish organi chegaraviy nuqtada bo‘lsa, dizel tomonidan erishiladigan quvvat ham maksimal bo‘ladi. Ushbu holda uning tezlik tavsifi tashqi deb aytildi (2.4-rasm).

Energiyaga to‘yingan traktorda motorning barcha quvvati harakatlantirgichning shataksirashi oqibatida ilgakdagagi tortishga yoki transmissiya detallaridagi yuqori yuklanishlarga cheklanish mavjudligi sabab to‘liq sarflana olmaydi. Shuning uchun traktorni ish sharoitiga bog‘liq ravishda, masalan uzilgan QOV yoki past uzatmalarda motorning  $M$  burovchi momenti, u bilan birga quvvat ham chegaralanadi.

Shuning uchun QOVni ulash mexanizmi yoki traktor uzatmalarini almashtirish mexanizmi bilan bog‘langan maxsus qurilma dizel yuqori bosimli yonilg‘i nasosi reykasingin yurishini cheklaydi.

Shunday qilib, motor o‘zining to‘liq quvvatiga QOV tomonidan qo‘sishimcha yuklanish berilganda yoki yuqori uzatmalarda harakatlandagina erishishi mumkin.

Tirsakli val aylanishlar soni  $n$  minimal turg‘un  $n_{min}$  qiymatdan rostlagich tomonidan cheklanadigan  $n_{on}$  gacha o‘zgarishi mumkin bo‘lib, bunda dizel tomonidan erishiladigan quvvat maksimal qiymatga – nominal quvvatga  $N_{en}$  chiqadi. Ushbu quvvat dizel ko‘rsatkichlarning biri hisoblanadi.

Litr quvvat  $N_l$  (kvt/l) dizel forsirovkalanganini baholovchi miqdor hisoblanadi.

$$N_l = \frac{N_{en}}{i V_n}.$$

Quyida turli modelli dizellarning litr quvvatlari qiymati keltirilgan: Purkagichsiz 10...15 kvt/l; Purkagichli 15...18 kvt/l; Purkagichli va havo sovitishli 19...21 kvt/l.

Turli nominal quvvatli  $N_{mn}$  silindr sonli i dizellarning qo'llanilish misollari 2.1-jadvalda ketirilgan.

$$M = 9550 \frac{N_u}{n}$$

U tajriba yo'li bilan elektrik yoki gidravlik tormoz qurilmasida sinash orqali aniqlanadi.

### 2.1-jadval

Turli nominal quvvatli  $N_{mn}$  silindr sonli i dizellarning qo'llanilish misollari

$N_{d_1}$ , kvt	i	Dizel qo'llanishi
10...25	2	Mini-traktorlar, motobloklar, kichik mexanizatsiya vositalari
25...70	4	Chopiq, haydov, bog'dorchilik – uzum va boshqa traktorlar, buldozerlar, ekskavatorlar.
70...180	6	Chopiq, haydov, trelli va boshqa traktorlar, buldozerlar, ekskavatorlar, greyderlar, yo'l – qurilish mashinalari.
180...300	6P 6V	Haydov va sanoat traktorlari, g'alla va silos o'ruchchi o'ziyurar kombaynlar
350 va undan ortiq	8V	Sanoat traktorlari, o'ziyurar makkajo'xori o'rish kombaynları

Eslatma: P – qatorli; V-simon 2 qatorli silindr joylashuvi

$M=f(n)$  tashqi tezlik xarakteristikasi 2.4-rasmda keltirilgan. Traktordagi yuklanish oshganda uning dizeli vali aylanishlar soni solt rejimdag'i maksimal qiymatdan  $n_{ex}$  dan  $n_{gh}$  ga tushadi. Ushbu kamayish kichik qiymatga ega bo'lib, avtomatik (7...10 %) tarzda yuklanish tushganda beriladigan yonilg'i miqdorini oshiruvchi rostlagich tomonidan qoplanadi.

Buning natijasida burovchi moment M noldan  $N_{gh}$  dizel nominal quvvatiga mos keluvchi  $M_{mn}$  qiymatgacha chiqadi. M xarakteristikasining ushu qismi uning rostlash tarmog'i deyiladi.

Traktorning keyinchalik yuklanishida, ya'ni dizelni o'ta yuklanishida, tirsakli val aylanishlar soni jumladan traktor harakatlanish tezligi rostlagich ishini to'xtashi hisobiga tushadi. Lekin yonilg'i uzatgichning to'g'ri korrektori dizelga yonilg'i berish avtomatik oshishi evaziga, uning burovchi momenti  $n_{gm}$  aylanish sonidagi  $M_{mn}$  ga qadar ortishi mumkin. Xarakteristika M ning ushbu qismi uning korrektor tarmog'i deyiladi.

Burovchi moment zaxirasi  $\Delta M = M_{mn} - M_{mm}$  traktorga o'ta yuklanishni yengish va harakatlanishini biroz kichikroq tezlik bilan davom ettirish imkonini berib, bunda tezlik almashilmaydi, bu esa traktorchining charchashini kamaytiradi.  $\Delta M$  moment zaxirasi dizelning unga ta'sir etuvchi yuklanishiga moslanish koefisiyenti K deb yuritiladi.

$\Delta M = M_{mn} / M_{mm}$  Zamonaviy traktor dizellarda  $K=1,15\dots1,44$  ga teng yonilg'inining soatlik sarfi  $G_1$  dizelning 1 soat mobaynida o'rnatilgan tezlik va yuklanish rejimlarida ishlashiga sarf bo'lgan yonilg'i sarfi, kg

Yonilg'inining solishtirma samarali sarfi, g/(kvt.soat)

$$g_e = \frac{G_r}{N_e} 10^3$$

Uning minimal qiymati  $g_{min}$  tashqi tezlik xarakteristikasida dizelning yonilg'i tejamkorligini baholovchi asosiy parametr bo'lib hisoblanadi. Eng yaxshi zamonaviy traktorlarda  $g_e=195\dots215$  g/(kvt.soat) ga teng.

Dizelning solishtirma massasi, g/kvt,

$$g_m = G_m / N_m$$

bu yerda :  $G_m$  – motor massasi, kg; zamonaviy dizellarda  $G_m=5\dots9$  kg/kvt.

## 2.2. Dizel motorining krivoship-shatun mexanizmi

*Krivoship-shatun mexanizmining geometrik parametrlari.*  
Chiziqli parametrlar.

Krivoshipni aylanish o'qidan shatun bo'yinchasi o'qiga bo'lgan masofa krivoship radiusi r deyiladi. Porshenni YCHNda PCHNgacha

qo'zg'ash masofasi, ya'ni krivoshipning  $180^0$ ga aylanishi porshenning yurish yo'li S deyiladi (2.1- rasm).

Bundan kelib chiqadiki,  $S=2r$ .

Porshen yurishi yo'lini S dizel silindri diametriga nisbati uning o'lchamliligi, ya'ni uning qisqa yurish parametri deb ataladi. Agar  $S/D < 1$  bo'lsa, dizel qisqa yuruvchi, agar  $S/D > 1$  bo'lsa – katta yuruvchi, agar  $S/D = 1$  – kvadrat deyiladi.

Krivoshipning radiusi 2 shatun uzunligi / ga nisbati krivoship – shatun munosabatini beradi:

$$K = r/l$$

*Hajmiy parametrlari.* Porshenning YCHNdan PCHNga siljishidagi hajm, silindrning ishchi hajmi deyiladi:

$$V_n = \frac{\pi D^2}{4} S$$

Barcha silindrler ishchi hajmlari yig'indisi uning litraji deyiladi:  $V_n = V_n i$ , bunda  $i$  silindrler soni.

Porshenning YCHNdagi porshen usti hajmi siqish kamerasi yoki yonish kamerasi hajmi deyiladi –  $V_s$ .

Silindr ishchi hajmi va yonish kamerasi hajmlar yig'indisi silindrning to'liq hajmini ifodalaydi:

$$V_a = V_n + V_s$$

Silindr to'liq hajmining  $V_a$  uning yonish kamerasi hajmiga nisbati silindrغا kirgan havoning porshen YCHNdan PCHNgacha siljishida necha marta siqilishini ko'rsatadi:

$$E = V_a / V$$

### ***Krivoship-shatun mexanizmning komponovkalash sxemalari.***

Traktor dizellarida eng ko'p qo'llaniladigan komponovka sxemalari 2.5-rasmda aks etgan.



**2.5-rasm. Dizel silindrлarning joylashuvi:**  
*a* – bir qator; *b* – ikki qator V – simon

Silindrlarning bir qator joylashuvida ularning o'qlari tirsakli val o'qidan o'tuvchi bir tekislikda joylashadi (asosan vertikal). Bir qatorli dizellarning afzalliklari shundan iboratki, ularning eng kichik, traktorchi tomonidan yaxshi ko'rindi. Silindrlarning 2 - qator joylashuvida, asosan V - simon, ularning o'qlar y burchak ostida tirsakli val o'qi tekisligidan o'tuvchi ikki tekislikda yotadi (2.5- rasm, b).

Ushbu komponovkaga 6, 8, 12 silindrli dizellar ega. y burchak - silindrlarning yotish burchagi, ko'pincha  $90^{\circ}$  ga teng bo'ladi.

Ikki qatorli dizellarning afzalliklari – ularning kichik uzunlikda bo'lishi bu traktor bazasini kamayishiga va uning monevrchanligini oshishiga, shuningdek korpusni mustahkam bo'lishiga olib kelib, bunda dizelni quvvatini uning ishqalanuvga detallari quvvat yo'qotishi kamayishiga hamda uning motoresursi oshishiga olib keladi.

Silindrlar bloki orasidagi bo'shliq dizel agregatlar tizimini, birinchi navbatda yuqori bosimli yonilg'i nasosini joylashtirish mumkin.

Silindrlar soni va tirsakli val krivoship sxemalarini o'zaro uyg'unlashib joylashtirilishi tirsakli valni bir tekis aylanishi, burovchi moment amplitudasi o'zgarishiga, shuningdek traktor ramasiga o'tuvchi teng taqsimlanmagan inersiya kuchlari, ular yaratadigan momentlarning o'tishiga olib keladi.

**Krivoship – shatun mexanizmiga ta'sir etuvchi kuch va momentlar.**

Gazlarning bosimi porshen tubida 1 (2.6-rasm)  $P_g$  kuchni hosil qilib, u silindr o'qi bo'ylab yo'naladi. Ushbu kuch porshen bo'rtiqlari orqali porshen barmog'iga uzatilib. ikkita tashkil etuvchiga ajralishi mumkin:  $P_{sh}$  va  $N$ .  $P_{sh}$  kuchi shatun 2 o'qi bo'ylab yo'nalib, porshen barmog'ini ezilishiga, shuningdek uning, porshen bo'rtiqlari va shatun kallagi vtulka – podshipnigi yeyilishiga olib keladi. Shatunning krivoship kallagi orqali  $P_{sh}$  kuch krivoshipning shatuna 5 bo'yinchasiga beriladi. Uni 2 ta ta'sir etuvchi:  $P_k$  va  $T$  ga ajratish mumkin.


$P_k$  krivoship bo'ylab yo'nalib, uning bo'yinlarini siqadi, o'zak bo'yinchalarini va ularning podshipniklarni ezadi, yeyilishini keltirib chiqaradi.

muvozanatlaydi. Ushbu muvozanatlovchi tizimlar yetakchi traktor ishlab chiqarish firmalar dizellarida qo'llaniladi.

Dizelning alohida silindrlarga  $P_{sh}$ ,  $P_{in\ 1}$  va  $P_{in\ 2}$  kuchlari reaktiv momentga qo'shimcha ravishda moment hosil qilib, ular korpusga uzatilib o'zining muvozanatlanishini ta'lab qiladi.

Krivoship – shatun mexanizmining qo‘zg‘almas detallari.

Dizelning suyuqlikli sovitishli blok-karteri uning silindrlar ichidagi gazlar bosimi, ilgarilanma – qaytma va aylanma harakat sodir etuvchi mexanizm detallari massalarining inersion kuchlari, ushbu kuchlar momentlari, shuningdek mahkamlovchi elementlarning qotirishdagi montaj kuchlari bilan yuklanadi. Shuningdek unda notejis haroratlar maydoni evaziga termik deformatsiyalar vujudga keladi. Blok-karterning ichki devorlari sovituvchi suyuqlikning korrozion ta'siri va u tomonidan paydo bo'ladigan kavitatsion buzilishga uchraydi.



#### **2.7-rasm. Suyuqlikli sovitishli dizel blok-karteri**

Blok-karterga qo'yiladigan asosan talablar uning bo'ylama va ko'ndalang bikirligi, chegarasiga qarshiligi, korrozion turg'unligi, yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi, ishqalanish yuzalarning yeyilish bardoshliligi va boshqalar. Blok-karterlar odatda kulrang cho'yandan qo'yilib, unga xrom, nikel, molibden, titan qo'shilib, sun'iy ravishda uning qattiqligi 190...240 HB ga chiqarilib, dizelni ishlash chog'idagi deformatsiyalanishi kamaytiriladi.

Suyuqlik sovitishli dizelning blok-karteri konstruktiv jihatdan quti shaklidagi ko'p seksiyali korpus 1 ko'rinishiga ega (2.7-rasm). Uning

yuqori qismi silindrler bloki 2 bo'lib, sovitish ko'ylagi bilan o'ralgan bo'lib, unga suyuqlik blok old devoridagi tuyruk orqali haydar beriladi. Ko'yakga tepa va pastdan ikkita plita bilan to'silgan, ular blokning old va orqa devoridagi yonaki devorchalari bilan bir butunlikni tashkil etadi.

Yuqori plitadagi teshiklar 21 va quduqchalar orqali gaz taqsimlash mexanizmining eshkak yuritmalari o'tib, 4 teshiklar orqali sovituvchi suyuqlik va moyga oqib kiradi. Bolt va shpilka uchun 6 teshiklarning rezbali qismlari gazlarga to'siq bo'luvchi zichlovchi qistirma joylanadigan 5 tekislikgacha kirib borgan bo'lib, ular orqali kallak blogiga uning silindrleri tartib bilan mahkamlanadi. Ushbu chuqurchalar tekislik 5 ning mahkamlovchi detallarini tortishda ko'tarilib qolishni cheklaydi va birikma germetikligi buzilishini oldini oladi.


Pastki plita silindrler bloki sovitish ko'ylagining karter tekisligidan ajratib turadi. Plita silindmi yo'naltiruvchilar 20 bilan ishlangan vertikal qo'yimlarga ega bo'lib, ularda gaz taqsimlash mexanizmi turkichlari joylashadi.

Dizel silindrleri uning xizmat muddatini aniqlovchi turli tavsifdagi yuklanishlar majmuasi ta'siriga beriladi. Silindrda gazlar bosimi 14 MPaga, harorati 2000 °C ga yetadi. Bunday sharoitlarda porshen va silindr o'rtaсидаги moy yetishmovchiligi kelib chiqib, asosan bu hol silindrni yuqori qismida ichib, uning yeyilishini jadallashtiradi.

Bu unga havotozalagich orqali silindrga o'tadigan kvarts changlarini o'tirishiga olib keladi.

Silindrning ishchi yuzasi abraziv yeyilishidan tashqari yonilg'i tarkibidagi oltingugurt birikmalarning korrozion ta'siriga beriladi. Hosil bo'lgan oksidlarning zarrachalari yuqori qattiqlikka ega bo'lib, keyinchalik ular abraziv sisatida ta'sir qiladi. Gazlar kuchlarning zarbiy yuklanishlari, shuningdek porshennenning normal kuchi va inersiya kuchlari silindr devorlarida yuqori chastotali tebranishlarni vujudga keltiradi.

Shovqin keltirib chiqarishdan tashqari, bu tebranishlar silindrni sovituvchi suyuqlik bilan ho'llanilishini buzadi. Suyuqlikdagi vujudga keladigan kavitations jarayonlar silindr tashqi yuzasida o'yiplarga olib kelib, ularning chuqurligi bir necha millimetrgacha yetadi. Teshik



**2.6-rasm. Krivoship – shatun mexanizmiga ta'sir etuvchi kuch va momentlar**

*T* kuch krivoshipga perpendikulyar yo'naltirilgan bo'lib, ya'ni uning shatun bo'yinchasi o'qi aylanish doirasiga urinma tarzda yo'naltirilgan bo'lib, bu tangensial kuchdir. U krivoship bo'yinchasi va shatun bo'yinchasi egilishini, o'zak bo'yinchalari buralishini, bo'yinchalar va ular podshipniklarning yeyilishini keltirib chiqaradi. Krivoship radiusi  $r$  ga teng yelkaga *T* kuch ta'sir etib aktiv momentni hosil qiladi  $M_a = T \cdot r$  (2.6-rasm, *b*) hamda u transmissiyasi va traktor harakatlantirgichlarga uzatiladi.

*N* kuch shatunga perpendikulyar yo'nalgan. Lekin shatunni silindr o'qidan chetlanishi kichik bo'lganligi bois, ushbu kuchni shartli ravishda silindr devori 3ga perpendikulyar deb olinadi a normal kuch deb ataladi. Porshen siljishlardan u miqdor va yo'nalish jihatdan o'zgarib, navbatma-navbat uni silindr devorlariga siqadi va uning yeyilish va vibratsiyasini keltirib chiqaradi, bu esa dizel shovqini manbalaridan biridir.

*N* kuch *X* o'zgaruvchan yelkaga ta'sir etib, reaktiv momentni keltirib chiqaradi.  $M_p = N \cdot X$  bu esa porshenni har qanday holatida miqdor jihatdan teng, lekin aktiv moment yo'nalishiga teskari bo'ladi:  $M_p = -M_a$

Reaktiv moment dizel korpusining bo'ylama tebranishini keltirib chiqaradi, bu esa 9 kronshteynlar orqa traktor rama 7 ga uzatilib, operator kabinasi va o'rindig'iga berilishi mumkin.

Ushbu tebranishlarni Dempferlash uchun kronshteynlar va rama o'rtasida qayishqoq elementlar (asosan rezina) 8 o'rnatiladi.

$P_r$  kuchning ko'rib chiqilgan tashkil etuvchilardan tashqari krivoship-shatun mexanizmiga markazdan qochma va inersion kuchlar ta'sir etib, ular uning qo'zg'aluvchi detallari tomonidan kelib chiqadi.

Krivoship o'qi bo'ylab aylanuvchi shatun bo'yinchasi massa unga o'rnatilgan shatun pastki kallagi massasi bilan birgalikda, shuningdek shu massaga yotuvchi bo'yinchalarning tekis taqsimlanmagan qismlari markazdan qochma kuch  $P_q$  ni tashkil qiladi. Uning krivoship bo'yinchalarini cho'zadi, uning o'zak bo'yinchalari va podshipniklarni yuklaydi hamda dizel korpusini uning qayishqoq tayanchlarda tebranishini keltirib chiqaradi. Ushbu kuch krivoship bo'yinchalarini davomida o'rnatiladigan qarama-qarshi yukchalar yordamida bartaraf etilishi mumkin, agar ularning massalari tomonidan yaratiladigan markazdan qochma kuch  $P_{els}$  miqdor jihatdan teng va  $P_s$  kuch yo'naliishiga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lsa.

Silindr o'qi bo'ylab ilgarilanma-qaytma harakatlanadigan porshen kompleksi massasi va shartli ravishda u bilan qo'shiladigan shatunningyuqori qismi massasi miqdor va yo'naliish jihatdan o'zgaruvchan inersiya kuchini hosil qilib, u  $P_R$  kuch bilan algebraik qo'shiladi, hamda uning ta'sir etuvchilari  $P_h$  va  $N$  miqdorlarda o'z aksini topadi. Ushbu inersiya kuchi birlamchi  $P_{ml}$  va ikkilamchi  $P_{ml2}$  tartibli inersiya kuchlari yig'indisi sifatida tasvirlanib, kosinusoidal tartibda o'zgaradi.  $P_{ml}$  maksimal kuchi  $P_{ml2}$  maksimal kuchidan shatun uzunligi  $L$  krivoship radiusi  $r$  dan qancha katta bo'lsa shuncha bo'ladi.

$P_{ml}$  kuchining o'zgarish davri krivoship burilishi  $360^0$ ga teng (2.6-rasm, b). Shuning uchun ushbu kuchni krivoship bo'yinchalaridavomidagi yukchalar bilan qisman muvozanatlashтирildи. Bunda  $P_{ml}$  kuchning qismi ta'siri vertikal tekislikdan gorizontal tekislikka o'tadi.

$P_{ml2}$  kuchning o'zgarish davri krivoship burilishining  $180^0$ ga teng. Shuning uchun uni bo'yinchalar davomidagi yukchalar bilan muvozanatlash mumkin emas. Bu maqsadda yukehalarning 11 (2.6-rasm, d) ikkita qo'shimcha, 14,13,10 shesternyalar bilan harakatga keladigan va krivoship yo'naliishiga teskari, ikki baravar ko'p aylanadigan vallarga o'rnatiladi.

Qo'shimcha vallarning tayanchlari asosan oraliq karter 12 ning ko'ndalang devorchalarida joylashadi. Yukchalarning markazdan qochma kuchlarining gorizontal tashkil etuvchilar bir-birini so'ndiradi, vertikal tashkil etuvchilarning yig'indisi esa  $P_{mlII}$  kuchni

o‘yiqlar orqali sovituvchi suyuqlik moylovchi moyga tushib, uning xususiyatlarini ishdan chiqarib, muddatidan oldin almashtirilishiga olib keladi.

Silindrlar blokining bikirligini oshirish uchun ular bir-biri bilan balandligi bo‘yicha birlashib ketadi. 15...20 mm balandlikdagi aylanma yo‘niq silindrning eng qizigan joyiga sovituvchi suyuqliknini kelishi uchun xizmat qiladi.


Silindrلarning ishlash muddatini oshirish ularning blok-karter materialiga nisbatan sifatlriq materiallardan tayyorlashni taqazo etadi.

Bundan tashqari dizelning ta’mirlanish imkoniyatini oshirish uchun uning yeyilgan yoki zarar yetgan silindrлarning oson almashtirish imkoniyatini berishi lozim. Ushbu shartlar silindrлarning bir butun, yoki ularning ishqalanuvchi yuzalarning oson almashuvchan blok-karterga o‘rnataladigan detal sifatida tayyorlashga olib keladi.

Ushbu detallarni silindrлar gilzalari deyilib, ular odatda kulrang perlitli cho‘yan СЧ 21 yoki СЧ 24 dan tayyorlanib, xrom, nikel, titan qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Gilzalar markazdan qochma quyish usuli bilan olinadi. Mexanik ishlov berishdan so‘ng ularning ichki yuzasi yuqori chastotali tok (TBЧ) orqali 40 ...50 HRC qattiqlikkacha yetkaziladi. Toblangan qatlamning chuqurligi 2-3 mm.ni tashkil etadi. Toblash va bo‘shatishdan so‘ng gilzalarning ishchi yuzalari xoninglanadi. Ishlatishning dastlabki paytlarida yoriqlar va o‘yiqlar hosil bo‘lmasligi uchun gilzalar marganes monofosfat kislotali tuzlariga botiriladi, natijada yuzalar yupqa (5...8 mkm) marganes fosfat kristallari plynokasi bilan qoplanadi. Konstruktiv jihatdan gilzalar “quruq” va “ho‘l” tayyorlanadi.

“Ho‘l” gilzalar (2.8- a rasm) yuqori (yo‘naltiruvchi) belbog‘lari 2 bilan silindrлar bloki yo‘niqlari presslanib kirgiziladi. Uning tashqi yuzasi sovituvchi suyuqlik bilan yuvilib, ushbu gilzalarning issiqlik uzatish yaxshi sifatlarini ta’minlaydi. Gilzaning 5 talni bo‘rtig‘i yuqori tekisligi 4 silindrлar blokining tekisligidan biroz chiqib turib, unda gazlar tiqini qisqartmasi joylanadi. Blok va gilza tayanch bo‘rtig‘i chetlaridan sovituvchi suyuqlik sizib o‘tmasligi uchun blok konusli faskasiga rezina halqa 3 o‘rnataladi.



**2.8-rasm. Silindr gilzalari: a va b – “ho'l”, d – “quruq”.**

Gilzaning pastki belbog'i uning zichlovchi qismidir. Sovituvchi ko'yakchanini zichlash blok-karter va gilza yuzasidagi yoriqchaga o'rnatiladigan rezina halqa 1 yordamida amalga oshiriladi. (2.8-rasm, b). So'ngi yechim ko'proq qo'llanilib, dizel ta'mirlanishida halqalar blok-karter ariqchasiga unga yangi gilza presslangunga qadar o'rnatiladi. Natijada blok-karter yuzasida hosil bo'lgan kavitations o'yiqlar o'tkir qirralaridan halqa o'tganda, shikastlanish yuzaga kelmaydi, bu gilza ariqchalariga halqalarini o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Kavitationsion jarayonlar gilza va blok – karterning yuqori rezina halqalari ustidan tirkishda jadal kechadi. Shuning uchun ushbu tirkishni ko'pincha qo'shimcha yassi antikavitations rezina halqalar 6 bilan to'lg'aziladi.

“Quruq” gilzalar 7 (2.8-rasm, d) ning qalinligi hammasi bo'lib 2-3 mm ni tashkil etadi. Ular silindrlar blokiga presslab o'tkaziladi va ularning tashqi yuzasi sovituvchi suyuqlik bilan bevosita yuvilmaydi. Ushbu gilzalar kamroq qo'llanib, bir qator afzallikkarga ega, blok-karter bikirligi oshadi, silindr yuqori qismi sovitilishi yaxshilanadi, qimmatbaho material sarfi kamayadi. lekin ushbu gilzalardan past bikirlik hisobiga ularning silindrlar blokiga o'tkazishda deformatsiyasi vujudga keladi. Ushbu detallar orasidagi mahalliy tirkishlar karter gazlari bilan to'lib, issiqlik o'tkazuvchanlikni yomonlashtiradi.


Natijada blokning sovitish ko'yakchanisiga uzatiladigan issiqlik o'tishi yomonlashadi.

Bundan tashqari, gilzalarning deformatsiyalarni hisobiga ularning xoninglashni gilza silindrlar blokiga o'tkazilgandan so'ng amalga

oshirishni, bu esa ekspluatatsiya jarayonida yeyilgan gilzalarning almashtirishni qiyinlashtiridi.

Havo bilan sovutiladigan (HBS) dizel silindrлari alohida tayyorlanadi. HBS silindrning issiqlik sig'imi suyuqlik bilan sovutiladigan (SBS) silindr issiqlik sig'imiga ko'ra kamroqdir. Shuning uchun to'rt silindr dan issiqliknинг tarqalishining jadallashtirilishi uchun (2.9-rasm) uning tashqi yuzasini sovitish yuzasini oshiruvchi qovurg'alar bilan yasaladi. Qovurg'ali silindrлarning yagona quymada quyish texnologik jihatdan murakkabligi bois, ular alohida yasaladi. Sovituvchi havo quvur oralari kanaliga oralig'ida ventilyator orqali haydaladi.

Qovurg'alar shakli kesimda odatda trapetsiyasimon planda – to'g'ri burchakli yoki doira ko'rinishida bo'ladi. Silindr aylanasida harorat maydoni bir xil bo'lishi uchun qizigan havo chiqadigan tomon qovurg'alarini uzunligi havo beradigan tomon qovurg'alarini uzunligidan biroz uzunroq tayyorlanadi.



2.9-rasm. Havo bilan sovutiladigan dizel silindri

Silindrлarni yaqintashtirish va bu bilan dizel uzunligini kamaytirish uchun bir-biriga qaragan qo'shni silindrлar qovurg'alarini qisqa holda yasaladi. Silindrлar kallagini 6 karterlarga qotiruvchi anker shpilkalarini 3 o'tuvchi joylardan qovurg'alarida maxsus yoriqlar qilinadi. Silindrлar 4 va karter 1 kontakt joylarni qisqartmalar 2 bilan zichlanadi. Shpilkalar silindrлardan hosil bo'ladi gazlar bosimi va silindrлarning qizishidagi cho'zimidagi qo'shimcha kuchlar ta'sirida

cho'ziladi. Silindr o'zining yo'naltiruvchi qisimi bilan karter yuqori plitasidagi yo'riqqa porshen – shatun guruhini tirsakli val bilan ulash undan keyin o'rnatish ham mumkin. Keyingi holda silindr porshen ustidan kiygaziladi. Porshen halqalarini bir tekis o'rnatish uchun uning pastki qisimi uzun ichki konuslifaska 8 bilan ta'minlanadi.

SBS dizel karteri uning silindrlar bloki bilan bir butun quyiladi. HBS dizel karteri alohida korpus detali sifatida qo'yiladi. Karter radial kuch uzaytirilgan ko'ndalang devorchalar 11 bilan (2.7-rasm) ajralgan bo'lib, ba'zi hollarda konsentratsiyalashgan bikirlik qovurg'alarini 18 bilan yasaladi. Ushbu devorchalar quyumiarda tirsakli val o'zak podshipniklarning 12 yuqori qistirmalari o'mni joylashgan.

Podshipniklarning pastki qisqartmalari 13 podshipnik qopqoqlari 16 da joylashgan bo'lib, ular karterga boltlar 17 yoki shpilka gaykalari bilan qotiriladi. Qopqoq va boltlar gaz kuchlari krivoship – shatun mexanizmi qo'zg'aluvchi detallari inersiya kuchlari bilan yuklanadi. Shuning uchun cho'yandan qo'yilgan qopqoqlar birlik qovurg'alar bilan jihozlanadi va karter gazlari karter gazlari devorchalariga taqalib turuvchi yonaki bo'rtiqlar bilan ko'ndalang siljishlarda fiksirlanadi. Karter va qopqoqdagi qistirmalar o'rinnarining to'g'ri shakli va o'qdoshligini ta'minlash uchun ularni yo'nish bir qurilmada amalga oshadi.

Gaz taqsimlash mexanizmi valining tayanch bo'yinchalari karter devorlariga presslab o'rnatilgan bronza vtulka – podshipniklarida 19 aylanadi.


Karterning bo'ylama devoridagi kanal 7 dizel moylash tizimining asosiy magistrali bo'lib, unga filtrdagи tozalangan moy ushbu tizim nasosidan bosim ostida beriladi.

Moy magistralidan karter devorlaridan 9 orqali tirsakli val o'zak podshipniklarigacha boradi. Ushbu magistraldan burchak forsunkalari 8 orqali forsirovkalangan dizellar porshen turbalari purkagan moy bilan sovitiladi.

Karterning pastki tekisligi 15 zichlovchi qistirma orqali 14 rezba teshigigacha buraladigan boltlar yordamida moy poddoni o'rnatiladi. 15 tekislikning (2.10- rasm, a H o'lcham) tirsakli val o'qidan pastga tushishi karter bikirligini oshishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari val o'zak podshipniklarning o'rinnar deformatsiyalarini kamaytirish maqsadida ularning qopqoqlari 2 karter

1 devordagi bo'rtiqchalarga ko'ndalang kuch bog'lanishlarini tashkil etuvchi 3 boltlar bilan tortiladi. Lekin podshipnik qopqog'iga ta'sir etuvchi yonaki kuchlar qirra va bo'rtiqlar orasidagi zichlikni buzishi mumkin.



**2.10-rasm. Karter bikirligini oshirish usullari**

Keyingi paytlarda karterning yuqori 1 (2.10-rasm, b) va pastki qismlarga ajratilish keng tarqalmoqda.


Pastki (oraliq karter) tirsakli val o'zak podshipniklari barcha qopqoqlari uchun yagona quyma korpus bo'lib, karterning yuqori qismiga 3 boltlardan tashqari uning ichkari va tashqarisida joylashgan 4 boltlar bilan mahkamlanadi. Karterlar o'rtalarini biriktirish qistirmasiz kechadi. Tashqariga moy sizib chiqishining oldi detallarning birlashtirishdagi tekisliklarga germetiklovchi tarkibni surish bilan amalga oshadi. Ushbu konstruksiya katta birlikka ega. Uning kamchiliklari qatoriga tirsakli valning birorta podshipnigi qisqartmasini almashtirish uchun ham 2 detalning demontajini amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Karter poddoni (2.11-rasm) dizelni moylash tizimi uchun moy rezervuari vazifasini o'taydi. Unga botirilgan to'qli qabul qilgich orqali moy ushbu tizim nososi tomonidan so'rildi va filtr orqali bosim ostida bosh magistralga uzatiladi.

Traktor ishlash jarayonida katta bort va orqa qiyalikda ishlashi mumkin. Poddondagi moy sathining tebranishi uning nasos tomonidan so'rilib uzlusizligini buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan qutilish uchun poddonda maxsus gorizontal yoki vertikal devorchalar – tinchlantiruvchi 1 lar o'matilib, ular bolt yoki nuqtali payvandlash bilan qotiriladi.

Moyni almashtirish yoki ta'minlash ishlarida poddon pastki qismida rezbalı tiqin 2 ko'zda tutilgan. Poddonlar po'lat listlardan shtamlavkalash (2.11-rasm, a) yo'li bilan alyuminiy yoki cho'yan qotishmalaridan qo'yish yo'li bilan (2.11 - b rasm) olinadi.

Quyma poddonlar bir qator afzallikkarga ega. Ularning ichki va tashqi yuzalardan moyning issiqligi tarqalishini jadallashtiruvchi qovurg'alar 3 ko'zda tutilib, bunda moy harorati 120-130 °C gradusgacha ko'tarilishi mumkin. Qovurg'alar poddon bikirligini oshiradi, natijada vibratsiya va ular tarqatayotgan shovqin 6...8 dB(A) ga kamayadi. Shu bilan birga bunday poddonlar dizel massasini oshirib, traktor to'siqlarga uchraganda sinishi mumkin. Shtamplangan poddonlar qistirmalarining 4 bir tekis deformatsiyasi bikir po'lat simlari 5 tomonidan ta'minlanadi.



**2.11-rasm. Moy poddonlari:**  
a – shtamplangan, b – quyma.


SBS dizel silindrlar kallagi (2.12-rasm, a) yaxlit quti shaklida bo'lib, uning ichida silindrlarga havo kirishi va ishlab bo'lgan gazlar chiqishi uchun 7 va 5 kanallar, shuningdek yonilg'i forsunkasi o'rnatiladigan quduq 2 mavjud. Ushbu elementlar yuzalari sovitish ko'ylakchasi 8 bilan aylantirib chiqilgan. Ko'ylakchada bug' tiqinlari uzaga kelmasligi uchun qizigan suyuqlikni ketish tuynugi uning yuqori qismida joylashtiriladi. Kallakning pastki qismi gazlar zichlagichi orqali silindrlar bloki tekisligiga teshiklar orqali o'tuvechi boltlar yoki shpilka yordamida mahkamlanadi. Silindr konturi bilan chegaralangan qism o't tubi deyiladi. Unga ta'sir etuvchi gazlar porshen tubiga ta'sir qiluvchi gazlar kabi bo'ladi. Shuning uchun ushbu qism qalinligi kallakning boshqa qismlariga nisbatan kattaroq bo'ladi. Kallak tubida gaz taqsimlash mexanizmi kiritish 6 va 4

chiqarish klapanlari egarchalarini o'rnatish uchun uyachalar ishlov berilgan. Ushbu uyachalar oralig'i, shuningdek forsunka 2 o'rnatilish uyasi oralaridagi joylardan eng yuqori qizish joylari ( $400^{\circ}\text{C}$  gacha) hisoblanadi.

Klapanlar oralig'idagi joylarning qizishi ularda yoriqlarning kelib chiqishiga, forsunka uyachasining qizishi – soplo purkovchi teshiklarning oksidlanishiga olib keladi. Buni oldini olish uchun silindrler ko'ylakchasiga o'tuvchi sovutish suyuqligi ko'p holda vertikal 3 va gorizontal teshiklardan birinchi navbatda klapanlar oralig'i to'sig'iga uzatiladi. 11 rezbali teshikka tiqin kiygazilgan. Forsunka rezbali teshik 12 ga burab bosiladigan tiqin yoki rezbali teshik 13 ga burab kirgaziladigan panshaxasimon skoba va boltga qotiriladi. Forsunkadan issiqlikni olib ketishni yaxshilash uchun uning quduqchasi latun stakan 19 shaklida qilinib, u kallakning yuqori yoki pastki qatoriga presslab o'tkaziladigan shoxsimon rezbali tiqin 21 bilan qisilib, rezina halqa 18 bilan zichlanadi. Rezbali teshiklar 17 boltlar bilan kiritish va chiqarish quvurlarini qotirish uchun xizmat qiladi. Kallakning yuqori qismida gaz taqsimlash mexanizmi klapanlar yuritmasining eshkak to'sinlari o'rnatilgan bo'lib, vertikal qo'yimlar teshiklari 10 ga klapanlarning yo'naltiruvchi vtulkalari presslab kirgaziladi. Qavatchalarning chuqurchalaridagi tarelkalarga bevosita klapan prujinalari yon sirtlariga tayanib turadi.

Eshkaklarning yuritma shtangalari teshiklar 16 orqali o'tib, bir vaqtning o'zida kallak yuqori qavatida to'planuvchi moyni poddonga tushishi uchun xizmat qiladi. Klapanlar qutisi 14 shtamplangan yoki ko'ylak qalpoq bilan rezina qistirma orqali berkitiladi. Kallaklar hamma silindrلarga umumiy, bir nechta silindrga bitta yoki har bir silindrga alohida bo'lishi mumkin. Har bir silindrga alohida kallaklarni qator afzallikkari bor. Ushbu kallaklarni kichik massasi ularning tayyorlash va dizel ta'mirlanishini yengillashtiradi. Ular turli sonli silindrli dizellar oilasi uchun bixillashtirilgan hisoblanadi. Individual kallakka ziyon yetganda faqat shu kallakni almashtirishga to'g'ri keladi. Alohida kallakda gaz uni silindrler blokiga mahkamlashda gazlar zichlanmasi deformatsiyasi bir tekis bo'ladi, shu bilan birga dizelning alohida silindr kallaklari bikirligi bir kallak bo'lgan holga ko'ra kichikdir. Shuning uchun ular katta diametrlı silindrlerda qo'llaniladi.

Kallaklar tuproq shakkarga СЧ 18 va СЧ 21 turdag'i cho'yanlardan, legirlan xromdan, nikel, molibden, titan, shuningdek alyuminiy qotishmalardan kokilga quyish bilan olinadi.



**2.12-rasm. Silindr kallaklari va gaz to'sig'i qistirmalari**

HBS dizel silindrlar kallagi (2.12-rasm, *b*) undan issiqlikni olib ketish uchun kengaygan qovurg'alarga ega. Gorizontal va vertikal qovurg'alar uni sovituvchi havoga harakati bo'ylab joylashgan. Qovurg'ali kallaklarning quyish texnologiyasi murakkabligi tufayli ular asosan alohida tayyorlanib, bunda dizel korpusining bikirligi qo'shimcha pasayadi. Kallaklar materiali sifatida AKE va AK12MMgN turidagi alyuminiy qotishmalari qo'llanilib, ular cho'yanga nisbatan yaxshi issiqlik o'tkazuvchanlik va yaxshi quyma xususiyatlarga ega.

Kallak va blok birikishidagi gaz qistirmalari kallak turiga bog'liq ravishda konstruksiyaga ega bo'ladi. Monokallak ostiga qo'yiladigan qistirma (2.12-rasm, *d*) chetlanib chiqilgan po'lat varaq *1* dan tashkil topib, ikki tomonдан asbest qoplama yoki rezina – asbest aralashmasi *2* bilan qoplangan bo'lib, bu qoplama qaynoq vulkanizatsiyalash jarayonida olinadi. Qistirma qalinligi 1,5 mm atrofida.

Silindrler joylashuv joylarida eshkak yuritmasi o'tish eshiklari, kallakni mahkamlash bolt va shipilkalardan, shuningdek sovituvchi suyuklik va moy o'tish joylaridan qistirmada maxsus teshiklar ochilgan. Silindr gilzalari uchun joylar qalinligi 0,2...0,3 mm kam uglerodli listli po'latdan chetlamaga *3* ega bo'ladi. Chetlama silindr gilzasining tayanch bo'rtig'ida yotadi. Kallakni mahkamlash boltlari

siqilganda bu joyda qistirma ezilib, silindr hajmining germetizatsiyalanishini ta'minlaydi.

Qistirma 3 alohida kallakka 2 (2.12-rasm, e), shuningdek alohida halqa bilan birligida silindr gilzasining 1 tayanch bo'rtig'iga o'rnatiladi. Kallak blokka 8 nisbatan vtulkalar 6 bilan markazlanadi. Yumshoq po'lat va alyuminiy qistirmalar 3 deformatsiyasini oshirish uchun kallakni qotirish boltlari 5 bilan tortiladi uning tubiga po'lat bosiluvchi halqa 4 presslar kirgiziladi va qo'yiladi. Yetarli qalinlikdagi qistirmalarni tanlash usuli bilan dizelni yig'ish jarayonida silindrlarda uning kallaklari olovli tublari va porshenlarining YCHN dagi porshen olovli tublari orasidagi bir xil optimal tirkish olinadi.

Bu dizelning yonilg'i tejamkorliligi oshishiga va ishlab bo'lgan gazlar tutunliligining tushishiga olib keladi. Kontur bo'ylab chiziqlar rezina 7 qistirma bilan zichlanadi.

Taqsimlovchi shesternyalar qopqog'i cho'yandan quyma usulda olinadi. U qutisimon shaklga ega bo'lib, boltlar orqali qistirma bilan blok-karter old devoriga qotiriladi. Unga presslab o'tkazilgan o'zi bosiluvchi salnik orqali tirsakli val quyrug'i chiqib turadi.

Qopqoq ichida gaz taqsimlash mexanizmi kulachokli val yuritmasi, yuqori bosimli yonilg'i nasosi, vallarni muvozanatlash shesternyalarini joylashadi.

Tashqaridan qopqoqqa suyuqlikli sovutish tizimi nasosi, dizel old tayanchi amortizatori, traktor kabinasi kompressori, yonilg'i filtrlari va boshqa agregatlar qotadi.

Maxovik karteri dizel blok – karteri va ilashish korpusi orasidagi oraliq detal hisoblanadi. Unga yurgizib yuborish motori yoki elektrostarter qotiriladi, karterning yonaki tekisliklarida dizel orqa tayanchi kranshteynlari joylashadi.

**Krivoship – shatun mexanizmning qo'zg'aluvchan detallari.**  
Porshen guruhi porshen o'zida o'rnatilgan kompression (zichlovchi) va moy sidiruvchi halqalar, porshen barmog'i va ularni qotirish detallari bilan porshen komponentini (guruhibi) tashkil etib quyidagi ishlarni bajaradi:

- gazlar bosimi kuchini qabul qilish va uni shatun orqali motor tirsakli vali krivoshipiga uzatish;
- normal kuchni motor devoriga uzatish;

- silindrning porshen usti bo'shlig'ini karterga gazlar o'tishdan himoyalashi va karterdan moylovchi suyuqlikning yonish kamerasiga o'tishini bartaraf qilish;

- porshen guruhini qizishini oldini olish maqsadida issiqlikni silindr devoriga o'tishini ta'minlashi lozim.


Bundan tashqari zolotnikli gaz taqsimlanadigan ikki taktli motorlarda porshen guruhi gazlar almashinuvi jarayonini boshqaradi. Zamonaliv dizellarda guruh detallari yuqori tezlikli siljishlar siklik jihatidan tez o'zgaruvchan cheklangan moylashdagi mexanik va issiqlik yuklanishlari va agressiv muhitlar ta'siridagi og'ir sharoitlarda ishlaydi.

Porshen guruhining asosiy detali, krivoship shatun mexanizmining (KSHM) eng yuklangan va muhim elementi hisoblanib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- yonish kamerasini talab etilgan shaklini yaratadi;
- gazlar bosim kuchini qabul qilib, uni shatunga uzatadi;
- normal kuchni silindr devorlariga uzatadi;
- yonish davrida qaynoq gazlar bilan urilib, ularning issiqligini qabul qiladi va halqalar orqali silindr devorlariga uzatadi;
- silindr oynasida moy taqsimlanishini boshqaradi.


Porshenning asosiy elementlari bo'lib (2.13-rasm) uning tubi I kallagi, II yubkasi, III va bo'rtiqlari IV tashkil etadi.

Dizel silindrda forsirovkalash chog'ida gazlar bosimi 14 MPa gacha yetishi mumkin, bunda porshen tubiga ba'zan 200 kN gacha ta'sir etuvchi kuch ta'sir qilib, materialda sezilarli yuklanishlarga olib keluvchi va detallarning porshen bilan tutashuvchi ishchi yuzalarda yuqori bosim yaratuvchi kuchlar ta'sir etadi.



2.13-rasm. Dizel porsheni

Dizel silindrlerda ishchi jismning maksimal harorati 1900...2300 K oralig‘ida bo‘ladi. Porshen orqali silindr devorlariga yonilg‘i yonishida ajralib chiquvchi 30% issiqlik miqdori uzatiladi; bunda 75% porshen kallagi orqali, 25% yubka orqali. Natijada porshenning ushbu elementlari yuqori haroratlarga qiziydi. (2.14-rasm).



**2.14-rasm. Dizel porshenining harorat maydoni**

Porshenning haddan ziyod qizishi uning materiali mexanik xossalarning kamayishiga, ariqchalarda moyni kokslanib qolishiga olib kelib, bu esa halqalarning qo‘zg‘almasligiga, ba’zan uning silindrda tizilib qolishiga sabab bo‘ladi, porshenni normal kuch bilan yuklanishi, moylovchi materialda changni abraziv zarrachalari, qurum va ishqalanish mahsulotlarini bo‘lishi uning silindr devorlarida siljishi (10...11 m/sek) yubka, kompression hamda moy sidiruvchi ariqchalarning yeyilishiga olib keladi. Shuningdek porshen bo‘rtiqlari, hamda ulardagи yo‘niqlar ham, porshen barmog‘i orqali uzatiladigan ishorasi o‘zgaruvchi yuqori yuklamalar ta’sirida yeyiladi.

Porshenga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:


- minimal massadagi yuqori bikirlik va mustahkamlik;
- yuqori issiqlik o’tkazuvchanlik;
- mexanik xossalarning haroratga kam bog‘liqlilik;
- yuqori yeyilishga bardoshlik;
- konstruksianing texnologiyabopligi.

Asosiy porshen qotishmalarga siluminlar AKY, AK+2M 2MgN, AK 18 MN2, AK 12 N2 M» va boshqa 26 % gacha kremniy tarkibli

va (10..12% gacha) mis, molibden, titan va boshqa komponentlar bilan legirlangan qotishmalar kiradi. Ushbu qotishmalar kichik solishtirma og'irlik, yuqori harorat o'tkazuvchanlik va antifriksion xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ularning kamchiliklariga qizishdagi mexanik mustahkamlklarni pasaytirish ( $300^{\circ}\text{C}$  da mustahkamlik 2 marta kamayadi), chiziqli kengayishning nisbatan katta koeffisiyenti va nisbiy kichik yeyilish bardoshligini keltirish mumkin. Alyuminiy porshenlar quymasini metall kokilga mexanizatsiyalashgan quyma quyish orqali olinadi. So'nggi paytlarda quymaning suyuq va izotermik shtampovkalash usullari keng qo'llanilmoqda. U mahsulotning qattiqligini, issiqlik o'tkazuvchanligini, yeyilishga turg'unligini oshiradi. Alyuminiy qotishmada tayyorlangan porshen materiallarning mexanik xossalarni oshirish uchun sun'iy eskitish amalga oshirilib, qattiqligi 100..140 HBga yetkaziladi.

Porshenlarni chiniqtirish jarayonlarni yaxshilash va ularni ishlatish jarayonida yoriqlardan saqlash maqsadida yo'naltiruvchi qism yuzasiga kolloidli grafit va molibden disulfidining asosidagi maxsus qoplamlar surtiladi. Qator holatlarda porshenning ishqalanuvchi yuzalari fosfatlanadi.

Porshen tubining haddan tashqari qizishini oldini olish uchun kreminiy oksidi, sirkoniy oksidi asosidagi issiqlikdan himoyalovchi qoplama bilan qoplab, termik turg'unligini oshirish uchun anodlanadi yoki oksidlanadi. Porshen tubi I (2.13-rasm) murrakkab shaklga ega bo'lib, o'zida yonish kamerasini joylashtiradi. Porshen tubi shakllarning eng ko'p tarqalganlari 2.15-rasmida berilgan.



**2.15- rasm. Porshen tubi shakllari**

Tub shakli, birinchi navbatda yonilg'i aralashmasi hosil bo'lishi usuli, forsunka va purkaladigan yonilg'i purkagichi shakliga, siqish darajasiga, dizel qisqa yurish yo'liga va qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Silindrda forsunkaning markaziy joylashuvida yonilg'i shag'amlari, ko'p teshikli forsunka bilan purkalishga moslashgan yonilg'i kamerasi shaklini ta'minlovchi porshen tublari tarqalgan (2.15-rasm b,g) YCHNda chiqarish taktida klapanlar porshenga tegmasligi uchun o'ymlar 1 hosil qilinadi (2.13-rasm).


Porshen kallagi II (2.13-rasm) uning zichlovchi qisishi hisoblanadi. Uning yon yuzalarda kompression halqalar 2 va moy sidirgich halqalarning o'rnatish uchun ariqchalar ochilgan. Moy halqasi ariqchasida o'yqlar bo'lib, sidirilgan moylarning dizel karteriga tushishiga olib keladi. Porshen kallagida yuqori halqa sohasida haroratning 240 °C dan oshib ketishi uning kallagidagi halqalar va ariqchalar o'rtasida moy kokslanishining ortishiga olib kelib, halqaning siljishini cheklaydi. Purkashli forsirovkalangan dizellardan kallakning ushbu qismi haroratini tushirish maqsadida porshenni suyuqlik bilan oqim ostida moylab turish ko'zda tutilgan bo'lib, dizel karteriga o'rnatilgan maxsus forsunka yordamida amalga oshiriladi. Oqimli sovitishlar ish bermagan holatlarda, porshen kallagini bo'shlqli sovitish usuli qo'llaniladi (2.16-rasm). Magistraldan kelgan moy maxsus forsunka 2 yordamida vertikal kanal 1 orqali uzlusiz oqim bilan halqasimon bo'shlilik – galereya 3 ga tushadi.

Porshennenning ilgarilanma – qaytma harakatida bo'shlqdagi moy chayqalish hisobiga tutashuvchi yuzalarni sovitib, 4 teshik orqali teskari tomondan karter bo'shligiga tushadi. Ushbu sovitish usulida porshen kallagi haroratini yuqori kompression halqa zonasida 50...60 °C ga tushirish imkonи bo'ladi.


Ushbu yechim quyma olish texnologiyasini murakkablashtiradi: kokilga o'rnatiluvchi maxsus tizim sterjen kerak bo'lib, keyinchalik uni qaynoq suv bug' bilan yuvib tashlashga to'g'ri keladi.

Yuqori kompression halqa ariqchalarning yeyilish bardoshligini oshirish uchun uni yeyilishga turg'un ta'mirlangan nikelli cho'yan-nirezist bilan ishlov beriladi. Ushbu quyma 4 kokilga porshen asosiy metali quyilishidan oldin o'rnatiladi.

Qator holatlarda tarkibli porshenlar (2.17-rasm) qo'llanib, ularning kallagi 1 o'tga chidamli po'latdan, yubkasi 2 – silulindan yasaladi. Ikkala detal ham porshen barmog'i 3 va shatun 4 bilan birlashtiriladi. Ushbu konstruksiya:



**2.16-rasm. Bo'shliqli sovitishli porshen**



**2.17-rasm. Tarkibli porshen konstruksiyasi**


Issiqlikni sovitish ko'ylagiga chiqishiga;

Yonilg'ini o'z-o'zidan yonish davri kechikishini oldini oladi;

Mexanik yo'qotishlarni kamaytirib, bunda normal kuch silindrغا porshen yubkasi 2 orqali uzatiladi, uning kallagi 1 porshen barmog'i 3 atrofida erkin aylanadi.

Porshen yubkasi III (2.13-rasm) uning yo'naltiruvchi qismi bo'lib, u  $N$  normal kuchlarning silindr devorlarga uzatadi. Qizish natijasida yubkaning kengayishining hisobga olib, silindr orasida 0.15..025 mm kattalikdagi tirqish ko'zda tutiladi.

Eng ko'p qizishga, jumladan kengayishga yubkaning yuqori qismi duchor bo'ladi. Yuqori ishqalanish va silindrda porshenni tqli lib qolishini oldini olish maqsadida yubkaning yuqori qismidagi diametr kichraytirilgan qilib olimadi (2.18-rasm a).



**2.18-rasm. Porshen yubkalarning profillari**


Ishorasi o‘zgaruvchan normal kuch ta’sirida porshen ilgarilanma – qaytma harakat bilan birga ko‘rsatilgan tirqish chegaralarda silindrda ko‘ndalang siljishlarga (katta tezlanishli siljishlar) uchraydi. Bunda yuzaga keladigan inersial kuchlar yubkani silindr devorlariga urilishiga olib keladi. Ushbu zarblar oqibatida dizel ishlashidagi yuqori ovoz silindr devorlarni vibratsiyasi, ularning porshen yubkasining jadal yeyilishiga olib keladi.

Ushbu zarbalarining Dempferlash uchun yubkaning pastki qismi kichraytirilgan diametrda tayyorlanadi. Yubkaning ushbu qismi va silindr devori orasida xonasimon moy qatlami hosil bo‘ladi.


Bochkasimon yubkani silindr devoriga yaqinlashuvi natijasida ushbu tirqishdan moy siqib chiqarilib zARBni yumshatadi.

Yubkaning ko‘ndalang kesimga ishlov berishda ellips shakli berilib, uning katta o‘qi porshen barmog‘i o‘qiga perpendikulyardir. Normal kuchlar reaksiyasi  $N_{sil}$  ta’sirida dizel ishlashi davomida yubkaning ko‘ndalang kesimi doiraga yaqin shaklga keladi (2.18-rasm, b).

Qator hollarda yubka va silindr orasidagi tirqishdan porshen usti bo‘shlig‘iga moy tushmasligi uchun yubkaning pastki kesimida maxsus shaklli yo‘niq qistirma 5 o‘rnatalib u moy bilan ta’minalashni amalga oshiradi (2.13-rasm). Porshenga ishlov berishda texnologik baza bo‘lib, yubkaning pastki qismidagi yo‘niq 6 xizmat qiladi. Xuddi shundan porshen og‘irligi tenglashtirilganda ortiqcha vazn olinadi. YCHN vaziyatida krivoship qo‘sishma vaznlari va porshen yubkasida kesimlar 5 (2.16-rasm) yasaladi, shuningdek oqimli sovitish chog‘ida porshenni forsunkaga maksimal yaqinlashuvida 6 teshik ochiladi.



2.19- rasm. Porshen bo‘rtiqlarini qovurg‘alash




2.20-rasm. Porshen bo‘rtiqchalari

Bo'rtiq yo'niqlari N (2.13-rasm) porshen barmoqlari orqali gaz kuchlari tomonidan, shuningdek porshen komplekti massasidan harakat yo'nalishi o'zgarish chog'ida maksimal qiymatlarga etuvchi inersiya kuchlari bilan yuklanadi. Buning oqibatida bo'rtiqchalar yuqori bikirlilik va mustahkamlikga ega bo'ladi. Porshenni butun konstruksiya bo'yicha bikirligini ta'minlash maqsadida, bo'rtiqchalar tub va qovurg'alar bilan bog'lanadi. (2.19-rasm). Bo'rtiq yo'niqlarining pastki qism yuzalari yuqori qismiga ko'ra kamroq yuklanadi. Shuning uchun pastki qism uzunligini yuqoriga qismga ko'ra kichikroq qilib, bo'rtiqchalarga trapetsial shakl berilib (2.20-rasm) yasaladi, bu porshen massasini kamayishiga olib keladi.

Porshen barmog'ini bo'rtiq bilan tutashmasidagi ishqalanishni kamaytirish maqsadida uning pastki qismidagi maxsus teshiklarda 2 (2.19-rasm) moy tumani ko'rinishida berilib, dizel karteri bo'shlig'ini to'lg'izadi.

Bo'rtiqchalarda barmoqning UK bo'ylab siljishlarning cheklash va silindr devorlariga tegmasligini oldini olish uchun maxsus yo'nilgan ariqchalarga I (2.13-rasm) stopor halqalari (2.21-rasm) o'rnatiladi. Porshen halqalari ikki turga bo'linadi: kompression va moy sidiruvchi.



2.21- rasm. Stopor halqalari turlari


Kompression halqalar porshen usti bo'shlig'idagi gazlarni karterga o'tishi bilan birga moyning yonish kamerasiga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ular orqali (silindr devoriga, shuningdek sovish ko'ylagiga) porshen tubi orqali qabul qilinadigan issiqlikning asosiy qismi o'tadi. Ushbu issiqlik oqimi ta'sirida, shuningdek halqalarning silindr devoriga ishqalanishi natijasida halqalar (asosan yuqorigi)  $230^{\circ} \dots 240^{\circ}$  C gacha qiziydi. Natijada halqa materiali sezilarli darajada qayishqoqlik xususiyatlarini yo'qotib, bu

zichlovchi sifatlariga teskari ta'sir etadi. Porshen halqalarning ishlash tartibi silindr devoridagi moy yetishmovchiligidagi yuqori tezliklarda sodir bo'ladi ( $10\ldots11$  m/s). Yuqoridagilardan kelib chiqib, kompression halqalarga o'ta yuqori talablar qo'yilib, ulardan asosiyлари quyidagilardan iborat:


- Yuqori yejilishga bardoshlik;
- Halqa qayishqoqligining uning haroratiga nisbatan kuchsiz bog'liqligi;
- Silindr oynasiga yaxshi chiniqishi;
- Ishchi haroratda kichik ishqalanish koeffitsiyenti;
- Agressiv gaz muhitida korrozion turg'unligi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan talablarga sharsimon grafitli yuqori mustahkam cho'yandan tayyorlangan kompression halqalar kiradi. Eng ko'p tarqalgan cho'yan halqa quyma texnologiyasidagi individual shakllarga quyish hisoblanadi.

Mexanik ishvov berilgandan so'ng halqalarning deformatsiyasini oldini olish maqsadida, ularning zagotovkalari  $400\ldots500^{\circ}\text{C}$ da haroratda sun'iy eskiritiladi. Kompression halqalarning yejilish bardoshligini oshirish uchun ularning ishchi yuzalarga yupqa xrom qatlami (qattiqligi  $800\ldots1000$  HB) ( $0,1\ldots0,15$  mm) beriladi. Halqalarning silindr oynasiga yopilishi qarshiligini oshirish uchun ularning ichiga, yuzalariga plazmali changlash usulida molibden yupqa qatlami ( $0,2\ldots0,3$  mm) beriladi. Halqa qulfi uchlari (ularning kesik qismi) silindr oynasiga eng kichik bosim ko'rsatadi. Natijada halqa qulfidagi zichlovchi xususiyatlar minimal holga keladi. Gazlarning ushbu zonadan o'tib ketmasligini oldini olish uchun halqaning ishchi yuzalariga ishvov berish jarayonida silindr devorida, yuqori bosimni shaklga keltiriladi (2.22-rasm).



2.22-rasm. Silindr oynasidagi porshen halqasining radial bosim epyurasi



### 2.23-rasm. Halqalar qulf shakllari


Halqa qulflari 2.23-rasmda ko'rsatilgan shakllardan bo'lishi mumkin. Silindrga o'rnatilgach halqadagi qulf tirqishi 0,2...0,5 mmni tashkil etadi. Kompression halqalarning balandligi 2,5..4 mmni tashkil etadi. Halqa balandligi oshishi bilan birga ishqalanish yo'qotishlari ortib, uning chiniquvchanligi yomonlashadi, balandlikning kamayishi bilan porshen kallagidan harorat ketishi yomonlashadi va halqaning issiqlik yuklanishi ortadi.

Kompression halqalarning ko'ndalang kesim shakllari 2.24-rasmda *a*, *d* keltirilgan. Yuqori halqa odatda ikki yoki bir tomonli (2.24-rasm *a* va *b*) trapetsiyalar ko'rinishida bo'ladi. Halqalarning ushbu shakllari sezilarli darajada halqa va porshendagi ariqchalar orasidagi ds tirqishlarni kamayishiga, halqani yotishiga va zichlovchi xususiyatlarni yo'qolishiga olib keladi. Porshenning radial siljishlarida uning ariqchalari va halqalar orasidagi konus yuzalar tirqishi o'zgaradi. Tirqishga tushgan kuyindilar mexanik tarzda maydalanadi va moy bilan birga chiqib ketadi. Ilgarilanma-qaytma harakat qiluvchi halqaning bochkasimon ishga yuzasi uni silindr devoridagi moyning yupqa qatlamida sirpanishiga va ishqalanishdagi yo'qotishni kamayishiga olib keladi.

Ikkinci (2.24-rasm, *d*) kompression halqa «minut» qiyalikli kesimga egadir. U kesik konus ko'rinishida bo'lib, tepasi yuqoriga qaragan, tashkil etuvchisining qiyalik burchagi 30° dan 90° gacha bo'ladi. Ushbu halqalar gazda chiniqtirilib, silindr oynasida yuqori bosim hosil bo'lishi bilan bog'liq yuqori zichlovchi xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu belbog'ga porshen harakatlanishda moyning ortiqcha qismini silindr devoridan pastga sidiradi, ya'ni ushbu halqa qisman moy sidiruvchi funksiyasini bajaradi.

Moy sidiruvchi halqalar (2.24-rasm, *e*) silindr devoridan ortiqcha moylarni sidirish ularni yonish kamerasiga tushmasligi va motor karteriga ketishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ushbu halqalar silindr devorlari yuqori zonasidagi moy miqdorini rostlab turadi. Bunga

qaramasdan, moyning bir qismi porshen usti bo'shligiga tushib, u yerda yonadi va ishlab bo'lgan gazlar bilan chiqib ketadi.



**2.24-rasm. Porshen halqalarining ko'ndalang kesimi**


Zamonaviy dizellar konstruksiyasi, forsirovka darajasi va tezyurarligiga qarab moy quyish darajasi 0,2...0,5 % yonilg'i sarfini tashkil etadi.

Moy quyishning yuqori chegarasi yuqori ekologik talablar bilan shartlanib, detal yuzalarida jadal qurum yig'ilishi, ishlab bo'lgan gazlarning qurumliligini yuqori ekologik talablari, yuqori sifatli motor moyining qimmat narxligi, turli ko'p funksiyali prisadkalar kompleksi mayjudligi bilan baholanadi. Moy quyish sarfining pastki chegarasi silindr juftliklarining gidrodinamik ishqalanish tartiblarini ta'minlash uchun doimiy moy berib turishini baholab, uning buzilishini ishqalanish yo'qotishlarining ortib ketishiga va yuzalardagi yoriqlar paydo bo'lishi xavfini keltirib chiqaradi.

Traktor dizellarida cho'yan moy sidiruvchi halqalar eng ko'p tarqalgan bo'lib, u qutisimon kesimli broslet prujinali bo'lib, radial kengaytirgich sifatida qo'llaniladi. Silindr devoridan ushbu halqaning o'tkir qirrasi bilan sidirladigan moy, porshen ariqchasidagi dranaj teshiklar orqali o'tadi. Qirralarning yeyilish bardoshligini oshirish maqsadida ularning xrom bilan galvanik qoplami amalga oshiriladi. Purkagichsiz traktor dizellarda porshenga 1 yoki 2 moy sidirgich halqa o'rnatiladi: biri kallakda va ikkinchisi yubkada.

Dizel purkagich bilan forsirovkalanganda porshen yubkasida yetarli moy ta'minlash uchun tirqish hosil qilishda halqa o'rnatilmaydi.

*Porshen barmog'i* (2.25-rasm) shatunini porshen bilan sharnirli bog'lash va silindrlardan hosil bo'ladigan gazlar kuchini porshen bo'rtig'idan shatunga uzatib beradi. Dizelni ishlash jarayonida porshen barmog'iga sezilarli dinamik, zarbiy, siklik, egiluvchi yuklanishlar ta'sir qiladi.



**2.25-rasm. Porshen barmog'i**

Bundan tashqari, barmoq chegaraviy moylanish tartibida ishlaydi, uning yuzalaridagi moy yetishmovchiligi uning notejis yeyilishiga olib keladi. Shu sababli barmoq quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Ishorasi o'zgaruvchan egiluvchi yuklamalardagi ta'sirga yetarli bardoshlilik;
- Ishchi yuzalar yuqori yeyilish bardoshligi;
- Kichik massa.

Traktor dizellarining porshen barmoqlarni tayyorlash uchun material sifatida 12XH3A va 18XHBA turdag'i legirlangan po'lat ishlatiladi. Barmoqlarni 1,5...2,00 mm chuqurlikda sementatsiyalanib, keyinchalik YCHT yordamida toplanadi va 55...60 HRC ishchi haroratda bo'shatiladi. Ushbu ishlov berish natijasida bormoqning ishchi yuzasi yuqori yeyilish bardoshlikka erishadi, uning ko'ngdalang kesimi eguvchan zarbiy yuklanishlarga qarshilik qilish imkonini beradi. Forsirlangan dizel barmoqlari, asosan qo'shma qarshiliklarda, toplash va bo'shatishdan so'ng ularni gazli yoki suyuqlikli 0,3...0,4 mm gacha oshirish imkonini beradi. Barmoqning ishchi yuzasi silliqlanib polirovkalanadi. Mexanik ishlov berish izlari qolishiga yo'l qo'yilmaydi, chunki ular kuchlanishlarning konsentratsiyalanishiga olib keladi.

Traktor dizellarida suzuvchan turdag'i barmoqlar keng qo'llaniladi. Porshennen bo'rtig'i va shatun yuqori kallagidagi kafolatlangan tirqish tufayli dizel ishlayotganda barmoq aylanma harakat qila oladi. Shu sababli ishqalanuvchi detallar o'rtafigi


nisiy sirpanish tezligi pasayadi, barmoqning yeyilishi esa bir tekis bo'ladi. Porshen barmoq'ining o'q bo'y lab surilish va silindrda devorlariga tegish xavfi porshen bo'rtig'ida o'yib ochilgan 8 ariqchaga (2.13-rasmga qarang) stopor halqlar qo'yish bilan bartaraf etiladi.

*Shatun guruhni* (2.26-rasm) ilgarilanma-qaytma harakatlanayotgan porshen guruhini aylanma harakat qilayotgan tirsakli val bilan kinematik bog'lanishini ta'minlaydi. Bu guruhga shatun, uning yuqorigi (porshenli) kallagini vtulka-podshipnigi 1 bilan, uning pastki (krivoshipli) kallagini podshipnik vkladishlari 2 komplekti, shatun qopqog'i va uni shatun tanasiga mahkamlash detallari (boltlar 4 va gaykalar 5) kiradi.

Shatun unga porshen barmoq'idan ta'sir etayotgan kuchlarni tirsakli valning shatun bo'yniga uzatish uchun mo'ljallangan. Shatun murakkab yassi parallel tebranma harakatni bajaradi. Shatun gazlarning bosim kuchlari ta'siri ostida siqilishga va bo'ylama egilishga, porshen komplektining inersiya kuchlari ta'siri ostida cho'zilish - siqilishga, shatun o'zining massasini inersiya kuchlari ta'siri ostida esa - ishorasi o'zgaruvchan ko'ndalang egilishga uchraydi.

Shatunga quyidagi talablar qo'yiladi:

- charchashga yuqori qarshilik;
- yuqori bikirlik;
- yuqori kallak podshipniki – vtulkani va pastki kallak podshipnik qistirmalarini yeyilish bardoshligi;
- kichik massa.




2.26-rasm. Shatun guruhining detallari

Traktor dizellari shatunlarini tayyorlash uchun 40XH; 40XHMA; 18XHBA markali legirlangan sifatlari po'latlar ishlataladi. Shatun qaynoq shtamplash va keyinchalik mexanik va termik ishlov berish – normallash, toplash va bo'shatish kabi jarayonlarda tayyorlanadi, hamda detal qattiqligi 30..280 HBga yetadi. Shtamplashdan keyingi defektlarni yo'qotish uchun shatunlar shar oqimiga, forsirovkalangan dizellar mexanik ishlov berilib, polirovka ham qilinadi.

Shatun (2.26-rasm) uchta konstruktiv elementdan yuqori (porshen) kallagi I, strejen II, pastki (krivoshiplik) kallagi III dan tashkil topadi.

Shatunning yuqori kallagi (2.27-rasm) uni porshen barmog'i bilan birlashtirish uchun no'ljallangan bo'lib, silindrik shaklga yaqin ko'rinishda bo'ladi. Ishqalanish va yeyilishni yo'qotishlarni kamaytirish uchun yuqori kallagiga bronza yoki biometall vtulka qoqiladi. Yuqori kallaklar vtulkalari ishqalanish yuzalariga teshik 1 orqali tushadigan moy bilan moylanadi. Ba'zan moy vtulkaga shatun sterjenidagi 2 tirsakli val bilan shatun yelkasidan keladi. Vtulka ichidagi tirkishda moyni yaxshi taqsimlanishi uchun ariqchalar 3 ochiladi, tashqi tomonidan moy taqsimlash ariqchalar 4 ochiladi.




2.27-rasm. Shatunlarning yuqori kallaklari

Porshen kallagi massasini kamaytirish maqsadida ba'zan unga trapetsiyasimon shakl berilishi, porshen bo'rtiqlarining kesik yon sirtlariga mos keladi (2.20-rasm). Ushbu shakl bir paytda vtulka pastki, yuqori yuzalaridagi yuklanishlarni tenglashtirish imkonini beradi. Quyimlar 5 (2.27-rasm) porshen kallagini massa bo'yicha keltirishda ortiqcha metallni olib tashlash uchun xizmat qiladi.

Shatun kesim bo'ylab qo'shtavr ko'rinishida bo'lib, u egilishga yetarlicha yaxshi qarshilik ko'rsatadi (2.28-rasm). Bosim ostida

shatunning yuqori kallagi podshipnigida moy uzatish uchun teshik ochilgan. Sterjenning kallaklarga o'tishi ravon qilinsa, butun konstruksiyaning kerakli bikirligi va charchashga qarshiligi ta'minlanadi.




2.28-rasm. Shatun sterjenining ko'ndalang kesimlari

Shatun pastki (krivoship) kallagi tirsaklı val shatun podshipnigining korpusini tashkil etadi. Krivoship kallagi ajraluvchan qilinib, uning pastki qismi (qopqog'i) shatunga maxsus boltlar bilan qotiriladi. Qalpoqning pastki qismida quyim mavjud bo'lib, shatun krivoship kallagini massaga keltirishda olib tashlashi mumkin. Traktor dizellarida to'g'ri va qiya (2.29-rasm a, b va d) krivoship kallaklari qo'llaniladi. Motorni yig'ishda porshen shatun bilan birgalikda qopqoqsiz silindr orqali shatunning krivoship kallagi tirsaklı val yelkasiga o'tirguncha tushiriladi. Buning uchun shatun kallagining A ko'ndalang o'lchami qopqoqsiz silindr diametridan kichik bo'lishi lozim, ya'ni  $A < D$  dir. Kallakning kesik bo'lishi A o'lchamni kamaytiradi va d diametrni oshirish imkonini beradi. Bu podshipnik val yelkasiga tushadigan bosimni kamaytirib, ularni yeyilish kamayishiga olib keladi. Ushbu konstruksiyaning kamchiligi shatun boltlarining cho'zilishigagina emas, balki ishorasi o'zgaruvchan yeyilishda ishlashidadir.

Shatunning pastki kallagiga qopqoq bilan birgalikda ishlov beriladi. Ushbu ishlov berish shatunning bir qopqog'ini boshqasiga almashtirishga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun birgalikda ishlov beriladigan detallarga zarbli qaytma bilan silindrlarning tartib raqami urib chiqiladi (2.26-rasm).

Shatunga nisbatan qopqoqning siljishi ularning bir-biriga nisbatan bikir mahkamlash hisobiga amalga oshiriladi. Ushbu mahkamlash ikkala detalning birikuvchi joylarida uchburchak shlisalar 2 (2.29-rasm d), 1 shtiftlar qo'llash, shuningdek «toza» boltlar vositasida (2.29-rasm b) amalga oshiriladi. Shatun bolt va gaykalarining 40XH,

18XHBA, 20XH3A, 40XHMA markalari bo'shatishdan so'ng qattiqligi 35..40 HRC ga yetkaziladi. Qabul qilingan shatun kallagi konstruksiyasiga ko'ra bolt gayka bilan (2.29-rasm *a* va *b*), shatun jismiga buraladigan boltlar (2.29-rasm *d* va *e*) tarzida qo'llaniladi. «Toza» boltlar (2.29-rasm *b*) o'rta qismida silliqlangan yuza bo'lib, u bilan bolt tutashadigan detallarga taranglik bilan o'tiradi. Gaykani mahkamlashda boltni aylanib ketmasligi uchun uning kallagida kesikli joy qilinib, bolt bu joyi bilan shatun jismiga tiralib turadi.



**2.29-rasm. Shatunning pastki kallagi**

Boltlar va gaykalardagi rezbalar mayda qadam bilan ochilib, u o'z-o'zidan buralish ehtimolini kamaytiradi. Shatun bolti gaykasini qotirish nazorati uning cho'zilishi bo'yicha indikatorli skoba bilan amalga oshirilib, uning oyoqchasi silliqlangan yuza B ga tiraladi (2.29-rasm, *b*) yoki tortishdag'i moment bilan o'chanib, bunda maxsus dinamometrik kalitlar ishlatalidi.

*Krivoship guruhi.* Bu guruhga maxovik bilan birga, tirsakli val vaznlar gaz taqsimlash mexanizmi yuritmasi shesternyalari qo'shimcha agregatlar va muvozanatlovchi vallar, qo'shimcha agregatlar qayishli yuritma shkivlari, val tebranishlari dempferi, moy qaytargich halqalar va boshqalar kiradi. Tirsakli val dizel shatunlar tebranma harakatini aylanma harakatga o'zgartirib beradi, uning tirsaklari tomonidan vujudga keladigan burovchi momentlarni qabul qilib, natijaviy momentini ishlashi orqali traktor transmissiyasiga uzatiladi. Siklga ko'ra, qiymat jihatdan o'zgaruvchi valga ta'sir

etuvchi gazlarning bosimi ko'chma va inersiya kuchlari uni cho'zilishga, siqilishga, buralishga va elementlarining egilishga olib keladi. Valning ushbu qiyin ish sharoitida tayanch yelkalarning podshipniklarga nisbatan yuqori sirpanish tezligi ham qo'shiladi.

Tirsakli valga qo'yiladigan asosiy talablarga uning bikirligi, yejilish bardoshligi, charchashga qarshiligi, korrozion turg'unligi va texnologiyabopligiga kiradi.

Vallar asosan, 45X, 45Г2, 50Г, 42ХМФА po'latlardan qaynoq shtamplash usuli bilan tayyorlanadi.

Val bo'yinchalari profillangan roliklar bilan silliqlab pishiriladi, moy ketish teshiklari esa mexanik ishlovdan so'ng yaxshilab tekislab chiqiladi, chunki ular kuchlanishlar konsentratsiyasini hosil qilishi mumkin. Val bo'yinchalari YCHT bilan 2..3 mm qalinlikda toblangandan so'ng, uning yuza qattiqligi 50...55 HRCni tashkil etadi. Bo'yinchalarning eritilgan sianli tuzlardan toblangan gazli yoki suyuqli azotlash ushbu qattiqlikni 60 HRC va undan yuqoriga ko'tarish imkonini beradi. Bo'yinchalarga oxirida superfinsihlab ishlov berilib, keyinchalik silliqlanadi. Kamdan-kam val zagotovkalari globulyar grafitli cho'yandan modellarga quyish bilan olinadi.


2.30-rasmda 4 silindrli tirsak valining sxemasi keltirilgan. Uning asosiy elementlari 1) burun; 2) tirsak; 3) quyruq qismidir. Val burunchasi taqsimlovchi shesternyalar qopqog'idan chiqib turadi. Uning bo'yinchasiga 2 shponka orqali ko'p tarmoqli ponasimon qayish shkivi o'rnatiladi. U 2 rezbali teshikcha burab qotiriluvchi bolt bilan mahkamlanib, dizel sovitish tizimi ventilyatori nasosi, generatorni, havo kompressorini, rul gidrokuchaytirgichi nasosi va boshqa yordamchi agregatlarni aylantiradi.

Shkviga ko'pincha valning aylanma tebranishlari so'ndirgichi o'rnatiladi.

Bo'yincha 3 ga gaz taqsimlash mexanizmi val yuritmasi shesternysi, yuqori bosimli yonilg'i nasosi, moy nasoslari o'rnatiladi. Bo'yincha 4 ga kerak bo'lganda val yuritmasi vazn toshlarni shakliga tartibli inersiya kuchlarini muvozanatlovchi asl vazn o'rnatilib, birinchi darajali inersiya kuchlari momentini muvozanatlaydi.


Silindrlar tomonidan (ishlash ketma-ketligiga ko'ra) hosil qilinadigan momentlar val buralishiga, uning o'z qayishqoqligi bilan teskari buralishiga, shunday qilib aylanma tebranishlarga olib keladi.

Maxovik oldida 4 «A» kesimda 2 (2.31-rasm, a) – tebranishlar tugunida valning buralishi burchak amplitudasi  $f$  max burunchada mavjud bo‘ladi. Shuning uchun val burunchasida aylanma tebranishlar so‘ndirgichi o‘rnatilib, uning konstruksiya variantlari keyinchalik quriladi. Davriy ishorasi o‘zgaruvchi val buralishi uni charchab buzilishiga, gaz taqsimlash mexanizmi va yuqori bosimli yonilg‘i nasosi yuritmasi validagi g‘ildirak va shesternya tishlari orasidagi zarblarni keltirib chiqarib, o‘z-o‘zidan ushbu tishlar pitingi, gaz taqsimlash fazalari va yonilg‘i uzatish qonuniyatini buzilishga olib keladi.



**2.30- rasm. Tirsakli val**

Dizel silindrler soni ortsa, uning val bikirligi kamayadi va mos ravishda  $f$  max qiymati ortadi. Shuning uchun 6 silindrli va V-simon 8 va 10 silindrli dizellardan yetakchi shesternyalar asosan val burunchasiga emas, balki uning quyruq qismiga o‘rnatiladi (orqa yuritma, 2.31-rasm, b).



**2.31-rasm. 4 va 6 silindrli motorlarda tirsakli val aylanma tebranishlarining burchak amplitudalari**

Val tirsagi odatda to'liq tayanchli qilib, har bir o'ng va chap tomonidan tayanch o'zak bo'yinchalar 5 (2.30-rasm) bilan tayyorlangan bo'ladi. Dizel silindrлarni ishechi sikllar ketma-ketligiga bog'liq ravishda  $180^{\circ}$  (2 va 4 silindr qator dizellar),  $120^{\circ}$  (3 va 6 silindrli)  $90^{\circ}$  (8 silindrli V-simon) burchak ostida tirsaklar joylashadi.

Tirsak bikirligi uning shatun 9 va o'zak bo'yinchalarning birlashtiruvchi yelkalar 7 qalinligiga bog'liq bo'ladi. Yelkalar odatda oval shaklga o'xshash bo'lib, xavfli kesim 0-0 ning kattalashgan yuzasini ta'minlab beradi. Tirsak bikirligi bo'yinchalar – II o'lchamiga o'tishida ortadi.

Tirsakning charchashga qarshiligini oshirishda radiusli o'tishlar (galtellar) 16, ya'ni uning bo'yinchasidan yelkaga o'tish joyida, kuchlanishning dekonsentratsiyalash funksiyasini bajaradi. Shatun bo'yinchalari va u bilan birga aylanuvchi shatun kallaklarning krivoship kallaklari markazdan qochma kuchni hosil qilib, o'zak bo'yinchalar va ularning podshipniklarini yuklaydi. Ularni pasaytirish uchun yelka davomlardan vazntoshlar 13 ko'zda tutilgan bo'lib, shuningdek boltlar 14 yordamida qotirilishi mumkin. Val dinamik balansirovka qilinganda ortiqcha metall o'yilqlar 15 bilan olib tashlanadi.

Shatun bo'yinchalari to'liq yoki yarim qilib ishlanadi. Yarim shatun bo'yinchalari o'zining kichik massasiga ko'ra, o'zak bo'yinchalardagi va podshipniklardagi markazdan qochma yuklanishlarni kamaytiradi. Ushbu bo'yincha ichidagi bo'shliqning 10 yuzalarini moylovchi moyni tozalash uchun, ishqalanuvchi detallar yeyilishi mahsulotlardan, kuyindilar tozalash uchun xizmat qiladi. Bu zarralar markazdan qochma kuchi ta'sirida bo'shliq zonaga siqilib, valning aylanish o'qidan uzoqlashadi. Bo'yincha yuzasiga 11 teshik orqali tozalangan moy chiqadi. Bo'shliq rezbali tiqin 8 bilan bekitiladi.

Valning quyruq qismi unga massiv maxovikni rezbali teshiklarga boltlar yordamida mahkamlash uchun xizmat qiladi. Val quyruq qismida yoki maxovik gup gagichida 19 yo'niq ochilib, unga traktor ishlashi muftasi vali va old tayanchi sharikli podshipnigi presslab o'tkaziladi. Bo'shliq 18 ushbu podshipnik uchun moylash materiali bilan to'lg'azilib, 20 yo'niqqa o'zi siquvchi salnik o'rnatiladi.

Quyruq qismi yon sirtlarga 2 ta kontrol shift 21 o'rnatilib ular orasidagi markaziy burchak  $180^{\circ}$  dan bir necha garadusgacha bo'lib, bu maxovikning quyruq qismiga faqat bir holda o'rnatish imkonini beradi.

Maxovik (2.32-rasm) valga 1 teshikdan boltlar bilan mahkamlanib, bir qator funksiyalarni bajaradi. Dizel silindrlarda gazlar foydali ish sodir etayotganligida, tirsakli val o'zining aylanishini tezlashtiradi va maxovik massasida kinetik energiya yig'ilishi ro'y beradi. Silindrlar siqish taktida, val aylanishi sekinlashganda, maxovik yig'ilgan energiyani sarflab, valni ravon aylanishini ta'minlab beradi.

Maxovik gardishi 2 ga rezbali teshiklar boltlar ilashish muftasi qobig'i bilan mahkamlanadi. Traktorning joyidan siljishida ilashish muftasi qo'shilganda, bosuvchi disk o'zining yo'naltiruvchi barmoqlari bilan maxovik gardishdagi gazlar 4 bo'ylab sirg'aladi va etaklanuvchi friksion diskni yuzaga 6 ga bosadi. Ilashish muftasi ishqalanish kuchlari hisobiga dizelda hosil bo'ladigan burovchi moment traktor transmissiyasiga o'tadi. Ilashish muftasini ulanishi dizel yuklanishni oshirib, valning aylanishlar soni kamayadi. Bu motorni o'chib qolishiga olib kelishi mumkin. Maxovikda yig'ilgan kinetik energiya transmissiyaga uzatiladi, bu esa traktorni qo'zg'atilishini oson oshishiga sabab bo'ladi.


Maxovik gupchagidagi teshik 1 orqali nazorat shtiftlari va boltlar o'tib, ular orqali val quyruq qismiga mahkamlanadi. Maxovik gardishiga qaynoq holatda tishli g'ildirak 7 presslab o'tkazilib, u orqali startyor yoki yurgizib yuborish motorchasi shesternyasidan motorni yurgazib yuborish amalga oshiriladi. Teshik 5 ilashish disklarini sovitish va yejilish mahsulotlarini chiqib ketishi uchun xizmat qiladi.

Teshiklar moyni markazdan qochma kuch ta'sirida ketishi uchun mo'ljallangan bo'lib, ular ilashish muftasi ishqalanuvchi yuzalariga tushishi mumkin.

Maxoviklar kulrang cho'yan СЧ18 yoki СЧ 20 dan quyiladi. Tishli g'ildirak polosali po'latdan quyiladi va toblanadi.

Aylanma tebranish so'ndirgichlari (ATS) (dempferlar) tirsakli val burunchasiga o'rnatilib, bu yerda ushbu tebranishlar amplitudalari eng katta qiymatga ega bo'ladi. Ularning ish prinsipi shundan iboratki,

tebranishlarning mexanik energiyasini issiqlik energiyasiga o'zgartirib, keyinchalik atrof-muhitga tarqalish uchun xizmat qiladi. U tebranishlar amplitudasini amalga oshirib, tirsakli valga bog'langan demperlovchi elementdan iboratdir.



**2.32-rasm. Maxovik    2.33-rasm. Aylanma tebranish so'ndirgichi**

Ushbu element turiga bog'liq ravishda so'ndirgichlar suyuqli yoki molekulyar ishqalanishli bo'ladi.

Suyuqlikli ishqalanish so'ndirgichlari (2.33-rasm) payvandli korpus 1 va erkin aylanuvchi halqali inersion massa 2 dan tuzilgan. Ular orasidagi tirqish yuqori qovushqoqli suyuqlik silikon bilan to'lg'azilgan.

U teshik orqali solinib, so'ngra tiqin bilan bekitiladi. Valning burchak tebranmalar amplitudalari 2 massa va silikon suyuqlik o'rta sidagi ishqalanish hisobiga kamayadi.

Molekulyar ishqalanish so'ndirgichlarida (2.33-rasm, b) demperlovchi qatlama sifatida flanes 3 halqasimon inersion massa 3 yopishtirilgan rezina qatlamidan 1 tashkil topgan. Tirsakli val aylana tebranishlar energiyasi qisman rezina qatlama tomonidan yutilib, u inersion massa 2 kuchlari tomonidan demperlanadi. So'ndirgichlar odatda tirsakli valga taqsimlovchi inersiyalar qopqog'ida joylashgan dizellarning yordamchi agregatlari ponasimon qayishli yuritmasi ikkovi 4 orqali mahkamlanadi.

*Tirsakli val podshipniklari* sifatida sirpanishli podshipniklar qo'llanilib, ular yengil olinadi, ularni almashtirish chog'ida ishqalanuvchi yuzalarga ziyon yetganda yengil almashiniladi.

O'zak va shatun podshipniklari radial bo'lib, dizel silindrlaridagi gazlar bosimi kuchidan, shuningdek krivoship shatun mexanizmining

harakatlanuvchi detallar massalari inersiya kuchlar bilan yuklanadi. Podshipniklar yuzasidagi bosim silindrlarda yonilg'i yonish jarayonida 35...40 MPa va undan ko'proq qiymatga etadi.

Podshipniklarga qo'yiladigan asosiy talablarga uning yejilish bardoshligi, antifriksin yorilishiga qarshi, antikorroion zarrachalarning yutilishi xususiyatlari kiradi. O'zak podshipniklar shuningdek, yetarli bikirlikka ega bukilishi yuqorida sanab o'tilgan yuklanishlar natijasida tirsakli valni siklik kamayishini bartaraf etuvchi xossalarga ega bo'lishi lozim.


*Radial podshipniklar* 2 ta qistirmadan iborat bo'lib, shatun qistirmalari qalinligi 3 mm (2.34-rasm a), o'zak qistirmasini 4 mm (2.34-rasm, b) bo'lib, sovuq shtamplash bilan shakllantiriladi.

Qistirmaning asosi po'lat lenta bo'lib, uchta alyuminiyli qotishma qatlami sepilgan, forsirovkalangan dizellarda qo'rg'oshin qotishmasi qatlami sepilgan bo'ladi. Uchinchi qatlam qo'rg'oshin va qalay qotishmasidir, uning qalinligi 0,03..0,04 mmga teng. Qistirmalarning yo'niqlarga to'g'ri o'rnatish uchun maxsus shtamplangan gazlar ochilgan. Podshipnik qopqog'i mahkamlash boltlari tortilganda, qistirmalar o'rın yo'nig'iga taranglik bilan o'tiradi, bu esa ishqalanish kuchi ta'sirida val bo'yinchasida ularni aylanib ketishini oldini oladi. Moylovchi suyuqlik bosim ostida asosiy magistraldan 7 (2.7-rasm) 9 o'tish orqali karter to'sig'i teshigi 2 (2.34-rasm, b) va yarim halqa ariqchasi 3 ning yuqori kam yuklanuvchan o'zak podshipnigi qistirmasiga keladi. Keyinchalik ko'ngdalang ochiq teshik 6 orqali (2.30-rasm) va qiya teshik orqali uzlusiz va bevosita shatun bo'yinchasi ishqalanuvchi yuzalari yoki bo'shliq 10 orqali teshik 11 ga tushadi.

*Tayanch podshipniklar* (2.34-rasm, d) ilashish muftasi qo'shilganda, uning siquvchi prujinalari kuchi bilan shuningdek, tirsakli valda o'rnatilgan yuqori bosimli yonilg'i nasosi va gaz taqsimlash mexanizmi yuritmasi shesternyalarning qiya tishli ilashmasidagi o'q bo'ylab tashkil etuvchi kuchlari bilan yuklanadi. Bu kuchlar uni o'q bo'ylab siljishini keltirib chiqarib, silindrga yuqori bosimli yonilg'i nasosi tomonidan yonilg'ini uzatish burchagini ilgarilashiga va gaz tarqalishi fazalarining o'zgarishiga olib keladi.

3 karter to'sig'i bo'rtmasini va 7 o'zak podshipnik qopqog'ini o'yiqchasiga o'rnatilgan 1, 2, 4 va 6 to'rtta yarim halqalar valni o'q

bo'ylab siljishini oldini oladigan tayanch podshipniklari hisoblanadi. Yarim halqalarni 5 quyruq qism oldida joylashishi valni ilashish mustasi prujinalarinig kuchidan yuksizlantirishga imkon beradi. 9 teshik orqali o'tadigan shtiftlar bilan yarim halqalarning aylanishini oldi olinadi. O'zak podshipnikdan oqib chiqayotgan moyni val bo'yinlari va yarim halqalarning ishqalanuvchi yuzalari bo'yicha bir tekis taqsimlanishi uchun ularda 8 radial ariqcha qilinadi. Yarim halqalarning bu yuzalari antifrikcion qotishma qatlami bilan qoplangan.



**2.34-rasm. Tirsaklı val podshipniklari:**  
a – shatun; b – o'zak; d – tayanch

### 2.3. Gaz taqsimlash mexanizmi

Gaz taqsimlash mexanizmi havoni silindrغا kiritish va undan ishlataligan gazlarni gaz taqsimlash diagrammasining fazalariga mos ravishda chiqarish uchun mo'ljallangan.


Traktor motorlarida faqat tuzilishining oddiyligi va ishonchli ishlashi bilan ajralib turadigan klapanli gaz taqsimlash mexanizmi qo'llaniladi.

Dizellar uchun odatdag'i klapanlarning yuqorida joylashuvi silindrлardagi ishchi jarayonlarni kechishiga qulay bo'lgan ixcham yonish kameralarini qo'llashga imkon beradi.

Gaz taqsimlash klapanlari motorning tirsaklı validan taqsimlovchi (kulachokli) val orqali harakatga keltiriladi.

Silindr diametri 130 mmgacha bo'lgan motorlarda har bir silindrغا ikkita: bitta kirituvchi va bitta chiqaruvchi klapanli gaz taqsimlash tizimini qo'llaydilar. Silindr diametri 130 mmdan katta bo'lganda, qoida tarzida, har bir silindrغا to'rtta klapanli – ikkita

kirituvchi va ikkita chiqaruvchi gaz taqsimlash tizimini qo'llaydilar. To'rt klapanli gaz taqsimlash tizimi ikki klapanligiga nisbatan, gazlar uchun o'tish kesimini taxminan 1/3 marta oshiradi, gaz almashishdagi yo'qotishlarni ancha kamaytiradi, silindrni havo bilan to'lishini oshiradi.



**2.35-rasm. Klapanlarning silindrlar kallagida joylashish sxemasi**

Ikki klapanli gaz taqsimlash tizimida klapanlar, odatda motor boʼylama oʼqiga parallel boʼlgan oʼq boʼylab joylashadi. Bunda silindrlar kallagidagi kiritish va chiqarish kanallari bir tomonga ham, ikki tomonga ham chiqishi mumkin (2.35-rasm, a).


To'rt klapanli sxemalar kanallarida klapanlarning joylashishi ketma-ket (2.35-rasm, b) yoki parallel (2.35-rasm, d) boʼlishi mumkin.

Klapanlarni yuritmasi bevosita silindrlar kallagi tepasida joylashgan, taqsimlash valining kulachogidan (valning yuqorida joylashuvi), yoki silindrlar blokida joylashtirilgan 6 koromislo (2.36-rasm), 3 shtanga va 2 turklich orqali (valning pastda joylashuvi) amalga oshirilishi mumkin.

To'rt klapanli gaz taqsimlash tizimida valning pastda joylashuvida bir nomdagи klapanlarning yuritmasi, ular kanalda ketma-ket joylashganda odatda koromislo bilan birdaniga ikkita klapanga ta'sir etuvchi 1 traversa orqali (2.37-rasm, a), yoki klapanlar parallel joylashganda panshaxasimon 2 va 3 richaglar (2.37-rasm, b) bilan amalga oshiriladi. Val yuqorida joylashganda har bir klapanga o'zining kulachogi ta'sir etadi.

Motorning tirsakli vali, taqsimlash vali yuritmasini silindrsimon shesternyalarini yoki konussimon shesternya va valchalar tizimi bilan burovchi momentni valga uzatib uni aylantiradi. Tirsakli valning kulachogi turklich, shtanga va kromislo orqali klapan prujinasi (prujinalari) qarshiligini yengib kerakli klapanni ochadi. Motor

silindriga toza havo kiradi (kiritish klapani) yoki ishlagan gazlar chiqadi (chinarish klapani).




2.36-rasm. Klapan mexanizmi

Motor klapanlari katta dinamik yuklanishlar va yuqori harorat ta'siriga duchor bo'ladi. Masalan, chinarish klapani 600 m/s gacha tezlikdagi gaz oqimi ichida ishlaydi va uning harorati 700°C ga yetib boradi. Shuning uchun chinarish klapanlari ƏP-616, 4X10S2M issiqbardosh po'latlardan, kiritish klapanlari esa 4X10STM legirlangan po'latdan tayyorlanadi. Klapanlarning xizmat muddatini oshirish uchun ularning ishchi belbog'lariga ƏP-616 kattiq qotishma suyuqlantirib qoplanadi. Klapan sterjenining uchini ham qo'shimcha (HRC 50 gacha) mustahkamlaydilar.

Klapan sterjen va kallak (tarelka)dan iborat bo'ladi. Kiritish klapanlarining kallagi odatda chinarish klapanlariga nisbatan kattaroq bo'ladi. Kiritish klapani ishchi belbog'ining qiyalik burchagi 45° yoki 30°, chinarish klapaniniki esa 45° bo'ladi.

Forsirovkalangan motorlarning chinarish klapani kallaginisovutishni jadallashtirish uchun ularning sterjenini ichi bo'sh qilib bajariladi va balandligining 2/3 qismiga 93°S da erib suyuqlanadigan natriy kristali bilan to'ldiriladi. Bo'shliq tagidan tiqin bilan zichlanadi. Klapan harakatlanganda suyuq natriy bo'shliqda "chayqaladi" va uning kallagidan issiqlik yo'naltiruvchi vtulkaga eltib beriladi, keyin silindr kallagining sovutuvchi ko'ylagiga o'tadi.

Klapan prujinalari 11 (2.36-rasmga qarang) 12 klapanni silindr kallagidagi (bitta yoki ikkita) 15 uyaga siqadi. Klapan sterjeni 10 prujinalar tarelkasi bilan ikkita 9 suxarik bilan qoritiladi, ularning ichki yuzasida silindr simon bo'rtiq bo'ladi.




**2.37-rasm. To'rt klapani gaz taqsimlash tizimi yuritmasining sxemasi**

Klapan prujinasining xususiy tebranishlar chastotasini g'laylonlanuvchi tebranish chastotasi (yuritma koromislosining klapanga ta'sir ko'rsatish chastotasi) bilan mos kelganda yuz beradigan rezonans bo'lmasligi uchun klapanga turli xususiy tebranish chastotasiga ega bo'lgan ikkita prujina qo'yilish mumkin. Bir vaqtning o'zida prujinalardan bittasi ikkinchisi sinib qolganda klapanni silindrga tushib ketishdan saqlab turadi. Bitta prujina o'ramlarining sinib qolganda ikkinchi prujina o'ramlari orasiga kirib qolmasligi uchun ichki va tashqi prujinalar qarama-qarshi tomonga qarab o'ralgan bo'ladi. Prujinalar klapanni uyasiga zinch o'tirishini ta'minlashi kerak, shuningdek, kulachok-klapan kinematik zanjirini uzilishiga qarshilik ko'rsatishi kerak. Buning uchun, prujinaning kuchi, klapanni va u bilan birga harakatlanayotgan gaz taqsimlash mexanizmining inersiya kuchidan katta bo'lishi kerak.

Klapanni qiziganda va kengayganda uyasiga zinch o'tirishini ta'minlash uchun issiqlik tirqishi qo'yish ko'zda tutilgan. U kiritish klapanlarida 0,2...0,3 mm, ko'proq qiziydigan chiqarish klapanlarida esa 0,2...0,5 mmni tashkil etadi.

Klapanlarning almashtiriladigan 14 yo'naltiruvchi vtulkalari klapan sterjeni birikmasi va uning yo'naltiruvchisining ular yetarlicha moylanmaganda yeyilishga bardoshini oshiradi, shuningdek qismni ta'mirlashni osonlashtiradi. Vtulkalar silindrilar kallagining teshigiga bosim bilan kiritiladi. Ularni cho'yandan, kukun materialdan yoki yuk ko'taruvchi qatlami bronza bo'lgan bimetallidan tayyorlaydilar. Kiritish klapanining sterjeni va vtulkasi orasidagi tirqishga kiritish kanalidagi siyraklashish ta'siri ostida moy oqishini kamaytirish uchun, vtulkaning yuqori uchiga moyga chidamli rezinadan, sintetik yoki

ftorkauchukdan tayyorlangan 1 zichlovchi manjeta uni siuvchi 2 bilakuzuk prujinasi bilan o'rnatiladi (2.38-rasm). Manjetaning zichlovchi kamarini klapan sterjeniga nisbatan yaxshiroq markazlashishi uchun unga 3 po'lat karkas (sinch) vulkanizatsiyalanadi.




**2.38-rasm. Klapan sterjenining zichlagichi**

Klapanlar sedlosi 15 (2.36-rasmga qarang) silindrler kallagidagi ishchi faskaning yeyilish bardoshini oshiradi va uni ta'mirlashni osonlashtiradi. Sedloni qattiqligi oshirilgan (40...60 HRC) maxsus cho'yandan tayyorlaydilar. Suyuq azotda sovutilgan sedloni qizitilgan kallak uyasiga qo'yildi. Sedloning tashqi yuzasi teskari konus shakliga egaligi tufayli dizel ishlab qiziganda uni uyadan tushib ketishini oldi olinadi.

Klapanlarni aylantirish mexanizmi sedlo va klapan faskalarining, shuningdek, uning sterjeni va yo'naltiruvchi vtulkasining ishchi yuzalarini bir tekis yeyilishini ta'minlaydi. Bunda klapan prujina siqliganda hosil bo'ladicidan moment bilan o'z o'qi atrofida davriy aylanadi. Shu maqsadda ba'zi motorlarda prujina tarelkasi va klapan orasidagi ishqalanish yuzasini 1 oraliq vtulka hisobiga kamaytiradilar (2.39-rasm, a) yoki tayanchni sharikli xrapovikli mexanizm ko'rinishida bajarib, prujinaning pastki uchi va uning tayanchi orasidagi ishqalanishni kamaytiradilar (2.39-rasm, b).


Klapan koromislosi 6 (2.36-rasmga qarang) 3 shtangalar harakatini 12 klapanlarga uzatish uchun xizmat qiladi. Koromislo cho'yandan yoki po'latdan quyilib, po'latdan shtamplanadi. Ular ko'ndalang kesimida egilishga yaxshi qarshilik ko'rsatadigan tavr yoki ikki tavr shakliga ega. Koromislolar motorning silindrler

kallagidagi 8 tayanchlarga o'rnatilgan 7 o'qlarda joylashadi. Koromislo teshigiga bronza vtulka-podshipnik presslab kiritiladi.



**2.39-rasm. Klapanlar aylanishini ta'minlovchi qurilma**


Koromisloning qisqa yelkasida odatda issiqlik tirqishini rostlash uchun 4 kontrayka bilan qotiriladigan 5 vint joylashadi. Podshipnikka moy bosim ostida odatda koromislo tayanchidagi teshik yoki uning ichi bo'sh o'qi orqali uzatiladi. Sozlovchi vint va shtanga uchining tutashuvchi sferik yuzalari yoki koromislodagi teshik yoki quvursimon shtanga orqali moylanadi.



**2.40-rasm. Shtangalar**

Shtangalar (2.40-rasm) po'latdan yoki alyuminiy qotishmasidan butun sterjen 1 yoki quvur 3 ko'rinishida tayyorlanadi. Ular yuqori bo'ylama turg'unlikka ega bo'ladi. 3 quvur uchiga po'latdan tayyorlangan, termik ishlov berilgan tashqi yoki ichki sferik yuzali uchliklar 2 va 4 bosib kiritiladi.


Turtkichlar 2 (2.36-rasmga qarang) kulachok profili beradigan qonunga mos ravishda shtangaga harakat uzatadi. Traktor motorlarida silindrik (2.41- a rasm), qo'ziqorinsimon (2.41- b va d rasm) va tebranadigan (2. 41-rasm, e) turtkichlar qo'llaniladi.



**2.41-rasm. Turtkichlar**

a – silindrik; b – qo‘ziqorinsimon; d – rolikli tebranadigan

Turkichning 1 yo‘naltiruvchi yuzasini moylash koromisloning sozlovchi vinti – shtanga uchligi birikmasidan shtanga bo‘ylab oqib tushayotgan moy bilan amalga oshiriladi, buning uchun stakancha ko‘rinishida bajarilgan silindrik turkichda, uning pastki qismida moy chiqishi uchun 2 teshik ochiladi. Turkichning 3 tarelkasi va taqsimlash valining kulachogi shatun podshipnigi yonboshidan chiqarilayotgan moy bilan moylanadi. Tebranadigan turkichning 4 o‘qi maxsus kanal bo‘yicha beriladigan moy bilan bosim ostida moylanadi.




**2.42-rasm. Turtkichning aylanishini ta’minlash usullari**

Turkichning yon yuzasi va tarelkasi bir tekisroq yejilishi uchun uni asta aylanishga majbur qilinadi. Buning uchun yassi tarelkali turkich o‘qini kulachok simmetriya o‘qiga nisbatan  $e = 1,5\dots 3$  mm ekssentrisitetga suriladi (2.42-rasm, a) yoki  $R = 600\dots 800$  mm radiusdagi sfera bo‘yicha ishlayotgan kulachok cho‘qqisida  $\varphi = 10\dots 30'$  konus burchakli qilib bajariladi. Ikkala holatda ham chiziq yoki kulachokni turkich bilan A tutashuv nuqtasi turkich o‘qiga

nisbatan  $e = 1.5 \dots 3$  mm ga suriladi. Bu yelkada ta'sir qilayotgan ishqalanish kuchi turtkichni aylanishga majbur qiladi.

Turtkichlar kam uglerodli po'latdan ishqalanish yuzalarini sementatsiyalash va toblast bilan, po'lat 35 yoki 45 yuzani toblast yoki maxsus cho'yandan tayyorlanadi. Turtkich tarelkasining ishqalanish yuzasi oqlanadigan cho'yan bilan suyultirib qoplanadi yoki ishqalab payvandlash yo'li bilan biriktirilgan, qattiq qotishmali plastinadan iborat bo'ladi.

Ishqalanish yuzalarining yeyilishini kamaytirish uchun rolikli turtkichlar qo'llaydilar (2.41- g rasmga qarang). Rolikli turtkichlarni sharikopodshipnik po'latlaridan tayyorlaydilar. Rolik o'qi bronza vtulka bilan ta'minlanadi.



**2.43-rasm. Taqsimlash valini o'q bo'ylab mahkamlash usullari**

Taqsimlash vali 1 (2.36-rasmga qarang) shu motor silindrlari ishlash tartibiga mos keladigan ketma-ketlikda klapanlar harakatini boshqaradi. Taqsimlash vali kulachoklarining joylashishi va ularning profili klapanlarning ochilish va yopilish paytlarini, shuningdek ularning o'tish kesimi kattaligini belgilab beradi.

Traktor dizellarining taqsimlash vallari ko'pincha po'lat 45 dan yoki kam uglerodli sementlanadigan po'latdan tayyorlanadi. Kulachoklarni taqsimlash vali bilan bir butun qilib bajariladi. Ishchi yuzalar va tayanch bo'yinlarning ishqalanish va yeyilishini kamaytirish uchun kulachoklarga sinchiklab mexanik ishlov beriladi, tobulanadi yoki azotlanadi.

Traktor dizellarida to'liq tayanchli ham, shuningdek to'liq tayanchli bo'limgan ham, aksariyat hollarda silindrlar blokida joylashgan, taqsimlash vallari ham qo'llaniladi. Taqsimlash valining podshipniklari sifatida antifriksion cho'yandan yoki qo'rg'oshinli bronzadan tayyorlangan vtulkalar qo'llaniladi.

Taqsimlash vali, uning yuritmasi shesternyalarini egri tishli birikmasidagi kuchlarning o'q bo'yicha tashkil etuvchisini ta'siriga duchor bo'ladi. Shuning uchun valni o'q yo'nalishida mustahkamlash lozim (2.43-rasmga qarang).

Valni mustahkamlash *1* tirkak flanes bilan amalga oshiriladi, u 2 boltlar bilan silindrlar blokining 3 devoriga 5 etakchi shesternya tomonidan mahkamlanadi (2.43-*a* rasm). Flanes va shesternya orasiga 4 oraliq halqa qo'yiladi. 4 halqaning qalinligi 1 flanesning qalinligidan valning o'q bo'ylab siljishini belgilangan qiymati (0,1...0,2 mm) dan katta bo'ladi.


Ba'zan mustahkamlashni taqsimlash shesternyalarini qopqog'i 1 ga burab kiritilgan, tayanch bolt 2 bilan amalga oshiriladi (2.43-rasm, *b*). Taqsimlash valining yoniga termik ishlov berilgan 3 tovontagi yoki prujinalangan cheklagich qo'yiladi. Yuqorigi taqsimlash vallarining podshipniklarini *1* qopqog'i olinadigan bo'lganda vallarni mutahkamlash 3 podshipnik yonboshiga tiraladigan 2 bo'rtiqlar bilan amalga oshiriladi (2.43-rasm *d*).

Taqsimlash valining yuritmasi, u silindrlar blokida joylashganda (pastki joylashish) tirsaklı valdan ko'pchilik konstruksiyalarda silindrik egri tishli shesternyalar bilan amalga oshiriladi. Taqsimlash valining shesternyasi bevosita oraliq shesternya orqali tirsaklı val tumshug'iga o'rnatilgan shesternya bilan ilashmada bo'ladi.

Gaz taqsimlash mexanizmi yuritmasining shesternyalarini po'latdan yoki cho'yandan (oraliq shesternyalar) tayyorlanadi. Taqsimlash vali yuqorida joylashgan motorlarda (2.44-rasm) konussimon shtamplangan shesternyalarining yuritma vallari po'latdan tayyorlanadi.


Ba'zi traktor dizellarida dekompression mexanizm qo'llaniladi. U dizelni ishga tushurish vaqtida tirsaklı valni aylantirilganda silindrlardagi siqish bosimini va mos ravishda ishga tushurish qurilmasi quvvatini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Mexanizm shuningdek, klapanlardagi tirqishni sozlashda, yoqilg'i berish o'zish burchagini o'rnatishda va hokazolarda tirsakli valni qo'lda aylantirishni yengillashtirishga imkon beradi.



**2.44-rasm. Yuqorigi taqsimlash vali yuritmasining sxemasi**

Bunday mexanizmga misol 2.45- *a* rasmida keltirilgan. U o'zaro kinematik bog'langan 2 richaglar va 3 valchalarni 1 umumiy tortqisi ko'rinishida bajarilgan. 3 valchalarining uchida liska bo'lib, u turtkilarning yo'naltiruvchi yuzalaridagi 4 o'yiqchalariga kiradi. 3 valchalarni burilishi turtkilarni 2...3 mm ko'tarilishini va klapanlarni ochilishini keltirib chiqaradi.



**2.45- rasm. Dekompressions mexanizm sxemasi**

Mexanizm 6 klapanlarning koromislolari ustiga liskalari joylashgan 5 umumiy valcha ko'rinishida ham bajarilgan bo'lishi mumkin (2.45- *b* rasm). Valchaning burilishi klapanlarning ochilishiga olib keladi.

Gaz taqsimlash mexanizmiga qarov ishlari asosan, klapan yuritmasidagi issiqlik tirkishlarini tekshirishdan, dekompression mexanizmni rostlashdan, shuningdek motor detallari qisman almashtirilganda klapanlarni ishqalab moslashdan iborat bo'ladi.

## 2.4. Dizelning ta'minlash tizimlari

Bu tizimlarning agregatlari, qurilmalari va asboblari havo va yoqilg'ini filtrlash, me'yorlash va dizel silindrlariga kiritish, ularni aralashma hosil qilishi, shuningdek, silindrlardan atmosferaga yonish mahsulotlarini chiqarish vazifasini bajaradi. Dizelning energetik, yoqilg'i-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari, u o'rnatilgan shassining raqobatbardoshligini belgilaydigan, buzilmasdan ishlashi va motoresursi bu tizimlar elementlarini mukammalligiga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi.

**Dizelning havo bilan ta'minlash tizimi.** Tizimning vazifasi dizel silindrlariga purkalayotgan yoqilg'ini, ishslashning hamma tezlik va yuklanish tartiblarida, eng to'liq yonishi uchun kerakli miqdorda, unga havo kirishini ta'minlash hisoblanadi.

Bu tizimga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

- dizel silindrlariga kirayotgan atmosfera havosini, uning tarkibidagi abraziv zarrachalaridan tozalashning yuqori sifati;
- kiritish traktini puxta germetiklash;
- kiritish traktining minimal aerodinamik qarshiligi;
- dizelning barcha silindrlari bo'yicha unga kirayotgan havoni bir tekis taqsimlanishi;
- kiritishning past shovqin darajasi;
- atrof-muhitning past temperaturalarida dizelni ishga tushirishni ta'minlash.

**Havo tozalagich.** Traktorlar odatda havodagi chang darajasi yuqori ( $0,5 \dots 3 \text{ g/m}^3$  va undan ortiq) bo'lgan sharoitda ishlaydi. Chang tarkibida  $60 \dots 95\%$  kvars zarrachalari bo'lib, ularning qattiqligi dizel detallari qattiqligidan ortiq bo'ladi. Silindrlarga havo to'ldirish jarayonida kirgan zarrachalarning  $90\%$  ishlagan gazlar bilan atmosferaga chiqarib yuboriladi, qolgan  $10\%$  porshen, uning halqlari va silindr oynasining ishqalanuvchi yuzalari orasidagi tirkishga tushib ularning abraziv yeyilishini keltirib chiqaradi. Tirkishga kirgar

Changlangan havo oqimi 2 so'ruvchi trubaga kirishi uchun 180° ga burilishi va 3 panjara halqlari orqali yuqoriga chiqishi kerak. Burilganda havodagi yirik zarrachalar o'zining inersiya kuchi ta'siri ostida 4 g'ilof bo'yicha pastga harakatini davom ettiradi va chang yig'uvchi 1 bunkerga to'planadi. Changni 7 patrubok orqali bunkerdan so'rib olish va uni atmosferaga chiqarib tashlash ejektordagi siyraklanish ta'siri ostida ro'y beradi. Ejektor dizelning chiqarish trubasiga shovqin pasaytirgichdan keyin xomut bilan mahkamlangan va elastik quvur bilan bunkerga ulangan.

Tozalashning ikkinchi bosqichiga misol 2.46-rasm, b da keltirilgan. Tozalashning birinchi bosqichidan o'tgan havo po'lat listdan shtamplangan 8 korpusga, unga urinma qilib payvandlangan 10 patrubok orqali kiradi. Bu havodagi changni korpusning ichki bo'shlig'i aylanasi bo'yicha bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Changning ajralishi havo 14 asosiy va 15 saqlagich filtr-patronlarning pardalari orqali o'tganida ro'y beradi. Saqlagich filtr-patron asosiy filtr-patronning pardasi yirtilganda dizelga chang kirishidan himoya qiladi.

Har bir filtr sinch (karkas) vazifasini bajaruvchi ichki va tashqi silindrsimon to'rlarning tepasidan va tagidan qopqoq bilan yopilgan. To'rlar orasida filtrlovchi parda joylashgan. U maxsus g'alvirak karton polosalardan o'zining uchlari bilan yopishtirilgan silindrik stakandan iborat bo'ladi. Filtrlovchi yuzani oshirish uchun polosa ko'p qirrali yulduz (garmoshka) ko'rinishida qat-qat buklangan. Pardalarning qopqoqdagi uchlari epoksid smola quyiladi. Ikkala filtr-patron korpus tubiga o'zlarining qopqoqlari va 9 tortish boltiga o'ralgan 16 zichlaguvchi halqa 11 gayka-barashkasi bilan bosib turiladi. Shunga o'xshash 13 zichlaguvchi halqa orqali 12 qopqoq bilan korpusning o'zi ham yopilgan.

Changlanganlik indikatori (2.46-rasm, d) havo tozalagichning to'lib qolish darajasini ko'rsatadi, bunda uning filtrlovchi elementlarini almashtirish lozim. Havo tozalagichning chiqish patrubkasidagi siyraklanish ruxsat etilgan chegaraviy qiymatidan oshganda indikator diafragmasi egiladi va qizil rangga bo'yalgan 23 qo'zg'aluvchi barabanning xrapovikini bo'shatadi. 25 prujina bu barabanni buradi va 24 qo'zg'almas barabanning oynasida 21 shaffof qalpoq orqali kuzatiladigan qizil signal paydo bo'ladi. Filtrlovchi

pardalarni almashtirgandan keyin qo'zg'aluvchan barabanni dastlabki holatiga qaytarish 22 disk bilan amalga oshiriladi. Indikator havo tozalagichning korpusiga payvandlangan skobaga qotirilgan va uning quvuriga 17 shlang bilan ulangan. Shlangning bitta uchi 18 rezbalni teshikka burab kiritilgan shtutserga kiydirilgan, boshqasi esa uning 20 rezbasiga buralgan yopqich gayka bilan indikatorga siqib qo'yilgan.

Havo tozalagich 19 flanets orqali boltlar bilan dizelning kiritish truboprovodiga yoki uning turbokompressorini kiritish patrubkasiga qotiriladi.

**Turbokompressor** motor silindrlariga kirayotgan havo massasini uni siqish yo'li bilan oshirish uchun xizmat qiladi. Silindrlarni havo bilan to'lishini oshishi mos ravishda ularga purkalayotgan yonilg'i miqdorini oshirish va uni tutunsiz yonish shartini bajarish uchun imkon yaratadi. Natijada dizel quvvatini 50 % va undan ortiq oshirish mumkin.

Turbokompressor kompressordan va uni aylantiradigan gaz turbinasidan tashkil topgan.

Traktor dizellarining puflash tizimlarida ko'pincha markazdan qochirma kompressorlar qo'llaniladi. Bunday kompressoring ishchi g'ildiragi turbinaning ishchi g'ildiragi bilan bitta valda o'tiradi, u dizelning chiqarish quvur yo'lidan chiqayotgan, ishlagan gazlar bilan aylanma harakatga keltiriladi. Shunday qilib, quvvatni oshirish ishlagan gazlar issiqligini utilizatsiyalash hisobiga amalga oshiriladi.

Dizel silindrlarini turbokompressor turbinasi bilan ularnish usuliga bog'liq holda impulsli, izobar va oraliq puflash tizimlari farqlanadi.

Impulsli puflash tizimlarida alohida silindrlarning chiqarish patrubkalari seksiyalarga shunday birlashtirilganki, bu silindrlardan gazlarni chiqarish taktlari bir-birini bekitmaydi, ya'ni bitta silindrda chiqarish takti shu seksiyadagi keyingi silindrda chiqarish boshlanishiga qadar tugaydi (2.47-rasm). Gazlarning joylardagi energiya yo'qotishini kamaytirish uchun turbina va silindrlar orasidagi quvur o'tkazgichni iloji boricha kalta, ularning ko'ndalang kesimini esa silindrda kallagidagi chiqarish kanali kesimiga taxminan teng qilinadi. Bunday tizimlar kichik aylanish chastotasida ishlaydigan dizellarning nisbatan kichik (0,17 Mpa gacha) puflash bosimini yaratish uchun qo'llanilgan.

Gaz taqsimlash mexanizmiga qarov ishlari asosan, klapan yuritmasidagi issiqlik tirqishlarini tekshirishdan, dekompression mexanizmni rostlashdan, shuningdek motor detallari qisman almashtirilganda klapanlarni ishqalab moslashdan iborat bo'ladi.

## 2.4. Dizelning ta'minlash tizimlari

Bu tizimlarning agregatlari, qurilmalari va asboblari havo va yoqilg'ini filtrlash, me'yorlash va dizel silindrlariga kiritish, ularni aralashma hosil qilishi shuningdek, silindrlardan atmosferaga yonish mahsulotlarini chiqarish vazifasini bajaradi. Dizelning energetik, yoqilg'i-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari, u o'rnatilgan shassining raqobatbardoshligini belgilaydigan, buzilmasdan ishlashi va motoresursi bu tizimlar elementlarini mukammalligiga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi.

*Dizelning havo bilan ta'minlash tizimi.* Tizimning vazifasi dizel silindrlariga purkalayotgan yoqilg'ini, ishlashning hamma tezlik va yukanish tartiblarida, eng to'liq yonishi uchun kerakli miqdorda, unga havo kirishini ta'minlash hisoblanadi.

Bu tizimga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

- dizel silindrlariga kirayotgan atmosfera havosini, uning tarkibidagi abraziv zarrachalaridan tozalashning yuqori sifati;
- kiritish traktini puxta germetiklash;
- kiritish traktining minimal aerodinamik qarshiligi;
- dizelning barcha silindrlari bo'yicha unga kirayotgan havoni bir tekis taqsimlanishi;
- kiritishning past shovqin darajasi;
- atrof-muhitning past temperaturalarida dizelni ishga tushirishni ta'minlash.


*Havo tozalagich.* Traktorlar odatda havodagi chang darajasi yuqori ( $0,5 \dots 3 \text{ g/m}^3$ ) va undan ortiq) bo'lgan sharoitda ishlaydi. Chang tarkibida  $60 \dots 95\%$  kvars zarrachalari bo'lib, ularning qattiqligi dizel detallari qattiqligidan ortiq bo'ladi. Silindrlarga havo to'ldirish jarayonida kirgan zarrachalarning  $90\%$  ishlagan gazlar bilan atmosferaga chiqarib yuboriladi, qolgan  $10\%$  porshen, uning halqalari va silindr oynasining ishqalanuvchi yuzalari orasidagi tirqishga tushib, ularning abraziv yejilishini keltirib chiqaradi. Tirqishga kirgan

zarrachalar karter moyiga tushadi va moylanadigan detallarning o'xshash yeyilishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan silindrlerga kirayotgan havoni yaxshilab tozalash (changni ajratish) zarur. Havo tozalagichdan chiqayotgan va unga kirayotgan havodagi changlanganlik darajalari nisbatini o'tkazish koeffitsiyenti ifodalaydi. Zamonaviy havo tozalagichlarda bu koeffitsiyent 0,01...0,02 tashkil etadi.


Traktor havo tozalagichlari ikki-uch tozalash bosqichiga ega bo'ladi. Birinchi bosqich inersiya negizi bilan, ikkinchi va uchinchi bosqich esa filtrlash negizi bo'yicha ishlaydi.

Birinchi bosqich (dastlabki tozalash)ga misol 2.46-rasmda keltirilgan. Atmosfera havosi 6 to'r orqali o'tib, yirik qo'shimchalardan (masalan, somon) tozalanadi va pastga 4 konussimon g'ilof va 3 inersion panjara orasidagi tirkishga yo'naltiriladi. Inersion panjara silindrik halqalardan iborat bo'lib, ularning diametri yuqoridagi halqadan pastkisiga qarab kichrayib boradi. Halqalar bir-birini qisman yopadi va 2 markaziy quvurga 5 radial plankalar bilan qotirilgan.




2.46-rasm. Havo tozalagich

Puflashning izobar tizimlarida barcha silindrlar umumiy chiqarish kollektori bilan ulangan, bosim impulsleri anchagina darajada tekislangan, ya'ni gazlar turbinaga amalda doimiy bosim ostida beriladi. Bunday tizimlar ko'proq aylanish chastotasi yuqori (2000 daq<sup>-1</sup> va undan baland) bo'lgan, silindrlarining soni ko'p dizellarni yuqori bosimda (0,2 MPa va undan baland) puflash uchun qo'llaniladi.



**2.47-rasm. Impulsli puflashda chiqarish kollektorlarining bo'linish sxemasi:** a – to'rt- olti silindr qatorli motor; b – olti va sakkiz silindrli V-simon motor bitta turbokompressor (TK) bilan; v – sakkiz va o'n ikki silindrli V-simon motor ikkita turbokompressor bilan



**2.48-rasm. Impulslardni o'zgartiruvchilar**

Oraliq puflash tizimlari tezlik va yuklanish tartiblarining keng diapazonida ishlaydigan dizellarda qo'llanishini topgan. Bunday puflash tizimi bo'lgan dizellarning ajratilgan chiqarish kollektori, impulslardni o'zgartiruvchi deb ataladigan asbobga uланади (2.48-rasm). U kollektorlardan galma-gal chiqayotgan gazlar oqimi bosimining tebranish amplitudasini, ularning kinetik energiyasini bosimning potensial energiyasiga o'zgartirib, tekislaydi. Ko'pincha impulslardni o'zgartiruvchi turbina bo'ylama to'siq bilan ikkita kanalga bo'lingan chig'anog'iga joylashtiriladi (2.48-rasm, d).

Turbokompressorning asosiy elementlari (2.49-rasm): kompressor 2 va turbina 9 g'ildiraklari bilan 12 valdan tashkil topgan rotor; diffuzor 4, havo yig'uvchi va kompressorning kirish qismidan iborat 3 korpus; turbina korpusi gaz uzatuvchi 7 chig'anoq, yo'naltiruvchi apparat 6, chiqish qismi 8 bilan; podshipniklari bilan podshipniklar korpusi 5 hisoblanadi.

Kompressorning kirish qurilmasi uning ishchi g'ildiragi panjarasiga havoning bir tekis kirishini ta'minlaydi.

Kompressorning 2 ishchi g'ildiragida aylanayotgan rotoring mexanik ishi havo oqimining kinetik energiyasiga o'zgartiriladi. G'ildirak 2 ning yo'naltiruvchi apparati unga havo kirish uchastkasida kurakchalarning egilgan qismlaridan tashkil etilgan va havo oqimining harakat yo'nalishini o'qdan tangensialga bir tekis o'zgarishini ta'minlaydi. Kompressor g'ildiraklari AK9 alyuminiy qotishmasidan kokilga yoki elastik modellar bo'yicha tayyorlanadigan gips shaklga eritib quyiladi. G'ildirak rotordan alohida muvozanatlanadi (balansirlanadi) va uning valiga 1 gayka bilan qotiriladi.

Diffuzor 4 oqimning kinetik energiyasini bosimga qisman o'zgartirish uchun xizmat qiladi. Diffuzorlar yo'naltiruvchi kurakchali va kurakchasisiz bo'lishi mumkin. Zamonaviy turbokompressorlarda kurakchasisiz diffuzorlar ko'proq qo'llanilmoqda, ular konstruksiyasi bo'yicha sodda va dizelning ishlash tartiblarini keng diapazonida nisbatan yuqori FIKni ta'minlaydilar.


Kompressorning chig'anoqli yig'uvchisida havo oqimining kinetik energiyasi batamom uning bosimiga o'zgartiriladi.

Turbinaning 7 gaz keltiruvchi korpusi motorning chiqarish quvur o'tkazgichidan gaz turbinaning 6 yo'naltiruvchi apparatiga bir tekis kelishini va uning bu apparat aylanasi bo'yicha taqsimlanishini ta'minlaydi.

Yo'naltiruvchi apparat 6 gazning potensial energiyasini kinetik energiyaga aylanishi uchun xizmat qiladi. Yo'naltiruvchi apparatlar ham kurakchali, ham kurakchasisiz qilib bajariladi. Kurakchasisiz yo'naltiruvchi apparatlar yanada keng qo'llanilmoqda, ular oddiy motor ishslash tartiblarining keng diapazonida turbinaning yuqori FIK qiymatlarini ta'minlab beradi.


Turbinaning 9 g'ildiragida gazning energiyasi rotoring aylanish kinetik energiyasiga o'zgartiriladi. G'ildirak dizelning ishlagan gazlari

agressiv muhitida  $700^{\circ}\text{C}$  gacha temperaturada va  $100000$  daq<sup>-1</sup> va undan ko'p aylanish chastotasida ishlaydi. Uni 4X5B2ФС turidagi issiqbardosh po'latdan vakuumda quyiladi va rotor vali bilan ishqalab payvandlash usulida birlashtiriladi. Rotor vali arzonroq legirlangan po'latdan tayyorlanadi va mexanik ishlov berilgandan so'ng birgalikda muvozanatlash bajariladi.



**2.49-rasm. Turbokompressor**

Kompressor korpusi AK7 turidagi qotishmadan, turbina korpusi esa issiqbardosh cho'yandan kokilga quyiladi.



**2.50-rasm. Turbokompressorning podshipniklar qismini namunaviy konstruksiyalari:** *a* - suzuvchi aylanadigan vtulkalar bilan; *b* - suzuvchi aylanmaydigan monolit vtulka bilan; 1 – zichlagich halqa; 2 – tayanch podshipnik; 3 – korpus; 4 – suzuvchi vtulkalar; 5 – bosimli moy bo'shlig'i; 6 – rotor vali; 7 – to'xtatgich shtift; 8 – suzuvchi monovtulka

Podshipnik qismi (2.50-rasm) rotorning muvozanatlashmagan massalarini markazdan qochirma kuchlaridan yuklamani qabul qiladigan 4 va 8 radial podshipniklari, ishchi g'ildiraklarga ta'sir qilayotgan gazlarning kuchlaridan o'q bo'yicha yo'nalgan yuklamani qabul qiladigan 2 tayanch podshipniklaridan iborat. Radial sirpanish podshipniklari odatda suzuvchi yoki umumiy aylanmaydigan 8 monovtulka ko'rinishida, yoxud ikkita alohida aylanadigan 4 vtulkalar ko'rinishida bajariladi. Vtulkalarning ikkala ko'rinishi ham, podshipniklar korpusidan moy qatlami bilan ajratilgan bo'lib, rotorning tebranishlarini dempfirlaydigan elastik osmani ta'minlaydi. Aylanmaydigan monovtulka buralishdan 7 fiksator bilan ushlab turiladi. Podshipnikka moy dizelning moylash tizimidan bosim ostida 7 fiksator orqali beriladi. 2 tayanch podshipnik plastina ko'rinishida bajariladi va kompressorning g'ildiragi tomoniga joylashgan.

Moyni podshipniklar bo'shlig'idan motor karteriga quyish o'zi oqish yo'li bilan bo'ladi. Bo'shliqni zichlash uning har bir tomonidan rotor valini yoki maxsus vtulkani yuzasidagi ariqchaga o'rnatilgan bitta yoki ikkita 11 cho'yan prujinali kesik halqlar (2.49-rasmga qarang) bilan amalgalashiriladi.


Turbina g'ildiragidan podshipniklar korpusiga issiqlik oqimini kamaytirish uchun g'ildirak va podshipnik orasiga 10 issiqlik ekrani o'rnatiladi.

Podshipniklar korpusiga ikkala tomondan kompressor va turbina korpuslari mahkamlanadi. Korpuslarni mahkamlash siquvchi qoplamalar yoki konusli xomut bilan amalgalashiriladi, bu turbokompressorni motorda joylashishiga qarab, kompressor va turbina patrubkalarini kerakli yo'nalishda o'rnatishga imkon beradi.

Sovuq dizelni ishga tushirgandan so'ng, quyulib qolgan moyni uning turbokompressori podshipniklariga yetkazib berish kechikib yuz beradi. Dizelni to'xtatgandan so'ng, podshipniklarga moy yetkazib berish to'xtatiladi. Bunda moy bilan sovutilmayotgan rotor podshipnikiga turbinaning korpusi va ishchi g'ildiragidan issiqlik oqimi kiradi. Shuning uchun dizelni ishga tushirgandan so'ng yuklash asta-sekin amalgalashirilishi kerak, to'xtatishdan oldin esa salt yurish tartibida 5 daqiqa atrofida ishlashi kerak. Bu uning turbokompressori podshipniklarini kokslanib qolishini oldini oladi.

Dizel ortiqcha yuklanganda uning burovchi momentini oshirish uchun silindrلarga purkalayotgan sikldagi yonilg'i berishni ko'paytirish talab etiladi. Bir vaqtida yonilg'ini tutunsiz yonishi uchun silindrлarni havo bilan to'lishini proporsional oshirish, ya'ni puflash bosimini oshirish zarur. Bu shartlardan turbokompressorning tavsifi tanlanadi. Biroq, dizelning aylanishlar chastotasi oshgan sari turbokompressor hosil qilayotgan puflash bosimi, turbina gaz sarfi ortishi natijasida, asoslanmagan darajada yuqori bo'lib qoladi. Buni yo'qotish uchun dizelning chiqarish tizimidan kelayotgan gazning bir qismini, turbinani chetlab o'tib, bevosita uning chiqarish kanaliga o'tkazib yuborish yo'li bilan puflash bosimini cheklaydilar. Bunday qurilmaga misol 2.1-rasm, b da keltirilgan. Kompressor hosil qilayotgan havo bosimi ta'sirida 15 membrananing kuchi, uning yuklayotgan prujinaning kalibrangan kuchidan ortib ketganda, 16 klapan gaz turbinani chetlab o'tish kanalini ochadi.

**Puflanadigan havoni sovutkich (PHS).** Kompressorda siqilayotgan havoning temperaturasi  $100\dots130^{\circ}\text{C}$  gacha yetib boradi, natijada uning zichligi va motor silindrлarini massa bo'yicha to'lishi pasayadi, bu motorni jadallashtirish imkoniyatini chegaralaydi. Bir vaqtning o'zida detallarning issiqlik kuchlanganligi ortadi. Shuning uchun o'rtacha va yuqori puflashda (bosimning oshish darajasi 1.5 dan ortiq) PHS qo'llaydilar, ular sovutuvchi agentning turiga qarab havohavoli ("havo-havo" turidagi) yoki suv-havoli ("havo-suv" turidagi) bo'ladi.



**2.51-rasm. Puflanadigan havoni sovutish tizimlari**

Havo-havoli PHS (2.51-rasm, a) odatda dizelning suyuqlikli sovutish tizimining radiatori oldiga o'rnatiladi va havo undan tizimning ventilyatori bilan so'rib olinadi. Bunday PHS ko'pincha quvurli-plastinkali issiqlik almashtirgich ko'rinishida bajariladi, unda

puflanadigan havo quvurlar ichidan o'tadi,sovutuvchi esa tashqi, plastinalar bilan oshirilgan yuzasini qamrab o'tadi. Ular puflanadigan havoni qattiq sovutishni ta'minlaydi. Sovutilgan havoning harorati atrof-muhit haroratidan 10...20°C oshadi xolos. Biroq, ular dizelning kiritish traktining qarshiligini oshiradi, havoga uni sovutish tizimining radiatoriga kirishda qarshilik yaratadi va kuch qurilmasining o'chamlarini oshiradi.

Suv-havoli PHSda puflanadigan havo dizelning sovutish tizimi-dagi radiatordan o'tib bo'lgan suyuqlik bilan sovutiladi (2.51-rasm, b). Bunday PHSlarda puflanadigan havoni sovutish chegarasi sovutuvchi suyuqliknинг harorati bilan chegaralanadi, demak, ularning samadaroligi havo-havo PHSga qaraganda kam. Havo-havoli PHSlar odatda quvurli qilib tayyorlanadi. Sovutuvchi suyuqlik ularga ichi tekis quvurlardan, puflanadigan havo esa, ko'pincha kesilgan plastinalar ko'rinishidagi qovurg'alar bilan ta'minlangan quvurlar orasidan o'tadi. Havo-havoli PHSlari ixchamligi bilan ajralib turadi, bevosita motorga yoki uning kiritish kollektoriga o'rnatilgan alohida agregat ko'rinishida bajarilishi mumkin, ya'ni kuch qurilmasining o'chamlarini amaliy jihatdan oshirmaydi. Atrof-muhit harorati past bo'lgan sharoitlarda puflanadigan havoning kerakli haroratini saqlab turish imkoniyati ham bunday PHSlarning afzalligi hisoblanadi. Shu bilan birga bunday PHSda tizimdagi havo traktining germetikligini buzilishi sovutuvchi suyuqlikni uning silindrlariga tushishiga olib keladi.

PHSning o'zagini misdan, latundan yoki alyuminiy qotishmasidan flyus ostida yoki vakuumda payvandlash usulida tayyorlanadi.

**Dizelni ishga tushurishni yengillashtiradigan qurilma.** Dizel silindrining yonish kamerasiga atmosfera havosining past haroratida purkalayotgan yonilg'i tomchilari, uni siqilish jarayonida qizitilishiga qaramay, bug'lanishi va o'z-o'zidan alangalanishi yomon bo'ladi. Shu sababli, atrof-muhitning past haroratida ishlatilayotgan traktor dizellarini ishga tushurishni yengillashtirish uchun ularning silindrлariga kirayotgan havoni isitish va uni yengil alangalanadigan suyuqlik bilan avvaldan aralashtirish amalga oshiriladi.


Havoni isitish manbalari bo'lib:

- traktorning akkumulyator batareyasidan elektr toki o'tkazilganda qiziydigan svecha va qizdirish spirallarining turli ko'rnishdagi yuzalari;

- spiralning qizigan yuzasidan majburan alangalanadigan yonilg'ining yonish mahsulotlari (elektrmash'alali qizdirish) hisoblanadi.

Ikkala turdag'i qurilma ham dizelning kiritish kollektoriga o'rnatiladi.

Qizdirish svechalari (2.52-rasm, a) va isitish spirallarining isituvchi elementi sifatida elektr qarshiligi yuqori material, masalan, nixromdan tayyorlangan sim ishlataladi. Elementning quvvati 400–1000 Vt. Katta quvvatli spirallar silindrлarning ishchi hajmi katta bo'lgan dizellarda qo'llaniladi. Ular atrof-muhit harorati ( $-15\dots-10$ )  $^{\circ}\text{C}$  va undan past bo'lganda dizelni ishonchli ishga tushishini ta'minlaydi.



2.52-rasm. Havoni ishga tushishdan oldin isitish qurilmalari

Elektrmash'alali qizdirgich (2.52-rasm, b) atrof-muhit harorati –  $20^{\circ}\text{C}$  gacha pasayganda dizelni ishga tushurishni amalga oshirishga imkon beradi. Uning 1 qizdirish spirali 3 teshiklari bo'lgan 2 g'ilof bilan o'ralgan. Spiralning oziqlanish kuchlanishi 8,5 V, tok kuchi 15...17 A. Dizel yonilg'isi isitkichga dozalovchi teshiklari bo'lgan 11 shtutser, hamda 9 va 7 radial, shuningdek, 8 o'q bo'yicha teshiklari bo'lgan 10 bolt orqali kiradi. Klapan 4 prujina 6 ta'siri ostida yonilg'ini g'ilof 2 ichiga chiqishini berkitadi.

Elektromagnit chulg'ami 5 orqali kuchlanishi 12 V va kuchi 2...3 A tok o'tkazilganda klapan ko'tariladi, yonilg'i tomchilar cho'g'dek qizigan spiralga tushadi va alangalanadi. Issiq yonish mahsulotlari

g‘ilofdan chiqayotib, kiritish kollektori bo‘ylab dizel silindrlariga harakatlanayotgan havoni isitadi. Qator tizimlarda, yonilg‘ining past bosim magistraliga, uning mayin tozalash filtridan keyin qo‘shilgan elektrmagnit klapanni, yuqori bosim nasosi korpusiga joylashtiradilar va isitish quvuri bilan ulaydilar.

Yengil alanganadigan suyuqlik sifatida o‘zining suyuq oquvchanligini past haroratlarda saqlaydigan, dizelni ishga tushurish vaqtida silindr devorlarini moylaydigan, shuningdek, tishlashib qolishga, korroziyaga va oksidlanishga qarshi qo‘shimchalarini bo‘lgan etil efirini mineral moy bilan aralashmasini qo‘llaydilar. Suyuqlik bitta yoki bir nechta aerozol ballonlarida (kapsulalarida) uni siqib chiqaradigan gaz bosimi ostida bo‘ladi. Dizelni ishga tushurishda hosil bo‘lgan emulsiya qurvur o‘tkazgich bo‘ylab, kiritish kollektoriga burab o‘rnatilgan, purkagichlarga boradi va unda harakatlanayotgan havo bilan aralashadi. Bunday qurilmalar atrof-muhit harorati – 40°C gacha pasayganda dizelni ishga tushurishni ta’minlaydi.

**Dizelni yonilg‘i bilan oziqlantirish tizimi.** Bu tizimning vazifasi dizelning har bir silindridda, uning yonish kamerasini to‘ldirayotgan siqilgan havoga mayda changlatilgan yonilg‘ini purkash yo‘li bilan, yonilg‘i aralashmasini hosil qilish hisoblanadi.

Bu tizimga qo‘yilgan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

- forsunka yonilg‘i purkashining boshlanishini YCHNga nisbatan ilgarilash (o‘zib ketish) burchagi dizelning aylanish chastotasiga va unga ta’sir etayotgan yuklanishga bog‘liq holda, avtomatik tarzda optimallashishi kerak. Eng takomillashgan tizimlar bu burchakka atrof-muhit va puflash bosimini, qo‘llanayotgan yonilg‘i turini va uning haroratini va boshqa parametrlarni ham hisobga oladi;

- ilgarilash burchagi, yonilg‘i purkashning miqdori va qonuni silindrlardagi gazlarning maksimal bosimi va harorati kattaligiga qo‘yilgan chegaralanishlar bajarilishini ta’minalashi kerak;


- purkalayotgan yonilg‘i miqdori atrof-muhitning manfiy haroratida dizelni ishonchli ishga tushurishni ta’minalashi kerak;

- dizel aylanish chastotalarining barcha belgilangan diapazonida, salt yurish tartibidan to‘liq yuklanish tartibigacha, uning turg‘un ishslashini;

- traktor ortiqcha yuklanganda dizel ishlab berayotgan burovchi momentni keraklicha oshishini;

- dizelning maksimal yo'l qo'yiladigan aylanish chastotasini chegaralashni;
- dizelning ishlagan gazlarida zaharli moddalar va qurum zarralar miqdorini belgilangan me'yordan oshmasligini;
- tizim agregatlari ishlashining shovqin darajasini dizelning umumi shovqin darajasidan oshmasligini ta'minlashi kerak.

Dizelni yonilg'i bilan ta'minlash tizimining namunaviy sxemasiga misol 2.53-rasmida keltirilgan. Yonilg'i o'lchami 250...500 mkm yirik abraziv zarrachalarni tutib qoladigan 2 filtrlovchi to'ri bo'lgan bo'g'iz orqali 1 bakka quyiladi. Dizel ishlayotganda va 4 sarf jo'mragi ochiq bo'lganda, yonilg'i to'rli qabul qiluvchi 3 va dag'al tozalash filtri 5 orqali haydaydigan nasos 7 bilan so'rildi. Uning porsheni yuqori bosim 11 nasosining kulachokli validagi eksentrikdan harakatga keladi. Bak tagiga cho'kkon zarrachalar tizimga kira olmasligi uchun 3 qabul qiluvchining to'ri bak tubidan 50...100 mm masofada joylashadi.



**2.53- rasm. Dizelni yonilg'i bilan ta'minlash tizimi**

Filtr 5 da o'lchami 50...100 mkm bo'lgan zarrachalarni yonilg'idan ajralishi ro'y beradi. Shuningdek, yonilg'i omborlarida va transport shesternyalarida, bakning o'zida ham, atmosfera namligining kondensatsiyalanishi natijasida hosil bo'lgan va yonilg'i apparatlarining pretsizion detallarini korroziyasini keltirib chiqaradigan suv yonilg'idan ajraladi.

Ajralayotgan aralashmani kuzatish uchun 7 nasosga 6 shaffof stakanli filtr-tindirgich o'rnatiladi. Qo'lda haydash nasosi 8 tizimdan traktor uzoq vaqt turib qolganda unda paydo bo'ladigan bug'larni, shuningdek, ta'mirlash va xizmat ko'rsatishda unga kirib qolgan

havoni yo'qotish uchun mo'ljallangan. Gazsimon mahsulotlar tizimning yuqori qismiga joylashgan (masalan, yonilg'i mayin tozalash filtri 17 chap korpusi kallagiga) avtomatik yoki qo'l klapani orqali, atmosferaga yoki 1 bakka quvur o'tkazgich 12 orqali chiqarib yuboriladi.

Nasos 7 hosil qilayotgan bosim ta'siri ostida yonilg'i mayin tozalash filtri 13 elementlari orqali o'tadi va quvur yo'li 14 bo'yicha yuqori bosimli 11 nasosning kiritish kanaliga tushadi. Bu filtrning zarrachalardan tozalash mayinligi (2...10 mkm) 11 nasosning va 17 forsunkalarning presizion detallari tez yeyilishini oldini oladi. Nasos 11 hosil qilayotgan yonilg'inining bosimi 150 MPa, hatto undan ortiq qiymatga yetadi. Shuning uchun, ular bo'yicha yonilg'i 17 forsunkaga boradigan 16 quvur o'tkazgichlarning tashqi diametri 6-7 mm, ichki diametri esa 1,5-2 mm bo'ladi. Forsunkalar purkagichlarining korpuslari va ignalari orasidagi tirqish orqali sizib o'tgan yonilg'i 15 quvur yo'li orqali yoki 13 filtrga, yoki bakka (shtrixlangan chiziqlar), yoki 7 nasosning so'rish yo'liga olib boriladi. 11 nasosning plunjерлари bilan uning chiqarish kanaliga siqib chiqarilayotgan yonilg'i uni forsunkalarga uzatish to'silgandan keyin 20 quvur yo'li bo'yicha 7 haydaydigan nasosning so'rish yo'liga o'tkazib yuboriladi. Dizel silindrlarining 18 yonish kameralariga yonilg'i 4...8 oqimlar bilan purkaladi, bu uning tez va to'liq yonishini ta'minlaydi.

Nasos 11 bilan yonilg'i berish boshlanishining o'zib ketish burchagi dizel silindrlarining porshenlarini YCHNdagi holatiga nisbatan, uning aylanish chastotasiga bog'liq holda, avtomatik tarzda 9 mufta bilan o'zgartiriladi, uni ko'pincha bu nasos yuritmasining 10 shesternyasiga o'rnatadilar.

Traktorning harakatga qarshiligini, ya'ni, uning dizeliga yuklamani tez-tez o'zgarishi foydalanish sharoiti uchun xos hisoblanadi. Traktorning tezligini bir tekis ushlab turish, silindrlarga purkalayotgan yonilg'inining sikldagi miqdorini o'zgartirish yo'li bilan, dizel quvvatini boshqarishni talab qiladi. Traktorchi yuqori bosimli nasos 11 bilan yonilg'i uzatishni boshqarish 21 dastagiga tez-tez ta'sir ko'rsatishi, uni tezda charchashini keltirib chiqaradi. Shuning uchun barcha traktor dizellarining yuqori bosimli nasoslari aylanish chastotasini avtomatik rostagichi 22 bilan butlangan.

Traktorchining 11 nasos berayotgan yonilg'i miqdorini oshirish uchun 21 dastakka keskin ta'sir ko'rsatishi yo'li bilan, traktorning tezlik olishi, turbopuflashli dizelning ishlagan gazlari tutunini ortishi bilan birgalikda yuz beradi. Bundan qutulish uchun 22 rostlagichga avtomatik tutunga qarshi korrektor 19 o'rnatiladi, u traktorchi 21 dastakka ta'sir qilishiga qaramay, 11 nasos bilan yonilg'i berishni keskin oshishiga yo'l qo'ymaydi.

Quyida tizim agregatlari 2.53-rasmida ko'rsatilgan sxemaga muvofiq ulardan yonilg'i o'tish ketma-ketligi tartibida ko'rib o'tiladi. O'xhash tarzda bu agregatlarning ishlashiga ta'sir ko'rsatadigan elementlarining konstruksiyasi bayon etiladi.

*Past bosim magistralining agregatlari.* Dizelning uzoq vaqt to'xtamasdan ishlashi yonilg'ida iflosantiruvchi aralashmalar bo'lganda buziladi. Bu aralashmalar bo'lib:

- organik – yonilg'i tashkil etuvchilarini polimerlashish mahsulotlari, unda mavjud bo'lgan parafin va boshqalarni kristallashuvi;

- noorganik – bakka yonilg'i quyishda unga tushadigan tuproq changi, idishlar va quvurlarning korroziya, hamda yonilg'i haydaydigan qurilmalarning detallarini yeyilish mahsulotlari va boshqalar;

- yonilg'i omborlari va traktor bakining ichki devorlarida atmosfera havosining harorati keskin o'zgarganda undagi bug'lar kondensatsiyalanishidan hosil bo'lgan suv hisoblanadi.


Aralashmalar yonilg'i uzatish apparatlarining qo'zg'aluvchan detallari, birinchi navbatda uning presizion juftliklarini yeyilishini tezlashtiradi, yonilg'i uzatishni buzadi va uning forsunka bilan purkalishini yomonlashtiradi. Suv detallar korroziyasini, ignalarni forsunka purkagichida, plunjерlarni ularning vtulkalarida osilib qolishini, prujinalar sinishini va hokazolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan nuqsonlardan qutulish maqsadida yonilg'i ko'p bosqichli tozalashdan o'tkaziladi. Dastlabki tozalash (2.53-rasm) 1 bakning quyish bo'g'izi va uning 3 yonilg'i qabul qiluvchisini 250...500 mkm o'lchamli zarrachalarni tutib qoluvchi 2 to'rli filtrlarida yuz beradi. Dag'al tozalashning 5 filtrida 50...100 mkm o'lchamli zarrachalarni ajratish ro'y beradi, shuningdek 6 filtr tindirgichda suv ajratiladi. Oxirgi tozalashni 13 mayin tozalash filtri

amalga oshiradi, u 2...10 mkm dan katta zarrachalarni o'zidan o'tkazmaydi.

Dag'al tozalash filtri paxta-qog'ozli arqon yoki metall simli to'r elementlar bilan aralashma zarrachalarini ajratadi. Filtrning 1 korpusi (2.54-rasm) cho'yandan quyiladi. Pastdan unga 5 stakan qistirma orqali siquvchi halqa va boltlar bilan tortilgan. Yonilg'i filtrga haydaydigan nasos hosil qilgan siyraklashish ta'siri ostida 8 shtutser orqali kiradi, korpus va unga pastdan taqalgan 2 taqsimlagich diskি orasidagi halqa kanalga tushadi. Taqsimlagich teshigidan o'tgan yonilg'i 7 konus qaytargichdan bir tekis oqib o'tadi, u bilan 5 stakan orasidagi tirqishdan uning devori bo'ylab pastga harakatlanadi va yonilg'ini chayqalishini oldini oladigan 4 tinchlantirgich hajmiga tushadi. Tinchlantirgichda yonilg'i harakat yo'nalishini o'zgartiradi va uning markazi teshigi orqali tepaga chiqadi.

Bunday burilishda yonilg'idan og'irroq bo'lgan aralashma zarrachalari va suv inersiya bo'yicha stakan tubiga tushadi, u yerdan ular davriy tarzda jo'mrak yoki 6 tiqin orqali to'kib tashlanadi. So'rيلotgan yonilg'ining bundan keyingi tozalanishi 7 qaytargichga mahkamlangan 3 metall to'rдан o'tayotganda ro'y beradi. Tozalangan yonilg'i 9 shtutser orqali quvur yo'l bo'yicha haydaydigan nasosga kiradi. Xizmat muddatini oshirish uchun ularni ko'pincha nasosning 6 qo'shimcha filtr – tindirgichi bilan jihozlaydilar (2.53-rasmga qarang). Uning shaffof korpusi orqali unda to'plangan zarrachalar va suv borligini doimiy kuzatish va ularni davriy chiqarib tashlash mumkin.



2.54-rasm. Dag'al tozalash filtri

Yonilg'i haydaydigan nasos 7 (2.53-rasmga qarang) 5 dag'al tozalash filtri orqali yonilg'ini so'rib olish va uni 13 mayin tozalash

filtri orqali bosib o'tkazish uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, bu nasos yuqori bosim nasosining kiritish kanalida yonilg'ining doimiy bosimini ushlab turadi. Nasoslar odatda, ularning porsheni yonilg'ini siqib to'ldirishni mos ravishda ikki yurishda yoki har bir harakatda amalga oshirishiga bog'liq holda, bir yoki ikki harakatli bo'ladi.

Bir harakatli nasosning principial sxemasi 2.55-rasmda keltirilgan. Nasosning 21 markazlovchi bo'rtmasi bo'lgan 20 korpusi ko'p hollarda yuqori bosim nasosining devoridagi o'yiqqa o'matiladi va unga boltlar bilan qotiriladi. Nasosning 8 porsheni siqib to'ldiruvchi harakatni 19 tilinga tiralib turgan 7 prujina ta'siri ostida, so'ruvchi harakatni esa 2 roligi 4 prujina bilan yuqori bosim nasosining valchasidagi 1 ekssentrikka bosib turilgan 3 turtkich ta'siri ostida bajaradi. Rolik o'qining uchlari silindrik turtkichdan chiqib turadi va korpusning ariqchasimon o'yig'ida harakatlanib, turtkichni aylanib ketishini oldini oladi.


Porshen 7 prujina bilan pastga tushurilganda (2.55-rasm, a) uning tepasida siyraklashish hosil bo'ladi, uning ta'siri ostida 10 klapan ochiladi va yonilg'i bakdan kiritish bo'shlig'i A ga so'rildi, 18 klapan esa 17 prujina bilan korpusdagi o'z uyasiga siqiladi. Bir vaqtning o'zida porshen tagidagi hajmda (bosim orttirish bo'shlig'i B) bo'lgan yonilg'i undan 0,2...0,7 MPa bosim ostida chiqadi va quvur o'tkazgich bilan 13 mayin tozalash filtriga kiradi (2.53-rasmga qarang).

Porshen 3 rolikli turtkich bilan 5 shtok orqali ko'tarilganda (2.55-rasm, b) A bo'shliqdagi yonilg'i bosimi oshadi, 9 klapan 10 prujina bilan korpusdagi o'z uyasiga tushadi, 18 klapan esa yonilg'ini A bo'shliqdan B bo'shliqqa oqib o'tishiga imkon berib ko'tariladi. 5 shtok nasos korpusiga bosib kiritilgan yo'naltiruvchi vtulkada harakatlanadi. Bu detallar presizion hisoblanadi. Ular orasidan siljib o'tgan yonilg'i 6 kanal bo'yicha 4 kiritish bo'shlig'iga so'rib olinadi.

Mexanik yuritmali 20 nasos korpusiga ko'pincha 13 qo'lda yonilg'i haydash nasosining silindri burab kiritiladi. Uning yordamida tizim yonilg'i bilan to'ldiriladi va undan bug'lar, havo chiqarib yuboriladi. Porshen 12 boshqarish dastagi 16 bilan ulangan, uning shtogi 14 yonilg'i haydalayotganda 13 silindrga burab qo'yilgan 15 qopqoqqa ishlangan yo'naltiruvchida harakatlanadi. Nasos ishlamayotganda dastak qopqoqqa porshenga o'rnatilgan zoldir

o'zining 13 silindrini uyasiga taqalguncha burab kiritiladi, natijada uning bo'shlig'i A bo'shliqdan ajraladi.


Yonilg'i haydashdan oldin tizimning bo'shlig'i atmosfera bilan tutashtiriladi. Buning uchun mayin tozalash filtri korpusidagi tizimning eng yuqoridagi nuqtasida bo'lgan 13 tiqin bo'shatiladi (2.56-rasmga qarang). Keyin 13 silindr qopqog'idan 16 dastakni burab (2.55-rasmga qarang) tiqin ostidan yonilg'i gaz pufakchalarsiz chiqmaguncha 12 porshen bilan haydaladi. Shundan so'ng filtr tiqini burab qotiriladi, 12 porshenni 11 zoldir uyasiga o'tirguncha tushurib, 16 dastakni 15 qopqoq rezbasida yaxshilab qotiriladi.



2.55-rasm. Yonilg'i haydaydigan nasos

Xizmat muddatini oshirish uchun ko'pincha yonilg'i haydaydigan nasosni qo'shimcha 6 filtr-tindirgich bilan (2.53-rasmga qarang) ta'minlaydilar. Uning shaffof korpusi orqali unda cho'kib qolayotgan zarrachalarni borligini doimiy kuzatish va ularni davriy chiqarib tashlash mumkin.

Mayin tozalash filtri 13 (2.53-rasmga qarang), uning konstruksiyasiga misol 2.56-rasmida keltirilgan, quyma 6 korpus, bitta yoki ikkita (undan oqib o'tadigan yonilg'inинг miqdoriga bog'liq holda) parallel ulangan 3 filtrlovchi elementlar va ularni berkitib turadigan 1 stakanlardan iborat. Har bir stakan korpusga 16 qistirma orqali 2 quvursimon tortqi sterjen yordamida siqligan. Sterjenning pastki uchi, 1 stakanning tubiga o'rnatilgan va 22 shayba bilan zichlangan, 23 shtutserga burab kiritilgan. Cho'kmani to'kish 24 tiqin orqali amalgalashtiriladi. Sterjenning yuqori uchi 5 shtutserga burab kiritilgan. Shtutser o'zining tashqi rezbsasi bilan 6 korpusga qotirilgan va 4 rezina qistirma bilan zichlangan.



2.56-rasm. Yonilg'ini mayin tozalash filtri

Filtrlovchi element 3 g'alvirak qog'ozdan tayyorlangan tashqi 20 va ichki 21 pardalardan iborat. Har bir parda silindrga yopishtirilgan, uning yuza maydonini oshirish uchun burmalangan va qat-qat taxlangan. Unda 2–10 mkm dan katta bo'lgan mexanik zarrachalar tutib qolinadi. Yonilg'ini tozalash birinchi (tashqi) bosqich pardasi bilan amalga oshiriladi. Ikkinchisi parda tashqi parda yirtilgan holda zarrachalarni filtrlaydi, bu ko'pincha yonilg'ida mavjud bo'lgan suv ta'siri ostida ro'y beradi. Pardalarning tagi, yonilg'i o'tishi uchun teshiklari bo'lgan va 17 hamda 18 tunuka qopqoqqa jo'valangan, 19 karton sinchga yopishtirilgan.


Yonilg'i haydaydigan nasos hosil qilgan bosim ostida, 15 quvur yo'li va 6 korpusga burab kiritilgan shtutser orqali, bitta filtrlovchi elementga va 14 birlashtiruvchi bo'shilq bo'yicha boshqasiga kiradi. Bu elementlar orqali o'tib tozalangan yonilg'i, 2 quvursimon tortqi sterjen teshigi orqali korpus bo'rtmalaridagi teshiklar bo'ylab, unga burab kiritilgan shtutser va 7 quvur o'tkazgich bilan yuqori bosim nasosining kiritish kanaliga olib boriladi.

Bo'rtmalarning biriga 11 klapan korpusi, 9 qalpoqsimon gayka va 12 prujinalangan zoldirli klapan bilan burab kirkazilgan. Bu klapan orqali 8 quvurcha bo'ylab (2.53-rasmdagi 12 quvurcha) yonilg'i va havo bug'larini doimiy chiqarib turish ro'y beradi. Klapan tepasidagi korpus bo'shlig'iga 10 quvurcha bo'yicha dizel forsunkalari purkagichlarining korpuslari va ignalari orasidan sizib o'tgan yonilg'i keladi hamda bakka ketadi. Yuqorida aytilganidek 13 tizimni aylantirib haydaganda yonilg'idan uning bug'i va havoni chiqarish uchun xizmat qiladi.

## *Gidromexanik boshqaruvi yuqori bosim magistrali agregatlari.*

Yuqori bosimli yonilg'i nasosi dizelning eng murakkab va qimmat turadigan agregatlaridan biri hisoblanadi. Dizelning yonilg'i bilan oziqlantirish tizimiga qo'yilgan talablarning ko'pchiligini bajarish shu agregat zimmasiga tushadi. Traktor dizellarida yonilg'i uzatuvchi seksiyalari alyuminiy qotishmasidan yoki (ba'zan) cho'yandan quyilgan yagona korpusda joylashgan nasoslar eng ko'p tarqalgan. Har bir seksiya yuqori bosimli quvur o'tkazgich bilan silindrler birining forsunkasiga ulangan. Shuning uchun bu nasoslar ko'p seksiyali hisoblanadi. Bunday nasos seksiyasining elementlari 2.57-rasmida keltirilgan.

Yonilg'inining yuqori bosimini hosil qiladigan seksiya elementi bo'lib, plunjер juftligi – plunjер 5 va uning vtulkasi 2 hisoblanadi. Bu detallar ШХ15, ХВГ va boshqa navli, shuningdek xrommolibdenli 25Х5М, 30Х3BA navli legirlangan po'latlardan tayyorlanadi va termik ishlov beriladi (azotlashni ham qo'shib), shundan so'ng, ularning ishqalanuvchi yuzalarining qattiqligi 63...65 HRC va undan ortiq bo'ladi. Bu detallarga yuqori aniqlik bilan ishlov beriladi, ular orasidagi tirkish 3–5 mkmni tashkil etadi va faqat birgalikda (komplektda) almashtirilishlari mumkin.



**2.57-rasm. Yuqori bosim yonilg'i nasosi seksiyasining elementlari**

Vtulkaning yuqori qismi devorini 4 hajmdagi bosimini orttirishda, yonilg'inining yuqori bosimi ta'sirida uning kengayishini kamaytirish uchun qalinroq qilinadi. Bu hajmni yonilg'i bilan to'ldirish vtulkaning

3 kiritish darchasi orqali amalga oshiriladi, bu darchaga yonilg'i barcha seksiyalar uchun umumiy nasos korpusidagi 1 kanaldan haydaydigan nasos hosil qilayotgan bosim ostida kiradi. Plunjер yonilg'i bosimini orttirishni tugatgandan keyin 4 hajmni 22 umumiy kanalga bo'shatish 23 chiqarish darchasi orqali ro'y beradi.

Vtulkaning yuqori chekkasiga 31 korpusga burab kiritilgan 27 shtutser bilan 25 bosim orttirish klapanining 24 uyasi bosib turiladi. Klapan 28 prujina bilan yuklangan va 4 hajmdagi yonilg'i bosimi ortganda ko'tariladi. 29 shtutserning konussimon yuzasiga qamrov gayka yordamida yuqori bosimli yonilg'i o'tkazgichlarning uchlari siqib qotirilgan.

5 plunjerning yuzasida frezalangan chuqurcha yoki 8 qirrasi vintsimon yoki to'g'ri chiziqli bo'lgan ariqcha bor. Chuqurcha ariqsimon o'yiq yordamida, ariqcha esa 6 o'q bo'ylab va 7 radial teshik yordamida plunjер ustidagi 4 hajm bilan doimiy tutashgan. Plunjerdagi 10 halqasimon o'yiq, u bo'ylab sizib o'tgan yonilg'ini yig'ish va vtulkadagi qiya teshik orqali 3 chiqarish darchasiga olib borish uchun xizmat qiladi.

Plunjerning ilgarilanma-qaytma harakat qonuni 20 kulachok profili bilan aniqlanadi. 21 valcha aylanganda bu kulachok 16 rolikni siqib boradi. Bronza vtulka-podshipnik 17 rolikka bosib kiritilgan va 15 turkichga mahkamlangan 18 o'q atrofida u bilan birga aylanadi. Bu o'qning uchlari turkichning silindr yuzasidan chiqib turadi va nasos korpusida frezalangan tikka o'yiqlarda harakatlanib, turkichning aylanib ketishini oldini oladi.

Turkichga burab kiritilgan 13 sozlovchi bolt, 14 kontrgayka bilan qimirlamaydigan qilib qotiriladi, A tirqishni tanlab olingandan keyin plunjerning chekkasiga tiralib uni ko'taradi. Plunjerni tushurish 11 prujina bilan 12 tarelka orqali amalga oshiriladi. Kulachok o'zining to'g'ri chiziqli (tangensial), qator konstruksiyalarda esa profilning botiq uchastkasi bilan 16 rolikni bosib boradi. Bosimni orttirish yurishida plunjerning ko'tarilish tezligi 3...4 m/s bo'ladi. Natijada forsunkaning soplo teshiklaridan yonilg'i oqib chiqish tezligi uning yonish kamerasida mayda purkalishi uchun yetarlicha baland bo'ladi. Rolik kulachok profilining pasayish uchastkasida dumalaganda, 5 plunjerning tushish tezligi katta emas, bu 4 hajmni 2 vtulkadagi 3

darcha orqali oqib kirayotgan yonilg'i bilan yaxshi to'lishini ta'minlaydi.

Plunjер ko'tarila boshlaganda 4 hajmdagi yonilg'ini 3 darcha orqali 1 kanalga qaytarib chiqaradi. Plunjerning yuqori chekkasi bu darchani berkitgandan so'ng, 4 hajmdagi bosim oshadi, 25 klapan 28 prujina qarshiligini yengib ko'tariladi va uning 26 radial teshigi orqali yonilg'i 27 shtutser bo'shlig'iga kiradi.

30 teshik orqali quvur o'tkazgich bo'ylab forsunkaga bosim to'lqini taxminan 1500 m/s tezlik bilan harakatlana boshlaydi. Uning ta'siri ostida forsunkaning yopish ignasi ko'tariladi va yonilg'ini yonish kamerasiga purkash boshlanadi. Purkash ko'tarilayotgan plunjerning yuzasidagi o'yiqning 9 qirrasi uning vtulkasidagi 23 chiqarish darchasini ocha boshlagunga qadar davom etadi. Shu paytdan boshlab yonilg'i 4 hajmdan plunjerdagi 6 va 7 teshiklar, hamda uning yuzasidagi 8 o'yiqcha orqali 23 darcha va 22 kanalga oqib chiq qoshchiladi. 4 hajmdagi, quvur o'tkazgichdagi va forsunkadagi bosim keskin pasayadi, forsunka ignasi yonilg'ini yonish kamerasiga oqib o'tishini berkitadi, 25 klapan 28 prujina bilan 24 uyaga tushiriladi va forsunkaga yonilg'i yuborish to'xtaydi. Yonilg'ini purkash davomiyligi bir necha millisekundni tashkil etadi.

25 bosim orttirgich klapan va uning 24 uyasi ham pretzision detallar hisoblanadi va faqat komplekt almashtiriladi. Ularni XBF, ШХ15 va boshqa markali po'latlardan tayyorlaydilar. Qo'ziqorin turidagi klapanlar eng keng tarqalgan. Ularni yo'naltiruvchi qismi quvursimon yoki xochsimon bo'ladi. Ikkala turdag'i klapanlar ham yengillashtiruvchi 32 silindrishimon belbog'ga ega. Klapan bu belbog' kesimidan pastroqqa tushurilganda (2.57-rasmdagidek) 27 shtutser bo'shlig'idagi yonilg'i egallagan 34 hajmni oshishi ro'y beradi. Natijada, bu hajmda ham, yonilg'i o'tkazgichda ham yonilg'i bosimi pasayadi.

Yuqori bosim yo'lini bunday bo'shatish nasos uzatishni to'xtatgandan so'ng, quvur o'tkazgichda yonilg'i bosimi tebranishida forsunka ignasining ko'tarilishini oldini oladi. Bunday yonilg'ini yonish kamerasiga «qo'shimcha purkash» dizelning tejamkorligini yomonlashtiradi va ishlagan gazlarning zaharlilagini oshiradi.

Shu vaqtning o'zida, dizel aylanish chastotasini uning ortiqcha yuklanishi natijasida  $n_{dh}$  dan  $n_{ch}$  gacha pasayishida (2.4-rasmga

qarang), u berayotgan burovchi momentni  $M_{dn}$  dan  $M_{dm}$  gacha zaruriy oshirish faqat silindrlerga purkalayotgan sikldagi yonilg'i miqdorini ko'paytirish yo'li bilan amalga oshishi mumkin. Shu maqsadda quvursimon turdag'i bosim orttirish klapanida 32 yengillashtiruvchi belbog' tepasida (2.57-rasmiga qarang) diametri 0,3 mm atrofida bo'lgan 33 tuzatuvchi teshik qilinadi.

Plunjerning 9 qirrasi bilan yonilg'i uzatish uzilgandan keyin yengillashtiruvchi belbog' uning 24 uyasi kanaliga kira boshlaydi, yonilg'ini 4 hajmdan shtutser bo'shlig'iga 28 teshik orqali oqib o'tishi to'xtaydi, ammo 33 teshik orqali klapan uyasiga o'tirgunga qadar davom etadi. Plunjerning katta ko'tarilish tezligida (dizelning aylanish chastotasi  $n_{dn}$ ) yonilg'ining 33 teshik orqali oqib chiqishi ham katta tezlik bilan ro'y beradi va undagi drossellanish sababli oqib o'tayotgan yonilg'ining miqdori katta bo'lmaydi. Biroq dizelning aylanish chastotasi kamayganda yonilg'ining 33 teshik orqali oqib o'tish tezligi, demak, undagi drossellanish kamayadi. Natijada 27 shtutser bo'shlig'ining 34 hajmiga yonilg'i ko'proq kiradi va undagi bosim oshadi. Shuning uchun plunjerning keyingi bosim orttirish yurishida forsunka ignasining ko'tarilishi va yonish kamerasinga yonilg'i purkash oldinroq boshlanadi. Buning oqibatida purkalayotgan yonilg'i miqdori ko'payadi va dizel berayotgan burovchi moment  $M_{dm}$  gacha o'sadi.

Xochsimon kesimli bosim orttirish klapanlarida yo'naltiruvchi qismida oqib o'tayotgan yonilg'ini drossellash 35 segmentlarda ro'y beradi, ularning kesimlari 32 yengillashtiruvchi belbog'ga yaqinlashgan sari o'xhash samarani keltirib chiqarib kamayib boradi.

Traktorning harakat tezligini o'zgartirish uchun yoki o'zgarayotgan qarshilikni doimiy tezlik bilan yengib o'tish uchun mos ravishda, uning dizeli silindrleriga purkalayotgan yonilg'i miqdori o'zgarishi kerak. Ko'pincha bu yuqori bosim nasosi seksiyalari bilan yonilg'i bosimini orttirishni tugallanish paytini, ya'ni bu paytni aniqlaydigan 9 qirrani plunjerni vtulkasidagi chiqarish darchasiga nisbatan joylashishini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shunday qilib, 5 plunjerni soat strelkasiga teskari buralishi natijasida 9 qirra bilan 23 darchani ochilish payti plunjerning yurishida keyinroq sodir bo'ladi, natijada u bosimini orttirayotgan yonilg'ini miqdori oshadi.

Plunjerni burash odatda plunjerning 2 vtulkasiga erkin kiydirilgan 36 gilza yordamida amalga oshiriladi. Gilzaning pastki qismida 38 u yoqdan bu yoqqa o'tgan o'yiq bor, u bo'ylab 37 plunjер krestovinasi joyini o'zgartiradi. Gilzani buralishi gilzaga 39 vint bilan tortilgan 40 xomut yordamida bajariladi. Xomutning tishli sektori, nasosning barcha seksiyalari uchun umumiy bo'lgan, 41 reykaning tishlari bilan ilashmaga kiradi. Nasos rostlagichi yoki bevosita traktorchi bilan reykaning ilgarilanma-qaytma harakati xomutni, gizani va plunjер krestovinasi buralishini keltirib chiqaradi. A tirqish plunjerni 41 reykaga ta'sir etadigan rostlagich bilan buralishini yengillashtirishga imkon beradi.

Nasosning oxirgi qator konstruksiyalarida og'ir reyka yengil 45 burchakli metall (ugolnik) bilan almashtirilgan. Uning gorizontal polkasida (tovchasida) 43 o'yqlar qilingan bo'lib, ularga 36 gilzalarga qotirilgan 42 tizginlarning 44 zoldirlari kiradi.

Nasosni yig'ish yoki ta'mirlashdan keyin uning seksiyalari yonilg'i uzatishni boshlanish paytlari bir xil bo'lishini ta'minlash 15 turkichga burab kirgazilgan va kontrgayka 14 bilan qotirilgan 13 bolt yordamida bajariladi. Bu boltni burab bo'shatish plunjerning yuqori chekkasini uning vtulkasidagi 3 kiritish darchasiga nisbatan holatini o'zgartiradi.

Nasosning barcha seksiyalarini yonilg'i uzatishini bir xillagini sozlash uzatishning tugash paytini, ya'ni plunjerning 9 qirrasini uning vtulkasidagi 23 chiqarish darchasiga nisbatan joylashishini o'zgartirish yo'li bilan bajariladi. Buning uchun 39 vint bilan 36 gilzadagi 40 xomutni tortib mahkamlanishi bo'shatiladi. Shundan so'ng 41 reykaning o'zgarmas holatida plunjerning gilzasi va krestovinasini kerakli burchakka buraladi. Vintlar va gilzalarga yetib borish uchun nasosning yonbosh devorida qopqoq bilan yopilgan bo'ylama darcha qilingan. Bunday darcha nasos korpusi bikirligini sezilarli darajada pasaytiradi, bu esa u uzatayotgan yonilg'i bosimini cheklaydi.

Shu munosabat bilan korpusi darchasiz bo'lgan, ya'ni yopiq ("Kompakt" turidagi) nasoslar keng tarqalmoqda. Bunday nasosning har bir seksiyasini 46 korpusi 48 shtift bilan plunjerning 2 vtulkasiga bikir mahkamlangan va nasosning 31 korpusiga, uning flanetsidagi 49 yoysimon kesik orqali o'tadigan 47 boltlar bilan qotirilgan.

Seksiyaning sikldagi yonilg'i uzatishini sozlashda 47 boltlar tarangligi bo'shatiladi va seksiya korpusini plunjер vtulkasi bilan bиргаликда kerakli burchakka 49 teshik doirasida buraladi. Bunda plunjerning buraluvchi 50 gilzaning va u bilan ilashmada bo'lgan 41 tishli reykaning holati o'zgarmay qoladi. Vint 39 bilan 40 xomutning yo'qligi ularga yetib borish zaruriyatini qoldirmaydi, demak nasos korpusida darchaning ham keragi bo'lmaydi. Bunday nasosning har bir seksiyasi yonilg'i uzatilishi boshlanish paytini bir xil qilishni sozlash uning flanetsi ostidagi qistirmalarni qalinligini tanlash yo'li bilan bajariladi. Bunda plunjер vtulkasidagi 3 kiritish darchasining plunjerni yuqori chekkasiga nisbatan holati o'zgaradi.

**Dizel aylanish chastotasining rostlagichi** 22 (2.53-rasmga qarang) odatda yuqori bosimli yonilg'i nasosi bilan agregatlanadi va dizel silindrlariga purkalayotgan sikldagi yonilg'i miqdorini avtomatik tarzda o'zgartirish yo'li bilan quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- dizelni ishga tushurishni yengillashtirish uchun ayniqsa, atrof-muhitning harorati past bo'lganda, 1,5–2,0 marta yonilg'i miqdorini oshiradi;

- traktor vaqtinchalik to'xtab turganda va dizelni qizdirishda uning minimal turg'un aylanish chastotasini ta'minlab turadi;

- traktorchi 21 richag (2.53-rasmga qarang) orqali belgilagan traktor tezligi uning harakatiga qarshilik o'zgarganda ta'minlab beradi;

- 21 richagni (2.53-rasmga qarang) cheklovchi vintga tiralgan holatida va traktorming harakat qarshiligini keyingi o'sishida (2.4-rasmda dizelning tezlik tavsifini  $M_{dn} - M_{dm}$  uchastkasi) yonilg'i miqdorini va mos ravishda dizel berayotgan burovchi momentni oshirishni davom ettiradi;

- xususiy inersiya kuchlari ta'siri ostida detallar sinishini oldini olish uchun, dizelning ruxsat etilgan maksimal aylanish chastotasini  $n_{dx}$  (2.4-rasmga qarang) cheklaydi.

Tez-tez o'zgaradigan yuklamalar ostida ishlaydigan traktor dizellarida odatda markazdan qochirma turdagи hamma tartibli (vsetartibniy) rostlagichlar qo'llaniladi. Ular boshqaruvchi 21 richagni (2.53-rasmga qarang) traktorchi belgilagan har qanday holatida ham o'z vazifasini bajaradi. Bunday rostlagichlarning alohida belgisi bo'lib

boshqaruvchi richag va yuqori bosimli nasos reykasi orasida bikir bog'lanish yo'qligi hisoblanadi.

Eng sodda hamma tartibli rostlagichni dizelning turli ish tartiblarida faoliyat ko'rsatish prinsipial sxemasi 2.58-rasmida keltirilgan. Sxemani soddalashtirish uchun rostlagichning barcha elementlari bitta tekislikda joylashgan qilib ko'rsatilgan.

Rostlagichning 1 valchasi yonilg'i nasosining kulachokli valini davomi hisoblanadi yoki oshiruvchi shesternyali uzatma orqali undan harakatga keltiriladi. Valchaga 2 krestovina bikir qotirilgan. Krestovina 5 yuklar va 3 lapkalar bilan sharnir bog'langan. Valcha 1 aylanganda yuklar o'zining markazdan qochirma kuchlari ta'siri ostida ochiladi va lapkalar bilan 4 podshipnik orqali 6 muftani joyini o'zgartiradi. Mufta 9 oraliq richagga o'rnatilgan 10 rolikka tiralgan. Richagning yuqori uchi 20 ilgak orqali yuqori bosim nasosining 19 reykasi bilan ulangan. Richag 9 rostlagichning 8 korpusiga bosib kiritilgan 7 o'q atrofida erkin buriladi. Bu o'q atrofida asosiy richag 11 ham erkin buraladi, uning yuqori uchi rostlagichning 23 prujinasi bilan 24 o'qda bikir mahkamlangan 22 richag bilan bog'langan. Shuningdek 8 korpusdan chiqib turadigan 24 o'q uchida, traktorchi 25 tortqi orqali boshqaradigan 25 richag ham bikir mahkamlangan. Shunday qilib, 22 va 25 richaglar 24 o'q bilan bir butun bo'lib birgalikda buriladi. 25 richagning burilishi 8 korpus devorining tashqi tarafidagi bo'rtmaga burab kirgazilgan 26 taqaladigan bolt bilan cheklangan. 22 richagning tepa uchi 9 richagga boyituvchining 21 kuchsiz prujinasi bilan ulangan. 9 richag burilishining oxiri 11 richagga burab kirgizilgan 12 bolt kallagi bilan chegaralangan. Shu yo'nalishda 11 richagning burilishi rostlagich korpusiga burab kiritilgan 13 bolt kallagi bilan chegaralanadi. 9 richagga korrektoring 17 korpusi burab kiritilgan, uning 15 turtkichi unga 11 richagning chiqib turgan uchi bilan bosilganda, bu korpusga kirib borishi yoki undan dastlab 18 bolt bilan siqb qo'yilgan 16 prujina ta'siri ostida, chiqib borishi mumkin.

Dizelni ishga tushirishdan avval (2.58-rasm, a) traktorchi 27 tortqi bilan 25 richagni 26 boltga taqalguncha buraydi. Bunda 22 richag rostlagichning 23 va boyitkichning 21 prujinalarini cho'zib 11 richagni 13 bolt kallagiga tiralguncha buraydi. 9 richag burilishni avval korrektoring 16 prujinasi ta'siri ostida davom ettiradi, bunda

korrektor 15 turtkichni 17 korpusdan surib chiqaradi, 9 richagni to'xtagan 11 richagdan itarib yuboradi, turtkich to'liq chiqqandan so'ng esa u boyitkichning cho'zilgan 21 prujinasi ta'siri ostida buriladi. 9 richagning burilishi u 12 bolt kallagiga taqalguncha davom etadi.

Dizelning tirsakli valini startyor bilan 100...120 daq<sup>-1</sup> ishga tushirish chastotasida aylantirilganda nasosning kulachokli vali va rostlagich ikki marta kam chastota bilan aylanadi. Buning natijasida yaqinlashgan 5 yuklarning markazdan qochma kuchi kam va boyitkichning 21 prujinasi kuchini yengib o'ta olmaydi.

Shu yo'sinda turg'unlashgan 9 richagning holati va u bilan ulangan nasosning 19 reykasi dizelning nominal tartibda ishlashidagidan 1,5–2 marta ortiq sikldagi yonilg'i uzatishini ta'minlaydi.

Dizel ishga tushgandan so'ng, (2.58-rasm, b) toki traktor harakat boshlamaguncha unda yuklanish bo'lmaydi. Agar traktorchi 27 tortqi bilan 25 va 22 richaglar holatini o'zgartirmasa nasos seksiyalari ishga tushurish tartibidagi miqdorda yonilg'i uzatishni davom ettiradi va dizelning aylanish chastotasi haddan tashqari oshib ketadi.


Biroq bunda 5 yuklarning markazdan qochma kuchlari ortadi, ular uzoqlashib lapkalari bilan 6 mustani va 9 richagning 10 roligini yuklaydi.

9 richagni soat strelkasi bo'yicha buraganda avval korrektorning 15 turtkichi chekkasi va 11 richag orasidagi tirqish kamayadi. Ular tutashgandan so'ng, turtkich korrektorning 16 siqilayotgan prujinasi qarshiligini yengib, uning 17 korpusiga toki 11 richag korpus chekkasiga tiralguncha kirib boradi.

Keyin 9 richag 5 yuklarning markazdan qochma kuchlari ta'siri ostida 23 rostlagich va 21 boyitkichning cho'zilayotgan prujinalari qarshiligini yengib o'tib, 11 richagni buradi. Yuklarning kuchi bu prujinalarning kuchlari yig'indisiga tenglashganda, 9 richag, 20 ilgak va 19 reyka seksiyalar bilan yonilg'ini siklda uzatish, salt yurish tartibida dizel detallarining mustahkamligi nuqtai nazaridan, uning maksimal ruxsat etilgan aylanish chastotasiga mos keluvchi, kattalikkacha kamayadigan holatida turg'unlashadi.

Traktorchi uzatmalar qutisida kerakli uzatmani va ilashish muftasini ulagandan keyin traktorning harakati boshlanadi va uning

dizeliga bo'lgan yuklama oshib boradi. Traktorni istalgan tezlikda harakatlanishi uchun uning dizeli berayotgan burovchi moment oshirilishi, buning uchun uning silindrlariga purkalayotgan sikldagi yonilg'i miqdori ko'paytirilishi kerak. Rostlagichning 1 valchasi aylanish chastotasi (2.58-rasm, *a*), demak, 5 yuklarning markazdan qochma kuchi kamaygan sari, 3 lapkalar bilan 6 mufta va 9 richagning 10 rolikiga uzatilayotgan kuch kamayadi. 23 prujina 11 richagni rostlagich korpusiga burab kiritilgan 13 bolt kallagiga taqalguncha buradi, 11 richag o'z navbatida 9 richagni soat strelkasiga teskari yo'nalishda buradi. Natijada, nasosning 20 ilgak va 9 reykasi, nasos seksiyalari uzatayotgan yonilg'i miqdori, dizel berayotgan burovchi momentni kerakli oshishini ta'minlaydigan holatga ko'chib o'tadi. Rostlagichning bunday harakatlari natijasida dizel aylanish chastotasini, unga oshib borayotgan yuklama ta'siri ostida, pasayishi (2.4-rasmdagi tashqi tezlik tavsifining  $n_{dx} - n_{dh}$  diapazoni) hammasi bo'lib 7...11 % tashkil etadi.



**2.58-rasm. Dizelning aylanish chastotasini eng sodda hamma tartibli rostlagichini turli ish tartiblarida faoliyati:**  
*a* – dizelni ishga tushurish; *b* –  $n_{dx}$  tartibi; *v* –  $M_{dn}$  tartibi; *g* –  $M_{dm}$  tartibi;  
*d* – qisman yuklamalar tartibi

Traktor harakatiga qarshilikning keyingi o'sishida uning dizeli ortiqcha yuklanish tartibida ishlaydi. Rostlagichning ta'siri to'xtaganligi sababli dizelning aylanish chastotasi yanada keskin pasayadi (2.4-rasmagi o'sha tavsifining  $n_{dn} \dots n_{dm}$  diapazoni). Motoring burovchi momentini kerakli oshirish rostlagichning yonilg'i uzatishini to'g'ridan-to'g'ri korrektori bilan amalga oshiriladi (2.58-rasm. g). Uning avval siqib qo'yilgan 16 prujinasi 15 turkichni 17 korpusdan chiqara boshlaydi. Turkich 9 richagni soat strelkasiga teskari buradi va nasosning 19 reykasi sikldagi yonilg'i uzatishning ko'payish tomoniga qo'shimcha suriladi. 9 richagning chekli burilishi 11 richagga burab kiritilgan 12 bolt kallagi bilan chegaralanadi.


Traktor harakatiga qarshilikni kamaytirilganda, uning dizeliga yuklama kamayadi va uning aylanish chastotasi o'sadi, natijada traktor oshirilgan tezlik bilan harakatlana boshlaydi. Agar bunday tezlik traktorchi uchun o'rinsiz bo'lsa, u 25 boshqarish richagini 26 boltga tiralguncha olib boradi, bir vaqtning o'zida 22 richagni ham buradi. Rostlagichning 23 prujinasini tarangligi bo'shashadi va 11 richag 9 richagga ko'rsatayotgan ta'sir kuchi kamayadi (2.58-rasm, d). Dizelning aylanish chastotasi traktorchi istagan tezlikda traktorning harakatini ta'minlaydigan kattalikgacha kamayadi.

Tutunga qarshi korrektor 19 (2.53-rasmga qarang) turbopuflashli dizellarning rostlagichlariga qo'yiladi. Uning vazifasi bo'lib yuqori bosimli yonilg'i nasosining reykasini uning seksiyalari sikldagi yonilg'i uzatishini ko'paytirish tomoniga surilishini quyidagi sharoitlarda cheklash hisoblanadi:

- dizelning past aylanish chastotalarida (uning tezlik tavsifini  $n_{dm} - n_{min}$  diapazoni) turbokompressor turbinasi orqali ishlagan gazlarning kichik sarfida. Bunda uning motorini, demak, markazdan qochma kompressorning ishchi g'ildiragini aylanish chastotasi kamayadi. Natijada kompressor bosimini orttirayotgan havoning miqdori kamayadi, u silindrarga purkalayotgan yonilg'ini tutunsiz yonishi uchun yetarli bo'lmay qoladi. Yonilg'ining miqdori esa rostlagichning to'g'ridan-to'g'ri korrektori ta'siri ostida ko'payadi;

- traktorchi traktorni tezlanishi uchun yuqori bosimli nasosning boshqarish richagini uning seksiyalari yonilg'i uzatishini ko'paytirish tomoniga keskin burganda. Bu holda dizel silindrlariga purkalayotgan

yonilg'ining miqdorini ko'payishi, turbokompressor motorning inersiyaliligi oqibatida, kompressor bosimini orttirayotgan havoning oshishidan ilgarilab ketadi. Dizel silindrlarida havoning yetishmasligi yonilg'ining yonishini to'liq bo'lmasligiga demak, ishlagan gazlarning tutunli bo'lishiga olib keladi.



**2.59-rasm. Yonilg'i uzatishning tutunga qarshi korrektori**


Tutunga qarshi korrektoring tuzilish sxemasi 2.59-rasmda keltirilgan. Korrektorming 15 korpusi 3 elastik diafragma bilan ikkita bo'shliqqa bo'lingan. Yuqoridagi bo'shliq 16 shtutser va quvur o'tkazgich bilan dizelning kiritish kollektoriga ulangan, natijada diafragma puflanayotgan havo bosimi va diafragmani pastga egishga harakat qilayotgan, rostlagichning 12 prujinasi kuchi bilan doimiy yuklangan. Bunga 1 vint bilan daslabki tortilishi belgilab qo'yilgan, korrektoring 5 prujinasini kuchi qarshilik ko'rsatadi. Diafragmaga ikkita 2 tarelkalar va gayka bilan yo'naltiruvchi 6 tiqinda suriladigan 4 shtok mahkamlangan.

Shtok 7 o'q atrofida buriladigan 8 burchak richagi bilan sharnirli ulangan. Bu richagning pastki yelkasi, rostlagichning 14 richagini yonilg'i nasosining 10 reykasi bilan ulaydigan 9 ilgakdag'i o'simtaga tiraladi (2.58-rasmdagi 20).

Bu sxemadan kelib chiqadiki, 10 reykani nasosning sikldagi yonilg'i uzatishini ko'payishi tomoniga (chapga) surilishi, 3 diafragma tepasidagi puflanayotgan havoning ortib borayotgan bosimi va

rostlagichning asosiy richagi orqali 14 richagga uzatayotgan prujinasining kuchi korrektoring 5 prujinasini kuchidan katta bo'lib qolmaguncha mumkin bo'lmaydi.

Avtomatik mufta 9 (2.53-rasmga qarang) yuqori bosimli nasos seksiyalarining yonilg'i uzatish boshlanishining o'zish burchagini o'zgartirish uchun mo'ljallangan: dizelning tirsakli vali aylanish chastotasi o'sganda uni ko'paytirish va teskarisi. Bu dizelning, turli tezlik tartiblarida ishlaganida, energetik, yonilg'i-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradi. Mufta alohida agregat yoki nasos yuritmasining yetaklanuvchi shesternyasiga joylashtirilgan ko'rinishida bajarilishi mumkin. Yonilg'i uzatish boshlanishining o'zish burchagini o'zgartirish nasosning kulachokli valini uning yuritmasi valiga nisbatan burchagini siljitish yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning uchun qoida tarzida, mufta yuklarining uning aylanish chastotasiga bog'liq bo'lgan markazdan qochirma kuchlaridan foydalaniлади.




**2.60-rasm. Yonilg'i uzatish boshlanishini avtomatik o'zgartirish muftasi**

Yonilg'i uzatishni boshlanishini avtomatik o'zgartirish muftasining principial sxemasi 2.60-rasmda keltirilgan. Yetakchi 2 yarim mufta kardan uzatmaning 1 krestovinasi bilan aylantiriladi. Yetaklanuvchi 5 yarimmufta nasosning 6 kulachokli valchasini konussimon tumshug'iga mahkamlangan. Bu yarimmustanining tashqi yuzasiga 3 korpus o'ralgan. Yarimmuftadan chiqib turadigan uchlariga presslangan ikkita 7 barmoq atrofida ikkita yassi 4 yuk erkin buriladi. Barmoqlarning chuqurchalariga 8 prujinalarning chetlari

taqalib turadi. Prujinalarning qarama-qarshi chetlari 10 sferik uchliklarni 9 yuklarning shakl berilgan yuzalariga siqib turadi.

1 krestovinaning aylanish chastotasi oshganda 2 yuklar, 7 barmoqlar atrofida burilib, 4 yarimmuftadan uzoqlashadi. Ularning 9 yuzalari 8 prujinalarni siqib, 10 uchliklarni bosadi. Natijada yetaklanuvchi 5 yarimmufta yuqori bosimli nasosning kulachokli valchasi bilan birga, yetakchi 2 yarimmufta va 1 krestovinaga, demak, kardan valchaga nisbatan, yuritmaning aylanish chastotasi qancha katta bo'lsa, shuncha katta burchakka buriladi.



2.61-rasm. Yuqori bosimli nasosning kardan yuritmasi

Yuqori bosimli nasosning yuritmasi odatda, ularning aylanish chastotasi bir xil bo'lgani uchun gaz taqsimlash mexanizmining validan yoki bevosita nasosning mushtli valchasi tumshug'iga mahkamlangan 10 shesternya bilan (2.53-rasmga qarang), yoxud 1 kardan val (2.61-rasm) orqali amalga oshiriladi. Bu valning 2 krestovinalari nasos valchasini va uning yuritmasini mos keladigan krestovinalari bilan elastik element hisoblanadigan yupqa po'lat plastinalar paketi 3 orqali ulangan.


Bunday konstruksiya yetakchi va yetaklanuvchi valchalar o'qdoshligiga bo'lgan talablarni pasaytirishga va ularning tayanch podshipniklarini valchalar radial urishida kelib chiqadigan kuchlardan yengillatishga imkon beradi.

*Forsunka 17* (2.53-rasmga qarang) tizimning elementi bo'lib, ma'lum darajada aralashma hosil qilish jarayonining sifati, dizelning quvvati, yonilg'i tejamkorligi va buzilmasdan ishlashi, shuningdek tutunliligi va ishlagan gazlarning zaharliligi uning takomilligiga bog'liq.

Forsunkaning asosiy vazifalari quyidagilar:

- yonish kamerasida bo'lgan siqilayotgan havoga yuqori bosimli nasos seksiyasida me'yorlangan yonilg'i porsiyasini purkash;
  - o'z-o'zidan alangalanishning kechikish davrini kamaytirish va yanada to'liq yonish uchun yonilg'ini mayda tomchilarga parchalash (changlash);
  - imkon boricha yanada gomogen yonilg'i-havo aralashmasi hosil qilish uchun tomchilarni havo hajmida bir tekis taqsimlash.

Traktor dizellarida mexanik (prujinali) bekiladigan ignali va ko'p teshikli changlagichli normal yopiq forsunkalar eng ko'p tarqalgan. Bunday forsunka konstruksiyasiga misol 2.62-rasm, a da keltirilgan.



#### 2.62-rasm. Forsunka

Yonilg'i yuqori bosimli quvur o'rkazgichidan 8 shtutserga o'matilgan <sup>7</sup> to'rli yoki teshikli filtr orqali o'tadi. Shtutser forsunkaning 16 korpusiga 6 zichlovchi qistirma orqali burab kiritilgan. Forsunka korpusidagi 5 va changlatkich 18 korpusidagi 4 teshiklar bo'ylab yonilg'i 3 cho'ntakka (kameraga) kiradi. Forsunka va changlagich korpuslari orasidagi tutashish qistirmasiz bo'ladi. Uning zichligi tutashadigan yuzalarining aniqligi va yuqori tozalikda ishlov berilishi hamda 19 tashlama gaykada bir-biriga siqib tortish kuchi bilan ta'minlanadi.

4 va 5 teshiklarning mos kelishi, hamda changlovchi soplari teshiklarini porshen tubidagi yonish kamerasiga nisbatan to'g'ri yo'naltirilganligi, diametral tekislikda siljtilgan va forsunka va

changlagich korpuslarini ularning faqat bitta o'zaro joylashuvida birlashishga yo'l qo'yadigan ikkita o'rnatish 17 shtiflari yordamida ta'minlanadi.

Berkituvchi 1 igna yuqori (yo'naltiruvchi) qismi bilan changlagich korpusiga 2...6 mkm tirkish bilan o'rnatiladi, buning natijasida bu detallar pretsizion toifaga tegishli bo'ladi. Bu tirkishning kengayishi yonilg'ini u bo'yicha 3 cho'ntakdan forsunka korpusi bo'shlig'iga oqib o'tishi va purkalayotgan yonilg'i bosimini kamayishini keltirib chiqarishi mumkin. Tirkishning kamayishini ignaning diametri qizish natijasida kengayganda, changlatkich korpusida osilib qolishini keltirib chiqarishi mumkin. Ignaning pastki qismini diametri yuqorisiga qaraganda kamroq bo'ladi. Ular orasidagi konussimon o'tish ignanining differensial maydonchasi deb ataladi.

Yonilg'ini bosimi orttirilganda 3 cho'ntakda 1 ignani ko'tarishga intiladigan kuch hosil bo'ladi. Bunga 14 prujinaning ignaga 15 shtanga orqali uzatiladigan, dastlab tortib taranglangan kuchi qarshilik qiladi. 3 cho'ntakdagagi yonilg'i bosimi 16–30 MPa ga yetganda u hosil qilayotgan kuch 14 prujinaning tortib taranglangan kuchidan oshib ketadi va 1 igna ko'tarila boshlaydi.

Yonilg'i changlagich bo'shlig'idan uning korpusi va ignanining pastki qismi orasidagi tirkish orqali o'tadi, ko'tarilgan berkituvchi 21 konusni qamrab oladi va 20 soplo teshigi orqali yonish kamerasinga purkaladi.

14 prujinani dastlabki taranglash forsunkani yig'ish vaqtida amalga oshiriladi va foydalanish jarayonida 13 stakanga burab kirgazilgan va 12 gayka bilan to'xtatib qotirilgan 10 vint bilan sozlanadi.

Stakanga 9 qistirma orqali 11 qalpoq buralgan. Uning yuqori qismida shtutser uchun rezba qilingan, u orqali quvuro'tkazgich bo'ylab ignanining yuqori qismi va changlagich korpusi orasidagi tirkish orqali sizib o'tgan yonilg'i mayin tozalash filtriga yoki bakka olib ketiladi. Bunday to'kish bo'lmasligi forsunka korpusi bo'shlig'ini yonilg'i bilan to'lishiga va ignani ko'tarish mumkin bo'lmay qolishiga olib kelar edi. Ignaning maksimal ko'tarilishi  $X_t = 0.3 \dots 0.4$  mm uning yelkachasini forsunka korpusi yonboshiga tiralishi bilan chegaralangan (2.62-rasm, b).

Nasos seksiyasi plunjeri bilan uzatish to'xtatilgandan keyin 3 cho'ntakdagagi 90...120 MPa ga yetgan yonilg'i bosimi keskin pasayadi va 14 prujina ignani, uning bekituvchi konusi changlagich korpusidagi uyasiga o'tirguncha, tushiradi, natijada yonish kamerasiga yonilg'i purkash to'xtaydi.

Changlagich tumshug'ini 20 sopllo teshiklari bilan iloji boricha, porshen yuzasiga tushadigan, to'liq yonmaydigan va dizelning ishlagan gazlarida yonmagan uglevodorodlar CH miqdorini oshishini keltirib chiqaradigan yonilg'i tomchilarining sonini kamaytirib yonish kamerasi o'qiga yaqin joylashtirishga intiladilar.

Forsunka silindrlar kallagiga forsunka korpusining flanetsi orqali ikkita shilkalarining gaykalari bilan tortiladi. Bunda gazlarning silindrda yorib chiqishini oldini oladigan 2 qistirma deformatsiyalanadi.

Forsunka changlagichining termik ishlash sharoitlari nihoyatda og'ir hisoblanadi. Uning korusini ichki yuzalarining va ignanining harorati 180...200°C ga yetishi mumkin. Agar purkash jarayonining yakunlovechi fazasi vaqtida 3 cho'ntakdagagi yonilg'i bosimi dizel silindridagi gazlar bosimidan kam bo'lib qolsa, gazlar 20 sopllo teshiklari orqali changlagich bo'shlig'iga o'tib ketadi va uni qizib ketishini keltirib chiqaradi. Qizib ketgan yuzalarga tekkan yonilg'i, ularda lok pardasi hosil qilib, polimerlanadi, bu pardaga gazlar tarkibidagi qorakuya zarralari yopishadi. Zarralar birlashib yirik konglomeratlar hosil qiladi. Navbatdagi yonilg'i purkashda ular joyidan ko'chadi va sopllo teshiklarini ichkaridan qurumlaydi, natijada yonilg'i tomchilarining yonish kamerasidagi havo hajmida bir tekis taqsimlanishi buziladi.

Yonilg'i yo'lida yuqori qoldiq bosim bo'lganda, uning bekituvchi konusi uyaga o'tirganidan keyin, yuqori bosimli nasos seksiyasining yopilayotgan bosim orttiruvchi klapanidan qaytgan, bosimning qaytish to'lqini ta'siri ostida, forsunka ignasini qaytadan ko'tarilishi sodir bo'lishi mumkin. Natijada, yonish kamerasiga yonilg'ining qo'shimcha kichik porsiyasi purkaladi, uning tomchilarini yonish kamerasining soviy boshlagan devorlariga tushishi, ishlagan gazlarda yonmagan uglevodorodlar CH miqdorining qo'shimcha oshishiga olib keladi. Ignaning bekitadigan konusi ostidagi hajmdan bu konus o'z uyasiga o'tirganidan keyin, sopllo teshiklari orqali yonilg'ining yirik

tomchilarini oqib chiqishi yuqoridagi oqibatlarga, shuningdek, sopro teshiklarini tashqaridan qurumlanishiga olib keladi.

Shunday qilib, forsunkaga qo'yilgan asosiy talablar va ularni konstrukturlik yo'li bilan amalga oshirish usullari quyidagilar hisoblanadi:

- purkalayotgan yonilg'i miqdorini tomchilarining diametri mumkin qadar bir xil bo'lган kerakli maydalikda parchalash (changlagich soplo teshiklari diametrini, demak, ular orqali yonilg'i oqib chiqish tezligini to'g'ri tanlash bilan ta'minlanadi);

- purkalayotgan yonilg'ini yonish kamerasi hajmida bir tekis taqsimlanishi (sopro teshiklari sonini va ularning o'qi yo'nalishini tanlash bilan amalga oshiriladi);

- purkash jarayonida yonish kamerasi devorlariga yetib boradigan yonilg'i tomchilari sonini minimallash (purkalayotgan yonilg'i oqimi uzunligini yonish kamerasingning o'lchamlari va shakli bilan moslashtirib erishiladi);


- ignaning bekituvchi konusi uyasiga o'tirganidan keyin sopro teshiklaridan yonilg'i tomchilarini oqib chiqishini oldini olish (changlagichda igna ostidagi 22 hajm kattaligini kamaytirish (2.62-rasm, *a*), hamda igna uyaga o'tirganda uning 21 konusi bilan sopro teshiklarini bekitib ta'minlanadi);

- yuqori bosimli nasos seksiyasi yonilg'i uzatishni to'xtatgandan keyin gazlarning silindrda forsunka bo'shlig'iga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik. Bu talab forsunkanening tez ishlashini oshirish, ya'ni uning ignasini tushish vaqtini kamaytirish hisobiga bajariladi, bu uning qo'zg'aluvchan detallari inersiyaliliginini kamaytirganda mumkin bo'lib qoladi. Ignaning massasini kamaytirish uchun uning diametrini yo'naltiruvechi qismida kichiklashtiriladi.

Xuddi shu maqsadda 1 shtangani (2.63- rasm, *a*) qisqa qilinadi va yig'ish shartlaridan 2 tutkichga joylashtiriladi. Bunday konstruksiyaning kamchiligi bo'lib, tutkichning tutashuvchi yuzalariga pretszision ishlov berish zaruriyati hisoblanadi;

Forsunka konstruksiyasi yonish kamerasinga yonilg'i purkash qonuniga ta'sir ko'rsatadi. 2.64-rasmida ikkita turli bikirlikdagi prujinasi bo'lган forsunkanening sxemasi keltirilgan. Purkashning boshlanish fazasida 4 igna, 2 tarelka orqali yuqoridagi bikirliga kamroq 1 prujinani siqib, katta bo'lмаган  $X_{II}$  ko'tarish bajaradi.

Ko'tarishni boshlash payti forsunkani yig'ishda uning korpusi va prujinaning yuqori chekkasi orasidagi shaybalar to'plamining qalinligi bilan rostlanadi.



**2.63-rasm. Forsunkalar:**


*a* – shtanga massasi kamaytirilgan; *b* – o'tqazish qismining diametri kichiklashtirilgan

Ignaning ko'tarilishi uning yelkachasi 7 vtulkaga tiralganda to'xtab turadi. Forsunka cho'ntagidagi oshib borayotgan bosim 5 qattiqroq prujinaning dastlabki tarangligini yengib o'tganda, igna 7 vtulka va 6 prujina tarelkasi bilan birga ko'tarilishni  $X_{12}$  kattalikka vtulka 8 tutkichga taqalguncha davom ettiradi. Korpusning halqasimon qavarig'iga tiragan 3 shayba ignanining yuqori qismi uchun yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Shunday qilib, purkash jarayoni ikki bosqichli hisoblanadi. Ignaning bekituvchi konusi va uning uyasi orasidagi o'tish kesimini kamligi sababli uni  $X_{11}$  kattalikka ko'tarilish vaqtida yonish kamerasiga to'liq yonilg'i miqdorining faqat kichik qismi purkaladi.

Purkashning bunday qonuni yonilg'ini yonish jarayonida silindrdagi gazlar bosimining oshish tezligini, ularning haroratini, demak, dizelning ishlagan gazlari tarkibida azot oksidlari  $\text{NO}_x$  miqdorini kamaytirishga imkon beradi. Bunday forsunkalarning kamchiligi ignasini oshirilgan balandligi va massasi hisoblanadi.

Forsunka korpuslarini odatda 45, 12XH3A markali po'latlardan eriydigan modellarga quyish bilan olinadi. Changlagichlar uchun material bo'lib XBГ, 30XH3BA, ignalar uchun esa IIIХ15, P18 va boshqa po'latlar xizmat qiladi. Yuqori aniqlik bilan ishlov berilgandan

keyin bu detallar ignalar 58...62 HRC, changlagich HRC 60...62 HRC qattiqlikkacha azotlanadi. Juftlashni alohida moslashtirish selektiv yig'ish qilgandan so'ng bajariladi. Bunda keyinchalik komplektni ajratishga yo'l qo'yilmaydi.




**2.64-rasm. Ignaning yurishi ikki bosqich bilan chegaralangan forsunka**

Shtangalar ham shu yuqori sifatli po'latlardan tayyorlanadi. Ularning tutashuvchi yuzalari 56...60 HRC qattiqlikkacha toblanadi. Prujinalar tayyorlash uchun 50ХФА po'latdan qilingan silliqlangan sim ishlataladi. Ular 42...47 HRC qattiqlikkacha toblanadi va toliqishga mustahkamligini oshirish uchun pitra oqimida ishlov beriladi.

**Nasos-forsunka.** Yuqori bosim quvur o'tkazgichida bo'lgan yonilg'i uning purkalish qonunga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga yonilg'inining siqluvchanligi, quvur o'tkazgichdagi to'lqin jarayonlari, uning yuqori bosim ta'sirida deformatsiyalanishi va boshqalar sabab bo'ladi. Bu omillar purkalayotgan yonilg'inining bosimini oshirish va demak, uning mayda changlanish imkoniyatini chegaralaydi. Shu sababli, sanoat traktorlari, ekskavatorlar, buldozerlar, yem-xashak yig'uvchi kombaynlarning quvvatli dizellarida, haydovchi nasos (plunjер) va purkagich elementlari (changlagich va uning ignasi) yagona agregat – nasos-forsunkada joylashtirilgan yonilg'i uzatish tizimlari ishlataladi.

2.65-rasmda «Cummins» (AQSH) firmasining PT (bosim – vaqt, ya'ni yuqori bosimda qisqa vaqtda purkash) yangi yonilg'i uzatish tizimining nasos-forsunkasini sxemasi keltirilgan.

Yonilg'i nasos-forsunkaga shesternyali haydovchi nasos hosil qilayotgan past bosim ostida 1 jikler orqali kiradi. Purkalayotgan yonilg'ining miqdori nasos-forsunkaga kirish oldidan, zolotnikli qurilma yordamida uning bosimini o'zgartirish (drossellash) bilan sozlanadi. Zolotnikli qurilma rostlovchi (regulyator) yoki bevosita traktorchi bilan boshqariladi.



**2.65-rasm. Nasos-forsunka**

Plunjер va igna bitta 2 detalga birlashtirilgan. Gaz taqsimlash mexanizmini validagi kulachok turtkich, shtanga va koromislo, shuningdek 14 prujinaning 15 tarelkasi orqali uning harakatini boshqaradi. Siqish taktining oxirida 2 plunjер-igna ko'tarilganda, u tashqaridan tinqinlar bilan yopilgan 3 va 4 radial teshiklarni ochadi. Yonilg'i ignadagi halqasimon o'yiqcha va 5 teshik orqali 8 halqasimon bo'shliqqa hamda 6 konus ostiga kiradi. Bir vaqtning o'zida ochilgan 7 soplo teshiklari orqali shu joyga dizel silindridan siqilgan havo kiradi, yonilg'i havo emulsiyasi hosil bo'ladi, u 9 teshik va 10 jikler orqali 11 va 13 kanallar bo'yicha bakka quyish uchun qaytib ketadi.

Plunjер-igna 2 pastga tushayotganda avval, 3 teshik, keyin esa 9 teshik yopiladi, shundan so'ng igna ostidagi hajm yopiq bo'ladi. Undagi bosim 140 MPa gacha o'sadi. shu bosimda emulsiya diametri

0,17 mmli yetta soplo teshiklari orqali yonish kamerasiga purkaladi. Emulsiyaning yonish to'liqligi juda yuqori, chanlagichning oqib o'tayotgan havo bilan sovutishi yetarlicha jadal bo'ladi. Bekituvchi 6 konusni uyasiga ishonchli sifilishi plunjер-igna yuritmasi shtangasining bo'ylama egilishi hisobiga hosil qilinadi.

*Yuqori bosim yo'lining elektron boshqariladigan agregatlari.*

Yuqorida ko'rib o'tilgan yonilg'i uzatish tizimida, yuqori bosimli nasos seksiyalari haydab berayotgan yonilg'ining sikldagi miqdorini va ularning forsunkalarga uzatish paytining boshlanishini o'zgarishi, dizelning aylanish chastotasiga, unga ta'sir etayotgan yuklanishlarga, traktorchi va boshqa foydalanish omillarining ta'siriga bog'liq bo'ladi. Bu o'zgarish mexanik, gidravlik va pnevmatik qurilmalar yordamida ta'minlanadi, buning ustiga ularning har biri alohida ishlaydi. Natijada yig'ilgan samaraning foydasi ko'p bo'lmaydi. Yonilg'i tejamkorligini oshirishga, dizel ishlagan gazlarining tutunligi va zaharliligini kamaytirishga, salt yurish tartibida ishslash turg'unligiga, ishga tushurish sifatiga, traktorchi mehnatini yengillashtirishga qo'yilgan talablar doimiy oshib bormoqda. Bu yonilg'i uzatish jarayoniga qo'shimcha ilgari hisobga olinmagan omillar: puflash bosimi; atrof-muhitni, sovutuvchi suyuqlikni va yuqori bosimli nasosga kirishdag'i yonilg'ini harorati; uni boshqarish pedalining holati va qator boshqa omillarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradi.


Bu omillarni yuqorida ko'rib o'tilgan qurilmalar yordamida hisobga olish, nasos konstruksiyasining haddan tashqari murakkablashishi, uning narxini oshib ketishi va dizelni buzilmasdan ishslashini kamaytiruvchi qo'shimcha manbalar paydo bo'lishi sababli mumkin emas. Bundan tashqari, bunday qurilmalarning nasosni ishslashiga ta'sirini o'zaro bog'lash mayjud emas.

Yonilg'i uzatishning adaptiv, ya'ni sanab o'tilgan omillarning o'zgarishiga avtomatik o'z-o'zidan moslashuvchi tizimlarini yaratishga, elektronika va mikroprotsessor texnikasining jadal rivojlanishi imkon berdi.

Adaptiv tizim:

- elektr signalari sanab o'tilgan omillarning o'zgarishini sezadigan datchiklami;

- datchiklar signalini qabul qilib oladigan, unga kiritib qo'yilgan hisoblash algoritmlari yordamida, yonilg'i uzatish jarayoni parametrlariga, ularning eng maqbul qiymatlari bilan taqqoslash yo'li bilan kerakli tuzatish kiritish darajasini aniqlaydigan va buyruq elektr signallari ishlab chiqaradigan, boshqarish blokini;
- bu signallarni, yonilg'i uzatish jarayonini boshqaradigan a'zolar holatini o'zgartirish yo'li bilan, amalga oshiruvchi ijro qurilmalarini;
- kommutirlovchi (yo'lini o'zgartiruvchi) apparatlarni o'z ichiga oladi.



**2.66-rasm. Yonilg'i uzatishni elektron boshqarish tizimining datchiklari**

Dizelning aylanish chastotasi datchigi (2.66-rasm, a) ko'pincha tutashuvsiz (induksion) qilib bajariladi. Uning 2 korpusida 1 doimiy magnit, yumshoq temirdan tayyorlangan 4 o'zak (sterjen) va 5 chulg'am bo'ladi. Datchik chekkasi yonidan disk-shesternyaning 6 tishlari o'tayotganda chulg'amning induktivligi, demak, undan oqib o'tayotgan tok kuchi o'zgaradi, bu boshqarish blokida qayd etiladi. Disk-shesternya tishlaridan bittasining yo'qligi, uning holatini ham qayd etishga imkon beradi. Datchikni yoki dizel korpusiga, disk-shesternyani esa tirsaklı val quyrug'iga, yoxud rostlagich korpusi ichiga, disk-shesternyani esa yuqori bosimli yonilg'i nasosi kulachokli valchasi quyrug'iga o'rnatiladi.

Reykaning surilish (joyini o'zgartirish) datchigi ko'pchilik tizimlarda induksion hisoblanadi. Qo'zg'almas U-simon yumshoq temirdan tayyorlangan plastinalar 1 paketida (2.66-rasm, b) ikkita 2 va 5 g'altaklar o'rnatilgan. Paketning bitta uchiga qo'zg'almas 3 romcha,

ikkinchı uchiga esa qo'zg'aluvchan, 4 reykaga mahkamlangan 6 romcha kiydirilgan. Reyka va 6 romcha surilganda 5 g'altakning induktivligi o'zgaradi. Mos keluvchi o'zgartirishlardan so'ng, reyka koordinatlarining signalidan uning holatini qayd etish konturida foydalilanildi. Datchik  $\pm 0,1$  mm o'lhash aniqligini ta'minlab beradi.

Harorat datchiklarida (2.66-rasm, d) sezgir element sifatida turli xil termorezistorlar va yarim o'tkazgichli termistorlardan foydalilanildi.

Puflash bosimini datchigi (2.66-rasm, e) ko'pincha pezoelektrik ta'sirga asoslangan. Kvars yoki qutblangan keramikadan tayyorlangan silindrsimon plastinka metallangan yassi 1 yuzalarga ega. Ulardan biriga datchik 4 korpusida qilingan membrana orqali o'lchanayotgan p bosim ta'sir ko'rsatadi, ikkinchisi esa korpusdan 3 izolyatsiya bilan ajratilgan. Plastina siqilganda unga ta'sir ko'rsatayotgan p bosimga proporsional U potensial hosil qiladi. Signal 5 sim bilan chiqarib olinadi. Datchikning ishchi haroratlari diapazoni  $-40$  dan  $+110^{\circ}\text{C}$  gacha.

Yonilg'i uzatishni boshqarish pedalining holatini datchigi barcha tizimlarda potensiometrik hisoblanadi. U himoya g'ilofiga ega va traktorchi kabinasi ichida yoki undan tashqarida joylashgan. G'ilofning bitta bo'shilg'ida ikkita takrorlangan qaytaruvchi prujinalar va friksion disk mavjud, u pedalning yurish yo'nalishini ishonchli aniqlash uchun to'g'ri va teskari yurishlar momentlarini kerakli gisterezis bilan me'yorlashni ta'minlab beradi. G'ilofning boshqa bo'shilg'ida potensiometrning o'zi joylashgan, uning tok o'tkazuvchi yo'lagi va qo'zg'aluvchi tutashmasi sifatli materiallardan bajarilgan.

Boshqarish bloki mikroprotsessorli hisoblash qurilmasidan iborat bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan datchiklardan signallarni qabul qiladi. Boshqarish algoritmlarini dasturlash va va unda axborotga ishlov berish uchun mos ravishda 4...8 va 0,12...2,0 kbayt hajmli doimiy va operativ standart xotira qurilmalari qo'llaniladi. Algoritmlar yonilg'i uzatishni boshqarish organlarini, dizelning har bir ishslash tartibi uchun eng foydali holatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib. ular bilan tuzatiladigan hozirgi holatlari taqqoslanadi. Bevosita dizelda, motor bo'linmasida yoki traktorchi kabinasida joylashtiriladigan boshqarish

bloki uni tashqi ta'sirlar va elektr halaqitlaridan himoya qiladigan germetik metall korpusga solinadi.


Datchiklarning signallari boshqarish blokiga, xuddi shunday, blokdan ijo qurilmalariga ekranlangan simlar orqali keladi.

*Ijro qurilmalari.* Dizelning ishlash tartiblariga, uni issiqqliq holatiga, atrof-muhit harorati bosimiga hamda boshqa omillarga bog'liq holda elektronika vositalari yordamida o'zgartiriladigan, yonilg'i uzatish tizimining asosiy ishlash parametrlari bo'lib, YCHN dagi porshen holatiga nisbatan yuqori bosim nasosining seksiyalari yonilg'i uzatish boshlanishini o'zishi va har bir seksiya haydab berayotgan sikldagi yonilg'i miqdori hisoblanadi.

Traktor agregatlarining quvvatli dizellarida yonilg'i uzatish boshlanishi o'zishini o'zgartirish uchun qo'llaniladigan eng istiqbolli sxemalardan biri 2.67-rasm, a da keltirilgan. Yonilg'i haydovchi nasosining ta'siri ostida, yuqori bosimli nasos korpusidagi 1 kiritish kanalidan 2 teshik orqali 3 bo'shliqqa kiradi. 4 plunjerdagi 5 radial va 6 o'q bo'ylab yo'nalgan teshiklar orqali plunjер ustidagi 12 hajmni to'lishi yuz beradi. Plunjер korpusga bosib kiritilgan 11 vtulkada suriladi. Plunjarda 8 uzuvchi o'yiqcha qilingan bo'lib, u 9 radial teshik bilan 12 hajmga doimiy tutashgan.

Plunjerga 10 chiqarish darchasi bo'lган presizion 7 uzuvchi mufta kiydirilgan. Plunjер ko'tarilganda uning 5 teshigi muftaga kiradi, shundan so'ng 12 hajm yopilib qoladi va forsunkaga bosim ostida yonilg'i uzatish boshlanadi. Bu paytni o'zgartirish 7 muftani buriluvchi 13 valchaga bosib kiritilgan 14 barmoq orqali ko'tarish yoki tushurish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Muftaning tushurilishi uning 5 teshigiga ko'tarilayotgan plunjerni yanada ertaroq kirishiga, demak, yanada ertaroq forsunkalarga yonilg'i uzatishni boshlanishiga olib keladi. 13 valchaning burchak holati, 7 muftaning chiziqli holati datchik bilan nazorat qilinadi. Undan chiqqan signal boshqarish blokida uning dasturiga kiritib qo'yilgan, dizelning ushbu ishlash tartibi muftaning oqilona holati bilan taqqoslanadi. Ular mos kelmagan taqdirda blok muftaning holatini o'zgartirishga buyruq signali beradi.



**2.67-rasm. Yonilg'i uzatishni elektron boshqarish tiziminig ijro qurilmasi**

13 valchani aylanishi yoki 15 burovchi yoki 20 chiziqli elektromagnitlar bilan bajariladi. Birinchi holda (2.67-rasm, b) signal elektromagnitning 16 chulg'amiga beriladi va uning 18 yakori hamda 13 valchaga mos keluvchi burchakka burilishini keltirib chiqaradi. Valchani orqaga buralishi 17 prujina bilan amalga oshiriladi.

Ikkinci holda (2.67-rasm, d) signal 26 simlar bilan 21 chiziqli elektromagnitning 22 chulg'amiga beriladi. Uning 19 yakori rostlagichning 25 korpusiga qotirilgan 24 tovontagiga tayanadigan 23 prujinaning kuchi bilan yuklangan. Yakorga 19 shtok bosib kiritilgan. Uning pastki uchiga ikkita 27 tarelka o'rnatilgan, ular orasiga 13 valcha o'qiga eksentrik qilib 29 tizginning 28 sharsimon uchligi qo'yilgan (rasmda u shartli  $90^{\circ}$  tepaga burilgan). Shunday qilib, boshqarish blokidan 22 chulg'amga kelayotgan tok impulsi ta'siri ostida, 20 yakorning 19 shtok bilan birga o'q bo'yicha surilishi, 13 valchaning kerakli burilishini va 7 mustanining surilishini keltirib chiqaradi.

Yuqori bosimli nasos seksiyasi uzatayotgan sikldagi yonilg'i miqdorini kattaligini rostlash (2.67-rasm, a) odatda uzatishni tugatish paytini o'zgartirish yo'li bilan ya'ni, plunjер ko'tarilayotganda yopuvchi 8 o'yiqcha bilan 10 chiqarish darchasini ochish yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning uchun plunjerning kerakli burilishi 32 reyka bilan bajariladi (2.67-rasm, b). Reykaning o'q bo'yicha surilishini 35 elektromagnitning 34 yakori ta'siri ostida 37 shtok (2.67-rasm, e) keltirib chiqaradi. Uning 36 chulg'amiga tok boshqarish blokining signali bo'yicha 38 simlardan keladi. Reykaning orqaga harakati 40

prujinaning 39 tarelkasi orqali ta'siri ostida yuz beradi. Reykaning holati 33 datchik bilan nazorat qilinadi. Prujina va yo'naltiruvchi reykaning tayanchi bo'lib 31 korpusdagi 41 vtulka xizmat qiladi.


Boshqarish bloki uchun dizelning aylanish chastotasi haqida axborot keltirib chiqaruvchi ko'pincha nasosning kulachokli valini konussimon quyrug'iga yoki dizelning tirsakli valiga o'matiladigan 43 disk-shesternya (2.67-rasm, d) hisoblanadi. Signal manbai sifatida odatda 42 induktiv datchikdan foydalaniadi. 90° bukilgan disk-shesternya tishlari datchik o'zagi yonidan o'tayotganda, chulg'amdan oqib o'tayotgan tok o'z xarakterini o'zgartiradi, bu boshqarish blokida qayd etiladi. Blok shesternyada bitta tish yo'q, bu tirsakli val holatini ham qo'shimcha qayd etishga imkon beradi.

Elektromagnit boshqariladigan nasos-forsunka ajratilgan plunjер 11 va igna 6 ga ega (2.68-rasm). Plunjер kallagi turtkich 15 va uning ichki stakani 13 orasiga yig'ilgan. Forsunkaning 10 korpusini yo'naltiruvchi qismida to'xtatkich 12 o'rnatilgan bo'lib, u turtkich o'yiqchasiga chiqib turadi va forsunkani demontaj qilinganda uni tushib ketishini oldini oladi. Turtkich gaz taqsimlash valchasi 16 kulachok ta'sirida tushiriladi, 14 prujina bilan esa ko'tariladi. Ignaning bekituvchi konusi changlagich korpusidagi uyasiga 7 prujina bilan bosiladi, plunjер tushirilayotganda hosil qiladigan va ignanining differensial maydonchasi ta'sir qiladigan yonilg'ining yuqori bosimi ostida ko'tariladi.

Yonilg'i forsunka bo'shlig'iga yonilg'i haydovchi nasos hosil qilayotgan past bosim (0,3 MPa atrofida) bilan 1 korpusga joylashgan elektromagnit ta'siri ostida 2 klapan ko'tarilgan holatida kiradi. Keyin u taglik va changlagich korpusidagi 3 va 4 teshiklardan unisovutib o'tadi, igna tepasidagi bo'shliqqa chiqadi va 8 teshik hamda silindr kallagidagi kanal orqali to'kishga yo'naladi. Changlagich va taglik forsunka korpusiga 9 qoplama gayka bilan tortilgan.

Kulachok chiqig'i turtkichni bosganda plunjер forsunka bo'shlig'i orqali yonilg'i chiqarishni davom ettirib pastga tushadi. Boshqarish bloki buyrug'i bilan elektromagnit klapan bekiladi, natijada forsunka bo'shlig'idagi bosim keskin ortadi va uning soplo teshiklarini ochib va yonilg'ining to'kishga ketish yo'lini bekitib, changlagich ignasi ko'tariladi. Yonish kamerasiga yonilg'i purkash ro'y beradi. Boshqarish blokinining keyingi buyrug'i bilan 2 klapan ochiladi,

forsunka bo'shlig'idagi bosim pasayadi va 7 prujina ignani bekituvchi konusi bilan chanlagichdagi uyasiga tushiradi, yonilg'i purkash to'xtaydi.



**2.68-rasm. Yonilg'i uzatish elektron boshqariladigan tizimning nasos-forsunkasi**

Shunday qilib, klapanning faoliyati boshqarish bloki belgilagan dastur bo'yicha dizelning har bir ishslash tartibi uchun yonilg'i purkashning o'zish burchagi va uning sikldagi miqdorini oqilona kattaligini ta'minlab beradi.

**Ishlagan gazlarni chiqarish tizimi.** Yuqori haroratlari ( $600\ldots900^{\circ}\text{C}$  gacha) gazlar chiqarish tizimi bo'ylab silindrlardan atmosferaga katta tezlikda harakatlanadi va dizel shovqining asosiy manbai hisoblanadi, shuningdek yong'in xavfini, ayniqsa don yig'uvchi agregatlar, yog'och sudrovchi traktorlarda keltirib chiqaradi.


Chiqarish tizimi: chiqarish kollektorini, turbokompressorning gazturbina qismini, chiqarish quvurini, chiqarish tovushini so'ndirgichni va havo tozalagichdan chang so'rib olish ejektorini o'z ichiga oladi.

Chiqarish tizimiga qo'yilgan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

- uning kichik, porshenlar bilan gazlarni silindrlardan chiqarib yuborishga sarflanadigan ishni oshiradigan va bu bilan dizel quvvatini kamaytiradigan gazodinamik qarshilikni kichik bo'lishi;

- chiqarishning shovqin darajasini kamaytirish;
- atmosferaga yonilg'ining to'liq bo'limgan yonish mahsulotlari hisoblangan issiq qattiq zarralarni chiqarib tashlashni yo'qotish;
- dizelning ishlagan gazlarini tutunliligi va zaharliligini kamaytirish. ayniqsa agar u chuqr yerda, yerosti ishlarida ishlaydigan mashinaga o'rnatilgan bo'lsa.

- Chiqarish tiziminining 1 kollektorlari issiqbardosh cho'yandan quyib tayyorlanadi (2.69-rasm). Foydalanishda qizish vasovush oqibatida kollektorlar uzunligining o'zgarishi ularning quvurlarini silindrler kallagi bilan tutashmalarini zichlovchi qistirmalarning surilishini keltirib chiqaradi. Gazlarning oqib chiqishi turbokompressorning me'yorida ishlashini buzadi. Shuning uchun asbestos qistirmalar po'lat gardish bilan ta'minlanadi yoki butunicha kam uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Turbokompressorni kollektor bilan ulash issiqbardosh po'latdan tayyorlangan ingichka devorli burmalangan silfondan iborat bo'lgan 2 kompensator bilan amalga oshiriladi.



2.69-rasm. Ishlagan gazlarni chiqarish tizimi

Klapan qurilmasi 15 va 16 (2.1-rasmiga qarang) gazlarni 4 chig'anojni chetlab o'tkazish uchun (2.69-rasm) va turbinaning 3 ishchi g'ildiragi 5 chiqarish quvuriga puflash bosimi rostlanadigan kompressorlarda alohida agregat ko'rinishida ham, turbina korpusiga joylashtirilgan ko'rinishda ham bajariladi. Klapan pnevmatik yoki mikroprosessor boshqaradigan elektrik yuritmaga ega bo'ladi.

5 chiqarish quvurini cho'yandan quyish yoki issiqbardosh po'lat listdan tayyorlangan yarimta bo'laklardan payvandlab olinadi. Uning vibratsiyasini kamaytirish uchun dizel korpusiga, masalan maxovik karteriga, mahkamlanadigan 6 tayanch (tirgak ustun) qo'llaniladi.

Chiqarish shovqinini 9 so'ndirgichlari har xil ishlash prinsiplari va konstruksiyalariga ega. Tirqishli faol so'ndirish elementi kengaytiruvchi rezonator kamerasi bilan qo'shilgan kombinatsiyalashtirilgan so'ndirgichlar eng ko'p tarqalgan. Ulardan gaz o'tayotganda o'z tezligini va tovush bosimi darajasini pasaytiradi. Bunday xildagi so'ndirgich 8 kengayish kamerasi bilan o'ralgan, teshiklari va to'siqlari bo'lgan 7 quvurdan iborat bo'ladi.

So'ndirgich quvuriga xomut bilan qotirilgan 10 ejektor toraytirilgan bo'g'iz (diffuzor)ga ega, unga gaz oqimi yo'naliishi bo'yicha bukilgan havo tozalagichdan changni so'rib olish quvuri 12 kirib turadi. Quvur havo tozalagich uning bunkeridagi qisqa quvurga kiydirilgan 13 shlang orqali ulangan.

So'rish gazlar tezligi eng katta bo'lgan bo'g'izdagi siyraklanish ta'siri ostida sodir bo'ladi. Ejektorning yuqori uchiga chiqayotgan gazlar bosimi ostida ochiladigan sharnirli 11 qopqoq o'rnatiladi. Dizel ishlamayotganda, atmosfera yog'inlarini chiqarish traktiga tushishini oldini olish uchun qopqoq yopiladi.

Dizelning ishlagan gazlarini tutunliligi va zaharliligi past bo'lishiga oshirilgan talablar qo'yilgan hollarda, uning chiqarish tizimiga qo'shimcha yondiruvchilar, neytralizatorlar, qorakuya tutkichlar va bu talablarni bajarilishini ta'minlovchi boshqa qurilmalar kiritiladi.

## 2.5. Sovitish tizimlari

Sovitish tizimi motorning turli ish tartiblarida uning oqilona issiqlik holatini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Bu tizimga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

- motorning sovitish tizimi, ishechi jismini yoki detallarni ishga tushgandan so'ng berilgan haroratgacha tezda isitish, yilning sovuq vaqtida ishga tushishdan avvalgi davrda ham;

- motor ishlashining barcha tezlik va yuklanish tartiblarida va atrofdagi havoning  $-50$  dan  $+50^{\circ}\text{C}$  gacha harorat diapazonida uning issiqlik tartibini avtomatik tarzda saqlab turish;
- tizim agregatlarining yuritmasiga energiyani minimal sarflash;
- og‘irligi va gabarit o‘lchamlari kichik bo‘lishi;
- agregatlar ishlashining shovqini pastligi;
- qulayligi, oddiyligi, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni mehnat sarfi kamligi.

Yonilg‘i havo aralashmasi yonganda katta miqdordagi issiqlik ajraladi. Agar yonish kamerasi va silindrlar devorlarini majburan sovitilmasa, ularning harorati yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan yuqori qiymatlarga yetib boradi va ularning issiqlikdan buzilishi kelib chiqadi.

Moyning qovushqoqligi pasayishi va qo‘sishchalarini tezda ishlab bo‘lishidan detallarni moylanishi yomonlashadi, uning kuyishi ro‘y beradi, ishqalanuvchi yuzalarda ternalish va qirilish kelib chiqadi, detallarda yuqori haroratda hosil bo‘ladigan cho‘kindi va qurum miqdori ortadi, bu ularning ortiqcha yeyilishiga va porshen halqalarini qurum bosishiga sabab bo‘ladi.


Silindrlerga kirayotgan havoni motorning issiq yuzalaridan jadal isishi, uni massa bo‘yicha to‘lishini yomonlashtiradi, bu quvvatni tushib ketishiga va yonilg‘i tejamkorligini pasayishiga olib keladi. Yangi uzatishga tayyorlangan yonilg‘i haroratini oshishi yonish jarayoni vaqtida ishchi siklning maksimal haroratini oshishi va ishlagan gazlarda azot oksidlari miqdori o‘sishiga sabab bo‘ladi. Silindr devorlaridagi moyning ortiqcha kuyishi dizelning ishlagan gazlarini tutunlilikini ko‘paytiradi.

Detallarning qizish jadalligi motorning ishlash tartibiga bog‘liq. Kichik tezlik va yuklanish tartiblarida detallar va moyning harorati, aksincha, uning me'yorda ishlashi uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Motorni haddan tashqari sovitilishi qizib ketish kabi zararli. Past haroratli tartibda foydalanish moyning qovushqoqligi oshishi sababli motordagi mexanik yo‘qotishlarni o‘sishini keltirib chiqaradi. Purkalayotgan yonilg‘i tomchilarining parlanishi sekinlashadi, buning natijasida dizelning quvvat va iqtisodiy ko‘rsatkichlari yomonlashadi. Ishqalanuvchi yuzalarga oshirilgan qovushqoqlikdagi moyni uzatish yetishmasligi natijasida uning detallarini yeyilishi ko‘payadi.

Yonilg'ining tajovuzkor yonish mahsulotlari silindr devorlarida kondensatsiyalanishidan elektrokimyoiy korroziya jarayonlari jadallashadi. Moyni ortiqcha oksidlanishi va detallarda past haroratlari cho'kindi hosil qilib, ifloslanishi ro'y beradi. Motorning ishlagan gazlarida yonmagan yonilg'i uglevodorodlari (CH) va zaharliligi yuqori bo'lgan aldegid birikmalar miqdori oshadi.

Silindrlar va kallaklardan issiqlikni olib ketishni amalga oshiradigan ishchi jism turiga bog'liq holda traktor motorlarining sovitish tizimlari suyuqlik bilan va havo bilan sovitish tizimlariga bo'linadi.

**Suyuqlik bilan sovitish tizimi.** Bu tizimning qurilmalari sovituvchi suyuqlikning aylanish usuli bilan aniqlanadi. Traktor dizellarida odatda suyuqlik majburiy aylantiriladigan yopiq tizimlar qo'llaniladi. Ularda issiqlik tashqi muhitga almashtirilmaydigan ishchi jism bilan chiqariladi, uning tizimdagi aylanishi esa sovitish ko'ylagi va issiqlik almashuvchi qurilma – radiator orqali nasos bilan amalga oshiriladi.



2.70-rasm. Motorni suyuqlik bilan sovitish tizimi

Qator to'rt silindrli motorni suyuqlik bilan sovitish tizimini namunaviy sxemasi 2.70-rasmida keltirilgan. Radiatorning 4 panjarasida havo oqimi bilan sovitilgan suyuqlik, 12 nasos bilan pastki bakcha orqali silindrlarning 16 sovitish ko'ylagiga, blokka qo'yilgan quvur yoki unda quyilgan kanal ko'rinishida bajarilgan maxsus 17 taqsimlash quvur o'tkazgichi orqali uzatiladi. Quvur o'tkazgichdan suyuqlik silindrlar bo'yicha bir tekis taqsimlanadi, ularni sovitadi va

gaz tutashmasi qistirmasidagi teshik orqali kallakning 15 sovitish ko'ylagiga kiradi. Bunday suyuqlikni ketma-ket parallel tarqatish sxemasi keng qo'llaniladi.

Kallakning eng issiq joylari (yonilg'i forsunkalari uyasi, chiqarish kanali, kallakning tubi)ni sovitishni jadallashtirish uchun, uning sovitish ko'ylagida, maxsus 4 teshiklar (2.70-rasmga qarang), qo'yiladigan quvurchalar (pistoletlar), quyma ayvonchalar yordamida, suyuqliknинг yo'naltirilgan oqimlari hosil qilinadi.

V-simon motorlarda suyuqlik o'ng va chap qator silindrlar sovitish ko'ylagiga bir vaqtda yuboriladi.

Silindrlar kallagidan sovituvchi suyuqlik 14 yig'uvchi kollektorga yo'naltiriladi. Ko'rileyotgan sxemada suyuqlikni har bir kallakdan alohida chiqishi tashkil qilingan. Bu konstruksiyani biroz murakkablashtiradi, lekin kallakdagи eng qattiq qiziydigan joylarni sovitishni yaxshiroq tashkil etish imkoniyatini beradi. Blok kallagida bitta chiqish teshigi bo'lган (2.71-rasm, 4 chiziq) sovitish tizimlari ham qo'llanilmoqda.

Yig'ish kollektorining oxirida (2.70-rasmga qarang) 8 termostat o'rnatiladi, u suyuqlikni radiator orqali aylanib o'tishini (hatto butunlay to'xtatib qo'yguncha) cheklovchi qurilma hisoblanadi. Sovuq motorni ishga tushirganda (yoki motor qizdirilmagan, kallakdan chiqishdagi suyuqlik harorati 75...80°C dan kichik bo'lгanda) 8 termostatning asosiy klapani radiatordaning 6 yuqori bakchasiga suyuqlik keltirish kanalini yopadi, o'tkazib yuboruvchi klapan esa 10 aylanib o'tish kanalini suyuqlikni suv nasosiga keltirish uchun ochadi. Bunda sovituvchi suyuqlik aylanishi 16 silindrlar va 15 kallaklarni sovitish ko'ylagi, 8 termostat va 12 suv nasosi orqali radiatordagi chetlab o'tadigan, kichik doirada hosil bo'ladi. Bu motorni qizdirishni tezlashtirishga va kichik yuklanish tartiblarida silindrlar va kallaklarni haddan tashqari sovishiga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

To'liq qizdirilgan motorda 8 termostatning asosiy klapani suyuqlikni radiatordaning 6 bakchasiga yuborish kanalini ochadi, o'tkazib yuborish klapani esa yopiladi va sovituvchi suyuqliknинг aylanishi endi katta (asosiy) doira bo'yicha, ya'ni radiator orqali ro'y beradi.

Motorning sovitish tizimiga suv-moyli 19 issiqlik almashtirgich, traktor kabinasini isitkich, ishga tushurish oldidan qizitkich va boshqa agregatlar qo'shilishi mumkin.

Motorning issiqlik holatini nazorat qilish traktor kabinasidagi asboblar panelida joylashgan ko'rsatkich yordamida amalga oshiriladi. Ko'rsatkichning 9 datchigi 14 yig'ish kollektoriga o'rnatiladi.

Sovitish tizimi uning eng pastki nuqtalarida joylashgan to'kish jo'mraklari bilan ta'minlangan.

Sovituvchi suyuqliklar sifatida suv yoki past haroratda muzlamaydigan suyuqliklar – antifrizlardan foydalaniлади.

Zamonaviy traktor dizellarida qo'llanilayotgan sovitish tizimlari yopiq hisoblanadi, ya'ni ularni atmosfera bilan ulanishi maxsus saqlagich klapanlari orqali tizimdag'i ma'lum bosim yoki siyraklashishda sodir bo'ladi. Unda bug' klapani yordamida 0,05...0,09 MPa ortiqcha bosim ushlab turiladi, buning natijasida suvning qaynash harorati 110...119°C gacha ko'tariladi, shuning uchun motorning og'ir ish sharoitlarida uni qaynash ehtimoli kamayadi. Havo klapani 0,008 MPa dan ko'p bo'lмаган siyraklashishda ishga tushadi va motor soviyatganda tizimda yuqori siyraklanish hosil bo'lган hollarda tizimga havo o'tkazib yuboradi. Ikkala klapan ham ko'pincha radiatording quyish bo'g'izi tiqiniga o'rnatiladi.

Sovituvchi suyuqlik sifatida ishlatiladigan antifrizlarning hajmiy kengayish koeffisiyentini kattaligi ularning kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun tizim uni suyuqlik bilan muntazam to'ldirib turishni ta'minlaydigan 13 kengayish bakchasi bilan jihozlanadi. Suyuqlikning harorati oshganda u kengayadi va 13 bakchaga oqib o'tadi, pasayganda esa undan tizimga qaytib keladi. Bu havo klapani orqali tizimga, radiatorni korroziyasi va suyuqlikni aeratsiyasini keltirib chiqaradigan davriy yangi havo porsiyasi kirishini yo'qotadi.


Motorning belgilangan issiqlik holatini saqlab turish, radiator orqali sovituvchi suyuqlik aylanishini cheklab turadigan termostatdan tashqari, 3 ventilyator bilan radiator orqali o'tadigan havo miqdorini o'zgartirish yo'li bilan ham ta'minlanadi. Bu radiator panjarasini bekitadigan 5 jalyuzlarni burish yoki ventilyatorning unumdorligini o'zgartirish hisobiga erishiladi. Ventilyator yuritmasini ko'pincha

tirsakli val tumshug'idiagi shkivdan ponasimon tasmali uzatma yordamida bajariladi.

Ventilyatorning ishlash samaradorligini ta'minlash uchun uni po'lat listdan yoki plastmassadan tayyorlangan 2 yo'naltiruvchi g'ilofga joylashtiriladi.

12 nasosning kavitsiyasiz ishlashi sovituvchi suyuqlikning fizik holatini ta'riflaydigan parametrlar: nasosga kirishdagi bosim (siyraklashish), havo yoki havo-bug' birikmalar miqdori uning haroratiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rib o'tilgan tizim nasosning antikavitatsion sifatlarini va suyuqlikning samarali deaeratsiyasini yetarlicha ta'minlab bermaydi. Hozirgi vaqtida drenaj-kompensatsiya konturli suyuqlikni aylanish sxemasi keng tarqalgan (2.71-rasm). 3 kompensatsion qurvur o'tkazgich tufayli 1 nasosga kirishda boshqa sxemalarga qaraganda yuqoriroq ortiqcha bosim ushlab turiladi, u amalda 7 kengayish bakchasini 6 tiqnidagi havo klapanining ochilish bosimiga teng bo'ladi. Bu sxemadan foydalanganda nasosning kirish yo'lidagi bosim yo'qotishlarini kompensatsiyalashdan tashqari, suyuqlikdan, uni 5 va 8 drenaj qurvur o'tkazgichlar orqali aylanishi hisobiga, bug'-havo aralashmasini chiqarib yuborish masalasi yechiladi. Bu sxemada kengayish (drenaj-kompensatsion) bakchasi alohida joylashgan yoki 2 radiatorning yuqori bakchasiga kiritilgan.



2.71-rasm. Motorni suyuqlik bilan sovitishni  
drenaj-kompensatsiyali kontur tizimi

Suyuqlik bilan sovitish tizimini havo bilan sovitish tizimi oldida afzalligi quyidagidan iborat:

Sovituvchi suyuqliklar yuqori issiqlik sig'imi, issiqlik o'tkazuvchanlik va kichik qovushqoqlikka ega bo'lib, ya'ni yaxshi issiqlik tashuvchi hisoblanib, yonish kamerasini tashkil etuvchi detallarni jadalroq va bir me'yorda sovitishni amalga oshirishga, ularning issiqlik kuchlanganligini kamaytirishga imkon beradi. Dizelni turbopuflash hisobiga yuqori darajada tezlashtirishni blokkarter sxemasi hisobiga (2.70-rasmga qarang) dizel korpusini yanada yuqoriroq bikirligini ta'minlab beradigan suyuqlik bilan sovitishda amalga oshirish mum'kin.

O'zining konstruktiv xususiyatlari (sovutish ko'ylagining ikki qavat devori va tovush yutuvchi ekran hisoblanuvchi, unda bo'lgan suyuqliklar) tufayli, bu motorlar atrof-muhitga kam shovqin tarqatadi. Shovqin manbalari bo'lib, yonish va chiqarish jarayonlari, porshenlar joyini o'zgartirishidagi zarblardan hosil bo'lgan gilzalar vibratsiyasi va hokazolar hisoblanadi. Ventilyator ishlashining shovqini kamligini, shuningdek, havo oqimini silindrlar va ularning kallaklaridagi qovurg'alarga yo'naltiradigan yupqa devorli g'iloflar (deflektorlar) birikmalarida "dirillash" yo'qligini ta'kidlab o'tish lozim.

Bu tizimning shubhasiz afzalliklariga issiqlikdan foydalanish va utilizatsiya qilishni yanada keng imkoniyatlari:

- dizel silindrlariga yuklanish va tirsakli valning aylanish chastotasi kichik bo'lgan tartiblarda kirayotgan havoni isitish;
- traktor kabinasini isitish;
- sovuq dizelni ishga tushirgandan so'ng, suyuqlik-moy issiqlik amlashtirgichlaridagi moyni tezda isitishini kiritish kerak.

Tizimning suyuqligi shuningdek havo-suyuqlik turidagi issiqlik almashtirgichlarda puflanayotgan havoni ishga tushurish motoridan gidrosekinlatuvchili gidromexanik uzatmalar qutisining radiatoridagi moyni sovitish uchun foydalaniadi.

Suyuqlik bilan sovitish tizimi bo'lgan dizellarning asosiy kamchiliklari qatoriga quyidagilar kiradi:

- silindrlarni sovitish ko'ylagining ikki qavat devorlari va radijator massasi hisobiga oshirilgan massa;
- motor qurilmasi uzunligining kattaligi;
- sovuq ishga tushirilgandan so'ng, motorni uzoq vaqt qizishi va tizim germetikligi yo'qolganda, sovituvchi suyuqlik oqib ketganda yoki karter moyiga tushganda motorni ishdan chiqishi.

Agar sovituvchi suyuqlik sifatida suvdan foydalanilsa, atrof-muhitning past haroratlarida u muzlashi mumkin, qurg' oqchilik hududlarida esa suvning yetishmasligi motor ishlatalishni ancha qiyinlashtiradi. Hamma mavsumga mo'ljallangan muzlamaydigan sovituvchi suyuqliklarni qo'llash ularning narxi hisobiga traktordan foydalanishni qimmatlashtiradi.

Suv va unda erigan tuzlar sovitish tizimining sovitiladigan va issiqlik uzatadigan yuzalarida metallar korroziyasini, uning mahsulotlarini cho'kma va quyqa qatlami hosil bo'l shini keltirib chiqaradi. Bu cho'kmalar sovitiladigan yuzalardan issiqlik uzatishni ko'p marta kamaytiradi, ularni mahalliy qizishini keltirib chiqaradi, tizimning gidravlik qarshiligini ko'paytiradi, suyuqlik aylanishini kamaytiradi. Bu kamchiliklar korroziya ingibitorlaridan foydalanganda – suvga 0,5...1,0% kaliyli, natriyli yoki litiyli xrompik qo'shganda ancha kuchini yo'qotadi.

Hamma mavsumli past muzlaydigan suyuqliklar – etilenglikolning suvdagi eritmalarasi ososidagi antifrizlar va tosollar – suvdan farqli ravishda muzlaganda kengaymaydi va qattiq butun massalar hosil qilmaydi. Etilenglikol muhitida suv kristallarining po'k massasi hosil bo'ladi, u motorni muzlashga olib kelmaydi. 40 va 65 markadagi (sonlar ularning muzlash haroratini ko'rsatadi) antifrizlar antikorrozion xossalari, rezinaga agressivligi va boshqalar bo'yicha zamona viy talablarga to'liq javob bera olmaydi. Yangi antifrizlar – tarkibida 53 va 66 % (hajmi bo'yicha) etilenglikol va korroziyaga qarshi qo'shimchalari bo'lgan A40 (A40-M) va A65 tosollarda bu kamchiliklar ancha yo'qotilgan.

Antifrizlarning issiqlik sig'imi suvga nisbatan kam, bu sovitish tizimi samaradorligini bir oz pasaytiradi va detallar haroratini oshishiga olib keladi. Shuning uchun, antifrizlarni hamma mavsumda ishlatalishga mo'ljallangan tizimlarda suv nasosining unum dorligi va radiatorlarning issiqlik berish yuzalari kattaroq bo'lishi kerak.

Antifrizlar va tosollar nihoyatda zaharli. Ular bilan muomala qilish ehtiyojkorlikni talab qiladi.

Ko'rsatib o'tilganidek, antifrizlar katta hajmiy kengayish koefitsiyentiga ega, bu sovitish tizimiga kengayish bakchasi kiritishni talab qiladi.

Quyida suyuqlik bilan sovitish tizimining asosiy elementlari va qismilari ko'rib o'tilgan.

**Suyuqlik bilan sovitish tizimining nasoslari.** Traktor dizellarining sovitish tizimlarida sovituvchi suyuqliknini aylanishi ko'pchilik hollarda markazdan qochirma turdag'i nasoslar bilan amalg'a oshiriladi. Bu nasoslar konstruksiyasining soddaligi, kichik gabarit o'lchamlari bilan farqlanadi va korpus hamda parrak orasidagi nisbatan katta tirqishda yetarli unumidorlikni ta'minlaydi. Bu parrak qo'zg'almas turganida suyuqliknini tizimda tabiiy konveksiya hisobiga aylanishiga halaqt bermaydi, natijada motor to'xtagandan keyin uning issiqlik holatini tekislanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatiladi. Markazdan qochma nasoslar 0,04...0,10 MPa suyuqlik bosimini ta'minlaydi.


Suyuqlik bilan sovitish tizimining markazdan qochma nasosini namunaviy konstruksiyasi 2.72-*a* rasmida keltirilgan. Nasosning 8 korpusida ikkita zoldirli podshipniklarda *6* va *18* val *7* aylanadi. Valning o'yiqcha bilan bajarilgan uchiga parrak *9* bosib kiritilgan va bolt bilan qotirilgan. Nasos korpusi boltlar bilan silindrlar blokining oldingi devoriga mahkamlanadi. Sovituvchi suyuqlik parrakga *9* nasos korpusidagi *a* bo'shliq orqali keltiriladi va spiral *b* olib ketuvchi kanal orqali blokning sovitish ko'ylagiga jo'natiladi.

Nasoslarning korpusi *8* va parragi *9* cho'yandan yoki alyuminiy qotishmasidan quyiladi. Parrakni ko'pincha plastmassadan po'lat yoki cho'yan gupchakdan tayyorlaydilar. Motorlarning suyuqlik bilan sovitish tizimlarini nasoslarida odatda yarim yopiq (bitta diskli) parraklar qo'llaniladi.

Podshipniklar *6* va *18* plastik moylovchi material bilan moydan *5* orqali moylanadi. Uning oqib chiqishini oldini olish uchun podshipniklarning tashqi tomonidan salniklar *17* va *19* o'rnatilgan. Zamonaviy nasoslarda podshipniklarning ichki bo'shlig'iiga ularning butunlay xizmat muddatiga yetadigan moylovchi material solingan, u podshipnik halqasiga joylashtirilgan po'lat shaybalar bilan tutib turiladi. Ba'zan nasoslarga ichki halqasi bo'limgan podshipniklar o'rnatiladi. Bu holda halqa vazifasini zoldirlar dumalashi uchun halqasimon o'yiqchasi bo'lgan nasos valchasi bajaradi.

Nasos tirsaklı valdan shkiv *4* orqali tasmalı uzatma bilan aylanma harakatga keltiriladi. Ko'pincha ventilyator *3* nasos bilan bitta valda joylashadi. Bunda nasosning oldingi podshipnigi katta yuklanish

ta'siriga uchraydi va shuning uchun oshirilgan o'lchamga ega bo'ladi. 4 shkiv va 3 ventilyator, shponka yordamida 7 valga o'rnatilgan 1 stupitsaga mahkamlanadi. Nasosdan suyuqlik oqishini oldini olish uchun val 12 rezina manjeta bilan zichlangan, unga val zich o'tirishi uchun kichik 10 latun halqa kiydirilgan. Nasos korpusining yonboshini zichlash parrak 9 bilan birga aylanadigan grafitlangan tekstolit shayba 13 bilan ta'minlanadi. Aylanish parrakning kesigiga kiradigan shaybadagi chiqiq hisobiga amalga oshiriladi. Nasos korpusiga bosib kiritilgan 14 vtulkaning sinchiklab ishlov berilgan yonboshiga shaybani va rezina manjetani shaybaga bosib turish prujina bilan latun halqa 11 orqali ta'minlanadi. Zichlovetchi qism parrak bilan birga yig'iladi va prujinali halqa 15 bilan korpusga o'rnatishga qadar yopib qo'yiladi, bu nasosni yig'ishni engillashtiradi.



**2.72-rasm. Motorning suyuqlik bilan sovitish tizimini markazdan qochma nasosi va universal o'zi siqiluvchi salnik**

Val podshipniklarini zichlagichlar orqali tasodifan silqib o'tgan sovituvchi suyuqlikdan saqlash uchun nasos korpusida maxsus to'kish teshigi 16 ko'zda tutilgan.

Ko'rib o'tilgan o'zi siqiladigan salnik konstruksiyasining kamchiligi bo'lib, tekstolit shaybaning yeyilishi va chetlarining shishishi natijasida uning deformatsiyalari sababli puxtaligining

pastligi hisoblanadi. Tekstolitdan 2-3 marta yeyilish bardoshligi katta bo'lgan va uzoq ishlash davri mobaynida o'z xossalariini o'zgartirmaydigan grafit qo'rg'oshinli kompozitsiyadan tayyorlangan zichlagich shaybalar qo'llash orqali salnik puxtaligini ancha oshirishga erishiladi.

Universal o'zi siqiluvchi salnikning yanada zamona viyroq konstruksiyasi 2.72-rasm b da keltirilgan. Nasosning korpusiga 1 salnik korpusi 2 o'rnatilgan. uning ichidagi halqa 6 da zichlagich shayba 4, rezina manjeta 3 va prujina 8 o'rnatilgan. Prujinaning bir uchi zichlagich rezina manjetni salnik korpusiga, boshqasi esa manjetani va zichlagich shaybani 5 parrakning shlikovkalangan yonboshiga bosib turadi. Rezina manjeta va prujina orasiga latun oboymalar 7 joylashadi.


**Ventilyatorlar** havoni radiator panjarasi orqali haydash hisobiga ishchi suyuqlikni sovishini ta'minlaydigan sovitish tizimining majburiy agregati hisoblanadi. Traktor dizellarida bir bosqichli o'qli turdag'i parraklar soni to'rttadan sakkiztagacha bo'lgan ventilyatorlar ko'proq tarqalgan. Parraklar sonini bundan ortiq qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ventilyatorning unumдорлиги juda kam oshadi. Suyuqlik bilan sovitiladigan motorlarning ventilyatorlari past bosimli hisoblanadi, ular hosil qiladigan bosim 0,5...0,6 kPa dan oshmaydi.

Ventilyatorlar 2 krestovinaga o'rnatilgan 3 parraklarni (2.72-rasm a va 2.73-rasm a larga qarang) po'lat varaqdan shtamplab yoki alyuminiy qotishmalaridan butunicha quyib tayyorlanadi. Ventilyatorlar quyilgan profilli parraklari bilan shtamplangandan samaraliroq, lekin keyingilari ulardan texnologiyaboproq, arzon, shu sababli keng tarqalgan. Shtamplangan parraklarga qavariq shakl beriladi. Hozirgi vaqtida plastmassa, xususan, to'rt parrakli, parraklar o'qlari 70 va 110° burchak hosil qilib X-simon joylashgan ventilyatorlardan keng foydalilaniladi. Bu parraklar titrashini kamaytiradi va umumi shovqin darajasini pasaytiradi. Parraklarning qiyalik burchagi mavjud konstruksiyalarda taxminan 35...40° tashkil etadi.

*Ventilyatorlar yuritmasi* odatda motorning tirsakli validan amalga oshiriladi.

Ko'pchilik hollarda ventilyator parragini suv nasosi vali shkivining gupchagiga o'rnatiladi, uni aniq ishlov berilgan belbog'cha

bo'yicha markazlanadi va nasos shkivi bilan birga boltlar yordamida mahkamlanadi (2.72-rasmga qarang). Bunday joylashishda ventilyator va nasos ponasimon tasmali, detallarni dinamik yuklanishlardan yengillatadigan qurilma vazifasini bajaradigan umumiy yuritmaga ega bo'ladi.



**2.73-rasm. Suyuqlik bilan sovitish tizimining ventilyatorlari:**  
a – shtamplangan po'lat; b – quyma alyuminiy; d – plastmassa elektromotor yuritmali; 1 – radiotor; 2 – g'ilof; 3 – yo'naltiruvchi apparat; 4 – ventilyator

Tasmaning tarangligini muntazam nazorat qilish zarurligi va uning deformatsiyasi uchun quvvatni yo'qotilishi ponasimon tasmali yuritmaning kamchiligi hisoblanadi.

Ventilyatorning shesternyali yuritmasi nisbatan kam ishlatiladi, chunki dizelning aylanish chastotasi keskin o'zgarganda, uning katta inersiya momenti natijasida parraklar va yuritma detallarini sinish xavfi kelib chiqadi. Sinishlarni oldini olish uchun yuritma konstruksiyasida friksion yoki elastik saqlagich elementlar ko'zda tutiladi.

Ventilyatorning unumidorligi va u sarflayotgan quvvat uning aylanish chastotasi va parraklarining qiyalik burchagiga bog'liq bo'ladi. Bu ventilyator yuritmasida parametrlarni o'zgartirish hisobiga, motorning issiqlik holatini avtomatik rostlash va ventilyator yuritmasi quvvat sarfini pasaytirishni ta'minlaydigan qurilmalarni ko'zda tutish imkoniyatini beradi.

Ventilyator yuritmasining konstruksiyalarida elektromagnit, friksion va gidravlik muftalardan, uzib qo'yish avtomatlari bilan foydalaniladi. Biroq, traktor dizellaridan foydalanish tajribasining ko'rsatishicha, ventilyatorni uzib qo'yish hisobiga taxminan 2...3% foydalanishdagi yonilg'i sarfini pasaytirish mumkin. Yonilg'ini katta tejamkorligiga ventilyatorning aylanish chastotasini bosqichsiz rostlashda erishiladi. Bunda motorning yanada doimiy oqilona issiqlik tartibi ham ta'minlanadi.


Aylanish chastotasi rostlanadigan ventilyatorning yuritmasi sifatida, quyuq suyuqliklarni yetakchi va yetaklanuvchi diskarning ishchi yuzalariga ishqalanishi hisobiga burovchi momentni uzatadigan, qovushqoqlik muftalari yanada ko'proq qo'llanilmoqda. Bu muftalarda ishchi suyuqlik sifatida, qovushqoqligi katta va haroratlar keng diapazonida kam o'zgaradigan silikon moyi ishlatiladi.

Qovushqoqlik muftasining konstruksiyasi 2.74-rasmda keltirilgan. Korpus 2 ning ichida val 4 bilan bikir bog'langan, disk 7 qopqoq 1 bilan aylanadi, u flanets bilan tugaydi va boltlar bilan, motor tirsaklı validan ponasimon tasmali uzatma bilan aylantiriladigan shkiv gupchagiga qotiriladi. Korpus 2 unga qotirilgan 6 ventilyator bilan 3 podshipnikka o'rnatilgan va mustaning yetaklanuvchi zvenosi vazifasini bajaradi. Ventilyator ishlashining boshlanishi va aylanish chastotasi *B* ishchi bo'shlinqni silikon moyi bilan to'lish darajasidan aniqlanadi. Moyning 1 qopqoqda bo'lgan *A* rezerv bo'shliqdan ajratuvchi diskdagi 13 teshik orqali unga kirishi plastinkali 9 klapan bilan rostlanadi. Klapan 13 teshikni yopib yoki ohib, ajratuvchi diskka nisbatan qandaydir burchakka burilishi mumkin. Klapanni burilishi 12 valcha orqali radiatordan chiqayotgan havo oqimiga joylantirilgan bimetallik spiraldan iborat 11 termosozlagich bilan amalga oshiriladi.

Qovushqoqlik ishqalanish kuchini oshirish uchun mustaning ishchi bo'shlig'i yetakchi diskning ikkala tomoniga joylashgan silindrik labirintlar bilan bajarilgan. Mufta yoqilganda hamma labirintlarga suyuqlik tezda kirishi uchun yetakchi diskning silindrik labirintlarida ikki tomonдан radial ariqcha kesilgan.

Suyuqliknii *B* ishchi bo'shliqdan zaxira *A* bo'shliqqa chiqarib yuborish markazdan qochirma kuchlarning ta'siri hisobiga *D* o'q teshikli uchi berk halqasimon o'yiq orqali amalga oshiriladi.

Qizdirilmagan motorda plastinkasimon klapan ajratuvchi diskdagisi 13 teshikni yopadi va ishchi suyuqlik D teshik orqali B ishchi bo'shliqdan A rezerv bo'shliqqa oqib o'tadi. Motor isigan sari bimetallik spiral 9 klapanni buradi, 13 teshik bir oz ochiladi va moy qovushqoq suyuqlikning ishqalanishi hisobiga yetakchi diskdan musta korpusiga burovchi momentni uzatilishini ta'minlab, ko'p yoki kam darajada B bo'shliqni to'ldiradi. Bunda suyuqlikni ishchi bo'shliqdan rezerv kameraga to'xtovsiz aylanib o'tishi ro'y beradi, kamerada qovurg'alangan 1 qopqoq bilan issiqlikni berish natijasida suyuqlikni sovitilishi amalga oshiriladi. Mustadan moy oqishini oldini olish uchun 2 korpus va 1 qopqoq orasiga 8 qistirma o'rnatiladi.




2.74-rasm. Ventilyator aylanish chastotasini bosqichsiz o'zgartirish qovushqoqlik muftasi

Musta buzilgan holda ventilyatorni 4 yetakchi val bilan 5 plastina yordamida to'xtatib qo'yish mumkin.

Zamonaviy motorlarda burovchi momentni ularda aylanayotgan suyuqlik hisobiga uzatuvchi, to'lishi o'zgaruvchan bo'lgan gidromuftalar (gidrodinamik mustalar) keng qo'llaniladi.

Gidromuftaning konstruksiyasi 2.75-rasm, *a* da keltirilgan. Ventilyatorning 1 gupchagi 22 yetaklanuvchi valning shlitsalariga o'rnatilgan, uning aylanish chastotasi gidromuftaga, qattiq to'ldiruvchili termoatchik bilan boshqariladigan zolotnikli klapan orqali kirgan moyning miqdoriga bog'liq. Yetaklanuvchi val 22 turbina g'ildiragi 14 bilan bikir bog'langan, u 9 va 20 podshipniklarda

aylanadi. Nasos g'ildiragi 18 g'ilof 7 bilan motorning tirsakli validan ponasimon tasmali uzatma yordamida ichi bo'sh 2 valda joylashgan 4 shkiv bilan harakatga keltiriladi.



**2.75-rasm. Ventilyator aylanish chastotasini bosqichsiz o'zgartiradigan gidromufta va klapan**

Moy motorning moylash tizimidan gidromuftaga korpusning 11 qopqog'ida joylashgan kanallar orqali kiradi. Keyin gidromustaning ishchi bo'shlig'iga inoy, mos ravishda 10 zichlagichda, 7 g'ilofda va 14 turbina g'ildiragida joylashgan 12, 13 va 15 teshiklar orqali keltiriladi. 18 nasos g'ildiragining parragiga kirayotgan moy kinetik energiya olib, 14 turbina g'ildiragining kuragiga tushadi va uni aylantiradi, u bilan birga ventilyator ham aylanadi. Keyin moy suyuqlik aylanishining berk doirasini hosil qilib 18 nasos g'ildiragining kuragiga qaytadi. Gidromustaning ishchi hajmi to'lishiga bog'liq holda ventilyatorning aylanish chastotasi yuritma shkvining aylanish chastotasining 0 dan 95...97 % gacha o'zgaradi.

Gidromufta ishchi bo'shlig'idan moyni to'kish nasos va turbina g'ildiraklari orasidagi tirqish orqali, keyin esa musta g'ilofidagi 16 teshik va ichi bo'sh 2 valdag'i teshik orqali motor karteriga 17 to'kish quvuri orqali bo'ladi. 3 va 21 manjetalar bilan moyning gidromuftadan oqishini oldi olinadi.

Gidromuftaga moy uzatishni boshqaradigan zolotnikli klapan konstruksiyasi 2.75-rasm, b da keltirilgan. Klapan 1 korpusga yig'ilgan va sovituvchi suyuqlikni sovitish ko'ylagiga keltiruvchi patrubkaga joylashtirilgan. Suyuqlik harorati 85...90°C gacha oshganda termodatchikning 12 shtogi 11 klapanning 10 zoldirini

suradi va moylash tizimi yo'lidan moy keltirish va gidromuftaga moy keltirish kanallarini birlashtiradi. Ventilyator ishga tushadi. Sovituvchi suyuqlikning harorati pasayganda 10 zoldir 3 prujina ta'siri ostida klapandagi teshikni yopadi va ventilyator ishdan to'xtaydi.

Klapan konstruksiyasi ventilyatorning ishlashini avtomatik va qo'lda boshqarishni ko'zda tutadi. 5 tortqi bilan 4 ayri (vilka) yordamida 9 tiqning 6 dastagi korpusda belgilar bilan ko'rsatilgan uchta holatga qo'yilishi mumkin. A holat ventilyatorning avtomatik ishlash tartibiga mos keladi, bunda klapan yuqorida yozilgandek ishlaydi. O holatda klapanga moy berish kanali yopib qo'yiladi va ventilyator sovituvchi suyuqlikning haroratidan qat'iy nazar ishlamaydi. P holat ventilyatorning doimiy ishlashiga mos keladi. Dastakni tanlangan holatlarda tutib turish 7 qopqoqning chuqurchasiga kiradigan 8 zoldir bilan amalga oshiriladi. Zichlagich halqa 2 moyning klapandan oqib ketishini oldini oladi.

Shovqinsiz ishlash, ventilyatorning ravon qo'zg'alishi va tezlik olishi qovushqoqli va gidrodinamik muftalarning afzalligi hisoblanadi. Bular tasmali uzatmani xizmat muddatini taxminan 20 % ga oshiradi, bir oz ishlash tartiblarida aylanish chastotasini kamaytirganda uning shovqin darajasini pasaytiradi.


Ishchi hajmi kichik bo'lган motorlarda ko'proq ventilyatorning avtonom elektromotor yuritmasidan foydalilanadi (2.73-rasm, d). Bunday yuritma ventilyatorning aylanish chastotasi va unumdorligini ham ravon, ham diskret rostlashni ta'minlashga imkon beradi. Elektr yuritmaning qo'llanishi motorning motor bo'lmasida joylashishini soddallashtirishga yo'l qo'yadi.

**Radiator** o'zining devorlari orqali sovituvchi suyuqlikdan issiqlikni ventilyator so'rib olayotgan havo oqimiga uzatuvchi, issiqlik almashtirish qurilmasi hisoblanadi.

Radiator (2.70-rasm) uning sovituvchi panjarasini tashkil etuvchi 4 naychalar bilan o'zaro birlashtirilgan yuqorigi 6 va pastki 1 bakchalardan iborat. Yuqorigi 6 bakcha 7 quyish bo'g'iziga ega bo'lib, u 2 tiqin (2.76-rasm) bilan yopilgan. Tiqinda ikkita 5 bug' va 10 havo klapanlari joylashgan.

4 prujina bilan yuklangan va 6 rezina qistirma bilan zichlangan bug' klapani, agar uning bosimi berilgan chegaradan oshib ketsa, tizimdan bug'larni siqarib yuborish uchun ochiladi (2.76-rasm, a).


Kuchsiz 9 prujina bilan yuklangan va 8 qistirma bilan zichlangan havo klapani motor soviyotganda tizimda ortiqcha siyraklashish kelib chiqsa radiatorga atmosfera havosini o'tkazadi (2.76-rasm, b).



**2.76-rasm. Radiatorning quyish bo'g'izi tiqini:**

a – bug' klapani ochiq bo'lganda; b – havo klapani ochiq bo'lganda

Tiqin 1 ustunchaga yig'ilgan va uni bo'g'izga 3 plastinkasimon prujina bosib turadi. Quyish bo'g'iziga 11 bug' chiqarish naychasi payvandlangan bo'lib, u sovituvchi suyuqlik sifatida suvdan foydalanilgan atmosfera yoki antifrizdan foydalanilganda kengayish bakchasi bilan ulangan bo'ladi.



**2.77-rasm. Sovitish tizimining radiatorlari:**

a – naychali-plastinkali; b – naychali-tasmal

Sovituvchi panjaraning konstruksiyasiga ko'ra, radiatorlar naychali-plastinkali, naychali-tasmal, plastinkali va uyali bo'ladi. Traktor dizellarida tirqish bilan terilgan, issiqlik olib ketishni oshiradigan ko'ndalang 2 plastinkalar paketidan o'tuvchi, bir necha qator 1 naychalardan iborat bo'lgan naychali plastinkali radiatorlar eng ko'p tarqalgan (2.77-rasm, a). Radiator panjarasini gidravlik

qarshiligidagi kamaytirish va issiqlik uzatishni oshirish uchun naychani yassi-ovalsimon qilinadi.

Ko'pincha ishlataladigan naychali-tasmalari radiatorlarda yassi-ovalsimon naychalar qator o'rnatiladi, ularning orasiga esa burmalangan tasma qistiriladi (2.77-rasm, b). Radiatorning konstruksiyasi bikirroq va texnologiyaboproq bo'ladi, bu qovurg'alash uchun yupqaroq tasmadan foydalanishga yo'l qo'yadi.

Radiator panjaralaridan havo oqimini turbulizatsiyalash hisobiga issiqlik uzatishni oshirish uchun plastinalar va tasmalar qayiltirilgan o'yinlar va chiqiqlarga ega bo'lishi mumkin.


Radiatorlarning asosiy detallarini ilgari latundan tayyorlab, kavsharlash yo'li bilan biriktirilar edi. Hozirgi vaqtida radiatorlar panjarasi uchun arzonroq alyuminiy qo'llana boshladи. Bakchalar bu holda plastmassadan tayyorlanadi. Yig'ish mexanik tarzda amalga oshiriladi: naychalar plastinkalar paketi va bakchalar tubining rezina qistirmasiga jo'valanadi.

*Termostat* 8 (2.70-rasmiga qarang) motorni kichik tezlik va yuklanish tartiblarida haddan tashqari sovib ketishini oldini olish va sovuq holda ishga tushirgandan keyin uni qizdirishni tezlashtirish uchun, sovituvchi suyuqlikni sovitish tizimining radiatori orqali aylanishini rostlashga xizmat qiladi. Sovituvchi suyuqlikni harorati o'zgarganda termostat klapanlari avtomatik surilishini amalga oshiradigan ishchi jismni turiga bog'liq holda termostatlar suyuqlikli (silfonlar) va qattiq to'ldiruvchi turlarga bo'linadi.

Qattiq to'ldiruvchili termostat (2.78-rasm) qizdirilganda katta hajmiy kengayishga ega bo'lgan faol massa – kristallik mum va mis qirindisi – serezin bilan to'ldirilgan 9 kapsuladan iborat. Kapsula rezina qalqon (bufer) – 4 shtokka ulangan 5 membrana bilan bekitilgan. Shtok 4 ning uchi termostatning 2 yuqori romchasida joylashgan 3 sozlash vintiga tiralib turadi, uning 7 halqasi asosiy klapa uchun 6 uyani hosil qiladi.

7 klapanni 9 kapsula bilan birga 8 prujina bilan siqilgan prujinaning ikkinchi uchi 1 pastki romchaga tiralib turadi. Kapsulaning chekkasi pastki romchadagi yo'naltiruvchi 10 teshik orqali o'tadi. U 13 prujina bilan siqiladigan, 12 elastik halqa bilan siljimaydigan qilingan va 11 o'tkazib yuborish klapani

mahkamlangan. O'tkazib yuborish klapanining uyasi esa motor korpusida tashkil etilgan.



2.78-rasm. Qattiq to'ldiruvchili termostat

Serezin kengayganda rostlovchi 3 vintga tiraladigan 4 shtok, kapsulaning hammasini 7 asosiy klapan bilan birga itaradi va suyuqlikni radiatorga o'tish yo'li ochiladi. Bir vaqtning o'zida kapsulaning pastki chekkasi suyuqlikni kichik doira bo'yicha aylanishida o'tkazib yuborish 11 klapanini yopadi.

Qattiq to'ldiruvchili termostatlarning afzalliklari bo'lib, ularning ishchi organlarni surish uchun katta kuchlar hosil qilish qobiliyati va yuqori puxtaligi hisoblanadi. Shuning uchun ular zamonaviy motorlarda keng tarqalgan, suyuq to'ldiruvchisi bo'lgan termostatlarni amalda to'liq siqib chiqardi.

Jalyuzalar vertikal yoki gorizontal ruxlangan temir plastinalar (tabaqalar) yig'indisidan iborat bo'lib, ular umumiy rom bilan birlashtirilgan. Sharnir qurilma ularning o'z o'qi atrofida bir vaqtda burilishini ta'minlaydi. Jalyuza tabaqalarini boshqarish qo'lda traktor kabinasidan yoki termostat bilan amalga oshiriladi.

**Havo bilan sovitish tizimi.** Bu tizimda motor silindrлari va ularning kallaklaridan issiqlik havo bilan olib ketiladi. Havo ishchi jism sifatida suyuqlikka nisbatan issiqlik o'tkazuvchanlik xossalari ancha yomon.

Devorlardan atrof-muhitga issiqlik olib ketish samaradorligi qovushqoqlik kamaygan sari zichlik va issiqlik o'tkazuvchanlik bu muhitning issiqlik sig'imi oshgan sari ko'payib boradi. Havoning zichligi suvgaga qaraganda 800 marta, issiqlik o'tkazuvchanlik 24 marta,


issiqlik sig'imi esa 4 marta kichik. Sovitish tizimlarida qabul qilingan suyuqlikning (2...3 m/s) va havoning (50 m/s) harakat tezliklari ulardagi issiqlik uzatish koefitsiyenti 13...15 marta farq qiladi. Shu sababli havo bilan sovitiladigan motorlarning silindrlari va kallaklarini ruxsat etilgan harorat darajasini ta'minlash uchun taxminan shuncha marta ularning issiqlik uzatadigan qovurg'ali yuzalari maydoni oshirilgan bo'lishi kerak.

Issiqlik uzatish koefitsiyentini havoning qovurg'alar orasida kanallardagi harakat tezligiga kuchli bog'lanishi detallarni havo bilan sovitish xususiyati hisoblanadi. Havo tezligini kamaytirganda issiqlik uzatish koefitsiyenti 10...15 marta kamayishi mumkin. Bu havo oqimlarini sinchiklab tashkil etishni, ularni yo'naltiruvchi va taqsimlovchi deflektorlar yordamida silindrlar bo'yicha bir tekis taqsimlanish zaruriyatini shart qilib qo'yadi.

Bundan tashqari katta gidravlik qarshilikka ega bo'lgan qovurg'alar orasidagi kanallarda, havoning kerakli tezligini ta'minlash uchun kirish va chiqishdagi bosimlar farqi yetarlicha bo'lishi talab etiladi. Bu bosimlar farqi tizimning ventilator bilan yaratiladi. Qoida tarzida ponasimon tasmali yuritma bilan o'qli ventilatorlar qo'llaniladi, ular qatorli motorlarda oldinda yoki yonboshda (2.79-rasm, a), V-simon motorlarda esa silindrlar o'rtasiga (2.79-rasm, b) o'rnatiladi.

Sovituvchi havoni uzatishni ikkita sxemasi qo'llaniladi: bosim orttiruvchi va so'ruvchi ventilator bilan. Bosim orttiruvchi ventilator sovuq oqimda, demak, zichroq havoda ishlaydi, katta uzatishga ega va o'zining yuritmasiga kam energiya sarf qiladi. So'ruvchi ventilatorning tejamkorligi kamroq, lekin murakkab yo'naltiruvchi va taqsimlovchi reflektorlarsiz ham, silindrlarni yanada bir tekis sovitishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ba'zan ventilator ichiga joylashtirish sharoitlari bo'yicha, traktor elektr tarmog'ining generatorini joylashtiriladi. So'ruvchi ventilator qo'llanilganda generator uncha qulay bo'lмаган harorat sharoitlarida ishlaydi.


Motorning turli ishslash tartiblarida yoki atrof-muhitning haroratida issiqlik holatini saqlab turish uchun silindrlar va ularning kallaklarini sovitish jadalligini tizim orqali havo sarsfini, ya'ni ventilator unumdorligini o'zgartirish yo'li bilan rostlanadi.



**2.79-rasm. Havo traktlari va ventilyatorni havo bilan sovitiladigan motorlarda joylashtirish sxemasi:**  
**a – qatorli; b – V-simon**

Ventilyator yuritmasiga, dizel nominal quvvatining 4,5...8,0% tashkil etadigan, quvvat sarfini kamaytirish maqsadida, havo sarfini rostlash ko'pincha ventilyatorning aylanish chastotasini gidromuftalar yordamida o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Avtomatik rostlanadigan zamonaviy havo bilan sovitish tizimining sxemasi 2.80-rasm, a da keltirilgan.



**2.80- rasm. Motoring avtomatik rostlanadigan havo bilan sovitish tizimi sxemasi:**

**a – sxema; b – termodatchikli ventilyator yuritmasini gidromufsta bilan boshqarish klapani**

Havo so'rib olish to'ri 1 va yo'naltiruvchi apparat 3 orqali o'tib, ventilyator 6 bilan 11 yo'naltiruvchi g'ilofga yuboriladi, u yerda 12 moy radiatori sovitiladi. Keyin turli ko'rinishdagi g'iloflar, ajratkich

va qaytargichlardan iborat bo'lgan 10 deflektorlar tizimi bilan havo silindrлar va kallaklar qovurg'алири орасидаги каналларга ўборилади ва уларни бир текисsovishini amalgalashadi.

Ventilyator yuritmasi tirsakli valning 4 shkividan ponasimon-tasmali uzatma bilan to'lishi o'zgaradigan 2 mufta orqali bajariлади. Gidromuftaning motor moylash tizimidan 9 va 5 quvur o'tkazgichlar orqali kelayotgan moy bilan to'lishi, silindr kallagiga o'rnatilgan 7 termodatchik va 8 zolotnikli klapan bilan rostlanadi.

Klapan va termodatchikning konstruksiyasi 2.80-rasm, b da keltirilgan.

Termodatchik – silfon zichlagichli ballon 1, hajmiy kengayish koefitsiyenti katta bo'lgan suyuqlik (ksilol) bilan to'ldirilgan, silindr kallagiga burab kiritiladi va 2 kontrgayka bilan joyidan jilmaydigan qilinadi. Silindr kallagi qiziganda 1 termoballondagi suyuqlik kengayadi va 3 vtulka zolotnikka burab kiritilgan shtokni suradi. Zolotnik harakatlanganda moy oqimini gidromuftaga o'tkazish uchun darcha ochiladi.

Traktor dizelining o'rtacha yuklanishida gidromufta uning oqilona issiqlik holatini (karter moyining harorati 85 dan 120°C gacha) ushlab turishga va solishtirma yonilg'i sarfini 5...12% kamaytirishga imkon beradi.

Ventilyatorning aylanish chastotasini rostlash nafaqat detallarning (silindrлar kallagining) issiqlik holatiga, balki motorning ishlash tartibi bilan aniqlanadigan gazlarning haroratiga ham bog'liq holda amalgalashirishi mumkin.


*Havo bilan sovitiladigan motorlarning ventilyatorlari* konstruksiyasi bo'yicha suyuqlik bilan sovitiladigan motorlarning ventilyatorlaridan farq qiladi. Bu farq ularning aerodinamik tafsiflarining har xilligidan kelib chiqadi. Yuqori bosim olish zaruriyat ko'п sonli parraklar va ishchi g'ildirakning yuqori aylanish tezligini qo'llashga sabab bo'ladi. Bu uning aylanish chastotasini oshirish zaruriyatiga olib keladi.

Ko'pchilik hollarda ventilyatorlar yo'naltiruvchi apparat bilan ta'minlanadi. Ularning parraklari ishchi g'ildirak parraklari singari profillangan bo'lib yengil metalldan kokilga quyiladi.

2.81-rasmda o'qli ventilyator keltirilgan. 1 ventilyatorning 7 parragi 6 yo'naltiruvchi apparat orqali havoni o'ziga tortadi va uni 11 yo'naltiruvchi g'ilofga uzatadi (2.80-rasmga qarang).

Rotor 4 o'qda (2.81-rasmga qarang) yo'naltiruvchi apparatning o'yiqchasiga rotor va yuritma shkivi 5 birgalikda 3 tortuvchi bolt bilan qotirilgan, ikkita sharikopodshipnikda o'rnatilgan. Rotor gupchagi 2 tayanch shaybalar bo'rtmalari orasida siqilgan. Bolt bilan tortishdan kelib chiqqan ishqlanish hisobiga aylanish shkivdan ventilyator rotoriga uzatiladi. Yuritmaning bunday konstruksiyasi uni aylanish chastotasi keskin o'zgarganda ortiqcha yuklanishini yo'qotadi.

1 rotor aylanganda uning 7 parragini kuraklari orasida bo'lgan havo ma'lum bosim hosil qilib, ventilyator g'ilofi ostiga yuboriladi. Bir vaqtning o'zida yo'naltiruvchi apparatning kuraklari orasida siyraklashish yaratiladi va o'sha tomonga havoning yangi porsiyalari so'riladi. Yo'naltiruvchi apparatning kuraklari orasidan o'tayotgan havo kerakli yo'nalish oladi va rotor kuragiga kirishda ular bilan qamrab olinadi. Buning natijasida aerodinamik yo'qotishlar kamayadi, ventilyatorning FIK va unumdorligi oshadi.



2.81-rasm. Motorning havo bilan sovitish tizimi ventilyatori

Havo bilan sovitish tiziminining asosiy afzalliklari bo'lib, oddiyligi va foydalanishdagi puxtaligi, motorni ishchi haroratgacha yanada tezroq qizdirishi, qoida tarzida motorning yaxshi o'lchamlari va og'irlik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

## 2.6. Moylash tizimi

Moylash tizimi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- tashqi foydalanish sharoitlaridan qat'iy nazar, motorning barcha ish tartiblarida, detallarda quruq yoki chegaraviy ishqalanish, tishlashish va tirnalish hosil bo'lishini oldini olib, kerakli miqdordagi moyni oqilona bosim ostida ishqalanish yuzalariga uzatish yo'li bilan ishqalanish qismlarining ishlash qobiliyatini ta'minlaydi;

- ishqalanish juftliklarining ishqalanish kuchi va yejilishini kamaytiradi;

- yejilish va korroziya mahsulotlari, shuningdek motorga kirayotgan havo, yonilg'i moyni sifatsiz tozalash natijasida va uni tayyorlashdan keyin unda qolgan (quyishdagi tuproq, metall qirindilari) abraziv zarrachalarni, motorga qaytadan kirishini oldini olib, moyni filtrlash tizimida ushlab qoladi;

- moyning tarkibini tashkil etadigan termik parchalanish, oksidlanish va polimerlanish va yonilg'ini to'liq bo'lмаган yonish (qurum, shlam, kul cho'kindilari) mahsulotlarini detal va agregatlarning yuzalaridan olib tashlaydi, ularni filtrlash tizimida ushlab qoladi;

- issiqlikdan kuchlangan detallar – porshenlar, silindrler kallagi va boshqa moy bilan ko'pincha majburiy sovitishni ham qo'shib, motor detallari va ishqalanish qismlarini sovitadi, ya'ni ichki sovitish tizimi vazifasini bajaradi;

- motor detallarini korroziyadan himoya qiladi;

- moy ishchi jism sifatida ishlatiladigan qurilmalarga (sovitish tizimining gidromuftasiga va hokazo) moy keltirishni amalga oshiradi;

- detallar birikmasida birinchi navbatda silindr-porshen guruhi detallari tirqishlarini zichlashni ta'minlaydi.

Moylash tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi:

- moy to'ldirish uchun to'xtamasdan, motorning berilgan ishlash davomiyligini;

- moyning uzoq muddat ishlashini va uning kam sarfini;

- moyni SUV, yonilg'i va boshqa ifoslantiruvchi qo'shimchalar tushishidan ishonchli himoyalashni;

- moyning ishchi haroratini ruxsat etilgan chegaralarda saqlab turishni ta'minlashi kerak.


Bundan tashqari, moylash tizimi texnik xizmat ko'rsatishning kichik mehnat sarfiga ega bo'lishi, nosozliklarni tezda izlab topish va bartaraf etishga moslashgan bo'lishi kerak. Moylash tizimini avtomatlashtirish darajasi motorni avtomatlashtirishning umumiy darajasiga mos kelishi kerak.

Moylash tizimlari moyni saqlash usuli bo'yicha quruq va ho'l karterli tizimlarga tasniflanadi.

Quruq karterli tizimlarda (2.82-rasm) moyning zaruriy zaxirasi maxsus 2 aylanib o'tish baklarida bo'ladi. Karter 5 tagligi faqat 4 kanallar bo'yicha oqib tushayotgan moyni yig'uvchi hisoblanadi. Moy undan 6 moy nasosi bilan yoki 3 nasosning qo'shimcha seksiyasi bilan 2 bakka haydab o'tkaziladi. Nasosning bosim orttiruvchi seksiyasi moyni 8 filtr orqali 7 magistralga haydaydi. Bo'shatuvchi nasosning unumdorligi haydovchi nasosning unumdorligidan taxminan 1,2-1,5 marta doimo katta bo'ladi. chunki moy qabul qilish kanallariga karter gazlari va havo bilan aralashib ko'piklanib kiradi. Ularni yo'qotish aylanib oqib o'tish bakidagi 1 sapun orqali amalga oshiriladi.


Bu tizimlar qimmat va qo'pol, ular foydalanishda ancha qiyalik bilan ishlashga to'g'ri keladigan traktorlarning motorlarida ishlatiladi. Bunday sharoitda 6 nasos moy bilan birga karter gazlarini so'rishi va ular 7 magistralga, undan esa ishqalanuvchi detallar orasidagi tirqishga tushishi mumkin.

Ko'plab traktor motorlarida oddiyroq va kichik gabarit o'lcham va massaga ega bo'lган ho'l karter bilan kombinatsiyalashgan aylanib oqib o'tuvchi moylash tizimlari qo'llanadi.



2.82-rasm. Quruq karterli motorning moylash tizimi

Bunday tizimning sxemasi 2.83-rasmda keltirilgan. Moy karterning 13 poddonida bo'ladi, uning sathi 9 shup bilan nazorat qilinadi. Poddonda ishlab bo'lgan moyni to'kish uchun tiqin mavjud, unga ba'zan metall zarralar – yeyilish mahsulotlarini tutib oladigan magnit joylashtiriladi.



**2.83-rasm. Motorni aylanib oqadigan kombinatsiyalangan moylash tizimi**

Moy karterdan moy qabul qiluvchi orqali moy nasosining ikkita 17 va 18 seksiyalariga kiradi. Seksiyalarning haydovchi yo'llarida tizim magistrallaridagi moy bosimini cheklaydigan 14 va 16 reduksion klapanlar o'rnatilgan. Nasosning 17 seksiyasi kichik unumdarlikka ega va moyni faqat 4 markazdan qochma filtr va uni sovitadigan 15 radiotor orqali bo'shatadi.

Radiatorni ishga tushirish 3 jo'mrak bilan bajariladi. Markazdan qochma filtr korpusiga o'rnatilgan 2 o'tkazib yuborish klapani filtr kirlanib qolganda uni chetlab o'tib, radiatorga moy uzatishni ta'minlaydi. Radiator uzib qo'yilganda moy motor poddoniga 1 quyish klapani orqali quyiladi.

Nasosning asosiy 18 seksiyasi moyni to'liq oqimli 20 filtr orqali tozalab, 21 asosiy moy magistraliga uzatadi. Filtr 20 tiqilib qolganda yoki motorni sovuq holda ishga tushirishda moy qovushqoqligi ko'pligi oqibatida uning qarshiligi oshganda, juda bo'lmasa tozalanmagan moyni motorga uzatishni ta'minlash uchun moyni filtrlovchi elementni chetlab, asosiy magistralga o'tish yo'llini ochadigan 22 o'tkazib yuborish klapani o'rnatilgan.

Moy 21 asosiy magistraldan silindrlar blokidagi teshik orqali tirsakli va taqsimlash vallarining o'zak podshipniklariga boradi. Tirsakli valning shatun podshipniklariga eng yaqin o'zak bo'ynidan val ichidagi teshik orqali uzatiladi. Moy yig'uvchi halqa bilan silindr devorlaridan olingan moy porshenga yuboriladi va do'ngalaklardagi porshen barmog'i tayanchlarini va shatun yuqori kallagi podshipnigini moylaydi.

Silindrlar blokining orqa devoridagi kanallar orqali moy bosim ostida 7 kompressorning podshipniklariga, oldingi devordagi kanallar orqali esa 8 yuqori bosimli yonilg'i nasosining podshipniklariga boradi. Ventilyator 12 yuritmasining gidromuftasiga 10 yoqilish jo'mragi va 11 termodatchik bilan zolotnikli boshqarish klapani orqali asosiy magistraldan moy olish ko'zda tutilgan. Turbokompressor rotorining podshipniklariga ham ularni moylash va sovitish uchun moy o'sha yerdan keltiriladi, shundan keyin dizel poddoniga quyiladi. Qator konstruksiyalarda bu moy avval qo'shimcha filtrda tozalanadi.

Blokdagagi, silindrlar kallagidagi va koromislolar ustunidagi teshiklar orqali moy ularning ichi bo'sh o'qlariga keltiriladi. O'qlardagi radial teshiklar orqali moy koromislo podshipniklariga kiradi, o'qlar va koromislardagi teshiklar to'g'ri kelganda shtangalarning yuqoridagi uchlarni pulslanadigan moylash amalga oshiriladi. G'ovak shtangalar orqali moy pastki uchliliklarga tushadi va ularni moylaydi. Motorning qolgan detallari sachratish yoki o'zi oqish bilan moylanadi. Moy nasosi korpusiga o'rnatilgan 19 differensial klapan moy uzatishni bosh moy magistralidagi bosimga bog'liq holda avtomatik rostlaydi.

Tizimdagagi moy bosimi to'liq oqimli filtr korpusiga o'rnatilgan datchik bilan nazorat qilinadi va traktorchining asboblar panelidagi 5 ko'rsatkich bilan qayd etiladi. Bundan tashqari filtr korpusida bosh moy magistralidagi moy bosimini avariyaviy pasayishining datchigi va to'liq oqimli filtrning o'tkazib yuborish klapanini ishlab ketish datchigi ham o'rnatilgan, ular kabinada yorug'lik signalizatorlariga ega.

Tirsakli valning o'zak va shatun podshipniklariga moy uzatish usuli bo'yicha moylash tizimlari parallel, ketma-ket va kombinatsiyalashgan uzatishli tizimlarga bo'linadi. Parallel uzatish tizimi eng ko'p tarqalgan bo'lib, unda moy 7 bosh magistraldan (2.7-

rasmga qarang) karterning 11 chiqqlaridagi 9 teshiklar orqali har bir o'zak podshipnikka uzatiladi va keyin tirsakli valdag'i 6, 10 va 11 teshiklar bo'yicha (2.30-rasmga qarang) har bir shatun podshipnigini moylash uchun boradi. Moyni bunday keltirish usuli barcha o'zak va shatun podshipniklarini taxminan bir xil ishslash sharoitini va ularni bir xil yeyilishini ta'minlaydi.

Ketma-ket usulida moy o'zak poshshipniklarining bittasiga olib kelinadi, keyin tirsakli valdag'i teshik orqali hamma o'zak va shatun podshipniklariga yuboriladi. Bosimni va markazdan qochma tutgich (lovushka) larda moyni tozalash darajasini turlicha bo'lishi oqibatida podshipniklarning notejis yeyilishi bunday moy keltirish usulining kamchiligi hisoblanadi. Natijada o'zak podshipniklaridagi tirqishlar turlicha bo'lishi mumkin, bu esa tirsakli valni qo'shimcha deformatsiyalariga olib keladi.

Moyni podshipniklarga kombinatsiyalangan usulda olib kelishda tirsakli valning ikki uchidan amalga oshiriladi.

Moylash tizimi quyidagi asosiy agregat va va qismlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy motorlarda qo'llaniladigan moy *nasoslari* ikki turda bo'ladi: - shesterniyalarning tashqi ilashmasi bilan va shesterniyalar yoki rotorlarning ichki ilashmasi bilan.

Shesternya tishlari tashqi ilashmada bo'lgan nasosning sxemasi 2.84-*a* rasmda ko'rsatilgan. Nasosning 1 korpusida yetakchi 2 va yetaklanuvchi 5 shesterniyalar joylashadi. Yetakchi shesternya 2 motorning vallaridan biri bilan aylanma harakatga keltiriladigan valcha 4 ga shponka 3 bilan o'tkazilgan. Etaklanuvchi shesternya 5 o'q 6 da erkin aylanadi. Moy tishlar orasidagi chuqurlik bilan tashilib, bosimi orttirilgan kanalga kiritiladi. Ilashishga kirganda shesternya tishlari ular orasidagi tirqishda moyning yuqori bosimini hosil qiladi. Kelib chiqqan radial yuklanishlar 4 valchaning podshipniklari va 5 shesternyaga bosib kiritilgan 12 podshipnik vtulkasini yeyilishini keltirib chiqaradi. Yengillashtirish ariqchasi 11 moy bosimining oshishini oldini olib, ko'rsatilgan tirqishlarni bosimi orttirilgan bo'shliq bilan ulaydi.

Qoida tarzida, moy nasoslarida tishlarining soni kichik (7...9) bo'lgan shesterniyalardan foydalaniladi. Ba'zi hollarda shesterniyalarni egri tishli qilib tayyorlanadi, bu o'sha o'lchamlarning o'zida


nasosning unumdorligini oshiradi va tizimdagи bosim pulsatsiyasini kamaytiradi. Nasosning bitta korpusida bir necha just shesternyalar ko'p seksiyali nasos tashkil qilib joylashishi mumkin, bu yuritmani va nasoslarni motorda joylashishini soddalashtiradi. Bunda, masalan, nasosning bitta (katta) seksiyasi detallarni moylash uchun tizimga moy uzatadi, boshqasi (radiatorniki) moyni sovutishni ta'minlaydi (2.83-rasm).

Saqlagich (reduksion) 7 klapan (2.84- *a* rasm) tizimda berilgan bosimni, moyning bir qismini haydash (bosim orttirish) bo'shlig'idan motor poddoniga yoki qaytadan so'rilish bo'shlig'iga o'tkazib yuborish yo'li bilan saqlab turadi. Ikkinci usulga afzallik beriladi, chunki bunda moyni havo va karter gazlari bilan tutashuvi yo'qotiladi va uning aeratsiyasi pasayadi. Bu holda reduksion klapan moy nasosining korpusiga joylashadi. O'tkazib yuborish kanali 8 prujina bilan siqiladigan 7 zoldir yoki porshencha bilan to'siladi. 9 tiqin yordamida prujina siqilishini, demak, moy magistralidagi bosimni o'zgartirish mumkin. Bosim oshganda zoldir uyasidan ko'tariladi va moy nasosning so'rilish bo'shlig'iga qaytadi.

Ba'zi traktor dizellarida reduksion klapanlar tizimdagи bosimni moyni tozalash agregatlari oldida 0,6... 1,2 MPa chegaralarida saqlab turadi.

Hozirgi vaqtida shesternyalar ichki ilashmada yoki rotorlari epitsikloid ilashmali bo'lган moy nasoslari ham qo'llaniladi. Ular ixchamroq, og'irligi va ishlash shovqini kam, katta mexanik FIK ga ega. Ularning kamchiligi bo'lib, tayyorlashda oshirilgan aniqlik zarurligi va moyni tozalashga yanada qattiqroq talablar qo'yilishi hisoblanadi.

Rotorli nasosning konstruksiysi 2.84- *b* rasmida keltirilgan. 1 korpusda yulduzcha ko'rinishidagi o'yqli 2 tashqi rotor erkin aylanadi. Tashqi 4 etakchi valga nisbatan eksentrik o'tqazilgan 3 ichki rotor u bilan ilashmada bo'ladi. Ichki rotordagi chiqiqlar soni tashqidagi chuqurliklar sonidan bittaga kam. Moy rotorlar orasidagi tirkishdan nasos korpusidagi 5 haydovchi kanalga siqib chiqariladi, oshib boryotgan tirkishga esa so'ruvchi 6 kanal bo'yicha kiradi. Reduksion klapanning qo'shilish sxemasi yuqorida ko'rib o'tilganga o'xshash.



**2.84-rasm. Moy nasoslari:**


a – bir seksiyali shesternyalar tashqi ilashmasi bilan; b – bir seksiyali rotorlarning ichki episikloid ilashmasi bilan; d – ikki seksiyali: 1 – radiator seksiyasi korpusi; 2 – radiator seksiyasi nasosining shesternyalar; 3 – bosh seksiya nasosining shesternyalar; 4 – bosh seksiya korpusi; 5 – nasos yuritmasining shesternyasi; 6 – oraliq shesternya; 7 – o'zak podshipnik qopqoq'i; 8 – bosh seksiyasining saqlagich klapani; 9 – klapan prujinasi

Dizelning ikki seksiyali shesternyali moy nasosining reduksion klapanlari bilan konstruksiyasiga misol 2.84- d rasmda keltirilgan. Nasoslarni odatda motor karterida 7 o'zak podshipniklar qopqoqlaridan biriga, nasos bosh seksiyasining 3 shesternyalarini va nasos radiator seksiyasining 2 shesternyalarini yuritmasini tirsakli valdan 5 va 6 shesternyalar orqali amalga oshiriladi. Ishlash shovqinini va dinamik yuklanishlarni kamaytirish uchun ba'zan shesternyalarini egri tishli qilib bajariladi.

*Moy qabul qiluvchilar* moyni motor poddonidan so'rib oladi va ular ikki xil: suzadigan va qotirilgan bo'ladi. Suzadiganlari suzib turishga imkon beradigan havo bo'shlig'iga ega bo'ladi va moy nasosining qabul quvuri bilan sharnir ulanishi moy sathiga bog'liq holda ularning siljishini ta'minlaydi. Ular yuqoridagi eng toza moy qatlamini oladi. Biroq ular bilan birga moylash tizimiga, moy nasoslari unumdarligini pasaytiradigan, yuklangan qism va detallarni moylashga nihoyatda salbiy ta'sir qiladigan ko'pik kiradi. Shuning uchun suzadigan moy qabul qiluvchilar kam ishlatiladi.

Qotirilgan moy qabul qiluvchilar traktor qiyalik bilan ishlaganida karter gazlarini tizimga so'rib olinishini yo'qotish uchun poddonning eng chuqr qismida joylashadi.

Turli xil o'lchamda ishlab chiqariladigan, qotirilgan moy qabul qiluvchilarining konstruksiyalari 2.85-rasmida keltirilgan. Moy qabul qiluvchilar, nasoslarni yirik abraziv zarrachalar kirib qolishidan himoyalash uchun, kataklarining o'lchami  $0,5\dots2,5$  mm bo'lgan I metall to'r bilan jihozlanadi. Ba'zi konstruksiyalarda (2.85- b rasm) silindrsimon stakan ichiga metall zarrachalarni tutib qolish uchun U-simon 2 magnit o'rnatiladi.



2.85-rasm. Nasoslarning moy qabul qiluvchilari

Moylash tizimining *filtrlari* motor detallari ishqalanuvchi yuzalarini abraziv yeyilishdan ishchonchli himoyalashni, moyni maxsus qoshimchalar bilan ishlashi, uning tashkil etuvchilarini termik parchalanishi va polimerlanishi mahsulotlarini, qorakuyadan tozalashni yuqori samaradorligi, moyni motorda uzoq vaqt almashtirguncha ishlashini ta'minlashi kerak. Bunda filtrlar oddiy konstruksiyaga, foydalanishda ishchonchli va qulay, narxi past va xizmat muddati uzoq, kichik gidravlik qarshilikka ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy motorlarda qollanilayotgan filtrlar va moyni tozalash usullari turli belgilari bo'yicha tasniflanishi mumkin. Tozalash sifati va ishlatilish maqsadi bo'yicha: moyni dastlabki tozalash, dag'al va mayin tozalash filtrlari farqlanadi.

Dastlabki tozalash filtrlari o'lchami  $120\dots250$  mkm bo'lgan moyni ifloslantiruvchi zarrachalarni ushlab qoladi. Traktor motorlarida bunday filtrlar moyni qabul qiluvchilarni metall to'rlar hisoblanadi.

Dag' al tozalash filtrlari o'lchami 50 mkm dan ortiq bo'lgan zarrachalarni ushlab qoladi va konstruksiyasi bo'yicha plastinkali-tirqishli, tasmali-tirqishli, simli-tirqishli va to'rli xillarga bo'linadi. Bu filtrlarda tutib qolinayotgan zarrachalar o'lchami filtrlovchi elementlar orasidagi tirqishlar bilan aniqlanadi. Masalan, plastinkali-tirqishli filtrlar, tirqish balandligini aniqlovchi o'zaro qo'ymalar bilan ajratib paketga yig'ilgan dumaloq plastinalardan iborat.

Moyni dag' al tozalash filtrlaridan eski konstruksiyadagi motorlarning moylash tizimlarida keng foydalanilgan. Biroq ular abraziv zarrachalarni talab etilgan ajratish mayinligini ta'minlab bermaydi (masalan, silindr-porshen guruhini yeyilishiga 15...30 mkm o'lchamidagi zarrachalar eng ko'p ta'sir ko'rsatadi) va shuning uchun zamonaviy filtrlash tizimlarida nihoyatda kam qo'llaniladi.

O'lchami 50 mkm dan kichik ifloslantiruvchi zarrachalarni chiqarib tashlash moyni mayin tozalash filtrlari (3...5 mkm gacha) bilan ta'minlanadi. Konstruksiyasi va ifloslantiruvchi zarrachalarni tutib qolish usuli bo'yicha bu filtrlar sirt-adsorbsiyalovchi, hajmiy-adsorbsiyalovchi va markazdan qochirma tozalagichga bo'linadi.

Sirt-adsorbsiyalovchi filtrlar kirish yuzasi ancha rivojlangan yupqa qatlamli g'alvirak to'siqqa ega, moy undan ifloslantiruvchi aralashmalarni qoldirib o'tadi. Bu filtrlarni tayyorlash uchun to'r. qog'oz, yupqa karton, mato ishlatiladi. Qog'oz eng ko'p qo'llaniladi.

Hajmiy-adsorbsiyalovchi filtrlar qalin devorli to'siq va kichik moy kirish yuzasiga ega. Ularda ifloslantiruvchi zarrachalarni tutib qolish filtrlovchi materialning ichidagi g'ovak kanallarda ro'y beradi. Bu filtrlarning materiali sifatida qalin karton, yog'och qipig'i, yog'och uni, ip-gazlama mato, mineral paxta, chigal ip, kukanli material ishlatiladi. Sirt filtrlovchi materiallar (qog'oz, mato) ning katta miqdordagi qatlamidan bajarilgan paketlarni ham hajmiy filtrlarga qo'shish mumkin.

Markazdan qochirma tozalagich (sentrifuga) aylanayotgan idishdagi (rotordagi) moyni og'irroq aralashmalardan markazdan qochirma kuchlar ta'siri hisobiga tozalaydi. Avtomobil va traktor motorlarida 5000...8000 daq<sup>-1</sup> aylanish chastotasiga ega bo'lган sentrifugalar qo'llaniladi. Bunda ulardagi filtrlash mayinligi 1...3 mkm kattalikka yetishi mumkin. Sentrifugalar aksariyat hollarda gidravlik yuritmaga ega. Tirsakli valdan olingan mexanik yuritmada moyni

tozalash sifati motorning tezlik tartibiga bog'liq bo'ladi va kichik aylanish chastotalarida keskin yomonlashadi.

Rotorining gidravlik yuritmasini turi bo'yicha sentrifugalar reaktiv (2.86-rasm, a) va gidravlik turbina prinsipidan foydalilaniladigan reaktiv-faol (2.86-rasm, b) bo'ladi.

Reaktiv yuritmali sentrifugada 1 korpusdagi 2 qo'zg'almas o'qqa o'rnatilgan 4 rotorning aylanishi (2.86-rasm, a) tangensial yo'naltirilgan 3 jiklerlardan bosim ostida katta tezlik bilan chiqayotgan moy oqimining reaksiyasi hisobiga amalga oshiriladi. Jiklerlarga baland quduq orqali kirish (I variant) yoki jiklerlarni tepada joylashtirish (II variant) motor to'xtatilganda moyni sentrifugadan to'kilishini oldini oladi. Aralashmalar 7 markazdan qochirma kuch ta'sirida ajralib zikh yopishgan massa ko'rinishida rotor devorlariga o'tiradi va texnik xizmat ko'rsatish vaqtida olib tashlanadi. Jiklerlardan oqib chiqqan moy motor poddoniga quyiladi.

Bunday ko'rinishdagi yuritmaning kamchiligi jiklerlardan oqim bo'lib chiqayotgan moyning aeratsiyasi hisoblanadi.


Reaktiv-faol yuritmali sentrifugada (2.86-rasm, b) bunday kamchilik yo'q. Unda tashqi soplolik apparat bo'lmaydi, sentrifuga rotoriga kirayotgan moy esa unga o'rnatilgan turbinacha kuraklariga yo'naltiriladi. Tizimdagagi bosim 6 o'tkazib yuborish klapani bilan cheklanadi.

Sentrifugani aylantirish uchun ba'zan sentrifuga rotoriga moy keltirish uchun qilingan tangensial kanallardan ham foydalilanadi. Bu kanallardan chiqayotgan moy oqimi rotor korpusi devorlariga urilib, uni harakatga keltiradigan moment hosil qiladi.

Motorda moyni qo'shimcha markazdan qochirma tozalash tirsaklı valning shatun bo'yinlaridagi 10 bo'shliqlarda ro'y beradi (2.30-rasmga qarang).

Filtrlarni moylash tizimida moyning aylanish sxemasiga kiritish usuli bo'yicha ular to'liq oqimli va qisman oqimli turlarga bo'linadi. To'liq oqimli filtrlar moylash magistraliga ketma-ket kiritiladi va detallarning ishqalanuvchi yuzalarini moylash uchun motorga kirayotgan hammasi ular orqali o'tadi (2.62-rasmdagi 20 raqam). Qisman oqimli filtrlar moy magistraliga parallel kiritiladi va ular orqali 10...15% atrofida moy o'tadi, u keyin poddonga quyiladi. Ular moy nasosining asosiy (bosh) seksiyasini bo'linish joyida ham,

qo'shimcha radiator seksiyasi magistralida ham o'rnatilgan bo'lishi mumkin.



**2.86-rasm. Markazdan qochirma filtrlar (sentrifugalar):**

- a – to'liq oqimli reaktiv yuritma bilan;  
b – to'liq oqimli reaktiv-fao yuritma bilan


To'liq oqimli filtrlar sifatida sirt yoki hajmiy mayin tozalash filtrlari va sentrifugalardan foydalilanadi. Birinchi ikki turdag'i filtrlarning filtrlovchi materiali ifloslangandan so'ng, tiklash mumkin bo'limgan agregatlarga tegishli ular konstruksiyasi bo'yicha ichiga almashtiriladigan filtrlovchi element o'rnatilgan korpus ko'rinishida bajariladi.

To'liq oqimli mayin tozalash filtrining qog'ozdan tayyorlangan, almashtiriladigan filtrlovchi elementi 2.87-rasm, b da keltirilgan. Keng qo'llaniladigan to'liq oqimli qog'oz filtr bo'laklanmaydigan korpus (2.87-rasm, a) ichiga joylashgan 5 o'tkazib yuborish va 3 drenaj klapanlariga ega. Drenaj 3 klapani motor to'xtatilgandan so'ng filtrdan moy to'kilishini oldini oladi, bu uni keyingi ishga tushurishda ishqalanuvchi detallarga moy borish vaqtini qisqartiradi, demak, ishga tushurishdagi yeyilishni kamaytiradi. O'tkazib yuboruvchi 5 klapan filtrlovchi element 4 ifloslanganda ochiladi, uning yuzasini ko'paytirish uchun qog'oz pardani ko'pnurli yulduz ko'rinishida taxlanadi. 2 korpusga o'rnatilgan 1 rezina halqa filtrdan moy oqishini oldini oladi.

2.88-rasmda, olinadigan hajmiy 6 filtrlovchi elementlari bo'lgan, ikkilangan, to'liq oqimli filtr, presslangan massadan tayyorlanadi yoki

teshiklar ochilgan tashqi va ichki stakan ko'rinishida bajariladi, ular orasiga filtrlovchi material tiqiladi.

Atrof-muhitning yuqori changlanganlik sharoitida ishlaydigan traktor dizellarida, moyni mayin tozalash filtrlari sifatida, moyni sifatli tozalashni ta'minlaydigan, to'liq oqimli sentrifugalardan ham keng foydalaniлади. To'liq oqimli reaktiv yuritmali sentrifugalarda (2.86-rasm *a* ga qarang) sentrifugaga kirayotgan moyning bir qismi (20% gacha) rotor yuritmasiga sarflanadi va karterga quyiladi, qolgan qismi motorga kiradi. Reaktiv-faol yuritmali sentrifugalarda (2.86-rasm *b* ga qarang) sentrifugadan o'tgan barcha moy motorga yuboriladi.




**2.87-rasm. To'liq oqimli moyni mayin tozalash filtri:**  
*a* – konstruksiyasi; *b* – almashtiriladigan qog'oz filtrlovchi element

Sentrifugalar, sirt va hajmiy mayin tozalash filtrlariga nisbatan, yuqori disperslash xossalari bilan moyni yanada sifatliroq tozalashni ta'minlaydi, qo'shimchalarining ishlashi va parchalanishi mahsulotlarini yaxshi tutib qoladi, detallarda past haroratli cho'kindilar miqdorini kamaytiradi, karter moyiga tushib uni quyultiradigan qorakuya zarrachalarini ajratadi, quyuq moy dizelni ishga tushgandan keyin yanada uzoqroq qizdirish zarurligiga, demak, foydalanshagi yonilg'i sarfini oshishiga olib keladi. Biroq moyni sentrifugada tozalash sifati motorning ishlash tartibiga bog'liq. Moyning bosimi va harorati past bo'lganda sentrifuganing samaradorligi keskin kamayadi. Shuning uchun, tozalagich turini tanlashda (filtr yoki sentrifuga) motorning vazifasi va uning ishlash tartibidan kelib chiqiladi. O'zgarmas tezlik va harorat tartiblarida ishlaydigan motorlar uchun

to'liq oqimli sentrifugalar o'zgaruvchan tartiblarda ishlaydigan motorlar uchun esa – to'liq oqimli filtrlar qo'llash afzal.

Biroq moyni ifloslanish tezligi juda katta bo'lgan dizellar uchun ishqalanish juftliklarini abraziv yeyilishdan ishonchli himoya qilish va filtrlash tizimini uzoq vaqt samarali ishlashiga kombinatsiyalangan moy tozalash tizimini qo'llash bilan erishish mumkin. Bunday tizim to'liq oqimli mayin tozalash filtri va qisman oqimli sentrifugadan iborat bo'ladi (2.83-rasmga qarang). Bu tizimdan foydalanganda filtrning xizmat muddati o'rtacha 2,5 marta oshadi.



**2.88-rasm. To'liq oqimli moyni mayin tozalash filtri almashadigan hajmiy-adsorbsiyalovchi elementlari bilan:**

1 – moy bosimining avariyaviy pasayib ketishi datchigi; 2 – moy bosimi datchigi; 3 – qistirma; 4 – korpus; 5, 11 – zichlagich halqalar; 6 – filtrlovchi element; 7 – sterjen; 8 – qalpoq; 9 – to'xtatuvchi (stopor) halqa; 10 – zichlagich palla; 12, 18, 21 – prujinalar; 13, 15 – tinqinlar; 16 – rostlovchi shaybalar; 17 – vint; 19 – qo'zg'aluvchan kontakt; 20 – filtr ifloslanishi datchigining korpusi; 22 – o'tkazib yuborish klapani

To'liq oqimli filtrlarning xizmat muddati barcha aytilganlardan tashqari, ular orqali haydar o'tilgan moyning miqdoriga, ya'ni moyni tizimda aylanish tezligiga bog'liq. Bu tezlik nasosning reduksion klapanini ochilish bosimi bilan aniqlanadi, bu bosim esa yeyilib bo'lgan motorda ishqalanuvchi juftliklarni ishonchli moylashni ta'minlash shartidan aniqlanadi. Yangi (yeyilmagan) motor uchun bu

bosim katta bo'lishi ma'lum. Shuning uchun filtrdan keyin joylashgan bosh moy magistralida bosimni chegaralash uchun ko'pincha, moyni karterga o'tkazib yuboradigan cheklovchi klapan o'rnatiladi. Lekin bu holda, faqat ishqalanish qismlarini moylash uchun ketayotgan emas, balki cheklovchi klapanlardan karterga quyilayotgan moy ham filtr orqali o'tadi. Bu filtrning ishlash sharoitini og'irlashtiradi va uning xizmat muddatini kamaytiradi.

Bu salbiy hodisani yo'qotish uchun, zamonaviy motorlarning moylash tizimlarida bosh moy magistralidagi bosim berilgan qiymatga yetganda, moyni filtrdan avval karterga o'tkazib yuboradigan 19 differensial klapanlar o'rnatiladi (2.83-rasmga qarang). Differensial klapan tufayli filtrning xizmat muddati taxminan 50% oshadi, filtrgacha va undan keyingi bosim farqi kamayganligi natijasida motorga filtrlanmagan moy o'tib ketishi kamayadi.


*Moyli sovitkichlar.* Moylash tizimini vazifalaridan biri ishqalanish yuzalari va motor detallaridan issiqlikni olib ketish hisoblanadi. Shu sababli traktor dizellarida moyning talab etilgan 80...110°C haroratini saqlash uchun moyni radiatorlarda (sovitkichlarda) majburiy sovitish ishlatiladi. Moyni samarali sovitishni qo'llash, yuqori forsirovkalangan turbopuflashli dizellarda, porshenni moy bilan sovitish ishlatiladigan motorlarda va havo bilan sovitiladigan motorlarda ayniqsa zarur.

Zamonaviy traktor motorlarida ikki xil moy sovitish qo'llaniladi: havo-moy va suv-moy radiatorlari. Havo radiatorlarida moyni majburiy sovitish hamma havo bilan sovitiladigan dizellarda mavjud. Suv bilan sovitiladigan motorlarda havo-moy radiatorlari ham, suv-moy radiatorlari ham ishlatiladi. Suv-moy radiatorlari qator muhim afzalliliklarga ega: maxsus rostlovchi qurilmalar qo'llamasdan turib, ishga tushgandan keyin tezda moyni isitish va me'yordagiga yaqin saqlab turish; suv-moy radiatorlarini silindrlar blokida, ba'zi hollarda sovitish ko'ylagida joylashtirilgani uchun tashqi moy quvurlari qisqa bo'lishi; issiqlik tavsiflarini iqlim sharoitlari va atrof-muhit ifloslanishiga bog'liq emasligi.

Plastinkali radiatorlar (2.89-rasm, b) samaraliroq va radiatori ni hajmi va massasida yutishni ta'minlaydi. Ularni ikkita plastinkadan tashkil qilingan va ular orasiga moy oqimini girdoblantirgich joylashgan seksiyalardan yig'iladi.

Suv-moy radiatorlarining afzalliklari ularning zamonaviy motorlarda keng tarqalishini ta'minladi.

Havo moy radiatorlari konstruksiyasi bo'yicha sovitish tizimining naychali-platinkali radiatorlariga o'xshash. Ko'pincha ular qovurg'ali naychalar ko'rinishida bajariladi. Ular suyuqlik bilan sovitish radiatori oldiga yoki havo bilan sovitiladigan dizelning ventilyatori hosil qilayotgan havo oqimiga o'rnatiladi.



2.89- rasm. Suv-moy radiatorlari:  
a – naychali; b – plastinkali

Moy radiatorining ishlash samaradorligiga uni moylash tizimiga kiritish usuli muhim ta'sir qiladi: nasosning asosiy seksiyasidan bosh magistralga ketma-ket; asosiy seksiyadan bosh magistralga parallel; nasosning qo'shimcha seksiyasidan bosh magistralga parallel.

Issiqlik almashtirgichni bosh magistralga to'liq oqimli qo'shilishi eng samaralidir. Bu motorni yuqori haroratli ishlash tartibida ishqalanuvchi detallarga sovitilgan moy uzatishga va sovuq holda ishga tushirganda uning qizish tezligini oshirishga yo'l qo'yadi. Biroq bu usul radiatorning oshirilgan puxtaligini va tizimga, undagi bosim 0,1...0,2 MPa dan pasayganda radiatorni uzib qo'yadigan saqlagich klapan kiritishni talab qiladi.

Parallel kiritishning ikki usuli ichida radiatorni nasosning qo'shimcha seksiyasidan kiritish durustroq, chunki bu bosh magistraldagi bosimni kamaytirmaydi. Radiatorga kelayotgan moy miqdori bunda motorning yeyilish darajasiga bog'liq bo'lmaydi. Moy radiatorlari oldiga ko'pincha radiatorni tigilib qolganda yoki haddan tashqari quyuq moyda ortiqcha yuklanishdan saqlash uchun, 0,1...0,2 MPa bosimga sozlangan, o'tkazib yuboruvchi saqlagich klapanlari o'rnatiladi.

Motor poddonini qovurg'lash (ham tashqaridan, ham ichkaridan) moyni sovitish uchun qo'shimcha vosita hisoblanadi.

## **3-bob. TRAKTORNING ELEKTR JIHOZLARI**

### **3.1. Traktor elektr jihozlariga bo‘lgan umumiy talablar**

Zamonaviy traktorlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan kuch qurilmalari, transmissiya, yurish qismi, harakat xavfsizligini, ish jarayonini avtomatlashtirishni, qurilmalar ishonchli ishlashini va haydovchining me’yoriy mehnat sharoitini ta’minlaydigan murakkab elektr va elektron tizimlar, asbob va uskuna majmualari bilan butlangan.

Elektr jihozlar o‘z ichiga: elektr bilan ta’minlash, motorni ishga tushirish, yordamchi motorni o‘t oldirish, yoritish va yorug‘lik yo‘li bilan ogohlantirish tizimlari, tovush signali, nazorat-o‘lchov asboblari, qo‘srimcha jihozlar, elektr simlari, kommutatsiya va himoya apparatlari hamda ularni elektr energiyasi bilan ta’minlovchi manbalarni qamrab olgan.

Elektr ta’minlovchi tizim generatorli qurilma va akkumulyator batareyalaridan iborat: elektrostartyor usuli bilan ishga tushirish tizimiga elektrostartyor, akkumulyator batareyalar, boshqarish relesi, startyorni blokirovkalash relesi va motorni ishga tushirishni osonlashtirish uchun elektrotexnik qurilmalar kiradi. Magnetoli yondirish tizimi yordamchi motor silindrlerida elektr uchqun orqali yonilg‘i aralashmasini alanga oldirishni ta’minlaydi.

Yoritish va yorug‘lik orqali ogohlantirish tizimlari yorug‘lik faralari, orqa faralar, gabarit va burilish ko‘rsatgichlari, to‘xtash signali, orqaga harakatlanishni xabarlovchi va ularni boshqarish relelaridan iborat.

Nazorat-o‘lchov uskunalar majmuasiga: zaryadlash va zaryadsizlanish datchiklari, ko‘rsatgichlari, bort tarmoqdagi tok kuchlanishi, harorat, moy bosimi, yonilg‘i bakidagi yonilg‘i sathi, traktor harakatlanish tezligi, tirsakli valning aylanish chastotasi va ishlagan moto-soatlarni o‘lhash asboblari kiradi.

Elektr yuritma traktorlarda oyna tozalagich, isitgich va shamollatgich motorlarni ishga tushirishdan oldin isitish tizimlarida qo‘llaniladi. Kommutatsiya apparatlariga o‘chirgichlar, uzib-

qo'shgichlar, turli vazifadagi relelar, saqlagichlar va ularning bloki, ularsh panellari va ajratish birikmalari kiradi.

Shuni aytish kerakki, traktorlarda elektr energiyasini iste'molchilari yildan-yilga ko'payib bormoqda, eskirganlari o'rniغا yangi elektr jihozlar, shu qatorda elektron tizimlar va mahsulotlar ham yaratilmoqda. Elektr jihozlarni texnik holati traktorlarni ishlatish puxtaligini, unumdarligini, samaradorligini va ekologiya tavsifini ta'minlaydi.

Elektr jihozlarni traktorlarda ishlatish sharoiti ularni traktorga o'rnatilish joyiga va ishlatish iqlim sohalariga bog'liq.

Elektr jihozlar quyidagi to'rt iqlim sohalari:  $XL$  – sovuq;  $U$  – o'rtacha;  $T$  – tropik;  $O$  – umumlashtirilgan iqlimlarga moslashtirilib chiqariladi.

Iqlim sohalariga qarab chiqarilgan elektr jihozlar quyidagi sharoitlarda ishchan bo'lishi shart: motorga va motor bo'limida o'rnatilganlar 70, 80, 90 va 100°C; kabina va kabinadan tashqarida o'rnatilganlar 55 dan 65°C gacha haroratda, manfiy haroratlarda esa:  $XL$  varianti uchun – 60°C,  $U$  varianti uchun – 45°C,  $T$  varianti uchun – 20°C. Bundan tashqari elektr jihozlar, ularni tashish va traktor ishlamay turgan davrida quyidagi harorat ta'sirida o'z ishchanligini saqlab turishi kerak:  $XL$  varianti uchun – 60°C,  $U$  – 50°C,  $T$  – 45°C. Havoning nisbiy namligi barcha variantlar uchun 40°C haroratda 95 ±3 %, minimal havo bosimi dengiz sathidan 4000 m balandlikda 61 kPa.

3.1-jadvalda atrof-muhit 70°C gacha bo'lgan elektr mashinalar va uzoq muddatli ish tartibida ishlaydigan apparatlar uchun ruxsat etilgan harorat qiymatlari keltirilgan.

### 3.1- jadval. Elektr mashina va uzoq muddatli tartibda ishlaydigan apparatlar uchun ruxsat etilgan issiqlik yuklanishlari

Elektr mashina va apparatlar qismilarini nomi	Izolyatsiya ashyolari sinflari uchun ruxsat etilgan harorat (°C) oshib ketish miqdori				
	A	E	B	F	H
Generator va elektromotor chulg'amlari	-	-	125	140	-
Kollektorlar va kontakt halqalari	100	115	145	155	160
Rele chulg'amlari	-	-	130	145	-

Traktor elektr jihozlari suv, chang, begona jinslar suqilib kirishidan himoya qilingan bo'lib, butun xizmat muddatida ishonchli va beto'xtov ishlashini ta'minlashi kerak.

Elektr jihozlari resursi motorning ishlash soatlari va qo'shish-o'chirish sonlari bilan o'lchanadi. Ularni zanglashdan lok-bo'yoq, galvanik va kimyoviy qatlamlar saqlab turadi.

Elektr jihozlari S1 – uzoq nominal ish tartibiga, S2 – qisqa vaqtli nominal ish tartibiga hisoblanadi. Doimiy nominal yuklanish davrini davomiyligi 5, 10 va 30 daqiqagacha, qayta qisqa vaqtli nominal ish tartibiga qo'shilishlarni cho'zilishi 15, 25, 40 va 60 % gacha hisoblanadi. Elektr mashinalar va magnetolar salt ishlash tartibida oshirilgan aylanish tezligida o'tkaziladigan sinovlarda startyorlar va bir daqiqagacha ishlaydigan boshqa elektr mashinalar 20 soniyagacha, qolgan elektromashinalar ikki daqiqagacha chidamli bo'lishi kerak. Startyorlar va magnetolarni sinash paytidagi aylanish tezligi, ishlatish paytida bo'ladigan aylanish tezligidan 20% ko'p bo'lishi shart.

Traktorni elektr jihozlari bir simli o'tkazgich elektr tizimida ishlaydi. Bunda mansiy (-) simi traktor korpusi bilan ulangan, lekin ikki simli tizimda ishlaydigan elektr mahsulotlar qo'llanishi ruxsat etilishi mumkin. Ularni ikkala simlari traktor korpusidan ajratiladi.

Traktorning elektr jihozlarini nominal parametrleri (nominal quvvat, tok kuchi, tok kuchlanishi va boshqalar) atmosfera bosimi 650...800 mm simob ustuni, nisbiy namligi 45...80% va havo harorati  $25\pm10^{\circ}\text{C}$  da traktor ishlash sharoitiga tegishli bo'ladi. Mahsulotlarni ishlash sharoiti ko'rsatilgandan o'zgarsa, ularni nominal parametrleri ham standartlarda qayd etilgan kattaliklarga o'zgarishi mumkin.

Traktorlarda elektr jihozlar va elektr energiya iste'molchilarini tizimini nominal tok kuchlanishi 12 yoki 24 volt, elektr energiya manbalarini (generator qurilmalariniki) – 14 yoki 28 volt bo'ladi.

Traktor yoki qishloq xo'jaligi mashinalari harakatlanish paytida ularga o'rnatilgan elektr energiya iste'molchilariga keltirilgan tok kuchlanishi 90 % dan 125% gacha o'zgargan holda ham ularning ishchanligi saqlanib qolishi kerak.

### 3.2. Akkumulyator batareyasi

Elektr zaryadlarning (elektron, proton) har qanday tartibli harakati elektr toki deb ataladi. Zaryadlarning ikki: (-) manfiy va (+) musbat

turlari mavjud. Manfiy va musbat qutblar o'tkazgich orqali bir-biri bilan tutashsa ish, quvvat (yorug'lik, issiqlik yoki aylanma harakat) paydo bo'ladi.

Elektr toki esa «o'zgarmas» va «o'zgaruvchan» bo'lishi mumkin. O'zgarmas tok zaryadlarning tartibli harakati faqat ilgarilanma yoki muvozanat holatiga nisbatan tebranma bo'ladi, agar zaryadlarning harakati biror qonunga (masalan Sin yoki Cos) bo'ysunib, asosan davriy ravishda o'zgarib tursa, bunday toklar o'zgaruvchan toklar deb ataladi.


Akkumulyator batareyalari o'zgarmas tok ishlab chiqaradi. Ular asosiy va yordamchi motorlarni yurgazib yuborishda elektr startyorni, shuningdek motor to'xtab turganda, salt yoki past aylanishlar tezligida ishlab turganda barcha iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

Tashqi zanjirdagi iste'molchilarning quvvati generatornikidan yuqori bo'lganda, akkumulyator batareyasi generator bilan birqalikda ishlaydi.

Akkumulyatorlar kislota-qo'rg'oshinli, ishqorli turga bo'linadi. Traktorlarda esa kislotali akkumulyatorlar o'rnatilgan. Bunday akkumulyator batareyasida sulfat kislotaning ( $H_2SO_4$ ) suvdagi eritmasi elektrolit bo'lib ishlaydi. Akkumulyator batareyasining elektryurituvchi kuchi (EYK) undagi akkumulyatorlar EYK yig'indisiga teng.

Sanoat nominal kuchlanishi 6 va 12 volt bo'lgan batareyalar ishlab chiqaradi. Akkumulyatorning o'zi esa bir bankadan iborat bo'lib, banka ichida 7 ta manfiy ko'prikcha orqali bir-biriga ulangan yarim blok va 6 ta musbat yarim blok plastinalar (elektrod) dan iborat. Manfiy va musbat plastinalar bir-biriga kirib, lekin tegmasdan turadi. Bir-biriga tegmasligi uchun ular orasiga maxsus tok o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlangan separator qo'yiladi. Bankaning ichiga elektrolit quyiladi.

Akkumulyator batareyasi generatorli qurilmalar bilan parallel ishlab, traktor elektr tarmog'ida bo'ladi dan tok o'ta kuchlanishlarini va generatori o'ta yuklanishlarini yo'qtadi. Elektrostartyorga sarf bo'lgan tokni akkumulyator batareyasi qayta tiklashi uchun generator qurilmasi orqali kerakli kuchlanishdagi tok bilan qo'shimcha zaryadkalanadi.



### 3.1-rasm. Akkumulyator batareyalar

- a* – uyali qopqoqlar monoblokida va qopqoqlar ustidagi elementlararo ulagichlar bilan; *b, d, e* – to'siqlar orqali o'tgan elementlararo ulagich bilan;
- 1 – monoblokni tayanch quymasi; 2 – monoblok; 3 – manfiy elektrodnii (plastinani) yarim bloki; 4 – baretka; 5 – tinqin; 6 – elementlararo ulagich; 7 – qopqoq; 8 – qutbli uch; 9 – separator; 10 – born; 11 – ko'rikcha; 12 – musbat plastinalarni yarim bloki; 13 – monoblokni to'sig'i; 14 – elektrolit sathini o'lhash indikatori; 15 – musbat elektrod (plastina); 16 – manfiy elektrod; 17 – monoblok bo'rtig'i; 18 – dasta; 19 – planka

Akkumulyator batareyalarini ishlatish muddati va puxtaligiga atrof-muhit harorati, tebranish va titrash darajasi, texnik xizmat ko'rsatishlarni davriyiligi, hajmi va sifati, startyorga sarf bo'lgan tok kuchi va razryad bilan zaryadkalanish davom etishligi, elektrojihozlarni puxtaligi va bekamu-ko'stligi, ishslash davomi va ishlatilishida to'xtab qolish vaqtini ta'sir etadilar.

Oddiy batareyalarni atrof havoni harorati –  $40^{\circ}\text{C}$  dan  $+60^{\circ}\text{C}$  gacha, umumi qopqoqli va xizmat ko'rsatilmaydigan (ta'mirlanmaydigan) larni –  $50^{\circ}\text{C}$  dan  $+60^{\circ}\text{C}$  gacha ishlatish mumkin, lekin elektrolitni ish harorati  $+50^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lmasligi shart.

Akkumulyator batareyalarni harorati oshib ketsa plastinalar to'kiladi, sulfatatsiya va suv bug'lanishi tezlashadi. Elektrolitni kimyoviy faolligini pasaytirish uchun zichligini issiq va nam iqlimli joylarda  $1.25\dots1.27 \text{ g/sm}^3$  gacha pasaytiriladi. O'zbekiston iqlimiga elektrolitni  $1.23\dots1.25 \text{ g/sm}^3$  zichligi to'g'ri keladi. Quyosh radiatsiyasi va yuqori haroratlar ta'sirida oddiy akkumulyator

batareyalarini ebonitli monobloklarni, qopqoqlar va germetik mastikalarni puxtaligi pasayadi.

Past haroratlар germetik mastikalarni qayishqoqligini pasaytiradi, ularda darzlar paydo bo'ladi va monoblok qopqoq yuzalaridan qatlamlar ajraladi. Monobloklar, qopqoqlar va ticiinlar mo'rtlashadi. Zaryadkalari pasayib ketgan va elektrolitni zichligi yetarli bo'lмаган batareyadagi elektrolit muzlab qolishi mumkin. Shuning uchun past haroratlarda ishlatiladigan akkumulyator batareyalarni zichligi yuqori ( $1,29\dots1,31 \text{ g/sm}^3$ ) elektrolit bilan to'ldirilishi kerak va to'la zaryadkalangan holatda ushlab turiladi.

Havo harorati –  $10^\circ\text{C}$  dan pasayib ketsa batareyani to'la zaryadkalangan holatda ushlab turish uchun generator qurilmasi beradigan tok kuchlanishlarini ko'tarish lozim. Zaryadkalash tok kuchlanishi traktorni ishlatish qo'llanmasida ko'rsatilgan belgiga to'g'ri kelishi kerak. Generator qurilmani sozlanadigan tok kuchlanishi 12 voltli batareyaga  $15,5 \text{ V}$  va  $24 \text{ V}$  li batareyaga  $31 \text{ V}$  voltdan oshib ketmasligi lozim.

Akkumulyator batareyalarni traktorda o'rnatiladigan joylardagi tebranish  $60 \text{ Gs}$  gacha bo'lgan diapazon chastotasida tezlanish  $1,5 \cdot g$  ( $1,5 \cdot 9,81 = 14,7 \text{ m/s}^2$ ) dan oshmasligi shart, lekin  $5 \cdot g$  ( $49 \text{ m/s}^2$ ) li qisqa vaqtli  $30 \text{ Gs}$  gacha bolgan chastotada tezlanish yuklanishida ruxsat etiladi. Tebranish va titrashlar paytida batareyalar joyidan siljimasligi kerak. O'rnatiladigan joylar amortizatorlar va yumshoq qistirmalar bilan ta'minlanishi zarur.

Akkumulyator batareyalarni ishlatilmagan paytlari atrof-muhit harorati  $15^\circ\text{C}$  dan past bo'lмагандага  $14$  sutka mobaynida o'zaro zaryadsizlanishi  $10\%$  dan va  $28$  sutka ishlatilmasa  $20\%$  nominal sig'imidan oshmasligi kerak, xizmat ko'rsatilmaydigan batareyalarda ushbu ko'rsatkich  $90$  sutkadan so'ng  $10\%$ , yil mobaynida ishlatilmagan batareyalarda o'zaro zaryadsizlanish  $40\%$  nominal sig'imidan oshmasligi lozim.

Akkumulyator batareyalarni minimal xizmat muddati sig'imi nominaldan  $40\%$  dan past bo'lguncha yoki  $12$  voltli batareyalarni oxirgi razryadka tok kuchlanishi  $9$  volt bo'lgan vaqtgacha hisoblanadi. Undan so'ng zaryadkaga qo'yilishi lozim.

Elektrolit bilan to'ldirilmagan batareyalarni kafolatli saqlash muddati ishlab chiqarilish paytidan boshlab  $3$  yil, quruq zaryadlangan

(xizmat ko'rsatilmaydigan) batareyalarni saqlanish muddati 1 yil va ishga tushirilgan kunidan boshlab 18 oy.


Plastinalar qo'rg'oshindan tayyorlanadi, elektrolit esa sulfat kislotani ( $H_2SO_4$ ) distillangan (tok o'tkazmaydigan) suvda ( $H_2O$ ) eritmasi bo'ladi. Har qaysi banka 2 volt tok kuchlanishini beradi. Shuning uchun akkumulyator bankalarini bir-biriga ketma-ket ulab 3 yoki 6 bankali batareyalarga yig'iladi. 3 bankali batareya 6 volt, 6 bankali – 12 volt tok kuchlanishini beradi.

Traktorlarda o'rnatilgan elektr toki iste'molchilaridan eng ko'p quvvat talab qiladigani startyordir. Akkumulyator batareyalar asosan, startyorni ta'minlashga mo'ljallangan, shuning uchun ularni startyorli deyiladi, chunki ular ichki kuchlanish bir oz pasayganida qisqa vaqt ichida startyorni ishlashi uchun zarur bo'lgan katta tok berish xususiyatiga ega. Batareyalarni startyorni oldiga iloji boricha yaqin o'rnatishga harakat qilinadi. Aks holda katta kuchli tok o'tishi natijasida ulangan simlar qizib kuyib ketishi mumkin. Tok manbaining nominal kuchlanishi qilib 12 va 24 volt qabul qilingan. Ayrim traktorlarda (K-700, maxsus va boshqalar) texnikaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida startyor uchun 24 volt, qolgan iste'molchilar 12 voltdan foydalanadi. Shu maqsadda kuchlanishi 12 voltli ikkita batareya ishlatiladi. Motorni yurgazib yuborishda maxsus elektromagnit asbob – yurgazib yuborish qayta ulagichi – ularni avtomat ravishda ketma-ket ulaydi (24 v), startyor uzilgandan keyin parallel ularshga (12 v) qaytadi.

Hozirgi vaqtida barcha elektr jihozlarni 24 voltga o'tkazish harakati kuzatilmoqda. Tok manbai nominal kuchlanishini 12 voltdan 24 voltga ko'tarilsa, tok kuchi ikki marta kam bo'ladi, lekin o'shancha quvvat olish imkonini beradi. Binobarin, akkumulyator batareyalarni yuklanishini, simlar ko'ndalang kesimini, o'zaklar va magnit o'tkazgichlar o'lchamlarini kamaytiradi, qayta ulagichlarning keragi bo'lmaydi. Biroq bu holda 12 volt kuchlanishli ikkita ketma-ket ulangan akkumulyator batareyalar qurilmasi kerak bo'ladi.

Batareya baki kislotaga bardoshligi va izolyatsiya sifati yaxshi bo'lgan, mexanikaviy va termik bikirligi yuqori ebonit yoki asfalt asosida pishirilgan plastmassadan yasaladi. Bak tubi batareya ishlashi vaqtida hosil bo'ladigan cho'kindi (shlam) orqali plastinalari qisqa tutashib qolmasligi uchun tayanch prizmalar bilan ta'minlanadi.

Akkumulyatorning musbat va manfiy plastinalari mustahkam bo'lishi uchun 6...8% surma qo'shilgan qo'rg'oshindan panjara shaklida quyiladi. Plastina panjaralari sulfat kislotaning suvli eritmasida qorilgan oksidlangan qo'rg'oshin kukunidan iborat faol massa bilan to'ldiriladi (3.2-rasm).



**3.2-rasm. Akkumulyator plastinalari panjaralari:**

a, b – ta'mirlanmaydigan batareyalarni manfiy va musbat plastinalari;

d, e – an'anaviy batareyalarni manfiy va musbat plastinalari;

f – qo'rg'oshinlangan metalli to'r; 1 – quloqcha; 2 – romcha; 3 – tayoqcha;


4 – vertikal va gorizontal tomirlar

Akkumulyator musbat plastinalari faol massasining mustahkamligi manfiy plastinalarnikidan kamroq, shu sababli ular bir oz qalinroq bo'ladi.

To'la zaryadlangan batareyalardagi musbat plastinaning faol massasi to'q jigarrangli qo'rg'oshin qo'sh oksidi ( $PbO_2$ ) dan, manfiy plastinaning faol massasi esa och kulrangli g'ovaksimon qo'rg'oshin ( $Pb$ ) dan iborat. Batareyalarni zaryadlash vaqtida musbat va manfiy plastinalarning faol massasi elektrolitdagи sulfat kislota ( $H_2SO_4$ ) bilan o'zaro reaksiyaga kirishib, qo'rg'oshin sulfat ( $PbSO_4$ ) ga aylanadi. Batareyani zaryadsizlashda sulfat kislota parchalanadi. Kislota

qoldig'i ( $\text{2SO}_4$ ) plastinaning faol massasiga yutiladi, elektrolitda esa suv ( $\text{H}_2\text{O}$ ) qoladi.

Qo'rg'oshinli akkumulyator batareyalarda kimyoviy reaksiya quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Elektrolitdagi sulfat kislotani miqdori hamda elektrolitni zichligi zaryadsizlanishda kamayadi va zaryadlashda ko'payadi. Elektrolitni zichligi asosida qo'rg'oshin akkumulyatorni zaryadsizlanish darajasi baholanadi.

$$\Delta S_r = \frac{100(R_z - R_{25})}{R_z - R_r};$$

bu yerda:  $\Delta S_r$  – akkumulyatorni zaryadsizlanish darajasi, %;


$R_z$ ,  $R_r$  –  $25^{\circ}\text{C}$  haroratda to'la zaryadlangan ( $R_z$ ) va to'la zaryadsizlangan ( $R_r$ ) akkumulyatordagi elektrolitni zichligi,  $\text{g/sm}^3$ ;

$R_{25}$  – o'lchangan va  $25^{\circ}\text{C}$  haroratga keltirilgan elektrolitni zichligi,  $\text{g/sm}^3$ .


Manfiy va musbat plastinalar orasida joylashgan separatorlar ularni qisqa tutashuvdan saqlab qoladi. Separatorlar ham plastinalarga o'xshab g'alvirakli kislotabardoshli materialdan bir tomoni qovurg'ali qilib tayyorlanadi. Bunda mikrog'alvirli (moplast, porovinil, polietilen, miper) plastimassa ishlataladi. Separatorni qovurg'a tomoni musbat elektrodga qaragan bo'ladi (3.3-rasm).

Separator-konvertlar elektrod bloklarini bevosita monoblok tubiga o'rnatishga, batareyalar balandligini saqlab qolib, monoblok kataklarida plastinalar ustidagi elektrolit qatlam balandligini ikki martadan ko'proq oshirish va quyiladigan elektrolit hajmini ko'paytirishga imkon yaratadi. Akkumulyator batareyalar zichligini, haroratini va elektrolit sathini o'lhash jarayonida plastinalar va separatorlar qirralarini shikastlanishdan saqlab qoluvchi himoya qalqon o'rnatiladi.

Oddiy akkumulyator batareyalarda ebonitdan yoki plastmassadan yasalgan qopqoqlar alohida joylashgan monoblokdag'i uyalarni yopib turadi. Ayrim qopqoqlarni uyalar devorlari bilan tutashgan joylari bitumli mastikalar bilan zichlashtiriladi (germetiklanadi).



**3.3-rasm. Qo'rg'oshinli startyor batareyalarining separatorlari:**  
*a* – miperli; *b* – miplastli; *v* – polietilenli.



**3.4-rasm. Separator – konvert:**

*a* – separator konvertda plastinalarni joylanishi; *b* – separator-konvertini plastinalar bilan kesimi; 1 – musbat plastina; 2 – separator; 3 – separator qovurg'asi; T – separator qovurg'alarini orasidagi masofa


Bankalarni hammasiga bitta umumiyl qopqoq o'rnatilishi akkumulyatorni ishlatish jarayonida ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini osonlashtiradi.

Umumiyl qopqoq o'rnatilgan bo'lsa, bir nechta elektrolit quyiladigan teshiklarga tiqinlar blokini o'rnatish mumkin. Akkumulyator batareyalarini ayrim tuzilmalarida tiqinlar plankalar bilan bir butun qilib yasaladi.

Akkumulyatorlar har qaysi bankalarga alohida o'rnatiladigan tiqinlar ebonit, polistirol, fenolit materiallaridan yasaladi. Plastmassadan yasalgan tiqinlar massasi yengilroq va mustahkamroq bo'ladi. Tiqin va qopqoq orasidagi germetiklik rezinali shayba, bo'rtiq

yoki plastmassadan yasalgan zichlashtiradigan elementlar bilan ta'minlanadi.

Tiqinlarda ventilyatsiya teshiklaridan elektrolit chayqalmasligi uchun ichiga qo'yilgan viniplast yoki bargsimon qaytargichlar bor. Yangi plastmassali tiqinlarda ventilyatsiya teshiklari berk quyma bilan yopilgan. Bu usul bilan quruq zaryadlangan batareyalarni saqlash davrida ularni germetikligi ta'minlanadi. Akkumulyator batareyalarni ishga tushirish paytda tiqin quymalari kesib tashlanadi.



### 3.5-rasm Akkumulyator tiqinlari:

a – rezina zichlagich halqa bilan; b – konussimon bo’rtiq bilan; d – bargsimon plastmassa zichlagich element bilan; 1 – tiqin korpusi; 2 – ventilyatsiya teshigi quymasi; 3 – rezina shayba; 4 – qaytargich; 5 – konussimon bo’rtiq; 6 – zichlovchi plastmassa element; 7 – bargsimon qaytargich

Bankalarni batareyada ketma-ket ulash uchun yarimblok baretkalar yon devoriga kavsharlangan elementlararo ulagich ishlatalidi, lekin ulash tartibi shundayki, bir akkumulyatorni o’zaro birlashgan manfiy elektrodlari yarim bloki yon tomonida joylashgan musbat elektrodlarni yarim bloki bilan bevosita ulanadi.


Elementlararo ulagichlarni qopqoq ustida, qopqoq tagidagi poydevor ustidan o’rnatiladi yoki plastmassali monobloklarni poydevorini teshigidan o’tkaziladi. Qisqartirilgan elementlararo ulagichlar akkumulyator batareyalarini ichki qarshiligini pasaytirib, qo’rg’oshin sarsfini kamaytiradi.

Traktorlarda qo’llaniladigan akkumulyator batareyalarda elementlararo ulagichlar va bornlar sirtiga qo’rg’oshin yugirtirilgan misli sterjenlardan yasaladi, ularni qo’rg’oshin, surma qotishmalarga nisbatan elektr o’tkazgichligi 12 martagacha ko’proq.

Chetli akkumulyatorlar chiqarma bornlarga konussimon qutbli chiqarmalar bilan payvandlanadi. Konussimon musbat chiqarmani


asos diametri manfiy chiqarmaga nisbatan 2 mmga kam, shu orqali batareyani elektrotarmoqqa noto'g'ri qo'shish imkoniyatiga yo'l qo'yilmaydi.

*Akkumulyator batareyalarini asosiy tavsiflari.* Startyorli akkumulyator batareyalarini asosiy parametrlari elektr yurituvchi kuch (EYK), kuchlanish, quvvat sig'imi va energiya hisoblanadi.



**3.6-rasm. Akkumulyator batareyalarining elementlararo ulagichlar:**

a – tashqi qopqoq ustida; b – ichki qopqoq ostidagi to'siq ustida; c – ichki to'siqlardagi teshishlar orqali; 1 – baretka ko'prigi; 2 – monoblok to'sig'i; 3 – baretka borni



**3.7-rasm. Startyor qo'rg'oshinli akkumulyator batareyalarining konussimon chiqarmasi**

Qo'rg'oshinli akkumulyatorning EYK elektrolitdagi ionlarni konsentratsiyasiga va faol moddalarni kimyoviy xususiyatlariga bog'liq. EYK kattaligiga elektrolitni zichligi va oz darajada harorati ta'sir etadi. Elektrolitni  $1,05\dots1,30 \text{ g/sm}^3$  zichlik diapazonida,  $15^\circ\text{C}$  haroratga keltirilgan holati uchun EYKn ni elektrolitni zichligiga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi:

$$E = 0,84 + \rho$$

bu yerda: E – elektr yurituvghi kuch, v;  $\rho$  – elektrolitni zichligi, g/sm<sup>3</sup>; 0,84 – to‘g‘rilash koeffitsiyenti.

Elektrolitni zichligi pasayishi bilan EYK 0,0007 v ga ko‘tariladi. Ketma-ket ulangan akkumulyator batareyalaridagi EYK ulangan batareyalar soniga proporsional ravishda oshadi.

Akkumulyator batareyalar zaryadsizlanish paytida qisqichlardi tok kuchlanishi past va zaryadlanish paytida ichki pasayish kuchlanishi miqdori EYK ga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Doimiy zaryadsizlanish va zaryadlanish tokiga qarshilikni akkumulyator batareyalari to‘la ichki qarshiligi deyiladi. To‘la ichki qarshilik Om qarshiligidan tashqari elektrodlarni orasidagi elektrolit to‘planish tafovuti va elektrod potensiallarini o‘zgarishi tufayli paydo bo‘lgan qutblanish qarshiligidan iborat. Qutblanish qarshiligi tok kuchi ko‘payishi bilan kamayadi va harorat pasayishi bilan ko‘tariladi. Akkumulyator batareyalari tok kuchi motorni ishga tushirish paytida eng ko‘p sarflanadi. Shu tufayli akkumulyator batareyalarni startyorli zaryadsizlanish tavsifini maksimal zaryadsizlanish tok kuchi orqali baholash qulay, bunda batareya zaryadsizlanish tok kuchini tashqi harorat 18...29°C bo‘lsa-da 30 soniya davomida saqlashi va bankalarda tok kuchlanishi 1,2 v dan pasaymasligi kerak.

Akkumulyator batareyani sig‘im bo‘yicha tok uzatishi elektroliz paytida suvni yo‘qotish va o‘zaro zaryadlanishga bog‘liq. Energiya bo‘yicha tok uzatish qobiliyatি zaryadlanish va zaryadsizlanish paytida issiqlik almashuvlarga sarf bo‘lgan yo‘qotishlarni inobatga oladi. Zaryadsizlanish paytida normal sharoit sinovlarda sig‘im bo‘yicha tok uzatilishi 84...86% ga, energiya tok uzatishi bo‘yicha 75...85 % ga teng. O‘ta sovuq paytlarda (- 40°C va undan past) normal haroratga (+25°C) nisbatan startyorli zaryadsizlanish sig‘imi 25 % dan energiyasi 18 % dan pastroq bo‘ladi. Bundan past haroratda akkumulyatorlarni yuklanishga (iste‘molchilarga) beradigan energiyasi tezda nolga tushib ketadi. Shu sababli past haroratlarda motorni ishonchli ishga tushirish uchun qo‘pol, ko‘p joyni egallaydigan yuqori sig‘imli akkumulyator batareyalar majburan ishlataladi.

### **3.3. Elektr ta'minoti tizimlari**

Traktorning elektr ta'minoti tizimi zaruriy sifatli energiya ishlab chiqarib uni iste'molchilarga uzatadi. Elektr ta'minoti tizimiga elektr energiyasi manbai (generator va akkumulyator batareyasi), rostlovchi qurilmalar, nazorat qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya rejimlaridan himoyalash elementlari kiradi.


Elektr ta'minot tizimidagi elektr energiyasining asosiy manbai o'zgaruvchan tok generatori bo'lib, u traktor motoridan tasmali uzatma orqali aylanma harakatga keltiriladi. Generatorning maxsus qismi – yarim o'tkazgichli diodlardan yasalgan to'g'rilaqich (ventil) – o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantirib beradi. Bunday generatorlar ventilli deb ataladi. Traktorlar elektromagnit qo'zg'aluvchili ventilli generatorlar bilan jihozlanadi. Bular asosan qo'zg'atuvchi chulg'ami harakatsiz bo'lgan induktor turdag'i uch va besh fazali cho'tkasiz generatorlardir. Shuningdek qo'zg'atuvchi chulg'ami aylanadigan uch fazali ventilli sinxron generatorlar ham qo'llanadi. Ularning chulg'ami cho'tkalar va kontakt halqlari orqali quvvat oladi. Hozirgi vaqtida qator yangi traktorlarda, rotorida ikkita ventilator o'rnatilgan va cho'tkali qismi yopiq bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorlarining yangi sinfi paydo bo'lgan. Generator rotorining aylanish chastotasi va tokli yuklamaning o'zgarishidagi elektr ta'minot tizimining belgilangan kuchlanishini kuchlanish rostlagichi ushlab turadi.

O'zgaruvchan tok generatorining to'g'rilaqichli va kuchlanish rostlagichli to'plami generator uskunasi deb ataladi. Zamonaviy generator uskunalarining o'ziga xos xususiyatlari o'zgaruvchan tok generatori, to'g'rilaqich va kuchlanishning yarimo'tkazgichli integral rostlagichini bitta konstruksiyada yig'ilishidan iborat. Bu holda generator uskunani traktorga o'rnatish va unga texnik xizmat ko'rsatish osonlashadi, ulash simlari kamayadi, simlardagi qisqa tutashish yoki o'rnatishdagi xatolar tufayli avariya holatlari yuzaga kelish ehtimoli pasayadi.

Generator uskunalarining asosiy parametrlari generatorning nominal kuchlanishi va nominal quvvati, rostlanuvchi kuchlanishning darajasi va diapazoni, elektr energiya sifati, aylanish chastotasi diapazoni va generator yuritmasining uzatishlar soni hisoblanadi.

Generator hatto, salt ishlash tartibida motor tirsakli valining minimal aylanish chastotasiga mos keluvchi, rotor valining minimal aylanish chastotasida ham, elektr energiya berishni ta'minlashi kerak. Bunga generator yuritmasidagi tasmalari uzatmaning uzatishlar sonini oshirish hisobiga erishish mumkin. Biroq uzatishlar soni uchdan ortiq bo'lganda, tasmalarning xizmat muddati kamayadi hamda aylanayotgan qismlarga, generator detallari va podshipniklariga tushayotgan mexanik yuklamalar ortadi.

**Traktor induktorli generatori** (3.8-rasm) bir tomonlama elektromagnit qo'zg'atuvchili, kontaktsiz, bir xil qutbli o'zgaruvchan tok elektr mashinasidir. Rotoring po'lat yulduzchasi 4, qo'zg'almas vtulka 2 ichidan o'tuvchi val 3 bilan birga aylanadi. Vtulkaga qo'zg'atish chulg'ami 1, stator tishlariga 5 esa – chulg'am 7 o'rnatilgan. O'zgarmas tok qo'zg'atish chulg'ami orqali o'tganda generatordring magnit zanjirida (kuch chiziqlari 3.8-rasmida shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan) magnit oqimi yuzaga keladi. Oqim vtulka 2 va val 3 orasidagi havo tirqishi, rotor yulduzchasi, rotor va stator orasidagi ishchi havo tirqishi, stator paketi 5, qopqoq 6 va qalin devorli shayba yoki vtulka flanetsi 2 orqali tutashadi.



**3.8-rasm. Induktorli generatorning konstruktiv sxemasi:**

1 – uyg'onish chulg'ami; 2 – induktordring magnit tizimi (flanes bilan vtulka);  
3 – val; 4 – rotor; 5 – stator; 6 – qopqoqlar; 7 – stator chulg'ami; 8 – podshipnik

Rotor yulduzchasingining barcha tishlari bir xil qutblangan. Magnit oqimining o'zgarishi stator tishlari ostidagi havo tirqishining magnit o'tkazuvchanligiga bog'liq. Rotor aylanganda yulduzchasi tishlarining stator tishlariga nisbatan holati o'zgaradi. Stator tishidagi oqim rotor va stator tishlarining o'qlari mos kelganda maksimal qiymatga  $F_{\text{maks}}$  ga erishadi va 180 elektr gradusiga burilib, stator tishlari rotor yulduzchasi botiqlarining o'qlariga mos kelganda  $F_{\text{min}}$  gacha

kamayadi. Binobarin, stator tishlaridagi magnit oqim pulsatsiyalanuvchidir, ya'ni yo'nalishi o'zgarmagan holda faqat qiymati o'zgaradi.

Magnit oqim o'zgaruvchan va o'zgarmas tashkil etuvchilarga ega. O'zgarmas tashkil etuvchi g'altaklarda elektr yurituvchi kuchni hosil qilishda ishtirok etmaydi, biroq magnit o'tkazgichni yuklantirib, generator materiallarini qo'llashni yomonlashtiradi. Stator g'altaklarida EYKni faqat magnit oqimning o'zgaruvchan tashkil etuvchisi hosil qiladi. Induksiyalanuvchi EYKning qiymati magnit oqimining kattaligiga, stator chulg'aming o'ramlari soniga va rotorning aylanish chastotasi  $n$  ga bog'liq.

O'ramlar soni qanchali ko'p bo'lsa, aylanish chastotasi shunchalik kam bo'lganda generatorning talab etilayotgan kuchlanishini olish mumkin.

O'zgaruvchan EYKning chastotasi  $f$  rotorning aylanish chastotasi  $n$  va rotor yulduzchasi tishlari soni  $Z_p$  ga proporsional:

$$f = Z_p n / 60.$$

Odatda rotor yulduzchasi oltita tishga ega va o'zgaruvchan EYK chastotasi:


$$f = n / 10$$

Har bir fazasining o'rami parallel, ketma-ket yoki aralash ulangan, bir nechta g'altakka ega bo'lishi mumkin. Stator chulg'ami fazalarini ko'p qirrali yulduz yoki ko'pburchak shaklida ulanadi.

Uch fazalari generatorda uch guruh g'altaklar bo'lib, ular stator tishlarida shunday joylashtirilganki, ularda hosil bo'ladigan EYK va kuchlanishlar  $U_A$ ,  $U_B$  va  $U_S$   $120^\circ$  ga siljigan (3.9-rasm). Boshlanishi va oxiri shartli ravishda  $A$ ,  $B$ ,  $S$  va  $a, b, s$  harflari bilan belgilangan faza g'altaklari statorning qo'shni tishlariga joylashgan.

Fazalar yulduz shaklida ulanganda barcha fazalarning uchlari, generatorda izolyatsiyalanadigan umumiy nol nuqtaga ulanadi yoki alohida nol sim orqali tashqariga chiqariladi. Fazalar boshi to'g'rilagichga ulanadi. Fazalar uchburchak shaklida ulanganda (3.8-rasm) birinchi fazanining oxiri  $a$  uchi ikkinchi fazanining boshi  $B$  bilan, ikkinchi fazanining oxiri  $b$  – uchinchi fazanining boshi  $S$  bilan. Uchinchi fazanining oxiri  $s$  – birinchi fazanining boshi  $A$  bilan ulanadi. Fazalar ulanadigan nuqtalarga tarmoq simlar ulangan bo'lib, ular to'g'rilagichga kuchlanish olib boradi.

Fazalarni yulduz va uchburchak shaklda ulash tarmoq  $U_f$  va fazali  $U_f$  kuchlanishlar, tarmoq  $I_f$  va fazali  $I_f$  toklarning nisbatlari bilan farq qiladi. Fazalarni yulduz shaklida ulashda  $I_f = I_f$  va  $U_f = \sqrt{3} U_f$ , fazalarni uchburchak shaklida ulashda esa  $I_f = I_f$  va  $U_f = \sqrt{3} I_f$ . Keltirilgan nisbatlar amal qilayotgan sinusoidal o'zgaruvchan kuchlanish va toklarning qiymatlari uchun o'rinni.



3.9-rasm. Uch fazali kuchlanishning vaqt bo'yicha o'zgarishi


Induktor generatorlar yopiq konstruksiyaga ega. Sovutuvchi havo generatorni faqat tashqaridan sovutadi, ichki qismlariga esa yetib bormaydi. Bu chang va qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish mahsullarining stator va qo'zg'atish chulg'amlari, to'g'rilaqich va generator ichiga o'rnatilgan kuchlanishning integral rostlagichi joylashgan yerga kirishidan saqlaydi.

Induktor generatorning stator paketi 7 (3.10-rasm) parchinmixlar va payvandlash bilan biriktirilgan po'lat plastinalardan yig'ilgan. Stator to'qqizta tishdan iborat bo'lib, ularda stator chulg'amining g'altaklari joylashgan. Statorning fazalar chulg'ami *FCH* uchburchak shaklida birlashtirilgan. Fazadagi g'altaklar ketma-ket ulangan. Fazalar uchi egiluvchan montaj sim yordamida to'g'rilaqich blokka chiqarilgan. Statorning ikki tomonidan generator qopqog'i uchun o'nashish joyi bo'lib xizmat qiluvchi yo'niqlar chiqarilgan.

Oldindagi qopqoq 10 stakan shakliga ega. Qopqoqda induktor joylashgan bo'lib, u vtulka, flanets va qo'zg'atish chulg'ami g'altagini *QCH* o'z ichiga olgan. Qo'zg'atish chulg'ami induktor vtulkasiga kiydirilgan plastmassa karkasga o'ralgan.

Qo'zg'atish chulg'amining bir uchi egiluvchan montaj sim bilan oraliq klemma orqali kuchlanishning integral rostlagichining *SH*

klemmasiga, ikkinchi uchi esa generatordaning *D* klemmasiga chiqarilgan.



**3.10-rasm. Induktorli generator:**

- a* – konstruksiya; *b* – elektr sxemasi; *d* – stator chulg’ami sxemasi;
- 1 – mahkamlash kafti; 2 – kuchlanishni rostlash bloki; 3 – B klemma;
- 4 – D klemma; 5 – kuchlanishni integral rostlash blokining himoya g’ilofi;
- 6 – orqa qopqoq; 7 – stator paketi; 8 – rotor paketi; 9 – qo’zg’atish chulg’ami;
- 10 – oldingi qopqoq; 11 – to’g’rilash bloki; 12 – ventilayator bilan shkiv;
- 13 – stopor shaybasi; 14 – gayka; 15 – shaklli sterjen shpilkasi; 16 – kaftni mahkamlash bolti


Rotor generatordaning butun xizmat qilish davri mobaynida qo’shimcha moylashni yoki moyni almashirishni talab qilmaydigan zoldirlil podshipnikda aylanadi. Zoldirlil podshipniklar oldingi 10 va orqa 6 qopqoqlarda joylashgan. Qopqoq 10, vtulka va induktor flanetsi generator magnit o’tkazishining bir qismidir, shu bois magnit yumshoq po’latdan tayyorlanadi. Qopqoq 6 alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan. Valning oldingi uchida to’xtatgichli shayba yordamida gayka 14 bilan ventilayator shkivi 12 qotirilgan.

Quvvatli to’g’rilovchi blok qopqoq 10 da joylashtirilgan. Blokning issiqlik tarqatuvchisiga to’g’ri qutbli uchta diod presslangan. To’g’rilagich blokning korpusi issiqlik tarqatuvchi alyuminiy qotishmasidan quyilgan. Issiqlik tarqatuvchi korpus slyudadan

tayyorlangan yupqa elektroizolyatsiyalovchi qistirma bilan izolyatsiyalangan va korpusga uchta izolyatsiyalangan vintlar bilan qotirilgan. Yaxshiroq sovutilishi uchun to'g'rilaqichning korpusi qovurg'alarga ega. Quvvatli to'g'rilaqich uch fazali ko'priklar to'g'rilaq sxemasi bo'yicha yig'ilgan. Generatorning musbat chiqarmasi  $3$  ( $B$  klemmasi) to'g'rilaqichning issiqlik tarqatuvchisi bilan ulangan.

Orqa qopqoqda  $6$  chiqaruvchi kolodka o'rnatilgan bo'lib, unga stator chulg'amining fazalarini va to'g'riloqchi blokning chiqarmalarini ulash uchun uchta bolt va qo'zg'atish chulg'ami qo'shimcha to'g'rilaqichning diodlari joylashtirilgan. To'g'rilaqich bloki  $QCH$  bir vaqtning o'zida kuchlanishning integral rostlagichi (regulyatori) elementlarini qotirish uchun ham xizmat qiladi. Qo'shimcha to'g'rilaqich issiqlik tarqatuvchiga presslangan uchta dioddan iborat.

Kuchlanishning integral rostlagichi alyuminiy plastinkasiga – issiqlik tarqatuvchiga joylashtirilgan. Plastina va to'g'rilaqich blokining  $QCH$  plastmassa korpusi o'rtasidagi bo'shlidiqda ta'minlovchi (podpitka) rezistorlar, mavsumga qarab sozlashning almashlab ulagichi (qish  $Q$  – yoz  $Y$ ) va filtr kondensatori joylashtirilgan. Kuchlanish rostlagichlari joylashtirilgan blok qopqoq bilan shunday biriktirilganki, uning yon devoridagi tirqishlaridan  $B$  va  $D$  chiqarmalarining boltlari va mavsum bo'yicha sozlashning almashlab ulagichining dastagi chiqib turadi. Aylanish boshlanishida akkumulyator batareyasi uzilgan holda, qo'zg'atish chulg'ami kuchlanish to'g'rilaqichiga ulangan sxemalarda, shuningdek, qo'shimcha to'g'rilaqichli  $QCH$  sxemalarda, generator o'z-o'zini qo'zg'atish asosida ishlaydi. O'zini-o'zi qo'zg'atish jarayoni, stator chulg'amlarida EYKni hosil qiluvchi, qoldiq magnit oqimi tufayli amalga oshishi mumikn. Bu EYKdan hosil bo'lgan to'g'rilaqangan kuchlanish qo'zg'atish chulg'amiga uzatilib, magnit oqimini va stator chulg'amidagi EYKni oshiradi. EYKning va to'g'rilaqangan kuchlanishning o'zini-o'zi qo'zg'atishdagi ortishi ko'chkisimon tarzda ro'y beradi. Biroq induktor generatorlari magnit tizimida ikkita havo bo'shlig'inining mavjudligi tufayli o'z-o'zini qo'zg'atish qiyinlashadi.




**3.11-rasm. Magnetli-elektromagnit qo‘zg‘atishli generator:**

- 1 - orqa qopqoq; 2 – rotor vtulkasi; 3 – kuchlanish rostlagichining qopqog‘i;
- 4 va 13 – zoldirli podshipniklar; 5 – to‘g‘rilovchi blok; 6 – tortish bolti;
- 7 – rotor; 8 – stator; 9 – qo‘zg‘atish g‘altagi; 10 – ventilyator;
- 11 – podshipnik qopqog‘i; 12 – shkiv; 14 – oldingi qopqoq (yuritma tarafidan)

Magnit-elektromagnit qo‘zg‘atuvchili generatorlarda ishonchli o‘z-o‘zini qo‘zg‘atishni ta‘minlash uchun, barqaror o‘z-o‘zini qo‘zg‘atishni ta‘minlovchi o‘zgarmas magnitlar qo‘yiladi. Bundan tashqari o‘zgarmas magnitlarning magnit oqimi  $F_{mn}$  ning nolgacha kamayishiga va xatto magnit oqimi yo‘nalishining o‘zgarishiga ko‘maklashadi, bu esa materiallarni qo‘llashni yaxshilaydi va induktor mashinani xarakteristikalari bo‘yicha muqobillariga (tumshuqsimon rotorli generatorlarga) yaqinlashtiradi.

Geksaferit magnitlar, rotor paketlari 7 tishlari orasida joylashgan, oltita tumshuqsimon do‘ngliklari bo‘lgan maxsus alyuminiy karkasda quyilgan.

**Tumshuqsimon rotorli ventil generatorlari** (3.12-rasm) ichiga o‘rnatilgan yarimo‘tkazgichli to‘g‘rilagich sinxron elektr mashinasidir. Generatorning asosiy qismlari va detallari: stator 4; tumshuqsimon qutbli 3, vtulkali 1 va mujassamlashgan aylanuvchi qo‘zg‘atuvchi chulg‘amli 2 rotor; yuritma va kontaktli halqalar tomonidagi qopqoqlar; kontakt halqalar 7; cho‘tkalar 6; shkiv; ventilyator va to‘g‘rilovchi blok.



**3.12-rasm. Tumshuqsimon rotorli sinxron generatorining konstruktiv sxemasi:**

1 – vtulka; 2 – qo‘zg‘atish chulg‘ami; 3 – tumshuqsimon qutblar; 4 – stator; 5 – stator chulg‘ami; 6 – cho‘tka; 7 – tutashuv halqalari

Stator paketi elektrotexnik po‘latdan qilingan plastinalardan yig‘ilgan. Stator pazlarida uch fazali (yoki ko‘p sonli fazali) chulg‘amning g‘altaklari joylashtirilgan. Tumshuqsimon rotorli ventil generatorlari uchun qutblar va fazalar soni

$$q = Z_f / (2pm)$$


$Z_f$  – stator pazlarining soni;  $2p$  – generator qutblarining soni;  $m$  – generator fazalarining soni.

Aylanuvchi qo‘zg‘atuvchi chulg‘amga 2 tok cho‘tkalar 6 va kontakt halqlar 7 orqali keladi. Rotor vali qopqoqlarga o‘rnatalilgan, ikkita sharikopodshipniklarda aylanadi. Qopqoqlar statorning yon tomonida joylashgan bo‘lib, vintlar bilan qotirilgan.

Generator ishlaganda statorning har bir tishi yonidan tumshuqsimon rotoring galma-galdan shimoliy va janubiy qutblari 3 o‘tadi, shuning uchun ishchi magnit oqimi ham qiyamat jihatdan, ham yo‘nalish jihatidan o‘zgaradi, faza chulg‘amlari g‘altaklarida esa o‘zgaruvchan EYK indutsiyalanadi. Ma’lum shakldagi tumshuqsimon qutblarning qo‘llanishi EYKning shakli jihatidan sinusoidga yaqin bo‘lgan o‘zgarishini ta’minlaydi.

**Kompakt (ixcham) generator** – yangi avlod generatori (3.13-rasm) bo‘lib, rotoring 6 peshona qismiga ikkita ventilyator qotirilgan va generatorni sovutish uchun havo kirib turadigan teshik qopqog‘i 4 va 8, cho‘tkani ushlab turuvchi moslamaga 1 integral kuchlanish rostlagichi o‘rnatalilgan bo‘lib, to‘g‘rilovchi bloklari bor. Kontakt

halqlar va cho'tkalar platsmassa qopqoq 3 bilan yopilgan bo'lib, u ularni chang, ifloslanish va namdan saqlaydi.



### 3.13-rasm. Ixcham generator konstruksiyasi:

1 – cho'tka tutgich; 2 – YA-212 integral rostlagich; 3 – plastmassa qopqoq; 4 – tutashuv halqlari tomonidan generator qopqog'i; 5 – ventilyatorlar; 6 – rotor; 7 – yig'ilgan stator; 8 – generatorning old qopqog'i; 9 – shkiv; 10 – po'lat tormoz halqa; 11 – plastmassa tormoz halqa

Podshipniklarning tashqi halqlari kontakt halqlari va shkiv 9 tomonidan podshipniklarning resursini oshiruvchi, plastmassa va po'latli tormozlovchi halqlari 11 va 10 bilan siqilgan. Bu generator uchta qoshimcha to'g'rilovchi diodga va stabilitron effekt quvvatli diodlardan yasalgan to'g'rilagichga ega bo'lib, bu bort tarmog'inining ishlashini yaxshilaydi.

**To'g'rilagichlar.** Traktor generatorlarining o'zgaruvchan toki kremniyli yarimo'tkazgichli diodlar yordamida to'g'rilanadi. Diodlar ikkita klemmaga ega bo'lib, anodga musbat, katodga - manfiy potensial berilganda, tokni faqat anod klemmasidan katod klemmasiga o'tkazadi. Qarama-qarshi yo'nalishda diodlar, agar teskari kuchlanish yo'l qo'yilgan qiymatdan oshib ketmasa tokni o'tkazmaydi.

Generator to'g'rilagichlarida to'g'ri va teskari qutbli diodlar o'rnatiladi. To'g'ri qutbli diodlarda korpusga katod ulangan, teskari qutbli dioddha esa - anod. Generator fazalari soniga qarab uch va besh fazali to'g'rilagichlar qo'llanadi.

To'g'rilangan kuchlanishning shakliga qarab bitta va ikkita yarimdavrli to'g'rilagichlar ajratiladi. Bir fazали o'zgaruvchi tok

manbai  $G$  ning tokini bitta yarimdavrli to‘g‘rilashni,  $R$  yuklama bilan ketma-ket ulanadigan bitta diod  $VD$  ta’minlaydi (3.14-rasm, a).

Bir fazali tokni ikkita yarimdavrli to‘g‘rilash uchun to‘rtta  $VD1$ - $VD4$  dioddan ko‘prikli to‘g‘rilagich yig‘iladi (3.14-rasm, b). O‘zgaruvchi kuchlanishning musbat yarim to‘lqini  $VD1$  va  $VD4$  ventillarni ochadi. Ikkinci yarimdavrda  $VD2$  va  $VD3$  ventillar ochiq. Ko‘prikli to‘g‘rilagichli generatorning butun ishlashi mobaynida  $R$  yuklamaga bir ishorali  $U_0$  kuchlanish beriladi.


Agar generatorning har bir fazasiga bittadan  $VD1$ ,  $VD2$  va  $VD3$  diod ulangan bo‘lsa (3.14-rasm, d), u holda uch fazali tokning bitta yarimdavrli to‘g‘rilagichini hosil qilish mumkin. To‘g‘rilagichning har bir diodi tokni faqat, kuchlanish unga to‘g‘ri yo‘nalishda berganda,  $1/3$  davr mobaynida o‘tkazadi.

Uch fazali tokning ikkita yarimdavrli to‘g‘rilagichi uch juft diodlarga  $VD1$ - $VD6$  ega (3.14-rasm, e). Biroq to‘g‘rilagichning yelkasini to‘g‘ri qutbli  $VD1$ - $VD3$  diodlar hosil qilib, katodlari bilan ventil generatorining musbat klemmalariga ulangan. To‘g‘rilagichning ikkinchi yelkasida teskari qutbli  $VD4$ - $VD6$  diodlar o‘rnatalgan. Ularning diodlari “massaga” ulangan.

O‘zgaruvchan tokni to‘g‘rilash jarayonida to‘g‘ri va teskari qutbli diodlar o‘zaro juft bo‘lib birlashtirilib, generatorning bitta fazasiga ulanadi. O‘tkazish yo‘nalishi bo‘yicha anodi eng yuqori potensialga ega bo‘lgan  $VD1$ ,  $VD2$ ,  $VD3$  diodlardan bittasi,  $VD4$ - $VD6$  diodlar guruhida esa – potensiali eng past bo‘lgan diod ishlaydi.  $t_1$  vaqtida,  $A$  fazadagi kuchlanish musbat va maksimal bo‘lib,  $B$  va  $S$  fazalarda esa kuchlanish manfiy va teng bo‘lganda,  $R$  yuklamaga tok ochiq bo‘lgan  $VD1$  diod va ikkita  $VD5$  va  $VD6$  diodlar orqali keladi.  $t_2$  vaqtida,  $S$  faza kuchlanishi nolga teng,  $B$  fazada esa – manfiy va  $A$  fazada musbat bo‘lganda, tokni  $VD2$  va  $VD4$  diodlar o‘tkazadi. Qolgan diodlar tokni o‘tkazmaydi.

Ikki yarimdavrli uch fazali to‘g‘rilagich bilan to‘g‘rilangan  $U_d$  kuchlanishning pulsatsiyalanish chastotasi o‘zgaruvchan tok  $f_n=6f=0,1Z_{pn}$  chastotasidan 6 marta katta. To‘g‘rilangan kuchlanishning minimal, maksimal va o‘rtacha qiymatlari mos ravishda  $1,5U_m$ ,  $1,73U_m$  va  $1,65U_m$  ga teng ( $U_m$  - fazalar kuchlanishining amplituda qiymatlari). To‘g‘rilangan kuchlanishning pulsatsiyalanishi  $U_d=0,23$   $U_m=0,139$   $U_d$ , bu esa to‘g‘rilangan

kuchlanishning o'rtacha qiymati 14 V bo'lganda 1,95 V ni tashkil etadi.




**3.14-rasm. To'g'rilagichlar:**

- a* – bitta yarimdavrli bir fazali tok; *b* – ikki yarimdavrli bir fazali tok;
- d* – bitta yarimdavrli uch fazali tok; *e* – ikki yarimdavrli uch fazali tok

Yuklama uzib qo'yilganda va rotorming aylanish chastotasi o'zgarmas bo'lgandagi to'g'rilangan kuchlanish  $U_d$  ning (3.15-rasm, *a*) qo'zg'atuvchi tok kuchi  $I_b$  ga bog'liqligi salt ishlash tavsifi deb ataladi. Salt ishlash rejimida to'g'rilangan kuchlanish  $U_d$  EYK  $E_d$  ga teng.

*I* tavsifga to'yinmagan magnit tizimli generatorlar ega. Stator va rotor tishlari to'yinganda magnit tok tashkil etuvchisining amplitudasi kamayadi, bu esa qo'zg'atuvchi tok katta bo'lgan hollarda EYK  $E_d$  ning kamayishiga olib keladi (2 tavsif).



**3.15-rasm. Induktorli traktor generatorini tavsisi:**  
*a* – salt yurish; *b* – tok-tezlik

Tok tezligi tavsisi  $I_d=f(n)$  (3.15-rasm, b)  $U_d=const$  va  $I_b=const$  bo'lganda olinadi. Tok tezligi tavsisi uchun nazorat nuqtalari bo'lib, generatorning boshlang'ich aylanish chastotasi  $n_o$  tok kuchi qiyatlari hisoblanib, bunda salt yurish rejimidagi  $U_d$  kuchlanish nominal qiymatga erishadi, aylanish chastotalari  $n_p$  va  $n_{max}$  bo'lganda, mos ravishda yuklamaning hisoblangan tok kuchi  $I_{dp}$  va maksimal tok kuchi  $I_{dmax}$  bo'ladi. Tokning hisoblangan kuchi  $I_{dp}$  va aylanish chastotasi  $n_p$  tok tezligi tavsisi  $I$  va koordinatalar boshidan o'tkazilgan to'g'ri chiziq 2 ning uchrashish nuqtasida aniqlanadi.


Ventil generatorlarining tok kuchini o'zi cheklash xususiyati bor. O'zini-o'zi cheklash aylanish chastotasi  $n_o$  oshirilgan holda eng kam namoyon bo'ladi.  $n_o$ ,  $n_p$  ning kamayishi va  $I_{dmax}$  ortishi bilan traktorda musbat zaryad balansini ta'minlash sharoiti yaxshilanadi. Ammo bunda generatorning o'lchamlari va massasi kattalashadi. Tokni o'zini-o'zi cheklash xususiyati bo'lganligi tufayli, ventil generatorlari elektr ta'minot tizimlarida tok cheklagichlar qo'llanmaydi. Shuningdek qaytish toki relelari ham kerakmas, chunki yarimo'tkazgichli to'g'rilikagichlar batareya akkumulyatori tokini stator chulg'amiga o'tkazmaydi.

**Kuchlanish rostlagichlari.** Ventil generatorining kuchlanishi  $U$  qo'zg'atish tok kuchini o'zgartirish yo'li bilan rostlanadi. Qo'zg'atish chulg'ami quvvatni kuchlanish rostlagichi orqali ikki yarimdavrli to'g'rilikagichdan oladi yoki qo'shimcha bitta yarimdavrli to'g'rilikagicha ulanadi.

Generator rotorining aylanish chastotasi  $n$  oshirilganda qo'zg'atish tok kuchi  $I_b$  kamayishi (3.16-rasm, a), yuklama  $I$  ning tok kuchi oshirilganda esa ortishi kerak (3.16-rasm, b). Kuchlanishni rotor aylanish chastotasining  $n_o$  dan  $n_{max}$  gacha diapazonida doimiy ushlab turish kerak, bunda qo'zg'atish tok kuchi  $I_{b,max}$  dan  $I_{b,min}$  gacha o'zgaradi. Traktor generatorlari uchun aylanish chastota bo'yicha rostlashning karraligi  $K_n=n_{max}/n_o$  3...4 ni, qo'zg'atish tok kuchini rostlash bo'yicha karralik esa  $K_I=I_{b,max}/I_{b,min}$ .

Traktorlarda diskret kuchlanishli generatorlar qo'llanadi. Generator kuchlanishi berilgan darajadan ortishi bilan, kuchlanish rostlagichi qo'zg'atish chulg'ami elektrta'minoti zanjirini uzadi. Natijada qo'zg'atish tok kuchi va generator kuchlanishi kamaya

boshlaydi. Kuchlanishning qandaydir pastki darajasida rostlagich qo'zg'atish chulg'ami elektrta'minoti zanjirini yana ulaydi va generator kuchlanishi orta boshlaydi. O'zgartirib ulash jarayoni qaytarilib turadi. Kuchlanishni rostlash chastotasi, nazorat-o'lchov asboblari strelkalar hamda yoritish asboblari va yorug'lik signalizatsiyasi lampalari ko'z uchun sezilarli bo'lgan tebranishlarni keltirib chiqarmasligi uchun 25...30 Gs dan ortiq bo'lishi kerak. Qo'zg'atish tok kuchi va generator kuchlanishining sezilarli tebranishida ularning o'rtacha qiymatlari  $I_{bsr}$  va  $U_n$  berilgan aylanish chastotasi va yuklama toklari uchun o'zgarmas bo'lib qoladi.




**3.16-rasm. Generator kuchlanishini qo'zg'atish tok kuchiga bog'liqligi:**  
a – rotorning aylanish chastotasidan; b – yuklanish tok kuchidan

Generator rotori aylanishining chastotasi ortishi bilan qo'zg'atish chulg'ami elektr zanjirini ulashning nisbiy vaqtini kamayadi, qo'zg'atish chulg'amini elektrta'minot zanjiridan uzish vaqtini esa ortadi, shu bois kuchlanish muvozanatlashadigan qo'zg'atish tok kuchi  $I_{bsr}$  ning o'rtacha qiymati kichikroq bo'ladi. Generator yuklamasi tok kuchining ortishi bilan qo'zg'atish chulg'ami elektrta'minot zanjirining uzilgan holdagi nisbiy vaqtini kamayadi. Elektromagnit rostlagichlarda qo'zg'atish chulg'amlarini ulash va uzish, odatda qo'zg'atish chulg'ami bilan ketma-ket ulangan chiqish tranzistori orqali amalga oshiriladi.

Kuchlanishning integral rostlagichi sxemasi 3.17-rasmida keltirilgan. Generator kuchlanishini o'lchagich stabilitron  $VD1$  va kuchlanishga kiruvchi taqsimlagich  $R2$ ,  $R3$  va  $R4$  dan iborat. O'zgaruvchan rezistor  $R4$  kuchlanishni mavsumga qarab rostlashda xizmat qiladi (qish  $Q$  va yoz  $Y$ ). Rostlovchi kaskad  $VT1$  tranzistor orqali boshqariladigan tarkibiy tranzistor  $VT2-VT3$  dan va baza rezistori  $R6$  ga ega. Tarkibiy tranzistor bu -  $VT2$  tranzistordan

yasalgan qo'shimcha kuchaytiruvchi kaskadli qudratli  $VT3$  tranzistordir. Tarkibiy tranzistorning umumiy kuchaytirish koeffitsiyenti taxminan ikkala  $VT2$  va  $VT3$  tranzistorning kuchaytirish koeffitsiyentlarining ko'paytmasiga teng bo'lib, bu chiqish kaskadining baza zanjirida qarshiligi katta bo'lgan kichik quvvatli  $R6$  rezistoriga ega bo'lish imkonini beradi.



**3.17-rasm. Integral kuchlanish rostlagichi:**

$R1-R8$  – rezistorlar;  $S1-S3$  – kondensatorlar;  $ZD1$  – tabilitron;  $ZD2$  – diod;  
 $VT1-VT3$  – tranzistorlar;  $LG$  – qo'zg'atish chulg'ami;  $G$  – generator;  
 $AB$  – akkumulyator batareyasi;  $S1$  – “qish-yoz” qayta ulagichi;  $S2$  – massani o'chirgichi;  $B$ ,  $D$ ,  $S$ ,  $SH$  – generator qurilmasini chiqishlari

Sxemaning almashlab ularnish aniqligini oshirish uchun rostlagichning kirish va chiqishi orasiga teskari moslanuvchan bog'lanish  $R7-C2$  zanjiri ulangan. Kondensator  $C3$  filtr hisoblanadi. U tranzistorlarning “dirillash” (generatsiya) rejimida ishlashini istisno qiladi. Generatorning  $B$  klemmasi bilan qo'zg'atish chulg'ami orasiga quvvatlash rezistori  $R8$  ulangan bo'lib, u generatorning o'z-o'zini qo'zg'atishini yaxshilashga yordam beradi. Kondensator  $C1$ , rostlash xatosini kamaytirish maqsadida rostlagichning kirish signalini filtrlashni ta'minlaydi (generatorning to'g'rilanayotgan kuchlanishi pulsatsiyasini tekislaydi).

Generator  $G$  ning qo'zg'atish chulg'ami  $LG$  ga parallel ravishda so'ndiruvchi  $ZD2$  diod ulangan bo'lib, kuchlanish rostlagichining chiqish tranzistori yopilganida qo'zg'atish chulg'ami o'zini-o'zi induksiyalash EYK u orqali qisqa tutashadi. Rezistor  $R1$  mavsumiy rostlagichning o'zgartirib ulagichi  $S1$  bilan birga traktordan qish mavsumida foydalanish vaqtida rostlanayotgan kuchlanish darajasini

0,8...1,2 V gacha oshirish imkonini beradi. Almashlab ulagich  $S1$  uzilgan holatda kuchlanish darajasi “yozgi” qiymatga (13,1...14V) mos keladi. Almashlab ulagich  $S1$  ulanganda, kuchlanishning kiruvchi taqsimlagichining pastki yelkasiga parallel ravishda rezistor  $R1$  ulanadi, bu rostlanayotgan kuchlanish darajasini “qishki” qiymatgacha (14...15,3V) oshirilishiga olib keladi.

Rostlanayotgan kuchlanishning berilgan darajasiga erishilmaguncha, stabilitor  $VD1$  yopiq, shunga mos ravishda boshqaruvchi tranzistor  $VT1$  ham yopiq bo‘ladi. Chiquvchi kaskad  $VT2-VT3$ , generatorning  $B$  klemmasi-rezistor  $R6$ -tranzistorlar  $VT2-VT3$  ning baza-emitter o‘tishlari – generatorning minusi (“massasi”) zanjiri orqali o‘tadigan baza tok bilan ochiq. Ochiq bo‘lgan chiquvchi tranzistor orqali tok, qo‘s himcha to‘g‘rilagichdan qo‘zg‘atish chulg‘amiga o‘tadi.

Generatorning kuchlanishi rostlanayotgan qiymatga yetganida, kuchlanish taqsimlagichida tok kuchi ortadi va rezistor  $R4$  da kuchlanishning pasayishi stabilitor  $VD1$  ning buzilish (proboy) kuchlanishiga teng bo‘lib qoladi. Ochiq stabilitor tarkibiy tranzistor orqali ochilib  $VT2-VT3$  kiruvchi baza zanjiriga shuntlovchi tranzistor  $VT1$  ning baza toki o‘tadi. Tarkibiy tranzistor  $VT2-VT3$  yopilib, qo‘zg‘atish chulg‘amini quvvatlovchi zanjirini uzadi. Generator kuchlanishi pasayadi, bu esa rezistor  $R4$  da kuchlanishning pasayishiga, stabilitor  $VD1$ ning, tranzistor  $VT1$ ning yopilishiga va tarkibiy tranzistor  $VT2-VT3$  ning ochiq holatga o‘tishiga olib keladi. Jarayon ilgari ko‘rib chiqilgan generator kuchlanishini belgilangan darajada rostlash tamoyiliga muvofiq turgan holda, vaqt-vaqt bilan takrorlanib turadi. Rostlagich, aylanish chastotasi, tok yuklamasi va harorat o‘zgarib turganda  $B$  klemma va “massa” o‘rtasidagi kuchlanishning belgilangan darajasini ushlab turadi. Generator uskunasi sxemasida tok ko‘rsatgichi  $PA$  va akkumulyator batareyasi  $AB$  ni uzgich  $S2$  ni o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

### 3.4. Elektrostartyorlar

Ishga tushirish tizimi turini qo‘llanayotgan energiya va asosiy ishga tushirish qurilmasi – startyorning konstruksiyasi belgilaydi. Traktor dizellarini ishga tushirish uchun elektrostartyorli ishga

tushirish tizimlari va ishga tushiruvchi benzinli motorlar qo'llanib, ularni ishga tushirish ham elektrostartyorlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Elektrostartyorli ishga tushirish tizimi ishlashda ishonchli bo'lib, masofadan turib boshqarishni va elektrotexnik uskunalar yordamida motorni ishga tushirish jarayonini avtomatlashtirish imkonini ta'minlaydi.

Elektrostartyorli ishga tushurish tizimlarida energiya manbai startyorli qo'rg'oshinli akkumulyator batareyasi hisoblanadi. Elektrostartyorlarda o'zgarmas tok elektromotorlari qo'llanadi. Ketma-ket, aralash qo'zg'atish va o'zgarmas magnitlardan qo'zg'aluvchi o'zgarmas tok elektromotorli startyorli elektroprivod tavsiflarini ishga tushirishda, porshenli motorlar yuzaga keltiradigan yuklamaning murakkab tavsifiga yaxshi mos keladi.


Masofadan turib boshqaruvchi elektrostartyorli ishga tushirish tizimining tipik sxemasi 3.18-rasmida keltirilgan. Startyorli elektromotor 14 quvvatni akkumulyator batareyasi 1 dan tortqili elektromagnit relening ulangan kontaktlari orqali oladi. Tortqli rele, qo'shimcha rele va blokirovkalovchi relesi masofadan turib ulationi, motor ishga tushgach startyorni batareya akkumulyatoridan avtomat ravishda uzishni ta'minlaydi va motor ishlayotganda startyorning ishga tushib ketishining oldini oladi.

Startyor uzgichning 4. qo'shimcha rele yoki blokirovkalovchi rele kontaktlari ulanganda, tortqili relening tortuvchi 5 va ushlab turuvchi 6 chulg'amlari akkumulyator batareyasi 1 ga ulanadi. Tortish relesining langari 7 elektromagnit o'zagiga tortiladi, 8 va yuritma mexanizmining richagi 9 yordamida shesternya 12 ni motor maxovigining tishli gardishi 13 ga ilintiradi.

Langar 7 ning siljishi oxirida kontakt diskni 3, kuchlanish boltlari 2 ni va startyor elektromotori 14 ni ulaydi, akkumulyator batareyasidan quvvat olgan holda motorning tirsaksimon valini aylanma harakatga keltiradi.

Motor ishga tushirilgach, erkin siljish muftasi 11 maxovikdan elektromotor langarining valiga aylanma momenti uzatilishining oldini oladi. Yurituvchining shesternysi maxovik gardishi bilan ilingan holatdan, uzgich 4 ning kontaktlari ulangan bo'lguniga qadar chiqmaydi. Uzgich 4 ning kontaktlari ajralganda tortqili relening

tortuvchi va ushalib turuvchi chulg'amlari akkumulyator batareyasiga kuchlanish kontaktlari 2 orqali ketma-ket ulanadi. Ikkala chulg'amning o'ramlari soni bir xil bo'lganligi va ketma-ket ulanganda ulardan bir xil tok o'tganligi tufayli, uzgich 4 ning kontaktlari ajralganda chulg'amlar ikkita teng, ammo yo'nalishi qarama-qarshi bo'lgan magnit oqimini hosil qiladi. Elektromagnit o'zagi magnitsizlanadi va qaytuvchi prujina langar 7 ni boshlang'ich ishlamaydigan holatga qaytaradi va shesternyani maxovik gardishi bilan ilingan holatdan chiqaradi. Bunda kuchlanish kontaktlari ham ajraladi. Bevosita boshqarishda startyor traktorchi tomonidan richag yordamida ulanadi.



**3.18-rasm. Elektrostartyorni boshqarishning namunaviy sxemasi:**

- 1 – akkumulyator batareyasi; 2 – tutashuv bolti; 3 – qo'zg'aluvchan tutashuv diskisi; 4 – startyorni o'chirgichi; 5 – tortish relesining tortuvchi chulg'ami; 6 – tortish relesining tutib turuvchi chulg'ami; 7 – tortish relesining yakori; 8 – shtok; 9 – yuritma dastagi; 10 – ergashtiruvchi (ilgak) mufta; 11 – erkin yurish muftasi; 12 – yuritma shesternyasi; 13 – maxovikning tishli gardishi; 14 – startyor elektromotori; 15 – startyor elektromotorining yakori; 16 – qo'zg'atish ketma-ket chulg'ami; 17 – qo'zg'atish parallel chulg'ami

**Startyor konstruksiyasi.** Elektrostartyorning asosiy qism va detallari: (3.19-rasm) chulg'amli 43 va kollektorli 31 langari 39, tortiqqli elektromagnit relesi 15, qutbli 41 va g'altakli 40 korpus 42, cho'tkani ushlab turuvchiga 45, cho'tkalarga 47 va cho'tkali prujinalarga 46 ega bo'lgan cho'tkali qismi.

Startyorli elektromotor langari chulg'amni joylashtirish uchun pazlari bo'lgan po'lat plastinkali (shixtalangan o'zak) paketdir. Shixtalangan o'zakni qo'llash uyurma toklarning zararini kamaytirish

imkonini beradi. Langar paketi valning bo'ylama nakatkali uchastkasiga presslangan. Val ikkita yoki uchta bronzografitli podshipniklarda yoki kukunli materiallardan yasalgan podshipniklarda aylanadi. Sirpanish podshipniklari yuritgich, kollektor tarafdan qopqoqlarda va oraliq tirkakda joylashtirilgan.

Startyorli elektromotorlarda oddiy to'lqinsimon chulg'amlar qo'llanib, ular bir yoki ikki o'ramli seksiyalar ko'rinishida yasaladi. Seksija, chulg'am bo'ylab ketma-ket joylashtirilgan kollektor plastinalar (lamellar) orasida joylashgan chulg'amning bir qismini aks ettiradi. Bir seksiyaning uchlari va keyingisining boshi bitta kollektor plastinaga ulanadi.

Seksiya uchlari kollektor ulagichlari ariqchalariga joylashtiriladi va yaxshiroq qotirilishi uchun zarblanadi va kavsharlanadi. Kollektor plastinalar soni pazlar soniga teng. Langari to'lqinsimon chulg'amli bo'lgan to'rtqutbli elektr mashinalarda pazlar soni toq bo'lib, traktor startyorlarida 19 dan 29 gacha bo'lishi kerak. To'lqinsimon chulg'amlarning bir o'ramli seksiyalari izolyatsiyalanmagan to'rburchakli mis simlardan yasaladi. Yarim berkitilgan to'rburchak pazlarda simlarni bir-biridan va langar paketidan izolyatsiyalash uchun elektroizolyatsion karton qo'llanadi. To'rburchak pazning afzalligi shundaki, uning to'rburchak sim bilan to'ldirilish koeffitsiyenti yuqori hisoblanadi.

Biroq pazning bunday shaklida paket tishlari murakkab konfiguratsiyaga va balandlik bo'yicha magnit induksiyaning notejis taqsimlanishiga ega bo'ladi. Seksiyaning yarim yopiq pazlariga langar paketining yon tomonidan kiritiladi. Ikki o'ramli seksiyalar, ishga tushiruvchi benzinli motorlarda o'rnatiladigan kichik quvvatli startyorlarga ega. Ikki o'ramli seksiyali chulg'amlar izolyatsiyalangan dumaloq simlardan o'raladi.

Langar chulg'aming pesh qismiga bandajlar qo'yiladi. Bandaj, sim yoki paxta-ipli shnur o'ralgan kartonli qistirmadan iborat. Bandaj o'ramlari kavsharlash yoki qistirmaga sim yoki shnurni o'rashdan oldin yotqiziladigan skobalar yordamida biriktiriladi. Seksiyaning pesh qismlari bir-biridan plastmassa trubkalar yoki elektroizolyatsion karton bilan izolyatsiyalangan.

Traktor startyorlarida silindrik yig'ma, plastmassa korpusli silindrik va plastmassali yonlama kollektorlar qo'llanadi.

*Yig'ma silindrik kollektor* alohida mis plastinalardan (lamellardan) va izolyatsiyalovchi qistirmalardan yig'iladi, metall va mikanit konussimon halqalar bilan yon tomondagi tirkak yuzalar bo'ylab gaykalar yordamida qotiriladi. Po'lat vtulkadan mis plastinalarni mikanitli silindrik vtulka izolyatsiyalaydi.

Plastmassa korpusli *Silindrik kollektorlar* ham mis plastinalar paketi ko'rinishida yig'iladi va maxsus formada plastmassaga presslanadi. Plastmassa korpus kollektor plastinalari paketining tegib turgan yuzasini zinch qoplab turadi va konstruksiya puxtaligini ta'minlaydi.

*Yonlama kollektoring* ishchi yuzasi langarning aylanish o'qiga perpendikulyar tekislikda joylashgan. Yonlama kollektor qo'llanganda misning sarflanishi va startyorning qo'li uzunligi kamayadi.

Kollektorlar ham langarlar paketlari kabi bo'ylama nakatka yoki kertiklarga ega bo'lgan val uchastkasiga presslanadi.


*Elektrostartyorlarning korpuslari* trubadan yoki truba shakliga keltirilib, ularish joylari kavsharlanadigan po'lat polosadan yasaladi. Korpus elektromotor magnit tiziminining bir qismi hisoblanadi. Korpusga bitta yoki ikkita vint bilan to'rtta qutb biriktiriladi. Har bir qutbda bitta (parallel yoki ketma-ket) qo'zg'atish g'altagi o'rnatiladi.

Aralash qo'zg'atish startyorlari ketma-ket chulg'amda uchta va parallel chulg'amda bitta g'altakka ega (3.20-rasm a, b, d). Ketma-ket chulg'amning g'altaklari o'zaro ketma-ket ulangan. Ketma-ket qo'zg'atuvchili quvvatliroq startyorlarda (3.20-rasm, e va f) g'altaklar juft qilib parallel ulangan.

Qo'zg'atishning ketma-ket chulg'ami g'altaklari bir nechta o'ramga ega. G'altak o'ramlari qalinligi 0,2...0,4 mm bo'lgan elektroizolyatsion karton bilan ajratilgan. Qo'zg'atishning parallel chulg'am g'altaklarining o'ramlari uchun aralash qo'zg'atuvchili startyorlarda, emal izolyatsiyali dumaloq izolyatsiyalangan sim qo'llanadi. Izolyatsiya paxta-ipli tasmadan qilinib lak bilan qoplanishi yoki polimer materialdan yasalishi mumkin.

Startyor korpusi qopqoqlar uchun tutib turuvchi konstruksiya bo'lib xizmat qiladi, aylantiruvchi momentni qabul qilib, uni motordagi startyorning qotiruvchi elementlariga uzatadi. Qopqoqlar startyor korpusiga tortuvchi boltlar yordamida qotiriladi. Tortuvchi boltlarni burab kiritish uchun qopqoqda yuritma tomonidan bo'rtmalar

ko'zda tutilgan. Alyuminiy yoki cho'yan qopqoqlar yuritma tomonidan startyorni motorga qotiradigan boltlarga mo'ljallangan ikkita yoki uchta tirkish o'rnatuvchi flanetslarga ega. Qopqoq bo'shlig'ida erkin siljuvchi muftali yuritma mexanizmi o'rnatiladi. Qopqoqdagi tirkish yuritma shesternyasiga maxovik gardishi bilan ilinish imkonini beradi.




### 3.19-rasm. Elektrostartyor:

1 – kollektor tomonidagi qopqoq; 2 – plastmassadagi kollektor; 3 – himoya g'ilofi; 4 va 12 – izolyatsiyalovchi vtulka; 5 – startyor elektromotori chiqarmasi; 6 – ulovchi plastina; 7 – tutashuv bolti; 8 va 20 – qaytuvchi prujinalar; 9 – tortish relesi qopqog'i; 10 – izolyatsiyalovchi shayba; 11 – kontakt qo'zg 'aluvchan disk; 13 – prujina; 14 – shtok; 15 – tortish relesi; 16 – tutib turuvchi chulg 'am; 17 – o'ziga tortuvchi chulg 'am; 18 - rele yakori; 19 – latun vtulka; 21 – tayanch shayba; 22 – tortqi; 23 – rele asosi; 24 – yuritma richagi; 25 – richag o'qi; 26 – yuritma tomonidagi qopqoq; 27 – erkin yurish muftasi; 28 – yetakchi oboyma; 29 – etaklanuvchi oboyma; 30 – rolik; 31 – yuritma shesternyasi; 32 – tayanch halqa; 33 – podshipnik vkladishi; 34 – yetakchi oboymaning yo'naltiruvchi shlitsali vtulkasi; 35 – bufer prujina; 36 – yetaklovchi mufta; 37 – bekituvchi halqa; 38 – oraliq tayanch; 39 – langar; 40 – qo'zg'atish chulg 'ami; 41 – qutb; 42 – korpus; 43 – langar chulg 'ami; 44 – bandaj; 45 – cho'tkatutgich; 46 – cho'tkatutgich prujinasi; 47 – cho'tka; 48 – langar vali

Katta quvvatli startyorlarda qopqoq yuritma tomonidan qotirish flanetsiga ega emas va oraliq tirgovuchga qotiriladi. Startyor motorda tashqi diametr uchun qilingan chuqurcha maxsus bo'rtmaga qotiriladi.

Oraliq tirdgovuch odatda korpus diametri 112 mm va undan ortiq bo'lgan startyorlarga o'rnatiladi, bu valning egilishini va podshipniklarning yemirilish darajasini kamaytirish imkonini beradi.



**3.20-rasm. Traktor startyorlarida ichki ularishlar sxemasi:**

*a, b, d – aralash qo'zg'atish; e va f – ketma-ket qo'zg'atish*


Qopqoqlarida silindrik kollektorlari bo'lgan startyorlarda kollektor tarafidan radial turdag'i cho'tkali va spiral prujinali to'rtta qutisimon cho'tka tutgichlar qotiriladi. Cho'tka tutgichlarda cho'tkalar erkin, ammo ortiqcha yonlama tebranishlarsiz siljishi kerak. Yon kollektorlarning cho'tkalari plastmassa yoki metall traverslarga joylashtiriladi va kollektor yuzasiga o'rama silindrik prujinalar bilan qistiriladi.

Traktor startyorlarida nominal kuchlanish 12 V bo'lganda MGSOI (trapetsiyasimon) va MGSOA rusumdag'i misgrafitli cho'tkalar qo'llanadi.

Langarning to'lqinli chulg'ami qutblar soniga bog'liq bo'lмаган tarzda ikkita parallel o'ramga ega bo'lib, faqat ikkita cho'tkaga ega bo'lish imkonini beradi. Cho'tkadagi tok zichligini kamaytirish uchun startyorlarda cho'tkalar soni qutblar soniga teng qilib o'rnatiladi. Xuddi shu maqsadda quvvatli startyorlarda har bir cho'tka tutgichda ikkitadan cho'tka o'rnatiladi (jami sakkizta cho'tka).

Yuritma mexanizmlar rolikli (3-5 ta rolik) prujinasiz yoki xrapovikli *erkin siljish mustalariga* ega. Ular motor ishga tushirilayotganda startyor shesternyasining maxovik gardishi bilan ilinishini, zarur bo'lgan aylanma momentining tirsaksimon valga

uzatilishini ta'minlaydi va ishlab turgan motorning aylanayotgan maxovigi tomonidan elektromotor startyori langarining o'ta tezlanrilishidan asraydi.




**3.21-rasm. Plunjersiz to'rt rolikli erkin yurish mustasi va yuritish mexanizmning detallari:**

1 – rolik; 2 – Г-simon turtich; 3 – siqvchi prujina; 4 va 7 – qulf halqalar; 5 va 10 – tayanch chashkalar; 6 – prujina; 8 – ergashtiruvchi mufta; 9 – bufer prujina; 11 – markazlovchi halqa; 12 – tashqi yetakchi halqa shlitsali vtulka bilan; 13 – prujinalar tutqichi; 14 – maxsus shayba; 15 – voylok zichlagich; 16 – mufta g'ilofi; 17 – yetaklanuvchi halqa shesternya bilan; 18 – vtulkalar

Aylantiruvchi moment startyordan motorga uzatilayotganda (3.21-rasm) rolikli mustaning ergashtiruvchi halqasi (oboyma) 12 shesternya bilan qo'szg'almas bo'lgan ergashuvchi halqa 17 ga nisbatan buriladi, roliklar 1 siqvchi prujinalar 3 halqalar va roliklar o'rtaсидиги ishqalanish kuchining ta'siri ostida burchaksimon sohaning tor qismiga siljiydi va mufta qadalib qoladi. Erkin siljish plunjersiz muftalarida roliklar halqaning ishchi yuzasi bilan ishonchli kontakti individual Г-simon prujinalashtirilgan itargichilar 2 bilan ta'minlanadi. Tortiqli relening kuchlanish kontaktlari shesternya maxovik gardishi bilan to'liq ilinishidan oldinroq ulanadi. Shesternyaning bundan keyingi valdag'i tirak halqagacha siljishi langar vali shlitslari

vintlaridagi o'qning va erkin siljuvchi mustaning ergashtiruvchi halqasining yo'naltiruvchi vtulkasi ta'siri ostida amalga oshadi.

Shesternya tishlari maxovik gardishiga tiralgan holda, tortqili rele langari bufer prujinani siqib, harakatlanishni davom ettiradi va kuchlanish kontaktlarini ulaydi. Startyor langari yuritma bilan birga aylanla boshlaydi va shesternya tishi maxovikning tishli gardishi botig'iga to'g'ri kelishi bilan, shesternya siqilgan bufer prujina va shlitslardagi o'q kuchining ta'siri ostida maxovik gardishi bilan ilinadi. Motor ishga tushirilgach, ergashtiruvchi halqaning yuritma shesternyasi bilan aylanish chastotasi ergashtiruvchi halqaning aylanish chastotasidan ortib ketadi. Roliklar halqalar orasidagi burchaksimon sohaning keng joyiga siljishadi va mufta tiralish holatidan chiqadi.



**3.22-rasm. Yuritma mexanizmi xrapovikli erkin yurish mustasi bilan:**


- 1 – vkladish; 2 – shesternya; 3 – segment (suxarik); 4 – yo'naltiruvchi shift; 5 va 15 – qulf halqlari; 6 – etaklanuvchi xrapovik; 7 – konussimon vtulka; 8 – yetakchi xrapovik; 9 va 13 – shaybalar; 10 – prujina; 11 – korpus; 12 – shlitsali yo'natirivchi vtulka; 14 – bufer rezina halqa

**Erkin siljiydigan xrapovikli mufta** (3.22-rasm) yuritmaning kuchlanish elementlariga yuklama kamroq bo'lganda startyor motorning to'laroq ajralishini ta'minlaydi.

Startyorni ulashda yuritma richagi korpus 11 orqali shlitsali yo'naltiruvchi vtulkani 12 ergashtiruvchi 8 ergashuvchi 6 xrapoviklar bilan birga val shlitsalari bo'ylab siljitadi va shesternyani maxovik gardishi bilan ilinish holatiga kiritadi. Startyorning ishlash vaqtida aylantiruvchi moment maxovik gardishiga shlitsa vtulkasi 12,

ergashtiruvchi 8 va ergashuvchi 6 xrapoviklar va shesterna 2 orqali uzatiladi. Yo'naltiruvchi vtulka 12 ning vintli shlitsalarida va ergashtiruvchi xrapovik 8 da yuzaga keladigan o'q kuchi buferli rezinali halqa 14 tomonidan qabul qilinadi.

Ergashtiruvchi xrapovik 8 ning vintli shlitsalar bo'ylab prujina 10 ning siqilishi hisobiga siljishi ergashuvchi xrapovik 6 ning shesterna bilan  $15\dots30^\circ$  ga burilishini va shesternyaning motor maxovigi gardishi bilan ilinish holatidan chiqishini ta'minlaydi.



**3.23-rasm. Qo'shimcha reduktor o'rnatilgan elektrostartyor:**

- 1 – kollektor tomonidagi qopqoq; 2 – kollektor; 3 – cho'tkatutgich;
- 4 - startyor korpusi; 5 – tortish relesi; 6 – yuritmani ishga tushirish dastagi;
- 7 – erkin yurish mustasi; 8 – yuritma tomonidagi qopqoq; 9 – reduktor korpusi epitsiklik shesterna bilan; 10 – vodilo; 11 – satellit-shesternalar

Agar ergashtiruvchi va ergashuvchi xrapoviklarning aylanish chastotasi yo'naltiruvchi vtulka 12 ning aylanish chastotasidan oshib ketsa, ergashtiruvchi xrapovik 8 vintli shlitsalardagi kuch hisobiga ergashuvchi xrapovik 6 dan chetlashadi va shesterna salt aylanma harakat qiladi. Bir vaqtida plastmassa segmentlar 3 markazdan qochuvchi kuch ta'sirida yo'naltiruvchi shtiftlar 4 bo'ylab radial yo'nalishda siljiydi va xrapovik mexanizmini, markazdan qochuvchi kuch tomonidan yuzaga keltiriladigan segmentlarning konussimon yuzalari va vtulka 7 ning burchaksimon tarzda birlashishlaridagi


o'qning kuchi prujina 10 kuchidan ortib ketmagunicha, ulanmagan holatda ushlab turadi.

Motor silindrda yonilg'i yonishining alohida sikllari davrida shesternya maxovik gardishi bilan ilingan holatda qoladi, ergashtiruvchi va ergashuvchi xrapoviklarning aylanish chastotasi tenglashganidan so'ng, yana elektromotordan aylantirish momentini uzatishi mumkin. Shesternya 2 ilinish holatidan faqat startyorning tortqili relesi uzilganidan keyingina chiqadi. Ichiga qo'shimcha reduktor o'rnatilgan startyorlarda (3.23-rasm) reduktor elektoromotor yuritmasi va vali orasiga joylashtiriladi. Reduktor korpusiga 9 qotirilgan plastmassali epitsiklik shesternyadan iborat bo'lib, bu korpus ichida podshipnikda shesternya-satellitlar 11 bilan vodilo 10 aylanadi. Shesternya-satellitlar va elektromotor langarining quyosh shesternysi orqali moment startyordan yuritmaning valiga, u orqali esa motor maxovigiga uzatiladi.

*Elektromagnit tortqili relelar* korpusga yoki yuritma qopqog'iga bevosita yoki qotiruvchi elementlar yordamida qotiriladi. Ikki chulg'amli relelarda tortuvchi chulg'am ushlab turuvchi chulg'am bilan birga, langar va rele o'zagi orasidagi tirkish maksimum bo'lganda zarur bo'lган tortuvchi kuchni ta'minlaydi. Tortuvchi chulg'am kuchlanish kontaktlariga parallel ulangan. Kontakt boltlari siljuvchi disk bilan tutashtirilganda tortuvchi chulg'am qisqa tutashadi va ishlashdan uziladi. Ushlab turuvchi chulg'am faqat rele kontaktlarini tutashgan holatda ushlab turishga mo'ljallangan bo'lib, ko'ndalang kesimi kichikroq bo'lган simdan o'ralgan va bevosita massaga ulanish klemmasiga ega. Chulg'amlar latun vtulkada joylashtirilgan bo'lib, unda rele langari bema'lol siljiy oladi.

Startyorning tortqili relesining ajratilgan kontaktli tizimida (3.19-rasm) kontakt disk 11 o'rnatilgan shtok 14 rele langari 18 bilan ulanmagan. Kontakt tizimida siljiydigan disk 11 ni kontaktlarga siquvchi prujina 13 va qaytuvchi prujina 8 joylashtirilgan. Rele langari, yuritgichning qaytuvchi prujinasi 20 yordamida startyor uzilganda ishchi bo'lмаган boshlang'ich holatga qaytadi. Yuritgich mexanizmi bilan tortqili rele richag 24 orqali bog'langan. Richagning pastki shoxlangan qismining ikkita barmog'i yetaklash tortqili mufta 36 bilan birlashgan.

**Startyorli motorlarning tavsifi.** Startyorli motorlarning xususiyatlari ishchi va mexanik tavsiflariga qarab baholashadi. Ishchi tavsiflari startyor zajimlaridagi kuchlanish  $U_{st}$ , valdag'i foydali quvvat  $P_2$ , foydali aylantiruvchi moment  $M_2$  va langarning aylanish chastotasi  $n_a$  ning startyor iste'mol qiladigan tok kuchi  $I$  ga bog'liqligining yig'indisi sifatida ifodalanadi. (3.24-rasm). Startyorning mexanik tavsiflari - bu  $n_a=f(M_2)$  yoki  $M_2=f(n_a)$  bog'liqlikdir.



3.24- rasm. Elektrostartyorning ishchi tavsiflari:

— nominal; ----- ishg'a tushurish

Startyorga berilayotgan quvvat  $P_1=U_{st} I$  elektr yo'qotishlarni ayirib tashlaganda keyin elektromagnit quvvatga aylanadi:

$$P=I_a E_a$$

bu yerda:  $I_a$  va  $E_a$  - mos ravishda langarning tok kuchi va langar chulg'amida induksiyanuvchi EYK.

Elektromotor validagi foydali quvvat  $P_2$  podshipniklarda, cho'tkali-kollektor qismidagi ishqalanishga ketadigan mexanik yo'qotishlar va langar plastinalari paketida qayta magnitlash va yuruma toklarga ketadigan magnit yo'qotishlar qiymati miqdorida elektromagnit quvvatdan kichik.

Ishchi tavsiflarda uchta asosiy rejimni ajratish mumkin: maksimal foydali quvvat; aylanish chastotasi nolga teng bo'lib, aylantirish momenti  $M_{2k}$  maksimal bo'lganda, qisqa tutashuv tokidagi to'liq tormozlanish; langarning aylanish chastotasi  $n_0$  maksimum bo'lib, tok kuchi  $I_0$  bo'lgandagi salt ishslash rejimlari.

Startyorli elektromotorning quvvati va aylanish momenti  $M_{2k}$  ga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- akkumulyator batareyasining sig'imi (hajm qanchalik kichik bo'sha, batareyaning ichki qarshiligi shunchalik katta va startyorning quvvati shunchalik kichik bo'ladi);

- akkumulyator batareyasining razryadlanish darajasi va elektrolitining harorati (elektrolit harorati pasayishi va razryadlanish darajasining ortishi bilan batareyaning ichki qarshiligi ortadi);

- startyor tarmog'inining qarshiligi (startyor simlari uzunligining ortishi va startyor tarmog'idagi ajraluvchi birikmalarning o'tish kontaktlari holatining yomonlashishi bilan ularning qarshiligi ortadi, startyorning quvvati va ishga tushuruvchi momenti kichrayadi).

Akkumulyator batareyasi parametrlarining startyor elektromotori tavsiflariga ta'sir etishini inobatga olib, startyorning nominal parametrlari belgilanadigan sharoitlar aniq ko'rsatilishi lozim.

Startyorning nominal quvvati  $R_n$ , startyorning texnik sharoitlarida belgilab qo'yilgan maksimal sig'imi batareyadan quvvatlanganda, startyorning tortqili relesi klemmalaridagi kuchlanish, zaryadlanish darajasi 100% va elektrolitining harorati  $20^{\circ}\text{C}$  bo'lgan akkumulyator batareyasi klemmalaridagi kuchlanishga teng bo'lganda, simlardagi kuchlanishning pasayishini hisobga olmagan holda, motorni ishga tushirishga qilingan birinchi urinish qisqa muddatli rejimdagi eng katta foydali quvvat sifatida aniqlanadi.

Startyor relesining akkumulyator batareyasi ulanadigan, kuch klemmasidagi kuchlanish nominal quvvatni aniqlashda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$U_{st} = U_n (1 - a_b I/C_{20})$$

bu yerda  $U_n$  - startyorning nominal kuchlanishi;  $I$  - startyor iste'mol qiladigan tok kuchi;  $C_{20}$  - akkumulyator batareyasining nominal sig'imi;  $a_b$  - nominal sig'imi aniqlashda qo'llanadigan koefitsiyent;  $a_b=0,05$  sig'imi  $100 \text{ A}\cdot\text{s}$  bo'lgan batareyalar uchun va  $a_b=0,057$  sig'imi  $100\text{A}\cdot\text{s}$  dan katta bo'lgan batareyalar uchun  $a_b$  koefitsiyent qiymati xizmat ko'rsatilmaydigan batareyalarga tegishli emas.

Startyorli elektromotorlar tavsiflari qo'zg'atish usuliga bog'liq. Quvvati va momentining nominal qiymatlari bir xil bo'lgan ketma-ket qo'zg'atuvchili elektromotorlar katta ishga tushiruvchi momentlarni hosil qildi. Bu past haroratlarda motor ishga tushirilganda startyor-motorlarning joyidan qo'zg'alishini osonlashtiradi. Mexanik tavsifi

yumshoq bo'lganligi tufayli ketma-ket qo'zg'atuvchili elektromotorlar o'zgaruvchan yuklamada barqaror ishlaydi.

Startyorli elektromotorlar motor ishga tushirilgach bir qancha muddat salt yurish rejimida ishlashi mumkin. Ketma-ket qo'zg'atuvchili motorlarda qo'zg'atish chulg'amlari bo'ylab langar toki o'tadi, shu bois magnit oqimi elektromotor validagi yuklamaga bog'liq bo'ladi. Yuklama kamayishi bilan tok kuchi va langarning magnit oqimi kamayadi, aylanish chastotasi ortadi va salt yurish rejimida shunday qiymatga erishadiki, bunda markazdan qochuvchi kuch ta'siri ostida langar chulg'ami va kollektor ishdan chiqishi mumkin.


Aralash qo'zg'atish langarning salt yurish rejimida aylanish chastotasini pasaytirish imkonini beradi. Aralash qo'zg'atishda magnit oqimi parallel va ketma-ket chulg'amlar chulg'amlarning birgalikdagi ta'siridan hosil bo'ladi. Ketma-ket chulg'amning yuklamasi va magnit yurituvchi kuchining kamayishi bilan parallel chulg'am yuzaga keltirayotgan magnit oqimi startyor tarmog'idagi akkumulyator batareyasida kuchlanishning kamroq pasayishi natijasida xatto bir muncha ortadi.

**Startyorni boshqarish sxemasi.** Masofadan turib boshqarganda startyorli elektromotor chulg'amlari batareyaga qo'shimcha rele yoki blokirovka relesi orqali ulangan tortqili rele yordamida akkumulyator batareyasi bilan ulanadi.

Blokirovka relesi  $K1$  (3.25-rasm) ikkita chulg'amga ega. Asosiysi deb hisoblangan bitta chulg'ami, generator startyor chulg'amining bitta fazasiga ikkita yarimdavrli bir fazali to'g'rilaqich orqali ulangan. Yordamchi chulg'am startyorning rezistori  $R1$  va uzbekchi  $S1$  orqali akkumulyator batareyasi  $AB$  dan quvvat oladi. Dizel ishlamay turganida generator fazasida kuchlanish yo'q, rele  $K1$  ning ajratuvchi kontaktlari  $K1$  ulangan. Uzgich  $S1$  ning kontaktlari birlashtirilgan kontaktlar  $K1$  orqali ulanganida akkumulyator batareyasining toki startyorning uzgichining qo'shimcha relesi  $K2$  chulg'amiga keladi. Rele  $K2$  ning kontaktlari  $K2$  tutashadi hamda tortqili rele  $K3$  ni va u orqali startyor elektromotori  $M$  ni ishga tushiradi. Dizel ishga tushirilgach tirsaksimon valining va generator valining aylanish tezligi ortishi bilan generator fazasining kuchlanishi ortadi, blokirovka relesining asosiy chulg'ami rele  $K1$  ning kontaktlari  $K1$  ni uzadi va

rele  $K2$  ni toksizlantiradi. Rele  $K2$  va  $K3^*$  ning va tortqili rele  $K3$  ning kontaktlari  $K2^*$  uzeladi va startyorli elektromotor quvvat manbaidan uzeladi. Rele  $K1$ ning kontaktlari  $K1^*$  dizel va generator ishlab turgunicha uzelgan holatda qoladi, bu startyorning ishga tushib ketish ehtimolining oldini oladi.

Akkumulyator batareyasi bilan rele  $K1$ ning kontaktlari  $K1^*$  orqali ulangan nazorat lampasi  $HL$  dizel ishlamaganda yonib turadi va batareyaning “massadan” uzgich  $S2$  yordamida uzish kerakligi haqida signal beradi. Dizel ishga tushirilgach va rele  $K1$  ning kontaktlari  $K1^*$  uzelgach lampa  $HL$  o’chadi, bu generator uskunasining sozligidan darak beradi.



### 3.25-rasm. Ishga tushirish tizimining sxemasi:

$LG$  – generatori qo’zg’atishi chulg’ami;  $G$  – generator;  $UD1$  – generatori to’g’rilagichi;  $UD2$  – blokirovkalash relesining ta’minalash zanjiridagi to’g’rilagichi;  $K1$  – blokirovkalash relesi;  $R1$  – blokirovkalash relesining rezistori;  $K2$  – startyorni ishga tushurish qo’shimcha relesi;  $S1$  – ishga tushurishni blokirovkalashning o’chirgichi;  $HL$  – nazorat chirog’i;  $EK1$  – elektr alanga isitkichning nazorat elementi;  $EK2$  – elektr alanga isitkichning spirali;  $R2$  – qo’shimcha rezistor;  $S2$  – startyor va elektr alanga isitkichning o’chirgichi;  $YA$  – EFP elektromagnit klapanining chulg’ami;  $K3$  – startyorning tortish relesi;  $M$  – startyor elektr motori;  $LM$  – startyor elektr motorining qo’zg’atish chulg’ami;  $PA$  – tok kuchini ko’rsatkichi;  $AB$  – akkumulyator batareyasi;  $S3$  – massani o’chirgich

Blokirovka relesi yordamchi chulg’amining magnit oqimi asosiy chulg’amning magnit maydoniga qarma-qarshi yo’nalган bo’lib, bu

bilan rele *KI*ning kontaktlari *KI\** ning aniq uzilishi va ishlash muddatining oshishi ta'minlanadi.

### 3.5. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi tizimlari

Texnologik operatsiyalarni bajarishda traktorlarning yo'llarda harakatlanish xavfsizligi, ayniqsa, sutkaning qorong'u qismida, yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi tiziminинг holatiga ko'p jihatdan bog'liq. Yoritish asboblari turli sharoitda sifatli ishni ta'minlashga, yo'lni yoritishga, traktorning gabarit o'lchamlari va alohida tizimlarining holati haqida (nazarat lampalari), mo'ljallanayotgan va amalga oshirilayotgan manevrilar haqida axborot berishga, raqam belgisi, kabina nazarat-o'lchov asboblari, kapot ostidagi sohani yoritishga va h.k.ga mo'ljallangan.

Yorug'lik asboblarining majburiy komplektiga uzoqni va yaqinni yorituvchi ikkita chiroq, burlishni ko'rsatuvchi chiroqlar, qizil chiroqqa tormozlash signallari, gabarit chiroqlari, raqam belgisini yorituvchi chiroq, yorug'lik qaytaruvchilar (katafotlar) kiradi. Bundan tashqari tunda traktorni qishloq xo'jalik va boshqa qo'shimcha uskunalarни boshqarishni osonlashtirish uchun yorituvchi ishchi faralar qo'llanishi mumkin.

Yorug'lik texnikasi asboblari shuningdek, tashqi (bosh va ishchi yoritish faralari, turli maqsadlarga mo'ljallangan chiroqlar) va ichki (plafonlar, asboblar schitogini yoritish lampalari, nazarat lampalari) asboblarga ajratiladi.

Transport traktorlari va tyagachlar avtomobilnikiga o'xshash yorug'lik texnik jihozzlarga ega. Qishloq xo'jaligi traktorlari va tirkama qurollari tungi dala ishlarida katta yuzani va alohida ishchi mexanizmlarni keng yorug'lik dastasi bilan bir tekis yoritishi kerak, bunga maxsus mo'ljallangan tarqatgichli ishchi yoritish faralar yordamida erishiladi.


Yorug'lik asbobining optik tizimi cho'g'lanish lampasi, qaytargich va tarqatgichdan iborat. Lampa yorug'lik manbaidir. Aylanish paraboloidi ko'rinishidagi qaytargich lampa chiqarayotgan yorug'lik oqimini kichik fazoviy burchakda mujassamlaydi. Shaffof materialdan yasalgan tarqatgich, uning ichki yuzasidagi linzalar va

prizmalar yordamida yorug'lik oqimini vertikal va gorizontal tekisliklarda qayta taqsimlaydi.

Yorug'lik asboblarining asosiy yorug'lik texnik parametrlariga: optik tizimning faol yuzasi, yorug'lik tirkishi, qamrashning fazoviy va tekislik burchaklari, yorug'lik chiqarish va tarqatish burchaklari, fokus va fokus masofa, qaytargichlar uchun qaytarish koeffitsiyenti, tarqatgichlar uchun yutish va o'tkazish koeffitsiyentlari kiradi.

Optik tizimning faol yuzasi, qaytargichning oynali yuzasi hisoblanadi. Uning optik o'qqa perpendikulyar bo'lgan tekislikdagi proyeksiyasi yorug'lik tirkishi deb ataladi. Yorug'lik asbobining optik o'qi – bu uning simmetriya o'qidir. Qaytargichning optik o'qqa parallel bo'lgan faol yuzasiga tushayotgan nurlar fokusda to'planadi. Real optik tizimlarda fokus bilan birga yorug'lik manbaining cho'g'lanish jismi markaz bilan birlashtiriladi. Fokus optik o'qining qaytargich uchigacha bo'lgan kesimi fokus masofasi deyiladi.

**Cho'g'lanish lampalari.** Traktorlarda avtomobilning cho'g'lanish lampalari qo'llanadi. Elektr toki o'tganda lampaning qizish tolasi qiziydi va ma'lum temperaturada yorug'lik chiqara boshlaydi. Cho'g'lanish lampasi shisha kolba 1 (3.26-rasm, a), bitta yoki ikkita qizish tolasi 2 va 3, fokuslovchi flanetsli 5 yoki planetssiz sokol 7, klemmalar 6 dan iborat. Ikki tolali lampalarda qizish tolalari turli funksional ahamiyatga ega. Bosh yoritish faralarining ikki tolali lampalari yaqinni va uzoqni yoritish rejimida ularning ishlashini ta'minlaydi.



3.26-rasm. Cho'g'lanish lampalari:

- a – yevropa assimmetrik nur taqsimlash tizimidagi asosiy yoritish lampasi;  
b – ikki ipli shtiftli; v – bir ipli shtiftli; g – barmoqsimon; d – sofit; 1 – shisha kolba; 2 va 3 – qizish tolasi; 4 – ekran; 5 – fokuslovchi flanets; 6 – chiqish uchlari; 7 – sokol

Qizish tolasi yuqori haroratlarga chidamli bo'lishi, kichik o'lchamlarga ega bo'lishi va silindrik spiral shaklida o'ralgan ingichka volfram (erish temperaturasi  $3380^{\circ}\text{C}$ ) simdan yasalishi kerak. Spiral odatda to'g'ri chiziqli yoki yoysimon ko'rinishda bo'ladi. Spiral  $2300\ldots2700^{\circ}\text{C}$  gacha qiziydi. Spiralning temperaturasi oshishi bilan yorug'lik va lampaning yoritish qobiliyati ortadi. Biroq spiral temperaturasi  $2400^{\circ}\text{C}$  dan oshganda volfram jadal bug'lanib, shisha kolba devorlariga yopishadi, lampaning yorug'lik oqimida kamaytiruvchi qora dog' paydo bo'ladi. Volfram vakuumli lampalarda jadalroq bug'lanadi. Shu bois quvvati 3 vt dan ortiq bo'lган lampalarni inert gazlar argon, azot yoki kripton va ksenon aralashmalari bilan to'ldiriladi. Kolbada inert gazlarning bosimi yuqori bo'lganligi tufayli spiralning yuqori temperaturalargacha qizishiga yo'l qo'yiladi, bu lampaning yorug'lik berish qibiliyatini oshirish imkonini beradi.

Sokol lampani yorug'lik asbobining patroniga qotirish, sokol kontaktlarini qizish tolalari bilan ulaydigan elektrodlarga energiya manbaidan tokni keltirish uchun xizmat qiladi. Lampalar shtiftli va flanetsli sokollarga ega bo'ladi. Shtiftli sokolli lampada (*3.26-rasm, b* va *d*) qizish tolalarini shtiftga nisbatan aniq joylashtirilishni ta'minlash qiyin. Shtifli sokol lampani patronda ishonchli qotirish imkonini bermaydi. Shuning uchun shtiftli sokolli lampalar yorug'lik texnik tavsiflar bo'yicha qat'iy talablar qo'yilmaydigan yorug'lik asboblarida qo'llanadi.

Qizish tolalarini paraboloidli qaytargich fokusiga nisbatan aniq qotirish uchun avtomobil faralarining lampalari, lampani optik elementda faqat bitta ma'lum holatda joylashtirish imkonini beruvechi, konstruktiv elementli fokuslovchi flanetsli sokl bilan jihozlantiriladi.

Lampalar vibratsiya va silkinish sharoitida ishlaydi, shuning uchun ular mexanik jihatdan mustahkam bo'lishi kerak. Kolbani sokolga qotirish, lampa patronga kiritilayotganda yoki undan chiqarilayotganda unga qo'yiladigan kuchga bardosh bera olishi kerak.

Cho'g'lanish lampasining yorug'lik oqimi va yorug'lik berishi kuchlanishga bog'liq. Kuchlanish hisoblangandan ( $12.8\ldots13.5$  va  $28$  V mos ravishda  $12$ - va  $28$ - voltli elektro uskunalar tizimlari uchun) oshib ketganda, tok kuchi, spiral harorati, yorug'lik oqimi va yorug'lik

berish ortib ketadi, lekin lampaning ishlash muddati keskin kamayadi. Kuchlanish kamayganda qizish tolasi kamroq qiziydi, shu bois yorug'lik oqimi va yorug'lik berish ham kamayadi. Kuchlanish hisoblanganga nisbatan 50...60%ga kamayganda lampa deyarli yorug'lik chiqarmaydi. Lampalar traktorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kuchlanish o'zgarishlariga chidamli bo'lishi kerak.

Cho'g'lanish lampalari belgilarga ega masalan, A12-45+40, unda "A" harfi (avtomobilniki) degani va raqamlar nominal kuchlanishni (12 yoki 24 V) va iste'mol qilinadigan quvvatni ko'rsatadi. Ikki tolali lampalarda quvvatning qiymati «+» ishorasi orqali ketma-ket ko'rsatiladi.


Yevropacha yorug'lik tarqatish tizimli bosh yoritish faralari uchun R45t-41 rusumli unifikatsiyalangan flanetsli sokolli bitta ikki tolali lampa qo'llanadi. (3.26-rasm, a). Pog'onasimon shakldagi flanets diametri 22 mm bo'lgan sokolga kavsharlangan. Flanetsning ikkita bazaviy tayanch yuzalarining mavjudligi fokus masofasi 27 va 22 mm bo'lgan faralarning optik elementlarida qo'llash imkonini beradi. Lampa kontakt kolodkaga mo'ljallangan uchta shtekerli klemmaga ega. U optik elementga qaytargichning orqa tomonidan qo'yiladi va prujinalanuvchi qistirmalar bilan qotiriladi.

Yorug'lik signallari chiroqlari yorug'lik kuchi birdan 700 kd gacha bo'lganda zaruriy yorug'lik texnik tavsiflarni ta'minlaydi. Yorug'lik signallari chiroqlarining nominal quvvati 21 vt dan oshmaydi. Yorug'lik signallari chiroqlari uchun beshta toifa va gabarit chiroqlari kabina ichini yoritish, kapot osti sohasini yoritish chiroqlari uchun kichik quvvatli lampalarning to'rta toifasi belgilangan.

Traktor oldida bosh yoritish faralari yorug'ligini taqsimlash optik elementning konstruksiyasi va unga o'rnatilgan lampaga bog'liq.

Faralarning paraboloid qaytargichlari lampaning yorug'lik kuchini kerakli yo'nalishda 200...400 marta kuchaytiradi va shu bilan yo'lda yoki dalada yetarlicha katta masofaning lozim bo'lgan darajada yoritilishini ta'minlaydi. Chunonchi, yorug'lik kuchi 50 kd ga yaqin bo'lgan lampa qaytargichsiz 7 m ga yaqin masofada 1 lk yoritilganlikni beradi. Qaytargich bo'lganda yorug'lik kuchi faraning yorug'lik tirqishi markazida 10000...40000 kd gacha ortadi va 100...200 m masofada 1 lk yoritilganlikka erishiladi.

Yevropacha yorug'lik tarqatishli faralarning lampalarida (3.27-rasm, a) uzoqni yoritish tolesi 1 qaytargichning fokusiga joylashtiriladi. Uzoqni yoritishning kichik tarqalish burchakli yorug'lik dastasi, gorizontal tekislikda yotuvchi yoysimon shaklda yasalgan spiralning minimal o'lchamlarida hosil qilinadi. Uzoqni yoritish spiralining gorizontal bo'yicha katta chiziqli o'lchamlari yorug'lik oqimining gorizontal tekislikda ko'proq tarqalishiga sabab bo'ladi.



**3.27-rasm. Yevropacha yorug'lik tarqatish tizimidagi yaqinni yoritish bosh farasi:**


a – faraning sxemasi; b – lampa ekranining joylashishi

Silindr shakldagi yaqinni yoritish tolesi 2 uzoqni yoritish tolesi 1 ga nisbatan oldinga surilgan va optik o'qqa nisbatan teparoq va parallel joylashgan. Paraboloidning yuqorigi yarim qismining yuzasiga tushayotgan yaqinni yoritish tolasidan chiqayotgan nurlar, pastga egilgan holda qaytariladi va traktor oldidagi yaqin masofadagi yo'l va dalani yoritadi.

Yaqinni yoritish tolesi 2 ostida joylashgan shaffof bo'limgan ekran qaytargichning pastki qismiga yorug'lik nurlarining tushishi va yuqoriga egilgan holda qaytarilishining oldini oladi. Ekranning 3 bir tomoni (3.37-rasm, b)  $15^{\circ}$  burchakka pastga egilgan bu qaytargich chap qismidagi faol yuzani va traktor yuradigan yo'lning o'ng qismini yoritishni oshirish imkonini beradi.

Yevropacha faraning tarqatgichi yorug'lik taqsimlashda katta rol o'ynamaydi. Taqsimlagichning pastki yarimining katta qismi yaqinni yoritishda ishlamaydi va uzoqni yoritishni yaxshiroq taqsimlashga mo'ljallangan.

**Faraning konstruksiyasi.** Faraning metall-shishali optik elementi fokus masofasi 27 mm bo'lgan paraboloid qaytargich 12 (3.28-rasm), tarqatgich 13 va lampa 3 dan iborat. Qaytargich po'lat lentadan yasaladi. Alyuminiylashtirilgan qaytaruvchi yuza oksidlanishning oldini olish, namgarchilikka va mexanik shikastlanishlarga chidamlilikni oshirish maqsadida yupqa qatlamlili maxsus lok bilan qoplangan. Tarqatgich qaytargichga yopishtirilgan.



**3.28-rasm. FG140 optik elementli bosh yoritish farasining tuzilishi:**

1 – optik element; 2 – ichki gardish; 3 – lampa; 4 – sozlovchi vint;  
5 – tayanch halqa; 6 – fara korpusi; 7 – flanetsli sokol; 8 – ulash kolodkasi;  
9 va 10 – simlar; 11 – simlarni tutib turgich; 12 – parabolik qaytargich;  
13 – yoygich; 14 – ekran; 15 – tutkich; 16 – rostlovchi vint

Faraning optik elementiga paraboloid qaytargichning tepe tomonidan birxillashtirilgan flanetsli sokolli ikki tolali lampa R45t-41 o'rnatilgan. Lampa klemmalari to'g'ri burchakli shtekerli plastinalar ko'rinishida yasalgan bo'lib, ularga 9, 10 simlar va simlarni ushlovchi 11 bilan birlashtiruvchi kolodka 8 kiydirilgan. Faraning optik elementiga shuningdek gabarit lampalari va to'xtab turish chirog'i lampalari o'rnatiladi. Cho'g'lanish lampasining to'g'ridan to'g'ri chiqadigan nurlarini to'suvchi ekran 14 qaytargichga ushlagich 15 yordamida parchinmixlar bilan qotiriladi.

**Yorug'lik signallari asboblari** yaxshi taniladigan bo'lishiga, signallarning rangini o'zgartirish va ular ishlashining shu'lali rejimi orqali erishiladi. Yorug'lik signallari asboblarida qizil, oq va

olovranglar ishlataladi. Ma'noli signallarni ajratish uchun ularning uzoqdan lozim bo'lgan darajada ko'rinishini ta'minlash juda muhim.

Signal asboblarining yorug'lik optik tizimi yorug'lik dastasini geometrik ko'rinishning ma'lum burchaklariga tarqatadi. Yorug'lik asboblarining geometrik ko'rinishi, yorug'lik signali biror to'siqlarsiz ko'rinishi lozim bo'lgan fazoviy burchak zonasini cheklovchi, vertikal va gorizontal tekisliklardagi burchaklar bilan tavsiflanadi. Yorug'lik signallari chiroqlari odatda assimetrik yorug'likni taqsimalagichga ega bo'ladi. Ularning geometrik ko'rinishining gorizontal burchaklari vertikal burchaklariga nisbatan ancha katta. Yorug'likning fazo bo'yicha taqsimlanishiga bo'lgan talablar asbob bajarayotgan funksiyalarga bog'liq.

Yorug'lik signallari chiroqlarining yorug'lik taqsimlanishi uning optik tizimi turiga bog'liq. Linzali va aralash optik tizimli chiroqlarni ajratishadi.


Linzali optik tizim, talab etiladigan yorug'lik kuchi va yorug'lik taqsimlanishi qaytargichsiz faqat tarqatgich yordamida ta'minlanishi mumkin bo'lgan yorug'lik asboblarida qo'llanadi. Bunday asboblarga gabarit chiroqlari, to'xtab turish chiroqlari, burilishni ko'rsatgichlarning yon tomondagi takrorlagichlari va boshqalar kiradi. Linzali optik tizimli yorug'lik signallari asboblari konstruktiv jihatdan korpus, cho'g'lanish lampasi va linzali yoki prizmatik mikroelementli tarqatgichdan tuzilgan. Korpusning ichki yuzasi oq rangga bo'yalgan bo'lishi mumkin.

Aralash optik tizimlarda zarur bo'lgan yorug'lik taqsimoti qaytargich 8 (3.29-rasm) va tarqatgich 9 bilan birga ta'minlanadi. Tarqatgich ham qaytargichdan chiqayotigan yorug'lik oqimini, ham lampa 7 dan kelayotgan qayta o'zgartirilmagan yorug'lik oqimini tarqatadi. Lampadan chiqayotgan yorug'lik oqimining qayta o'zgartirilmagan qismini qo'llash, yorug'lik signallari asboblarining yorug'lik texnik tavsiflarini yaxshilashga ko'maklashadi. Belgilangan geometrik ko'rinish burchaklarida aralash optik tizim tomonidan ta'minlanadigan katta yorug'lik kuchi ularning tormozlash va burilish signallarida qo'llanishiga sabab bo'ladi. Tarqatgichning rangi yorug'lik signallari asbobining vazifasi bilan belgilanadi.

Lampaning yorug'lik oqimi, korpus 1 ga yuzasi oynada ishlangan paraboloid qaytargich o'rnatilganda eng yaxshi tarzda ishlataladi.

Qaytargich yuzasi korpusda bevosita po'lat lentadan, ruh quymadan yoki plastmassadan yasalishi mumkin. Yorug'lik signallari chiroqlari qaytargichlarining ishchi yuzasi sifati va geometrik shakliga bo'lgan talablar odatda uncha yuqori bo'lmaydi.

Patron 6 qaytargich tarqatgichiga nisbatan lampaning to'g'ri o'rnatilishini ta'minlaydi. Lampaning o'qi qaytargichning optik o'qiga mos tushishi kerak.



### 3.29-rasm. Signal chiroq'ining tuzilishi:

- 1 – korpus;
- 2 – shtekerli ajratkich;
- 3 – ulash simi;
- 4 – prujinali tutashuv;
- 5 – o'rnatish paneli;
- 6 – lampa patroni;
- 7 – lampa;
- 8 – qaytargich;
- 9 – yoygich;
- 10 – yoygichni mahkamlash vinti;
- 11 – gayka;
- 12 – rezina qistirma;
- 13 – chiroqni mahkamlash bolti

Tarqatgichning korpus bilan ulanishi chiroqning ichki qismini tashqi muhitdan yetarlicha himoyalanishini ta'minlashi kerak. Vaqt-vaqt bilan ishga tushuvchi issiqlik manbai bo'lgan cho'g'lanish, lampali yorug'lik signallari asboblarini germetizatsiyalash mushkul vazifa. Odatda germetizatsiya rezina qistirma 12 yordamida ta'minlanadi.

*Orqa gabarit chiroqlari to'xtab turganda, yoritish chiroqlari va tormozlash signallarini qizil rang bilan belgilash qabul qilingan. Gabarit chiroqlari va tormozlash signallari bir vaqtda yoqilganda ularni aniq ajratish uchun ular turli gabaritli yorug'likka ega bo'lishi kerak. Qizil rangni periferik (tashqi) ko'rish yaxshi qabul qiladi,*

boshqa rangli chiroqlar yonganda yaxshiroq seziladi va monoxromatiklikni saqlaydi.

*Burilishning oldingi va orqa shu'lali signallari* olovrang bilan belgilanadi. Olovrang tunda bosh yoritish faralari va oldingi gabarit chiroqlari yoqilgan holatda yaxshi ko'rindi. Olovrang va qizilrang shuningdek yorug'lik qaytargichlar uchun ham qabul qilingan. Traktorning oldingi qismida bitta ham qizil rang bo'lmasligi kerak. Orqada oq rangni qo'llash faqat orqaga yurish chirog'i (aytgancha, orqaga yurish chirog'inинг oq rangi oldindagi yorug'lik asboblari kabi traktorning kuzatuvchi tomoniga qarab yurishini anglatadi) va raqam belgisini yoritish uchun ruxsat etiladi.

*Gabarit chiroqlar* traktorning mavjudligi va taxminiy kengligini ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Traktor oldida va orqasida ikkitadan gabarit chiroqlarga ega bo'lishi lozim. Hisob boshi o'qidan tarqalayotgan yorug'lik kuchi old va orqadagi gabarit chiroqlari uchun mos ravishda 4...60 kd va 2...12 kd bo'lishi kerak. Gabarit chiroqlari simmetriya tekisligidan bir xil masofada, bir xil balandlikda va traktorning bo'ylama o'qiga perpendikulyar bo'lgan bitta tekislikda joylashtirilishi kerak.

*Tormozlash signali* tormozlar ishga tushganda yonadi va traktor harakatlanishining sekinlashayotgan yoki to'xtayotgani haqida xabar beradi. Traktorda ikkita tormozlash signali bo'lishi kerak. Ular traktorning orqasiga bir xil balandlikda va uning simmetriya tekisligidan bir xil masofada o'rnatiladi. Tormozlashning juft signallari o'rtasidagi masofa 600 mm dan oshmasligi kerak. Bir rejimli chiroqlarda hisob boshi o'qidagi tormozlash signalining yorug'lik kuchi 40...100 kd bo'lishi kerak.

*Burilish ko'rsatkichlari* traktorchining traktor harakatlanish yo'naliшини chapga yoki o'ngga burish payti haqida signal berish uchun mo'ljallangan. Traktor ikkita old va ikkita orqa burilish ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak va ular bir xil balandlikda 400...1300 mm oralig'ida va traktor simmetriyasining bo'ylama tekisligidan bir xil masofada joylashtirilishi kerak.

Harakatlanish yo'naliшини o'zgarishi yo'lдаги vaziyatni jiddiy o'zgartiradi. Shuning uchun bu manevr haqida xabar beruvchi signallar yuqori darajada seziluvchan bo'lishi kerak. Bunga ularning yorug'lik kuchini oshirish va shu'lali rejimda ishlashi orqali erishiladi.

Burilish signallari ko'rsatkichlarining lipillash chastotasi  $1\dots2\text{ s}^{-1}$  orasida bo'ladi. Lipillash chastotasi  $1\text{ s}^{-1}$  dan kichik bo'lganda, harakatlanish ishtirokchilari uchun yo'ldagi vaziyatni baholashga ajratilgan vaqt ichida signalni ajrata olishiga kafolat berib bo'lmaydi. Lipillash chastotasi  $2\text{ s}^{-1}$  dan ortiq bo'lganda ko'z uni uzlusiz signal tariqasida qabul qiladi. Oldingi burilish ko'rsatkichlarining yorug'lik kuchi  $175\dots700$  kd ni, orqadagi bir rejimlilarniki esa - 50 dan 200 kd gacha.

Raqam belgisi ifodalangan jadval, unga nisbatan ma'lum holatda joylashtiriladigan bitta yoki ikkita chiroqlar bilan yoritilishi mumkin. Traktor harakatlanayotganda raqam belgisi yaxshi ko'rinishi va oson o'qilishi uchun yorug'likning jadval bo'ylab tekis taqsimlanishini ta'minlash kerak. Keng jadvalning qoniqarli tarzda yoritilishi uning uzun tomoni bo'ylab ikkita bir xil chiroqni o'rnatish bilan ta'minlanadi.

*Yorug'lik qaytargichlar* sutkaning qorong'u vaqtida, boshqa transport vositasidagi manbadan tarqalayotgan yorug'likni qaytarish yo'li bilan traktorning mavjudligini ko'rsatish va uning gabaritlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Yorug'lik qaytargich qaytaruvchi optik elementli passiv yorug'lik signallar asbobidir.

Kub shaklidagi yorug'lik qaytargich qirralari orasidagi burchak  $90^\circ$  bo'lgan uch qirrali uyalardan iborat. Uya qirralari yorug'lik qaytargichning ichki tarafida joylashgan. Uch qirrali uya uning diagonaliga perpendikulyar va odatda yorug'lik qaytargichning tashqi yuzasi bo'lgan tekislik bilan kesilgan kubning bir qismi. Yorug'lik qaytargich barcha uyalarining diagonallari bir-biriga va traktorning bo'ylama o'qiga parallel. Yorug'lik tashqaridagi silliq yuzadan o'tadi va uya qirralaridan uch karrali qaytargach, teskari yo'nalishda chiqadi. To'g'ri burchakli uch qirrali prizma yuzasining sathi va yorug'lik qaytargichning optik elementi chuqurligi katta bo'limganda, qaytarilayotgan yorug'lik kuchi yetarlicha bo'lgan yaxshi aks qaytaruvchi effektni ta'minlaydi. Tushayotgan va qaytayotgan nurlarning yo'nalishi tushish burchagi diagonaliga nisbatan  $\pm 20^\circ$  miyosida o'zgorganida deyarli mos keladi.

Yorug'lik signallari chiroqlari alohida asboblar ko'rinishida ishlangan bo'lishi mumkin. Biroq ularni joylashtirish uchun joyning yetishmasligi tufayli va montajni yengillashtirish maqsadida,

yorug'lik signallari chiroqlari turli kombinatsiyalarda old va orqa chiroqlar yoki chiroqlar bloki ko'rinishidagi umumiy konstruksiyalarga birlashtiriladi.

Yoritilishi lozim bo'lgan traktorning ichki xonalariga traktorchining kabinasi va kapot ostidagi soha kiradi. Ular kichik hajmlarga ega bo'lib, kichik quvvatli lampalar bilan yoritiladi. Plafonlar ko'zni qamashtirmaydigan tarqoq yorug'likni hosil qilishi kerak. bunga ularda xiralashtirilgan yoki yorug'likni diffuzion o'tkazadigan materiallardan yasalgan tarqatgichlarni qo'llash orqali erishiladi. Tarqatgichning ichki tomonidan xiralashtirish tegishli mexanik yoki kimyoviy ishlov berishdan keyin hosil qilinadi. Xiralashtirilgan yuzalarning o'tkazish va yutish koeffitsiyentlari mos ravishda 0,74...0,83 va 0,4...0,09 ni tashkil qiladi. Yorug'likni diffuzion o'tkazuvchi shishalar, ular orqali o'tayotgan yorug'lik dastasini 2 radianga teng bo'lgan fazoviy burchakda taqsimlaydi. Kabina plafonlari uchun sutil shishalaming o'tkazish va yutish koeffitsiyentlari mos ravishda 0,38...0,53 va 0,40...0,32 ni tashkil qiladi.

Kapot osti chirog'inining konstruksiysi uning ish xususiyatidan aniqlanadi. Kapot osti chirog'i, traktorchi yoki mexanikning ko'ziga tushayotgan, lampa yorug'lik nurlarini to'suvchi, buraluvchi qalpoqqa ega. Kapot osti chiroqlarining yorug'lik texnik tavsiflari me'yoranmaydi.

Strelkali nazorat-o'lchov asboblari va turli maqsadlarga mo'jallangan raqamli indikatsiyali asboblar traktorlarda nazorat lampalari yoki signalizatorlar bilan bir qatorda qo'llanadi. Optik signalizatorlar traktorchiga traktorning turli tizimlarida jiddiy yoki avariya vaziyati haqida xabardor qilib, nazorat-o'lchov asboblarini to'ldiradi, ba'zan esa ularni takrorlaydi. Optik signalizatorlarga: akkumulyator batareyasi zaryadining motor moylash tizimidagi bosimning avariya holatigacha pasayib ketishi va gabarit chiroqlarini yoqishini nazorat lampalari kiradi.

Optik signalizatorlar turli ranglarga ega. Qizilrang avariya yoki jiddiy holatlar signalizatorlari uchun, havorang – uzoqni yoritish yoqilganini nazorat lampalari uchun, lipillovchi yashilrang – burilish ko'rsatkichlarining soz ishlashi signalizatorlari uchun qo'llanadi.

Turli vazifali bir xil rangdagi signalizatorlarni ajratish uchun ularning yorug'lik filtrlariga piktogrammalar, sxematik rasmlar yoki belgilar chiziladi.

Optik signalizator alohida asbob ko'rinishida yasalgan bo'lishi yoki asboblar kombinatsiyasiga kiritilgan bo'lishi mumkin. Ba'zan bir nechta signalizatorlar umumiy korpusli bloklarga birlashtiriladi.

### 3.6. Nazorat-o'lchov asboblari

Traktorlar takomillashib borgan sari ular konstruksiyasining murakkablashishi, agregatlar, mexanizmlar va tizimlarning ishlashi va texnik holati haqidagi axborot hajmining ortishi bilan birga kechadi. Traktorchini harakatlanish tezligi, uning agregatlari va tizimlarining texnik holati to'g'risida tezkor holatda xabardor etish, texnologik jarayonning zarur bo'lgan darajadagi sifati va xavfsizligini ta'minlaydi, o'z vaqtida nosozliklarning yuzaga kelishining oldini olish yoki ularni aniqlab, bartaraf etish uchun zaruriy choralarни ko'rish imkonini beradi. Bu maqsadlarda, traktor kabinasida asboblar paneliga o'rnatilgan, turli nazorat-o'lchov asboblari (NO·A) qo'llanadi. Traktorchining ish o'rnini tashkil etishda axborot-o'lchov tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. U ishning barcha rejimlarida, boshqarish jarayonidan minimal darajada chalg'igan holda, istalgan vaqtda NO·A ko'rsatkichlarini o'qiy olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Nazorat panelidagi har bir asbobning o'rmi u uzatadigan axborotning muhimligiga va traktorchi bu asbobga qanchalik tez-tez murojaat qilishiga bog'liq.

Taqdim etilayotgan axborotning mohiyati va xususiyatiga ko'ra nazorat-o'lchov asboblari ko'rsatuvchi (ko'rsatkichlar) va signal beruvchi (signalizatorlar) larga taqsimlanadi.

Ko'rsatkichlar odatda shkala va strelkaga ega bo'ladi. Strelkaning shkalaga nisbatan chetlanishiga qarab o'lchanayotgan parametrning qiymatini aniqlash mumkin, bu traktorchiga traktorning nazorat qilinayotgan agregati yoki tizimi holatining o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Biroq asbob ko'rsatkichlarini o'qish va o'lchanayotgan kattalikni baholash uchun traktorchi ma'lum muddatga traktorni boshqarishdan chalg'ishi kerak.

*Signalizatorlar* (indiktorlar) traktorchini traktorning nazorat qilinayotgan agregati yoki tizimining funksional holati (ulangan, ulanmagan) yoki o'lehanayotgan bitta parametrlarning kritik qiymati (odatda avariya qiymati) haqida xabardor qilib turadi. Odatda bu asboblar panelidagi nazorat lampalari. Ko'rsatkichlarga nisbatan signalizatorlarning axborotchanligi kamroq. Signalizatorlar traktor agregati yoki tizimining ishlashi buzilib bo'lganda yoki shunga yaqinlashgan holdagina yoqiladi. Signalizatorlarning afzalligi shundaki, u muntazam kuzatuvni, axborotni tahlil etishni talab etmaydi va nazorat qilinuvchi tizimlar soz ishlab turganida traktorni boshqarishdan chalg'itmadi.

NO'A konstruksiyasining soddaligi, mexanik jihatdan mustahkamligi va nisbatan arzonligi bilan ajralib turadi. Ular harakatlanish tezligi va bosilgan yo'lni (spidometrlar) o'lehash, motorning aylanish chastotasi va ishslash vaqtini (motosoat hisoblagichli taxospidometrlar, taxomotohisoblagichlar), motor, elektr uskunalarini, boshqa agregatlar va tizimlar ishini nazorat qilish (yonilg'i sathimi, bosimni, haroratni, tok kuchi va kuchlanish ko'rsatgichlari) va traktor ishslashining avariya rejimlari (nazorat qilinayotgan tizimda bosim yoki haroratning avariya darajasida ortib yoki kamayib ketishi, akkumulyator batareyasining qayta zaryadlanishi yoki zaryadining tugashi va h.k.) haqida signal berishga mo'ljallangan.

Mexanik va elektr NO'Alari ajratiladi. Elektr asboblari traktor elektr uskunasining bort tarmog'idan quvvatlanadi. Mexanik asboblarda ko'rsatgichning qabul qilish mexanizmiga o'lehash sodir etilayotgan muhit (masalan, moylash tizimidagi, shinalardagi bosimni o'lehash uchun manometr va h.k.) ta'sir ko'rsatadi.

NO'A ham elektr kattaliklarni, ham noelektr kattaliklarni o'lehaydi. Elektr kattalikni elektr signaliga aylantirish oson bo'lib, uni qayd etish va uzatish uchun standart elektr apparaturasini qo'llash mumkin. Elektr o'lechov asboblarining inersionligi kichik bo'lib nazorat qilinayotgan obyektdan uzoq masofada o'lechovlarni o'tkazish imkonini beradi.

Noelektrik kattaliklarni elektr o'lehashda uni avval elektr kattalikka keyin esa o'lechov natijasiga aylantirish kerak.

Birorta noelektrik yoki elektrik kattalikni ma'lum funksional bog'liqlikda boshqasiga aylantirishni sezgir elementlar ta'minlaydi.

Traktorning nazorat-o'chov asboblarida bunday sezgir elementlariga deformatsiyalanishi haroratga proporsional bo'lgan termobimetall plastinalar, qarshiligi suriluvchining chiziqli yoki burchakli siljishiga proporsional bo'lgan reostatli o'zgartirgich va boshqalar kiradi.

Elektr NO·A datchiklar va ko'rsatkichlardan iborat. Datchiklar bevosita o'lchanayotgan muhitda o'rnatiladi va o'lchanayotgan noelektrik kattalikni, ko'rsatkich qabul qiluvchisiga aloqa tarmog'i bo'ylab keladigan elektr signaliga aylantiradi. Odatda datchik, noelektri kattalikni (moy bosimi, moy yoki suv harorati va h.k.) elektr kattalikka aylantirib beruvchi sezgir elementdir. O'z navbatida, ko'rsatgichning qabul qiluvchisida elektr signali strelkaning siljishiga aylantiriladi (axborotni taqdim etish usuli boshqacha bo'lishi ham mumkin) o'lchanayotgan kattalikning birliklarida darajalangan asbobning shkalasi bo'yicha nazorat etilayotgan parametrning qiymatini aniqlash imkonini beradi.

Signal beruvchi asboblarda qabul qiluvchi bo'lib, ma'lum rangdagi yorug'lik filtri bilan ta'minlangan nazorat yoki signal lampasi xizmat qiladi. Nazorat qilinuvchi muhit parametrining ma'lum qiymatida signalizator datchigi uzuvchi sifatida ishlaydi. Uzilgan holatda yorug'lik signalizatorlari kam sezilarli bo'lishi, ulangan holatda esa zudlik bilan traktorchining e'tiborini jalb etishi kerak.

Traktor NO·Ai o'lhash jarayonining fizik mohiyati bir xi! bo'lgani holda, sanoat va laborator asboblardan konstruksiysi jihatidan farq qiladi. Bu ularning traktorlarda ishlatilish xususiyatlari bilan bog'liq.

Foydalanishning murakkab sharoitlari traktor NO·Aiga qator talablarni qo'yilishiga sabab bo'ladi. Ular atmosfera bosimi 650..800 mm (86...106 kPa) simob ustuniga va atrof-muhit harorati -50°C li sovuq iqlimli hududlardan to harorati +50°C bo'lgan issiq iqlimli hududlarga ishga layoqatli bo'lishi kerak. Kapot ostidagi harorat +120°C gacha yetishi mumkin.

Bortdagि elektr uskunalarini tarmog'idan quvvatlanuvchi elektr asboblari o'zgaruvchan tok generatori o'rnatilgan generator qurilmasining to'g'rilangan kuchlanishi pulsatsiyalariga sezgir bo'lmasligi va nominal kuchlanish 12 va 24 V bo'lganda, kuchlanish

mos ravishda 11...16 va 23...28 V atrofida o'zgorganida, ko'rsatgich xatolarini oshirmasligi lozim.

Foydalanish vaqtida NO'Aga suv, yonilg'i, moy, iflos va chang tushishi mumkin. Asboblarning konstruksion materiallari ularni qoplab turuvchi materiallar ta'siriga chidamli bo'lishi kerak. Asboblar konstruksiyasi ularning ichki qismi germetizatsiyasini ta'minlashi lozim.

Strelkali asboblarning oldingi yuzasini jihozlash, ko'rsatuvchi va signal beruvchi asboblarning asboblar panelida joylashishi shunday bo'lishi kerakki, ko'rsatkichlarni va signallarni o'qishda, bu jarayonga ajratiladigan o'ta qisqa vaqt ichida axborotning yo'qolishi minimum darajasiga keltirilishi lozim. NO'Alar asboblar schitogida muhandislik psixologiyasi tavsiyalariga va kabinani estetik jihozlash talablariga muvofiq ravishda joylashtirilishi kerak. Strelkali va signalli asboblardan, shuningdek signal lampalaridan axborotni qabul qilish aniqligi ularning joylashishi bilan traktorchi ko'zi orasidagi masofaga, kuzatish burchagiga, asboblarning yoritilganligiga, harflar, raqamlar, streikalarning kattaligiga va rangiga bog'liq. Asboblar kabinaning shamol oynasida aks etmasligi va oynalardan aks tushirmasligi kerak.


NO'A narxining mashina umumiylar narxidagi ulushi katta emas. Shu bilan birga asboblar, ishdan chiqishining oldini olish uchun holati nazorat qilinadigan agregatlar va mexanizmlarning narxi yuz karra asboblar narxidan qimmat. Texnologik operatsiyalarni bajarishning zaruriy sifati va xavfsizligini ta'minlashda hamda traktorlarni ishlatalish ishonchlilikini oshirishdagi NO'Alarning ahamiyati muntazam ortib bormoqda.

Analogli mexanik va elektromexanik asboblarning o'rniغا, vakuum-lyuminissentli, yorug'lik diodlari va suyuq kristalli indikatorlar negizida yasalgan axborotni aks ettirishning elektron tizimlari paydo bo'lmoqda. Ularning qo'llanishi traktorchiga axborotni raqamli yoki grafik ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi.

Traktorlar konstruksiyasining takomillashishi boshqarishni avtomatlashtirishga, traktorchini mexanizm va tizimlar ishini muntazam ravishda nazorat qilib turishdan ozod etishga qaratilgan. Olinayotgan axborotni tahlil etish, qarorlar qabul qilish va ijrochi mexanizmlarga buyruqlarni berish bilan nazorat qilish turli elektron va

mikroprosessorli qurilmalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Elektron va mikroprosessorli qurilmalar avtomat ravishda axborotni toplash, tahlil qilish, bu axborotni ma'lum algoritm bo'yicha taqdim etish va asboblar ko'rsatkichlarini o'qish uchun traktorchini jalb qilish vaqtini minimumga keltirish imkonini beradi.

Nazorat va tashxislashning bort tizimlari rivojlanishi bilan nazorat qilinadigan parametrlar soni ham mos ravishda asboblar va signal lampalarining soni ham ortadi. NO'A datchiklari va ko'rsatkichlarining aniqligi, texnologiyabopligi va puxtaligiga bo'lgan talablar ortadi.




**3.30-rasm. Bosimni o'ichash asbobining sxemasi:**

*a* – elektrik; *b* – strukturaviy

**Bosimni o'ichash asboblari.** Traktorlarda bosim, moylash tizimida va dizel yonilg'i uzatish tizimida, pnevmatik tormozlash tizimida va transmissiya gidrotizimida o'ichanadi. Bosimni o'ichash asboblari buzuq bo'lgan traktorlarni ishlatalish, nazorat qilinuvchi tizimlarda avariya rejimini keltirib chiqaradi. Nazorat ishonchlilikini oshirish uchun ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bosimning yorug'lik yoki tovushli signalizatorlari o'rnatiladi, ular nazorat qilinayotgan muhitda bosim yo'l qo'yilmaydigan darajada pasayib ketganida yoki ortib ketganida ishga tushadi.

Bosim elektron ko'rsatkichining tuzilish prinsipi 3.30-rasmda ko'rsatilgan. Datchikdagi membrana *1* bosim *r* ni qabul qiladi va richagli uzatgich *2* orqali reostat *R1* dvijogini siljitadi. Dvijokning siljishi *1* bosim *p* ga proporsional. Bunda dvijok siljishi *1* ga proporsional ravishda qarshilik o'zgaradi. Ko'rsatkich chulg'amlaridagi tok kuchi va strelkaning burilish burchagi *a* reostatning *R2* qismi qarshiligiga to'g'ri proporsional bo'ladi, shu bois ko'rsatkich shkalasi o'lchanayotgan bosim *p* o'lchamlarida darajalanishi mumkin. Membrana siljishini elektr signaliga aylantirish uchun shuningdek kontaktli va chulg'amli termobimetall plastinalar ham qo'llanadi.



### 3.31-rasm. Moy bosimini nazorat qilish asbobi:

*a* – elektr sxemasi; *b* – reostat datchik; *c* – bosimni logometrik ko'rsatkichi;  
*1* – D datchikning korpusini shtutseri; *2* – membrana; *3* – reostat; *4* – rezistor;  
*5*, *6* va *7* – *Q* qabul qiluvchini (bosimni ko'rsatkichni) chulg'amlari; *8* – strelka;  
*9* – magnit; *10* – saqlagich; *11* – o'chirgich; *12* – akkumulyator batareyasi; *13* –  
korpus; *14* – asos; *15* – reostat polzunchasi; *16* – polzuncha o'qi; *17* – tayanch  
maydoncha; *18* – prujina; *19* – kachalka; *20* – rostlash vintlari; *21* – turtkich; *22* –  
dyuza; *23* – silindrik ekran; *24* – plastmassa yarimsinch; *25* – aylanadigan  
magnit; *26* – tovontagi; *27* – g'altak; *28* – ko'prikcha

Bosim bo'lmaganda datchik  $d$  ning qarshiligi (3.31-rasm) maksimal, uning magnitoelektrik (logometrik) qabul qiluvchisi  $Q$  chulg'ami 5 ga shuntlovchi ta'siri esa minimal darajada bo'ladi. Bu holda chulg'am maksimal magnit oqimi  $F1$  ni hosil qiladi. Chulg'am 5 ning magnit oqimi  $F1$  minimal darajada (nolga yaqin) bo'lib, maksimal bosimda u deyarli datchik  $D$  ning reostati 3 orqali qisqa tutashgan. Chulg'am 7  $F1$  oqimga qarshi yo'nalgan, magnit oqimi  $F2$  ni hosil qiladi. Chulg'am 6 chulg'am 5 va 7 larga nisbatan  $90^\circ$  burchak ostida joylashgan. Magnit oqimi  $F3$  ning kuchlanganlik vektori  $F1$  va  $F2$  oqimlarning kuchlanganlik vektorlariga nisbatan xuddi shunday burchak ostida joylashgan.

Ko'rsatkichning qabul qilgichi  $Q$  ning strelkasi bilan mahkam birlashtirilgan aylanuvchi magnitga kuchlanganlik vektori  $F1$ ,  $F2$  va  $F3$  magnit oqimlarining kuchlanganlik vektorlarining geometrik yig'indisini ifodalovchi, natijalovchi magnit oqimi ta'sir ko'rsatadi. Chulg'amlar 6 va 7 rezistor 4 bilan shuntlangan. Bu datchikning qarshiligi maksimal bo'lgan holda, chulg'am 5 da tok kuchini oshirish va chulg'amlar 6 va 7 da tok kuchini kamaytirish imkonini beradi. Datchikning qarshiligi minimal bo'lganida (maksimal bosimda) rezistor 4 chulg'amlar 6 va 7 ning tok kuchiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Bu ko'rsatkich qabul qiluvchisi strelkasining burilish burchagini oshirish imkonini beradi.

Aylanuvchi magnitning va strelkaning holati faqat natijalovchi magnit oqimi kuchlanganligining qiymati bilan emas, balki vektor yo'nalishi bilan aniqlanadi, shu bois traktor elektruskunasi tizimidagi kuchlanishning tebranishlari bosimni nazorat qilish asbobi ko'rsatkichlariga ta'sir etmaydi.

Membrana 2 (3.31-rasm, b) po'lat asosning ranti yordamida reostatli datchikning korpusi 13 ga joyashtirilgan bo'lib, unga uzatgich mexanizmli reostat 3 o'rnatilgan. Membrana o'rtasida itargich 21 joylashgan bo'lib, kachalka 19 orqali reostatning polzunogi 15 ga ta'sir ko'rsatgan holda uni o'qi 16 atrofida aylantiradi. Polzunokning burilishiga prujina 18 to'sqinlik qiladi. Polzunokning tebranishlari asbob strelkalari nazorat qilinayotgan tizimdagи bosimning pulsatsiyalanishida dyuza 22 (kanalli tig'in) orqali so'ndiriladi. Dyuza moyning oqib ketishiga katta qarshilik ko'rsatadi va kanalni tozalash uchun sterjenga ham ega.


Moy bosimi kamayganda membrana shaxsiy tarangligi tufayli polzunok va richagli uzatish detallari prujina 18 ta'siri ostida boshlang'ich holatga qaytib, bu holatda asbob strelkasi nolinchi holatga keltiriladi.

Ko'rsatkich qabul qiluvchisi barcha uchta chulg'ammlarining g'altaklari 27 (3.31-rasm, d) ikkita yarim karkaslarda 24 o'rnatilgan. Aylanuvchi o'zgarmas magnit 25 karkas ichida strelka 8 bilan bitta o'qda joylashgan. Magnit va strelka o'qi tovontagi 26 ga taqaladi. Ko'priq 28 asbob shkalasiga tirdak vazifasini o'taydi. Asbob yoqilgan holatda tizimning nolinchi holatga qaytishi, yarim karkaslar orasiga joylashtirilgan kichkina magnit yordamida amalga oshiriladi. Silindr shaklidagi ekran 23 asboblar panelidagi boshqa asboblarni g'altaklarning magnit maydonlaridan saqlaydi.

Elektr uskunalarining 12 va 24 voltli tizimlari uchun bosimni logometrik ko'rsatish mexanizmlari bir xil, ammo 24 voltli nominal kuchlanish uchun ko'rsatkichning elektr zanjiriga ketma-ket ravishda, ko'rsatkich korpusi ichiga joylashtiriladigan qo'shimcha rezistor ulanadi.

*Bosimning impulsli ko'rsatkichlarida* termobimetall plastinalar qizdirilganda o'z egriligini o'zgartira olish xususiyati qo'llanadi. Datchikdagi bimetall plastinaning bir uchi (3.32-rasm, a) qo'zg'almas qilib qotirilgan. Tok chulg'am  $R$  orqali o'tganda, plastina qiziydi, egiladi va kontaktlarni uzadi. Zanjirda tok to'xtaydi, plastina soviydi va yana kontaktlarni ulyaydi. Jarayon davriy ravishda qaytariladi. Nazorat qilinayotgan muhitda bosim  $p$  ning ortishida datchikning membranasi katta kuch bilan pastki kontakti termobimetall plastina kontaktiga siqadi. Bu kontaktlarning ulangan holat vaqtining ortishiga va uzilgan holatdagi vaqtining qisqarishiga olib keladi. Kuchlanish o'zgarmas bo'lganda, qabul qiluvchisi chulg'amdag'i ta'sir etayotgan tok kuchining qiymati faqat kontaktlarning ulangan holatidagi vaqtiga bog'liq. Impulsli ko'rsatkichning qabul qiluvchisi bimetall plastinali elektroissiqlik ampermetri hisoblanadi.

Impulsli asboblarning konstruksiyasi sodda, ularning ko'rsatkichlari kuchlanish tebranishlariga va tutashtiruvchi simning qarshiligiga bog'liq emas, biroq ular katta inersionlikka, kichik aniqlikka va qabul qiluvchi strelkasi siljishining kichik burchagiga ega.



### 3.32-rasm. Impulsli bosim ko'rsatkichi:

*a – elektr sxemasi; b – datchik; d – qabul qilgich; 1 – asos; 2 – g'ilof; 3 – prujinali plastina tutashuvi bilan; 4 – datchikning termobimetallik plastinasini; 5 – datchikning termobimetallik plastinasini chulg'ami; 6 – termobimetallik plastinaning tutashuvi; 7 – prujinalananadigan tutashuv; 8 – chiqarma; 9 – kronshteyn; 10 – rostagich; 11 – qo'shimcha rezistor; 12 – korpus shtutser bilan; 13 – membrana; 14 – strelka; 15 va 19 – rostlovchi sektorlar; 16 – qabul qiluvchining termobimetallik plastinasini; 17 va 20 – chiqarmalar; 18 – qabul qiluvchining termobimetallik plastinasini chulg'ami; 21 – rostlovchi sektorning prujinalananadigan plastinasini ilgagi; 22 – termobimetallik plastinaning ilgagi*

Bosimni ko'rsatuvchi impulsli datchik (3.32-rasm, *b*), nazorat qilinayotgan muhit bosimini qabul qiluvchi va kontakti massaga ulangan prujinalanuvchi plastina 3 ga ta'sir etuvchi membrana 13 ga ega bo'lib, u nazorat qilinayotgan muhit bosimini qabul qiladi va kontakti massaga ulangan prujinalanuvchi plastina 3 ga ta'sir etadi. Il-shakldagi termobimetall plastina bitta ishchi bo'limgan yelkasi bilan rostlanuvchi kronshteyn 9 ga qotirilgan. Plastina 4 ning ishchi yelkasining bo'sh uchida ikkinchi kontakt 6 joylashgan bo'lib, u prujinalanuvchi plastina 3 ning kontaktiga siqiladi. Bimetall plastinaning Π-simon shakli datchikning atrof-muhit haroratiga bog'liq bo'limgan holda ishlashini ta'minlaydi, chunki atrof-muhit haroratining ta'siri ostida plastinaning ikkala yelkasi ham deformatsiyalanadi, elektr toki esa chulg'am 5 joylashgan faqat bitta yelkani qizdiradi. Kronshteyn 9 holatini rostagich 10 ni burish bilan o'zgartirish mumkin. Rostlagich burliganda kontaktlarni siqish kuchi ortadi. Termobimetall plastina 4 massadan izolyatsiyalangan. Chulg'am 5 ning bir uchi plastina 4 ga kavsharlangan, ikkinchisi esa prujinalanuvchi kontakt 7 orqali klemma 8 ga ulangan.

Datchik mexanizmi g'ilof 2 bilan yopilgan. Datchik motorning moylovchi tizimiga korpus 12 ning shtutseri orqali ulanadi.

Bosim ko'rsatkichining qabul qiluvchisi ham II-shaklidagi termobimetall plastina 16 ga ega (3.32-rasm, d) bo'lib, bo'sh yelkasining egilishi qabul qiluvchining chulg'ami 18 dagi tok kuchining qiymatiga bog'liq. Nazorat qilinayotgan muhitda bosim qanchalik katta bo'lsa, datchikdagi kontaktlarning ulangan holati shunchalik uzoq davom etadi, qabul qiluvchi chulg'ami 18 dagi tok kuchining qiymati, plastina 16 ishchi yelkasining egilishi va plastina 18 bilan bog'liq bo'lgan asbob strelkasi 14 ning burilish burchagi shunchalik katta bo'ladi.

Avariya bosimi to'g'risida signal beruvchi datchik nazorat qilinayotgan muhitdagi bosimni qabul qiluvchi membranaga va nazorat lampasi zanjirida kontaktli elektr uzbekchiga ega.


**Haroratni nazorat qiluvchi asboblar** (harorat ko'rsatkichlari va signalizatorlar) asosan, motorning issiqlik rejimini baholash uchun mo'ljallangan. Suyuqlik bilan sovutiladigan motorlarda sovutuvchi suyuqliknинг harorati, havo bilan sovutiladigan motorlarda esa – motor moyining harorati nazorat qilinadi.

Datchikning turi bo'yicha harorat ko'rsatkichlarini termobimetall impulsli va termorezistorli magnitoelektrik (logometrik) larga ajratish mumkin.

Qabul qiluvchi 1 bilan ketma-ket ulangan haroratning impulsli ko'rsatkichining datchigi 5 tok manbaiga ulanganda, tutashgan kontaktlar 7 orqali termobimetall plastinaning chulg'ami 6 bo'ylab massaga tok o'tadi. Plastina qiziydi, egiladi va kontaktlar 7 ajraladi. Plastina soviydi va kontaktlar yana tutashadi. Jarayon takrorlanib turadi.

Kontaktlar 7 ning tutashgan holatidagi vaqtiga bog'liq tarzda qabul qiluvchining II-shaklidagi termobimetall plastinasining ishchi yelkasi chulg'ami 3 bo'ylab uziluvchan tok o'ta boshlab, uning ta'sir etuvchi kuchiga ishchi yelkaning egilishi va strelkaning siljishiga bog'liq bo'ladi. Nazorat qilinayotgan muhitning harorati qanchalik yuqori bo'lsa, kontaktlar uzilganidan keyin datchikning termobimetall plastinasi shunchalik asta soviydi va kontaktlar ulanganidan keyin chulg'amdan o'tayotgan tokdan shunchalik tez qiziydi.

Kontaktlarning tutashgan holatining nisbiy vaqtiga chulg'amlar 3, 6 zanjiridagi samarali tok kuchi va qabul qiluvchi termobimetall plastinasining ishchi yelkasi 4 ning egilishi kamayadi, asbobning ko'rsatishi esa ortadi. Nazorat qilinayotgan muhitning harorati 1100 °C bo'lganda datchikning termobimetall plastinasi kontaktlar 7 ni tutashtirmay qo'yadi, chulg'am 3 va 6 dagi tok to'xtaydi va strelka eng yuqori haroratga mos keluvchi o'ng tomondagi chekka holatda to'xtaydi.



**3.33-rasm. Termobimetallik impulsli temperatura ko'rsatkichi:**  
a – elektrik sxema; b – datchik

Haroratning impulsli ko'rsatkichi datchigi yupqa devorli latun ballon 13 ko'rinishida yasalgan (3.33-rasm, b) bo'lib, unga termobimetall plastina 10 joylashtirilgan. Ballon korpus 8 da joylashtirilgan. Plastinaning bir uchi asos 14 ning izolyatoriga qotirilgan. Plastinaning bo'sh uchida qo'zg'aluvchan kontakt 11 joylashgan bo'lib, u korpus bilan birlashtirilgan qo'zg'almas kontakt 12 ga siqiladi. Datchikning termobimetall plastinasi chulg'ami 9 ning bitta klemmasi plastinaga, ikkinchisi esa tok o'tkazuvchi detal 15 orqali izolyator 16 ga qotirilgan klemma 17 biriktirilgan.

Haroratning impulsli ko'rsatkichi qabul qiluvchisi bosimning impulsli ko'rsatkichi qabul qiluvchisiga o'xhash, faqat shkalasining belgilanishi va raqamlanishi bilan undan farq qiladi (3.32-rasm, d).

Haroratning elektromagnit ko'rsatkichi datchigi balloni 3 ning tubiga (3.34-rasm) tok o'tkazuvchi prujina 2 yordamida termorezistor 1 siqilgan bo'lib, uning qarshiligi haroratining o'zgarishi bilan 50...450 Om orasida o'zgaradi.

Datchik D va qabul qiluvchi tarmoqlarning biri bo'ylab tok manbaiga ulanganda qabul qiluvchi Q ning ketma-ket ulangan chulg'amlari 7 va 9 hamda termokompensatsion rezistor 10 ishga tushadi. Boshqa parallel tarmoqda tok chulg'am 6 va datchikning termorezistori 1 orqali o'tadi. Termokompensatsion rezistor 10 qabul qiluvchi chulg'amlari 6, 7 va 9 ning harorati o'zgorganida ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Chulg'am 7 chulg'amlar 6 va 9 ga nisbatan  $90^\circ$  burchak ostida joylashgan bo'lib, ular bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan magnit oqimlarini hosil qiladi, bu esa harorat ko'rsatkichining sezgirligini oshirish imkonini beradi. Strelka 8 bilan bitta valda joylashtirilgan o'zgarmas magnit 5 uchta g'altakning natijalovchi magnit oqimi kuchlanganligi vektorining o'zgarishiga bog'liq ravishda buriladi.


Haroratning magnitoelektrik ko'rsatkichi qabul qiluvchi konstruksiyasi jihatidan bosimning magnitoelektrik ko'rsatkichining konstruksiyasiga o'xhash, faqat chulg'amlar 6, 7 va 9 ning o'ramlar soni va shkalasi bilan farq qiladi. Nominal kuchlanishi 24 V bo'lgan harorat ko'rsatkichlarida ham qo'shimcha rezistor qo'llanadi.

Termorezistorli datchikli haroratning magnitoelektrik ko'rsatkichlari uzuvchi kontaktlarga ega emas, atrof-muhitning harorati va kuchlanishdan kamroq darajada ta'sirlanadi, strelkaning katta burilish burchagi hisobiga asbob ko'rsatkichlarini yaxshiroq o'qish imkonini beradi.

Sovutuvchi suyuqlik harorati ko'rsatkichining termorezistorli datchigi 3.34-rasm, b da akkumulyator batareyasi elektroliti harorati ko'rsatkichining datchigi esa 3.34-rasm, d da keltirilgan.

**Yonilg'i sathi ko'rsatkichlari.** Traktorlarda yonilg'i sathining distansion ko'rsatkichlarning elektromagnit yoki magnitoelektrik turlari o'rnatiladi. Ko'rsatkich datchiki yonilg'i bakiga, qabul qiluvchi esa – asboblar shitogiga o'rnatiladi. Datchik D da (3.35-rasm, a)


reostat 7, richag 5 va qalqovich 4 orqali siljiyidigan polzunok 6 joylashtiriladi. Yonilg'i sathining turli magnitoelektrik ko'rsatkichlari datchiklarining reostatlari 60 yoki 90 Om qarshilikka ega.




### 3.34-rasm. Temperaturani magnitoelektrik ko'rsatkichi:

*a* – elektr sxemasi; *b* – sovituvchi suyuqlikni temperaturasini ko'rsatkichni yarim o'tkazigichli datchigi; *d* – akkumulyator batareyasidagi elektrolit temperaturasini ko'rsatkich datchigi; 1 – termorezistor; 2 – tok o'tkazadigan prujina; 3 – ballon; 4 va 5 – doimiy magnitlar; 6, 7 va 9 – qabul qiluvchining chulg'amlari; 8 – strelna; 10 – rezistor; 11 – magnit ekrani; 12 – o'chirgich; 13 – akkumulyator batareyasi; 14 – chiqarmalar; 15 – chiqarmani izolyatsiyalovchi vtulka; 16 – zichlovchi qistirma; 17 – gazni olib ketish teshigi; 18 – korpus; 19 – polietilen silindr; 20 – latun ballon; 21 – qog'oz patron

Reostat simining bir uchi klemmaga, ikkinchi uchi – massaga ulangan. Massa bilan ulanish uchqun chiqishning oldini oladi. Bakda yonilg'i sathining o'zgarishi bilan qalqovichning siljishida reostat ishchi qismining qarshiligi o'zgarib, qabul qiluvchi  $Q$  chulg'amlaridagi toklarning nisbatini, barcha chulg'amlarning magnit oqimlarining natijalovchi kuchlanganligi vektori yo'nalishini, aylantiruvchi magnit va qabul qiluvchi strelkasi holatini o'zgartiradi. Yonilg'i sathining elektromagnit ko'rsatkichlari qabul qiluvchilarining va moy bosimi ko'rsatkichlari qabul qiluvchilarining kostruksiyasi bir xil. Asbob shkalasi yonilg'i baki hajmining ulushlarida darajalangan: 0, 1/4, 1/2, 3/4 va T.



*a*



*b*

### 3.35-rasm. Yonilg'i sathini magnitoelektrik ko'rsatkichi:

- a* – elektr sxemasi; *b* – nur diagrammasi; 1 – qo'shimcha rezistor;  
2 – o'chirgich; 3 – akkumulyator batareyasi; 4 – qalqovich; 5 – richag;  
6 – polzunok; 7 – reostat; D – datchik; Q – qabul qiluvchi


Reostat o'ramlarining o'lchamlari va qadami bakni to'ldirishi bilan qalqovichli richagning aylanish burchagi orasidagi bog'liqlikni belgilovchi, nurli chizma tasvirdan kelib chiqqan holda, har bir datchik turi uchun hisoblanadi (3.35-rasm, *b*). Rasmda raqamli va h indeksli harflar yonilg'i bakining to'ldirilish darajasini ifodalaydi. Bak bo'sh bo'lganda qo'zg'aluvchan richag bilan vertikal orasidagi burchak  $\alpha$  bilan belgilanadi.  $B$ ,  $\gamma$ ,  $\delta$  va  $\rho$  harflar bilan yonilg'inining turli sathlariga mos keluvchi richagning aylanish burchaklari belgilanadi. Nurli tasvir chizmasining qo'llanishi asbob shkalasining bir tekislilagini ta'minlaydi.

Elektromagnit turdag'i yonilg'i sathining ko'rsatkichlarida, strelkali ikki g'altakli qabul qiluvchining qo'zg'aluvchan tizimlarida o'zgarmas magnit o'rniغا po'lat langarcha ishlatalidi. Elektromagnit ko'rsatkichlarning kamchiligi shkalasining burilish burchagining magnitoelektrik ko'rsatkichlarnikidan kichikligi va o'lchovlardagi katta xatolikdan iborat.

**Tok kuchini ko'rsatkichlar.** Ular razryad va zaryad toklarning kuchini o'lchaydi, shuning uchun nolinchi bo'lim shkalaning o'rtasida joylashtiriladi. Qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas magnitli ko'rsatkichlar qo'llanadi.

Qo'zg'aluvchan magnitli 6 tok kuchini ko'rsatkich (3.36-rasm, *a*) strelka 7 bilan bir o'qda chulg'am 5 li ajraladigan karkas 3 ga ega.

Qo'zg'aluvchan magnit 6 ning qo'zg'almas magnit 2 bilan o'zaro harakatlanishi asbob ishlaganda strelkaning nolinchi holatga keltirilishini ta'minlaydi. Ishlayotgan tok qo'rsatkichining chulg'ami 5 rezistor 1 dagi kuchlanishning tushishiga mos keluvchi kuchlanishga ega.




**3.36-rasm. Qo'zg'aluvchan magnitli (magnitoelektrik) tok kuchini ko'rsatkichi**

Chulg'amdan o'tayotgan tok, strelkali magnitni tok kuchiga proporsional bo'lgan burchakka buruvchi magnit maydonini hosil qiladi. Rezistor 1 orqali zaryad toki o'tganda, strelka “+” ishorasi tomonga, akkumulyator batareyasi razryadlanganda esa “-” tomonga egiladi. Po'lat ekran 4 tok ko'rsatkichini begona magnit maydonlaridan himoyalaydi. Qo'zg'aluvchan magnitga cheklovchi 8 qotirilgan bo'lib, u halqali tirqish 9 ning ma'lum doirasida siljiy oladi. Shkala 10 (3.36-rasm, b) karkasda ko'prikcha yordamida qotirilgan.


Tokning elektromagnit ko'rsatkichida qo'zg'almas magnit 3 (3.37-rasm) asbob klemmalariga ulangan latun shinada qotirilgan. Yumshoq po'latdan yasalgan langarcha 2 strelka 1 bilan bitta o'qqa 5 joylashtirilgan. Shinada tok bo'lmasa, o'zgarmas magnit langarcha orqali strelkani nolinchi holatda ushlab turadi.

Akkumulyator batareyasi zaryadlanganda yoki razryadlanganda shina 4 orqali o'tayotgan tok, strelkali langarchani shinadagi tok kuchi va yo'nalishiga mos keluvchi burchakka egiltiruvchi magnit maydonini hosil qiladi. Elektromagnit tizimli qo'zg'almas magnitli tok ko'rsatkichlari konstruktiv jihatdan bir xil, o'lechov miqyosi va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladi. Magnit shunt 7 o'zgarmas magnit

ostiga, atrof-muhit harorati keltirib chiqaradigan qo'shimcha xatolikni kamaytirish maqsadida o'rnatiladi.



**3.37-rasm. Qo'zg'almas magnitli (elektromagnit) tok kuchini ko'rsatkichi**  
 a – sxemasi; b va d – konstruksiyasi; 1 – strelka; 2 – strelka yakorhasi;  
 3 – qo'zg'almas magnit; 4 – latun shina; 5 – yakorcha va strelka o'qi;  
 6 – o'q tayanchi; 7 – magnit shunt; 8 – asos; 9 – chiqarma




**3.38-rasm. Spidometrning tezlik va hisoblash qismlari**

**Spidometrlar. Taxometrlar.** Traktor harakatlanishining zaruriy xavfsizligini ta'minlash uchun spidometrning tezlikni o'lchaydigan qismi yordamida tezlik nazorat qilinadi. Navbatdagagi texnik xizmat ko'rsatishni ratsional rejalshtirish va yonilg'i-moylash materiallarini ratsional sarflash maqsadida odometr – spidometr bilan bir korpusga joylashtirilgan, hisoblaydigan qism yordamida bosib o'tilgan yo'l o'lchanadi. Tirsaksimon valning aylanish chastotasini nazorat qilish lozim bo'lgan hollarda, odatda spidometrning tezlikni o'lchash qismi ishlatiladigan taxometrlardan foydalanishadi.

Spidometrlar va taxometrlarning yuritgichlari uchun ularning troslarining uzunligi 3.55 m dan oshmasa, egiluvchan valiklar qo'llanadi. Egiluvchan valiklar juda uzun bo'lsa, spidometr strelkasi trosning burlishi oqibatida tebranadi. Bunday hollarda elektr yuritgichli spidometrlarni qo'llash lozim. Spidometrlar elektr va magnitoinduksion spidometrlarga ajratiladi. Mexanik va elektr yuritgichli barcha spidometrlarning magnitoinduksion tezlik qismlarining ishslash prinsipi bir xil.

Yuritgich valik 1 da (3.38-rasm) halqasimon o'zgarmas magnit qotirilgan bo'lib, uning ikkala qutbi disk gardishi bo'ylab joylashgan. Strelka 8 alyuminiy g'altak 3 bilan bitta o'qda qotirilgan. Magnit 2 aylanganda uning magnit maydoni g'altak 3, magnit maydoni va o'zgarmas magnit maydoni bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan uyurma toklarni hosil qiladi, bu esa strelkali g'altakni magnitning aylanish yo'nalishida burchagi aylanish chastotasiga proporsional bo'lgan burchakka buradi. G'altak o'qi va strelkaning burlishiga prujina-tola 5 qarshilik ko'rsatadi. Prujina 5 ning teskari ta'sir qiluvchi momenti o'q 6 ning aylanish burchagiga proporsional. Spidometrning shkalasi 7 teng taqsimlangan, chunki strelkali g'altakning burlish burchagi faqat magnitning aylanish chastotasiga proporsional. Magnit maydonining tarqalishini kamaytirish uchun magnit va g'altak yumshoq magnitli materialdan tayyorlangan ekran 4 ga joylashtiriladi.


Spidometr yuritgichining reduktori 13 uzatish qutichasining ergashtiruvchi valiga ulangan. Reduktoring uzatish soni markaziy uzatish soni va g'ildirakli traktor g'ildiragining yumalash radiusiga qarab tanlanadi.



### 3.39-rasm. Spidometrning hisoblash qismi:

a – tashqi ilashma bilan; b – ichki ilashma bilan; 1 – barabanchalar; 2 – tishcha; 3 – tishcha chuqurchasi bilan; 4 – tribki; 5 – yuritma shesternyasi; 6 – tribkini mahkamlash uchun kronshteyn

Hisoblash qismi uchta chervyakli uzatma 9, 10 va 11 ega yuritgichli valikda joylashgan bir kirimli chervyak tomonidan harakatga keltiriladi. O'ng chetdagi barabancha 12 kilometrning o'ndan bir qismini ko'rsatadi. Hisoblash qismi bosib o'tilgan masofani 99999,9 kmgacha hisoblaydi, shundan so'ng barcha barabanchalardagi noldan o'tib, sanashni boshidan boshlaydi. Hisoblash qismlari tashqi tishli ishlama (3.39- a rasm) va ichki (3.39- b rasm) tishli ilashma bilan yasaladi.



**3.40-rasm. Yassi kartushkali spidometr:**


1 – kartushka; 2 – magnit; 3 – hisoblash qismi yuritmasining chervyagi;  
 4 – moydon; 5 – korpus; 6 – magnit vali; 7 – kartushka tayanchi; 8 – magnit shunt;  
 9 – ekran; 10 – yoritish lampasining qalpoqchasi; 11 – kartushka o'qining  
 asosi; 12 – hisoblash qismi; 13 – shkala; 14 – tola prujina; 15 – strelka;  
 16 – shisha oyna; 17 – g'ilof; 18 – tola prujinani rostlagichi

Tashqi ilashmali hisoblash qismining har bir barabanchasi 1 (3.39-rasm, a) yigirmata tishga 2 va yuritma tarafidan ikkitadan tishga 3 va boshqa tomondan ular orasida botiqlikka ega. Oltita tishli trubka 4 barabanchalar bilan ilashishga kiradi. Barabanchaning ikki tishi 3 ga qaragan trubka tarafidan oltita tishdan uchtasi qisqartirilgan.

Boshlang'ich barabancha spidometrnning yurituvchi vali tomonidan aylantirilganida uning ikki tishi trubkaning qisqartirilgan tishiga yaqinlashadi, uni 1/3 aylanaga buradi va aylanishda davom etadi. O'z navbatida trubka keyingi barabanchani ikkita tishga yoki 1/10 aylanaga buradi. Har bir keyingi barabanchaning 1/10 oborotga burilishi dastlabki barabancha to'liq aylanganidan keyingina ta'minlanadi. Yassi g'altakli spidometr 3.40-rasmida ko'rsatilgan.

Elektryuritgichli spidometr sxemasi 3.41-rasmida keltirilgan. Spidometrnning datchigi o'zgarmas magnitdan qo'zg'atiluvchi uch

fazali sinxron generatoridan iborat. Stator datchigi g'altaklarida, faza bo'yicha  $120^\circ$  siljigan spidometr yuritgichi uzatuvchisi orqali uzatish qutichasining ergashtiruvchi validan aylanma harakatga keltiriladigan, magnitli rotorning aylanish chastotasiiga proporsional chastotali uch fazali o'zgaruvchan EYK indutsiyalanadi. Datchik fazalaridan bir  $L1$  ning musbat yarim to'lqini unga ulangan tranzistor  $VT1$  bazasiga keltirilganda, tranzistor ochiladi va tok akkumulyator batareyasidan tranzistor orqali spidometr elektromotorining tegishli g'altagi  $L1$  ga o'tadi.




**3.41-rasm. Elektr yuritmali spidometrning elektrik sxemasi:**

$L1'$ ,  $L2'$ ,  $L3'$  – datchik chulg'amlari;  $L1$ ,  $L2$ ,  $L3$  – spidometr elektromotori statorining chulg'amlari;  $VT1$ ,  $VT2$ ,  $VT3$  – tranzistorlar;  $R1-R6$  - rezistorlar

Datchik rotori  $120^\circ$  ga burilganidan so'ng  $L2$  g'altakning musbat yarim to'lqini tranzistor  $VT2$  ni ochadi va bu tranzistor qabul qiluvchining  $L2$  g'altagi orqali tok impulsini o'tkazadi. Rotor yana  $120^\circ$  ga burilganidan keyin  $L3$  g'altakkagini musbat yarim to'lqin  $L3$  g'altakda tok impulsini ta'minlaydi.  $L1$ ,  $L2$  va  $L3$  g'altaklardagi tok impulsulari datchik rotori bilan sinxron aylanuvchi magnit maydonni hosil qiladi. Bu maydon elektromotoring magnit rotori va g'altakdagি uyurma toklarini hosil qiluvchi spidometr magnitini aylantiradi.

### 3.7. Tovush signallari. Oyna tozalagichlar

**Tovush signallari** jaranglashi jihatidan shovqinli va tonal tovushlarga, konstruksiyasi bo'yicha esa o'zgarmas va o'zgaruvchan tokli, ruporsiz signallarga ajratiladi.



### 3.42-rasm. O'zgarmas tokli rupsorsiz tovush signali:

1 – ressor osmasi; 2 – sozlovchi vint; 3 – chiqish; 4 – qopqoq; 5 – elektromagnit; 6 – elektromagnit o'zagi; 7 – korpus; 8 – rostlovchi qistirma; 9 – membrana; 10 – uzgich; 11 – yakor; 12 - rezonator

O'zgarmas tokli rupsorsiz tovush signalining bitta klemmasi akkumulyator batareyasiga, ikkinchisi esa signal elektromagniti 5 ning elektrta'minoti zanjirini massaga tutashtiruvchi uzgichga ulangan. (3.42-rasm). Signal ulanganda elektromagnit 5 langar 11 ni tortadi va angar bilan birga rezonator 12 li membrana 9 siljiydi. Siljish oxirida langar uzgich 1 ning qo'zg'aluvchan kontakt plastinasini bosadi, elektromagnitning elektrta'minot zanjirini uzadi va membrananing tarangli kuchi ostida teskari yo'nalishda harakatlana boshlaydi. Uzgich 10 ning kontaktlari yana tutashadi va undan keyin membranalni langarning harakatlanish sikli davriy ravishda qaytariladi. Membrananing tebranishi rezonator 12 ga uzatiladi. Membrana va rezistorning tebranishi chastotasiga signalning jaranglash kuchi va tovush tarqalishining kerakli chastotali diapazoni bog'liq bo'ladi.


Signalning jaranglash sifati korpus 7 ning tashqarisida joylashgan vint 2 bilan rostlanadi. Rostlovchi vint uzgich 10 ning langar 11 ga nisbatan holatini o'zgartiradi. ShtepSELLI rozetkaning bir uchi orqali traktorning tovushli signali bilan tirkama mashinaning tugmachali uzgichi birlashtiriladi. bu bilan traktorchi va tirkamachi orasida signalizatsiya ta'minlanadi.

**Oyna tozalagich** traktor kabinasining shamol oynasini atmosfera yog'ingarchiliklari va ifoslardan tozalashga mo'ljalangan. Oyna tozalagichning komplektiga elektromotor, reduktor, krivoship-richagli

mexanizm, cho'tkalar va almashlab ulagich kiradi. Oyna tozalagich yuritmasining elektromotori parallel, aralash qo'zg'atuvchili va o'zgarmas magnitdan qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin.

Elektromagnit qo'zg'atuvchili kichik quvvatli elektromotorlar (60 vt) ikki qutbli qilib yasaladi. Langar o'zi o'matiladigan sirpanish podshipniklarda aylanadi. Kollektor mis tasmadan shtamplanadi. Trubadan yasalgan kollektorlar ham qo'llanadi. Kolletkor plastinalar soni langar paketi pazlari soniga teng. Langar va induktor paketlari qalinligi 0,6...1,0 mm bo'lgan po'lat plastinalardan yig'iladi. Qopqog'i va korpusi – po'lat tunukadan yaxlit tortilgan. Cho'tkalar, elektroizolyatsion materialdan yasalgan traversdagi qutichasimon turdagи cho'tka ushlagichlarga o'rnatilgan.

Quvvati 60 vt dan ortiq bo'lgan elektromotorlar polosali po'latdan yoki trubadan yasalgan korpusga ega. Korpusga qo'zg'atish chulg'amlari bo'lgan qutblar qotirilgan. Qopqoqlar o'zaro boltlar bilan qotirilgan. Langar qopqoqlarga o'rnatilgan zoldirli podshipniklarda aylanadi.



3.43-rasm. Doimiy magnitdan qo'zg'aladigan elektromotor

O'zgarmas magnitlardan qo'zg'aluvchi elektromotor langari 6 (3.43-rasm) kukunli materialdan tayyorlangan podshipniklar 7 da aylanadi. O'zgarmas magnitlar 4 korpus 3 da yassi po'lat prujinalar 5 yordamida qotirilgan. Cho'tkalar 2 kollektor 1 ga prujinalar bilan qisilgan. Elektromotor uzatish va harakatni o'zgartirish mexanizmi hamda boshqarish sxemasi bilan birga elektroyuritgich tizimini tashkil etadi. Ko'pincha elektromotor uzatish mexanizmi (motor-reduktor) yoki ijrochi qurilma bilan birlashtirilgan bo'ladi. Traktorlarda elektroyuritgich suv nasoslarini hamda isitgichlarning ventilyatorlari

va oldindan ishga tushiruvchi isitgichlar, oyna yuvgichlar va boshqa mexanizmlarni yuritish uchun qo'llanadi. Elektroyuritgich traktor harakatlanishining katta xavfsizligini, samaradorligini va traktorchining ishlashi uchun qulaylikni ta'minlaydi.

Oyna tozalagichlarning motoreduktorlarida uzaytirilgan val chervyakli reduktor bilan yakunlanadi. Chervyakli g'ildirak, elektromotor vali va g'ildiragining aylanma harakatini, cho'tka richagi bilan bog'liq bo'lган chervyakli reduktorning chiquvchi valining tebranma harakatiga o'zgartiruvchi krivoship-shatunli mexanizmni harakatga keltiradi.

### 3.8. Elektrojihoz sxemalari. Kommutatsiya va himoya apparatlari

**Elektrojihoz sxemalari.** Traktorlar uchun ikki turli sxemalar qabul qilingan: ulanishli (yig'uvchi, montajli). Prinsipial sxemalar turli elektroiste'molchilarni tok manbasiga ulanish usulini elektrojihoz tizimida iste'molchilarni ishlash prinsipini, ularni o'zar munosabatini, elektr zanjirlarda tok oqimini nazorat qilish, nosozliklarni aniqlash yo'llarini tasavvur qiladi. Ulanish shemar traktorda elektr iste'molchilarni aslida joylanishini ko'rsatadi, ularni montaj va ta'mirlash ishlari olib borishini yengillashtiradi. Ulanish sxemalarda simlarni haqiqiy bog'lari va bog'da har qaysi simlar uchini chiqish joylari ko'rsatilgan.

Iste'molchilarni tok manbasiga ulash joylarini tanlash paytida quyidagi asosiy nizomlarga rioya qilish kerak. Katta tok talab qiluvchi va qisqa vaqt ishlovchi hamda ularni ishlari avariya hodisalarida kerak bo'lган iste'molchilarni tok ko'rsatkich-akkumulyator batareya liniyasiga ulanadi. Bu guruh iste'molchilarga elektrostartyor, tovush signali, kapot tagidagi lampa, ko'chma lampali rozetkalar kiradi. Motorni ishga tushurilgan paytda foydalanadigan iste'molchilarni ulagich orqali tok ko'rsatgich-generator liniyasiga va o'sha liniyaga motor ishlash ishlamasiga qaramay, uzoq vaqt davomida foydalanadigan past tok kuchini talab qiluvchi asboblar ulanadi.

Barcha iste'molchilar ta'minlovchi zanjirlarni ishga tushirish tizimidan tashqari saqlagichlar bilan himoya qilinadi. Yoritish va ogohlantiruvchi tizimlarni alohida saqlagichlar bilan himoya qilish tavsiya qilinadi.

Traktorni elektrijihozlar tizimidagi nominal tok kuchlanishi 12 va 24v. 24v tok kuchlanishini ishlatish dizelni ishonchli ishga tushirish bilan bog'liq. Startyorlarni quvvati 4 dan 12 v gacha va nominal tok kuchlanishi 12 v bo'sha, startyor tizimidagi tok kuchi 500...1000 A gacha yetadi. 24 v ga o'tish tok kuchini ikki martagacha va o'sha simlar startyor tizimidagi quvvat yo'qotishlarni 4 martagacha kamaytiradi. Ishlatiladigan quvvatni pasaytirish akkumulyator batareyalarini sig'imini va o'lchamlarini kamaytirishga imkon beradi.

Elektrijihozlar tizimida past kuchlanishli (48 V gacha) simlar va yuqori kuchlanishli (yordamchi motorni magnetosida) simlar qo'llaniladi. Avtotraktor simlarni izolyatsiya qilish uchun rezina va polivinilxloridli plastik ishlatiladi. Plastik izolyatsiyali simlar moy, benzo va kislota turg'unlik bo'lib, yuqori va past haroratlarda ishchan hamda yong'inni tarqatmaslik xususiyatlarga ega. Simlarni turli rangligi bog'lardagi har qaysi sim uchini aniqlanishini osonlashtiradi. Simlarni uchi vintli qisqichlarda ularish uchun maxsus uchlik bilan ta'minlangan. Yakkalikda o'tkazilgan simlarda maksimal tok kuchi ularni qirqimiga, izolyatsiya turiga va atrofdagi haroratlarga bog'liq. Ikkitadan yettitagacha simlar to'plamida bittaga nisbatan mumkin bo'lgan tok kuchini 55% gacha pasaytirish lozim.

Elektrojihozlar tizimlarini ishonchli ishlashi kontakt birikmalarni holatiga va o'zgaradigan qarshiligiga bog'liq.


**Kommutsiya va himoya apparatlari.** Bularga o'chirgichlar, qayta ulagichlar, rele, kontaktorlar, elektromagnitlar, saqlagichlar (saqlagich bloklari) ulash panellari, ajratgich birikmalar, vilka va rozetkalar kiradi.

O'chirgichlar yoritish, ogohlantirish, tormoz signallarini, tovush signallarini, ventilyator, isitgichlar, elektrostartyorlar, nazorat-o'lchash asboblar, akkumulyator batareyalarini massadan ajratish yoki qo'shish uchun ishlatiladi.

3.44-rasmida traktor elektrojihozlarni prinsipial sxemasi keltirilgan.

Konstruktiv belgilari bo'yicha o'chirgichlarni tugmachali, buramali, richagli, klavishali, qayta ulagichli, elektromagnitli, gidravlikaviy, burama, yechma dastalilarga ajratiladi. O'chirgichlarni nominal tok kuchlanishini 12 va 24 v. Qayta ulagichli o'chirgichlar oddiylardan (holati qo'shish va ajratish) 2 tadan 16 tagacha holati

borligi bilan farqlanadilar. Konstruktiv belgilari bo'yicha qayta ulagichlar osmali oyoq bosimli, tortkichli, reostat tortmalni, richagli, buramali, klavishali, saqlagich-tortmalni turlarga bo'linadi. Qayta ulagichlarni nominal tok kuchi 0,5...2,5 A gacha mo'ljallangan.



**3.44-rasm. Traktor elektr jihozlarining principial sxemasi**

- 1 - old fara; 2 - startyor relesi; 3 - elektroalangalli isitgich; 4 - tovush signali; 5, 16, 34 va 35 - ulagich panellar; 6 - haroratni xabarlash datchigi; 7 - generator; 8 - bosimni xabarlash datchigi; 9 - qayta ulagichlar; 10 - ventilator elektromotori; 11 - tovush kuchaytirgich; 12 - antenna; 13 - oyna tozalagich; 14 - radiopryomnik; 15 - radiopriy omnikni saqlagichi; 17 - oyna tozalagichni o'chirgichi; 18 - ventilator motorini o'chirgichi; 19 - orqa faralarni o'chirgichi; 20 - yonilg'i sathini ko'rsatgichi; 21 - asboblar panelini yoritish lampasi; 22 - taxospidometr; 23 va 58 - asboblar panelini shhtepsel ajratkichlari; 24 - plafon; 25 - yorug'likni almashlab ulagich; 26 - oyna yuvgich elektromotorini o'chirgichi; 27 - oyna yuvgich elektromotori; 28 - yorug'likni markaziy almashlab o'chirgichi; 29 - qo'shimcha qarshilik; 30 - nazorat elementi; 31 - isitgich va startyorni o'chirgichi; 32 - stop signalni o'chirgichi; 33 - shhtepsel rozetka; 36 - orqa yoritish chirog'i; 37 - orqa faralar; 38 - traktor belgisini yoritish chirog'i; 39 - yonilg'i sathini ko'rsatish datchigi; 40-to'xtab turish tormoz nazorat lampasini o'chirgichi; 41 - ishga tushirish blokirovkasini o'chirgichi; 42 - ventilator elektromotorlarini blokirovkalash relesi; 43 - burilish ko'rsatichlarini almashlab ulagich; 44 - burilish ko'rsatichlarini relesi; 45, 47 va 52 - uzoq yorug'likni ulab-uzgichni va burilishni. to'xtab turish tormozini holatini xabarlash nazorat lampalari; 46 - suv haroratini ko'rsatich; 49, 50 - moylash sovitish tizimlarda avariya holatini xabarlash nazorat lampalari; 51 - tovush signalini o'chirgichi; 53 - massani o'chirgichi; 54 - saqlagich bloki. 55 - akkumulyator batareyalar; 56 - ko'chma lampalar; 57 - ko'chma lampani rozetkasi; 59 - shhtekerlarni ulash kolodkasi; 60 - startyor; 61 - suv haroratini ko'rsatish datchigi; 62 - ishga tushirish moslamasini o'chirgichi

Katta (10...2,5 A) tok kuchini kommutatsiya (o'zgartirish) qilish uchun va kommutatsiya joyi qo'shish yoki ajratish tartibini boshqarish pultidan uzoq bo'lsa relelar qo'llaniladi. Rele bir yoki bir nechta juft kontaktli elektromagnitli apparat bo'lib, past kuchli tok iste'mol qiladi.

Relelar elektrostartyorli motorni ishga tushirish tizimlarida, akkumulyator batareyalarni zaryadkalanishini nazorat qilishda, elektromagnitli klapanlarda va traktor burilishini ko'rsatadigan lampalarini o'qtin-o'qtin ishlashini ta'minlash uchun qo'llaydilar. Bir qator traktorlarda kontaktorlar qo'llaniladi. Ularni tok kuchi 50...150 A ga teng. Rele va kontaktorlarni asosiy parametrlari yuklanish tok kuchi, uzilish va qo'shilish tok kuchlanishi hisoblanadi.

Saqlagichlar iste'molchilarni va ularni zanjirlarini qisqa tutashlardan, o'ta yuklanish toklaridan, asboblarni noto'g'ri qo'shilishdan, simlarni massaga ulanishidan va boshqa hodisalardan himoya qiladilar. Traktorda tugmachali bimetall va eruvchan yakka yoki blokda joylashgan saqlagichlar ishlatiladi.

Eruvchan saqlagichlarda tasmali yoki simli, harorat metall erishga yetganda eriydigan qistirmacha bor. Qotishma eriganda nosoz zanjirni tok manbadan ajratadi.

Saqlagichni ishga tushish vaqtin nominal va yuklanish tok kuchlarini orasidagi nisbatga bog'liq. Saqlagichni o'rtacha ishga tushish vaqtin simlar izolyatsiyasini ruxsat etilgan maksimal haroratgacha qizishiga ketadigan vaqtidan kam bo'lishi lozim.

Bimetall saqlagichlar bir va ko'p marta ishlatiladigan bo'lishi mumkin. Himoya qilinadigan elektr zanjirlarda ko'p marta ishlatiladigan saqlagich kontaktlari vaqtini-vaqtini bilan qo'shib ajralib turadilar.

Traktorlarda elektr jihozlar montaj qilinayotgan paytda, simlarni ulash uchun ulagich panellar, rozetkalarga vilkalar ishlatiladi. Ulagich panellarda 2 tadan 12 tagacha chiqmalar bo'ladi va 50 A gacha kuchli tok o'tkazish mumkin. Rozetkalarda 7 tagacha chiqmalar bo'ladi. Vilka va rozetkalar 40 A gacha maksimal tok kuchini o'tkazishga mo'ljallangan.

#### **4-bob.**

### **TRAKTOR TRANSMISSIYASI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOTLAR**

#### **4.1. Transmissiyaning vazifasi, tasnifi va unga qo‘yilgan talablar**

Barcha mobil energetika va transport vositalarining asosiy qismi ularning transmissiyalari hisoblanadi. G‘ildirakli va o‘rmalovchi zanjirli traktor transmissiyalari murakkab qurilmalar majmuasi bo‘lib, u qator agregat va qismlardan tashkil topgan.

Transmissiya energiyani manbalardan iste’molchilarga qulay bo‘lgan ko‘rinishda uzatib beradi.

Transmissiyalarini uzatishlar sonini o‘zgartirib berish usuliga qarab pog‘onasiz, pog‘onali va kombinatsiyalashgan turlarga bo‘lish mumkin.

*Pog‘onasiz transmissiyalar* berilgan uzatishlar soni oraliq‘ida, ularning istalgan qiymatlarida MTAning ishlashi doimo unumliroq va tejamliroq bo‘lishini ta‘minlaydi.

*Pog‘onali transmissiyalar* ma’lum uzatishlar soni oraliq‘iga (pog‘onasiga) ega bo‘lib, uning sohasida MTAning ishi yetarli darajada unumli va tejamli bo‘ladi.

*Kombinatsiyalashgan transmissiyalar* uzatishlar oraliq‘i aralash bo‘lib, unda uzatishlar sonini pog‘onasiz o‘zgartirish imkonи mavjud.

Burovchi momentni o‘zgartirib berish usuliga qarab ularni mexanik, gidravlik, elektrik va kombinatsiyalashgan turlarga bo‘lish mumkin.

Pog‘onasiz transmissiyalar bu belgilari bo‘yicha mexanik (friksion toroidlik, ponasimon tasmalik va impulsli-inersion), gidravlik (gidrodinamik va hidrohajmiy), elektrik (elektromexanik) turlarga bo‘linadi.

Pog‘onalik transmissiya mexanik hisoblanadi, unda burovchi momentni o‘zgartirish shesternyalik reduktorlar yordamida sodir bo‘ladi, ulardan biri uzatmalar qutisi (UQ) hisoblanadi, unda uzatishlar sonini o‘zgartirish tishlik uzatma juftliklari tishlari sonini tanlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Transmissiyalarning turidan qat’iy nazar, ular muayyan ishlatish va ishlab chiqarish talablariga mos kelishlari lozim:

- MTAning ish texnologiyasiga bog'liq holda, motor bilan bog'lanishi va undan ajratish puxtaligi;

- traktor harakatida (yuklama bilan ishlaganda) tortishga qarshilikning o'zgarishiga bog'liq holda umumiy uzatishlar sonini o'zgartirish imkonini mayjudligi;

- motor valining aylanish yo'nalishini o'zgartirmagan holda, orqaga harakatni ta'minlash uchun traktorning yetaklovchi g'ildiraklarini aylanish yo'nalishini, hamda burilishda yo'nining notejisliklarida harakatlanganda, g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirlik traktor burilishi uchun o'ng va chap yetaklovchi g'ildiraklarning aylanishlar chastotasi nisbatini o'zgartira olish imkoniyati bo'lishi;

- tirkama yoki osma mashina va uskunalarining ishchi organlarini MTAning harakati paytida yoki u statsionar sharoitida ishlaganda, hamda traktorning gidravlik tizimini energiya bilan ta'minlash uchun motor quvvatining bir qismini ajratib olinishini ta'minlashi;

- tuzilmasi jihatidan kompakt, yig'ma birliklar (agregatlar) korpuslarining gabarit o'lchamlari cheklangan bo'lishi, katta quvvat uzatish qobiliyatiga, yuqori FIKga va ishlash muddatiga, texnik xizmat ko'rsatishda kam mehnat sarfiga va yetarli darajadagi ta'mirlashga layoqatli bo'lishi.

## 4.2. Pog'onali transmissiyalar


Ko'pchilik qishloq xo'jalik va sanoat traktorlarining talaygina qismida, tuzilish jihatdan ancha mukammal, nisbatan sodda, ishlatishda qulay va puxta, ancha yuqori FIKga ega, qiymati pastroq bo'lgan pog'onalik shesternyalik transmissiyalar qo'llaniladi. Ularning asosiy kamchiliklari burovchi momentlarni pog'onali rostlanishi hisoblanadi, bu esa uni ko'p hollarda motor quvvatidan samarasiz foydalanishga olib keladi.

Pog'onalik transmissiyalarning kinematik sxemasi ikki turda bo'lishi mumkin. Birinchi an'anaviy sxemada (4.1-rasm a, b) motorning quvvati traktorning yetaklovchi g'ildiraklariga UQdan so'ng bo'linadi. bu bir markaziy uzatma (MU) bo'lishini taqozo qiladi, u odatda (o'rmalovchi yoki orqa g'ildiraklari yetaklovchi bo'lgan g'ildirakli) traktorning orqa ko'prigi korpusiga joylashtiriladi.

Bunday sxema nisbatan sodda, yaxshi joylashuvchan, ancha yuqori mexanik FIKga ega va qoniqarli darajadagi material sarfiga ega.

Ikkinci kinematik sxemadagi transmissiyada (4.1-rasm, d) motordan chiqqan quvvat UQ oldidan yoki unda bo'linadigan ikki MU bo'lishini taqozo qiladi. Bu sxemaning ijobiy tomoniga UQ va MU detallarining kam yuklanganligi va o'rmalovchi zanjirlik traktorning burish mexanizmining o'lchamlarini kichiklashuv imkoniyati mavjudligi, ularni transmissiyaning kam yuklamalik qismiga MUgacha o'rnatish mumkinligi kiradi. Bu sxemaning xususiyatlaridan UQ va burish mexanizmi vazifalarini aniq ajratib bo'lmasligi va bu vazifani birgina agregat bilan bajarish mumkinligi hisoblanadi. Bunday xildagi transmissiya faqat o'rmalovchi zanjirlik traktorlarga o'rnatiladi.

Orqa g'ildiraklari yetaklovchi bo'lgan g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirlik traktorlar transmissiyasining an'anaviy kinematik sxemalarida (4.1-rasm a, b) energiya manbai ichki yonuv motori I hisoblanadi, uning tirsaklı validan bo'linmagan quvvat oqimi transmissiyaning birinchi agregati ilashish muftasi 2 ga keladi. Ilashish muftasi transmissiyani motor bilan birlashtirish yoki ajratish uchun xizmat qiladi. Ilashish muftasidan so'ng quvvat oqimi UQ 3 ga yetib keladi, unda uzatilgan burovchi moment kerakli uzatishlar sonini hosil qiluvchi ilashmadagi shesternyalar yordamida pog'ononalik o'zgartiriladi. Odatda traktor UQda to'g'ri va oshiruvchi transport uzatmalari bo'lsa-da, u pasaytiruvchi reduktor hisoblanadi.



**4.1-rasm. Traktorlar pog'ononalik transmissiyasining  
prinsipial strukturaviy kinematik sxemasi:**

- a – an'anaviy g'ildirakli traktor; b – an'anaviy o'rmalovchi traktor;
- d – quvvat oqimi UQ dan oldin bo'linadigan o'rmalovchi traktor.

Konusli shesternyalar juftligi 4 MUni tashkil qiladi, u UQni traktorning yetaklovchi orqa ko'prigi ko'ndalang vali bilan birlashtiradi. MU UQdan chiqqan quvvat oqimini traktor bortlariga uzatiladigan ikki mustaqil oqimga ajratib beradi va bu reduktor doimiy uzatish soniga ega bo'lgan pasaytiruvchi reduktor hisoblanadi.

G'ildirakli traktorda MUning yetaklanuvchi shesternyasi differensial 7 (transmissiya mexanizmi) ning korpusiga o'rnatiladi. MU bilan oxirgi uzatma 5 ning yetaklovchi vallari kinematik bog'lanishda bo'ladi (4.1-rasm, a). Differensial traktoring yetaklovchi g'ildiraklari 6 ni burilishda yoki ularni yo'lning notekisliklarida harakatlanganda turli chastotalarida aylanish imkonini beradi. Doimiy uzatishlar soniga ega bo'lgan oxirgi uzatma, yakunlovchi pasaytiruvchi reduktor hisoblanadi va u ko'p hollarda traktoring yo'l tirqishini belgilaydi.

Motor quvvati bir qismini avvaldan nazarda tutilgan boshqa iste'molchilarga yetkazib berish uchun, g'ildirakli traktor odatda ikkitadan kam bo'limgan (orqa 8 va yonaki 9) QOV yuritmasiga ega bo'ladi.

O'rmalovchi traktorda quvvat oqimi tarmoqlari MU 4 dan (4.1-rasm, b) so'ng burish mexanizmi 5 ga, undan so'ng esa oxirgi uzatma 6 ga va yetaklovchi g'ildirak 7 ga (ularni yetaklovchi yulduzcha ham deb ataladi) uzatiladi. Burish mexanizmi o'ng va chap g'ildiraklar 7 ga turli yetaklovchi moment va aylanish chastotalarini uzatishni ta'minlaydi va unga muvofiq o'rmalovchi zanjirlik traktoring burilishi sodir bo'ladi. Ayrim burish mexanizmlari pasaytiruvchi (planetar) reduktor sifatida ham yasalishi mumkin. O'rmalovchi traktorda odatda bittadan kam bo'limgan QOV 8 ning orqa yuritmasi bo'lishi lozim.

UQdan oldin quvvat oqimi bo'linadigan (4.1-rasm, d) o'rmalovchi zanjirlik traktor transmissiyasida quvvat oqimi motor 1 dan ilashish muftasi 2 ga va undan so'ng tarqatuvchi shesternyalik reduktor 3 ga (uning yetaklanuvchi vallari ikki parallel UQ 4 ning yuritmasi hisoblanadi) uzatiladi. Bunday UQlarning boshqalardan farqi, traktoring harakati davomida oddiy friksion gidravlik siquvchi muftalar yordamida quvvat oqimini uzmasdan uzatmalarini almashtirilishi hisoblanadi.

UQ yetaklanuvchi vallariga ketma-ket tormoz 5 va alohida MU 6 ning yetaklovchi konusli shesternyasi o'rnataladi. Tormozlar 5 va UQning blokirovka muftalari bir paytning o'zida shu xildagi transmissiyalik o'rmalovchi zanjirlilik traktorning burish mexanizmining agregatlari hisoblanadi.

Oxirgi uzatma 7 va yetaklovchi g'ildirak 8 yuqorida ko'rib o'tilganiga mos keladi. QOV 9 ga yuritma odatda tarqatuvchi reduktor 3 orqali amalga oshiriladi.

#### **4.3. Transmissiyaning uzatish soni, FIK va yetaklovchi momentlar**

Transmissiyaning umumiy uzatish sonini  $n_0$  motor tirsakli vali aylanishlar chastotasi  $n_m$  ni yoki burchak tezligi  $\omega_m$  ni traktorning yetaklovchi g'ildiraklarining o'rtacha aylanishlar chastotasi  $n_g$  yoki burchak tezligi  $\omega_g$  ga nisbati deb qarash mumkin.

$$n_0 = \frac{n_m}{n_g} = \frac{\omega_m}{\omega_g}. \quad (4.1)$$

$n_g$  va  $\omega_g$  larning o'rtacha qiymatini o'ng va chap yetaklovchi g'ildiraklarning notekis aylanishiga muvofiq qabul qilinadi.

Shuning uchun  $n_g = \frac{n_{o'ng} + n_{chap}}{2}$  va  $\omega_g = \frac{\omega_{o'ng} + \omega_{chap}}{2}$ , bunda "o'ng" va "chap" indekslar mos ravishda o'ng va chap g'ildiraklar uchun.

Ko'rib o'tilgan pog'onalik transmissiyalarning umumiy uzatish sonini uni tashkil qiluvchi agregatlar uzatish sonlarining ko'paytmasi sifatida tasavvur qilish mumkin:

g'ildirakli traktorlar uchun  $u_{(0g)} = u_{ug} \cdot u_{mu} \cdot u_{on}$ ;

o'rmalovchi traktorlar uchun  $u_{(0g)} = u_{ug} \cdot u_{mu} \cdot u_{bm} \cdot u_{on}$ ,

bunda  $u_{ug}$ ,  $u_{mu}$ ,  $u_{bm}$  va  $u_{on}$  - mos ravishda UQ, MU burish mexanizmining va oxirgi uzatmaning uzatishlar soni.

Transmissiyaning uzatishlar sonini o'zgartirish asosan, UQ bilan amalga oshiriladi. Ammo bir qator transmissiyalarda MU va burish mexanizmi traktorning umumiy uzatishlar sonini ikki marotaba oshiruvchi ikki pog'onalik reduktor sifatida ishlab chiqiladi.

Motordan quvvatni yetaklovchi g'ildiraklarga yetkazib berishda, uning bir qismi transmissiyaning oraliq reduktorlarida tishli ilashma juftliklari dagi ishqalanish, ularning vallari podshipniklarida, ularning zichlovchilarida va korpusdag'i moyni sachratish natijasida

yo'qotiladi. Barcha quvvat yo'qotishlar transmissiyaning mexanik FIK  $\eta_r$  bilan hisobga olinadi, uning qiymati yetaklovchi g'ildiraklarga keltirilgan quvvat  $N_g$  ni motorning samarali quvvati  $N_e$  ga nisbatli bilan aniqlanadi:

$$\eta_r = \frac{N_e}{N_g} ,$$

Quvvat qiymatini uning tashkil etuvchilari bilan almashtirib va (4.1) ifodani hisobga olib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\eta_r = \frac{M_{g^*}\omega_g}{M_m\omega_m} = \frac{M_g}{M_mu_0} , \quad (4.2)$$

bunda  $M_m$  - motorning burovchi momenti;  $M_g$  - g'ildiraklardagi yetaklovchi moment.

(4.2) ifoda yordamida traktor g'ildiraklaridagi yetaklovchi moment  $M_g$  quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{g^*} = M_m \cdot u_0 \cdot \eta_r . \quad (4.3)$$

Shunday qilib traktorning yetaklovchi g'ildiraklariga berilgan moment, motor tomonidan hosil qilingan burovchi momentga, transmissiyaning uzatishlar soniga va uning mexanik FIK ga bog'liq.

#### 4.4. Traktorning tortish balansi va nur grafigi

Traktor tomonidan hosil qilingan tortish kuchi va motor ishining tejamkorligi to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun, traktor barqaror gorizontal tekislikda, ilgagida yuklama bilan shartli prinsipial sxemadagi harakatini ko'rib chiqamiz. Bunda inersiya kuchi va qiya tekislikda harakatlanganda hosil bo'ladijan og'irlik kuchining tashkil etuvchilari bo'lmaydi. Ilgakdagi yuklama va traktorning dumalashga qarshiligi o'zgarmas, harakatlantirgichning tuproq bilan tishlashuvchanligi ta'minlangan deb qabul qilamiz.


4.2-rasmda  $r_g$  radiusli orqa yetaklovchi g'ildiraklari 6 doimiy V tezlikka ega bo'lgan, klassik joylashuvdagagi g'ildirakli traktorning shartli harakat sxemasi keltirilgan.

Motor 1 ning  $M_m$  burovchi momenti transmissiya agregatlari ilashish muftasi 2, UQ 3, MU 4 va oxirgi uzatma 5 orqali yetaklovchi g'ildiraklar 6 ga yetkazib beriladi, ularda esa yetaklovchi moment  $M_g$  hosil qilinadi. Yetaklovchi g'ildiraklarni tuproq bilan puxta ilashma hosil qilinishi natijasida  $M_g$  momenti ta'sirida tuproqda

urinma reaksiyasi hosil bo'ladi, bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi  $P_g$ - traktorning harakat tomoniga yo'nalgan bo'ladi. Bu kuch  $P_g$ - ni urinma tortish kuchi deb atalib, bu kuch harakatlantirgich detallari orqali traktorning asosiga uzatiladi va uni oldinga harakatlantiradi. Bu kuchning bir qismi tuproq tomonidan shartli tasavvur qilingan yo'naltiruvchi g'ildiraklar 7 oldida hosil bo'ladigan traktorning dumalashga qarshiligi  $P_f$ -ni yengishga sarflanadi. MTA ishlaganda  $P_g$ - kuchining asosiy qismi traktor ilgagida foydali tortish kuchi  $P_h$ -ni hosil qilish uchun foydalaniлади, у ham traktorning harakat yo'nalishiga teskari yo'nalgan bo'ladi.

Traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlarni gorizontal tekislikka proyeksiyalab quyidagiiga ega bo'lamiz

$$R_g = R_f + R_{il} . \quad (4.4)$$



4.2-rasm. Klassik komponovkaga ega bo'lgan traktorning gorizontal yo'lda harakatlanish sxemasi

Bu tenglama traktorning barqaror, gorizontal tekislikdag'i harakatini tortish balansi tenglamasi deyiladi. U urinma tortish kuchi  $P_g$ - nimaga sarf bo'lishini ko'rsatadi. Agar traktor salt yurishda ilgakda yuklamasiz harakatlansa  $P_g = P_f$ . Bu yerda urinma tortish kuchi  $P_g$ - tuproq tomonidan traktorning harakatiga bo'lgan qarshiliginini yengishga sarflanadi.  $P_g$  kuchi bilan motor momenti  $M_m$  o'rtasidagi bog'lanish (4.3) ifoda bilan aniqlanadi.

Harakatlantirgichni tuproq bilan tishlashuvchanlig'i ta'minlanganda  $M_g$ - ni urinma tortish kuchi  $P_g$  va yetaklovchi

g'ildirak radiusi  $r_g$  orqali aniqlash mumkin:


$$M_g = P_g \cdot r_g \quad (4.5)$$

(4.3) va (4.5) ifodalardagi  $M_g$  ning qiymatlarini tenglab va tenglamani  $P_g$  ga nisbatan yechib  $P_g = \frac{M_m u_0 \eta_i}{r_g}$  ni hosil qilamiz.  $S = u_0 \eta_i / r_g$  deb qabul qilinsa,  $P_g = M_m S$  ni hosil bo'ladi.

$\eta_i$  va  $r_g$  kam o'zgarishini,  $u_0$  ning qiymati shu uzatma uchun o'zgarmasligini hisobga olib,  $S$  koeffitsiyenti qiymatining yetarli darajadagi aniqlikda qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, urinma tortish kuchi  $P_g$  motorning burovchi momenti  $M_m$  ga to'g'ri proporsional,  $S$  koeffitsiyentning qiymati transmissiyaning umumiy uzatish soni  $u_0$  ga bog'liq, uning qiymati UQ qaysi uzatmaga ulanganligiga qarab o'zgaradi.

MTAning barqaror harakatida tortish kuchi  $P_{il}$  mashina uskunasi tomonidan hosil qilingan  $P_m$  qarshilik kuchiga teng, ya'ni  $P_{il} = P_m$ .



4.3-rasm. Nur grafigi

Traktor transmissiyasida UQni qo'llanishi zarurligini ko'rsatish uchun uning ishini UQsiz ko'rib chiqamiz (4.3-rasm). Aytaylik, traktor katta uzatish soniga ega bo'lgan faqat bittagina uzatmaga ega bo'lsin, motorning nominal burovchi momenti  $M_{min}$  da va yonilg'ining minimal ilgak sarfida  $q_{il\min}$  nisbatan MTAning uncha katta bo'lmagan harakat tezligida eng katta tortish kuchi  $P_{g\max}$  hosil qilish imkonini bo'lsin. Ushbu chegaralangan tortish  $P_{g\max}$  oralig'ida MTAning ishi juda samarali bo'ladi.

Eng katta tortish qarshiligi  $P_m$  ga ega bo'lgan mashina-traktor agregatni qanday ishlashini ko'rib chiqamiz.  $P_m$  qarshilikka ega bo'lgan MTA ishi samaradorligini aniqlash uchun nur grafigini quramiz (4.3-rasm) unda abssissa o'qiga  $P_f$ ,  $P_{n1}$ ,  $P_g$  va  $P_m$  larning ordinatalar o'qiga esa  $M_m$ ,  $M_{mn}$  va  $q_n$  larning qiymatlarini qo'yib chiqamiz.  $P_f$  va  $P_g$  larning hisobi  $O$  nuqtadan,  $P_{n1}$  va  $P_m$  larning hisobi esa  $O_1$  nuqtadan boshlansin.  $P_{nl \max}$  nuqtagan perpendikulyarni  $M_{mn}$  nuqta orqali gorizontal bilan kesishguncha o'tkazib  $A$  nuqtani hosil qilamiz.  $OA$  nuri ma'lum bo'lgan  $P_g = M_m S$  proporsionallikni xarakterlaydi. Uning qiyaligi uzatishlar soni  $u_0$  ning qiymatini ifodalovchi  $S$  koeffitsiyentiga bog'liq. U qanchalik kichik bo'lsa  $OA$  nurining qiyaligi shunchalik kichik bo'ladi. Shu perpendikulyarning o'zida  $q_{nl min}$  ning qiymatini qo'yib uning  $P_n$  ga bog'liqlik grafigini quramiz.

Motor momenti MTA  $P_m$  qarshilik bilan ishlaganda  $M_n$  ni va ilgakdagi yonilg'ining nisbiy sarfi  $q_{nl}$  ni aniqlash uchun  $P_m$  nuqtadan perpendikulyar o'tkazamiz.  $I$  va  $I$  larning mos ravishda  $M_m$  va  $q_n$  larning birinchi uzatmadagi kesishish nuqtalari motorning past yuklama bilan va katta ilgak yonilg'i sarfi bilan ishlashini ko'rsatadi. Bu MTAning past unumдорлик ва tejamsizlik bilan ishlashini ko'rsatadi, chunki u uncha katta bo'lмаган tezlik va katta yonilg'i sarfi bilan harakatlanadi.

Bu MTA  $P_m$  ilgakdagi qarshilik kuchi bilan ishlaganda uning samaradorligini oshirish mumkinmi? Faraz qilaylik, bu traktorning UQda bir necha uzatmalar mavjud, avvalgiga o'xshash grafiklar qurishni  $P_{n1}$  ( $P_{n12}$ ,  $P_{n13}$  va  $P_{n14}$ ) larning past, harakat tezliklarining katta qiymatlarida (shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan), uch uzatma uchun amalga oshiramiz.

Bu grafiklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, MTAning ishi ikkinchi uzatmaga o'tganda motorning yuklanish darajasi  $M_m$  kattalashadi (2-nuqta), ilgakdagi yonilg'i sarfi  $q_{nl}$  kamayadi (2-nuqta). Uchinchi uzatmaga o'tganda motorning yuklanish darajasi nominal, (3-nuqta), ilgakdagi yonilg'i sarfi (3-nuqta) minimal darajasiga yaqinlashadi. Ammo to'rtinchi uzatmaga o'tish uchun qilingan harakat motorni va traktorni to'xtashga olib keladi, chunki  $P_n < P_m$ .


Shunday qilib, UQ yordamida doimo shunday (ushbu holda uchinchi) uzatmani tanlash mumkinki, unda MTA yuqori unumdorlik va tejamkorlik bilan ishlaydi.

#### 4.5. Gidrodinamik uzatmalar va gidromexanik transmissiyalar

Gidrodinamik uzatmalarning mexanik uzatmalardan farqi energiya manbai va iste'molchilar o'rtasidagi qattiq bog'lanishning yo'qligidir. Ulardagi parrakli g'ildiraklar iste'molchidan energiyani oluvchi va beruvchi ishchi suyuqlik bilan to'lg'izilgan umumiyl bo'shlida joylashgan bo'ladi.

Burovchi momentni o'zgartirmasdan faqat uzatuvchi gidrodinamik uzatmani gidrodinamik mufta, uni o'zgartiruvchi gidrodinamik uzatma esa gidrotransformator deb ataladi.

Gidromuftaning prinsipial sxemasi 4.4-rasmda keltirilgan. Gidromuftaning asosiy elementlariga yetaklovchi g'ilofli ikki parrakli nasos 2, yetaklanuvchi turbina 4 g'ildiraklar kiradi. Yetaklovchi val energiya manbai bo'lgan traktor motori yetaklanuvchisi esa transmissiyaning yuritma vali bilan ulangan. Gidromuftaning ishchi g'ildiraklari odatda radial parraklarga ega, nasos va turbinadagi parraklar soni rezonansni oldini olish maqsadida bir-birlaridan birmuncha farq qiladi. Ishchi suyuqlik bilan to'lg'izilgan g'ildirak kuraklari g'ilof 3 ichki sirti bilan gidromuftaning ishchi bo'shlqlarini hosil qiladi.



4.4-rasm. Gidromuftaning prinsipial sxemasi

Nasos g'ildiraklari aylanganda uning parraklari suyuqlikni qamrab oladi, tezlik bo'yicha ortuvchi markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik gidrodinamik bosim hosil qilib, g'ildirakning cheti tomon intiladi. Bunday bosim bilan suyuqlik turbina g'ildiragining chetiga uzatiladi va u o'z energiyasini turbina g'ildiragini aylantirishga sarflab uning markazi tomon intiladi, suyuqliknинг navbatdagi aylanish doirasini tugatadi (sxemada strelkali shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan).

Nasos g'ildiragi qanchalik tez aylansa, gidromufta shunchalik katta burovchi moment uzatadi. Shuning uchun ham gidromuftani ulash, uzatiladigan moment turbina g'ildiragining qarshilik momentidan katta bo'lsa, avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Gidromufta ishining farqli xususiyatlari g'ildiraklarni biroz shataksirashiga ehtiyoj tug'ilishidadir. Bu shu bilan bog'liqki, aylanish chastotalarining tengligi nasos va turbina g'ildiraklaridagi markazdan qochma kuchlarning tenglashuviga olib keladi, natijada suyuqlikni aylanishi va gidromufta tomonidan burovchi momentni uzatilishi to'xtaydi. Shataksirashning eng katta qiymati (100%) traktorning joyidan qo'zg'alishida, eng kichik qiymati esa uning barqaror harakatida (2...4 % atrofida) sodir bo'ladi.

Shataksirash qiymati sirpanish koeffitsiyenti bilan baholanadi.

$$S = (n_n - n_t)/n_n,$$

bu yerda:  $n_n$  va  $n_t$  – mos ravishda nasos va turbina g'ildiraklarining aylanishlar chastotasi.

$$S + \eta_{gm} = 1,$$

bu yerda:  $\eta_{gm}$  – gidromuftaning FIK.


Gidromufta bilan uzatiladigan moment

$$M = \gamma \lambda n_n^2 D^2,$$

bu yerda:  $\gamma$  – ishchi suyuqlikning solishtirma og'irligi;  $\lambda$  – proporsionallik koeffitsiyenti (moment koeffitsiyenti);  $D$  – gidromuftaning aktiv diametri (ishchi qismning eng katta diametri).

4.5-rasmida keltirilgan gidromuftaning tashqi xarakteristikasi  $n_n =$  sonst bo'lganda uning ko'rsatkichlari  $n_t/n_n$  ning qiymatiga bog'liqligini ifodalaydi.

Gidromuftalar friksion ilashish mustalarga nisbatan ma'lum afzallalliklarga ega:



**4.5-rasm. Gidromuftaning tashqi xarakteristikasi**


- ular MTAning ish rejimi keskin o'zgarganda motor va transmisiyadagi dinamik yuklamani anchaga kamaytiradi, bu ularning ilash muddatini oshiradi;
- ishlatalish paytida rostlash talab qilmaydi;
- boshqarishni soddalashtiradi va MTAning o'tuvchanligini yaxshilaydi.

Ammo ularning bir muhim kamchiligi mavjud – ular uzatmalarni ulash sifatini ta'minlay olmaydi, uzatmani almashtirish odatdag'i quvvat oqimini uzib uzatmalarni o'zgartiradigan ko'p bosqichli mexanik UQga nisbatan qiyinlashadi. Undan tashqari, ularni qo'llash transmissiyaning FIK biroz kamayishiga olib keladi, chunki ular har doim eng kamida 2...4% sirpanish bilan ishlaydi.

Gidrotransformatorning prinsipial sxemasi 4.6-rasm, a da ko'rsatilgan. U gidromuftadan farqli o'larоq, ikki harakatlanuvchi nasos 3 va turbina g'ildiraklaridan tashqari, bir qo'zg'almas reaktor g'ildiragiga ega bo'lib, u ichki qismida bo'shliq bo'lган val 5 ga qotirilgan. Gidrotransformator ishchi suyuqlikning oqimini yaxshi shakllantirish uchun uning ichki halqalari tor shaklida yasalgan, ularning tashqi sirtlari esa ishchi bo'shliqning chegarasi hisoblanadi. Bunday maqsad uchun g'ildirak kuraklari egri qilib yasalgan.

Reaktor 4 oqib o'tayotgan suyuqlik oqimi yo'nalishini o'zgartirsa, bunda u gidrotransformator qo'zg'almas korpusidan reaktiv moment  $M_r$  ni qabul qiladi. Buning natijasida reaktor nasos g'ildiragi 3 momentiga hidrotransformatorni ishslash paytidagi tezlik yuklanish rejimiga bog'liq holda xuddi bu reaktiv momentni turbina

g'ildiragi 2 ga uzatish uchun qo'shgandek yoki uning teskarisi  $M_n$  momentni uning momentidan ayirgandek bo'ladi.




**4.6-rasm. Prinsipial sxema:**

a – gidrotransformatorni; b – kompleks gidrodinamik uzatmaniki

Turbina g'ildiragi qo'zg'almas bo'lganda (traktor joyidan qo'zg'alayotgan paytida)  $M_t$  burovchi momenti unda eng katta qiymatga ega bo'ladi:

$$M_t = M_n + M_r \quad (4.6)$$

bunda  $M_n$  – gidrotransformatorning yetaklovchi o'qi 1 ga keltirilgan, nasos g'ildiragidagi motor burovchi momentiga teng bo'lgan burovchi moment.



**4.7-rasm. Gidrotransformatorning tashqi taysifi**

Turbina g'ildiragining aylanishlar chastotasiga bog'liq holda reaktorga kiruvchi ishchi suyuqlik, kuch hosil qiluvchi oqimining

yo'nalishi va unga mos holda reaktiv moment  $M_r$  ham o'zgaradi. Nasos g'ildiragining aylanishlar chastotasi  $n_n = \text{const}$  bo'lganda qurilgan gidrotransformatorning tashqi xarakteristikasi 4.7-rasmida keltirilgan. A nuqtadan chaproqda reaktor g'ildiragidagi moment nasos g'ildiragi momenti  $M_n$  momenti tomon yo'nalgan. Bunda turbina g'ildiragidagi  $M_t$  momenti (4.6) ifodadan aniqlanadi.  $M_t$  va  $M_n$  momentlarining tengligida ( $A$  nuqta) reaktiv momenti  $M_r$  nolga teng bo'lib qoladi. Turbina g'ildiragi  $n_t$  ning aylanishlar chastotasini yanada ( $A$  nuqtadan o'ngroqda) reaktor g'ildiragining burovchi momenti  $M_t$ , nasos g'ildiragi momentining qarama-qarshi tomoniga yo'nalgan bo'ladi.

Turbina g'ildiragi yetaklanuvchi validagi burovchi moment  $M_t$  ning o'zgartirish jarayoni uning aylanish chastotasiga bog'liq holda avtomatik ravishda sodir bo'ladi. MTA barqaror harakatlanganda valdag'i  $M_t$  momenti shu val 6 ga keltirilgan traktor harakaatiga qarshilik momentiga teng. MTAga tashqi yuklama oshganda val 6 aylanish chastotasi pasayadi va natijada kuch muvozanati tiklanguncha  $M_t$  momenti ortadi (4.7-rasmga qarang).

Gidrotransformatorning o'zgartira olish xususiyati transformatsiya koefitsiyenti (kuch uzatish bo'yicha uzatishlar soni) bilan baholanadi:

$$K_t = M_t / M_n \quad (4.7)$$

Gidrotransformatororda energetik yo'qotishlarni baholovchi FIK,

$$\eta_t = \frac{N_t}{N_n} = \frac{M_t n_t}{M_n n_n} = \frac{K_t}{u_t}, \quad (4.8)$$

bunda  $N_n$  - nasos g'ildiragi vali 1 ga berilgan quvvat;  $N_t$  - turbina g'ildiragi vali 6 dan chiqarib yuboriladigan quvvat;  $u_t = n_n / n_t$  - gidrotransformatorning kinematik uzatishlari soni.

Tashqi tavsifdan ko'rinish turibdiki (4.7-rasm),  $\eta_t$  katta oraliqda o'zgaradi.  $\eta_t$  ning maksimal qiymati 0,92 dan oshmaydi. Turbina g'ildiragidagi eng katta moment  $M_t$  va unga mos holda transformatsiya koefitsiyenti  $K_t$ , MTAning qo'zg'alish paytida  $\eta_t = 0$  bo'lganda sodir bo'ladi. Aylanishlar chastotasi  $n_t$  oshganda  $M_t$  momenti (mos ravishda  $K_t$ ) tushib ketadi,  $\eta_t$  esa ortadi,  $n_t / n_n = 0,5 \dots 0,6$  bo'lganda maksimumga yetadi.  $n_t$  ni yanada ortishi  $\eta_t$  ni sezilarli pasayib ketishiga olib keladi.  $n_t / n_n = 0,65 \dots 0,75$  bo'lganda

transformatsiya koeffitsiyenti  $K$ , birgacha pasayadi. Bu yerda  $M_r = M_n$ , bo'lsa, ishlab turgan gidromuftadagidek bo'ladi. Biroq turbina g'ildiragining aylanish chastotasini yanada oshishi,  $M_r < M_n$  bo'lsa,  $\eta$ , ni keskin pasayib ketishi, gidrotransformatorni yanada ishlatishni samarasiz ekanligini ko'rsatadi.

Agar gidrotransformatorning tavsifini avval keltirilgan gidromuftaning 4.7-rasmida shtrix chiziq bilan ko'rsatilgan FIK o'zgarish tavsifi bilan qo'shib yuborilsa, o'ngroqdagi  $A$  nuqtada gidromuftadan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatadi. Bu shu bilan bog'liqliki, uning FIK gidrotansformator shu tezlik rejimida ishlaganligiga nisbatan ancha yuqori (0,97 gacha) bo'ladi.

Gidrotransformatorning shunday tashqi tavsifini ta'minlash uchun, reaktorni uning korpusiga erkin harakatlanuvchi mufta 1 (4.6-rasm, b) orqali bikir qilib qotirilishi zarur. Bunda mufta 1 ning ponalanib qolishi shu darajada bo'lishi kerak-ki, reaktordagi moment musbat qiymatga ega bo'lsin (4.7-rasmida  $A$  nuqtadan chaproqda). A nuqtadan o'ngroqda reaktordagi moment  $M_r$  ning yo'nalishi o'zgaradi va u erkin aylana boshlaydi, chunki mufta 1 (4.6-rasm, b) ponalanmagan bo'ladi. Bunda gidrotransformator yuqoriroq FIKga ega bo'lgan gidromufta rejimida ishlay boshlaydi.

Bunday gidrotransformatorni *kompleks gidrodinamik* uzatma deyiladi, uning FIK odatdagagi qo'zg'almas reaktorli gidrotransformatornikidan yuqori bo'ladi.

Gidrotransformatorlar gidromuftalar kabi ijobjiy tomonlarga ega, undan tashqari turbina g'ildiragi qarshilik momentining qiymatiga bog'liq holda kinematik va dinamik uzatishlar sonini avtomatik ravishda o'zgartirib bera olish xususiyatiga ham ega.

Gidrotansformator xususiyatlarining oxirgisi traktor transmissiyalarida uzatishlar sonini bosqichsiz o'zgartiruvchi UQ sifatida foydalanish imkonini beradi. Ammo buning uchun traktor transmissiyasiga orqaga harakatlanish va motorni shataklab yurgizib yuborish uchun qo'shimcha mexanik reduktor o'rnatilishi lozim. Bu gidrotransformatorning traktor transmissiyasida UQ sifatida foydalanish mumkinligi ijobjiy xususiyatini biroz pasaytiradi.

Shuni ko'rsatib o'tish kerakki, traktorlardagi UQ sifatidagi gidrotransformator qo'llanilmaydi, chunki yuklamani rostlash

diapazoni nisbatan kam ( $K_t \leq 2.5 \dots 4$ ) va u MTAning talablariga javob bermaydi.

Shuning uchun ham transmissiyaning uzatishlar sonini pog'onasiz rostlash diapozonini oshirish uchun ko'p hollarda bir-birlari bilan ketma-ket yoki parallel ulangan *gidrodinamik* va *pog'onalik mexanik* uzatmalar birgalikda qo'llaniladi.

Ular ketma-ket ulanganda uzatishlar sonini rostlash diapazoni kattaroq, biroq uzatmaning FIK pastroq. Ular parallel ulanganda uzatmaning FIK ortadi.

Bunday uzatmalar (transmissiyalar)ni *gidromexanik transmissiya* deb ataladi.

Gidromexanik transmissiyalarda UQ uzatishlar sonini bosqichsiz o'zgartirish diapazonlari orqaga harakatni olishni ta'minlaydi, bunda berilgan diapazon ichida bosqichsiz uzatishlar soni qatorini olish imkonи paydo bo'ladi.

Gidromexanik transmissiyalarning asosiy ijobiy tomonlariga quyidagilar kiradi:

- harakatlanishga qarshilikka bog'liq bo'lgan holda traktor harakatlantirgichi yetaklovchi g'ildiraklarida burovchi momentni va MTAning tezligini avtomatik ravishda bosqichsiz o'zgartira olish;

- MTA ishlaganda oraliq gidravlik muhit bilan demferlash natijasida dinamik yuklama darajasini anchaga pasaytirish;

- hidrotransformatorning yuqori darajadagi energiya bilan to'yinganlik, tuzilmasining soddaligi va katta ishlash davriga ega bo'lganligi;

- MTAning joyidan qo'zg'alishini va shig'ovlashni osonligi;

- MTAning yuklash darajasi oshib ketganda motorning to'xtab qolishini oldini olish;

Gidromexanik transmissiyaning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- mexanikaviy transmissiyalarga nisbatan FIKning pastligi, yonilg'i sarfini biroz oshishiga olib keladi;

- MTAda texnologik harakat tezligini ta'minlab bo'lmasligi, qishloq xo'jalik traktorlari uchun muhim ahamiyatga ega;


- motorni shataklab yurgizib yuborish mumkin emasligi va transport ishlarini bajarishda MTA ni motor bilan tormozlashning samarasiz ekanligi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'p hollarda gidrotransformatorni friksion blokirovka qilish qo'llaniladi.

Gidromexanik transmissiyalar ko'proq g'ildirakli va o'rmalovchi sanoat traktorlarida qo'llanilmogda, unda 2-4 uzatmalik UQ qo'llaniladi.

#### 4.6. Gidrohajmiy va elektrik transmissiyalar

*Gidrohajmiy uzatmalar* energiyani suyuqlik bosimi bilan uzatish prinsipiiga asoslangan. Bunda ishlatish kuchi va burovchi moment amalii jihatdan ishchi suyuqliknинг harakat tezligiga bog'liq emas. Bunday uzatmada eng kamida bir-birlari bilan quvur o'tkazgich yordamida bog'langan ikkita asosiy gidravlik mashinalar: burovchi mexanik aylantiruvchi energiya oqimini ilgarilanma gidravlik kuch energiyasi oqimiga aylantirib beruvchi hajmiy gidronasos va gidravlik energiya oqimini teskarisiga mexanik energiyasi oqimi (burovchi moment) ga aylantirib beruvchi gidromotordan iborat bo'ladi.



4.8-rasm. Gidrohajmiy uzatmaning prinsipial sxemasi:  
a – ochiq turdag'i; b – yopiq turdag'i

Suyuqlikn ni nasosdan matoriga uzatish turiga qarab hidrohajmiy uzatma ochiq va yopiq bo'ladi, ularning prinsipial sxemasi 4.8-rasmida ko'rsatilgan. Ochiq hidrohajmiy uzatmada nasos va motor o'rtasida teskari hidravlik bog'lanish yo'q (4.8-rasm, a). Nasos 1 bak 4 dan ishchi suyuqlikn so'rib bosim bilan truboprovod 2 orqali hidromotor 3 ga uzatadi, undan so'ng suyuqlik yana bak 4 ga quyiladi. Tizim sodda bo'sada, ammo uzatiladigan quvvat miqdori bakning hajmiga bog'liq. Shu sababdan bu xildagi uzatmalar traktorlarda faqat


yordamchi qurilmalarga xizmat ko'rsatish uchun qo'llaniladi (servoqurilmalarda, moylash tizimlarida va boshqalarda).

Traktor transmissiyasi agregatlari sifatida asosan, yopiq turdag'i gidrohajmiy uzatmalar qo'llaniladi (4.8-rasm, *b*), ularda suyuqlik gidromotor 3 dan yana nasos 1 ning so'rish magistrali 6 ga keladi. Bunda to'ldirib turuvchi qo'shimcha nasos so'rish magistralidagi bosimni atmosfera bosimidan baland qilib ushlab turadi, bu bilan ishchi suyuqlik kavitsiyasini oldini oladi va uzatmani ishlash paytida oqib ketgan suyuqlikni kompensatsiya qiladi. Bak 4 ning kichik hajmida uzatma ixcham bo'ladi.


Traktor transmissiyalarida qo'llaniladigan gidrohajmiy uzatmalar ikki asosiy: to'liq oqimli (bir oqimli) va gidrodifferensial (ikki oqimli) guruhga bo'linadi. Bir oqimlik transmissiyada barcha energiya motordan ketma-ket bir (gidravlik va mexanik) oqim bilan harakatlantirgichning yetaklovchi g'ildiraklariga uzatiladi. Ikki oqimlik transmissiyada bosqichlarning birortasida bir oqimlik quvvatning ikki parallel, gidravlik va mexanik tarmoqqa bo'linadi, undan so'ng ular yana birlashadi.

4.9-rasmda g'ildirak formulasasi 4K2 bo'lgan traktor to'liq oqimlik gidrohajmiy transmissiyasining ikki prinsipial strukturali kinematik sxemasi ko'rsatilgan. Motor va orqa ko'priq yetaklovechi g'ildiraklari 5 bilan yig'masi orasiga truboprovod 6 bilan birlashtirilgan rostlanuvchan gidronasos 2 va gidromator 3 dan tuzilgan gidrohajmiy uzatma bloki o'rnatilgan (4.9-rasm, *a*). Bunday sxemada uzatmalar blokini ilashish muftasi UQga almashtiradi, transmissiyaning qolgan qismi odatdag'i traktorlarnikidek mexanik bo'ladi. Ushbu sxema asosida traktorning bosqichli mexanik transmissiyasini gidravlik bosqichsiz transmissiyaga osongina o'zgartirish mumkin.

4.9-rasm *b* da keltirilgan sxemada motor 1 ham rostlanadigan hajmiy gidronasos 2 ishlaganda, ishchi suyuqlik bosimini truboprovodlar 6 bilan traktorning yetaklovchi g'ildiraklariga o'rnatilgan ikki yuqori momentli gidromotor 3 va 4 uzatadi. Gidrohajmiy uzatmaning bunday sxemasi traktorning gidravlik transmissiyasini juda joylashuvchan qiladi.



**4.9-rasm. G'ildirakli traktor to'liq oqimlik gidrohajmiy transmissiyasining prinsipial strukturali kinematik sxemasi**



**4.10-rasm. Ikki oqimlik transmissiyaning prinsipial strukturali kinematik sxemasi**

Ikki oqimlik (gidrodifferensial) transmissiyaning prinsipial strukturali sxemasi 4.10-rasmda ko'sratilgan. Bir oqimlik energiya val 1 ga keladi, undan so'ng tishli uzatma 7 ishtirokida ikki oqimga ajratiladi. Energiya oqimining biri mexanik differensial-planetary reduktor 2 ga, ikkinchi oqim esa rostlanadigan hajmiy nasos 6 va gidromotor 5 dan tuzilgan hidrohajmiy uzatma blokiga keladi. Ikkala oqimni shesternyali uzatma 4 yetaklanuvchi val 3 da birlashtiradi. Bunday uzatmalarlarning ijobiyligi tomonlariga FIKni nisbatan yuqori

ekanligi, uning qiymati kinematik sxemasi to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa gidrohajmiy uzatmaning FIKdan yuqori bo‘ladi.

Ammo shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ikki oqimli transmissiya, odatda, MU va oxirgi uzatma mexanik reduktorlari bilan kompleksda doimo qo‘llaniladi, bu esa traktor transmissiyasining umumiy FIKini biroz kamaytiradi.

Gidrohajmiy transmissiyalarning asosiy ijobiy tomonlariga quyidagi lar kiradi:

- burovchi momentni keng diapazonda bosqichsiz rostlash va uni yetaklovchi g‘ildiraklarga ohista uzatish;

- transmissiyani joylashtirishda katta erkinlik va quvvatni traktorning yetaklovchi g‘ildiraklariga yetkazib berishning nisbatan soddaligi;

- traktor harakatini reverslash mumkinligi va yetaklovchi g‘ildiraklarni qo‘sishmcha qurilmalarsiz rostlangan tormozlash imkoniyati mavjudligi;

- motor va transmissiyani ortiqcha yuklamalardan saqlanishi;
- boshqarishni yengilligi va qulayliligi.

Gidrohajmiy uzatmalarning asosiy kamchiliklariga;

- mexanik transmissiyaga qaraganda past FIK ga egaligi;


- ishchi suyuqlikning past bosimlarida (10...15 MPa) katta gabaritga egaligi va katta bosim (28-35 MPa) da zinchashning murakkabligi;

- qiymatining balandligi va yasashning murakkabligi;

- FIK temperatura sharoitiga bog‘liqliligi.

Elektrik transmissiya bosqichsiz bo‘lib, unda burovchi moment traktorning yetaklovchi g‘ildiraklariga elektr energiyasi yordamida yetkazib beriladi. Ishlash xarakteri bo‘yicha u ko‘p jihatdan gidrohajmiy to‘liq oqimli transmissiyasini eslatadi, chunki unda dastlab motorning mexanik energiyasini elektr energiyasiga, undan so‘ng esa uning teskarisi yetaklovchi g‘ildiraklariga beriladigan mexanik energiyaga o‘zgartirib beradi. Elektr energiyasi manbai sifatida, odatda, traktor motori bilan harakatlantiruvchi doimiy tok generator hisoblanadi. Tokni teskarisiga mexanik energiyaga o‘zgartiruvchi bo‘lib, ko‘p hollarda ketma-ket uyg‘otuvchi katta yurgizib yuboruvchi va burovchi momentga ega bo‘lgan tortish elektromotori hisoblanadi. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ishslash

jarayonida bunday elektromotorlar yuklama bilan ishlaganda yaxshigina o'z-o'zidan rostlanish xususiyatiga ega bo'lib, yuklamasi ortib uning burovchi momenti ortadi, pasayishi bilan esa kamayadi. Elektromotoring bunday xususiyati elektrik transmissiyaning (UQ qo'llamasdan) bosqichsiz bo'lishiga imkon beradi.



**4.11-rasm. Elektrik transmissiya quvvatlari g'ildirakli traktoring prinsipial strukturali kinematik sxemasi**

Elektrik transmissiyalarning prinsipial strukturali sxemasi ham gidrohajmiydagiga o'xshash. Xususan, ayrim paytda transmissiyada UQ o'mniga bevosita MUDan oldin o'rnatiladigan elektrogenerator va elektromotordan tuzilgan blok o'rnatiladi, bunda traktoring orqa ko'prigi o'zgarishsiz qoladi.

Katta quvvatlari g'ildirakli traktorlarda tortuvchi elektromotorlar ko'p hollarda yetaklovchi g'ildiraklardan oldin o'rnatiladi, bunday strukturali sxema 4.11-rasmda ko'rsatilgan. Motor 1 elektrogenerator 2 ni harakatga keltiradi, undan so'ng elektr energiyasi boshqarish bloki 3 ga keladi. MTAning ish texnologiyasiga va yo'l sharoitiga muvofiq elektr energiyasi elektr kabellari 4 orqali yetaklovchi g'ildiraklar 6 ning tortish elektromotorlariga ulanadi. Tortish elektromotoring va yetaklovchi g'ildirakning bunday joylashtirilishini odatda "motor-g'ildirak" deb ataladi.

Elektrik transmissiyalarning afzalliklari:

- traktoring yetaklovchi g'ildiraklaridagi burovchi momentni bosqichsiz rostlash;

– traktorning g‘ildirak formulasini erkin tanlash va uning umumiy joylashishining soddaligi;

– transmissiyaning mexanikaviy qismini soddalashuvi;

– moto-g‘ildiraklarning birortasiga katta quvvat berishi mumkinligi.

Kamchiliklari quyidagilardan iborat:

– FIK ni nisbatan pastligi;

– rangli metallar va boshqa qimmatbaho materiallarning qo‘llanilishi;

– nisbatan yuqori tannarxi va transmissiya agregatlari massasining kattaligi.

Bunday transmissiyani katta quvvatga (650 kvt dan yuqori) ega bo‘lgan sanoat traktorlarida va maxsus vazifalarni bajaruvchi traktorlarda qo‘llash ma’kulroq.

## **5-bob. ILASHISH MUFTASI**

Ilashish muftasi zamonaviy traktorlarda, turli mexanizmlarda keng qo'llaniladi. Uni motor va uzatmalar qutisi orasiga, burish mexanizmlariga va quvvat oluvchi val yuritmalarga o'rnatiladi. Ilashish muftasi ko'proq motor maxovigiga joylashtiriladi.

Ilashish muftasida quyidagilar nazarda tutilgan:

– traktor ishlaganda burovchi momentni motordan transmissiyaga puxta uzatish;

– uzatmalarni zarbaisiz almashtirish maqsadida motorni transmissiyadan qisqa muddatga uzib qo'yish uchun;

– traktor harakati boshlanish paytida transmissiyaning harakatsiz yetaklovchi valini motorning aylanayotgan tirsakli valini, motorni to'xtatmasdan ohista ularash uchun;

– transmissiya va motorni traktoring ish rejimida tashqi o'zgarishlar sodir bo'lгanda keskin yuklamalardan saqlash uchun;

– motor ishlayotganda traktorni qisqa muddatga to'xtatish uchun.

Burovchi momentni uzatish usuliga qarab ilashish muftalari friksion, gidravlik va elektromagnit turlarga bo'linadi.

Friksion ilashish mufta (FIM)larda burovchi momentni uzatish yetaklovchi va yetaklanuvchi elementlarda hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi yordamida amalga oshiriladi.

Gidravlik ilashish muftalarida burovchi momentni uzatish ishchi suyuqlik oqimining yetaklanuvchi elementlarga dinamik bosimi (gidrodinamik muftalarda) yoki statik bosim (gidrostatik muftalarda) ta'sirida sodir bo'ladi. Gidrodinamik muftalar qator sanoat traktorlarida qo'llaniladi, chunki ular transmissiyadagi yuklamani kamaytiradi.

Elektromagnit ilashish muftalarida burovchi momentni uzatish, yetaklovchi va yetaklanuvchi qismlar orasidagi magnit maydoni ta'siri natijasida yoki ilashish muftasi elementlari ostidagi magnit oqimini tutashtiruvchi magnit kukunini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi. Elektromagnit ilashish muftalari uning puxtaligi past va gabarit o'lchamlarini katta bo'lganligi sababli zamonaviy traktorlarda keng tarqalmagan.

Hozirgi paytda zamonaviy traktorlarda FIMlar eng ko'p tarqalgan, chunki ular ilashish muftalarining boshqa turlariga

nisbatan kattaroq puxtalikka ega bo'lib, past tannarxga va kichik gabarit o'chamlariga ega. Shuning uchun ham keyingi tasnif faqat FIM uchun berilgan.

Ishchi yuzalarining harakatlanish yo'nalishiga qarab FIMlar o'qlik va radial turlarga bo'linadi.

Ishqalanish yuzalarining shakli bo'yicha diskalik FIMga va konuslik (o'qlik), hamda kolodkalik va tasmalik (radial) turlarga bo'linadi. Zamonaviy traktor tuzilmalarida puxtarq bo'lganligi uchun faqat diskalik FIMlar qo'llaniladi.

Disklar soniga qarab FIMlar bir, ikki va ko'p diskli bo'lishlari mumkin.

Ishqalanish sirtlarining ahvoli bo'yicha FIMlar "quruq" FIMga (ishqalanish sirtlari moysiz ishlaydigan bir, ikki va ko'p diskalik) va "ho'l" FIMga (moylik vannada ishlaydigan bir, ikki va ko'p diskalik) turlarga bo'linadi.

Siqib turuvchi mexanizmning tuzilishiga qarab FIMlar: doimo ulangan (ularning normal holati boshqarish organlariga traktorchi ta'sir etmasa ulangan bo'ladi) va har doim ulanmagan (ularning holati traktorchi tomonidan aniqlanadi va uzilgan holatdan ulangan holatga yoki uning teskarisiga ixtiyoriy o'tish traktorchining ishtirokisiz mumkin emas) turlari farqlanadi.

Detallar orqali uzatuvchi kuchaytirilgan quvvat oqimlari soni bo'yicha, quvvat oqimining barchasi motordan transmissiyaga uzatadigan FIMlar bir oqimlik, quvvat oqimining biri motordan transmissiyaga ikkinchisi esa QOV yuritmasiga uzatilsa FIM ikki oqimlik deyiladi.

Ikki oqimlik FIM friksion mexanizmlar soni bo'yicha:

- QOVga kuch oqimi FIMning yetaklovchi qismlaridan yoki motor maxovigidan quvvatni transmissiyaga uzatish uchun birgina FIMdan foydalanilsa, birlanma FIM;

- umumiy korpusda joylashgan ikki alohida FIMdan iborat bo'lsa (birinchi asosiy FIM quvvatni motordan transmissiyaga, ikkinchi FIM esa quvvatni QOV yuritmasiga uzatadi), uni ikkilangan FIM deyiladi.

Ikkilangan FIMlar boshqarish usuliga qarab bir tepki bilan boshqariladigan, ketma-ket boshqariluvchi va ikki tepkili (har bir FIM o'zining boshqarish tepkisiga ega) to'liq avtonom boshqariladigan turlarga bo'linadi.

FIMlarga qo'yiladigan asosiy talablar (umumtexnik talablardan tashqari) quyidagilardan iborat:

1. Motordan transmissiyaga burovchi momentni uzatishning puxtaligi. FIM zaxirasi koeffitsiyenti bilan aniqlanadi:

$$\beta = \frac{M_t}{M_{mn}},$$

bunda  $M_t$  – FIM uzata oladigan ishqalanish momenti;  $M_{mn}$  – motorning nominal burovchi momenti.

Diskli FIMlar uchun

$$M_t = Q \cdot f \cdot r_s \cdot i,$$

bunda  $Q$  – ishqalanish juftliklaridagi siquvchi kuch;  $f$  – friksion juftliklarning ishqalanish koeffitsiyenti;  $r_s$  – teng ta'sir etuvchi ishqalanish kuchining joylashish koeffitsiyenti;  $i$  – ishqalanish juftliklarining soni.

Traktor FIMlarining zaxira koeffitsiyenti  $\beta = 1,8 \dots 4,5$ . FIMlarning zamonaviy tuzilmalarida  $\beta \leq 3,0$ . "Ho'l" FIMlarda  $\beta = 1,2 \dots 1,8$ .

FIMlar bilan uzatiladigan burovchi moment hisobiy ishqalanish momenti  $M_t$  bilan chegaralangan, u traktor transmissiyasini va motorni katta yuklanishdan saqlaydi.

2. FIMning ulanishi, uni ishqalanish juftliklarida siquvchi kuchning oshishini ohista bo'lishini ta'minlaydi. FIMlarda ular ohistaligi ko'p diskllarda yaxshiroq, bir diskllarda yomonroq bo'ladi.

3. FIMlarning ajralishini to'liqligi (yoki sofligi) jilov momentining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Ko'p diskali FIMlarning to'liq ajraluvchanligi yomonroq.

4. FIMlar yetaklanuvchi qismlari inersia momentlarining qiymatlari kichik bo'lib, u uzatmalarni almashtirishda FIM valini tezda to'xtatish uchun zarur.

5. FIM ishqalanish sirtlarining issiqlik tarqatuvchanligi yaxshi bo'lib, u FIM ishlashining issiqlik rejimini yaxshilaydi, uni ular va MTAning shig'ovlash paytida shataksirashini kamaytiradi.

6. Aylanuvchi qismalarning yaxshi muvozanatlashtirilgani, motor valining katta aylanish chastotalarida FIM detallarida dinamik yuklamalarni kamaytirish uchun kerak.

### 5.1. Bir diskli ilashish muftalari

Bir oqimli bir diskli doimo ulangan to'xtatgich tormozokli FIMning principial sxemasini ko'rib chiqamiz (5.1-rasm). FIMning yetaklovchi qismiga, motor vali bilan bog'langan barcha detallar kiradi. Unga motorning maxovigi 1 va siquvchi disk 3, g'ilof 5 orqali maxovik bilan bog'langan yo'naltiruvchi qurilma 6 tegishli. Yetaklanuvchi qismi yig'ilgan holdagi friksion ustqo'ymalik yetaklanuvchi disk a, shlitsalik gardish b va diskli moyqaytargich d, hamda yetaklanuvchi val 4 dan iborat.


FIM quyidagicha ishlaydi. Traktorchi tomonidan boshqarish tepkisi 18 ga kuch qo'yilmasa, siquvchi prujina 15 lar siquvchi disk 3 ga ta'sir qilib, yetaklanuvchi disk 2 ni motor maxovigi 1 ga siqadi. Bunda maxovik 1 va yetaklanuvchi disk ustqo'ymasi, hamda siquvchi disk 3 va yetaklanuvchi diskning ikkinchi ustqo'ymasi o'rtasida hosil bo'lган ishqalanish kuchi hisobiga burovchi moment yetaklanuvchi val 4 orqali transmissiyaga uzatiladi.

Uzatiladigan moment yetaklanuvchi disk 2 ustqo'ymasining o'lchamlariga, friksion xususiyatlariga va siquvchi prujinalar 15 dagi kuchga bog'liq.

Uланган holdagi FIMda qaytargichning siquvchi podshipniknigi 12 va qaytaruvchi richaglari 10 orasida 2...4 mm li tirkish bo'lishi lozim. FIMni boshqarish tepkisi bosilganda, kuch birlashtiruvchi tortqi 20 orqali boshqarish yuritmasining tashqi richagi 21 ga richag 23 orqali qaytargich muftasi 13 ga uzatiladi. U siquvchi podshipnik 12 bilan birgalikda maxovik 1 tomonga surilib, dastlab siquvchi podshipnik va bo'shatuvchi richag orasidagi tirkishni bekitadi.

Bo'shatuvchi richag 10, qo'zg'almas o'qqa nisbatan burilib, sferik tayanch shaybalar 8, rostlagich gaykalar 9 va bo'shatish boltlari 7 orqali siquvchi disk 3 ni siquvchi prujinalar kuchini yengib, maxovik 1 tomonga suradi. Agar yetaklanuvchi disk 2 va yetaklanuvchi disklar (maxovik va siquvchi disk) orasida tirkish hosil bo'lsa, motordan yetaklanuvchi val 4 ga burovchi moment

uzatilmaydi (FIM uzilgan holatda bo'ladi). Biroq FIMning yetaklanuvchi qismlarining inersiyasi natijasida yetaklanuvchi disklar va val aylanishda davom etadi, bu esa uzatmalar qutisi bilan keyingi uzatmalarни ularash jarayonini qiyinlashtiradi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun traktor FIMlarida ko'p hollarda maxsus to'xtatuvchi tormozok qo'llaniladi.



**5.1-rasm. Bir oqimlik bir diskli doimiy ulangan to'xtatgich tormozokli FIMning sxemasi:**

- 1 – moyni chiqarish uchun mo'ljallangan g teshikli maxovik; 2 – friksion ustqo'ymali *a*, shlitsali gardishlik *b* va moyqaytaruvchi diskli *d* yig'ilgan yetaklanuvchi disk; 3 – siqvuchi disk; 4 – FIM ning yetaklanuvchi vali;
- 5 – FIMning g'ilofi; 6 – siqvuchi diskni yo'naltiruvchi qurilmasi;
- 7 – bo'shatuvchi boltlar; 8 – sferik tayanch shaybalari; 9 – rostlagich gaykalar;
- 10 – bo'shatuvchi richaglar; 11 – richaglarni tortib turuvchi prujinalar;
- 12 – qaytargichning siqvuchi podshipnigi; 13 – qaytargich mustfasi; 14 – FIM valining orqa podshipnigi; 15 – siqvuchi prujinalar; 16 – prujinani qotirish stakani; 17 – podshipnik tagi qo'yiladigan termoizolyatsion ustqo'yma; 18 – FIMni boshqarish tepkisi; 19 – tepki holatining tayanchi; 20 – birlashtiruvchi tortqi; 21 – boshqarish yuritmasining tashqi richagi; 22 – boshqarish yuritmasini qaytargich prujinasini; 23 – qaytargich mustfasi yuritmasining richagi; 24 – FIM valini tormozlash shkivi; 25 – prujina yuritmalik tormoz kolodkasi;
- 26 – tormozok yuritmasining richagi

Keltirilgan sxemada tormozok FIM yetaklanuvchi vali 4 bilan bikir bog'langan tormoz shkivi 24, prujina yuritmalik tormoz kolodkasi 25 va boshqarish yuritmasi tashqi richagi 21 bilan bikir bog'langan tormozok yuritmasi richagi 26 dan tuzilgan.

FIMni boshqarish yuritmasi shunday tuzilganki, boshqarish tepkisi 18 bosilganda dastlab FIM uziлади, undan so'нг esa ketma-ket richag 26 orqali, prujina yuritmalik kolodka 26 tormoz shkivi 24 ga siqiladi. Natijada kolodka va shkiv o'rtasidagi ishqalanish kuchi ta'sirida FIM to'xtaydi, bu esa uzatmalar qutisi bilan uzatmalarni zarbasisz almashtirishni ta'minlaydi.

FIM tepkisi 18 bo'shatilganda siquvchi prujinalar 15 ning kuchi hisobiga siquvchi disk 3, motor maxovigi 1 tomonga suriladi va yetaklanuvchi disk 2 ni maxovikka siqadi, bu esa FIMni ulanishiga olib keladi. Siquvchi prujinalar 15 ning kuchi boshqarish tepkisi 18, richaglar 23 va 21, hamda birlashtiruvchi tortqi 20 orqali, ketma-ket siquvchi disk 3 ga, bo'shatish boltlari 3 ga, bo'shatish richaglari 10 orqali siquvchi podshipnik 12 ga va qaytarish muftasi 13 ga uzatiladi.

Dastlab maxovik 1 tomonga siquvchi *disk* 3 ning surilishi tormoz kolodkasi 25 ning qaytishi hisobiga tormoz shkivini bo'shatadi va FIMni ulanishi sodir bo'ladi. Bo'shatuvchi richaglar 10 va siquvchi podshipnik 12 o'rtaida tirkish paydo bo'lganda, siquvchi prujinalardan hosil bo'lgan kuch yetaklanuvchi disk 2 ni FIMning yetaklovchi disklar orasida siqilishiga yo'naladi. Tepki 18 ning tayanch 19 gacha yanada surilishi, boshqarish yuritmasining qaytaruvchi prujinasi 22 ning kuchi hisobiga amalga oshiriladi.

Motor tirsakli vali orqa tayanchi zichlovchilarining ishdan chiqishi natijasida yoki ayrim paytlarda yetaklanuvchi val 4 podshipniklaridan chiqqan moyni yetaklanuvchi disk ustqo'ymlariga tushmasligini ta'minlash uchun yetaklanuvchi disk 2 tuzilmasiga maxsus moy qaytargich disk v o'rnatiladi, u moyni markazdan qochma kuchi hisobiga maxovikning chetidagi bo'sh sirtiga otib chiqaradi, so'ngra u maxovikdag'i teshik orqali FIM karteriga tushadi.

Bo'shatuvchi richaglarni FIM ulangan bo'lsa, ularni bir xil holatda ushlab turish uchun, tuzilmada tortib turuvchi prujina 11 nazarda tutilgan, ularning kuchlari siqib turuvchi prujinalar 15 ning kuchi qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi. Bu richaglarni o'z o'qlari

atrofida erkin qimirlab turishini oldini oladi va richaglar 10 siquvchi podshipnik 12 o'rtasidagi berilgan tirqishni ta'minlab turadi.

FIMni uzish mexanizmi ishlash kinematikasini ta'minlash uchun (ajratuvchi richag 10 bo'shatuvchi bolt 7 bilan tutashish nuqtasi shayba 8 va rostlovchi gayka orqali richag burliganda, radius bo'yicha siljiydi) bo'shatuvchi boltlar 7 siquvchi disk 3 va shaybalik bo'shatuvchi richag 18 bilan sfera bo'yicha tutashadi.


FIMni ularash va uzish jarayonida uning detallari qiziydi. Prujinani qizishi natijasida uning materialida relaksatsiya (elastik xususiyatini yo'qotilish) sodir bo'ladi, bu esa FIMning ishqalanish momentini va uning ish qobiliyatini sezilarlik pasayishiga olib kelishi mumkin (bunda FIM burovchi momentni motordan transmissiyaga uzata olmay qoladi). Shuning uchun ham ayrim FIMlarda prujinani qizishini pasaytirish maqsadida maxsus termoizolyatsiya qistirmalari qo'llaniladi.

FIMni shataksirashi paytida yetaklanuv disk 2 ning ustqoymalari yeyiladi. Natijada siquvchi disk 2 maxovik 1 tomon suriladi, buning natijasida ajratuvchi richag 10 va siquvchi podshipnik 12 o'rtasidagi tirqish kamayadi. Agar tirqish bo'lsa, siquvchi prujinalarning kuchi FIMning siquvchi diskiga uzatiladi. Ajratuvchi richag 10 va siquvchi podshipnik 12 bir-birlariga tayanib qolsa, siquvchi prujina kuchining bir qismi podshipnikka uzatiladi. bu esa FIM tomonidan uzatiladigan momentni kamayishiga va uning ish qobiliyatini yo'qotilishiga olib keladi. Shuning uchun ham traktorchi traktorni ishlatalish jarayonida bu tirqishni nazorat qilib boradi va uni traktorga texnik xizmat ko'rsatish paytida rostlaydi.

Siquvchi prujinalar 15 g'ilof bilan aylanish paytida FIMga aylanish markazidan radius bo'yicha yo'nalgan markazdan qochma ta'sir qiladi. Natijada prujinalar egiladi, bu esa ular tomonidan hosil qilingan kuchni siquvchi disk 3 ga ta'sirini kamayishiga olib keladi. Markazdan qochma kuchning prujinani egilishiga ta'sirini kamaytirish uchun ularni ko'p hollarda maxsus stakanlar 16 ga o'rnatiladi.

Zamonaviy FIMlarda silindrik prujinalar chetda joylashgan bo'ladi, bu esa ishqalanish sirtlarini, prujinalarni va ajratuvchi richaglarni bir-birlariga nisbatan simmetrik joylashishi hisobiga tekis siqilishini ta'minlaydi. Soniga qarab siquvchi prujinalar siquvchi diskda bir yoki ikki aylana bo'yicha joylashishi mumkin. Prujinalarni

markazlashtirish va ularni markazdan qochma kuch ta'siridan deformatsiyalanishini kamaytirish uchun stakanlardan tashqari siqvchi diskda va FIM g'ilosida (5.2-rasm) bobishka va bo'rtlamalar ko'proq qo'llaniladi. Siqvchi disk bobishkalari uni muvozanatlash uchun ham qo'llaniladi.




**5.2-rasm. Vintli silindrik siqvchi prujinalarni o'rnatish variantlari:**

1 – siqvchi disk; 2 – termoizolyatsion shayba; 3 – siqvchi prujinalar;  
4 – FIM g'ilozi

Vintli silindrik prujinalar chiziqli elastik tavsifga ega (5.3-rasm). Hozirgi paytda FIMlarning zamонавиy тузilmalarida ko'proq tarelkasimon chiziqli bo'lмаган tavsifga ega bo'lган prujinalar 2 qo'llanilmоqда. Улар FIM ishqalanish sirtlarida friksion ustqo'ymlarning yeyilishiga bog'liq bo'lмаган holda barqarorroq siqvchi kuch hosil qiladi.

5.3-rasm, b da ishlatalishning boshida vintli prujinalik va tarelkasimon prujinalik FIMdagi siqvchi kuch teng deb qabul qilingan ( $A$  nuqta). Ustqo'ymlar  $\Delta h$  miqdorda yeyilgan bo'lsa, tarelkasimon prujinalik FIMda siqvchi kuch o'zgarmaydi ( $B$  nuqta), vintli silindrik prujinali FIMda esa sezilarlik darajada kamayadi ( $B'$  nuqta). Uzilgan FIMda (prujinalarning cho'kish miqdori  $\lambda_3$ ) tarelkasimon prujinaning siqish kuchi ( $S$  nuqta) vintlik silindrik prujinaning siqish kuchi ( $S'$  nuqta) dan kichik bo'ladi. Shuningdek FIMni boshqarish tepkisidagi kuch ham kichik bo'ladi.



### 5.3-rasm. Siquvchi qurilmalar:

a – kesik tarelkasimon prujinaning umumiy ko‘rinishi; b – prujinalik siquvchi qurilmalarning elastik tavsifi: 1 – vintli silindrik; 2 – tarelkasimon;

$\lambda$  – prujinaning cho‘kishi;  $Q$  – siquvchi kuch;  $\Delta h$  – friksion ustqo‘ymalarning ruxsat etilgan yeyilishi;  $\lambda_1$ ,  $\lambda_2$  va  $\lambda_3$  – qo‘shilgan FIM prujinalarining cho‘kishi, mos ravishda ishlatishning oxirida va boshida hamda uzilgan FIMda

Tarelkasimon prujinaning elastiklik tavsifi motor valining aylanish chastotasiga bog‘liq emas. Shuning uchun tarelkasimon prujinalik FIMni katta aylanish chastotasiga ega bo‘lgan motorlarda qo‘llash mumkin. Tarelkasimon prujinalar vintli silindrik prujinalarga nisbatan FIMda qo‘llash uchun zamonaviyoq hisoblanadi.


Konusli vintlik prujinalar silindrik prujinalarga nisbatan bikirliroq, chiziqsiz elastik tavsifiga ega bo‘lganligi uchun FIMlarning zamonaviy tuzilmalarida qo‘llaniilmaydi. Zamonaviy ulangan FIMlarning ayrim tuzilmalari bilan tanishib chiqamiz.

5.4-rasmida kesikli tarelkasimon prujinalik FIM va yetaklanuvchi disk 7 tuzilmasining ikki varianti keltirilgan. Yuqoridagi kesimda aylanma tebranishni so‘ndiruvchi moslamalik yetaklanuvchi disk, pastdagi kesimda esa so‘ndirgichsiz yetaklanuvchi disk ko‘rsatilgan.

FIMning bu tuzilmasida prujina 1 ni to‘g‘ri o‘rnatish usuli qo‘llanilgan, u quyidagidan iborat, prujina tashqi diametri bilan siquvchi disk 2 ga tayanadi, qirqilmagan qismi esa ichki diametri bo‘yicha g‘ilof 3 ga tayanadi. FIMni uzish siquvchi podshipnik 4 ni motor maxovigi 5 tomon siljитish bilan ta’minlanadi. Buning natijasida qirqimli tarelkasimon prujina ikki yelkalik richag sifatida ishlaydi, u FIM g‘ilofi 3 qotirish nuqtasiga nisbatan buriladi. Bunda prujina yaproqlari motor maxovigi tomon, prujinaning chekka

qismlari esa tashqi diametri bo'yicha maxovikka qarama-qarshi bo'lgan tomonga siljyidi. Natijada siquvchi disk 2 xolis bo'ladi, bu esa o'z navbatida FIMni ajralishiga olib keladi.

FIMlarning zamonaviy tuzilmalarida siquvchi diskni qaytarish siquvchi diskni g'ilof bilan bog'lovchi tangensial plastinalar 6 ning elastikligi hisobiga amalga oshiriladi. Ulangan FIMda plastinalar 6 siquvchi disk 2 ni motor maxovigi 5 tomon siljishi hisobiga deformatsiyalanadi. Prujina 1 ning chetgi qismi siljiganda motor maxovigidan siquvchi disk 2 va plastinalar 6 elastiklik kuchi hisobiga majburiy ravishda yetaklanuvchi diskdan ajratadi, bu esa FIMni to'liq ajralishini ta'minlaydi.




**5.4-rasm. Qirqimli tarelkasimon prujinali to'g'ri o'rnatilgan FIM tuzilmasi:**

- 1 – qirqimli tarelkasimon prujina; 2 – siquvchi disk;
- 3 – FIM g'ilofi;
- 4 – siquvchi podshipnik;
- 5 – motor maxovigi;
- 6 – tangensial plastina;
- 7 – yetaklanuvchi friksion disk

Avvalgi tuzilmalarda FIM uzilganda siquvchi diskni ajralishini maxsus plastinkalik prujinalar bajargan, ularning bir cheti siquvchi diskka parchinlanib, ikkinchisi qirqimli tarelkasimon prujinaning qirqilmagan tomoniga tashqi diametri bilan kiritib qo'yilgan.

Qirqimli tarelkasimon prujinaning FIM g'ilofiga qotirish usuli, ishlatish jarayonida siquvchi diskning qaytish darajasiga sezilarlik ta'sir ko'rsatadi (5.5-rasm).

FIMlarning dastlabki tuzilmalarida (5.5-rasm, a) prujina 3 ni g'ilof 1 bilan biriktirish parchin mixlari 4 va prujinaning ikkala tomonida joylashgan ikki halqa 5 yordamida amalga oshirilgan. Grafikda ko'rsatilganidek, birikma (prujina 3 ning, g'ilof 1 ning parchin mixlar 4 ning va ikki halqa sirtlari) ning yeyilishi natijasida siquvchi diskning qaytishi, siquvchi podshipnikning ishlatish jarayonidagi bir xil surilishida kamayadi, bu esa FIMni to'liq ajratmasligiga sabab bo'ladi.




**5.5-rasm. FIM ning qirqimli tarelkasimon prujinasini qotirish usullari va ishlatish jarayonida siquvchi diskning qaytishini o'zgarishi:**

1 – FIM g'ilofi; 2 – siquvchi disk; 3 – qirqimli tarelkasimon prujina;  
4 – parchin mix; 5 – halqa; 6 – bo'rtlama; 7 – elastik halqa; 8 – tayanch halqasi;  
9 – grebenka;  $\Delta$  – siquvchi diskning qaytishi;  $N_S$  – FIM ulash sikllari soni

5.5-rasm, *b* da prujina 3 kerakli holatda, g'ilof 1 va parchin mixlar 4 ning tutashuv sirtlarining talab etilgan tirqishida qotirilgan. Bu usulda qotirilganda birikmaning puxtaligi ortadi (birikmaning yejilishi kamayishi hisobiga), detal turlarining soni kamayadi, tavsifning barqarorligi esa ortadi.

Bu afzalliklarning ancha katta qismi 5.5-rasm, *d* da keltirilgan tuzilmada amalga oshirilgan. Unda prujina 3 ning tayanchi, g'ilof 1 ning bo'rtlamalari 6 va ko'ndalang kesimi uchburchak shaklda bo'lgan elastik halqa 7 bilan hosil qilingan. Yig'ish paytida birikmada dastlabki tanglik hosil qilinadi, u FIMni ishlatish paytida tirqish hosil bo'lishini oldini oladi.

Xuddi shunday xususiyatga 5.5-rasm, *e* da keltirilgan tuzilma ham ega. Bu yerda tayanch halqa 3 va prujina 3 g'ilof 1 ning bukilmagan tilchalar bilan tortib qo'yiladi, grebenka 9 tishlari bilan g'ilof va prujinaning tegishli teshiklariga kirib turadi.



**5.6-rasm. Qirqimli tarelkasimon prujinasi teskari o'rnataligan FIM:**  
*A* – tashqi ko'rinishi; *b* – tuzilmasi

Zamonaviy traktor tuzilmalarida qirqimli 2 tarelkasimon prujinasi (5.6-rasm) teskari o'rnataladigan FIMlarni qo'llash g'oyasi ko'zga tashlanmoqda: prujina tashqi diametri bilan FIM g'ilofi 1 ga; ichki qirqilmagan qismi bilan esa siquvchi diskka tayanib turadi. Bunday tuzilmaning xususiy tomoniga siquvchi podshipnik 5 ning prujina 2 ning barglari bilan doimo tutashuvda bo'lishi hisoblanadi. Bunday

FIMni boshqarish tepkisining erkin yo'li boshqarish tuzilmasi bilan ta'minlanadi. FIMning boshqarish tepkisiga ta'sir bo'lganda siquvchi podshipnik 5 motor maxovigidan teskari tomonga suriladi. Bunda prujina 2 siquvchi podshipnik bilan birga siquvchi disk 3 dan orqaga siljiydi, u FIM g'ilof 1 bilan bog'lanuvchi tangensial plastinalarning elastiklik kuchi hisobiga motor maxovigidan siljiydi va FIMni ajralishini ta'minlaydi.

Teskari o'rnatilgan qirqimli FIMlar tuzilmasini, xuddi shunday prujinani to'g'ri o'rnatilgan FIMlarga nisbatan quyidagi afzallikkarga ega:

- boshqarish tepkisidagi kuch 35-40% kam;
- o'q bo'yicha gabarit o'lchami kichik;
- g'ilof massasi kichik va bikirligi yuqori;
- detallarni sovishi yaxshilanadi, chunki FIM g'ilofi ochiqroq.

Foydalanimadigan detallar soni bo'yicha bir diskli FIMlarni o'zaro solishtiramiz. Vintli silindrik prujinalik FIM o'rtacha 125 detaldan, qirqimli tarelkasimon prujinalik prujina to'g'ri o'rnatilganda 25 detaldan, prujina teskari o'rnatilganda 20 detaldan. Shunday qilib teskari o'rnatilgan qirqimli tarelkasimon prujinalik FIMlar tuzilmasi zamonusiyroq hisoblanadi.

## 5.2. Ikki diskli ilashish muftalar

Jahon traktorsozligi rivojlanishining tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonusiy traktorlarda bir diskli FIMlar ko'proq qo'llaniladi. Ikki diskli FIMlar berilgan gabarit o'lchamlarida, motorning burovchi momentini bir diskli tuzilma puxta uzatish imkoniyati bo'lmay qolgandagina qo'llaniladi.

Doimiy ulangan ikki diskli FIMning sxemasi (5.7-rasm) ni ko'rib chiqamiz. Ikki diskli FIMning yetaklovchi qismi bo'lib, motor maxovigi 1 oraliq yetaklovchi 2 va siquvchi disklar 3 hisoblanadi. Bunda yetaklovchi va siquvchi disklar motor maxovigi bilan FIMning g'ilofi orqali bog'langan (bu sxemada ko'rsatilmagan). FIMning yetaklanuvchi qismlari ikki yetaklanuvchi friksion disk 4 va yetaklanuvchi val 9 hisoblanadi. Siquvchi diskning qaytargichi 8 ga kuch qo'yilmagan bo'lsa, siquvchi prujinalar 10 siquvchi disk 3 ga ta'sir qilib, motor maxovigi 1 oraliq yetaklovchi 2 va siquvchi disklar

3 bilan yetaklanuvchi friksion disklar 4 ni siqadi. Natijada ishqalanish kuchi hisobiga burovchi moment motordan FIMning yetaklanuvchi vali 9 ga bir diskli FIMdagi birgina yetaklanuvchi disk bilan emas, balki ikki yetaklanuvchi friksion disklar orqali uzatiladi. Shuningdek, ikki diskli FIM yetaklanuvchi diskning bir xil o'chamlarida va siquvchi kuchda taxminan ikki marta katta bo'lgan burovchi momentni uzatishi mumkin.


Ikki diskli FIMni ajratishni sofligini ta'minlash maqsadida, oraliq yetaklovchi disk 2 motor maxovigidan majburiy ravishda disklarni ajratuvchi maxsus mexanizm bilan 2...3 mm ga suriladi.

A variantida disklarni ajratish mexanizmi ajratuvchi prujinalar 5 va oraliq yetaklovchi diskning aylanasi bo'yicha tekis joylashgan rostlanuvchi tirkaklar 6 komplektidan iborat. FIMlarning mavjud tuzilmalarida odatda uch yoki to'rtadan prujina va shuncha tirkaklar qo'llaniladi.

FIM ajratilganda ajratuvchi prujinalar oraliq yetaklovchi diskni motor maxovigidan ajratadi. Tirkak 6 larning holati oraliq yetaklovchi diskni 2...3 mm ga ajratish bilan chegaralanadi, bu o'z navbatida motor maxovigi oldida joylashgan yetaklanuvchi disk va maxovikning ishqalanish sirtlari va oraliq yetaklanuvchi disk 2 lar orasida 1...1,5 mm lik kafolatlangan tirqish bo'lishini ta'minlaydi.

Siquvchi disk 3 maxovikdan yanada surilsa-da oraliq yetaklovchi disk 2 surilmaydi, bu esa oraliq yetaklovchi disk 2, siqiluvchi disk 3 va siquvchi diskda joylashgan yetaklanuvchi friksion disk 4 orasida tirqish hosil bo'lishiga olib keladi.

Shunday qilib, FIMni uzish jarayonining tahlilidan, A sxema asosida bajarilgan disklarni ajratish mexanizmi yetaklanuvchi disk 4 motor maxovigi 1 oldida joylashgani, yetaklanuvchi disk 4 siquvchi disk oldida joylashganiga nisbatan vaqtliroq uzilishini (uzilgan FIM da), keyinroq ishga tushishi (ulangan FIM da) ko'rsatadi. Bu esa siquvchi disk oldida joylashgan yetaklanuvchi disk ustqo'ymalarini, yetaklanuvchi disk ustqo'ymalari motor maxovigi oldida joylashganiga qaraganda jadalliroq (1,5-2 marta) yeyilish sabablaridan biri hisoblanadi.



**5.7-rasm. Doimiy ulangan ikki diskli FIMning prinsipial sxemasi;**


1 – motor maxovigi; 2 – oraliq yetaklovchi disk; 3 – siqvuchi disk; 4 – yig'ilgan yetaklanuvchi friksion disklar; 5 – oraliq yetaklovchi diskning ajratuvchi prujinasi; 6 – oraliq yetaklovchi diskni ajratuvchi rostlanadigan tirkak; 7 – FIM g'ilofi; 8 – FIM ajratgichi; 9 – FIM ning yetaklanuvchi vali; 10 – siqvuchi prujinalar; 11 – oraliq yetaklovchi diskni ajratuvchi prujina; 12 – ajratuvchi prujina tortqi

*B* variantda yasalgan disklarni ajratish mexanizmi ajratuvchi prujinalik tortqilar 12, disk aylanasi bo'yicha tekis joylashgan tortqilar komplektidan iborat. Ajratuvchi prujinalik tortqilarning bir uchi oraliq yetaklovchi disk 2 bilan qo'zg'almas qilib birkirtirilgan, ikkinchi uchi esa g'ilof bilan elastik tutashtirilgan. Mexanizmning ishslash prinsipi avval ko'rib chiqilgan *A* variantda bajarilganidek bo'ladi.

*D* variantda disklarni ajratuvchi mexanizm motor maxovigi 1, oraliq yetaklovchi disk 2 va siqvuchi disk 3 orasiga o'rnatilgan bo'shatuvchi prujinalar komplektidan iborat. FIMni ajratish sofligini prujinalar 11 komplekti, oraliq yetaklovchi disk 2 ning ikkala tomonidan joylashtirilgan bo'lib, bir xil bikirlikka ega bo'lishi lozim. Bunda FIMni ajratish va ulash jarayoni oraliq yetaklovchi disk har

doin, siquvchi diskka nisbatan 2 marta kichik bo'lgan siljishga ega. Bu FIM uzilganda yetaklovchi va yetaklanuvchi disklar orasida teng tirqish hosil bo'lishini va yetaklanuvchi disklarni FIM uzilganda va ulanganda taxminan teng bo'lgan shataksirash vaqtini ta'minlaydi, buning natijasida ustqo'ymlarning bir tekis yejilishi ta'minlanadi.

Ikki diskli FIM disklarini ajratish mexanizmlarning ayrimlarining tuzilmasi 5.8-rasmda keltirilgan. 5.8-rasm, *a* da T-150/150K va T-4A traktorlarining 5.8-rasm, *b* da esa DT-75 traktorining ikki diskli FIMlari disklarini ajratish mexanizmining tuzilmasi ko'rsatilgan. Katta aylanish chastotasiga ega bo'lgan motorlarda markazdan qochma kuch ta'sirida prujinalar 2 egiladi, bu esa disklarning ajratish mexanizmining ishini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ham bunday motorlar uchun disklarini ajratish mexanizmi richagli bo'lgan FIMlar qo'llaniladi.



**5.8-rasm. Ikki diskli FIM disklarini ajratuvchi mexanizm:**

1 – motor maxovigi; 2 – vintli silindrik siqish prujinas; 3 – oraliq yetaklovchi disk; 4 – siquvchi disk; 5 – oraliq yetaklovchi diskni ajratuvchi rostlanadigan tirkag; 7 – ikki yelkalik richag; 8 – vintli silindrik burovchi prujina

Bunday mexanizmning tuzilmasi 5.8-rasm *d* da ko'rsatilgan. U oraliq yetaklovchi disk 3 ga va silindrik vintli burovchi prujinalar 8 ga


o'rnatilgan richaglar 7 dan tuzilgan. FIM uzunganda richag 7 silindrik vintli burovchi prujina 8 ta'sirida soat miliga teskari yo'nalishda o'z uchlari bilan maxovik 1 ga va siquvchi disk 4 ga tayanib buriladi. Buning natijasida FIM uzunganda, oraliq yetaklovchi disk 3 har doim motor maxovigi 1 va siquvchi disk 4 oralig'ida o'rtacha holatni egallaydi. Oqibatda, bu mexanizm 5.8-rasm, a da keltirilgan mexanizmdeki ishlaydi. Bunda uning ishlashi motor valining aylanish chastotasiga bog'liq emas.

5.9-rasmida T-150/150K traktorlari FIMining tuzilmasi keltirilgan. FIM birlanma ikki oqimli hisoblanadi, unda 20 ta diametrlari 250 va 350 mm bo'lgan aylana bo'yicha siquvchi vintli silindrik prujinalar o'rnatilgan. Quvvat oqimining biri, ikki yetaklanuvchi disk 6 orqali transmissiyaga, ikkinchisi esa val 30 orqali QOV yuritmasiga uzatiladi. Har bir yetaklanuvchi disk 6 ga dempfer (friksion bir tekis joylashgan sakkizta prujinalik aylanma tebranishlarni so'ndiruvchi) o'rnatilgan. Motor maxovigi 1 da to'rtta ariqcha bo'lib, ularga oraliq yetaklovchi 3 va siquvchi 4 disklarning uchlari kirib turadi. bu esa ularni birqalikda aylanishini ta'minlaydi. FIM uzunganda uning yetaklanuvchi detallarini tezda to'xtatish uchun kolodkali tormoz qo'llanilgan.

FIM ajratilganda siquvchi podshipnik 27 ning tirdagi. 16 bilan o'zaro ta'sirlanuvchi ajratuvchi richaglar 8 uchlaring yeyilish jadalligini pasaytirish maqsadida, ularga tayanch halqalari 14 qotirib qo'yilgan. FIMni ajratish mexanizmini normal ishlashini ta'minlash uchun, tayanch halqa 14 yetaklanuvchi val 19 ning aylanish o'qiga perpendikulyar tekislikda bo'lishi lozim.

Bo'shatish richaglari 8 ning, hamda tayanch halqa 14 holati rostlagich gaykalar 12 bilan rostlanadi, ular FIM g'ilofiga stoporlovchi boltlar 10 bilan stoporlavchi prujinalar 11 yordamida qotiriladi. Tayanch halqasi 14 va ajratish podshinigi 27 ning tayanchi 16 orasidagi 3.5...4 mm li tirkish FIMning boshqarish yuritmasida 5.9-rasmida ko'rsatilgan tarzda amalga oshiriladi. Agar rostlashni FIMning boshqarish yuritmasi hisobiga amalga oshirib bo'lmasa, unda rostlovchi gaykalar 12 yordamida ajratuvchi richaglar 8 ning holatini o'zgartirish hisobiga amalga oshiriladi. FIM valining podshipnigi 29 va siquvchi podshipnik 27 ni moylovchi maslenkalar 2 va 15 orqali

amalga oshiriladi. Ichi teshik val 19 dan QOV yuritmasining vali 30 o'tadi.



### 5.9-rasm. T-150/150K traktorlarining FIMsi:

1 – motor maxovigi; 2,15 – maslenkalar; 3 – oraliq yetaklovchi disk; 4 – siqvuchi disk; 5 – bo'shatuvchi prujinalar; 6 – yetaklanuvchi friksion disk; 7 – FIM g'ilofi; 8 – ajratuvchi richag; 9 – vilka; 10 – stopor prujinasining bolti; 11 – stopor prujinasi; 12 – rostlagich gayka; 13 – ajratuvchi prujina; 14 – tayanch halqasi; 16 – podshipnik tayanchi; 17 – qaytargich korpusi; 18 – siqvuchi podshipnik stakani; 19 – FIMning yetaklanuvchi vali; 20 – tormoz kolodkasi; 21 – tormozok prujinasi; 22 – osgich; 23 – prujina stakani; 24 – osgich mustasi; 25 – ajratish vilkasi; 26 – ajratish valchasi; 27 – siqvuchi podshipnik; 28 – siqvuchi prujina; 29 – FIM vali podshipnigi; 30 – QOV yuritmasining vali.

### 5.3. Yetaklanuvchi friksion disklar

FIMning ish qobiliyati ko'p jihatdan yetaklanuvchi diskning tuzilishiga va friksion ustqo'ymalarning materialiga bog'liq. Yig'ilgan yetaklanuvechi friksion disklar (5.10-rasm, a) odatda halqa ko'rinishdagi po'lat asos 1 dan (listning qalinligi 0,8...2,5 mm), uning

tashqi qismiga ikki tomondan parchin mixlari yordamida friksion ustqo'ymalar o'rnatilgan, ichki teshigiga esa FIM vali bilan qo'zg'aluvchan birikma hosil qilish uchun shlitsalik gupchak parchinlanib qo'yilgan.

Friksion ustqo'ymalarni yetaklovchi disklar sirtida yaxshi yotishini va po'lat asos qiziganda uni egilishini oldini olish uchun unga kattaroq diametrli teshiklar bilan tugaydigan radial kesiklar qilinadi. Po'lat asosning bunday ko'rinishi o'q bo'yicha va tengensial yo'nalishdagi moyillikka ega bo'lman "bikir yetaklanuvchi disk" ga tegishli. Bunday yetaklanuvchi disklarning ijobiy tomonlari ularning tuzilish soddaligi va qiymatining pastligi hisoblanadi, asosiy kamchiligi esa FIMlarning ohista ulanishining ta'minlamasligidir.

O'q bo'yicha va tangensial yo'nalishdagi moyillikka ega bo'lgan yetaklanuvchi disklar zamonaviyroq hisoblanadi. O'q bo'yicha moyillikka ega bo'lgan yetaklanuvchi disklarni qo'llanilishi FIMni ohistaroq ulanishini ta'minlaydi, bu esa traktorning joyidan qo'zg'alish paytida uni boshqarish jarayoni soddalashadi.

Yetaklanuvchi disklarni o'q bo'yicha moyilligini oshirish usullarini ko'rib chiqamiz.


5.10-rasm *b* da yetaklanuvchi diskning o'q bo'yicha moyilligi, po'lat asosiga alohida plastinalik prujina 5 ko'rinishidagi barglar yasalib, shakldor kesiklar qo'llash yo'li bilan ta'minlanadi. Burday tuzilmaning kamchiligiga barcha asos barglarida bir xil bikirlilikka erishishni murakkabligi hisoblanadi.

Ustqo'ymalar orasiga po'lat asosning kichik radiusida qotirilgan *I* alohida plastinalik prujinalar 5 bilan yetaklanuvchi disklarda (5.10-rasm, *d*) o'q bo'yicha moyillikni ta'minlash zamonaviyroq hisoblanadi. Bunda plastinkalik prujinalar disk *I* asosiga nisbatan yupqaroq bo'lgan po'lat listlardan yasaladi. Bu holda yuqorida ko'rib o'tilgan yetaklanuvchi disk tuzilmasiga qaraganda plastinalik prujinalarda bir xil bikirlilikni ta'minlash osonroq bo'ladi.

FIMning avvalgi tuzilmalarida yetaklanuvchi disklardagi (5.10-rasm, *e*) o'q bo'yicha moyillik siquvchi disk tomondan po'lat asos *I* ga qotirilgan alohida plastinkalik prujinalar qo'llash yo'li bilan ta'minlangan. Bunday tuzilma yetaklanuvchi diskning katta inersiya momentiga ega bo'lib, faqat uning bir tomonlama (siquvchi disk tomonidan) moyilligini ta'minlaydi. FIMni yig'ishda shuni nazarda

tutish kerakki, yetaklanuvchi diskni o'rnatganda uning prujinalari 5 siquvchi disk tomonda bo'lsin. Agar disk teskarisiga o'rmatilgan bo'lsa, uning friksion ustqo'ymlarini ishlash muddati pasayadi.

Traktor ishlaganda transmissiyasining val o'tish joylarida aylanma tebranishlar sodir bo'ladi. Uning manbasi bo'lib, birinchi navbatda motor burovchi momentining garmonik tashkil etuvchisi, hamda kardanli birikmalarda shesternyalarni qayta biriktirilishi, MTA ishlaganda tashqi ta'siri natijasida transmissiyaning o'zida sodir bo'ladigan tebranish jarayonlari hisoblanadi.



**5.10-rasm. Yetaklanuvchi disklarning tuzilmasi:**

1 – po'lat asos; 2 – friksion ustqo'ymlar; 3 – gupchak; 4 – disk asosining yaproqchalari; 5 – plastinalik prujina; 6 – parchin mix.


Ayrim hollarda majburiy aylanma tebranishlar chastotasi, transmissiyaning elastik tizimlarining xususiy tebranish chastotalari teng bo'lib qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida rezonansga, burovchi moment va transmissiya detallardagi kuchlanish

amplitudalarini keskin oshishiga sabab bo'ladi, bu esa ularni sinishiga olib kelishi mumkin.

Rezonans hodisasining bartaraf etish uchun maxus mexanizmlardan foydalaniladi, uni aylanma tebranishlarni so'ndiruvchi (dempferlar) deb ataladi. Ular tebranish energiyasini issiqlik energiyasiga o'zgartirib beradi. Dempferni o'rnatish uchun eng qulay detal FIMning yetaklanuvchi diskni hisoblanadi. Dempferning xarakterli xususiyatiga yetaklovchi va yetaklanuvchi qismalarning nisbiy siljishini ta'minlovchi elastik elementning mavjudligi va ularda tebranish jarayonida hosil bo'lgan energiyani ishqalanish kuchi yordamida tarqatib yuborishi kiradi.

Zamonaviy traktorlarda elastik-friksion dempferlar keng tarqalgan. 5.11-rasm, a da FIMning silindrik prujinali elastik-friksion dempferligida yetaklanuvchi disk ko'rsatilgan. Aylanma tebranishdan hosil bo'lgan energiyani tarqatib yuborish gupchak gardishi 1 va disklar o'rtasida hosil bo'lgan ishqalanish kuchi hisobiga sodir bo'ladi. Ayrim tuzilmalarda ishqalanish kuchini va dempferlash samarasini oshirish uchun gupchak gardishi 1 va disklar 2 orasiga friksion ustqo'ymlari 3 o'rnatiladi. Dempferdagagi ishqalanish kuchi siqvuvchi prujinalar 6 dagi kuchi bilan aniqlanadi. Disklar 2 dan gupchak 1 ga burovchi moment uzatilganda silindrik prujinalar 4 deformatsiyaga uchraydi, bu esa o'z navbatida disk va gupchaklarni bir-birlariga nisbatan siljishini (yetaklanuvchi diskni tangensial moyilligini) ta'minlaydi va ular orasidagi ishqalanish kuchi hisobiga aylanma tebranishlar energiyasi issiqlikka aylanadi. Undan tashqari prujinalar 4 ning bikirligi to'g'ri tanlab FIMning rezonanslik tebranishlar zonasi motor valining ishchi chastotasi chegarasidan tashqariga surish bilan ham ta'minlanadi.

Yetaklanuvchi disklarning ayrim tuzilmalarida (5.11-rasm, b) rezina blokli 5 elastik elementli dempferlar qo'llaniladi. Aylanma tebranishlar energiyasini tarqatib yuborish nafaqat disklar 2 va gupchak gardishi orasidagi ishqalanish hisobiga ta'minlanadi, balki rezinalik bloklar deformatsiyalangandagi katta ichki gisterizis yo'qotish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin.



**5.11-rasm. Elastik-friksion dempferlik yetaklanuvchi disklar:**

a – silindrik prujinali; b – rezina blokli: 1 – gupchak; 2 – disklar; 3 – friksion ustqo'ymalar; 4 – silindrik prujinalar; 5 – rezina bloklari; 6 – dempferning siquvchi prujinalari

#### 5.4. Ilashish muftasining friksion elementlari va detallari

Friksion ustqo'ymalar juda og'ir sharoitda, dinamik va issiqlik yuklamalarida ishlaydi. Uning yeyilishi hozirgi paytda FIMning umumiy ishlash muddatini belgilab beradi. FIM ulanganda o'rta ishqalanish radiusi bo'yicha sirpanish tezligi 25 m/s va undan ortiq bo'lishi ham mumkin, shataksirash davomliroq bo'lsa, ishqalanish sirtlarining harorati 400...450°C ga yetadi.

FIMning shataksirash jarayonida yeyilish mahsulotlari atrof-muhitga chiqadi. Shuning uchun ham friksion ustqo'ymalarga juda qat'iy talablar qo'yildi:

- yeyilish mahsulotlarining ekologik tozaligi;
- yeyilish bardoshlilikning ishqalanish koeffitsiyenti va issiqlikka bardoshlilikining yuqoriligi;

- metallga yaxshi, tez moslashuvchanligi va unga yopishib qolmasligi;
- yetarli darajadagi mexanikaviy mustahkamligi, ishlov berish xususiyatining yaxshiligi va qiymatining pastligi;
- ishqalanish juftliklaridagi yuqori haroratida o‘t olishga xavfsizligi;
- issiqlik o‘tkazuvchanligining yuqoriligi va namlikka bardoshhliligi;

Friksion ustqo‘yma materiallarini polimer asosidagi kompozitsion materiallar va kukunli materiallardan iborat bo‘lgan ikki guruhga bo‘lish mumkin.

Polimer asosidagi kompozitsion materiallar ko‘p komponentli bo‘lib, uning asosini issiqlikka chidamli armatura va to‘ldiruvchi tashkil qiladi. Bunday materialarning asosini kauchuklar, smolalar va ularning aralashmasi tashkil etadi.

To‘ldiruvchilar materialning ishchi va texnologik xususiyatlarini rostlaydi. Ularni metall (mis, bronza, jez, rux, alyuminiy, qo‘rg‘oshin, temir, titan va boshqa metallar va kukun, qirindi yoki sim ko‘rinishdagi birikmalar), metallmas (grafit, uglerod, koks, oltingurgut va boshqalar), organik, masalan yong‘oq po‘chog‘i kabi turlarga bo‘linadi. Kauchuk-smolalik asos uncha katta bo‘lмаган mexanikaviy xususiyatlarga, ayniqsa yuqori haroratda ega emas. Polimer asosidagi barcha materiallar tarkibida issiqlikka chidamli armatura: asbest, tola, latta va boshqalar mavjud. Bu komponent ko‘p jihatdan uning xususiyatini va materialning yasash texnologiyasini aniqlab beradi, shuning uchun ham uning xususiyati nomida o‘z aksini topadi. Shunday qilib, asbest bilan armirlangan materiallar asbopolimer friksion materiallar (APFM) deb ataladi.


Armaturasi asbestdan boshqa issiqlikka chidamli materialarga almashtirilgan asbestosiz polimer friksion materiallar (ASPF) deb ataladi. FIMlarda ASPF qo‘llanilishi birinchi navbatda asbestda konserogen xususiyati mavjud bo‘lganligi uchun ko‘p mamlakatlarda uni transportda qo‘llanilishi taqiqlangan. Hozirgi paytda asbest o‘rniga "Kevlar" xilidagi sintetik aramid shisha, keramika, bor va uglerodli birikmalar, bazalt, slyuda, vallostonit tarkibli tolalar va po‘latdan tayyorlangan metall tolalar qo‘llanilmoqda. Bulardan ko‘proq "Kevlar" xilidagi aramid tolalar qo‘llaniladi. APFMga biroz aramid

tolasi (5% gacha) qo'shilsa, friksion ustqo'ymalarning yeyilishga bardoshi taxminan 1,5 martagacha oshadi.

Friksion ustqo'ymalarning o'chamlari davlat standarti bilan me'yorlangan. Yangi ustqo'ymaning qalinligi 3...5,5 mm atrofida. Ustqo'ymalar butun halqa sifatida yoki kesilgan sektor ko'rinishida tayyorlanadi. Ayrim hollarda ustqo'yma sirtiga ishqalanish sirtini sovitish va yeyilish mahsulotlarini chiqarib yuborish uchun ventilyatsiya ariqchalari ham qilinadi.

Kukunli friksion materiallar kukun metallurgiyasi texnologiyasi asosida olinadi, bu texnologiya quyidagi larni o'z ichiga oladi:

- kukun aralashmasini tayyorlashni;
- aralashmani 0,15...0,16 MPa bosimda presslashni;
- himoya muhitida presslangan briketni 700...1000°C haroratda 0,5...2,5 MPa bosim ostida pishirishni;
- mexanik ishlov berishni.



**5.12-rasm. Kukunli materialdan yasalgan friksion ustqo'ymalarni qotirish usullari:**

a – yig'ilgan yetaklanuvchi friksion disk; b – friksion elementlar; 1 – metall taglik; 2 – burilib ketishdan saqlovchi fiksator; 3 – kukunli material

Jarayonning asosiy operatsiyasi pishirish hisoblanadi, unda diffuziya natijasida turli komponentlar yaxlit holda birikadi.

Kukun materiallaridan yasalgan ustqo‘ymalar mis asosida (62-71% mis) yoki temir asosida (60-65% temir oksidi) aralash yasaladi, to‘ldiruvchi sifatida kremniy oksidi (yeyilish bardoshlilagini oshirish maqsadida), barit va grafit (friksion xususiyatlarini barqarorlashtirish maqsadida) va boshqalar qo‘shiladi.


Bulardan mis asosidagi kukunli materiallar ko‘proq qo‘llaniladi, chunki ularda kontrjismning yeyilishi temir asosidagiga nisbatan kamroq bo‘ladi.

Kukunli materiallardan yasalgan ustqo‘ymalar juda mo‘rt. Shuning uchun ham ular har doim po‘lat taglikli yetaklanuvchi disk asosi yoki yetaklanuvchi disk asosiga qotiriladigan alohida plastina bilan birgalikda qo‘llaniladi (5.12-rasm).

Yetaklovchi (siquvchi va oraliq) disklari FIMning ko‘proq qiziydigan detali bo‘lganligi, issiqlikni yutish va tarqatishni yaxshilash maqsadida ular massasi kattaroq qilib yasaladi. FIM siquvchi diskni yetarli darajada bikir bo‘lishi, u qiziganda bukilmasligi va yetaklanuvchi disk ustqo‘ymalari ustida yaxshi yotishi ta’minlanishi lozim.

Yetaklovchi disk materiallari sifatida ko‘proq kulrang cho‘yanlar (СЧ18, СЧ21, СЧ22, СЧ24) qo‘llaniladi, ular po‘latga qaraganda yuqoriroq yeyilish bardoshlilikka ega va friksion ustqo‘ymalarni yeyilishini kamaytiradi.

Yetaklanuvchi disklarda motor maxovigi bilan birga aylanishi va o‘q bo‘yicha siljish imkonini bo‘lishi lozim. Bunda yo‘naltiruvchi qurilma vazifasini bo‘rtlamalar, shchiplar, tishlar, barmoqlar, shponkalik birikmalar va aylana bo‘yicha tekis joylashgan prujinalar bajaradi. FIM g‘ilofi ariqchasiga kirib turuvchi bo‘rtlamalar, ularni puxta birikishini ta’minlaydi (5.13-rasm, a). Ammo bunday tuzilma birikmasida ishqalanish katta bo‘lganligi oqibatida, FIMni ajratish kuchi sezilarli darajada kattalashadi.



**5.13-rasm. Yetaklovchi disklarni motor maxovigi bilan birlashtirish usullari**

Ikki diskli FIMlarning ayrim tuzilmalarida yetaklovchi disklar motor maxovigiga qotirilgan barmoq bo'yicha siljiydi (5.13-rasm, *b*). Yetaklovchi disklar maxovik bilan shlitsalar, shchiplar yordamida (5.13-rasm, *d*), yoki maxovikka presslangan yo'naltiruvchi suxarlar (5.13-rasm, *e*) bilan birlashtirilishi mumkin. FIM yetaklovchi disklarini motor maxovigi bilan birlashtirishni, ishqalanishga yo'qotishsiz siljishini elastik tangensial plastinalar yordamida amalga oshirish zamonaviyroq hisoblanadi.

FIM g'ilofini shtampovka yoki quyish yo'li bilan olish mumkin. Shtamplangan g'ilofni yasash uchun qalinligi 2...7 mm bo'lган 08kp xildagi uglerodli konstruksion po'latdan foydalilanadi. Quyma g'ilof esa kulrang cho'yandan yasaladi.


Quyma g'ilofli FIMlar kattaroq qovushqoqlikka ega, bu ajratish mexanizmi barqaror tavsifli bo'lishini ta'minlaydi. Ammo ularning massasi xuddi shunday shtamplanib yasalgan g'ilofga nisbatan 20...30% ga katta bo'ladi. Shuning uchun ham zamonaviy FIMlarda shtamplangan g'iloflar ko'proq tarqalgan.

FIM uzelganda siquvchi diskni vintli silindrik va qirqimli tarelkasimon prujinalar bilan richagli ajratish mexanizmi bilan amalgalashiriladi. FIMni ajratish richaglarining soni uchtadan oltitagacha, ularning uzatishlar soni esa 3,5 dan 6,5 gacha bo'lishi mumkin. Ko'proq bolg'alangan va shtamplangan richaglar qo'llaniladi. Shtamplangan richaglarning afzalliklariga ularning massasining kamliyi kiradi. Shtamplangan richaglarni yasash uchun 08 kp xilidagi po'latlar qo'llaniladi, richag yasalgandan so'ng 03...0,5 mm qalinlikda sianlanadi va u 56...62 HRC qattiqlikgacha toplanadi. Bolg'alangan richaglar uchun esa po'lat 40-50 qo'llaniladi. Zamonaviy FIM tuzilmalarida richagning siquvchi podshipnik bilan tutashadigan qismi yeyilishga bardoshli qatlam (masalan molebden) bilan qoplanadi yoki yuqori chastotali tok bilan toplanadi.

Siquvchi diskni ajratish mexanizmidagi mexanikaviy yo'qotishlarni kamaytirish uchun ajratuvchi richagni g'ilof va siquvchi disk bilan birlashtirishning turli-tuman turlari ishlab chiqilgan (5.14-rasm).

5.14- a rasmida siquvchi diskni ajratish mexanizmi uch tog'arasimon ajratuvchi richag 6 tayanch 5, tayanch halqalari 8, ajratish boltlari 4, shaybalik 2 rostlovchi gaykalar 3 va prujinalar 7 dan iborat. FIMni uzishda siquvchi disk 1 ni tekis ajralishini ta'minlash uchun prujinalar 7 bilan richagga bosilgan tayanch halqa 8 dan foydalaniladi.

Bu mexanizmning barcha birikmalari sirpanib ishqalanishda moysiz sharoitda ishlaydi, bu esa ishqalanishda katta energiya yo'qotilishiga, birlashgan detallarni yeyilishga va ishlatishda tez-tez rostlab turishga sabab bo'ladi.




**5.14-rasm. Siquvchi diskni ajratuvchi mexanizm**

Bunday kamchiliklarning ko'pi sodda va puxta tuzilishga ega bo'lgan, 5.14- b rasmda keltirilgan tuzilma hisoblanadi. Richag 9 ning bir tayanchi ignasimon podshipnik 10 o'rnatish uchun mo'ljallangan, ikkinchi tomoni esa g'ilof 15 ga bolt 14 bilan birlashtirilgan vilka 13 ga o'rnatilgan qo'zg'almas o'q 11 atrofida dumalaydigan rolik 12 dan iborat. Richag tayanchi vazifasini rostlash vinti 16 bajaradi. Eng ko'p tarqalgan va yuqori puxtalikka ega bo'lgan tuzilmalardan biri 5.14- d rasmda ko'rsatilgan. Bu yerda richag 9 ning ikkala tayanchi ham ignasimon podshipnik 10 ga ega. FIM uzilganda yoki ulanganda richag 9 ning burilishi vilka 13 ga o'rnatilgan o'q 11 atrofida amalga oshiriladi. Richaglarni siquvchi disk 1 ga nisbatan holati gayka 18 bilan rostlanadi, vilka 13 va g'ilof 15 orasiga joylashtirilgan prujina 17 bilan qotirib qo'yiladi.

## 5.5. Ikki oqimli ilashish muftalari.

Ikki oqimli FIMning principial kinematik sxemasini ko'rib chiqamiz. 5.15-rasmda bir diskli ikki oqimli FIMning sxemalari keltirilgan. 5.15- a rasmda quvvat oqimi motordan transmissiyaga

yetaklanuvchi disk 2 orqali uzatiladi, QOV yuritmasiga esa g'ilof 6 va QOVning shesternyali yuritmasi orqali uzatiladi. 5.15-*b* rasmda quvvat oqimi motor maxovigi 1 orqali QOVga uzatiladi. Shu sxemada T-150/150K traktori FIM lari bajarilgan. Zamonaviy traktorlarda 5.15-*a* rasmida keltirilgan sxema ko'proq TTZ-80, TTZ-100 traktorlarida qo'llanilmoqda.




**5.15-rasm. Bir diskli ikki oqimli FIMning sxemalari:**

1 – maxovik; 2 – yetaklanuvchi disk; 3 – siquvchi disk; 4 – FIM vali;  
5 – qaytargich; 6 – FIM g'ilofi; 7 – QOV yuritmasining teshik vali; 8 – QOV  
yuritmasining shesternyasi; 9 – QOV yuritmasining vali.

Bir diskli ikki oqimli FIMlarning zamonaviy tuzilmalari tarekasimon hamda silindrik siquvchi prujinalik qilib yasaladi.

Ikkilangan FIMlar boshqarish usuliga qarab ketma-ket va alohida boshqariladigan turlarga bo'linadi. Ketma-ket boshqariladigan FIMlar qisman bog'lanmagan QOVdan foydalanilgan holda alohida boshqariladigan FIMlar to'liq bog'lanmagan QOV bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Ketma-ket boshqariladigan ikki diskli FIMlar (5.16-*a* rasm) MTZ-4MS, MTZ-5LS g'ildirakli traktorlarida va T-16M o'zi yurar shassida foydalanilgan.



### 5.16-rasm. Ketma-ket boshqariladigan ikkilangan FIM:

*a* – FIM sxemasi; *b* – boshqarish tepkisidagi kuchni ortish tavsifi; 1 – maxovik; 2 – bosh FIM yetaklanuvchi disk; 3 – bosh FIM vali; 4 – oraliq yetaklovchi disk; 5 – QOV FIM ining yetaklanuvchi disk; 6 – g‘ilof; 7 – oraliq yetaklovchi diskning qaytishini rostlovchi tayanch; 8 – siquvchi disk; 9 – FIMni qaytargich; 10 – QOV FIMining teshik vali; 11 – QOVning shesternyalik yuritmasi; 12 – QOV vali; 13 – bosh FIMning siquvchi prujinalari; 14 – QOV FIMining prujinalik tortqisi.

Bosh FIM ishqalanish sirtida siqish prujinalari 13 bilan hosil qilingan kuch, QOV FIMining siquvchi disk 8, yetaklanuvchi disk 5, oraliq yetaklovchi disk 4, orqali yetaklanuvchi disk 2 ga uzatiladi. QOV yuritmasi FIMining ishqalanish sirtiga bosim kuchi bosh FIMning ajratilgan yoki ulanganlik holatiga qarab ikki qiymatga ega bo‘lishi mumkin.

Bosh FIM to‘liq ulangan bo‘lsa, yetaklanuvchi disk 5 sirtida QOV FIMi yetaklanuvchi disk 5 ishqalanish sirtiga siquvchi prujinalarning kuchidan tashqari, prujinalik tortqi 14 prujinalari 13 dan hosil bo‘lgan qo‘sishimcha siqish kuchini ham uzatadi. Bosh FIM ajratilgan bo‘lsa, yetaklanuvchi disk 5 sirtida siqish kuchi QOV FIMida, faqat

prujinalik tortqi 14 prujinasi tomonidan hosil qilinadi. Shuning uchun ham harakatlanayotgan traktorda QOV yuritmasi FIMining ishqalanish momenti har doim to'xtatilgan traktornikiga qaraganda katta bo'ladi.

Ketma-ket boshqariladigan ikkilangan FIM ajratilganda boshqarish tepkisidagi kuchni o'zgarishini ko'rib chiqamiz (5.16- b rasm). Boshqarish tepkisi tortqilar tizimi va richaglar orqali qaytargich 9 bilan bog'langan. FIMni boshqarish tepkisi bosilganda qaytargich 9, siquvchi disk 8 ni motor maxovigidan surib, siquvchi prujinalar 13 ni siqadi. Siquvchi disk bilan birga prujinalik tortqi 14 yordamida oralig yetaklovchi disk 4 va QOV FIMining yetaklanuvchi disk 5 suriladi. Natijada bosh FIMning yetaklanuvchi disk 2 bo'shaydi (bosh FIM ajraladi) va moment motordan yetaklanuvchi disk 5 orqali QOV yuritmasiga uzatiladi.

5.16- b rasmdagi hol uchun FIMni boshqarish tepkisining yo'li  $S_1$  ga to'g'ri keladi. Oralig yetaklovchi diskni surilishini tayanch 7 chegaralab turadi, bosh FIM ajratilganda u yetaklanuvchi disk 2 ustqo'ymalari va motor maxovigi ishqalanish sirlari, hamda oralig yetaklovchi disk 4 orasidagi tirqishni rostlash uchun xizmat qiladi. Tepkining yo'li  $S_1$  bo'lganda tortqi 14 ning prujinalari ishga tushadi.


Prujinalar azaldan siqilgan holatda bo'lganligi uchun, boshqarish tepkisida kuchni keskin oshishi sodir bo'ladi,  $S_2$  surilishi oralig'ida u jadalroq ortadi. Yetaklanuvchi disk 5 bo'shatilganda burovchi moment motordan QOV yuritmasiga uzatilmaydi. Ikkilangan FIMni ulash teskari ketma-ketlikda olib boriladi (dastlab QOV FIMi, so'ng bosh FIM ularadi).

Bog'lanmagan boshqariluvchi ikki diskli FIM (5.17-rasm) to'liq bog'lanmagan FIMlarda (T-40 va T-40A traktorlarida) qo'llaniladi. Bunday FIMlarni boshqarish ikki tepki orqali amalga oshiriladi. Tepkilardan biri bosh FIMni boshqarsa, ikkinchisi QOV yuritmasi FIMini boshqaradi. Bunday FIMning xususiy tomonlariga, uning alohida boshqarilishdan tashqari, ikki alohida boshqarish yuritmasi 9 va 14 ga ega ekanligi, bir-biriga bog'lanmagan ikki friksion disklar komplekti borlidigidir.

bosh FIM uchun motor maxovigi 1 ning chekka sirti, yetaklanuvchi disk 2 va siquvchi disk 5;

QOV yuritmasi FIMi uchun siquvchi disk 7, yetaklanuvchi disk 8, tayanch diskining chekka sirti 10.

Siquvchi disklar 5 va 7 maxovik 1 bilan qo'zg'aluvchan qilib ulangan (u sxemada ko'rsatilmagan). FIM ishqalanish sirtlaridagi siquvchi kuch prujinalar 6 bilan hosil qilinadi, ular vintli silindrik (A varianti) yoki tarekkasimon (B varianti) bo'lislari mumkin.



**5.17-rasm. Bog'lanmagan boshqariladigan ikki diskli FIMning sxemasi:**

1 – maxovik; 2 – bosh FIM yetaklanuvchi disk; 3 – bosh FIM vali; 4 – FIM g'ilofi; 5 – bosh FIM siquvchi disk; 6 – siquvchi prujinalar; 7 – QOV FIMining siquvchi disk; 8 – QOV FIMining yetaklanuvchi disk; 9 – bosh FIMni ajratish yuritmasi; 10 – QOV FIMining tayanch disk; 11 – QOV FIMining teshik vali; 12 – QOVning shesternyalik yuritmasi; 13 – QOV vali; 14 – QOV FIMining ajratuvchi yuritmasi

Bosh FIMni ajratish yuritma 9 orqali amalga oshiriladi, u siquvchi disk 5 ga ta'sir etib uni motor maxovikdan ajratadi. QOV FIMi yuritma 14 bilan ajratiladi, siquvchi diskni maxovik 1 tomon suradi. Shunday qilib, ko'rib chiqilgan sxemalarda ikkala FIM ham avtonom ravishda ishlaydi va prujina 6 ning bir xil siqish kuchi bilan yuklangan bo'ladi. FIMlardan birortasi ajratilgan bo'lsa, prujina 6 ning siqilishi hisobiga boshqa FIM tomonidan uzatiladigan moment biroz ortadi. Bir qator hollarda traktor og'ir ishlarni bajarish paytida, FIMning shataksirashi sezilarlik darajada oshganda ijobiy ahamiyatga ega.

## 5.6. Moyda ishlovchi ilashish muftalari


Moyda ishlovchi (ho'l) FIMlarni quruq ishlaydiganlariga nisbatan asosiy afzalligi, friksion ustqo'ymalarning yeyilish jadalligini ancha pastligi natijasida uning ishlash davrini kattaroq ekanligidir.

FIM ishqalanish juftliklarining moylanishi ulardagi ishqalanish koeffitsiyentini  $0,25\dots0,3$  dan  $0,07\dots0,1$  gacha pasayishiga olib keladi. ammo bunda ularga bo'lgan bosimni deyarlik 10 martaba oshirish imkonini beradi. Natijada puxta va ixcham FIM tuzilmasi hosil bo'ladi.

Zamonaviy traktorlarda ko'p diskli doimiy ulanmagan gidravlik siquvchi qurilmali FIMlar keng tarqalgan. Bunday tuzilmalar uzatmalar qutisida uzatmalarni almashtirishni ta'minlashda, QOVni ulashda va keyingi yillarda katta quvvatli sanoat traktorlarida bosh FIM sifatida va o'rnatlovchi zanjirli traktorlarning burish mexanizmining ko'p diskli friksion mustalarida qo'llaniladi.

Ko'p diskli FIM (5.18-rasm) quyidagi qismlardan: ishqalanish sirlari kukun materialdan yasaqlan shiltsada FIM korpusi *10* bilan bog'langan disklar paketi *9* va u bilan birikadigan po'lat disklar *8* dan; disklarni siqish uchun qo'llaniladigan korpus *6* va porshen *4* dan tuzilgan servomotorlardan; servomotorni dastlabki holatiga keltiruvchi va ajratishni tozaligini ta'minlovchi porshen *4* ni qaytaruvchi prujinalar *2* dan tuzilgan.

FIMni ulash paytida moy bosim ostida kanallar *a* orqali korpus *6* bo'shlig'iga uzatiladi va servomotor porsheni *4* ga ta'sir qiladi, u surilish natijasida disklar *8* va *9* ni siqadi, bu FIM korpusi *10* dan yetaklanuvchi val *11* ga burovchi moment uzatishni ta'minlaydi. Bunda shariqli klapan *5* moy bosimi ta'sirida yopiq holda bo'ladi. FIM ajratilganda servomotor korpusi *6* ning ichki bo'shlig'i *a* teshik orqali to'kish teshigi bilan birlashadi. Natijada gidravlik magistraldagi moyning bosimi pasayadi va shariqli klapan markazdan radius bo'yicha yo'nalgan markazdan qochma kuch ta'sirida ochiladi va moy servomotor korpusi ichki bo'shlig'ini bo'shatadi. Servomotor korpusi *6* ning ichki bo'shlig'idan moy to'kilganda, uning porshen *4* ga bo'lgan bosimi pasayadi, markazdan qochma kuch ta'sirida prujina *2* FIMni tezda ajralishini ta'minlaydi.




**5.18-rasm. Gidravlik siquvchi qurilmalik ko'p diskli FIM:**

1 – zichlagich; 2 – qaytargich prujina; 3 – moy uzatish uchun teshik; 4 – servomotor porsheni; 5 – bo'shatish sharikli klapani; 6 – servomotor korpusi; 7 – zichlagich; 8 – po'lat disk; 9 – sirti kukunli material bo'lgan disk; 10 – FIM korpusi; 11 – yetaklanuvchi val; a – moy o'tishi uchun teshik

FIMlarning zamonaviy tuzilmalarida sirti kukunli material bo'lgan diskning ishqalanish sirtiga moy yuborish uchun ariqchalar qilinadi. Bu ariqchalar spiral, radial, spiral-radial bo'lish mumkin (5.19-rasm). FIMning mavjud tuzilmalarida ariqchalarning maydoni ustqo'yma umumiyligi maydonining 20...60% ni (radial ariqchalar 20-25% ni, spiral ariqchalar 35-45% ni, spiral-radial ariqchalar 50-60 % ni) tashkil qiladi. Ishqalanish sirtiga moyni uzatish yetaklanuvchi barabanda bajarilgan teshik 3 orqali amalga oshiriladi.

Spiral ariqchalarda (5.19-rasmga qarang) markazdan qochma kuch ta'sirida moyning radial yo'nalishdagi harakati qiyinlashadi. Bunday ariqchalar yuqori ishqalanish koefisiyentini ta'minlaydi, ammo moy oqimi bilan ishqalanish sirtidan issiqlikni chiqarib yuborish yomonlashadi, natijada disklarning yeyilishi ortadi.



**5.19-rasm. Kukunli materialdan yasalgan ishqalanish sirti ariqchalik bo'lgan friksion disklar:**

a – spiral; b – radial; d – spiral-radial; 1 – ishqalanish koefitsiyenti;  
2 – yeyilishga bardoshlilik; 3 – issiqlikni chiqarib yuborish

Radial ariqchalar (5.19- b rasm) moyni erkin o'tishini, shu bilan birga ishqalanish sirtidan issiqlikning chiqib ketishini yaxshi ta'minlaydi. Ishqalanish sirtlarining yeyilish bardoshligi yuqori. Biroq disk markazidan uning chetiga harakatlanayotgan moy oqimining ponalanish samarasini natijasida radial ariqchalar ishqalanish koefitsiyentini sezilarlik pasayishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham kerakli ishqalanish momentini hosil qilish uchun FIM disklarini siqishga ancha kuch talab etiladi.

FIMlarning zamонавиј тузilmalarida spiral-radial ariqchalik disklar ko'п tarqalgan (5.19- d rasm). Bunday ariqchalik disklardan foydalaniлganda ishqalanish koefitsiyenti ortadi, issiqlik yaxshi chiqarib yuboriladi va yeyilish kamayadi, chunki radial ariqchalarни birlashtiruvchi spirallik qism uncha katta bo'limganligi uchun diskning ichki chetidan tashqi chetigacha bo'lgan moyning yo'li qisqaradi.

Hozirgi zamon traktorlarining tuzilmalarida gidravlik siquvchi qurilmalik ho'l FIMlar uzatmalar qutisida eng ko'p tarqalgan.

### **Gidravlik bosimda ishlaydigan ilashish muftalarining tuzilishi va ularni hisoblash.**

Gidravlik bosimda ishlaydigan muftalarini hisoblash shu mufta orqali uzatilishi mo'ljallangan burovchi momentni uzatish uchun kerak bo'lgan suyuqlikning bosimini aniqlashga asoslangan.

Porshenning zarur bosish kuchini hosil qiluvchi silindrda qidiruvning bosim kuchi, mufta ishga solinganda porshen muvozanat holatda bo'lishi shartidan aniqlanadi:

$$Q = P_{st} - P_{pr} + P_m \quad (5.1)$$

bu yerda:  $Q$  – mo'ljaladagi burovchi momentni uzatish uchun zarur bo'lgan ishqalanuvchi yuzalarini bosish kuchi;  $P_{st}$  – moyning porshenga ta'sir etuvchi statik bosim kuchi;  $P_{pr}$  – bosib ajratish prujinalarining dastlabki siqish kuchi;  $P_m$  – porshen ostida joylashgan va mufta bilan birga aylanuvchi moy hosil qilgan markazdan qochma kuchi.

Ishqalanuvchi disklarni bosish kuchi  $Q$  (5.1) tenglamadan aniqlanib, bunda ishqalanuvchi yuzalar radiuslari nisbati  $R_2/R_1 = 1,2 \div 1,4$  va muftaning ilashish zaxira koeffitsiyenti  $\beta = 1,5 \dots 1,8$  oraliqda qabul qilinadi.

Moyning statik bosimidan hosil bo'lgan statik kuch:

$$P_{st} = q_{st} \cdot F_p \quad (5.2.)$$

bu yerda:  $q_{st}$  – gidravlik tizimdagagi moyning statik bosimi (traktordagi muftalar uchun  $q_{st} = (0,5 \dots 1,5)$  MPa bo'lib, uning katta qiymati porshendagi zichlamalarni murakkablashtirgani uchun qabul qilinmaydi);  $F_p$  – porshen yuzasi.

Porshenning tubiga ta'sir etuvchi moyning markazdan qochma kuchi  $P_m$  ni aniqlash uchun, muftaning aylanish o'qidan  $R$  masofada joylashgan kengligi  $dR$  va qalinligi 1 mm ga teng bo'lgan elementar halqasining silindrsimon ichki yuzasiga ta'sir etuvchi bosimi  $dq$  aniqlanadi.

$$dq = \rho \cdot \omega^2 \cdot R \cdot dR$$

bu yerda:  $\rho$  – moyning zichligi;  $\omega$  – mufta valining burchak tezligi.

Tenglamaning chap tomonini 0 dan  $q$  gacha, o'ng tomonini esa  $R$  dan  $R_\theta$  gacha integrallab,  $R$  radiusda joylashgan moy bosimini topamiz:

$$q = \rho \cdot \frac{\omega^2}{2} \cdot (R^2 - R_\theta^2) \quad (5.3)$$

bu yerda:  $R_\theta$  – moyning silindrga kirish teshigi joylashgan radius. Porshen tubining elementar yuzasiga ta'sir etuvchi markazdan qochma kuch:

$$dP_m = q \cdot 2\pi \cdot R \cdot dR$$

Bu formuladagi  $q$  ning o'rniga uning (5.3) tenglamadan topilgan qiymatini qo'ysak, moy porshenga valning o'q chizig'ida joylashgan teshik orqali kiradi desak,  $R_\theta = 0$  bo'ladi. Bu holda

$$P_m = \frac{\pi \rho \omega^2}{4} \cdot (R_2^4 - R_1^4)$$

(5.1) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$P_{st} = q_{st} \cdot F_p = Q + P_{pr} - P_m$$

Berilgan burish momentini uzatish uchun zarur bo'lган moyning statik bosimi

$$q_{cm} = \frac{Q + P_{np} - P_m}{F_n}$$

Ma'lumki, ko'p diskli ilashish mustalarining to'liq ajralishi uchun ularda bosib ajratish prujinalari o'rnataladi. Ajratish prujinalari hosil qiladigan kuch  $R_{pr}$  mexanizmdagi ishqalanish kuchini va muftadagi moyning markazdan qochma kuchi  $P_m$  ni yengish uchun yetarli bo'lishi shart. Ilashish mustalaridagi bosib ajratish prujinalarining kuchi  $P_{pr} = (1...6)$  kN oraliqda olinadi.

Ishqalanish kuchlari hamda moyda ishlaydigan disklarning «yopishib qolishi» hisobga olinganda prujinaning kuchi quyidagicha olinishi mumkin:


$$P_{pr} = P_m + (0,8 \div 1,0) \text{ kN.}$$

## 5.7. Ilashish muftasini boshqarish yuritmalari.

Yuritma sifatini boshqarishni qulayligi va yengilligi, traktorchi FIMni to'liq ajratish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lган ishi bilan

baholanadi. Hozirgi paytda FIMni boshqarish tepkisidagi kuch standart bilan chegaralangan va uning qiymati kuchaytirgich bo'lganda 150 N va kuchaytirgich bo'limganda 250 N ni tashkil qiladi. Bunda FIM tepkisining yo'li 150...180 mm atrofida bo'lishi kerak. FIM boshqarmasi mexanik yuritmasinig ishlashi yuqorida ko'rib chiqilgan. Bunday yuritmalar traktorlarda keng tarqalgan.

5.20-rasmda T-40 traktori FIMining mexanik yuritmasi ko'rsatilgan. FIMni boshqarish tepkisi 1 bosilganda kuch rostlanuvchi tortqi orqali richag 3 ga va undan so'ng ajratish vilkasi 4 orqali mufta 5 qaytargichiga uzatiladi. Natijada FIMning ajralishi sodir bo'ladi. Tepkidan yuklama olinganda prujina 6 tepki 1 ni avvaldagi holatiga qaytarishi lozim.



**5.20-rasm. T-40 traktori FIMining boshqarish yuritmasi:**


- 1 – tepki; 2 – rostlanadigan tortqi; 3 – ajratish vilkasining richagi;
- 4 – ajratish vilkasi; 5 – mufta qaytargichi; 6 – prujina

Ushbu yuritmada FIMni boshqarishdagi barcha ishlar inson muskulining energiyasi hisobiga bajariladi. Tepki 1 ning erkin yo'lini rostlash tortqi 2 bilan bajariladi.

Ko'p hollarda FIMning mexanik yuritmasi standart talablariga tepkidagi kuch qiymati bo'yicha javob bermaydi. Bunda kuchaytirgichli yuritma qo'llaniladi, ular qisman yoki to'liq FIMni boshqarishdagi energiyani boshqa manbalari hisobiga hosil qilinadi.

5.21-rasmda prujinali kuchaytirgichga ega bo'lgan TTZ-80 traktorlari FIMining mexanikaviy yuritmasi keltirilgan. U tepki 1, uch

yelkalik richag 2, oraliq tortqi 6, ajratish vilkasi richagi 7 va prujinalik servokuchaytirgichdan iborat. Servokuchaytirgich vintli silindrik prujina 3 dan va kronshteyn 5 ga buralgan tayanch boltidan tuzilgan. Ulangan FIMda servokuchaytirgich prujinasi 3 FIM tepkisini avvalgi holatida ushlab turadi. Tepki 1 bosilganda, tepkinining erkin yo'li o'tganda, uni harakatlantirish uncha katta emas, prujina 3 ning siqilishi sodir bo'ladi. Tepki erkin yo'lini o'tib bo'lingandan so'ng, undagi kuch ortadi, natijada prujina shunday holatni egallaydiki, u cho'zila boshlaydi, prujinaning elastik kuchi oraliq yelka orqali richag 2 ni buradi va shu bilan birga FIMni ajratish paytidagi tepkinining siljishga bo'lgan qarshiligi kamayadi.



**5.21-rasm. TTZ-80 traktorlari FIMi mexanik yuritmasining prujinalik kuchaytirgichi**

FIM yuritmasining bu tuzilmasida tormozokni boshqarish yuritmasi ham qo'shib ketgan. Tormozokni boshqarish yuritmasi tormozok tortqisi 9 va tormozokni boshqarish valchasining richagi 10 dan tuzilgan. Richag 10 tortqi 9 ning richagi 7, kompensatsiya prujinasi bilan birlashgan, u tormozokni ohista ishga tushishini ta'minlaydi.

Tepki 1 ning erkin yo'li oraliq tortqi 6 ning uzunligini o'zgartirish bilan rostlanadi. FIM tormozogi diskining erkin yo'li tortqi 9 ning uzunligini o'zgartirish yo'li bilan rostlanadi.

Zamonaviy traktorlarda FIMlarning pnevmatik va gidravlik servoyuritmasi ko'proq qo'llaniladi. Pnevmatik servoyuritmada FIMni boshqarishda tepkidagi kuchni pasaytirish uchun, boshqarish tepkisida siqilgan havoning energiyasidan foydalaniadi, gidravlik servoyuritmada esa bosim ostidagi suyuqlik energiyasidan foydalaniadi.

T-150/150K traktorlarining FIM boshqarmalari uchun pnevmatik servoyuritma qo'llaniladi.

**Ilashish muftalarining boshqarish mexanizmlari.** Muftani boshqarish uchun sarf qilinadigan kuch boshqarish mexanizmi (yuritmasi)ning tuzilishiga bog'liq. Odatda doimiy va muvaqqat qo'shilgan muftalarining boshqariladigan boshqarish yuritmalari qo'l yoki oyoq bilan ishlataladi.

Boshqarish mexanizmining tuzilmasi traktoring turiga, vazifasiga va ishslash sharoitiga bog'liqdir. Bir diskli muftaning yuritmasi 5.22-rasmida ko'rsatilgan.

Muftani ajratish uchun vtulka 1 ni  $P_b$  kuch bilan bosish kerak. Ajratish kuchi  $P_b$  bilan disklarni bosish kuchi  $Q$  orasida quyidagi munosabat mavjud:

$$P_b = u \cdot Q$$


bu yerda  $u$  – richagli mexanizmning kuch uzatish soni

$$u = \frac{a}{b} = \frac{P_b}{Q}, \quad P_b = \frac{a}{b} \cdot Q$$

bu yerda:  $a$  va  $b$  – bosish richagining yelkalari;  $Q$  – bosish prujinalarining muftani ajratish uchun lozim bo'lgan umumiy bosish kuchi;  $P_b$  – kuch bilan tepkidagi  $N$  kuch orasidagi bog'lanishni mexanizmning uzatishlar soni orqali ifodalash mumkin:

$$N = \frac{P_b}{h_1 \cdot h_2 \cdot h_3 \cdot h_4 \cdot \eta} \quad \text{yoki} \quad N = \frac{Q}{b \cdot h_1 \cdot h_2 \cdot h_3 \cdot h_4 \cdot \eta}.$$

Bu yerda:  $h_1, h_2, h_3, h_4$  – yuritmadagi richaglarning yelkalari;  $\eta$  – boshqarish mexanizmining foydali ish koefitsiyenti (yuritma sharnirlarining quruq yoki yarim quruq ishqalanishini inobatga olib.  $\eta=0,7\div0,8$  oraliqda qabul qilinadi).



5.22-rasm. Doimiy ilashmadagi mustaning boshqarish yuritmasi


Xalqaro hujjatlarda belgilangan shartlarga muvofiq musta yuritmasining tepkisini bosish kuchi 120 N dan oshmasligi kerak.

Muftani ajratishda tepkining yo'li  $S_n$  bilan bosish vtulkasining to'liq yo'li orasidagi bog'lanish  $S_n = u \cdot S_b$  munosabat bilan ifodalanadi, bu yerda  $S_b$  – bosish vtulkasining muftani ajratishdagi yo'li;  $u$  – yuritmadagi richaglarning uzatishlar soni. Bosish vtulkasining to'liq yo'li esa:

$$S_b = S_s + S_u$$

bu yerda  $S_s$  – bosish vtulkasining yon sirti bilan muftani ajratish richaglarining uchlari orasidagi tirqishni o'tish uchun zarur bo'lgan salt yo'l (5.22-rasmda mufta ajratilgan holatida chizilgani uchun  $S_s$  masofa ko'rinxaydi);  $S_u$  – ishqalanuvchi yuzalarни bir-biridan ajratish uchun zarur bo'lgan ishchi yo'l.

Bosish vtulkasi 1 va ajratish richaglari 3 ning uchlari orasidagi tirqish  $S_s$  ishqalanuvchi yuzalar yeyilib tirqish kamayib ketganda ham muftani to'liq qo'shish uchun kerak. Tirqish (salt yo'l) bo'lmasa mufta qo'shilmay qolishi mumkin.



**5.23-rasm. Ajratuvchi richagni hisoblash sxemasi**

Tirqish  $S_v$  ning qiymati ustqo'ymalarning joiz yeyilishiga bog'liq bo'lib, muftalar uchun 3...5 mm ni tashkil etadi.  $S_u$  – bosish vtulkasining ishchi yo'li muftaning tuzilmasiga bog'liq bo'lib, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_v = \Delta f \cdot \frac{b}{a} \quad \text{yoki} \quad S_u = \Delta x \cdot i \cdot u_{yu}$$

bu yerda:  $\Delta f$  – mufta ajratilganda ishqalanuvchi har bir just yuzalar orasida paydo bo'ladigan tirqish (tirqishning kengligi bir diskli mustalar uchun  $\Delta f = 0.8 \div 1.0$  ko'p diskli mustalar uchun:  $\Delta f = 0.3 \div 0.4$  mm);  $b/a$  – ajratish richaglarining uzatishlar soni ( $b$  va  $a$  richag yelkalarini);  $i$  – muftadagi ishqalanuvchi just yuzalar soni;  $u_{yu}$  – yuritmadagi richaglarning uzatishlar soni ishlayotgan muftada bosish vtulkasi titrab uning ajratish richaglariga urinmasligi uchun, boshqarish yuritmasida tortib ajratish prujinalari 2 o'rnatiladi. Tortib ajratish prujinalari bevosita bosish vtulkasiga yoki biror oraliq richagga o'rnatiladi.

## **5.8. Muftaning asosiy o'lehamlarini aniqlash. Uning yeyilishi va qizishini tekshirish**

Ilashish mustalarining asosiy parametrlarini hisoblashdan asosiy maqsad, burovchi momentni uzatish uchun kerak bo'lgan asosiy

o'lchamlarni aniqlashdan iborat. Muftaning quyidagi ko'rsatkich va o'lchamlari hisoblanadi:

- 1) Ishqalanadigan disk yuzasining o'lchamlari va soni;
- 2) Mo'ljallangan burovchi momentni uzatishga imkoniyat yaratuvchi disklarning bosish kuchi;

3) Ishqalanadigan disk yuzalariga yoki ustqo'yymaga ta'sir etuvchi solishtirma bosim, musta shataksiragandagi solishtirma ish va musta ishlagandagi qizish;


- 4) Mufta asosiy detallarining mustahkamligi;
- 5) Muftani ishga soluvchi yuritmalar va uning detallari.

Muftaning asosiy o'lchamlari uzatilishi mumkin bo'lgan momentdan bir oz kattaroq moment bo'yicha hisoblanadi. Bunga sabab muftaning disklarini yog' bosganda, ishqalanish yuzalari yedirilganda yoki disklarni bosish prujinalarining bikirligi kamayganda motorning burovchi momenti ma'lum qiymatgacha kamayishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqsak, ishqalanish mustasi tomonidan uzatilishi kerak bo'lib hisoblangan moment quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$M_s = \beta \cdot M_m$$

bunda  $\beta$  – muftadagi ishqalanish zaxirasi koeffitsiyenti;  $M_m$  – motorning tirsakli validagi burovchi moment.



5.24-rasm. Muftani hisoblashga oid sxema

Traktorlarning muftalarini hisoblashda, motorning burovchi momenti  $M_m$  – motorning nominal momenti  $M_n$  ga teng qilib olinadi. Transport traktorlarining doimiy qo'shilgan ilashish muftalari uchun  $\beta = 1,5\dots2,5$ ; Qishloq xo'jalik traktorlarining doimiy yoki muvaqqat qo'shilgan va badal (kompensatsion) prujinalarga ega bo'lган ishqalanish muftalari uchun  $\beta = 2,5\dots3,5$ ; muvaqqat qo'shilgan ilashish muftalar uchun  $\beta = 3,5\dots4,5$ .

Hisobiy ishqalanish momenti disklarni bosish kuchi  $Q$  orqali quyidagicha ifodalanadi (5.23- rasm):

$$M_x = \beta \cdot M_m = \mu \cdot Q \cdot R_{o_r} \cdot i \quad (5.4)$$

bu yerda:  $\mu$  – ishqalanish koefitsiyenti, uning qiymati turli materiallar uchun 5.1-jadvaldan tanlanadi;  $R_{o_r}$  – ishqalanuvchi yuzadagi ishqalanish kuchlarining teng ta'sir etuvchisi joylashgan aylananing o'rtacha radiusi (ishqalanuvchi yuzalarning o'rtacha radiusi);  $i$  – ishqalanishda ishtirok etuvchi juft yuzalarining soni.

Keltirilgan tenglikdan foydalanib motor momentini uzatish uchun zarur bo'lган diskning bosish kuchini topamiz.

$$Q = \frac{\beta \cdot M_n}{\mu \cdot R_{o_r} \cdot i} \quad (5.5)$$

#### 5.1-jadval

Turli ishqalanuvchi materiallar uchun ishqalanish koefitsiyenti va joiz bosim

Material	Ishqalanish koefitsiyenti		Joiz bosim, MPa	
	Quruq ishqalanish	ho'l (moyda) ishqalanish	Quruq ishqalanish	ho'l (moyda) ishqalanish
Cho'yan yoki po'lat	0,15÷0,18	0,03÷0,07	0,2÷0,25	1,0
Raybest	0,3÷0,4	-	0,15÷0,25	-
Asbokauchuk	0,4÷0,5	0,1÷0,12	0÷0,2	0,3
Asbobakelit	0,35÷0,45	0,1÷0,12	0,1÷0,3	0,3
Metallkeramika	0,4÷0,5	0,1÷0,12	0,4÷0,6	3 gacha

Ishqalanish koefitsiyenti  $\mu$  ni tanlashda ishqalanuvchi sirlarning materiali va ishqalanib qizish harorati, ishqalanuvchi yuzalarning

holati va o'lchamlari hamda ularning o'zaro sirpanishidagi nisbiy tezligi ko'zda tutiladi. Amaliy hisoblashda, ishqalanish koeffitsiyenti faqat ishqalanuvchi sirtlar materialiga bog'liq qiymati shartli ravishda tanlanadi (5.1-jadval).

Ishqalanish kuchlarining teng ta'sir etuvchisi joylashgan aylananing o'rtacha radiusi

$$R_{\text{ort}} = \frac{2}{3} \cdot \frac{R_2^3 - R_1^3}{R_2^2 - R_1^2}$$

bu yerda:  $R_1$  va  $R_2$  ishqalanuvchi yuzalarning mos ravishda ichki va tashqi radiuslari. Amaliy hisoblarda o'rtacha radius quyidagi formuladan aniqlanadi (bunda 2...3 foiz xatoga yo'l qo'yilishi mumkin):

$$R_{\text{ort}} = \frac{R_1 + R_2}{2}$$

Ustqo'ymaning ichki diametri  $D_1 = (0,5 \dots 0,7)D_2$  yoki ichki radiusi  $R_1 = (0,5 \dots 0,7)R_2$ . Hisoblab topilgan  $D_2 = 2R_2$  va  $D_1 = 2R_1$  larni davlat standartlarida keltirilgan o'lchamlar bilan solishtirib, hisoblangan diametrlarga yaqin bo'lgan standartlashtirilgan ustqo'ymaning o'lchamlari qabul qilinadi.

Agar loyihalanayotgan mufta yangi bo'lib, undagi disklar soni nomalum bo'lsa, u holda yangi muftaning nechta diskka ega ekanligini topish quyidagicha amalga oshiriladi. Buning uchun (5.4) formuladagi bosish kuchi  $Q$  ni solishtirma bosim orqali ifodalaymiz:

$$Q = F \cdot q,$$

bu yerda:  $F$  – ustqo'ymaning bir tomonidagi yuzasi  $F = b \cdot 2\pi \cdot R_{\text{ort}}$ , bunda  $b$  – ustqo'ymaning kengligi  $b = R_2 - R_1$ ;  $q$  – ishqalanuvchi yuzalardagi solishtirma bosim  $F$  ning ifodasini yuqoridagi formulaga qo'ysak,

$$Q = b \cdot 2\pi \cdot R_{\text{ort}} \cdot q.$$

$Q$  ning hisoblangan qiymatini (5.4) formulaga qo'yib, mufta uchun zarur bo'lgan disklar sonini topamiz:

$$i = \frac{\beta \cdot M_s}{b \cdot 2\pi \cdot R_{\text{ort}}^2 \cdot q \cdot \mu}$$

Muftalardagi disklar sonini topishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish mumkin:

1. Agar muftaning tuzilmasi ma'lum bo'lsa, u holda muftadagi ishqalanuvchi juft sirtlar soni quyidagi tenglikdan topiladi:

$$i = m + n - 1,$$

bu yerda  $m$  va  $n$  mos ravishda muftadagi yetakchi va yetaklanuvchi disklar soni.

2. Muftalar ustida olib borilgan tajribalarning ko'rsatishicha, agar loyihalanayotgan muftadagi hisobiy ishqalanish momenti  $M_x \leq 700$  Nm bo'lsa, u holda mustani bir diskli, agar  $M_x > 700$  Nm bo'lsa, ikki diskli qilib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muftaning kerakli o'chamlari va disklar soni topilgandan so'ng, uning ishlash qobiliyati ya'ni yeyilishga chidamliligi tekshiriladi. Buning uchun dastlab ustqo'yma yuzasidagi solishtirma bosim aniqlanadi.

$$q = \frac{\beta \cdot M_H}{2\pi \cdot R_{or}^2 \cdot \mu \cdot b \cdot i} \leq [q]$$

Ustqo'yma yuzasidagi solishtirma bosim, ishqalanuvchi juftlik materiallari uchun mo'ljallangan joiz solishtirma bosimdan kam bo'lishi kerak (5.1- jadvalga qarang).

Ishqalanish muftasining yeyilishga chidamliligini faqat ishqalanuvchi yuzalardagi solishtirma bosim bilan baholash yetarli emas. Musta ishlayotganda uning ishqalanuvchi yuzasida murakkab jarayonlar kechadi. Kichikroq vaznli traktorda (ishqalanish yuzasidagi bosim miqdori bo'yicha) yaxshi ishlagan musta katta vaznli traktorga o'rnatilganda yomon ishlashi mumkin. Buning sababi tekshirilganda ma'lum bo'ldiki. katta vaznli traktorlar o'rnidan tezlik bilan qo'zg'alganda mustada shataksirash ro'y berib ustqo'ymlar tez yeyiladi. Shuning uchun loyihalanayotgan musta nafaqt solishtirma bosimi bilan, balki ishlayotganida uning yuzalarida hosil bo'ladigan shataksirash ishining miqdori bilan ham baholanishi kerak. Traktor agregati o'rnidan qo'zg'alayotganda mustaning shataksirash darajasi uning ishlash qibiliyatini bildiradi. Shuning uchun traktor agregati o'rnidan qo'zg'alganda uning mustasidagi shataksirash ishini aniqlash muhim ahamiyatga ega:

$$A = \frac{\omega_n^2}{2 \left( 1 - \frac{1}{\beta} \right) \left( \frac{1}{J_d + J_d} \right)} \quad (5.6)$$

bu yerda:  $\omega_n$  – motor tirsakli valining burchak tezligi;  $J_d$  – motordagi maxovik va boshqa aylanma, ilgarilanma-qaytma

harakatlanuvchi detallarning (porshen, val va h. k.) mustaning yetakchi valiga keltirilgan umumiy inersiya momenti;  $J_A$  – traktor agregatining xuddi shu valga keltirilgan inersiya momenti.

Tadqiqotlarga binoan  $J_d = 1,2J_m$  deb qabul qilish mumkin (bu yerda  $J_m$  – maxovikning inersiya momenti  $\text{kg} \cdot \text{m}^2$ ).

Maxovikning inersiya momenti  $J_m = m_m \left( \frac{D_m}{2} \right)^2$  (bu yerda  $m_m$  – maxovikning massasi,  $D_m$  – maxovikning diametri).

Traktor agregatining inersiya momenti ekvivalent massa va shu massa bilan almashtirilgan massa kinetik energiyalarining tengligi shartidan topiladi (bunda agregatning aylanuvchi massalari ta'sirini e'tiborga olmaslik 5% xatoga olib kelishi mumkin):

$$J_A = m_a \left( \frac{r_F}{u_T} \right)^2,$$

bu yerda  $m_a = m_t + m_q$  – traktor agregatining massasi,  $m_t$  – traktorning va  $m_q$  – qishloq xo'jalik mashinasining massalari;  $r_F$  – traktor yetakchi g'ildiragining radiusi;  $u_T$  – transmissiyaning eng yuqori tezligini ta'minlovchi uzatmasining uzatishlar soni.

Traktor bilan birga ishlovchi qishloq xo'jalik mashinasining massasi  $m_q$  ni quyidagicha hisoblash mumkin:

$$m_q = \frac{P_{il,min}}{f_q \cdot g},$$

bu yerda  $P_{il,min}$  – traktorning transport ishlarini bajarishda eng yuqori uzatmasi ulanganda ilgakdagi tortish kuchi;  $f_q$  – tuproqning tirkalma mashinaning harakatiga qarshilik koefitsiyenti;  $g$  – erkin tushish tezlanishi.

Muftadagi disklarning ishqalanish yuzasi bir xil bo'lganligi sababli shataksirash ishining aniqlangan mutlaq qiymati ularning yejilishga chidamliliginib bildirmaydi. Shu tufayli qiyosiy natijalarni olish uchun mustaning shataksirashidagi solishtirma ishidan foydalilaniladi:

$$I = \frac{A}{F_i \cdot i} \leq [I]$$

bu yerda:  $F_i$  – birgina ishqalanuvchi sirtning yuzasi;  $i$  – ilashish muftasidagi ishqalanuvchi just sirtlar soni.

Ustqo'y madagi ishqalanuvchi birgina sirtning yuzasi quyidagicha hisoblanadi:

$$F_i = \left[ 0,785 \cdot (D_2^2 - D_1^2 - d^2 \cdot k) \right] - S_x$$

bu yerda:  $d$  – ustqo'y mada parchinmix kallagi joylashgan yumaloq o'yiqning diametri, m;  $k$  – ustqo'y mada parchinmix o'tkaziladigan teshiklar soni;  $S_x$  – ustqo'y mada havo almashinishi uchun mo'ljallangan ariqchalar yuzasi,  $m^2$ . Puxta ishlaydigan muftalarda solishtirma ishning miqdori  $[\eta] = (500...600) \frac{\kappa K}{M^2}$ . Metall keramikadan tayyorlangan ustqo'y malii ilashish muftalarida shataksirash solishtirma ishi taxminan ikki marotaba katta bo'lishi mumkin.

Muftaning ishqalanib yejilishga chidamliligini tekshirish bilan bir vaqtida uning qizishi ham tadqiq etiladi. Bir diskli muftalarda bosuvchi disk, ko'p diskli muftalarda esa o'rtaqni ustqo'ymasi bo'limgan po'lat disklar ko'proq qiziydi. Mufta bir marotaba ishga solinganda undagi detallar haroratining o'sishi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Delta t = \frac{\gamma \cdot A}{C \cdot m_g} \leq [\Delta t] \quad (5.7)$$

bu yerda  $\gamma$  – mufta qiziganda uning detallaridan ajralib chiqayotgan umumiy issiqlik miqdorining qizishi tekshirilayotgan detalning qizishiga sarflangan ulushi;  $C$  – detal materialining issiqlik sig'imi;  $m_g$  – qizishi tekshirilayotgan detalning massasi.

Mufta har gal ishga solinganida, uning qizishi  $[\Delta t] = 10^\circ...15^\circ$  dan oshmasligi lozim. Mufta qayta-qayta ishga solinganda uning detallaridagi mutloq qizish esa  $200^\circ...300^\circ$  dan oshmasligi kerak.

Mazkur detalning qizishi uchun ketgan issiqlik ulushi:

$$\gamma = \frac{i_d}{i_{\Sigma}}$$

bu yerda  $i_d$  – qizishi aniqlanadigan diskning ishqalanuvchi yuzalari soni;  $i_{\Sigma}$  – muftalardagi ishqalanuvchi juft yuzalar soni.

Ustqo'y maning o'rta hisobda ishlash vaqtini ushbu formuladan aniqlanish mumkin:

$$T = (49,2 \div 52,7) \cdot 10^3 \cdot [h_{ey}] \cdot F_i \cdot i / K_s \cdot [h_n] \cdot L_u, \text{ soat} \quad (5.8)$$

bu yerda:  $[h_n]$  – disk ustqo‘ymasi materiali uchun joiz chiziqli yeyilish;  $F$  – ustqo‘ymadagi ishqalanuvchi yuza;  $K_s$  – ustqo‘yma materialidan yasalgan namunani sinash sharoitining haqiqiy ish sharoitiga mos kelmasligini hisobga oluvchi koefitsiyent;  $[h_n]$  – namuna materiali uchun joiz chiziqli yeyilish;  $L_n$  – traktorning bir soatlik ishida muftadagi ishqalanish (shataksirash) ishining o‘rtacha miqdori.

Agar muftaning yeyilishga chidamliligi va qizishga bardoshliligi tekshirilayotganda disklardagi ishqalanishning solishtirma ishi va qizish darajalari joiz qiymatlardan oshib ketsa, u holda loyihalanayotgan ilashish muftasining o‘lchamlari o‘zgartirilib, uning ishlash qobiliyatini ifodalovchi parametrlari qaytadan tekshiriladi.

## 5.9. Ilashish muftasi detallarining tuzilishi va ularni hisoblash

**Disklar.** Muftalar yetaklanuvchi disk (u yupqa po‘latdan yasalgan quruq ishqalanuvchi disk, unga parchinmixlar bilan yopishtirilgan ustqo‘ymadan iborat) bosish diskisi, o‘rta disk va boshqa detaillardan tarkib topadi.

Yaxlit po‘lat disk shtampovka usulida qalinligi 1.5 - 2 mmli qilib yasaladi. Po‘lat disk doira shaklida bo‘lib, uning yuzasida har xil yo‘nalishdagi o‘yiqlar, ariqchalar, kesiklar va h. k. lar mayjud bo‘ladi. Ariqchalar diskning tashqi diametridan markaziga va ichki diametridan yuqoriga radius bo‘ylab yo‘nalgan bo‘lib, ular tugallangan va tugallanmagan bo‘ladilar. Ariqchalarni yasashdan asosiy maqsad disk qiziganda havo almashinuvini ta’minlashdan iborat.

**Ustqo‘ymalar.** Ustqo‘ymalar yeyilishga chidamli, issiqbardosh va puxta ishqalanuvchi sirtlarining ishqalanish koefitsiyenti esa katta bo‘lishi kerak. Traktorlarning ilashish muftalarida asbestosmola (asbest-karton)li, asbestkauchukli, tekstolit hamda metallkeramikalardan tayyorlangan ustqo‘ymalar ishlataladi. Metallmas ustqo‘ymalarning tarkibi 25 - 50 foizgacha dag‘al maydalangan asbest va ularning zarrachalarini bog‘lovchi har xil organik smolalardan iborat. Ustqo‘ymalarning fizik va mexanik xossalari yaxshilash maqsadida ularning tarkibiga har xil to‘ldiruvchi materiallar: barit,

mineral tolalar, rux oksidlari, surik, alyuminiy oksidi va h. k. lar qo'shiladi. Barit bilan rux oksidlari ustqo'ymaning yeyilishga chidamliliginini va issiqbardoshligini, surik esa ishqalanish koeffitsiyentining yuksak bo'lishini. alyuminiy oksidi esa ishqalanish koeffitsiyentining detal bo'ylab bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi.

Ustqo'ymani tayyorlashda aralashma dastavval qoliplanadi, so'ng maxsus presslarda katta bosim ostida va yuqori haroratda halqa shakliga keltiriladi, shundan keyin uning sirtlari silliqlanadi.

**Bosish disklari.** Bu disklar muftalarda yetakchi disk vazifasini bajaradi. Bosish diskni maxovikka uning g'ilofi orqali yoki yo'naltiruvchi barmoqlar, shpilkalar yordamida biriktiriladi. Odatda g'ilofga o'rnatilgan barmoq bosish diskining perimetridagi katakchalarga kirib turadi.

Bosish disklari ishqalanuvchi yuzalarning to'liq va tekis urinishi uchun pishiq, egilmaydigan va issiqlikni atrof-muhitga tez uzata oladigan bo'lishi kerak. Bosish disk qiziganda, issiqliknинг tezroq tarqalib ketishi uchun biroz qalinroq, ba'zan esa uning ishqalanuvchi yuzalarida havo almashinuvini ta'minlovchi radial yoki burama ariqchalar yasaladi. Muftadagi bosish prujinalari bosish diskni bilan g'ilof oralig'iga o'rnatilgan. Agar prujinalar yo'naltiruvchi stakanlarsiz o'rnatilgan bo'lsa, ular markazdan qochma kuch ta'sirida egiladi. Prujinalar egilishining oldini olish uchun ular maxsus yo'naltiruvchi barmoqlarga stakansimon qobiqchalarga yoki bosish diskining orqa tomonida yasalgan maxsus o'yiqchalarga joylashtiriladi.

Bosib ajratish richaglarini bosish diskni bilan birlashtirish uchun bu diskda barmoqlar o'rnatiladigan teshiklar yoki qulogli burtmalar yasaladi.

Bosish disklari qattiqligi HB 163 - 229 bo'lgan СЧ 15 markali cho'yandan yoki qattiqligi HB 190...241 bo'lgan xrom nikelli cho'yan XHCЧ-40 dan quyma ravishda yasaladi. Bosish disklarining qalinligi ularning qizishini hisobga olgan holda aniqlanadi yoki o'rtacha qalinligi 20 - 40 mm qilib qabul qilinadi.

**O'rta disklar.** O'rta disklar asosan ikki va ko'p diskli muftalarda bo'ladi. O'rta disk xuddi bosish diskni kabi maxovikning g'ilofiga nisbatan qo'zg'aluvchan qilib o'tkaziladi. Mufta ishlaganda o'rta diskning ikki tomoni qiziydi. Shu sababli ular pishiq va bikir

bo'lishlari bilan birga, issiqqa chidamli hamda haroratni uzatuvchi konstruktiv choralar ko'rilgan bo'lishi lozim.

Ikki va ko'p diskli muftalar uzilganda o'rta disklarning tezda ajralishini ta'minlash eng asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ko'p diskli muftalarda mufta ishdan uzilganda o'rta disklarning ajralishi ko'p jihatdan disklarning bikirligiga bog'liq. Egiluvchan disklarning ajralishi qiyin bo'ladi, bikirligi yuqori bo'lgan disklar esa tez ajraladi. Ikki diskli muftalarda disklarning, ayniqsa o'rta disklarning aniq ajralishini ta'minlash maqsadida ular maxsus moslamalar bilan jihozlanadi. To'g'ri va aniq yasalgan muftalar ajratilganda disklar orasida tirqishning paydo bo'lishi, disklarning o'zidagi qoldiq burovchi momentga ham bog'liq.

O'rta disklar bosish disklari kabi kulrang va tarkibida xrom hamda vanadiy bo'lgan cho'yanlardan quyma ravishda tayyorlanadi. Diskning tashqi va ichki diametrлари ma'lum bo'lsa, haroratning ruxsat etiladigan qiymatini berish yo'li bilan uning qalinligini topishimiz mumkin.

Ko'p diskli muftalarda yetakchi va yetaklanuvchi disklar maxovikka yoki yetaklanuvchi valning barabaniga shlitsalar vositasida biriktiriladi. Shlitsalarning ishchi yuzalari asosan ezilishga ishlaydi. Shuni nazarda tutib ular ezilishdagi kuchlanishga hisoblanadi. Ezilishdagi [δ] joiz kuchlanish 30...40 MPa dan oshmasligi kerak.

**Vallar.** Vallarning tashqi ko'rinishi va tuzilishi ularga ta'sir etayotgan kuchlarga, muftaning turlariga va mazkur mufta traktorning qaysi yeriga o'rnatilganligiga hamda uning qanday sharoitda ishlashiga bog'liq. Mufta maxovikda uzatmalar qutisidan alohida joylashtirilganda uning vali bilan motorning vali o'zaro o'qdosh bo'lishi lozim.

Ko'pchilik hollarda vallar o'qining bir chiziqda yotishi (o'qdoshligi) ni ta'minlash uchun ikkita podshipnik o'rnatiladi. Podshipniklarning biri maxovikdag'i yoki tirsaklı valdag'i chuqurchaga, keyingi ikkinchi podshipnik esa ilashish muftasining karteriga o'rnatiladi. Podshipniklarning o'qlarini markazlashtirish maqsadida ilashish muftasining karterini maxovikning karteriga biriktirishda yo'naltiruvchi shtiftlar o'rnatiladi.

Vallarning o'qdoshmasligi 0,1...0,2 mm dan oshmasligi kerak. Bu o'lcham mufta o'z joyiga o'rnatilgandan keyin tekshiriladi.

Ilashish muftasidagi vallar motoring burovchi momentini uzatish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun mufta vallari buralishga motorning nominal burovchi momenti  $M_n$  bo'yicha hisoblanadi:

$$\tau = \frac{M_n}{0,2d^3} \leq [\tau_{bur}],$$

bu yerda:  $d$  – valning eng kichik qisimidagi diametri;  $[\tau_{bur}]$  – val materiali uchun buralishdagi joiz kuchlanish.  $[\tau_{bur}] = 80\dots100$  MPa atrofida olinib, uning qiymati materialining oquvchanlik chegarasi  $\sigma_T$  bo'yicha uch karra zaxira bilan ishlashini ta'minlaydi.

Mufta valining tashqi qisimidagi shlitsalarining ishchi yuzalari asosan ezilishga hisoblanadi:

$$\sigma_{ez} = \frac{8K_m \cdot M_n}{0,75 \cdot z_{sh} \cdot z_{gup} \cdot l_{gup} \cdot (d_i^2 - d_e^2)} \leq [\sigma_{ez}],$$

bu yerda:  $K_m$  – motorning moslanuvchanlik koeffitsiyenti; 0,75 – gupchak va val tishlarining bir-biriga mos tushishini (ya'ni burovchi momentni uzatishda shlitsalarning 75 foizi qatnashishini) ko'rsatuvchi koeffitsiyent;  $z_{sh}$  – shlitsalar soni;  $z_{gup}$  – valda o'tirgan gupchaklar soni;  $l_{gup}$  – disk gupchaginining uzunligi;  $d_i$  va  $d_e$  – valdag'i shlitsa tishlarining mos ravishda tashqi va ichki diametrlari;  $[\sigma_{ez}]$  – val materialining ezilishidagi joiz kuchlanishi ( $[\sigma_{ez}] = 25$  MPa).

Vallar va shlitsalarni qisqa vaqt ichida ta'sir qiladigan eng katta kuchlarga hisoblash talab etiladi. Detallarning elastiklik xususiyatini inobatga olgan holda hisoblash momenti muftadagi ishqalanish momentidan ikki hissa katta qilib olinadi. Bunda joiz kuchlanish materialning oqish chegarasidan oshmasligi lozim.

Muftaning validagi oldingi podshipnikning o'lchamlari motor valining tuzilmasiga qarab tanlanadi.

Muftalarda asosan zoldirli va rolikli podshipniklar ishlataladi. Ilashish muftalarining vallari asosan uglerodli po'latlar (po'lat 33 XSA, HRC 48 - 56; po'lat 40X, HRS 35 - 40; po'lat 45, HRC 40 - 50 va boshqalar) dan yasalib, keyinchalik ular toblanadi.

## **5.10. Ilashish muftasiga texnik xizmat ko'rsatish va uning tuzilmasini taraqqiyoti**

FIMga texnik xizmat ko'rsatish podshipiklari o'z vaqtida moylash (eski tuzilmalarda) va rezbalik birikmalarni qotirishdan, hamda rostlash va lozim bo'lsa ilashish muftasini yuvishdan iborat. FIMda siquvchi podshipnik va qaytargich muftanining ishqalanish sirtlari, FIM valining oldingi va orqa podshipniklari hamda ajratgich vilkasi valchasining vtulkasi va tepki o'qi moylanadi.

Friksion ustqo'ymlarning yeyilishi natijasida disklar komplektining qalinligi kamayib boradi. Bunda prujina (prujinalar)ning siquvchi kuchi kamayadi. Natijada FIMning ishqalanish momenti ham kamayadi, bu esa ilashish muftasini davomli shataksirashiga va friksion ustqo'ymlarni jadalliroq yeyilishiga olib keladi. Friksion ustqo'ymlar uncha katta yeyilishga ega bo'lmasa FIMni shataksirashi kerakli rostlash ishlari bilan bartaraf etiladi.

Bir diskli FIMlarni rostlash siquvchi podshipnik va ajratgich richaglar kallagi (yoki tayanch halqalari) yoki qirqimli tarelkasimon prujina kaftlari (5.1- va 5.9-rasmlarga qarang) orasidagi tirkishni belgilangan me'yor (3...4,5 mm)ga keltirishdan iborat. FIMlarning zamonaviy tuzilmalarida (5.6-rasm) boshqarish yuritmasidagi tirkishni rostlash nazarda tutilgan. Ikki diskli FIMlarda qo'shimcha ravishda rostlanadigan tayanchlar va oraliq yetaklovchi disk orasidagi tirkish (5.8- b rasm) (2...3 mm) rostlanadi.

Aralash boshqarilishga ega bo'lgan ikkilangan FIMlarda:

- bosh FIMni to'liq ajralgan holatini belgilovchi maxsus zashichelkaga tayanguncha bo'lgan tepkinining yo'li (odatda bu kerakli tortqining uzunligini o'lchash yo'li bilan amalga oshiriladi);
- tepkinining erkin yo'lini ta'minlovchi, siquvchi podshipnik va ajratuvchi richag (yoki tayaneh halqasi) yoki qirqimli tarelkasimon prujina kafti orasidagi tirkishi;
- QOV yuritmasi FIMini ajratmasdan bosh FIMni to'liq ajratilishini ta'minlovchi maxsus tayanch boltlari va oldingi siquvchi disk orasidagi tirkishi rostlanadi.

Bog'lanmagan boshqaruvga ega bo'lgan ikkilangan FIMlarda har bir ilashish muftasi bir diskli ilashish muftasidek rostlanadi.

Me'yor darajasida rostlangan FIMlarda ishqalanish sirtiga to'satdan moy tushib qolsa, ularni shataksirash ehtimoli bor. Bu holda disklarning ishqalanish sirlari uzilgan FIMda kerosin yoki benzinda yuviladi.

Ilashish muftalarining tuzilmalari ushbu yo'naliishlarda rivojlanmoqda:

Zamonaviy traktor tuzilmalarida bir diskli quruq FIMlarga o'tish tendensiyasi kutilmogda. Bunda teskari o'rnatilgan qirqimli prujinalik FIMlar zamonaviyroq hisoblanadi (5.6- rasmga qarang). Agar berilgan o'lchamlarda bir diskli ilashish muftasi tuzilmalari motor tomonidan berilgan burovchi momentni ishchonchli uzatish imkonи bo'lмаган paytda, ikki diskli FIMlar qo'llaniladi.

Katta quvvatli sanoat traktorlarida moyda ishlovchi FIMlar istiqbolli hisoblanadi.

Ekologik talablarni qondirish maqsadida, asbest asosidagi friksion ustqо'ymalarni, asbestosiz polimer va kukunli friksion ustqо'ymalarga almashtirish masalasi qо'yilmoqda.

## **6-bob. UZATMALAR QUTISI, BUROVCHI MOMENTNI KUCHAYTIRGICH, HARAKATNI PASAYTIRGICH VA TARQATISH QUTILARI**

### **6.1. Uzatmalar qutisiga qo‘yilgan talablar va tasniflar**

Uzatmalar qutisi (UQ) transmissiyaning umumiy uzatishlar sonini o‘zgartirish imkonini beradi. Ular faqat ichki yonuv motorli traktorlarga odatda, transmissiyaning ilashish muftasi va markaziy uzatmasi oralig‘iga o‘rnatiladi.

UQni qo‘llash zarurligi traktorni ishlatish jarayonida katta kompleksdagi mashina va uskunalar bilan agregatlash, ularni keng oraliqdagi tortishga qarshilikda, ruxsat etilgan tezlik 0,05...11,1 m/s (0,2...40 km/soat) da harakatlanishi bilan bog‘liq. Bunda motor imkon darajasida maqbul (85-95%) yuklanish tartibida, MTA esa kattaroq unumidorlik va tejamkorlik bilan ishlasin. Bunga UQ orqali qanday erishish mumkinligi 4-bobda batafsil ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, UQ traktorga orqaga harakatni ta’minlovchi MTAni komplektlashdagi yordamchi, hamda texnologik jarayonlarni (sanoat, bog‘dorchilik, polizchilik va boshqa) bajarishdagi MTAlar uchun asosiy uzatma bo‘lishi mumkin. UQda neytral uzatmanig bo‘lishi, traktor davomli to‘xtab turgan paytda, ishlab turgan motorda yetaklovchi val aylanayotganda, yetaklanuvchi valning harakatsiz turishini ta’minlaydi. U traktor statsionar sharoitda QOV yuritmasidan va uzatma shkividan foydalanish uchun ishlatiladi.

Uzatmalar qutisi birinchi navbatda uzatishlar sonini o‘zgartirish usuliga qarab turlarga bo‘linadi. Ular pog‘onasiz, pog‘onali va aralash bo‘lishi mumkin.

*Pog‘onasiz* UQsi uzatishlar sonining ma’lum oralig‘ida u istalgan qiymatga ega bo‘lishi mumkin, bu esa MTAning eng maqbul tartibda ishlashini ta’minlaydi.

*Pog‘onali* UQ berilgan uzatishlar soni oralig‘ida, uzatishlar sonining har biri, MTA kattaroq unumidorlik va tejamkor ishlashi jihatlari bo‘yicha tanlanadi va unda UQning uzatishlar soni o‘zgarmas bo‘ladi.

*Aralash* UQ uzatishlar sonini pog'onasiz rostlash kerak bo'l ganda qo'llaniladi, ammo berilgan oraliqda uning imkoniyati oddiy pog'onasiz UQdan yuqoriqoq bo'ladi. Bu holda ikkala UQning aralashmasi qo'llaniladi: pog'onali qismida soni uncha ko'p bo'lmanan uzatma uzatishlar sonining barcha oralig'ini qamrab oladi, hosil qilingan oraliqda esa MTAning ishi pog'onasiz UQ bilan ta'minlanadi.

Uzatmalar qutisi odatda burovchi momentni o'zgartirib berish usuliga qarab mexanik, gidravlik, elektrik va aralash turlarga bo'linadi.

Pog'onasiz UQlari bu belgilari bo'yicha mexanik (friksion-toroid, ponasimon tasmalik va impulsli-inersion), gidravlik (gidrodinamik va gidrohajmiy), elektrik va aralash (uzatishlar sonini o'zgartirish usuli bilan bir xil) turlarga bo'linadi.

Pog'onali UQ bu belgilari bo'yicha mexanik turga mansubdir, ularda burovchi momentni o'zgartirish shesternyali uzatmalarning uzatishlar soni hisobiga sodir bo'ladi.

Boshqarish usuli bo'yicha UQ qo'l bilan, yarim avtomatik va avtomatik boshqariladigan turlarga bo'linadi.

Qo'l bilan boshqariladigan UQsida uzatishlar sonini o'zgartirishning barcha operatsiyalari richag-tortqi yordamida, boshqarish tizimiga qo'yilgan traktorchining jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladi.

Yarim avtomatlashtirilgan UQsida boshqarish operatsiyalarning bir qismi boshqa (gidravlik yoki elektromagnit) energiya manbalaridan foydalanib amalga oshiriladi, bu esa traktorchining mehnatini ancha yengillashtiradi.

Avtomatlashtirilgan boshqarishda UQ maqbul uzatishlar sonini tanlashdagi barcha operatsiyalar avtomatik ravishda, traktorchining ishtirokisiz amalga oshiriladi. Avtomatlashtirilgan UQsida burovchi momentni o'zgartirish xususiyati hisobiga (gidrodinamik yoki elektrik) bosqichsiz UQ yoki kuchaytiruvchi qurilmalar va bort kompyuterlari ishtirokida amalga oshiriladi. Kompyuterlar pog'onali yoki aralash UQlarga kerakli uzatishlar sonini tanlash yoki belgilash uchun buyruq beradi.

Traktor transmissiyasi agregatlari va qismlariga qo'yilgan umumiy talablardan qat'iy nazar, barcha UQlari ikki asosiy ishlatsiz talablariga javob berishi lozim:

- traktorni (qo'llanilishiga mos bo'lgan holda) zarur bo'lgan tortish-tezlik tasnifiga mos bo'lgan holda ishlashi uchun yetarli uzatishlar soni oralig'iga ega bo'lishi;
- motorning maqbul yuklanishida MTA yuqoriroq unum va tejamkor ishlashi uchun uzatishlar sonini tanlash imkoniga ega bo'lishi.

UQning tuzilmasi ko'p jihatdan traktoring vazifasi, tortish sinflari, ishlatsiz yuklamalarining xarakteri va agregatlanadigan mashina-uskunalar komplekslarining ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Ko'pchilik mashina-uskunalar yuklamalarning xarakteri va turiga nisbatan, barqaror tartiblarida ishlovchi g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirlik qishloq xo'jalik traktorlari bilan agregatlanadi. Katta quvvat talab etuvchi uskunalar sanoat traktorlari bilan agregatlanadi. Sanoat MTA larining ishi asosan tortish yuklamalarining katta amplitudada (noldan maksimumgacha) siklli xarakterga ega.

UQ tuzilmasining soddaligi, ishlatsizdagi puxtaligi, texnologiyaga mosligi va ishlab chiqarish qiymati uning qo'llanilishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy traktorsozlikning tahlili pog'onali UQ ko'pchilik qishloq xo'jalik va qator sanoat traktorlarida, xususan kichik va o'rtacha tortish sinfidagi traktorlarda ko'proq qo'llanilishini ko'rsatadi. Ko'pchilik sanoat traktorlarida aralash gidromexanik uzatmalar qo'llaniladi, unda gidrotransformator bilan bir qatorda albatta pog'onali oraliq UQsi ham bo'ladi.

Gidrohajmiy va elektrik transmissiyalarda amalda oraliq UQlaridan foydalanilmaydi, ular faqat katta quvvatga ega bo'lgan sanoat traktorlarida chegaralangan miqdorda qo'llaniladi. Bosqichsiz mexanik UQlarning puxtaligi yetarli bo'Imaganligi sababli ular amalda qo'llanilmaydi.

Shunday qilib, zamonaviy traktorsozlikda pog'onali UQ asosiy o'rinni egallaydi, undan gidromexanik uzatmalarda asosiy va oraliq UQ sifatida foydalaniladi.

## 6.2. Pog'onali uzatmalar qutisi

Pog'onali UQ reduktor bo'lib, vallar va silindrik (to'g'ri yoki qiyishiq tishli) g'ildiraklardan iborat. Ular yetaklovchi va yetaklanuvchi vallar oralig'ida zarur bo'lgan uzatishlar sonini olish, ular o'rtaasida kuch bog'lanishlarini hosil qilish uchun qo'llaniladi.

UQ vallaridagi burovchi moment aylanishlar chastotasi zarur qiymatlar oralig'ida MTA ni ratsional ishlashi ta'minlanishi lozim.

Pog'onali shesternyali UQni ishlash tartibi bo'yicha quyidagicha ifodalash mumkin:

1) neytral uzatmada motor ishlab turadi. ilashish mustasi ulangan bo'lib, unda yetaklovchi val aylanadi, traktor esa harakatsiz holatda bo'ladi, bunda UQning yetaklovchi validan uning yetaklanuvchi valiga burovchi moment uzatuvchi shesternyalarning dinamik bog'lanishi uzilgan bo'ladi. UQ ish holatining bunday tartibi motorni yurgizib yuborish payti va traktoring harakatlanishi uzatmani ulashdan oldingi holati uchun xarakterlidir. Undan tashqari MTA texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonida uni qisqa muddatga to'xtatish yoki statsionar holatda ishlaganda QOV yoki yuritma shkiviga quvvat uzatish uchun;

2) oldinga harakatlanish tartibida MTA tomonidan texnologik operatsiyalarni bajarish uchun (qishloq xo'jalik va sanoat traktor UQlarining boshqarish organlariga ta'sir etish darajasi bir-birlaridan keskin farq qiladi);

3) orqaga harakatlanish tartibida UQ yetaklanuvchi valning aylanish yo'nalishini o'zgartiruvchi uzatmaga ulash uchun (ko'pchilik qishloq xo'jalik traktorlarida bu tartib zarur bo'lsada, u ikkinchi darajali hisoblanadi, u sanoat traktorlarida ko'p hollarda oldinga yurish bilan bir xil vazifani bajaradi).

Pog'onali UQlarni xarakterli belgilari bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- shesternyali birikma hosil qilish turi;
- shesternyalarning ilashish turi;
- uzatmalarni almashtirish usuli bo'yicha;
- boshqarish turi;
- traktoring bo'ylama o'qiga nisbatan UQ vallarini joylashishiga qarab;

- konstruktiv joylashishiga qarab;
- kinematik sxemasi bo'yicha.

Shesternyali uzatmani hosil qilish turi bo'yicha UQning o'qi qo'zg'almas, aylanadigan oqli (planetar) va aralash oqli bo'ladi. Hozirgi paytda ko'pchilik qishloq xo'jalik va sanoat traktorlari val o'qlari qo'zg'aluvchan bo'lgan UQga ega.

Hamdo'stlik mamlakatlarida ishlab chiqarilgan traktorlarda planetar uzatmalar kam qo'llaniladi, ular transmissiyada ayrim agregatlarning elementlari sifatida, masalan, burovchi momentni oshiruvchi (BMO)da, harakatni pasaytirgichda, revers mexanizmida qo'llaniladi. Xorijiy traktorozzlikda planetar UQlar, ayniqsa sanoat traktorlarida keng qo'llanilmoqda, ammo ular tuzilishi jihatdan murakkab va ishlab chiqarishdagi qiymati yuqoriroq. Agar UQda uzatma hosil qilishning ikkala usuli ham qo'llansa, uni aralash uzatma deyiladi.

Shesternyalarning ilashma hosil qilish turiga qarab, UQning qo'zg'aluvchan shesternyali (karetkali) va doimiy ilashmada bo'lgan shesternyali turlari mavjud. Neytral holatdagi shesternyalar elementlarining ilashish sxemasi 6.1-rasmda keltirilgan.


6.1- *a* rasmida uzatmalarni ulash karetka 2 ni val 1 shlitsalarida bo'ylama surish natijasida parallel val 3 ga qo'zg'almas qilib quotirilgan shesternya 4 larning birortasi bilan to'liq ilashmaga kirgunga qadar amalga oshiriladi (ushbu holda ikki gardishli karetka alohida uzatmalar hosil qilish uchun qo'llaniladi).

6.1- *b*, *d* va *e* rasmlarda uzatmani almashtiruvchi val bilan doimiy ilashmada bo'lgan erkin aylanuvchi shesternyalarning uch varianti ko'rsatilgan.

6.1- *b* rasmida ko'rsatilganidek uzatmalarni ulash, tishli gardish 4 ga o'rnatilgan tishli mufta 3 ni xuddi shunday stupitsa gardishidagi erkin aylanuvchan shesternyalar 2 yoki 5 bilan to'liq ilashmaga kirgunga qadar bo'ylama surish bilan amalga oshiriladi.

6.1- *d* rasmida uzatmalarni ulash sinxronizator yordamida amalga oshiriladi. Sinxronizatorning ishlash prinsipi shundan iboratki, uning vali 1 tishli muftasi 6 erkin aylanuvchi shesternyalar 2 yoki 7 stupitsalarining tishli gardishlari, burchak tezliklari val mustasining burchak tezligi bilan tenglashganidan so'ng ilashmaga kiradi. Uzatmaga ulash tizgin qurilmasi 4 mufta 6 bilan elastik bog'lanish

bo'lgan gupchak va siquvchi halqa 3 konusli sirtlarining ishqalanish kuchi hisobiga amalga oshiriladi. Tizginli qurilma 4 ga o'q bo'yicha yo'nalgan kuchni qo'yilishi, prujinalik fiksator qarshiligidini yengishga olib keladi va natijada uzatmalarni ulash silliq va zarbasiz sodir bo'ladi.



6.1-rasm. UQda shesternyalar ilashish elementlarining principial sxemasi

6.1- e rasmida tashqi baraban 3 val 1 bilan ulangan, ichki barabanlar esa blokirovka qilinuvchi erkin aylanadigan shesternyalar 2 va 4 gupchakka qotirilgan, uzatmalarni ulash ko'p disklik friksion muftalar  $M_1$  va  $M_2$  (ko'p hollarda gidravlik siquvchi mexanizm) yordamida amalga oshiriladi.

Planentar UQ da faqat doimiy ilashmada bo'lgan shesternyalar qo'llaniladi. Unda uzatmalarni almashtirish ko'p disklik friksion muftalar va tormozlar bilan amalga oshiriladi. Traktor transmissiyalarida planetar UQ va val o'qlari harakatlanuvchan UQlar qo'llanilganda, uzatmalarni almashtirish, ko'p disklik friksion muftalar yordamida amalga oshiriladi, qator hollarda esa buning uchun ilashish muftasini qo'llash ehtiyoji qolmaydi.

Uzatmalarni almashtirish usuli bo'yicha UQ traktorni to'xtatib, uzatmalari almashtiriladigan (quvvat oqimini uzib), traktorni to'xtatmasdan uzatmalari almashtiriladigan (quvvat oqimini uzmasdan yoki vallarning aylanishlari to'xtamasdan, quvvat oqimini qisqa muddatga uzib) turlarga bo'linadi. Birinchi holdagi uzatmalarni ulash albatta to'xtagan vallarda amalga oshiriladi, bunda MTA to'xtab turgan joyidan istalgan uzatmada shig'ovlanadi. Bunday UQ karetkali va blokirovka muftalik qilib yasaladi (6.1- a va b rasmlar). Ikkinci holda esa UQ qayta ulash elementli yoki planetar uzatmali qilib yasaladi (6.1- d va e rasmlar).

Zamonaviy UQlarida 5 dan 36 tagacha va undan ham ko'proq oldinga harakat uzatmalarini olinishi ta'minlanadi, bu ishlar asosan universal traktorlar bilan bajariladigan ishlarning turli-tumanligi bilan bog'liq. Barcha uzatmalar traktorning vazifasidan kelib chiqib to'rt oraliqqa bo'linadi: asosiy (ishchi), zaxira, transport, texnologik (sekinlashtirilgan, ayrim hollarda uni ko'chiruvchi-o'tqazuvchi deb ham ataladi).

Asosiy uzatmalar oralig'i – harakatlantirgichning ruxsat etilgan shataksirashida va motorning ishlatish yuklamasi nominal yuklamaga yaqin bo'lganda, traktor ilgagida tortish kuchining katta qiymatida asosiy qishloq xo'jalik yoki boshqa ishlarni bajarish uchun qo'llaniladi. Uzatmaning bu oralig'i traktorni ishlatish vaqtining katta qismini tashkil etadi. Bu oraliqdagi uzatmalar soni traktorning turiga va vazifasiga bog'liq bo'lib, ularning soni odatda 3-7 ta va undan ko'proq bo'lishi ham mumkin.

Zaxira uzatmalar oralig'i (ikkitadan ortiq bo'lmaydi) asosiy oraliqqa nisbatan 20...25% ga katta bo'lgan tortish kuchini olish uchun xizmat qiladi. U MTA ekstremal sharoitda ishlaganda, katta tortishga qarshilikni yengish uchun zarur bo'ladi.

Transport uzatmalar oralig'ida (1...8 uzatmadan iborat) yo'l profili va qoplamasining holatiga bog'liq bo'lgan holda MTAning harakatlanishini ta'minlovchi uzatmalar bo'lishi talab qilinadi.

Texnologik uzatmalar oralig'i MTA dan barqaror uncha katta bo'Imagan texnologik harakat tezliklari talab qilinadigan hol ishlarini bajarish, ayniqsa qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va quvur yotqizuvchi traktorlar uchun zarur. Bu oraliqdagi uzatmalar soni ko'proq bo'lib, uning soni 12...16 taga yetadi. Shuni aytib o'tish

kerakki, bu oraliqda MTAni komplektlashning maqbul variantlari bo'lsada, har doim ham traktor motori quvvatidan to'liq foydalanish imkoniyati bo'lmaydi.

Orqaga harakatlanish uzatmalari soni odatda bitta-ikkita bo'ladi, ammo ularning soni ko'proq bo'lgan hollari ham uchraydi, hatto oldinga va orqaga harakatlantiruvchi uzatmalar soni teng bo'lgan to'liq reversli UQ ham mavjud.

Boshqarish turiga qarab UQ mexanik, gidravlik va elektromagnitli uzatmalarni almashtiruvchi mexanizmlı turlarga bo'linadi. UQda uzatmalarni almashtirish traktorni to'xtatib yoki uni to'xtatmasdan sinxronizatorlar bilan qo'llda mexanik ravishda tortqilar yordamida karetka yoki blokirovka muftasini suruvchi richaglar tizimi bilan amalga oshiriladi. Harakat davomida UQda uzatmalarni traktorni to'xtatib qayta ulanishini bartaraf qilish uchun ayrim hollarda ilashish muftasi bilan birgalikda ishlovchi maxsus blokirovka qurilmalari qo'llaniladi.

Boshqarishning boshqa ikki usuli, yuqorida aytib o'tilgandek, uzatmalarni qayta ulanishi harakat davomida distansion boshqariluvchi ko'p disklik friksion muftalar yordamida amalga oshiriladi. Agar UQda uzatmalarni almashtirishning ikkala usuli qo'llansa, unda odatda oraliqlarni qayta ulash richag-tortqi tizimi bilan oraliq ichida uzatmalarni almashtirish friksion blokirovka muftalari bilan amalga oshiriladi.

Traktorning bo'ylama o'qiga nisbatan vallarning joylashishiga qarab UQ bo'ylama va ko'ndalang vallik turlarga bo'linadi. Ko'ndalang valli UQ ko'p hollarda tortish sinfi 0,6 va 0,9 bo'lgan g'ildirakli traktorlarda qo'llaniladi, bu esa ularning ko'ndalang bazasini qisqarishiga, shuning bilan birgalikda ularning manevrchanligini va transmissiyaning markaziy uzatmasini konusli shesternya juftligini silindrik shesternya juftligiga almashtirib uning tuzilmasini soddalashishiga olib keladi.

UQ joylashishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

– alohida agregat (modul) ko'rinishida bajarilgan, uning karteri flanes yordamida traktorning orqa ko'priq korpusining oldingi devoriga yoki uning ichiga (UQ planetar bo'lsa) orqa ko'priq orqa devori tomondan ulangan bo'ladi;

– orqa ko'priknинг умумий корпуси олдингি алоҳида бо'линмасига о'рнатилган ва трансмиссиyaning бoshqa agregatlari bilan birga yasalgan orqa ko'priknинг умумий корпусига о'рнатилади.

Keyingi joylashtirish ko'ndalang valli UQLari uchun xarakterlidir.

Kinematik sxemasi bo'yicha UQ ikki valli (bir juftli), uch valli (ikki juftli), ko'p tarkibli va maxsus turlarga bo'linadi. Shuni aytib o'tish kerakki, ikki valli va uch valli terminlar asosiy oraliqdan uzatmalarni olish usuliga tegishli, ularning FIK eng yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshqa oraliqlardagi va orqa harakatdagi uzatmani olish uchun bunday UQda FIKni pasaytiruvchi qo'shimcha vallar va shesternya juftliklari qo'llaniladi. Bunday UQning yetaklovchi va yetaklanuvchi vallarini odatda birlamchi va ikkilamchi vallar deb ataladi.

Ikki valli UQda quvvat oqimi birlamchi valdan u bilan parallel bo'lган ikkilamchi valga faqat birgina ishlovchi shesternya juftligi orqali uzatiladi. Shuning uchun bunday UQLar bir juftlik deb ataladi.

Uch valli UQda asosiy uzatmalarni olishda quvvat oqimi birlamchi valdan doimiy ilashmada bo'lган qo'shimcha shesternyalar juftligidan oraliq valga va undan parallel bo'lган tegishli shesternyalar juftligi orqali xuddi ikki valli UQdek, ikkilamchi valga uzatiladi. Shunday qilib, uch valli UQda kuch oqimi asosiy uzatmalarda har doim ikki juft shesternyalar orqali uzatiladi, shuning uchun ham u ikki juftli UQ deb ataladi. Bo'ylama valli UQda birlamchi va ikkilamchi vallarni o'qdosh bo'lib joylashishi, ularning birlashtirish imkoniyati mavjudligi, uzatishlar soni birga teng bo'lган to'g'ri uzatmani olish imkoniyatini yaratadi. Traktorlar uchun bu uzatma asosiy bo'lмаган transport uzatmasi hisoblanadi.

Ko'p tarkibli UQ ikki valli, uch valli va planetar UQ aralashmasidan iborat, ular bir-birlari bilan umumiy uzatishlar soni va uzatmalar sonini oshirish uchun ketma-ket ulangan bo'ladi. Ular traktorning bo'ylama o'qi bo'yicha bir umumiy korpusda joylashishi yoki aloҳида katerlarda bir-birlari bilan birlashtirilgan bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda ko'p tarkibli UQ bir korpusda joylashgan parallel vallarda bajarilgan ikki valli UQ kombinatsiyasi bilan ham komponovka qilinadi.

Barcha hollarda UQdan biri asosiy bo'lib, uning asosida berilgan oraliq ichida uzatmalar joylashtiriladi, boshqa UQLar esa kerakli

uzatmalar oralig'ini tanlash uchun reduktor vazifani bajaradi. Ko'p tarkibli UQga aralash usulda shesternyali uzatmani hosil qiluvchi UQni ham qo'shish mumkin.


Maxsus UQ ko'rib o'tilganlardan farq qiluvchi kinematik sxemaga ega. Ularga turli sxemadagi planetar UQlarni qo'shish mumkin.

### **6.3. Vallari qo'zg'aluvchan bo'lган uzatmalar qutisining prinsipial kinematik sxemasi va ishlashi**

UQning tuzilmasini traktorning vazifasi, nominal tortish kuchi (tortish sinfi), ishlatish yuklamalarining xarakteri va agregatlanadigan mashina-uskunalar kompleksining ko'rsatgichlari aniqlab beradi. UQlar zamonaviy tuzilmalari tahlili ko'rsatadiki. ulardan ko'pchiligi ko'p tarkibli bo'lib, soddaroq bo'lган ikki va uch vallik UQning kombinatsiyasi hisoblanadi. ularning kinematik sxemasi keyinroq keltiriladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, UQlarning ko'rib o'tilgan barcha sxemalarida boshqariladigan karetka yoki blokirovka muftalari ularning neytral holatida (neytral uzatmada) ko'rsatilgan.

Uzatmalarni almashtirishda quvvat oqimi uziladigan sodda ikki valli UQning sxemasi (6.2- a rasm) birlamchi val 1 va ikkilamchi val 2 dan iborat. Val 1 ga motor quvvati ilashish mustasi orqali beriladi, yetaklanuvchi val 9 uchiga ko'p hollarda transmissiya markaziy uzatmasining yetaklovchi konusli shesternyasi 8 o'rnatiladi. Birlamchi val 1 ning shlitsalariga qo'zg'aluvchan ikki tojli karetka 2 o'rnatilgan, ikkinchi uzatmani olish uchun toj ko'rsatkich bo'yicha chapga va uchinchi uzatmani olish uchun u ko'rsatkich bo'yicha o'ngga suriladi, bir tojli karetka 4 esa birinchi uzatmani olish uchun ko'rsatkich bo'yicha chapga va orqaga harakatlanish uchun u ko'rsatkich bo'yicha o'ngga suriladi. O'ng tomonga bo'rtib turgan shlitsalik quyruq 5 bog'langan QOVning yuritmasi bo'lishi mumkin. Ikkilamchi val 9 ga oldinga harakat uzatmasining yetaklanuvchi shesternyalari qo'zg'almas qilib o'rnatilgan: birinchi uzatma shesternyasi 11. uchinchi uzatma shesternyasi 12 va ikkinchi uzatma shesternyasi 13 bilan uzatma olish uchun karetkalarning tishli gardishlari shuningdek orqaga harakat yetaklanuvchi shesternyasi 10 ham ilashmaga kiradi.



**6.2-rasm. UQning principial kinematik sxemasi:**  
*a – ikki valli; b – uch valli; d – ko'ndalang uch valli*

Karetkalarni birlamchi val 1 shlitsalari bo'yicha siljishi alohida UQning qo'lda boshqariladigan richag-tortqi tizimi yordamida amalga oshiriladi, uning yordamida kerakli uzatishlar sonini hosil qiluvchi faqat bir shesternya juftligi ilashmasini tutib tura oladi. Shuni aytib o'tish kerakki, UQning bunday tuzilmalarida faqat to'g'ri tishli silindrik shesternyalarni qo'llash mumkin.

Shesternya va vallar UQ karteri 3 ichida joylashadi, ularning devor teshiklarida va to'siqlarida muayyan val yoki qo'shimcha o'qlarining tayanch podshipniklari o'rnatiladi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan traktorlarda asosan UQning quyma cho'yan karterlari qo'llaniladi. Xorijiy traktorlarning tuzilmalarida ular bilan bir qatorda yengilroq va mustahkamroq bo'lgan quyma materiallaridan (alyuminiy qotishmalaridan) foydalananiladi.

Birlamchi valning tayanchlari odatda radial zoldirli podshipniklar hisoblanadi, ular asosan radial kuchlar bilan yuklangan bo'ladi. Ikkilamchi val tayanchlari murakkabroq bo'lib, ko'p hollarda ular nafaqat burovchi momentni uzatishda hosil bo'lgan radial kuchlarni qabul qiladi. balki markaziy uzatma konusli shesternyalar juftligidan hosil bo'lgan o'q bo'yicha yo'nalgan kuchni ham qabul qiladi.

Orqa harakat uzatmasini olish uchun UQ vallari orasiga, birlamchi valning aylanishi o'zgartirmagan holda, ikkilamchi valning aylanish yo'nalishini o'zgartiruvchi qo'shimcha shesternyalik uzatma kiritiladi. Bu ikkilamchi valga qotirilgan yetaklanuvchi shesternya bilan doimiy ilashmada bo'lgan birgina shesternya, bir xil yoki turli diametrga ega bo'lgan ikki shesternyadan iborat bo'lgan blok bo'lishi mumkin.

Birinchi holda bu shesternya odatda "parazit" deb ataladi, chunki u orqaga harakatning uzatishlari soniga ta'sir qilmaydi, uzatishlar soni faqat ikkilamchi valdag'i yetaklanuvchi shesternya va birlamchi val karetkasidagi tishli gardish boshlang'ich aylanalari diametrlerining nisbati bilan aniqlanadi.

Ikkinci holda blokdagi shesternyalar diametrleri turlicha bo'lganda, orqaga harakatning uzatishlari soni ilashmada bo'lgan ikki juft shesternyalarning uzatishlar sonining ko'paytmasidan aniqlanadi. Ko'rildigan sxemada UQ orqaga harakat ikkilamchi valning yetaklanuvchi shesternysi 10 bilan doimiy ilashmada bo'lgan karetka 4 ni shesternyalar bloki 6 tutashuvga kirganda hosil bo'ladi. Blok 6 qotirish o'qi 7 ning podshipniklariga o'rnatiladi.

Bu kinematik sxemada ikki valli UQda kam uzatmalar ko'rsatilgan, uch uzatma oldinga bir uzatma orqaga. Amalda esa uzatmalar soni oltitadan oshmaydi, agar ularning soni ko'paysa, valning uzunligi va ularning burovchi moment uzatishidagi egilishi ortadi. Bu shesternyalardagi ilashma podshipnik qismlarining ishi yomonlashishi natijasida UQning ishlash muddati qisqaradi. Vallarni diametrini kattalashtirish yo'li bilan ularni bikirligini oshirish UQga metall sarfini o'rinsiz keskin oshib ketishiga olib keladi.

Ikki valli UQ maqbul o'qlararo masofasida eng katta uzatishlar sonida (birinchi yoki zaxira) uzatmalarining soni odatda uchtdan oshmaydi. Uzatmalarни qo'shimcha ko'paytirilishi yetaklanuvchi shesternyaning diametrini va vallar o'rtasidagi o'qlararo masofani

so'zsiz oshishiga sabab bo'ladi (karetka tishli gardishining mustahkamlik va yetaklanuvchi shesternya bilan normal ilashmaga kirish shartidan, ularning minimal ruxsat etilgan diametrida) UQning gabarit o'lchamlarini va metall sarfini ortishiga olib keladi.

Bunday UQning ishqalanuvchi detallari, traktor harakatlanayotganda UQ karteriga quyilgan moyni va uning aylanayotgan yetaklanuvchi shesternyalar gardishi bilan sachratish hisobiga moylanadi. UQ detallarini MTA statsionar holatda ishlaganda moylash uchun, ikkilamchi val qo'zg'almas bo'lsa, qator tuzilmalarda birlamchi val bilan kinematik bog'langan maxsus moy sachratuvchi shesternyalar qo'llaniladi. Bu variantlardan biri UQning keltirilgan sxemasida ko'rsatilgan, unda erkin aylanuvchi val 9 ga, yetaklanuvchi moy sachratuvchi shesternya 14 yetaklovchi shesternya 15 vali 1 dan doimiy yuritma mavjud.

Ikki vallik UQning afzalliklariga tuzilmaning soddaligi, yuqori mexanik FIK chunki quvvat uzatilayotgan paytda, ishlashmada faqat bir shesternyalar juftligi ishtirok etadi.

Ikki vallik UQning kamchiliklariga, valning ko'p egilishi va uzatmalar soni oralig'ining kichikligi, vallarning o'qlararo masofasining chegaralanganligi 5-6 tadan ortiq oldinga harakat uzatmasini olib bo'lmasligi kiradi. Buning natijasida hozirgi paytda ular mustaqil UQ sifatida kam qo'llaniladi. ammo UQ tarkibiga kiruvchi reduktorlardan biri sifatida foydalananladi. Bunda ular ko'p hollarda doimiy ilashmada bo'lgan shesternyalar bilan birgalikda tayyorlanadi (6.1- b, e rasmlarga qarang).

Ko'ndalang valli quvvat oqimini uzib uzatmalari almashtiriladigan uchvalli UQning eng sodda sxemasi (6.2- b rasmida) keltirilgan, u o'qdosh joylashgan birlamchi 1 va ikkilamchi 8 vallardan hamda oraliq valdan iborat. 1 va 14 vallar UQni birinchi bosqichining uzatishlar sonini tashkil qiluvchi doimiy ilashmaga ega bo'lgan yetaklovchi 2 va etaklanuvchi 15 silindrik shesternyalar juftligi bilan ulangan. Val 8 ning uchiga u bilan birga yasalgan yoki o'rnatilgan transmissiyaning markaziy uzatmasi yetaklovchi konusli shesternysi joylashgan.

Oraliq val 14 ga oldinga harakat yetaklovchi shesternysi 13 bikir qilib qotirilgan. Ular bilan ilashmaga, shu UQning ikkinchi bosqich uzatishlar hosil qiluvchi ikkilamchi val 8 karetkalarining

yetaklanuvchi tishli gardishlari kiradi. Oraliq val 14 ga bir gardishli "parazit" shesternya 10 bilan doimiy ilashmada bo'lgan orqaga harakat uzatmasining yetaklovchi shesternyasi 12 ham qotirilgan bo'ladi.

Ikkilamchi val 8 shlitsalariga odatdagi bir gardishlik 7 va ikki gardishlik 6 karetkalar hamda kombinatsiyalashgan tishli blokirovka yarim muftasi 3 bilan bir gardishlik karetka 4 o'rnatilgan. Tishli blokirovka yarim muftasi karetka 4 chapga surilganda, birlamchi val chetidagi tishli yarim musta bilan ilashmaga kirishib, quvvatni val 1 dan val 8 ga to'g'ridan-to'g'ri uzatuvchi uzatma hosil qiladi. Bunda quvvat shesternya uzatmalarsiz uzatiladi va uning natijada uzatmaning FIK eng katta qiymatga ega bo'ladi. Ular odatda avtomobillar uchun mo'ljallangan UQ deb ataladi.

Val 8 ning oldingi (rolikli) podshipnigi val 1 uchining yo'nilgan qismiga o'rnatiladi va u faqat radial kuch bilan yuklangan bo'ladi. Vallarning boshqa tayanchlari ikki valli UQ vallarini qotirilishiga o'xshash bo'lgan devor teshiklariga yoki karterning maxsus to'siqchalari 5 o'rnatiladi. Uch vallik UQ tuzilmalarida shesternya 2 ni konsollik qotirilishini bartaraf etish va val 8 ning oldingi podshipnigi 16 ni ishlashini yengillashtirish maqsadida to'g'ri o'qli uzatmadan voz kechiladi, val 2 ning uchiga hamda val 8 boshiga alohida tayanchlar o'rnatiladi, chunki traktorlarda to'g'ridan-to'g'ri uzatma ularning asosiy (ishchi) uzatmalar oralig'iga kirmaydi.

Uch valli UQning bu sxemasida oldinga harakatning besh uzatmasini (to'g'ridan-to'g'ri uzatma ham bunga kiradi) va bir orqaga harakat uzatmasini olish mumkin. UQ detallari karterga quyilgan moyni oraliq val 14 motor yurgizilganda va ilashish muftasi ulangan holda bo'lganda, MTAning ish tartibiga bog'liq bo'lмаган holda doimo aylanib turuvchi shesternyalari bilan sachratib moylanadi. Val 14 ning shlitsalik uchidan 11 bog'lanmagan QOVning yuritmasi sifatida foydalanish mumkin.

Barcha uzatmalari to'liq reverslanadigan va orqa ko'priknинг umumiy korpusiga tuzilmasi joylashtirilgan vallari ko'ndalang joylashgan uch valli UQning oddiy sxemasi 6.1-*d* rasmda keltirilgan.

Bu sxemaning eng qiziqarli elementi, oraliq val 6 ni birlamchi val 1 ning aylanish yo'naliishi o'zgarmas bo'lganda, turli yo'naliishda aylanishini ta'minlovchi uzatmalarni reverslash mexanizmi

hisoblanadi. U val 6 ga erkin o'rnatilgan va qarama-qarshi tomonga aylanuvchi ikki bir xil yetaklanuvchi konusli shesternyalar 3 va 4 bilan doimiy ilashmada bo'lган yetaklovchi konusli shesternya 2 dan iborat. Bu shesternyalarning stupitsalarida val 6 ning tishli gardishi 17 dagidek tishli gardishlari mavjud bo'lib, unga yuqorida istalgan shesternyalar valini blokirovkalovchi qo'zg'aluvchan tishli mufta 8 o'rnatilgan. Sxemada traktorni oldinga harakatlanishi uchun kerak bo'lган mufta 8 ning holati ko'rsatilgan. Val 6 shesternya 3 ga ulanganda traktor orqaga harakatlanadi. Mufta 8 ning surilishi reversni boshqaruvchi alohida richaglar bilan amalga oshiriladi.

Bir gardishli 5 va ikki gardishli 18 karetkalarni ikkilamchi val 11 ning yetaklanuvchi shesternyalarini bilan birlashtirilishi yuqorida ko'rib o'tilgandagidek bo'ladi.

Sxemada ko'rsatilgandek, barcha oldinga harakat uzatmalari to'liq reverslanadigan UQ bilan bir xil bo'lган, alohida orqaga harakatni ta'minlovchi bitta uzatma bajarilgan.

U karetka 5 ni val 11 dagi orqaga harakatlantiruvchi yetaklanuvchi shesternya 10 bilan doimiy ilashmada bo'lган "parazit" shesternya 9 yordamida ilashmaga kirgunga qadar surish natijasida amalga oshiriladi. Bu uzatmani qo'llanilishi UQ boshqarishning qulayligi, ya'ni oldinga va orqaga harakat uzatmalari bиргина richag bilan boshqarilishi orqali tushuntiriladi. Qo'shimcha orqa uzatmasiz UQni to'liq reverslash uchun, traktor orqaga harakatlanishida traktorchi bir paytning o'zida bir yo'la reversni va UQ boshqarish uchun ikki richag bilan ishlashiga to'g'ri keladi, bu ma'lum noqulayliklar tug'diradi. Shuning uchun ham keltirilgan sxemada oldinga va orqaga hamda bir qarama-qarshi yo'nalishga harakat uzatmalari ko'rsatilgan.

Umumiyo korpusiga vallari 6 va 11 ko'ndalang joylashtirilgan transmissiya differensiali korpusi 14 ga o'rnatilgan yetaklovchi 12 va yetaklanuvchi 13 silindrik shesternyalik markaziy uzatmaning o'rnatilishini osonlashtiradi. Val 11 ning shlitsalik uchi 15 yonaki sinxron QOVning yuritmasi bo'lishi mumkin.

Shuni ham aytib o'tish kerakki. UQning birinchi bosqichi uzatmalar sonini hosil qiluvchi konusli shesternyalar juftligining ishslash sharoitini yengillashtirish, barqarorroq yuklash va tezlik tartibiga erishish uchun ko'p hollarda shesternyalarini yaroqsiz holatga

kelgunga qadar ularni davriy ravishda rostlashni rad etish imkonini beradi.

UQ detallarini moylash agregat korpusidagi moyni sachratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunga o'xhash UQlar yengil g'ildirakli universal traktorlarda qo'llaniladi, ularning MTA tarkibida ishlash xarakteriga qarab surunkalik vaqt davomida va turli tortish yuklamalarida orqaga harakatlanish imkoniyati, odatdagidek haydovchi kursisi va rul boshqarmasi ham reverslanadigan bo'lishi lozim.

Uch vallik UQning afzalliklariga quyidagilar kiradi:

– ikki vallik UQlarga nisbatan uzatishlar soni oralig'i sezilarli darajada katta, chunki asosiy ishchi uzatmalarida har doim ikki shesternyalar juftligi ishtirot etadi;

– to'g'ridan-to'g'ri (transport) uzatmada FIK yuqori;

– moyni sachratuvchi shesternyalar juftligiga ehtiyoj yo'qligi;

– ikki valli UQdagi konusli shesternyalar juftligi nisbatan, uch vallik vallari ko'ndalang joylashgan UQlarning silindrik shesternyali juftlikka ega bo'lgan markaziy uzatma tuzilmasini yaratishning soddaroq ekanligi.


Uch vallik UQning kamchiliklari quydagilardan iborat:

– ishchi uzatmalarda FIK ning pastligi, chunki ikki vallik UQdagi bir shesternyalar juftligi o'rniغا, ikki shesternyalar juftligi ishtirot etadi;

– valning ko'proq egilishini hisobga olib, 5-6 tadan ko'proq oldinga harakat uzatmasini olib bo'lmasligi;

– traktor asosiy ishchi uzatmalarda ishlaganda, birlamchi valning yo'nilgan chetiga o'rnatilgan, ikkilamchi valning oldingi tayanch podshipnigining ko'proq yeyilishi.

UQ to'g'ridan-to'g'ri uzatmaga ulanganda, yuqorida keltirilgan podshipnik aylanmaydi, ammo bu podshipnikning transport uzatmasida traktorming umumiy ishlatish vaqtining 12...15% dan oshmaydi.



6.3-rasm. Ko‘p tarkibli UQlarning struktura sxemasi

Ko‘p tarkibli UQ 6.3-rasmida ko‘rsatilgan struktura sxemasiga ega. 6.3- a rasmdagi sxemada traktoring ishlash diapazonini tanlash uchun oldiga ikki uzatmali ( $n=2$ ) reduktor  $R$ , undan keyin esa tanlangan oraliq ichida joylashgan to‘rt oldinga va bir ( $n=1$ ) orqaga harakat uzatmasi bo‘lgan asosiy UQ o‘rnataligan. Oldinga va orqaga harakat umumiy uzatmalari soni UQ va  $R$  larning tegishli uzatmalar turi sonining ko‘paytmasidan, sakkiz ( $n_{old}=8$ ) oldinga harakat va ikki uzatma ( $n_{orq}=2$ ) orqaga harakat uzatmalari aniqlanadi.

Transmissiyani joylashtirilishiga qarab ko‘p tarkibli UQda avval asosiy UQ o‘rnatalishi, undan so‘ng esa chiqish reduktori  $R$  (6.3- b rasm) o‘rnatalishi mumkin, ammo natija avval keltirilgan sxemadagidek bo‘ladi, ya’ni  $n_{old}=8$ ;  $n_{orq}=2$ .


6.3- d rasmda keltirilgan sxemada  $R$  reduktor  $n_{old}=3$  va  $n_{orq}=1$  ga ega. Oldinga harakat uzatmalari soni  $n_{old}=12$ , orqaga harakat uzatmalari soni esa  $n_{orq}=4$  teng. 6.3- e rasmda bir yo‘la ikki reduktorni qo‘llanish sxemasi  $R_1$  ( $n_{old}=3$ ;  $n_{orq}=1$ ) va  $R_2$   $n=2$  keltirilgan, bu esa  $n_{old}=24$  va  $n_{orq}=8$  ni olish imkonini beradi.

Ko‘p tarkibli UQ elementar kinematik sxemasi va ularning tashkil etuvchi qismlarining joylashishi 6.4-rasmda keltirilgan. 6.4- a rasmda uch valli sxemada yasalgan kiruvchi ikki pog‘onali reduktor A dan va oldinga uch va orqaga bir uzatmalik ikki valli sxema asosida yasalgan asosiy quti B dan iborat. Bu sxemada reduktor A ning ikkilamchi vali 1 bo‘lib, quti B ning birlamchi valining oldingi uchi hisoblanadi, unga quti B ning ikkilamchi vali 2 mos keladi va reduktor

A ning oraliq vali 3 reduktor A ning tayanchlari reduktor devorlarida joylashgan bo'ladi.

Bu sxemadan oldinga harakatning olti va orqaga harakatning ikki uzatmasini olish mumkin. Chunki reduktor A ga tezlashtiruvchi uzatmali qilib yasalgan, ko'p tarkibli UQ asosiy ishchi uzatmalari reduktorni to'g'ridan-to'g'ri uzatmaga ulanganda amalga oshiriladi. ilashmada esa quti B ning faqat bir juft shesternyalarigina ishtirot etadi, bu bilan ishchi uzatmalarining yuqori FIK ta'minlanadi. Traktor ilgagida kichik tortish kuchiga ega bo'lgan transport uzatmasini olish uchun reduktor A da uzatma ikki juft shesternyalar orqali amalga oshiriladi, bu esa uzatmalarning FIKni pasaytiradi.

6.4- b rasmida umumiy korpus 3 da uch parallel: birlamchi 1, oraliq 6 va ikkilamchi 8 vallardan iborat bo'lgan ko'p tarkibli UQning sxemasi keltirilgan. 1 va 6 vallar, tishli qo'zg'aluvchi muftalar 12 orqali blokirovka qilinadigan doimiy ilashmada bo'lgan shesternyalar bilan birgalikda, kirituvchi uzatma oraliqlariga ega bo'lgan ikki vallik reduktor sifatida namoyon bo'ladi. 2 va 11-shesternyalar oldinga harakat uch uzatmasini, 4, 6 va 7 shesternyalar esa orqaga harakat uzatmasini olinishini ta'minlaydi. 6 va 8 vallar ham ikki vallik doimiy ilashmada bo'lgan shesternya 9 valining gidrosiquvchi mexanizm bilan ko'p disklik friksion muftalar 10 yordamida blokirovka qilinadigan to'rt pog'onali UQ sifatida namoyon bo'ladi.



6.4-rasm. Ko'p tarkibli UQning kinematik sxemasi

Shunday qilib, bu sxemada ko‘p tarkibli UQ yordamida oldinga harakatning o‘n ikki uzatmasini va to‘rt orqaga harakat uzatmasini olish mumkin. Bunda belgilangan oraliqda uzatmalarni almashtirish traktorni to‘xtatmasdan amalgalashiriladi.

Misol sifatida TTZ-80 traktorlarining ko‘p tarkibli UQ ni ko‘rib chiqamiz (6.5-rasm). U o‘z tarkibiga ikki pog‘onali reduktorni va asosiy UQni oladi, ular oldinga 18 orqa 4 uzatma olishni ta‘minlaydi.

Asosiy UQ o‘nta uzatmadan iborat, u birlamchi 1, oraliq 22 va ikkilamchi 12 vallardan hamda pasaytiruvchi uzatmalar vali 25 va korpus 11 joylashgan orqaga harakat uzatmalaridan iborat. Ikkilamchi val 12 ga markaziy uzatmaning yetaklovchi shesternyasi 13 o‘rnataligan. Oraliq val 22 ning ichidan bog‘lanmagan QOV yuritmasining vali 14 o‘tadi.

Reduktor ikki gardishlik shestenya-karetka 16 dan iborat bo‘lib, u ilashmaga ikkilamchi val shesternyasi 2 bilan yoki ichki tishlari orqali shesternya 15 bilan, oraliq val 22 ga erkin o‘rnatalgan va doimiy ilashmada bo‘lgan ikkilamchi valning qo‘zg‘almaydigan shesternyasi bilan ilashmaga kiradi. 16 va 7 shesternyalarning ilashmasi reduktorning birinchi bosqichini, 16, 15 va 10-shesternyalar esa ikkinchi bosqichni ta‘minlaydi. Birlamchi val 1 shlitsalariga 2, 3 va 4 qo‘zg‘aluvchan shestenya-karetkalar o‘rnataladi, ular mos ravishda 21, 19 va 18 oraliq val 22 ga qo‘zg‘almas qilib o‘rnatalgan shesternyalar bilan ilashmaga kiradi va uch xil uzatmalar sonini olinishini ta‘minlaydi. Oraliq valdan moment reduktorning birinchi yoki ikkinchi bosqichi orqali uzatiladi, natijada uzatishlari soni ikki martaga ko‘payadi. Ko‘rib o‘tilgan UQning sxemasi (6.5- e rasm) da uchinchi uzatmadan sakkizinchı uzatmagacha (sakkizinchı uzatma ham kiradi) uzatma uch vallik UQ sxema asosida bo‘ladi.



Birinchi va ikkinchi uzatmalarda va orqaga harakat uzatmalarida moment birlamchi val 1 dan ikkilamchi val 12 ga pasaytiruvchi uzatmalar vali 25 orqali uzatiladi. Bunda moment shesternya 4 dan oraliq val 22 ga, erkin o‘rnatalgan ikki gardishlik shesternya 17 orqali shesternya 28 ga uzatiladi, u shesternya 17 ning kichik gardishi bilan doimiy ilashmada bo‘ladi. Undan so‘ng moment val 25 dan oraliq val 22 ga va reduktor orqali ikkilamchi val 12 ga uzatiladi. Birinchi va ikkinchi uzatmani olish uchun karetka 27 shesternya 19 bilan ilashmaga kiritiladi, orqaga harakat ikki uzatmasida esa oraliq


shesternya 26 bilan ilashmaga kiradi. Shesternya 26 shesternya 20 bilan doimiy ilashmada bo'ladi.

To'qqizinchi uzatma shesternya 4 ni shesternya 7 ning ichki tishlari bilan ilashmaga kiritish (to'g'ridan-to'g'ri uzatma) yo'li bilan olinadi. Uzatmalarni almashtirish richag 8 bilan polzun 5 larni siljitim bilan amalga oshiriladi, polzunlar qopqoq 9 dagi fiksatorlar 6 bilan ilashmadagi shesternyalarni o'z-o'zidan siljishidan saqlaydi.

Asosiy UQning oldiga o'ratinlan pasaytiruvchi reduktor (6.5- e rasmga qarang), uzatmalar sonini ikki martaga ko'paytiradi. U ikki juft shesternyalar 29, 24 va 23 dan hamda tishli mufta 30 dan iborat. Mufta shesternya 24 bilan ilashmaga kirganda, moment o'zgartirilmasdan (to'g'ridan-to'g'ri uzatma) uzatiladi, shesternya 29 bilan ilashmaga kiritilganda pasaytiruvchi uzatma hosil bo'ladi.

MTZ-80/82 traktorlariga ikki pog'onali planetar harakatni pasaytirgich o'rnatilishi, qo'shimcha oldinga harakatlanish uchun to'rt pasaytiruvchi uzatma va to'rt orqaga harakatlanish uzatmasini olish mumkin.





**6.5-rasm. TTZ-80 traktorlarining ko'p tarkibli UQ:**

*a* – bo'ylama sirsim; *b* – ko'ndalang sirsim; *d* – pasaytiruvchi uzatmalari va orqaga yurish uzatmalari vali bo'yicha qirqim; *e* – kinematik sxemasi

## **6.4. Uzatmalar qutisini boshqarish mexanizmlari**

UQni boshqarish mexanizmlari uzatmalarni ulash, traktorning ishlash sharoitini o‘zgarishiga qarab uzatmalarni almashtirish, neytral uzatma holatiga keltirib uni uzish uchun xizmat qiladi. Ularning tuzilmasi uzatmalarni traktorni to‘xtatib (quvvat oqimini uzib) almashtirish yoki to‘xtatmasdan (quvvat oqimini uzmasdan yoki qisqa muddatga uzib) almashtirish usuliga bog‘liq.

Birinchi holat uchun UQni boshqarish mexanizmi:

- shesternya-karetkalarni yoki bikir blokirovka muftalarini (doimiy ilashmali shesternyalar bo‘lganda) ishchi yoki neytral holatga o‘tkazish uchun;
- ularni o‘q bo‘yicha siljishdan saqlash;
- ularni o‘z-o‘zidan ulanishini yoki ajralishini oldini olish;
- bir paytning o‘zida ikki uzatmani ulanib qolishini oldini olish uchun xizmat qiladi.

Oxirgi holda UQning kinematik zanjirida ichki yopiq kontur hosil bo‘ladi, shesternyalarni aylantirishga urinishda shesternya tishlarida, blokirovka muftalarida va vallarda, ularni sinib ketishga olib keluvchi kuchlanishning keskin oshishi sodir bo‘ladi. Boshqarish mexanizmi mexanik richag-tortqi tizimi bo‘lib, traktorchining jismoniy kuchi bilan boshqariladi.

Ikkinci holatda UQga faqat doimiy ilashmada bo‘lgan shesternyalar o‘rnatilgan bo‘lsin, ularning blokirovkasi uch xil usulda amalga oshiriladi: sinxronizatorlar yoki gidravlik siqiladigan ko‘p disklik friksion muftalar (vallarining o‘qi qo‘zg‘almas UQLar uchun) yoki shunga o‘xshash friksion muftalar va tormozlar yordamida. Uchinchi usulda UQning gidravlik boshqarmasi moyni bosim ostida kerakli mufta tormozining busterlariga yuborishdan va ularni ajratish paytida uni chiqib ketishini ta’minlashdan, hamda ularning o‘z-o‘zidan ulanish va ajralib ketishdan saqlashdan iborat.


### ***Pog‘onali uzatmalar qutisining boshqarish mexanizmlari.***

UQni richag-tortqi tizimi va uning alohida elementlari 6.6-rasmda ko‘rsatilgan. Shesternya-karetkalar 16 ni yoki bikir blokirovka muftalarini va sinxronizator muftalarini o‘q bo‘yicha siljishi boshqaruvchi vilkalar 15 bilan amalga oshiriladi, ular UQni boshqarish richagi 18 bilan kinematik bog‘lanishga kiradi.

Vilka 15 ning uchi odatda karetka 16 ning tashqi sirtiga halqasimon ariqcha  $M$  ga (yoki blokirovka muftasiga) kiradi, uning aylanishiga halaqit bermasdan, ammo uning valda o‘q bo‘yicha siljishini chegaralab, karetkani ulagan yoki neytral holatini ushlab turadi. Vilka 15 ko‘p hollarda silindrik 14 yoki to‘g‘ri to‘rt burchak shaklidagi 28 (6.6- e rasm) polzunlar bilan bikir bog‘langan. Polzunlarda to‘rtburchak shaklidagi maxsus ariqchalari  $N$  mavjud, unga boshqaruvchi richag 18 qisqa yelkasining uchi kiritiladi. Uzunroq va traktorchiga qulayroq joylashgan richagning tashqi qismi uchiga boshqarishni qulay qilish uchun plastmassalik kallak 6 o‘rnatalidi.

Karetka UQning ichkarisida joylashgan tuzilmalar ham uchraydi (6.6- d rasm), bunday tuzilmalarda uni polzun bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lash ancha murakkab. Unda oraliq ikki yelkali richag 22 qo‘llaniladi. Bu holda vilka kallagi 23 ga frezerlangan yonaki ariqcha  $R$  qilinadi, uning yordamida richag 22 karetkani qo‘zg‘almas yo‘naltiruvchi o‘q 24 bo‘yicha suradi. Bunga o‘xhash vilka kallagini yo‘naltiruvchi o‘q bo‘yicha siljitish, ayrim hollarda UQni boshqarish richagi yoki oraliq to‘rtburchak polzun bilan uni to‘g‘ridan to‘g‘ri birlashtirish uchun ham qo‘llaniladi.

Boshqarish vilkasi 15 ni silindrik polzun bilan bikir birlashtirish (6.6- g rasm), ko‘p hollarda fiksatsiya bolti 29 yoki tortuvchi fiksatsiya bolti 30 yordamida amalga oshiriladi. Boltlar odatda sim 31 bilan stoporlanadi. To‘g‘ri burchak polzunli boshqarish vilkalari bilan uchma-uch elektr payvandlash usulida birlashtiriladi.



**6.6-rasm. UQni boshqarish mexanizmlarining principial sxemalari**

UQni tashqi boshqarish richaglarining soni uning kinematik sxemasiga bog'liq, odatda ular ikkitadan ko'p bo'lmaydi. Bo'ylama joylashgan ikki va uch vallik UQlarda faqat bitta richag qo'llaniladi, ko'ndalang joylashgan uch vallik uchatmalari reverslanadigan UQda, ko'p tarkibli va maxsus UQlarida ikkita richag (bittasi oraliqda uzatmalarini almashtirishda, ikkinchisi reduktorda uzatma oralig'ini o'rnatishda) qo'llaniladi.

Sharniri sharli bo'lgan boshqarish richagi (6.6-*a* rasm) ko'proq tarqalgan, bunda richag 18 qalinlashtirilgan shar 3 sirti bilan ushlab turuvchi kolonkadagi sferik o'rindiq 7 ga o'rnatiladi. Kolonkaning

kattalashgan ariqchasi 3 ga kirib turuvchi shtift 8 richag 18 ning o'q bo'yicha aylanishini oldini oladi va pozunlarni boshqarish uchun uning bo'ylama va ko'ndalang dumalashdagi barqarorligini ta'minlaydi. Sferik qopqoq 4 va prujina 5 shar sharnirni chang va loydan himoyasini ta'minlaydi. Ayrim paytlarda qopqoq ustidan UQning ichki qismini abraziv va namlikni kirishidan himoyalovchi taxlanadigan rezina g'ilof kiygiziladi.

Neytral uzatmada polzunlar 14 va 18 ning ariqchalari *N*, richag 18 ning pastki uchi ko'ndalang dumalaganda bir ariqchadan ikkinchisiga erkin harakatlanishi uchun bir ko'ndalang tekislikda joylashadi. Shuning uchun ham traktor motorini yurgazishdan avval, boshqarish richagi 18 erkin ko'ndalang dumalash imkoniyati borligi UQning neytral holatda ekanligidan darak beradi.

Uzatmalarni ularash uchun richag 18 ni yon tomonga siljitim, uning pastki uchini kerakli polzun bilan ilashmaga kirishini ta'minlash kerak. Undan so'ng richag 18 ni oldinga yoki orqaga surib, uni vilka 15 bilan ulanadigan shesternyalar juftligining tishli gardishi yoki blokirovka mustasi bilan to'liq kengligi bo'yicha ilashmaga kirishi ta'minlanadi. Bir paytning o'zida bir-biriga qo'shni bo'lgan ikki polzunlarni surilishini oldini olish maqsadida, richag 18 ning surilishi ko'pincha plastinkalik kulisa 17 larning yo'naltiruvchi kesiklari *O* har bir uzatmani ularash uchun zarur bo'ladi.

Odatda kulisa 17 sharlik tayanchning tagiga o'rnatiladi, ammo kulisa uning ustiga ham o'rnatilishi mumkin. Kulisalar sifatida qo'zg'almas yonaki ariqchalik *T* to'g'ri burchakli ularash vilkalarining polzunlar 28 ining ajratuvchi plankalari 27 (6.6- e rasm) keng qo'llaniladi. "Neytral uzatmada" *N* va *T* ariqchalar mos ravishda polzunlar 28 ga va plankalar 27 ga to'g'ri keladi va richag 18 ning pastki uchi, ko'ndalang dumalashi ariqchasi bo'limgan yonaki cheklovchi planka 26 ga tayanguncha erkin ko'ndalag dumalash imkon mavjud.

Uzatmalar ulanganda richag 18 ning uchi polzun ariqchasi bilan ariqcha *T* ga nisbatan ajratuvchi plankalarda siljiydi, sxemalarda ko'rsatilgandek, bir paytning o'zida ikki polzunlarning surilishini istisno qiladi. Ayrim hollarda, bu maqsadda har biri silindrik polzunlar 14 orasida joylashgan uncha katta tirqishga ega bo'limgan ikki zoldir 25 dan iborat bo'lgan blokirovka qulflari (6.6- f rasm) dan

foydalaniadi. Neytral uzatmada ular yarim doira polzun 14 ning o'yiqlichalar S qarshisida joylashgan bo'ladi. Uzatmalardan birortasi ulanganda qo'zg'alayotgan polzun zoldirlar 25 ni suradi va ular oraliq polzunlarning halqasimon o'yiqlari S ni siqib, ularni surishni sxemada ko'rsatilgandek blokirovka qiladi.

Karetkalar 16 ni (yoki mos blokirovka muftalarini) ishchi holatda qotirish uchun, hamda traktor ishlaganda ularning polzunlarini o'z-o'zidan ulanib qolishining oldini olish uchun, ularning polzuni 14 va 28 prujinali fiksatorlar bilan ushlab turiladi. Buning uchun fiksatorlar ko'p hollarda pastgi konus kallakli, pog'onali sterjen 11 sifatida yasaladi (6.6- a rasm), u prujina 12 ta'sirida doimo polzunga siqilgan bo'ladi. Ayrim hollarda fiksator vazifasini prujina 21 bilan siqilgan zoldir 20 bajaradi (6.6- d rasm).

Polzun o'q bo'yicha siljiganda, fiksatorning konus kallagi 13 (yoki zoldir 20) prujina ta'sirida polzunning mos chuqurchasi L ga kiradi bu bilan ulangan karetka 16 ning (yoki mos blokirovka muftasining) neytral uzatmaning ma'lum holatini egallaydi. Shuning uchun ham chuqurchalar L ning soni ikki yoki uchta bo'lib, ulardan bittasi esa neytral uzatmani hosil qilish uchun o'rtada joylashgan bo'ladi. Chuqurchalar L orasidagi masofa teng yoki ularning polzun bilan kinematik bog'lanishiga qarab, karetka (mufta) uchun zarur bo'lgan masofaga karrali bo'ladi.

Uzatmani ulash va qayta ulash uchun traktorchi richag 18 kuch qo'yishi lozim va polzun 14 yoki 28 ni fiksator chuqurcha L dagi fiksatorni siqib chiqarish va richagni fiksator yana oraliqdagi chuqurchaga tushgunga qadar surish, bu esa ulangan yoki ajratilgan uzatmaga to'g'ri keladi. Bunda odatda fiksatorning shiqillagan ovozi eshitiladi.

Ammo prujinalik fiksatorlarning bo'lishi ayniqsa katta moment uzatilganda, uzatmalarni o'z-o'zidan ulanib qolmasligiga kafolat bo'la olmaydi. Vaqt o'tishi bilan prujinaning kuchi kamayib boradi, shesternya tishlarining tekis yeyilmasligi natijasida, vilka 15 da o'q bo'yicha yo'nalgan kuch hosil bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi, so'ng u polzunlar 14 va 28 ga uzatiladi, polzunlar esa prujinalik fiksatorni siqib chiqarishi mumkin. Undan tashqari prujinalik fiksator to'liq ajratilmagan ilashish muftasi bilan uzatmalarni almashtirishga qilingan harakat paytida shesternya tishlarining cho'tirsimon

yejilishini oldini ololmaydi. Shuning uchun ham UQning qator boshqarish mexanizmlarida ilashish muftasini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan blokirovka qurilmalari qo'llaniladi.


Bu mexanizm (6.6- a rasm) blokirovka valchasi 10 dan, fiksator sterjenlari 11 ning uchlarda joylashgan ilashish muftasi tepkisi 1 bilan boshqariladigan richag 9 va tortqi 2 tizimidan tuzilgan. Valcha 10 da bo'ylama ariqcha K yoki fiksatorlar o'qi orqali o'tuvchi ko'ndalang tekisliklarda yotuvchi mahalliy chuqurchalar mavjud. Sxemada ko'rsatilgandek ilashish muftasi ulanganda sterjenlar 11 ning uchlari valcha 10 ning silindrik sirtiga tayanadi. bu esa ularning ko'tarilishini, hamda uzatmalarni qayta ulanishini bartaraf etadi.

Ilashish muftasi to'liq uzilganda valcha 10 ariqcha K ning ko'ndalang tekisligi fiksatorlar o'qining bo'ylama tekisligiga to'g'ri keladigan holatga buriladi va unda, uzatmalarni o'zgartirish paytida fiksatorlar ko'tarilishi mumkin. Ayrim paytlarda (6.6- b rasm) blokirovka valchasi 19 aylanma harakat emas, balki o'q bo'yicha harakatga ega bo'ladi. Bu holda sxemada ko'rsatilgandek, polzunlar 14 valcha 19 ning silindrik qismi bilan blokirovkalanadi. Ilashish muftasi uzilganda valcha 19 ning frezerlangan uchastkalari P polzunlar 14 ning, ya'ni uzatmalarni qayta ulanishiga qarshilik qiymaydigan holatga silijydi.

**Uzatmalarni traktorni to'xtatmasdan almashtiruvchi gidravlik mexanizmlari.** Traktorni to'xtatmasdan uzatmalar almashtirilganda, yuqorida ko'rsatib o'tilgandek, ko'p hollarda gidravlik siqvuchi ko'p disklik friksion muftalar qo'llaniladi. 6.7- a rasmida ko'proq tarqalgan ikki barabanlik, ikki uzatmali boshqaruvchi gidravlik siqvuchi friksion mufta ko'rsatilgan.

Ikki gidravlik siqvuchi friksion muftalar yetaklovchi val A ning shlitsalariga qotirilgan, yetaklovchi baraban 10 ning ariqchasiga o'rnatilgan. Har bir barabanning ikki tomonidan o'qdosh halqasimon oraliqqa silindrler va yo'naltiruvchi gupchaklar yo'nilgan, ularga siqvuchi disk 8 dan iborat bo'lgan porshenlar o'rnatilgan. Porshen-silindr birikmasi ichki rezina halqa 15 va tashqi kesikli cho'yan halqa 9 bilan zichlashtirilgan. Baraban 10 ning chetlarida qator bo'ylama (odatda sakkizta) ariqchalar kesilgan, ularga yetaklovchi po'lat disklar 12 ning shlitsalari kirib turadi. Xuddi shunday porshenni silindrda

burilib ketishidan saqllovchi shlitsalar porshen 8 ning tashqi qirrasida ham yasalgan.



#### **6.7-rasm. Gidravlik siqiladigan friksion mufta**

Yetaklovchi disklar orasiga ichki shlitsalik kukun friksion materialdan yasalgan ustqo'ymalar yetaklanuvchi disklar 13 o'rnatilgan. Doimiy ilashmada bo'lgan ikki zoldirli podshipniklarda erkin aylanadigan shesternyalar 4 va 17 stupitsasi shlitsalariga disk 13 o'rnatilgan. Podshipniklar oraliq shlitsalik vtulka 1 val 4 ga o'rnatiladi, ular bir-birlaridan oraliq halqasi 18 va shesternyalarga nisbatan stoporlovchi halqa 3 bilan qotirilgan. Shlitsalar orasidagi teshiklar V mustalarining ishqalanish sirtlarini yaxshi moylash uchun xizmat qiladi.

Uzatmani ulash uchun silindrinning ichki halqasimon bo'shiligiga moy yuboriladi, uni buster  $D$  deb ataladi. Muftani ulash, busterga taqsimlovchi qurilmaga (sxemada ko'rsatilmagan) val  $A$  ning bo'ylama  $B$  va radial  $G$  teshiklaridan keladigan moy bosimi ta'sirida amalga oshiriladi. Moy bosimi ta'sirida porshen  $8$  ning siljishi

(strelkalar bilan shartli ko'rsatilgan) sodir bo'ladi, disklar paketi 12 va 13 tayanch diskni 6 ga siqiladi. Tayanch diskni barabanning ariqchasiga o'rnatilgan stoporlovchi halqa 14 bilan qotirib qo'yiladi. Bunda porshen 8 gupchagi teshiklariga o'rnatilgan va stopor halqlarini 16 bilan qotirilgan tayanch diskni 5 ga siqilgan, prujinalari 7 ning siqilishi sodir bo'ladi.


Uzatma ulanganda busterdan moyni tezroq chiqarib yuborish uchun porshen 8 ga to'kish klapani o'rnatilgan (uni bosimni tushirish klapani ham deb ataladi). Zoldirli klapanlar ko'proq tarqalgan, uning ishlash sxemasi 6.7- b rasmda ko'rsatilgan. Zoldir 19 ga ta'sir etuvchi moy bosimi  $P_0$  markazdan qochma kuch  $P_S$  bo'lmasa, klapan teshigi ochiq, u I holatda bo'lib, busterdan moy oqishiga to'sqinlik qiladi. Porshen 8 ning tubiga presslangan zoldir 19 himoya qobig'i 20 da joylashgan bo'ladi. Uzatmalar ulanganda busterdag'i moyning bosimi pasayadi va unda markazdan qochma kuch  $P_S$  ta'sirida, moyni tezda oqib ketishi uchun teshikni ochadi, zoldir esa II holatni egallaydi. Markazdan qochma kuch ta'sirida moy musta bo'shilg'iga kiradi va uning ishqalanish sirtlarini moylaydi.

Friksion muftalar uzilganda uning friksion disklarini ajralishini yaxshilash uchun uning friksion qoplamasiz yoki ustqo'ymasiz metall disklari biroz botiq qilib yasaladi. Qolgan hollarda (6.7- d rasm) bu disklar 12 ning shlitsalik bo'rtlamalari 23 da parchin mixlar 21 yordamida maxsus ajratuvchi plastikalik prujina-lapkalar 22 o'rnatiladi.

UQning gidravlik tizimi ma'lum tartibda friksion muftalarning busterlariga moy berishdan tashqari, uning detallarini moylash, moyni filtrlash va sovitish uchun ham qo'laniladi. UQni gidravlik boshqarish tizimining asosiy agregatlariga nasos, filtr, tizimdag'i moyning bosimini rostlovchi reduksion klapan. busterlarga moyni uzatish uchun moy tarqatgich va traktor harakatini to'xtatmasdan uzatmalarni almashtirish imkonini beruvchi boshqa qurilmalar kiradi. Uzatmalarni almashtirish uslublarining mukammallahish jarayoni, uzatmalarni almashtirish paytida quvvat oqimini uzish vaqtini qisqartirish yoki uni batamom bartaraf etish, busterdag'i moyning bosimini bir tekis oshishini ta'minlash, mufta ulanganda maksimal ishqalanish momentining qiymatini kamaytirish imkonini beradi.

6.8-rasmda UQning uzatmalarini quvvat oqimini uzmasdan gidravlik almashtirishning prinsipial sxemasi keltirilgan. Gidroakkumulyator 4 ga navbatma-navbat ishlayotgan friksion muftalar  $M_1$ ,  $M_2$ ,  $M_3$  va  $M_4$  ning moy uzatgichi 3 ga ularadi. Undan tashqari sxemada uchta qayta uzatgich klapanlari; gidroakkumulyatorning 5 ulagichi va ikki friksion muftalar blokini ulovchi muftalar mavjud. Tizimdagi moyning bosimi reduksion klapan 11 bilan ushlab turiladi.

Sxemada traktorning birinchi uzatmada ishlashi shartli ko'rsatilgan. Moy gidrotizim baki 8 dan gidronasoslar 7 bilan,  $M_1$  muftaning busteriga moy uzatadigan I holatida o'rnatilgan boshqarish jo'mragi 9 ga uzatiladi. Mufta  $M_1$  ulanganda quvvat oqimi val I dan doimiy ilashmada bo'lgan yetaklovchi shesternya 2 ga uzatiladi. Oraliq mufta  $M_2$  ning buster bo'shlig'i, qolgan ishlamayotgan muftalar  $M_3$  va  $M_4$  dagi kabi, bu paytda boshqarish jo'mragi 9 ning to'kish bo'shlig'iga ulangan. Mufta  $M_1$  ning busteriga uzatiladigan moy, bir paytning o'zida o'tkazish klapanlari 6 va 5 ga ta'sir ko'rsatadi. Klapan 6 mufta  $M_2$  ning busteriga moy uzatishni bekitadi, klapan 5 esa gidroakkumulyator 4 ni faqat mufta  $M_1$  va  $M_2$  larni blokiga ulaydi. Shunday qilib, klapan 5 ning holatiga qarab gidroakkumulyator bir paytning o'zida mufta  $M_1$  va  $M_2$  ning yoki  $M_3$  va  $M_4$  ning faqat bir blokiga xizmat ko'rsatadi. Bu holda u mufta  $M_1$  va  $M_2$  ning faqat birinchi blokga xizmat ko'rsatadi.



6.8-rasm. UQning uzatmalarini gidravlik almashtirish sxemasi.

Gidroakkumulyator 4 porshenli silindr bolib, uning tubiga orqasidan moyni bosim bilan siquvchi prujinalar o'rnatilgan, moyning bosimi shunday bo'lishi kerakki, to'liq zaryadlangan akkumulyatorda prujinaning porshenga bosimi gidrosistemadagi moyning bosimiga teng bo'ladi.

Uzatmalar almashtirilganda, masalan ikkinchi uzatmaga, boshqaruvchi jo'mrak 9, mufta  $M_2$  bilan boshqariladigan II holatga buriladi. Bunda birinchi mufta  $M_1$  ning moy uzatgichi 3 jo'mrakning to'kish bo'shlig'i bilan ulangan bo'ladi va moy busterdan jo'mrakning drosel teshigidan to'kish moy uzatgichi 10 dan teskariga, gidrotizim bakiga to'kila boshlaydi. Ammo bu mufta  $M_1$  ga ulangan gidroakkumulyator undagi bosimni keskin pasayishini sekinlashtiradi va unga darhol ajralish imkonini bermaydi. Bunda qandaydir vaqtida mufta  $M_1$  ning sirpanmasdan kichik ishqalanish momentida ishlashi davom etadi.

Shu vaqtida moy nasos 7 dan mufta  $M_2$  busteri tomon harakatlanadi va havoni to'kish klapani orqali chiqarib, uni moy bilan to'ldira boshlaydi. Natijada mufta  $M_2$  ning busteridagi moyning bosimi keskin ko'tariladi. Shunday qilib mufta  $M_1$  dagi bosim sekin tusha boshlaydi, mufta  $M_2$  da esa keskin ortadi va qandaydir vaqtidan so'ng u mufta  $M_1$  dagidan katta bo'ladi. Endi mufta  $M_2$  busteridagi moyning ta'sirida o'tkazish klapani 6 chapga suriladi (sxemada) va gidroakkumulyator 4 ni moy uzatgichdan mufta  $M_1$  tomonga uzadi. Buning natijasida mufta  $M_1$  ning bosimi keskin pasayadi mufta  $M_2$ , dagi bosim sekin osha boshlaydi, bu gidroakkumulyatorning zaryadlanish davri bilan bog'liq. Bundan so'ng mufta  $M_2$  da yana bir marta bosimni berilgan qiyamatigacha keskin oshishi sodir bo'ladi.

Uzatmalarни teskarisiga birinchiga yoki istalgan boshqasiga almashtirish, friksion mustalar bilan boshqarish tizimining ishlashi jarayonida amalga oshirilgandek kechadi.

**Sinxronizatorlar.** Sinxronizatorlar UQni boshqarish mexanizmining agregati bo'lib, uzatmalarни shovqinsiz va zarbsiz ularash uchun kerak. Ularni doimiy ilashmali shesternyasi va vali qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan UQga o'rnatiladi. Sinxronizatorning ishslash asosiga birlashib uzatma hosil qiluvchi detallarning burchak tezliklarini tenglash uchun ishqalanish kuchidan foydalanish prinsipi

qo'yilgan. UQning har bir oldinga harakat uzatmasi sinxronizator bilan ulanadigan turlari uchraydi. Ammo ko'p hollarda sinxronizatorlardan yuqori uzatmalar ulash uchun foydalaniadi, pastgi uzatmalar va orqaga harakat uzatmalari esa odatdag'i tishli yoki kulachokli muftalar va shesternya-karetkalar bilan ulanadi. Ko'p tarkibli UQda sinxronizatorlar, odatda, qutining faqat asosiy oraliq'ida qo'llaniladi. oraliqlari qayta ulanadigan reduktorlarda muftalar yoki karetkalar qo'llaniladi.

Odatda sinxronizatorlar ko'proq foydalilanigan uzatmalarga o'rnatiladi. MTZ-100(102) traktorlarida sinxronizatorlar oraliq UQga o'rnatiladi.

Sinxronizatorlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- sinxronlashni ta'minlash vaqtining kamligi, ishslash samaradorligining yuqoriligi;
- ishqalanish sirtlarining yuqori darajadagi yeyilishga bardoshliligi va yuklama qabul qiluvchi detallarning yetarli darajadagi mustahkamligi;
- tuzilma gabaritining kichikligi.

Sinxronizatorlar: ishslash prinsiplari bo'yicha - oddiy va inersion; konstuksion yasalishi bo'yicha - konusli va diskli; uzatmalarga xizmat ko'rsatish prinsipi bo'yicha - individual va markaziy turlarga bo'linadi.

Oddiy sinxronizatorlar yordamida uzatmalarni ulashda UQning birlashtiriluvchi detallarining burchak tezliklarini to'liq tenglashishi ta'minlanadi. bu odatda zarb yuklamalarini va shovqin-suronni paydo bo'lishini oldini oлади.

Inersion sinxronizatorlar traktor va avtomobillarning UQda keng tarqalgan, chunki ularning zarbsiz, shovqin-suronsiz va blokirovka qiluvchi qurilmalari mavjud.

Konusli va diskli sinxronizatorlar bir-birlaridan friksion elementning yasash usuli bilan farq qiladi. Zamonaviy UQ konusli sinxronizatorlar ko'proq tarqalgan.


Individual sinxronizatorlar bir tomonga ishlasa, faqat bitta uzatmani ulash uchun va agar ikki tomonga ishlasa, ikki uzatmani ulash uchun xizmat qiladi.

UQning bitta markaziy sinxronizatori hamma uzatmalarga xizmat ko'rsatadi. Unimg uzatmalardan birortasiga ulash uchun, bir paytning

o'zida, bir necha tishli muftalar bilan bog'liq bo'lgan qirqimli valli UQda qo'llaniladi. Bunday UQ zamonaviy traktorlarda qo'llanilmaydi, chunki markaziy sinxronizatorlar tuzilishi bo'yicha murakkabroq, qimmat va katta gabarit o'lchamlarga ega.

*Oddiy sinxronizatorlar.* Oddiy sinxronizator ikki asosiy elementdan:

- tenglashtiruvchi – aylanma harakat qiluvchi massalarning urinma inersiya kuchlari energiyasini yutuvchi friksion qurilmadan;
- tutashtiruvchi – uzatmalarni ulovchi tishli muftadan tashkil topgan.



#### 6.9-rasm. Oddiy sinxronizator:

1 – vilka; 2 – fiksator sharigi; 3 – mufta; 4 – gupchak; 5 – konus; 6 – stopor halqasi; 7 – shesternya; 8 – shesternyaning tishli gardishi; 9 – prujina; 10 – yetaklovchi val

Oddiy sinxronizatorda inersion sinxronizatordagidek blokirovka elementi yo'q. Odatda undan past uzatmalar uchun foydalaniлади. Bunday uzatmalarda oddiy sinxronizatorlar qo'llaniladi. Bunday sinxronizator konuslariga keltirilgan inersion va burovchi ilashish momentlari nisbatan kattaroq qiymatga yetadi, bu o'z navbatida konuslarning shataksirash davrining (to'liq ulanmaganda) oshib

ketishi, uzatmalarni almashtirish jarayonining sezilarli darajada cho‘zilib ketishiga olib keladi. Bu hollarda oddiy sinxronizator yordamida ulanadigan detallarning burchak tezliklari to‘liq tenglashmagan bo‘lsa ham, kichik vaqt oralig‘ida uzatmalarni ularash imkoniyati mavjud.

Oddiy sinxronizatorning tuzilishini ko‘rib chiqamiz (6.9-rasm). Ulash muftasi 3 sinxronizatorning qo‘zg‘almas gupchagining tishli gardishiga o‘rnatilgan va unga nisbatan mustaning neytral holati zoldirlar fiksatorlar yordamida ushlab turiladi. Fiksatorlarning zoldirlarini 2 mufta 3 ichki o‘rindiqlarida joylashgan prujinalar 9 bilan bosib turiladi.

Gupchak 4 obodlari tishli gardishlarining ichki sirtlari konus shaklida yasalgan. Konuslar 5 shesternyalar 7 ga kulachoklar (chizmada ko‘rsatilmagan) va stopor halqalari bilan qotirilgan. Uzatmani ularash uchun vilka 1 yordamida mufta 3 neytral holatdagi shesternya 7 ga fiksatorlar yordamida gupchak 4 ni ham suradi. Sinxronizatorning tenglashtiruvchi elementi vazifasini bajaruvchi gupchak 4 ning konusli sirti va konus 5 siqladi, ular o‘rtasidagi ishqalanish natijasida val 10 va shesternya 7 ning burchak tezliklarining tenglashishi sodir bo‘ladi. Mufta 3 ning yanada surilishida fiksator zoldirlari 2 gupchak 4 dagi radial teshiklarga kirib qoladi va mufta 3 shesternya 7 ning tishli gardishi 8 bilan ilashmaga kiradi va uni val bilan ulaydi. Agar mufta 3 ga uzatmalarni almashtirishda fiksator zoldirlarining qarshiligidan katta kuch qo‘yilsa, ularning burchak tezliklari tenglashgunga qadar mufta shesternyaning tishli gardishi tomonga suriladi va tishlarning zarbasi natijasida uzatmani ularishi sodir bo‘ladi.


Shuni aytish kerakki, oddiy sinxronizatorda fiksatorlar tuzilmaning asosiy elementi hisoblanadi, chunki u konusli ishqalanish sirtlariga kuch uzatadi.

**Inersion sinxronizatorlar.** Inersion sinxronizatorlar uch asosiy elementdan tashkil topgan:


- oddiy sinxronizatorlardagidek, tenglashtiruvchi va ulovchidan;
- tishli muftani ulanadigan detallarni burchak tezliklarini to‘liq tenglashmaguncha ularishga to‘sqinlik qiluvchi qurilma blokirovka qiluvchidan.

Zamonaviy traktor va avtomobillar UQlarida qo'llaniladigan ayrim sinxronizatorlarning tuzilmalarini ko'rib chiqamiz.

6.10-rasmda traktor va avtomobilarning UQda keng tarqalgan inersion sinxronizator keltirilgan. Ikkilamchi val 10 ning oldingi uchiga shlitsalarda sinxronizatorning gupchagi 8 qo'zg'almas qilib qotirilgan, uning tishli gardishiga vilka 4 bilan boshqariladigan ularash muftasi 3 o'rnatilgan. Tishli gardish ko'ndalang ariqchalik 9 qilib kesib qo'yilgan, ularga polzunlar 7 o'rnatiladi. Polzunlarning tashqi o'rta qismida bo'rtlamalar mavjud, ichki tomonida esa ariqcha shakldagi yo'nilmalar mavjud. Polzunlar 7 o'zlarining bo'rtlamalari bilan musta 3 ning ichki sirtidagi ikki prujinalik halqalari 5 bilan halqasimon yo'nilmaga siqilgan, prujinalik halqaning qayirilgan uchlari polzunlarning biriga kiritilgan. Shuning bilan polzunlar 7 ning muftalar neytral holatda bo'lganda uning o'rta qismiga elastik tutib turilishi ta'minlanadi.



*a*



*b*

#### 6.10-rasm. Inersion sinxronizator:

*a* – tuzilmasi; *b* – detallari; 1 – yetaklovchı val shesternysi;

2 – blokirovkalovchı konusli halqa; 3 – mufta; 4 – vilka; 5 – prujinalik halqa; 6 – uzatma shesternysi; 7 – polzun; 8 – gupchak; 9 – gupchakning bo'ylama ariqchasi; 10 – UQning ikkilamchi vali; 11 – blokirovka halqasining chetidagi ariqchalar

Sinxronizator gupchagi 8 ning ikkala tomonidan latundan yasalgan tishli gardishlik va chetlarida uch ko'ndalang ariqchasi 11 bo'lgan blokirovka halqasi 2 o'rnatilgan. Ko'ndalang ariqchaning kengligi gupchak 8 ning ariqchasidan tishning 1/2 qadamiga katta. Halqa 2 ning ariqchalariga polzun 7 ning uchlari kirib turadi, bu esa ularning birgalikda aylanishini ta'minlaydi.

Blokirovka halqlari 2 ning ichki konusli sirtiga kichik qadamli rezba kesilgan, u moy pardasini buzish va blokirovka halqalarining va


shesternyalar 1 va 6 gupchagi tishlarining tashqi konusli sirti o'rtasidagi ishqalanish koeffitsiyentini oshirish uchun xizmat qiladi. Shesternyalar 1 va 6 ning gupchagiga gupchak 8 va halqalar 2 ning tishli gardishlaridagidek tishlar kesilgan bo'ladi. Shesternya tishlarining va blokirovka halqalarining chetlari, gupchak 8 ga qaratilgan bo'lib, ularda qiyalik mavjud, bu esa ularni tishlarida xuddi shunday qiyalik bo'lgan mufta 3 bilan ilashmaga kirishini osonlashtiradi.

Uzatmani ularash uchun vilka 4 bilan suriladigan mufta 3 polzunlar 7 bilan birgalikda harakatlanadi, agar to'g'ridan to'g'ri uzatma ulanadigan yoki pasaytiruvchi uzatma ulanadigan bo'lsa, shesternya 6 ning konusi blokirovka halqlari 2 ning birortasiga tayanib, uni shesternya 1 ning konusiga suradi. Konuslar orasida hosil bo'lgan ishqalanish kuchi ta'sirida halqa 2 gupchak 8 ga nisbatan ma'lum burchakka buriladi, chunki polzunlar 7 va ariqchalar 11 o'rtasida tirkish mavjud. Bunda halqa 2 tishlarining chetgi qiyshiqliklari, shesternyalar 1 yoki 6 gupchaklaridagi tishli gardish, mufta 3 bilan ilashmaga kirishiga imkon bermasdan, mos keluvchi blokirovka halqasi 2 ni shesternya konusiga siqadi. Chunki val 10 va shesternyalar 1 yoki 6 ning burchak tezliklari turlicha, tishli halqa 2 va mufta 3 ning chetgi qiyshiqliklarida uning yanada surilishiga qarshilik qiluvchi, o'q bo'yicha yo'nalgan kuch hosil bo'ladi. Bunda tishlarning qiyshiqliklari shunday tanlanganki, val 10 va shesternyalar 1 yoki 6 ning burchak tezliklari tenglashgunga qadar mufta 3 ning blokirovka halqasi 2 ga nisbatan burilishi va uning yanada surilishi, muftaga qo'yilgan o'q bo'yicha yo'nalgan kuchga bog'liq bo'lmaydi.

Shunday qilib uzatmalar almashtirilayotgan paytda FIM uzilgan va val 10 shesternya 1 yoki 6 bilan faqat inersiyasi bo'yicha aylanadi, sinxronizator konuslarining ishqalanish kuchlari hisobiga shesternyaning burchak tezligi val 10 va mufta 3 ning birgalikdagi burchak tezligi qiymatiga tenglashgunga qadar kamayadi. Bunda halqa 2 va mufta 3 tishlarining qiyshiqliklaridagi o'q bo'yicha yo'nalgan surilishga qarshilik kamayadi. Mufta 3 ning surilishini davom ettirish uchun prujinali halqlar bosib turgan polzunlar 7 ning markaziy bo'rtlamalarining qarshiliklarini yengib o'tishi lozim. Unda mufta 3 halqa 2 tishlarining qiyshiqligiga siqishni davom ettirib, u val 10 bilan birgalikda, mufta 3 ni yanada surilishini ta'minlovchi va uni

halqa 2 tishlari va shesternya 1 yoki 6 stupitsa tishlari bilan navbatma-navbat birlashtirish uchun kerakli burchakka burilishini ta'minlaydi.

6.11- a rasmida inersion sinxronizatorning boshqacha tuzilmasi keltirilgan. U UQning yetaklanuvchi vali shlitsalariga o'rnatalgan suriluvchan ulovchi tishli gardishli muftada 1 dan tuzilgan. Mufta 1 ning diskii fiksatorlar yarim silindrлari 5 ni ikki konuslik halqa 2 bilan birlashtiruvchi uchta teshikka va konusli halqalarini bikir birlashtiruvchi blokirovka barmoqlari uchun faskali uchta teshik nazarda tutilgan. Fiksatorning ikki yarim silindrлari 5 orasida ikkita prujina 4 joylashgan.



#### 6.11-rasm. Inersion sinxronizator:


- 1 – sinxronizator muftasi; 2 – konusli halqa; 3 – blokirovka barmog'i;
- 4 – prujina; 5 – yarim silindrлari; 6 – tishli muftalar; 7, 9 – shesternyalar;
- 8 – shesternyaning ichki tishli gardishi

Neytral holatda (6.11- b rasm) mufta 1 shesternyalar 7 va 9 ning oralig'ida joylashgan bo'ladi. Uzatmalar ularayotganda mufta 1, fiksator yarimsilindrлari 5 ni siljitim, konusli halqa 2 ni shesternya 7

konusiga siqadi (6.11- *d* rasm). UQning oraliq vali bilan bog‘langan yetaklanuvchi val, shesternya 7 bilan birlashtirilgan mufta 1 turli burchak tezliklari bilan aylanadi.


Konusli sirtlar orasidagi ishqalanish hisobiga mufta 1 diskiga nisbatan, blokirovka qiluvchi diskning teshiklaridagi konusli faskalarni, blokirovka panjalari bilan tutashgunga qadar buriladi. Natijada mufta 1 ning blokirovkasi sodir bo‘ladi. Shesternya 7 va mufta 1 ning burchak tezliklari tenglashganda, mufta fiksatorlarning prujinasi 4 ni yarim silindrlari 5 ni siljitim, shesternya 7 ning ichki tishli gardishi bilan ilashmaga kiradi (6.11- *e* rasm).

Sinxronizatorlarning bunga o‘xshash tuzilmalari (6.12-rasm) MTZ-100 (102) va YMZ traktorlarining UQda ham qo‘llaniladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgandagidek, blokirovka elementi sifatida ulovchi mufta 1 ning diskni teshiklaridagi konusli belbog‘dan va shu teshiklarga kirib turuvchi blokirovka panjasini 4 dan foydalaniladi. Barmoqlar 4 konusli halqalar 2 bilan bikir bog‘langan. Bu yerda fiksatorning boshqacha tuzilmasi qo‘llanilgan, u mufta 1 va halqa 2 ni prujina tagidagi zoldir bilan bog‘lovchi markaziy halqasimon yo‘nilmalik barmoq 6 dan tuzilgan. Sinxronizatorning ishlashi yuqorida keltirilgan sinxronizatordagidek.



**6.12-rasm. MTZ-100 (102) traktorlarining UQ sinxronizatori:**  
 1 – mufta; 2 – halqa; 3 – shesternya; 4 – blokirovka barmog‘i; 5 – zoldir;  
 6 – fiksator barmog‘i; 7 – mufta diskidagi teshik

6.13-rasmida keltirilgan tuzilmada, ishqalanish elementlari qo'zg' aluvchan ulovchi tishli mufta 1 va blokirovkalovchi halqa 2 da bajarilgan konusli sirtdan iborat. Blokirovka elementlari sifatida blokirovka halqasi 2 ning ichki tishlaridan va shesternya 3 stupitsasida yasalgan tishlarning chetki qismalaridan foydalaniladi. Shesternya 3 va blokirovka halqasi bir-birlari bilan o'q yo'nalishi bo'yicha qirqimli stopor halqa 5 bilan ushlab turuvchi siqilgan prujina 4 orqali elastik joylashgan bo'ladi. Bu tuzilma detallarini dastlabki neytral holatda joylashtirishga va bir vaqtning o'zida uzatmalarini ajratish va ularshda halqa 2 ni blokirovka qilinishiga qarshilik qilmaydi.




**6.13-rasm. VAZ sinxronizatori:**

1 – mufta; 2 – blokirovka halqasi; 3 – shesternya; 4 – prujina; 5 – stopor halqasi

Sinxronizator quyidagi tartibda ishlaydi: mufta 1 va blokirovka 2 halqalarning konusli ishqalanish sirtlari yaqinlashadi; halqa 2 va shuningdek mufta 1 blokirovkalanadi; mufta 1 va shesternya 3 larning burchak tezliklari tenglashadi; halqa 2 va 1 muftalar blokirovkadan ozod bo'lib, ularning o'q bo'yicha siljishi natijasida tish to'liq uzunligi bo'yicha ilashmaga kiradi.

6.14-rasmida keltirilgan sinxronizatorning tuzilmasi avval ko'rib o'tilganidan asosan blokirovka elementining tuzilishi bilan farq qiladi. Sinxronizator korpusi 2 chetida ichki konusi bo'lgan silindr shaklida yasalgan bo'lib, ulovchi mufta 1 diskiga o'rnatilgan va uning ustida diskning radial teshiklariga joylashtirilgan konusli fiksatorlar bilan ushlab turiladi. Mufta 1 val 7 ning tishli vtulkalariga o'rnatilgan halqa 4 va barmoqlar 5 da harakatlanadi.




**6.14-rasm. Silindrlarida blokirovkalovchi kesik bo'lgan sinxronizatorlar:**

1 – mufta; 2 – korpus; 3 – fiksator; 4 – halqa; 5 – barmoq; 6 – tishli mufta;  
7 – val; 8 va 9 – shesternyalar

Uzatmani ulashning boshlang'ich bosqichida mufta 1 sinxronizator korpusi 2 ni fiksatorlar 3 yordamida harakatlantiriladi. Shesternyalar gupchagi 8 va 9 hamda korpusi 2 tegishli konuslik sirtlari bir-birlariga tekkanda, korpus 2 mufta 1 va barmoqlarga nisbatan buriladi va barmoqlar 5 silindrming yon sirtidagi shaklli yo'naltirgich kesiklarining chuqurchasiga tushib qoladi. Bunda korpus 2, barmoqlarni o'q bo'yicha harakatlanishini cheklab ularga siqiladi. Shu paytdan boshlab siquvchi kuch korpus 2 ga va konusli ishqalanish juftligiga uzatiladi.

Birlashtiriladigan detallarning burchak tezliklari tenglashganda mufta 1 ning harakatlanishiga qarshilik qiluvchi kuch kamayadi, bunda barmoq 5 yo'naltiruvchi kesiklarning chuqurchalaridan chiqib, korpus 2 va mufta 1 ni buradi, tegishli shesternyalar gupchaginiq ichki tishli gardishlarini birortasi bilan ilashmaga kiradi.

6.15-rasmda blokirovka bormoqlari bo'lgan diskli inersion sinxronizatorning tuzilmasi keltirilgan. Bu tuzilmaning ishlash prinsipi 6.12-rasmda ko'rib chiqilgan tuzilmaga o'xshash. Bu yerda sinxronizatorning tenglashtiruvchi elementi konus shaklida bo'lmasdan, ko'p disklik friksion mufta shaklida bo'ladi. Bunday sinxronizatorlar keng tarqalmadi. Ulardan ayrim hollarda katta quvvatli traktorlarni va katta yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan avtomobilarni past uzatmalarini ulash uchun foydalilanadi.



**6.15-rasm. Blokirovkalovchi barmoqli diskli inersion sinxronizator:**

1 – blokirovkalovchi barmoq; 2 va 3 – ko‘p disklik friksion muftalar

Shuni aytib o’tish kerakki, inersion sinxronizatorlarda fiksatorlar yordamchi vazifani bajaradi, ularning prujinalari faqatgina korpusni markazlashtirishni ta’minlaydi va tenglashtiruvchi elementda korpusni burishda boshlang’ich ishqalanish momentining berishini va sinxronizator blokirovka qurilmasini ulanishini ta’minlaydi.

## 6.5. Uzatmalar qutisining vallari va ularni qotirilishi

UQ vallarining o’lchami va materiallari ko‘p jihatdan shesternyalarning, podshipniklarning hamda ularning karter tayanchlariga qotirilishi bilan bog’liq bo’lgan ish qobiliyatini belgilaydi. Vallarga qo‘yilgan asosiy talablar ularning bikirligi hisoblanadi, chunki bikirlik yetarli darajada ta’milanmaganda ularning egilishi oshib ketadi. natijada shesternyalarning ilashishi yomonlashadi va ularni yeyilishi tezlashadi hamda podshipniklarning buzilishi sodir bo’ladi.


Ko‘p hollarda UQda dumalash podshipniklari qo’llaniladi, saqat ayrim hollardagina orqaga harakat va doimiy ilashmada bo’lgan shesternyalardagina siSPANISH podshipniklaridan foydalilanadi.

Asosan UQga bir qatorlik zoldirli podshipniklar o’rnataladi. Tayanchning berilgan o’lchamlarida yuk ko’tarish qobiliyati bo‘yicha to‘g’ri kelmasa, ko‘proq qisqa rolikli silindrik rolikli podshipniklar qo’llaniladi, chunki ular vallarning qiyshayishiga va deformatsiyasiga

kamroq moyillik ko'rsatadi. Konusli rolikli podshipniklar kattaroq radial va o'q bo'yicha yo'nalgan yuklama qabul qila olsada, ularning tayanchlarini yasashning murakkabligi va tez-tez rostlab turishni talab qilinishi, ularni kamroq qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

UQ karterining gabaritlari uncha katta bo'lmaganligi sababli, ularning vallari ikki tayanchga qotiriladi. Bunda ko'p hollarda tayanchlardan biri vallarni o'q bo'yicha siljishini oldini oladi, ikkinchisi esa asosan radial kuch bilan yuklanadi. Bunda radial kuch qabul qiluvchi podshipnik UQ ishlaganda hosil bo'lgan issiqlik kuchlanishi ta'sirida o'q bo'yicha kengayishiga halaqt bermasligi lozim.

Val uzunligi bo'yicha shesternya juftliklari ishchi holatda (burovchi momentni uzatishda) jeylashtirilganda ko'proq foydalaniладigan, kattaroq yuklamalik uzatmalar val tayanchlariga yaqinroqqqa, kamroq yuklanganlari esa valning o'rтароg'iga joylashtirilishi lozim. Uzatmalarни bunday joylashtirilishi valni egilishini kamaytiradi va UQ podshipniklarining va shesternyalar tishlarining samaralik ishlashiga ta'sir ko'rsatadi.



**6.16-rasm. UQning birlamchi va oraliq vallarning tayanchlari**

6.16-rasmda birlamchi va oraliq vallarning tayanchlari ko'rsatilgan bo'lib, ularga, asosan, radial kuch ta'sir qiladi. Bu holda zoldirli podshipnik 5 o'zining ichki halqasi bilan val 6 ga bikir qilib qotirilgan, tashqi halqasi bilan esa UQ karterining oldingi devori


teshigiga (*A* varianti) yoki oraliq stakan 9 ga (*B* varianti) bikir qilib qotirilgan.

Odatda, podshipnik 5 ning ichki halqasi val 6 ning gupchaklarii uchiga tizgin flansi gupchagi va qotiruvchi gayka 11 yordamida siqilgan bo‘ladi. Oraliq vallarda podshipnikning ichki halqasi odatda gayka yoki qirqimli stopor halqasi bilan qotirib qo‘yiladi (rasmda ko‘rsatilmagan).

Podshipnik 5 ni karter devori teshigiga o‘rnatish uning tashqi halqasi ariqchasiga o‘rnatilgan stopor halqasi 3 bilan amalga oshiriladi, u qotiruvchi qopqoq 2 ning o‘yiqchasi bilan siqib qo‘yiladi. Ayrim hollarda stopor halqasi 3 karter devori teshigiga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rnatiladi, unda podshipnik 5 qopqoq 10 ning bo‘rtlamasi bilan karterga, podshipnik oraliq stakan 9 ga o‘rnatilgandek siqib qo‘yiladi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, bu vallarni ushlab turuvchi tayanchlar ularning old yoki orqa uchlarida bo‘lishlari mumkin. Ikkinchisi tayanch zoldirli podshipnik 7 ichki halqasi bilan gayka 8 yordamida val 6 ga bikir qilib qotiriladi. Podshipnik 7 ning tashqi halqasi UQning orqa devori teshigiga erkin o‘rnatiladi.

Agar val tayanchi silindrik rolikli podshipnikli bo‘lsa, uning ichki halqasi cheklovchi bo‘rtlamalar bilan ko‘rib o‘tilgan holdagidek qotiriladi. Cheklovchi bo‘rtiqlarsiz tashqi halqa odatda 6.17-rasmda ko‘rsatilgan sxema asosida o‘rnatiladi. *A* variantda UQ karterining orqa devori 7 teshigiga stoporlovchi shtift 8 yordamida o‘rnatilishi ko‘rsatilgan. *B* variantda esa podshipnik 9 stakan 12 ga o‘rnatilgan va stopor halqasi 11 bilan qotirilgan. Rolikli podshipnikning ichki halqasi cheklovchi bo‘rtlamasiz tayanchga tashqi halqasi esa cheklovchi bo‘rtlamali tayanchlarga o‘rnatish tuzilmalari ham uchraydi.



### 6.17-rasm. UQning ikkilamchi valini o'rnatish variantlari

Ikkilamchi vallar va ularning tayanchlarini tuzilmasi ko'p jihatdan sezilarli darajada UQ ishlaganda hosil bo'ladi. Ko'ndalang joylashgan UQning ikkilamchi vali asosan radial kuch bilan yuklanadi, chunki markaziy uzatma odatdagi silindrik shesternyali qilib yasaladi. Valdagi o'q bo'yicha yo'nalgan kuch uncha katta bo'lmasa, UQning vallari ko'ndalang joylashgan bo'lsa, uning yetaklanuvchi vali uchiga alohida markaziy uzatma uchun kardanli uzatma qotiriladi. Bu holda ikkilamchi val yuqorida ko'rib o'tilgandek tayanchga ega.

Biroq ko'p hollarda traktorlar UQning ikkilamchi vali konusli markaziy uzatmaning yetaklovchi vali hisoblanadi. Unda yetaklovchi konusli shesternya val bilan birgalikda yasaladi yoki alohida valning uchiga o'rmatiladi. Bu holat ikkilamchi vallarning tayanchlari tuzilmasini murakkablashtiradi, chunki ular radial kuchlardan tashqari sezilarlik darajadagi o'q bo'yicha yo'nalgan kuchni ham qabul qildi, hamda val yoki shesternyani o'q bo'yicha siljishini rostlash hamda markaziy uzatmasining konusli shesternyalarini normal ilashmaga kirish imkonini ham nazarda tutish lozim.

UQ ikkilamchi vallarining A va B variantlaridagi tayanchlarida, ikkilamchi val 6 yetaklovchi konusli shesternya 10 bilan birgalikda yasalgan. Ko'p hollarda shesternya 10 konsolli qotirishga ega, faqat ayrim hollardagina, unga katta radial kuch ta'sir qilganda, ikkilamchi valni uch tayanchlilikka aylantiruvchi qo'shimcha tayanch o'rnatiladi.

Val tayanchi, shesterna 10 ning yaqiniga joylashtiriladi, chunki u UQ va markaziy uzatma tomonidan katta radial kuch qabul qiladi. Bunda markaziy uzatma tomonidan tayanchga o'q bo'yicha yo'nalgan kuch ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida bu tayanchni ko'p hollarda silidrik rolikli podshipnik 9 li qilib yasaladi, u radial yuklamani yaxshi qabul qiladi va o'q bo'yicha yo'nalgan kuchni tutib qoluvchi radial kuchga bardoshli bo'lgan oldingi zoldirli podshipnigi 5 ga o'tkazib yuboradi. Rolikli podshipniklar 9 ning qotirish variantlari yuqorida ko'rib chiqilgan.

Oldingi ushlab qoluvchi zoldirli podshipnik 5 ni val 6 ga qotirilishi gayka 2 bilan amalga oshiriladi. Uning tashqi halqasini qotirilishi yuqorida ko'rib o'tilgandagidek, UQ karterining oldingi devori 4 dagi teshikka yoki oraliq stakani 13 ga amalga oshiriladi.

Konusli shesternyalarni rostlash, val 6 o'q bo'yicha oraliq stakan 13 flanetsi tagidagi podshipnik 5 ni qotiruvchi siquvchi qopqoq 15 orasidagi rostlovchi ustqo'ymalarни almashtirish yo'li bilan siljitis hisobiga amalga oshiriladi.

O'rmatiladigan tayanchda o'q bo'yicha va radial kuchlar kattaroq bo'lgan hollarda sferik ikki qatorlik zoldirli yoki rolikli podshipniklardan foydalaniladi.

Traktorlarning uch valli to'g'ridan to'g'ri uzatmali UQning ayrim tuzilmalarida ikkilamchi valning orqa tayanchiga radial kuchga qarshi baquvvat bo'lgan, bir paytning o'zida ushlab turuvchi vazifasini bajaruvchi zoldirli podshipnik qo'llaniladi. U odatda oraliq stakanga qotiriladi, uning flanetsi tagiga rostlovchi ustqo'ymalar o'rnatiladi.

Olinadigan konusli shesterna 9 o'rmatiladigan (*D* varianti) ikkilamchi valni konusli radial kuchga qarshi podshipniklari 2 va 4 ni o'rnatish ancha murakkab hisoblanadi. Odatda, ikkilamchi valni qotirishning bunday sxemasi asosiy qutisining birlamchi valiga o'qdosh bo'lgan ko'p tarkibli UQ reduktorining yetaklanuvchi vali uchun xarakterli. Bu yerda ikkilamchi val 3 konsolli o'rnatiladigan yetaklanuvchi shesterna 12 bilan birgalikda yasalgan, uning chiqib turgan uchiga (shartli shponkada) gayka 10 bilan ushlab turiladigan yetaklovchi konusli shesterna 9 o'rnatilgan.

Val 3 ning oldingi tayanchi podshipnik 2 ichki halqasi bilan shesterna 12 ga yaqin bo'lgan halqasimon yo'nilmaga o'rnatilgan va oraliq vtulka 11, yetaklanuvchi shesterna gupchaklari komplekti

(ko'rsatilmagan) bilan siqib qo'yilgan. Uning tashqi halqasi karter ichki devori 1 ning teshigiga, teshikning ichki bo'rtlamasiga taqalguncha o'rnatilgan.

Podshipnik 4 tashqi halqasi bilan karterning orqa devori 6 teshigiga o'rmatilgan oraliq stakan 5 ga qotirilgan. Podshipnikning ichki halqasi valga shesternyaning gupchagi chetiga taqalgunga qadar o'rnatiladi va konusli shesternya yetaklanuvchi konusli shesternya bilan ilashishini rostlash uchun ustqo'ymalar komplekti gayka 10 bilan siqib qo'yilgan.

Ustqo'ymalar komplekti 7 konusli podshipniklarni normal ishlashi uchun yetarli bo'lган tirqishga to'g'ri keluvchi o'q bo'yicha yo'nalgan lyuftni rostlash maqsadida qo'llaniladi. Markaziy uzatmaning konusli shesternyalari ilashmasini rostlash ustqo'ymalar 8 ni tanlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shuni aytish kerakki, UQ karteridagi muayyan qotirish ishlari bajarilgandan so'ng, ularni bo'shab ketishini oldini olish maqsadida, ishlatish davrida tekshirishni talab qilmaydigan stopor plastinalar, shplintlar, simlar va boshqa ishonchli vositalardan foydalilaniladi. UQ karteri ichidagi qotirish ishlarida prujinalik shaybalaridan foydalanimaydi.

## 6.6. Pog'onali uzatmalar qutisining tishli g'ildiraklarini hisoblash

Traktorsozlikda asosan pog'onali uzatmalar qutisi qo'llaniladi. Uzatmalar qutisini loyihalash ikkita bosqichdan iborat bo'lishi mumkin:

I. Uzatmalar qutisidagi traktoring zarur tortish kuchi va iqtisodiy ko'rsatkichlarini ta'minlovchi uzatish sonlarini aniqlash;

II. Uzatmalar qutisidagi detallarga ta'sir etuvchi kuchlarni aniqlash va detallarning asosiylarini hisoblash.

Uzatmalar qutisi quyidagi umumlashtirilgan tartibda hisoblanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari inobatga olingan holda va texnikaviy hamda ishlatilish talablari asosida qutining maqbul turi va uning kinematik sxemasi tanlanadi. Pog'onali qutilar uchun maqbul uzatmalar soni oldindan belgilanadi.

Traktoring tortish kuchi hisobi asosida turli uzatmalar uchun traktor transmissiyasining umumiy uzatish soni aniqlanadi.

Traktorning eng kichik va eng katta tezliklari berilgan holda transmissiyaning mos uzatish soni topiladi.

Biroq har bir uzatmaning uzatish sonlarini topib unga aniqlik kiritishda va ularning qiymatlarini yaxlitlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, hozirgi zamon ko‘p pog‘onali uzatmalar qutisidagi uzatish sonlarining qatori va uning tarkibi traktorni ishlatish ko‘rsatkichlariga uncha ta’sir qilmaydi. Chunki uzatish sonlarining qatori o‘zining imkoniyatlari jihatidan pog‘onasiz qutilarning imkoniyatiga yaqin. Shuning uchun traktor transmissiyasidagi har bir uzatmaning uzatish sonini tanlashda birinchi navbatda qishloq xo‘jalik ishlarining samarali bajarilishini ta‘minlaydigan harakat tezliklarini asos qilib olish maqsadga muvofiqdir.

1. Bu maqsadda har bir tezlik uchun transmissiyaning umumiy uzatish soni quyidagi formulalardan aniqlanadi:

g‘ildirakli traktorlar uchun:

$$u_{um} = 0,377 \cdot \eta_{sh} \cdot r_g \cdot \frac{n_m}{v} \quad (6.1)$$

o‘rmalovchi zanjirli traktorlar uchun:

$$u_{um} = 0,06 \cdot \eta_{sh} \cdot t_z z' \frac{n_m}{v} \quad (6.2)$$

bu yerda: 0,377 va 0,06 raqamlar birliklar koeffitsiyenti,  $\eta_{sh}$  – shataksirash koeffitsiyenti (traktor yetakchi g‘ildiragining yoki o‘rmalovchi zanjirning shataksirashini inobatga oluvchi koeffitsiyent);  $r_g$  – yetakchi g‘ildirakning dinamik radiusi;  $t_z$  – o‘rmalovchi zanjir har bir bo‘g‘inining qadami;  $z'$  – yulduzsimon g‘ildirak bir marta aylanganida unda faqat faol ish ko‘rsatuvchi tishlarining soni;  $n_m$  – ichki yonuv motori tirsakli valining aylanish chastotasi;  $v$  – traktorning harakat tezligi.

2. Transmissiyaning umumiy uzatish soni traktor mexanizmlariga maqsadga muvofiq ravishda taqsimlab chiqiladi:

$$u_{um} = u_{uz,q} u_{bu} u_{ou} \quad (6.3)$$

bu yerda:  $u_{uz,q}$ ,  $u_{bu}$  va  $u_{ou}$  – mos ravishda uzatmalar qutisi, bosh uzatma va oxirgi uzatmaning uzatishlar soni. Bosh va oxirgi uzatmalarning uzatishlar sonlari odatda  $u_{bu} = 2\dots 6$ ;  $u_{ou} = 4..7$  oralig‘ida olinadi.

Bosh va oxirgi uzatimalarning uzatish sonlari traktorning gabarit o'chamlariga va agrotexnik oraliqqa bog'liq. Bu uzatimalarning uzatish sonlarini mumkin qadar maqsadga muvofiq ravishda kattaroq qilib olish uzatmalar qutisining kichik va ixcham bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

3. Uzatmalar qutisining uzatishlar soni aniqlanadi:

$$u_{uz,q} = \frac{u_{nm}}{u_{bu} u_{on}} \quad (6.4)$$

Traktorlarining tezliklari, ayniqsa uzatmalar qutisi yordamida olingen tezliklar ishchi, ehtiyyot, pasaytirilgan va transport tezliklariga bo'linadi. Har bir tezlik ko'lamidagi harakat tezligini tanlashda [2, 5, 7] adabiyotlarda keltirilgan ma'lumot va tavsiyalardan foydalanish mumkin.

### Silindrsimon tishli g'ildiraklarni mumtoz usulda hisoblash.

**Tishni egilib sinmaslikka hisoblash.** Odatda g'ildirak tishlari davriy o'zgaruvchan eguvchi kuchlar ta'sirida toliqib sinadi. Tishli g'ildirak tishlarini egilishga hisoblashda Lyus formulasidan foydalaniлади:

$$\sigma_r = \frac{F_r}{b \cdot r_u u^4} \leq [\sigma_h] \quad (6.5)$$

bu yerda  $F_r$  – yetakchi tishli g'ildirakning boshlang'ich aylanasi bo'ylab ilashish qutbiga ta'sir etuvchi aylanma kuch;  $b$  – g'ildirak turining eni;  $r_u$  – ilashish qadami;  $u$  – tish shaklining koeffitsiyenti.

Uning qiymati g'ildirakdagagi tishlarning haqiqiy soniga, tishning balandlik koeffitsiyentiga, ilashish qutbining siljish koeffitsiyentiga va ilashish burchagiga bog'liq bo'lib, maxsus jadvallardan tanlab olinadi. Qiya tishli silindrsimon g'ildiraklar uchun tish shaklining koeffitsiyenti g'ildirakdagagi tishlarning ekvivalent soniga qarab tanlanadi. Qiya tishli silindrsimon g'ildirakdagagi tishlarning ekvivalent soni

$$Z_r = \frac{z}{\cos^3 \beta}$$

bu yerda:  $z$  – qiya tishli g'ildirakdagagi tishlarning haqiqiy soni;  $\beta$  – tish yo'nalish chizig'ining qiyalik burchagi;

G'ildirak materiallari uchun egilishidagi joiz kuchlanish [ $\sigma_e$ ] ning qiymati ishchi uzatmalar (ko'p ishlaydigan uzatmalar) uchun 250 MPa, kam ishlaydigan uzatmalar uchun 400 MPa dan oshmasligi lozim. Egilishdagi joiz kuchlanishlar qiymati materiallarning taxminan 1,5 karrali zaxira bilan ishlashiga mo'ljallab qabul qilingan bo'lib, materialning oquvchanlik chegarasidagi kuchlanishi  $\sigma_{eq}$  ni 1,5 ga bo'lish bilan olingan.

Boshlang'ich aylanma bo'y lab tishning ilashish qutbiga ta'sir etuvchi aylanma kuch quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$F_t = \frac{2M_1}{d_{\omega_1}} = \frac{2M_1}{mz_1} \quad (6.6)$$

bu yerda:  $M_1$  – yetakchi g'ildirakdagi burovchi moment;  $d_{\omega_1}$  – yetakchi g'ildirakning boshlang'ich diametri;  $m$  – ilashish moduli;  $z_1$  – yetakchi g'ildirakdagi tishlar soni.

Tishning qadami  $r_\alpha = \pi m$  va g'ildirak turining eni  $b = \psi_\alpha m$  ma'lum bo'lsa, modulni topishimiz mumkin:

$$m = \sqrt[3]{\frac{2M_1}{\pi \psi_\alpha z_1 [\sigma_e]}} \quad (6.7)$$

bu yerda:  $\psi_\alpha$  – tish uzunligi koeffitsiyenti.

(6.7) formuladan foydalanib, yangidan loyihalanayotgan silindrsimon tishli uzatma modulini aniqlasa bo'ladi. Shuning uchun (6.5) formula tishli g'ildiraklarni tekshirish hisobida, (6.7) formula esa loyihalash hisoblarida ishlatiladi.

**Tishning yeyilishga chidamliligini tekshirish.** Uzatmalar qutisidagi tishli g'ildiraklarning yeyilishi ishlatiladigan moyning tarkibiga, ifloslanishiga, qutidagi moy sathiga, ta'sir etuvchi kuchlarga va boshqalarga bog'liq.

Tishlar ilashmasida hosil bo'ladigan katta zarbiy kuchlarni ilashish muftasiga elastik qismlar (birikmalar) o'rnatib kamaytirish mumkin.

Olib borilgan izlanishlarning ko'rsatishicha, tishning yeyilishi tishlarning ilashish chizig'iga tushgan kuchning miqdoriga bog'liq. Mazkur kuch ma'lum bir mezondan oshsa, u holda tishning ishchi yuzalarida vaqt o'tishi bilan yeyilish sodir bo'ladi. Yeyilish jadalligi materialning qattiqligiga borliq. Tishning uzunligi bo'yicha ta'sir


etuvchi solishtirma kuch quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$q = \frac{F_t}{b} \leq [q] \quad (6.8)$$

Solishtirma kuchning joiz qiymati qattiqligi HRC 56... 63 bo'lgan po'latlar uchun  $[q] = 7,5 \text{ MN/sm}$  dan oshmasligi kerak.

### **Tishlarning uvalanishga chidamliligini hisoblash.**

Moylanadigan qutilarda ilashuvchi tishli g'ildiraklar kuch uzatganda tishlarning urinish yuzalari toliqadi, natijada tishlar uvalanadi. Tish sirtidagi material qatlaming taxminiy uvalanishi 6.18-rasmda ko'rsatilgan.



**6.18-rasm. Tish materialining uvalanish sxemasi**

Tishning ishchi yuzasidan uvalanib ajralib chiqqan zarrachalar o'rniда mayda chuqurliklar hosil bo'ladi. Dastlabki chuqurliklar tish yuzasiga to'g'ri keluvchi solishtirma bosimni oshirib, tishning uvalanishini jadallashtirib yuboradi. Tishning ishchi yuzalaridagi uvalanishni tekshirishda Gers formulasidan foydalilanadi. Bu formulaga asosan ilashma tishlaridagi normal kuchlanish:

$$\sigma_u = 0,418 \sqrt{\frac{F_t K E}{b \cdot d_{\text{sh}}} \cdot \frac{2 \cos \beta_h}{\sin 2\alpha_w} \cdot \frac{k_k}{k_e \cdot \varepsilon_\alpha}} \cdot \frac{u+1}{u} \leq [\sigma_u]$$

bu yerda  $K$  – yuklanish koeffitsiyenti;  $E$  – g'ildirak materiallarining keltirilgan elastiklik moduli;  $\beta_h$  – g'ildirakning asosiy aylanasidan o'tgan tish yo'nalishi chizig'inining qiyalik burchagi;  $\alpha_w$  – g'ildirakning ilashish burchagi ( $\alpha_w = 20^\circ \dots 24^\circ$ );  $K_k$  – ilashish qutbiga ta'sir etuvchi yuklanishning to'planish koeffitsiyenti (qiya tishli g'ildiraklar uchun  $K_k = 1,2$ );  $u$  – uzatmaning uzatish soni (« + » belgisi tashqi ilashmali uzatmalar uchun, « - » belgisi ichki ilashmali uzatmalar uchun qo'llaniladi);  $K_e = 1,6$  bo'lib, tishlar tegish chiziqlari

umumiyligi yig'indisining o'zgarishini ko'rsatuvchi koeffitsiyent  $\varepsilon_a = 0,9$  – ilashgan tishlar yon yuzasining o'zaro qoplanish koeffitsiyenti,  $[\sigma_n]$  – g'ildirak materiallari uchun joiz normal kuchlanish  $[\sigma_n] = 1200...1500$  MPa.

Uzatmalar qutisini loyihalash har bir uzatmaning modulini aniqlashdan boshlanadi. Hisoblanayotgan tishli uzatmaning moduli quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$m = \frac{0,83 \cos \beta_\alpha}{\bar{\gamma}_1} \sqrt{\frac{M_1 K_\kappa \cdot E}{\psi_\alpha} \cdot \frac{u \pm 1}{u} \cdot \frac{\cos \beta_\beta}{\sin 2\alpha_\omega}} \quad (6.9)$$

bu yerda:  $\beta_\alpha$  – g'ildirakning boshlang'ich aylanasidan o'tgan tish yo'nalishi chizig'ining qiyalik burchagi.


#### Silindrsimon tishli g'ildiraklarni NATI usulida hisoblash.

**Tekshirish hisobi.** NATI usuli bo'yicha tishli g'ildirak tishlarining egilishga chidamliligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\sigma_i = \frac{1,5 \cdot F_i}{b \cdot C \cdot m} \quad (6.10)$$

bu yerda:  $F_i$  – aylanma kuch; g'ildirak turining kengligi yoki tishning uzunligi;  $C$  – tish mustahkamligining kompleks parametri;  $m$  – tishli g'ildirakning ilashma moduli.

Amaliy hisob-kitoblarda kompleks parametri  $C$  ni analitik yo'l bilan aniqlash murakkab, shuning uchun uning qiymatini maxsus nomogrammadan (6.19-rasm) topish tavsiya etilgan.



**6.19-rasm. Kompleks parametr  $C$  ni aniqlash va tanlashga oid nomogramma**

(uzluksiz chiziqlar – korreksiyalangan yetakchi g'ildiraklar uchun; nuqtali chiziqlar – korreksiyalanmagan yetaklanuvchi g'ildiraklar uchun; uzlukli

chiziqlar – korreksiyalanmagan yetakchi tishli g’ildiraklar uchun)

Nomogrammada abssissa o’qi chizig’i bo'yicha tishli g’ildiraklarning tishlar soni, ordinata o’qi chizig’i bo'yicha C kompleks parametrning bir millimetrali moduli uchun hisoblangan qiymatlari qo'yilgan. Kompleks parametr S ning sonli qiymati tishning dastlabki konturining siljishiga ilashmadagi tishli g’ildiraklarning uzatish soni  $i$  ga va uzatmaning ilashish burchagi  $\alpha_0$  ga bog’liqdir.

**NATI usuli bo'yicha loyihaviy hisoblash.** Yangi loyihalana-yotgan g’ildirak tishlarining modulini aniqlashda NATI tavsiya etgan quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$m = 1.435 \sqrt{\frac{M_1}{z_1 C \psi [\sigma_e]}} \quad (6.11)$$

bu yerda:  $Z_1$  – yetakchi g’ildirak tishlari soni;  $C$  – mustahkamlikning kompleks parametri ( $C$  koefitsiyent 6.19-rasmida keltirilgan nomogramma yordamida tishning korreksiya qilinganligi yoki qilinmaganligiga, tishli g’ildirak ilashish burchagini qiyomatiga va tishli g’ildirakning yetakchi yoki yetaklanuvchiligidagi qarab tanlanadi);  $\psi$  – g’ildirak turinining eni (yoki g’ildirak tishining uzunligi) ni inobatga oluvchi kenglik koefitsiyenti (uzatmalar qutisidagi g’ildiraklar uchun  $\psi = 5.5 \dots 6.0$ , transmissiyaning oxirgi uzatmalari uchun  $\psi = 9$  qilib qabul qilinadi);  $[\sigma_e]$  - g’ildirak materiallari uchun egilishdagi joiz kuchlanish  $[\sigma_e] = 300 \text{ MPa}$ ). Bu qiyamat materialning toliqish chegarasidagi kuchlanishning 25 foizlik zaxirasiga teng. O’rmalovchi zanjirli traktorlar transmissiyasidagi tishli g’ildiraklar uchun joiz kuchlanishlar  $[\sigma_e] = (190 \dots 225) \text{ MPa}$ , yetakchi tishli g’ildiraklar uchun 190 MPa, yetaklanuvchi tishli g’ildiraklar uchun esa  $[\sigma_e] = 225 \text{ MPa}$  qilib olinadi. Korreksiya qilinmaydigan tishli g’ildirakli uzatmalarda kontakt kuchlanish asosiy bo’lgani uchun uzatmaning mustahkamligi tishning toliqmasligiga bog’liq. Kontakt kuchlanishi ustunlik qilgan korreksiyalanmagan tishli g’ildiraklar moduli quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$m = 30.4 \sqrt{\frac{M_1}{[\sigma_n]^2 \varepsilon^2 \psi \sin 2\alpha_0}} \cdot \frac{u \pm 1}{u} \quad (6.12)$$

Korreksiya qilinadigan va shuningdek kontakt kuchlanish ustunlik qiladigan g’ildiraklar moduli quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$m = 240,0 \sqrt[3]{\frac{M_1}{[\sigma_n] z^2 \psi \sin 2\alpha_w} \frac{u \pm 1}{u}} \quad (6.13)$$

bu yerda:  $[\sigma_n]$  – g'ildirak materiallari uchun joiz kontakt kuchlanish ( $[\sigma_n] = 1200 \text{ MPa}$ );  $\alpha$  – tish qirqish asbobi profili burchagi ( $\alpha = 20^\circ$ )

G. I. Skundinning tavsiyasiga binoan, agar tishlari korreksiya qilinadigan (tish shakliga o'zgartirish kiritiladigan) bo'lsa, u holda tishning moduli uning egilishdagi mustahkamligidan va g'ildirak tishlari korreksiya qilinmaydigan (tish shakli o'zgartirilmaydigan) bo'lsa, u holda uning moduli kontakt kuchlanishdagi mustahkamligidan aniqlanadi. Odatda aniqlangan modulning qiymati davlat standartlarida berilgan modullar bilan taqqoslanib, hisoblangan modulga yaqin bo'lган yoki hisoblangan moduldan bir oz kattaroq bo'lган standart modul qabul qilinadi va uning yordamida tishli uzatmaning barcha geometrik parametrlari hisoblanadi.

Loyihalashdagi hisoblashlar tishni egilishga tekshirish hisoblari bilan yakunlanadi. Agar hisoblash jarayonida  $\sigma_e \leq [\sigma_n]$  shart bajarilsa, u holda hisob to'g'ri bajarilgan bo'ladi, aks holda tishli uzatmaning moduli qaytadan hisoblanib, yuqorida keltirilgan hisob boshidan oxirigacha takrorlanadi.

**Tishli uzatmaning geometrik parametrlarini hisoblash.** Tishli uzatmaning ilashish burchagi  $\alpha_w$  NATI usuli bo'yicha tishlarning soniga qarab quyidagicha tanlanadi. Masalan, yetakchi g'ildirak tishlarining soni  $z_i \geq 15$ ,  $\alpha_w = 24^\circ$  va  $z_i = 12 \dots 14$  bo'lsa,  $\alpha_w = 22^\circ$  qilib olinadi.

Yetakchi g'ildirak tishi kallagining balandligi  $h_{a1}$  shu g'ildirak tishlarining soniga va ilashish burchagi  $\alpha_w$  ga qarab 6.20- a rasmda keltirilgan nomogrammadan aniqlanadi.

Bu nomogramma  $m = 1 \text{ mm}$  li modul uchun berilgan. Modul 1 mm dan katta bo'lganda nomogrammadan topilgan qiymatini haqiqiy modul  $m$  ga ko'paytirish kerak. Masalan  $z_{iN} = 20$  va  $a_{sh} = 24^\circ$  uchun 6.20- a rasmdan  $h_{a1} = 1,5$  ni topamiz. Bunda  $h_{a1}$  ning haqiqiy qiymati  $h_{a1} \cdot m$  ga teng bo'ladi.

Yetaklanuvchi tishli g'ildirak kallagining balandligi

$$h_{a2} = 2m - h_{a1} \quad (6.14)$$

Yetaklanuvchi g'ildirak tishining boshlang'ich aylana doirasidagi qalinligi  $S_{\omega_1}$  6.20- b rasmdagi nomogrammadan aniqlanadi; Masalan:  $z_1=20$  va  $\alpha_{\omega} = 24^\circ$  uchun  $S_{\omega_1} = 2,0$  uning haqiqiy qiymati  $S_{\omega_1} \cdot m$  bo'ladi.

Yetaklanuvchi g'ildirak tishining boshlang'ich aylanasidagi qalinligi yoki vaterning uzunligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_{\omega_1} = m \frac{\pi \cos \alpha}{\cos \alpha_{\omega}} - S_{\omega_1} \quad (6.15)$$

Ilashib turgan tishli g'ildiraklar markazlari orasidagi masofa

$$a_{\omega} = \frac{z_1 + z_2}{2} m \frac{\cos \alpha}{\cos \alpha_{\omega}} \quad (6.16)$$

Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklarning boshlang'ich diametrlari


$$d_{\omega_1} = \frac{m z_1 \cos \alpha}{\cos \alpha_{\omega}} \quad (6.17)$$


$$d_{\omega_2} = (a_{\omega} - 0.5 d_{\omega_1}) \cdot 2$$

Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklar to'g'in eni qutining birinchi uzatmasi uchun

$$b_1 = m \psi; \quad b_2 = b_1 \cdot \frac{C_1}{C_2}; \quad (6.18)$$

bu yerda:  $C_1$  va  $C_2$  – birinchi uzatmani olishda tishlashadigan yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklar tishlarining kompleks parametri ( $C_1$  va  $C_2$  larning qiymatlari 6.19-rasmdagi nomogrammadan aniqlanadi). To'g'inning hisoblangan ikkita enidan eng kattasi uzil-kesil qabul qilinadi.





**6.20-rasm. Tishning parametrlarini aniqlashga oid nomogrammalar:**  
 $a$  – tish kallagining balandligi,  $h_2$ ;  $b$  – tishning qalinligi,  $S$ ;  $c$  – tish tubidagi egriyuzanining egrilik radiusi,  $e$  – tishning to'liq balandligi,  $h$ .

Qutidagi boshqa uzatmalar tishli g'ildiraklarining eni quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$b_i = \frac{b_1 z_i C_1}{C_i z_i} \quad (6.19)$$

bu yerda:  $z_1$  va  $z_2$  – mos ravishda birinchi uzatmadagi yetakchi g'ildirak va hisoblanayotgan uzatmadagi yetakchi g'ildirak tishlari soni. Tish asosining egrilik radiusi  $\rho$ , 6.20- d rasmda keltirilgan nomogrammadan qabul qilinadi. Tishning to'liq balandligi  $h$  6.20- e rasmda tasvirlangan nomogrammadan tanlanadi.

Tishning dastlabki shakli o'zgartirilmagan (tish qirqish asbobi siljtilmagan) uzatmalarning parametri NATIning tavsiyasi bo'yicha quyidagicha hisoblanadi: tishning ilashish burchagi tish qirqish asbobi profilining burchagicha teng qilib olinadi:  $\alpha_{\omega_1} = \alpha = 20^\circ$ . Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklar tishlari kallagining balandligi ularning moduliga teng qilib olinadi:  $h_{\omega_1} = h_{\omega_2} = m$ . Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklar tishlarining boshlang'ich aylana bo'ylab o'lchangan qalinligi bir xil qilib olinib, ular quyidagi formuladan topiladi:

$$S_{\omega_1} = S_{\omega_2} = \frac{\pi m}{2} \quad (6.20)$$

G'ildiraklarning boshqa parametrlari dastlabki shakli o'zgartirilgan tishlarning parametrlari kabi aniqlanadi, buning uchun 6.19- va 6.20-rasmlarda keltirilgan nomogrammalardan foydalaniadi.

### Konussimon tishli g'ildiraklarni hisoblash

Silindrsimon tishli g'ildirak tishlarini hisoblashda qo'llanilgan usul va formulalar konussimon g'ildirak tishlarini hisoblashda ham qo'llaniladi, ulardan foydalanishda konussimon g'ildiraklarning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

**To'g'ri tishli konussimon g'ildiraklarni tekshirish hisobi.** Konussimon uzatmalardagi turli tishli g'ildiraklarning tishlari, xuddi silindrsimon g'ildiraklar tishlari kabi, egilib sinib ketmasligi Lyus formulasi yordamida hisoblanadi.

To'g'ri tishli konussimon g'ildirakning tishi egilishdag'i kuchlanish bo'yicha quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\sigma_e = \frac{F_t}{y_1 \cdot b \cdot p_m} \leq [\sigma_e] \quad (6.21)$$

bu yerda  $F$  – aylanma kuch bo‘lib, bu kuch g‘ildirakning o‘rtalari kesimidan o‘tgan boshlang‘ich aylana bo‘ylab tishga ta’sir etadi;  $y_1$  – tish shaklining koefitsiyenti  $b$ ,  $u$ , ning qiymati ekvivalent yetakchi g‘ildirak tishlarining soniga qarab olinadi;  $p_{tm}$  – g‘ildirakning o‘rtalari kesimidan o‘tgan boshlang‘ich aylana bo‘ylab o‘lchanadigan tishlarning qadami.

Ekvivalent konussimon yetakchi g‘ildirak tishlarining soni

$$z_{\omega 1} = \frac{Z_1}{\cos \delta_1}, \quad (6.22)$$

bu yerda:  $Z_1$  yetakchi konussimon g‘ildirak tishlarining haqiqiy soni;  $\delta_1$  – yetakchi konussimon g‘ildirak boshlang‘ich konus burchagini yarmisi. Uzatmaning uzatish soni

$$u = \frac{Z_2}{Z_1} = \frac{\sin \delta_2}{\sin \delta_1}, \quad (6.23)$$

Vallarning geometrik o‘qlari  $90^\circ$  burchak ostida hosil qilgan hollarda boshlang‘ich konus burchaklari orqali ifodalangan uzatish soni quyidagicha aniqlanadi:

$$u = \operatorname{tg} \delta_2 = \operatorname{tg} \delta_1, \quad (6.24)$$

bu yerda:  $\delta$  – yetaklanuvchi g‘ildirakning boshlang‘ich konus burchagi.

G‘ildirak tishining o‘rtalari kesimidagi moduli yoki o‘rtalari (boshlang‘ich) diametr bo‘ylab aniqlanadigan moduli

$$m_{tm} = \frac{d_{\omega m}}{Z_1} \quad (6.25)$$

bu yerda:  $d_{\omega m}$  – yetaklovchi g‘ildirak o‘rtalari kesimidagi boshlang‘ich aylana diametri.

Tishning o‘rtalari kesimi bo‘yicha qadami  $p_{tm} = \pi \cdot t_{tm}$ . Tishning boshlang‘ich aylanasida sirtqi (keng) tomonidan aniqlangan moduli  $t_e$  bilan o‘rtalari kesimidagi tishning modulli  $t_{tm}$  orasidagi bog‘lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$m_{tm} = m_e - \frac{b \cdot \sin \delta_1}{Z_1} \quad (6.26)$$

Konussimon tishli g‘ildiraklarning materiallari uchun egilishdagagi joiz kuchlanish  $[\sigma_e] = 400...450$  MPa.

**Loyihalash hisobi.** Konussimon tishli g‘ildiraklarni loyihalashda odatdagidek ularning modulini aniqlashdan boshlanadi. Tishning o‘rtalari

kesimidagi moduli:

$$m_{lm} = 1,7 \sqrt{\frac{M_1}{z_1 \cdot y_1 \cdot [\sigma_e] \cdot \sqrt{Z_1^2 + Z_2^2}}} \quad (6.27)$$

bu yerda:  $M_1$  – yetakchi g'ildirak validagi burovchi moment, N·mm.  $[\sigma_e]$  – g'ildirak materiallari uchun egilishdagi joiz kuchlanish.

Odatda  $t_{te}$  ning topilgan qiymatidan foydalananib tashqi konusdagi modul  $t_{te}$  hisoblanadi va uning qiymati eng yaqin standart qiymatga tenglashtiriladi.

Standartlashtirilgan  $t_{te}$  modul tanlangach, uning qiymatlari asosida uzatmaning qolgan barcha geometrik o'lchamlari aniqlanadi. Loyihalash hisobining to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligi tekshirish hisobida aniqlanadi. Hisoblanayotgan uzatmaning mustahkamlik sharti quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_e = \frac{F_r}{y_1 \cdot b \cdot p_{lm}} \leq [\sigma_e] \quad (6.28)$$

**Doirasimon konussimon tishli g'ildiraklarni hisoblash.** Doirasimon konussimon tishli g'ildiraklarni hisoblash usuli soha standartlarida keltirilgan. Doirasimon tishning egilishidagi kuchlanish quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sigma_e = \frac{3000 \cdot M_1}{z_1 \cdot m_e^2 \cdot b \cdot C' \cdot A}, \quad (6.29)$$

bu yerda  $C'$  – ekvivalent silindrik g'ildirak tishlarining soniga qarab olinadigan kompleks parametr ( $C'$  ning qiymatini aniqlash usuli soha standartlarida keltirilgan);  $A$  – tishning ko'ndalang kesimining uzunlik bo'yicha o'zgarishini e'tiborga oluvchi koefitsiyent;  $A$  koefitsiyent quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$A = 1 - \frac{b}{R_r} + \frac{1}{3} \left( \frac{b}{R_r} \right)^2 \quad (6.30)$$

bu yerda:  $R_r$  – tashqi konus masofa.

**Loyihalash hisobi.** Doirasimon tishli konussimon g'ildirakning tashqi (orqa) kesimidagi boshlang'ich moduli:

$$m_{lm} \geq 2,2 \sqrt{\frac{M_1}{c' \cdot z_1 \cdot \sqrt{z_1^2 + z_2^2}}}, \quad \text{bunda } \beta_m \leq 18^\circ;$$

$$m_{m_0} \leq 2,2 \sqrt{\frac{M_i}{c' \cdot z_1 \cdot \sqrt{z_1^2 + z_2^2}}}, \quad \text{bunda } \beta_m \geq 18^\circ;$$


bu yerda:  $z_1$  va  $z_2$  yetakchi va yetaklanuvchi konussimon g'ildiraklar tishlarining soni;  $\beta_m$  – tish yo'nalish chizig'ining o'rtacha qiyalik burchagi. Mavjud transmissiyalardagi doirasimon tishli g'ildiraklarda  $\beta_m=0^\circ \dots 21^\circ$ .

Traktorsozlik amaliyotida tish yo'nalish chizig'ining o'rtacha qiyalik burchagi nolga teng ( $\beta_m = 0$ ) bo'lgan konussimon tishli g'ildiraklar ko'proq qo'llanilmoqda. Bunday g'ildiraklarning konussimon chambaragidagi doirasimon tishlar aylanma harakat qiluvchi frezalar yordamida qirqiladi. Doirasimon tishlar g'ildirakning o'rta kesimidan o'tgan boshlang'ich aylana diametriga urinma qilib o'tkaziladi (6.21-rasm). Konus yasovchisi bilan tishning yo'nalish chizig'i orasidagi burchak doimo nolga teng bo'ladi.

Konussimon g'ildirak doirasimon tishining egilishga bo'lgan mustahkamligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\sigma_e = \frac{1,5 \cdot F_i}{m_e \cdot b \cdot C' \cdot A}, \quad (6.31)$$

bu yerda:  $F_i$  – aylantiruvchi kuch;  $b$  – g'ildirak kengligi;  $m_e$  – g'ildirak orqa (yon) kesimi moduli;  $C'$  – mustahkamlikning kompleks parametri.



**6.21-rasm. Spiralning ko'tarilish burchagi  $\beta = 0$  bo'lgan doirasimon tishning konussimon g'ildiraklar to'g'inda joylashish sxemasi**

Bu formulada doirasimon tishli konussimon g'ildiraklar uchun  $\frac{b}{R_e} = 0,25$ . Bu qiymatni yuqoridagi formulaga qo'ysak,  $A = 0,77$  bo'ldi. A ning qiymatini ushbu formulaga qo'ysak,

$$\sigma_e = \frac{1,5 \cdot F_t}{0,77 \cdot b \cdot m_{te} C'}, \quad (6.32)$$

bu yerda:  $F_t$  – aylantiruvchi kuch;  $F_t = \frac{2 \cdot M_1}{z_1 \cdot m_{te} \cdot C'}$ ;

$$b = 0,25 \cdot R_e = 0,125 \cdot m_{te} \sqrt{z_1^2 + z_2^2}.$$

Shunday qilib yuqorida keltirilgan aylantiruvchi kuch  $F_t$  ning va g'ildirak chambaragi kengligi  $b$  ning hisoblangan qiymatlarini (6.32) formulaga qo'yib soddalashtirsak, o'rtacha qiyalik burchagi 0 ga teng bo'lgan doirasimon tishli konussimon g'ildiraklarni tekshirish formulasini hosil qilamiz. Tekshirish hisobida tishlarning mustahkamlit sharti quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_e = \frac{31,17 M_1}{m_{te}^3 \cdot C' \cdot z_1 \cdot \sqrt{Z_1^2 + Z_2^2}} \leq [\sigma_e] \quad (6.33)$$

(6.33) formuladagi  $\sigma_e$  ni  $[\sigma_e]$  bilan almashtirib, konussimon g'ildirak orqa kesimidagi doira tishning boshlang'ich aylanasida joylashgan  $t_{te}$  modulini aniqlaymiz:

$$m_{te} = \sqrt[3]{\frac{31,17 M_1}{C' \cdot [\sigma_e] \cdot z_1 \cdot \sqrt{Z_1^2 + Z_2^2}}} \leq [\sigma_e] \quad (6.34)$$

$\beta_m = 0$  bo‘lgan konussimon tishli g‘ildiraklar uchun  
kompleks parametr  $C'$  ning qiymatlari

tishlar soni	$C'$ ning qiymati		tishlar soni	$C'$ ning qiymati	
	yetakchi g‘ildirak	yetaklanuvchi g‘ildirak		yetakchi g‘ildirak	yetaklanuvchi g‘ildirak
11	0,58	0,53	19	0,63	0,63
12	0,58	0,55	20	0,64	0,64
13	0,59	0,59	21	0,64	0,65
14	0,60	0,60	22	0,64	0,65
15	0,61	0,61	23	0,64	0,64
16	0,61	0,61	24	0,64	0,64
17	0,625	0,625	25	0,64	0,64
18	0,625	0,625	-	-	-

Egilishdagi joiz kuchlanishlarning o‘rtacha qiymati  $[\sigma_e] = 250$  MPa. Bu holda

$$m_h = 0,5 \sqrt[3]{\frac{M_1}{c' \cdot z_1 \cdot \sqrt{Z_1^2 + Z_2^2}}} \quad (6.35)$$

bu yerda:  $M_1$  – burovchi moment, N·mm;  $\beta_m = 0$  uchun kompleks parametr  $C'$  ning qiymati 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan tanlanishi mumkin.

## 6.7. Vallarni hisoblash

Uzatmalar qutisidagi valga ta’sir qiluvchi momentni motoring momenti  $M_d$  yoki yurish qismining tuproq bilan ilashish momenti  $M_\varphi$  orqali aniqlash mumkin. Motoring momenti bo‘yicha hisobiy moment:

$$M_{dx} = M_d \cdot u_I, \text{ N·m},$$

bu yerda:  $M_d$  – motor validagi nominal moment, N·m;  $u_I$  – motor vali bilan hisoblanishi kerak bo‘lgan val orasidagi uzatishlar soni.

Uzatmalar qutisidagi istalgan valda traktor yetakchi g‘ildiragining tuproq bilan ilashishi natijasida hosil bo‘ladigan hisobiy moment

$$M_{\varphi x} = M_{\varphi} / u_2, \text{ N}\cdot\text{m},$$

bu yerda:  $M_{\varphi}$  – traktor harakatlantirgichining tuproq bilan ilashish momenti, g'ildirakli traktorlar uchun  $M_{\varphi} = 2 \cdot R_o \cdot \varphi \cdot r_g$ , o'rmalovchi zanjirli traktorlar uchun  $M_{\varphi} = G \cdot \varphi \cdot r_{vn}$ ;  $P_o$  – shinali g'ildirakning yuk ko'tarish kuchi, N;  $G$  – o'rmalovchi zanjirli traktorning to'liq vazni, N;  $r_g$  – shinali g'ildirakning dinamik radiusi, m;  $r_{vn}$  – o'rmalovchi zanjirli traktor yetakchi yulduzchasingin radiusi, m;  $\varphi$  – traktor harakatlantirgichining tuproq bilan ilashish koeffitsiyenti;  $u_2$  – hisoblanishi kerak bo'lgan val bilan yetakchi g'ildirak yarim o'qi oralig'ida joylashgan tishli uzatmalarning uzatish soni.

Shunday qilib, hisobiy  $M_{nx}$  va  $M_{\varphi}$  momentlarni taqqoslab traktorsozlikda amal qilinayotgan qoidalarga muvofiq ularning eng kichigini hisobiy moment deb qabul qilamiz.

Valning qanday moment bilan yuklanishiga ko'ra, uni uchta bosqichda hisoblash mumkin. 1- bosqichda valning mustahkamligi, 2- bosqichda bikirligi va niyoyat 3- bosqichda uning ko'pga chidamliligi hisoblanadi.

**1. Valning mustahkamligini hisoblash.** Valga vertikal va gorizontal tekisliklarda ta'sir etuvchi kuchlarning eguvchi momentlari va bu momentlarning teng ta'sir etuvchisi aniqlanadi. Faraz qilaylik, valga  $F_t$  va  $F_r$  kuchlari tayanch nuqtadan  $a$  masofada ta'sir etayotgan bo'lzin. U holda valda  $F_t$  va  $F_r$  kuchlardan hosil bo'lgan eguvchi momentlar  $M_t = F_t \cdot a$  va  $M_{rh} = F_r \cdot a$  ularning teng ta'sir etuvchisi esa  $M_t = \sqrt{M_t^2 + M_{rh}^2}$  bo'ladi. Valga nafaqat eguvchi momentlar balki burovchi hisobiy moment  $M_{xb}$  ham ta'sir etadi. Odatda valni eguvchi va burovchi momentlardan valga umumiy ta'sir etuvchi moment, ya'ni keltirilgan (ekvivalent) moment aniqlanadi.

Uzatmalar qutisidagi uzatmalar ishga solinganda valdag'i keltirilgan momentlarning qiymati qo'shilgan uzatmaga qarab turlicha bo'ladi. Shuning uchun ham valni hisoblashda har bir uzatma uchun ekvivalent moment alohida topiladi. Valni hisoblashda aniqlangan keltirilgan momentlarning eng kattasi qabul qilinadi.

Aniqlangan hisobiy keltirilgan momentdan foydalanib valning eglilshdag'i mustahkamligi aniqlanadi. Valning egilishdag'i kuchlanishi bo'yicha mustahkamlik sharti quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_e = \frac{M_{\kappa\kappa}}{0,1 \cdot d^3} \leq [\sigma_e]$$

bu yerda  $d$  – valning xavfli yoki ko'ndalang kesimidagi diametri, mm.

Mavjud traktorlar uzatmalar qutisi tuzilmasidagi vallar uchun materiallarning egilishdagi joiz kuchlanishi  $[\sigma_e] = (50...70)$  MPa ( $N/mm$ ). Bu qiymat materialning oquvchanlik chegarasidagi kuchlanishdan  $4...8$  karra ortiq mustahkamlik zaxirasi bilan olinganligini bildiradi. Demak, valning xavfsiz ishlashi uchun materialning joiz kuchlanishi  $4...8$  mustahkamlik zaxirasi bilan olingan.

**2. Valning bikirligini hisoblash.** Traktorsozlikda o'q va vallar bikirligini hamda chidamliliginu tekshirish hisobini osonlashtirish maqsadida tarmoq standartlari ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

Vallarning burchakli va uzunlik deformatsiyalarini (elastik zo'riqishini) aniqlashga oid formulalar 2-jadvalda keltirilgan.

Zoldirli podshipniklarga o'rnatilgan vallar buralish burchagining chekka qiymati ichki diametri  $30$  dan  $90$  mm gacha bo'lgan podshipniklarning yengil seriyalilari uchun  $\theta_{max} = 0,1^\circ...0,2^\circ$ , o'rtacha seriyalilari uchun  $\theta_{max} = 0,15^\circ...0,25^\circ$  va og'ir seriyalilari uchun  $\theta_{max} = 0,17^\circ...0,3^\circ$ .

Silindrsimon qisqa rolikli podshipniklarga o'rnatilgan vallar buralish burchagining chekka qiymati (valning aylanish chastotasi  $100...600$   $min^{-1}$  bo'lganda)  $\theta_{max} = 0,4^\circ...0,1^\circ$ , uzun rolikli podshipniklarga o'rnatilgan vallar esa  $\theta_{max} = 0,3^\circ...0,15^\circ$ .

Valning tishli g'ildirak ostidagi umumiy buralish burchagining chekka qiymati, g'ildirak eni  $b$  ning moduli  $m$  ga nisbati  $5...10$  va tish mustahkamligining kompleks parametri  $C = 0,35...0,5$  bo'lganda  $\theta_{\Sigma max} = 0,5^\circ...0,7^\circ$ . Valning hisoblangan umumiy buralish burchagi  $\theta_x$  uning bu joiz chekka qiymati  $\theta_{\Sigma max}$  dan kichik, ya'ni  $\theta_x < \theta_{\Sigma max}$  bo'lishi kerak.

Valning tishli g'ildirak ostidagi nisbiy egilishi (salqiligi)ning chekka qiymati  $f_o$  tish kallagining balandligi  $h_o$  ning moduli  $m$  ga nisbati bilan aniqlanadi;  $h_o/m = 1,0...1,55$  bo'lganda valning nisbiy egilishi  $f_o = 0,38...0,47$ . Valning buralish burchagi va nisbiy salqiligi

odatda uning o'qdan o'tgan gorizontal va vertikal tekisliklarda aniqlanadi. Valning umumiy buralish burchagi shu valning gorizontal va vertikal tekislikdagi buralish burchaklarining yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$\theta_{\Sigma} = \sqrt{\theta_g^2 + \theta_v^2}$$



Valning umumiy nisbiy egilishi (salqiligi) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$f_{\Sigma} = \sqrt{f_g^2 + f_v^2}$$

bu yerda  $\theta_g$ ,  $\theta_v$ , va  $f_g$ ,  $f_v$  – mos ravishda valning gorizontal va vertikal tekisliklarda buralish burchaklari hamda nisbiy salqiliklari.

### 6.2- jadval

Ikki tayanchli vallar o'qining buralish burchagi  $\theta$  va nisbiy egilishi  $f$  ni aniqlash formulalari

Aniqlana digan ko'rsatkichlar	Valning yuklanish ta'siri	
		
$\theta_a$	$\frac{F_t(l+h)}{6El}$	$\frac{F'_t cl}{6El}$
$\theta_v$	$\frac{F_t h(l+a)}{6El}$	$\frac{F'_t cl}{3El}$
$\theta_k$	-	$\frac{F'_t c(2l+3c)}{6El}$
$\theta_d$	$\frac{F_t h(l^2 - h^2 - 3d^2)}{6El}$	$\frac{F'_t c(3d-l^2)}{6El}$
$\theta_e$	$\frac{F_t a(l^2 - a^2 - 3e^2)}{6El}$	-
$\theta_f$	$\frac{F_t ha(h-a)}{3El}$	-
$F_d$	$\frac{F_t hd(l^2 - h^2 - d^2)}{6El}$	$\frac{F'_t cd(l^2 - d^2)}{6El}$
$F_e$	$\frac{F_t ae(l^2 - d^2 - e^2)}{6El}$	-
$F_f$	$\frac{F_t a^2 h^2}{3El}$	-

**3. Valning chidamliligin hisoblash.** Valning chidamliligin hisoblashda shu valga ta'sir etayotgan momentlardan tashqari uning xavfli kesimlarida kuchlanishlarning konsentratsiyasi, geometrik o'lchamlari va sirt tozaligining kuchlanishlar qiyamatiga ta'siri ham inobatga olinadi.

Vallarni hisoblashning oxirgi bosqichida valning chidamliligi yoki valning xavfli kesimida ehtiyyot koeffitsiyenti aniqlanadi.

O'q va vallarni chidamlilikka hisoblash formulalari 6.3-jadvalda keltirilgan.

6.3- jadval

### O'q va vallarni chidamlilikka hisoblash formulalari

Aniqlanadigan Ko'rsatkichlar		Formulalar	Belgilashlar
Kuchlanishlar	Egilishda	$\sigma_{\infty} = \frac{M_{eg}}{W_{eg}}$	$M_{eg}$ – nominal eguvchi moment (motor momenti bo'yicha olinadi) $W_{eg}$ – egilishga qarshilik momenti
	Buralishda	$\tau_{\infty} = \frac{M_b}{W_b}$	$M_b$ – nominal burovchi moment (motor momenti bo'yicha olinadi) $W_b$ – buralishga qarshilik momenti
Kuchlanishning umumiy effektiv to'planish koeffitsiyenti	Egilishda	$K_{\sigma D} = \frac{K_{\sigma} + K_n^{\sigma} - 1}{\varepsilon_{\sigma}}$	$K_{\sigma}$ ( $k_{\sigma}$ ) – kuchlanishlarning effektiv to'planish koeffitsiyenti (ma'lumotnomalardan olinadi)
	Buralishda	$K_{\tau D} = \frac{K_{\tau} + K_n^{\tau} - 1}{\varepsilon_{\tau}}$	$K_n^{\sigma}$ ( $k_n^{\tau}$ ) – kuchlanishlarning effektiv to'planish koeffitsiyenti (ma'lumotnomalardan olinadi)
Hisoblanayotgan kesimdagи chidamlilik chegarasi	Egilishda	$(\sigma_{-1})_D = \frac{\sigma_{-1}}{K_{\sigma D}}$	$\sigma_{-1}$ $\tau_{-1}$ – egilish (buralish)ga chidamlilik chegarasi
	Buralishda	$(\tau_{-1})_D = \frac{\tau_{-1}}{K_{\tau D}}$	
Valning ekvivalent zaxirasi	Egilishda	$h_{\sigma} = \left( \frac{M_{n1}}{M_{\sigma, max}} \right)^m \frac{h_1 u_m}{u_1} + \left( \frac{M_{n2} i}{M_{\sigma, max}} \right)^m \times \frac{h_2 u_m}{u_2}$	$M_{eg,1} \dots M_{eg,i}$ ( $m_{\sigma1} \dots m_{\sigma1} - 1$ - va i- uzatma ishga solingandagi eguvchi momentlar $h_1 \dots h_i - 1$ - va i- uzatmalar ishga solinganda vallarning ishlash soati); $u_m$ - eng katta eguvchi moment hosil

			qiluvchi uzatmalar soni;
	Buralishda	$h_{ca} = \left( \frac{M_{\max}}{M_{\min}} \right)^{\alpha} \frac{h_i u_m}{u_i} + \left( \frac{M_{\min} i}{M_{\max}} \right)^{\alpha} \times \frac{h_i u_m}{u_i}$	$M_{\max}$ – hisoblanayotgan val kesimidagi eng katta burovchi moment; $M$ – materialning chidamlilik xususiyati ko'rsatkichi (materialning turiga va sirtning sifatiga qarab $m=6\dots20$ oraliqda olinadi);
Hisoblanayotgan val kesimida mustahkamlik ning zaxira koeffitsiyenti	Egilishda	$n_e = \frac{(a \sigma_1)_p}{\sigma_a \sqrt{\frac{n_s h_{e,m}}{u_m} (g - \frac{b(\sigma_1)}{\sigma_a})}}$	$n_e$ – motor valining nominal aylanish chastotasi; $a, b, g$ – valda sodir bo'layotgan deformatsiya turiga bog'liq bo'lgan koeffitsiyentlar; $m = 3\dots14$ da; $a = 0,01\dots0,58$ ; $b=0,25\dots0,26$
	Buralishda	$n_e = \frac{(\bar{t}_{-1})_p}{a_m \sqrt{\frac{n_s h_{e,m}}{u_m} (g - \frac{b(\bar{t}_{-1})}{\bar{t}_e})}}$	$G = 0,5$
Val kesimida chidamlilik zaxira koeffitsiyenti		$n = \frac{n_\sigma \cdot n_t}{\sqrt{n_\sigma^2 + n_t^2}} \approx 1,4\dots1$	

Vallar tuzilishiga qarab turli materiallardan tayyorlanadi. Agar val tishli g'ildirak bilan birga bir butun (yaxlit) yasalsa, u holda legirlangan po'latlar 45X, 18ХГТ, 12H3A, 20X ishlatalidi; agar val tishli g'ildiraksiz o'zi alohida detal sifatida yasalsa, u holda uglerodli po'latlar 40, 45, 50 dan foydalaniladi. Ishlatiladigan po'latlar davlat va soha standartlarida ko'rsatiladi.

Vallarning shlitsali va shponkali birikmalari ezilish kuchlanishiga, tekshirish hisobida esa qirqlishga hisoblanadi. Valdag'i shlitsalarning ishchi yuzalariga termik ishlov berilgandan so'ng, ularning qattiqligi HRC(56...60) atrofida bo'lishi kerak.

Agar tishli g'ildiraklar vallarga qo'zg'almas qilib o'rnatilgan bo'lsa, u holda bu birikma materiallari uchun joiz kuchlanish  $[\sigma_{ez}] = (50...100)$  MPa, agar tishli g'ildiraklar valga qo'zg'aluvchan qilib o'rnatilgan bo'lsa, u holda qo'zg'aluvchan birikma materiallari uchun joiz kuchlanish  $[\sigma_{ez}] = 30$  MPa bo'lishi kerak.

### **Uzatmalar qutisidagi vallarning podshipniklari**

Traktor transmissiyasida vallarning tayanchlari sifatida asosan dumalash podshipniklar ishlataladi. Agar vallar uncha og'ir bo'lmasa sharoitda ishlasa yoki val tayanchidagi qarshilik uncha katta ahamiyatga ega bo'lmasa, u holda sirpanish podshipniklar ishlataladi. Sirpanish podshipniklari uzatmalar qutisida traktorning orqaga yurishini ta'minlovchi vallarga va doimiy ilashgan yetaklovchi g'ildirak gupchagiga o'rnatiladi. Podshipniklar dumalovchi vositaning shakliga qarab zoldirli va rolikli bo'ladi.

Dumalash podshipniklarni hisoblash usuli ishqalanuvchi yuzalarning uvalanishga chidamliligini hamda dinamik yuk ko'taruvchanligini aniqlashga asoslangan.

Umuman olganda, amalda transmissiyani loyihalashda dumalash podshipniklari hisoblanmaydi, balki tayanchga ta'sir etuvchi kuch va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda jadvallardan tanlanadi.

Podshipniklar dinamik yuk ko'taruvchanlik koeffitsiyenti bo'yicha quyidagi tartibda tanlanadi:

1. Uzatmalar qutisining barcha uzatmalari uchun vallarning tayanchlaridagi reaksiya kuchlari aniqlanadi.

2. Qutining tuzilishiga va vallarning yuklanganlik darajasiga qarab podshipniklarning o'lchamlari va turi aniqlanadi.

3. Qutining barcha uzatmalarida vallardagi har bir podshipnikka to'g'ri keladigan ekvivalent kuchning qiymati hisoblanadi.

4. Transmissiyaning har bir uzatmasi necha soat ishlashini oldindan belgilagan holda (ma'lumotnomalarda transmissiyaning umumiyligi ishlash muddati 8000...10000 soat va traktorning yurish qismining umumiyligi ishlash muddati 6000...8000 soat deb belgilangan) podshipniklarning umumiyligi ishlash muddatida har bir uzatmada ishlash ulushi  $L_h$  % aniqlanadi. Bunda traktorning faqat oldinga yurishdagi ish uzatmalari e'tiborga olinadi (6.4-jadval).

## 6.4-jadval

Traktorlar	Uzatmalar qutisidagi pog'onalari soni	Uzatmalar				
		I	II	III	IV	V
O'rmalovchi zanjirli	3	25	65	10	-	-
	4	20	40	30	10	-
	5	15	30	30	15	10
G'ildirakli	3	15	70	15	-	-
	4	10	30	45	15	-
	5	10	30	30	20	10

5. Motor valining nominal aylanish chastotasi  $n_n$  dan foydalanib har bir uzatmada valning aylanish chastotasi  $n_i$  aniqlanadi:

$$n_i = n_n / u$$

bu yerda:  $i$  – motorning vali bilan hisoblanayotgan val orasida joylashgan mexanizmlarning umumiy uzatishlar soni.

6. Traktorning butun ishslash muddatida valning har bir uzatmasida aylanishlar soni  $L_i$  (million aylanish) hisoblanadi:

$$L_i = \frac{60 \cdot n_i \cdot L \cdot h \cdot i}{10}$$

7. Podshipnikning mln. aylanish bilan ifodalangan umumiy ishslash muddati barcha uzatmalar uchun hisoblanadi:

$$L = \sum L_i;$$

8. Podshipnikning ish tartibini aniqlovchi koeffitsiyent hisoblanadi

$$K_p = \sqrt{\sum \left( \frac{P_i}{P_k} \right)^2 \cdot \frac{L_i}{L}}$$

bu yerda:  $P_i$  – I uzatmani ishga solganda podshipnikka ta'sir etuvchi ekvivalent dinamik kuch.

9. Podshipnikka ta'sir etuvchi keltirilgan ekvivalent dinamik kuch topiladi.

$$P_{kel} = P_i K_p.$$

10. Valning oldindan belgilangan parametrlariga hamda qabul qilingan podshipnikning ishslash muddati  $L$  ga qarab ma'lumotnomada  $c/p$  nisbat topiladi (bu yerda  $c$  – qabul qilingan podshipnikning yuk

ko'taruvchanligi).

11. Podshipnikning kerakli dinamik yuk ko'taruvchanligi aniqlanadi.

$$S = R_{kr} \cdot \left( \frac{s}{r} \right)$$

12. Katalogda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib dastlabki tanlangan podshipnikning maqbulligi tekshiriladi. Bunda podshipnikning hisobiy yuk ko'taruvchanligi xuddi shu podshipnik uchun katalogda keltirilgan yuk ko'taruvchanlikka teng yoki undan kamroq bo'lishi lozim. Podshipnikka to'g'ri keluvchi ekvivalent yuk (kuch) quyidagi yo'l bilan aniqlanadi. Radial zoldirli va radial tirkalma podshipniklar uchun

$$P_r = (xvF_r + yF_a)K_x K_r, \text{ bunda } \frac{F_a}{F_r} \langle e;$$

$$P_r = F_r K_x K_r, \text{ bunda } \frac{F_a}{F_r} \langle e; \quad (6.36)$$

bu yerda:  $x, v$  – radius (radial) va o'q bo'yicha yo'nalgan kuchlar koeffitsiyenti;  $v, K_x, K_r$  podshipnik halqasining aylanishini, xavfsizligini va haroratni e'tiborga oluvchi koeffitsiyentlar;  $F_r$  – hisobiy radial kuch (yuk),  $F_a$  – radial kuchning o'q bo'yicha yo'nalgan tarkibiy qismi;  $e$  – o'q bo'yicha yuklanish parametri.

$x, y, e, v, K_r$  koeffitsiyentlarning qiymatlari podshipniklar katalogida keltirilgan ( $K_r = 1,3\dots1,5$ ).

Zoldirli radial podshipniklarga o'q bo'ylab yo'nalgan yuk ta'sir etmasa, u holda ekvivalent kuchning qiymati (6.36) ifodadan aniqlanadi.

Teguvchi yuzasi  $90^\circ$  burchakka og'gan radial va radial tiralma podshipniklarga o'q bo'ylab yuk ta'sir etganda, ulardagি ekvivalent yuk quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Valning tuzilishiga qarab podshipnikning turi va o'lchamlari tanlanadi hamda tanlangan podshipnik uchun katalogdan uning statik yuk ko'taruvchanligi C aniqlanadi.

2. Ma'lumotnomadan C/P nisbat aniqlanadi va katalogdan o'q bo'ylab yuklanish parametri e ning taxminiy qiymati topiladi.

3. O'q bo'ylab yuklanish parametri e asosida radial kuchning o'q bo'ylab yo'nalgan tashkil etuvchisi  $C=eF_r$  va podshipnikka o'q bo'ylab ta'sir etuvchi kuch  $F_a$  aniqlanadi. Buning uchun har bir

valdag'i podshipnikka ta'sir etuvchi tashqi  $F_x$  va  $C$  kuchlarning algebraik yig'indisi topiladi. Bunda podshipnikni bosuvchi kuch musbat, podshipnikning yuklanishini yengillatuvchi kuch esa manfiy deb olinadi. Agar topilgan kuchlar yig'indisi musbat bo'lsa, u holda yuklar bo'ylab ta'sir etuvchi hisobiy kuch bir juft podshipnikka ta'sir etuvchi tashqi  $F_x$  va  $C$  kuchlarning algebraik yig'indisiga teng bo'ladi.

Agar topilgan kuchlar manfiy bo'lsa, u holda o'q bo'ylab yo'nalgan hisobiy kuch radial kuch  $F_a$  ning o'q bo'ylab ta'sir etgan tashkil etuvchisi 5 ga tengdir.

Faraz qilaylik, qaralayotgan val podshipniklarining biriga o'q bo'ylab ta'sir etuvchi kuchlarning algebraik yig'indisi  $F_x + C_1 - C_2 > 0$  bo'lsin (bu yerda  $C_1$  va  $C_2$  har bir podshipnikka ta'sir etuvchi radial kuchning o'q bo'ylab ta'sir etuvchi ulushi). U holda podshipnikka ta'sir etuvchi hisobiy kuch  $F_a = F_x + C_1$  bo'ladi.

## 6.8. Planetar uzatmalar qutisi

Planetar uzatma deb, markaziy o'q atrofida aylanadigan shesternyalar (satellitlar)dan hech bo'lmasa birortasining o'qi bo'lgan shesternyalik mexanizmga aytildi. Bunday uzatmaning tashkiliy elementi bo'lib, turli diametrli ikki o'qdosh markaziy shesternyadan, ular bilan doimo ilashmada bo'lgan satellitlardan va markaziy o'q bilan o'qdosh aylanadigan satellit o'qlarini ushlab turuvchi vodilidan iborat bo'lgan planetar qator hisoblanadi. Markaziy shesternyaning turiga bog'liq holda, planetar qator ilashmalari ichki, tashqi va aralash bo'ladi. Tashqi ilashmalik markaziy shesternyani quyosh, ichki ilashmalik shesternyani esa epitsikl deb ataladi. Aralash ilashmali planetar qatorlar ko'proq qo'llaniladi, ular yordamida katta uzatishlar soniga ega bo'lgan uzatma olish mumkin.

Planetar qator burovchi momentni o'zgartirib uzatishi uchun, uning uch asosiy elementlari (shesternyalar)dan bittasini, satellitlardan tashqarisini yoki vodiloni tormozlash, qolganlaridan bittasiga energiya berish, qolganidan esa energiya olish kerak. Bunda qatorning joylashishiga qarab, tezlashtiruvchi yoki pasaytiruvchi uzatmani va chiqish valining turli tomonga aylanishini olish mumkin. Agar planetar qatorning istalgan ikki elementi o'zaro blokirovka qilingan bo'lsa, u uzatishlar soni birga teng bo'lgan reduktor sifatida ishlaydi.

Qatorlarning kerakli aralashmasini tanlab, murakkab sxemali kerakli uzatmalarga ega bo'lgan planetar uzatmalar qutisi (PUQ) hosil qilinadi. PUQ to'xtatuvchi tasmali ko'p disklik friksion tormozlar va gidravlik siquvchi ko'p disklik blokirovka muftalari bilan boshqariladi. Uzatmalarni almashtirish ko'p hollarda traktorni to'xtatmasdan amalga oshiriladi, bu ko'rsatib o'tilgandek qator hollarda unga ilashish muftasini qo'llashni istisno qiladi. PUQni bunga o'xshash tizimi boshqarishni nisbatan osonroq avtomatlashtirish imkonini beradi. Ammo muayyan uzatmani olish uchun bu mexanizm faqat bir erkinlik darajasiga ega bo'lishi lozim. Qolganlarning barchasi tormozlar va blokirovka muftalari kiritilib alohida bog'lanishlar hosil qilish yo'li bilan bartaraf etiladi.


Istalgan PUQning erkinlik darajalarining soni, tanlangan uzatmani ulash uchun zarur bo'lgan bog'lanishlar soniga bir qo'shilganiga teng. PUQning tavsifiy belgilardan biri uning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan cheklanishlar sonini belgilovchi erkinlik darajasining soni hisoblanadi. Agar birorta uzatmani ulash uchun boshqarish elementining birortasiga ta'sir etish (tormozdan yoki friksiondan birini ulash) lozim bo'lsa, bunday PUQ ikki erkinlik darajasiga ega bo'ladi. Uch erkinlik darajasiga ega bo'lgan PUQda ilashmani ulash uchun bir vaqtning o'zida boshqarmaning ikki elementiga (ikki tormozga, ikki friksionga yoki tormozga va friksionga) ta'sir ko'rsatish lozim.

*Planetar qatorlar to'g'risida ma'lumotlar.* Ko'proq tarqalgan shesternyalari aralash ishlashmada bo'lgan planetar qator bilan tanishish uchun, uning kinematik sxemasini, tormozlangan epitsiklning tezliklari planini va kuchlar sxemasini ko'rib chiqamiz (6.22- b rasm).

Qator elementlarining nomini harfli indekslar bilan belgilaymiz:  $a$  – quyosh shesternysi;  $v$  – vodilo;  $s$  – epitsikl; 1, 2 va 3 – mos ravishda yetaklovchi, yetaklanuvchi va tormoz elementlari. Harfli yoki raqamli belgilashlar qator parametri ular qaysi elementga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

6.22- a rasmida quyosh shesternysi  $a_1$  – yetaklovchi, vodilo  $v_2$  – etaklanuvchi element, epitsikl  $s_3$  esa tormozlovchi element hisoblanadi. Planetar qator elementlari o'rtaсидаги kinematik bog'lanish grafik usulda yaxshiroq aniqlanadi. U qator

elementlarining aylanma tezliklari planini ko'rgazmali ravishda ko'rsatib beradi va tizimning uzatishlar sonini aniqlashda taxminiy natijalar beradi. Buning uchun qator sxemasini ixtiyoriy masshtabda chizish (6.22- a rasm) lozim, uning yonidan esa, gorizontalda uning o'qi markazi  $O$  nuqtani (6.22- b rasm) belgilash va undan gorizontal tekislikka perpendikulyar tushirib, bu perpendikulyarga  $r_a$  va  $r_s$  shesternyalar tishlarining ilashish qutblarini va satellit o'qi markazi  $r_v$  ni proyeksiyalaymiz. Unda  $R_a$ ,  $R_s$ ,  $R_v$  va  $r_v$  – masofalar mos ravishda quyosh shesternyasi va epitsiklik shesternyaning boshlang'ich aylanasi radiuslari, satellit o'qining markaziy o'q atrofida aylanish va uning boshlang'ich aylanasi radiuslari.



6.22-rasm. Shesternyalar aralash ilashmalik planetar qator:

a – kinematik sxemasi; b – tezliklar plani; d – qator  
elementlariga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi

Odatda yetaklovchi valning aylanishlar chastotasi  $n_1$  ma'lum bo'ladi, undan aylanma tezlik  $V_a$  ni aniqlash mumkin, uning vektorini qutbdan  $r_a$  dan qo'yib chiqamiz.  $r_a$  qutbda satellit ham shunday tezlikka ega bo'ladi. Markaz  $O$  ni  $V_a$  vektorining uchi bilan birlashtirib, quyosh shesternyasi nuqtalarining absolyut tezliklari plani bo'lgan nur  $V_1$  ni hosil qilamiz. Sxemaga muvofiq epitsiklik shesternya  $S_3$  tormozlangan, unda satellitning aylanma tezligi qutb  $r_s$  da nolga teng. Tormozlangan epitsikl shesternyasida  $S_3$  quyosh

shesternyasi nuqtalarining mutlaq tezliklar plani  $V_1$  nurdan; vodiloning tezliklari plani  $V_2$  nurdan; satellit  $r_a$  qutb atrofida aylanganda, uning tezliklar plani bo'lgan  $V_3$  nurdan iborat.  $r_s$  qutbdan  $V_a$  vektorining uchi orqali to'g'ri chiziq o'tkazib, satellit nuqtalari absolyut tezliklarining plani  $V_3$  ni va vodiloga qotirilgan satellit o'qi absolyut tezligining plani  $V_v$  ni olamiz. Markaz O ni vektor  $V_v$  uchi bilan birlashtirib vodiloning tezliklar plani  $V_2$  nurini hosil qilamiz (vodilo markaziy o'q atrofida aylanganda).

Tezliklar planidan ko'rinib turibdiki, quyosh shesternyasi  $\alpha_1$  burchakka burilganda, vodilo faqat  $\alpha_2 \alpha_1$  burchakka buriladi. Bundan shuni aytish mumkinki,  $hh'$  va  $hh''$  ixtiyoriy gorizontal to'g'ri chiziq nurlari  $V_1$  va  $V_2$  bilan kesilganda hosil bo'lgan kesmalar vodilo va quyosh shesternyasi aylanishlari chastotasiga proporsional bo'ladi. Unda bu planetar qatorning uzatishlari soni  $u = n_1/n_2 = hh'/hh'' > 1$  ko'rinishda bo'ladi.

Shuningdek planetar qatorning ushbu sxemasi pasaytiruvchi reduktor sifatida namoyon bo'ladi.

Planetar qatorning satelliti bir paytning o'zida ikki harakatda ishtirot etadi: vodilo o'qi atrofida nisbiy va markaziy o'q atrofida vodilo bilan birqalikda ko'chirma. Uning aylanishini absolyut tezligi ma'lum, chunki u quyosh shesternyasining qutb  $r_a$  dagi aylanma tezligiga teng, uning nisbiy tezligi  $V_{vo}$  esa  $h'h''$  kesmaga proporsional. Satellitning  $V_{vo}$  tezligini uning  $r_v$  radiusiga nisbatidan satellitlar dumalash podshipniklarining ish qobiliyatini belgilovchi burchak tezlik  $\omega_{vo}$  va aylanishlar chastotasi  $n_{vo}$  ni aniqlash mumkin. Satellitning aylanishlar chastotasi  $n_{vo}$  salt yurish rejimida ishlaganda  $10000 \text{ min}^{-1}$  dan, yuklama bilan ishlagada  $6000 \text{ min}^{-1}$  dan oshmasligi lozim.  $n_{vo}$  undan katta bo'lgan qiymatlarda podshipnikning separatori yeyila boshlaydi.

Barqaror harakatda planetar qatorning elementlariga ta'sir etuvchi kuch va momentlar satellitning muvozanat shartidan aniqlanadi (6.1- $v$  rasm):

$$P_d + P_{\parallel} = P_k \quad \text{va} \quad P_d r_k = P_{\parallel} r_k$$

$$\text{Unda } P_b = 2P_d = 2P_{\parallel}.$$

Agar burovchi moment  $M_1$  ma'lum bo'lsa, vodilodagi moment  $M_2$  quyidagicha aniqlanadi:

$$M_2 = M_1 \cdot u$$


bu yerda  $u$  – qatorning uzatishlari soni.

Planetar qatorning uzatishlar sonini aniqlash, odatdagi qo'zg'almas o'qlik valga ega bo'lgan shesternyalik uzatmalarga qaraganda ancha murakkab. Uning qiymati planetar qator elementlarining ish rejimiga bog'liq. Biroq uni aniqlash uchun istalgan formulaning o'zgarmas komponenti, planetar qator tavsifining doimiy qiymati hisoblanadi

$$K = Z_s / Z_a$$

bunda  $Z_s$  va  $Z_a$  – mos ravishda epitsiklik va quyosh shesternyalarining tishlari soni.

Keltirilgan misol uchun  $u = 1 + K$



**6.23-rasm. Shesternyalarini aralash ilashmada bo'lgan planetar qatorlarning blokirovka sxemasi**

Planetar qatorni uzatishlar soni  $u = 1$  reduktor sifatida ishlatalish uchun uning istalgan ikki zvenosini friksioni yordamida blokirovka qilish lozim. Bunda zvenolarning qaysi juftligi blokirovka qilinishini hisobga olish kerak, unda ishqalanish momenti eng kichik bo'lishi lozim. Ko'rيلayotgan qator uchun quyosh shesternyasi  $a_1$  vodilo  $v_2$  bilan to'g'ridan-to'g'ri blokirovka qilinganda kirish va chiqish vallaridagi momentlar teng bo'ladi. Unda blokirovka friksionining ishqalanish momenti

$$M_f = M_1 = M_2$$

Qatorni blokirovka sxemasining qolgan ikkitasi 6.23- rasmda ko'rsatilgan. Quyosh shesternyasini epitsikl bilan birgalikda friksion F yordamida blokirovka qilinganda (6.23-rasm, a), uning ishqalanish momenti

$$M_f = M_I K / (K + I)$$


Bu yerda blokirovka friksioni bilan uzatiladigan moment  $M_f$  yetaklovchi moment  $M_I$  dan kichik bo'ladi. Agar epitsikl va vodilo blokirovka qilingan bo'lsa (6.23-rasm, b), unda

$$M_f = M_I K$$

Bu holda blokirovka friksioni orqali uzatiladigan moment  $M_f$ , yetaklovchi moment  $M_I$  dan katta, uning qiymati esa avvalgi misolga qaraganda katta bo'ladi.

Planetar uzatmaning FIK aniqlashda shuni aytib o'tish kerakki, unda quvvat uzatilishi ikki oqim bilan amalga oshiriladi: ko'chirma harakatda (barcha sistemaning aylanishi vodilo bilan amalga oshiriladi) va nisbiy harakatda (mexanizmning alohida zvenolari sistemaning ichida vodiloga nisbatan aylanadi). Birinchi holda quvvat yo'qotilishi faqat markaziy o'q podshipniklarida sodir bo'ladi, ularni hisobga olmasa ham bo'ladi. Ikkinci holda esa, shesternyalarning aylanishida va ilashish qutblarida ulardagi quvvat yo'qotilishi podshipniklardagiga qaraganda ancha yuqori. Shuning uchun ham PUQni yaratish paytida katta energiya oqimini uzatish ko'chirma, kichik energiya oqimi uzatilganda esa nisbiy harakatda amalga oshirilishi lozim. Bu holda uzatmaning FIK ancha katta bo'ladi.

*Ikki va uch erkinlik darajasiga ega bo'lgan PUQning prinsipial sxemasi.* 6.24-rasm, a da ikki erkinlik darajasiga ega bo'lgan PUQning sxemasi keltirilgan.



**6.24-rasm. Planetar UQ ning sxemalari:**

a – ikki erkinlik darajasiga ega boʻlgan; b – uch erkinlik darajasiga ega boʻlgan


Uzatmani ularash uchun boshqarish elementining bittasi taʼsir koʼrsatishi (tormoz T lardan yoki friksion F dan bittasini ularash kerak). Oldinga harakatning birinchi yoki ikkinchi uzatmani ularash uchun tegishli ravishda tormoz  $T_1$  yoki  $T_2$  ni ishlatalish kerak. Uchinchi (toʼgʼridan-toʼgʼri) uzatma blokirovka friksioni F bilan ulanadi, u PUQning barcha zvenolarini blokirovka qilinadi (PUQ zvenolari bir butun boʼlib aylanadi).

Orqaga harakatning birinchi va ikkinchi uzatmalari mos ravishda  $T_{11}$  va  $T_{22}$  tormozlarni ishlatalish yoʼli bilan olinadi. Bu sxemada besh (uch oldinga harakat va ikki orqaga harakat) uzatmani olish uchun toʼrt planetar qatori va besh boshqarish elementlari (toʼrt tormoz va bir friksion)dan foydalilanildi.

Uch erkinlik darajasiga ega boʼlgan PUQning sxemasini koʼrib chiqamiz (6.24- b rasm). Bunday sxema ikki planetar qatordan va toʼrt boshqarish elementi (ikkita tormoz  $T_1$  va  $T_2$  hamda ikkita friksion  $F_1$  va  $F_2$ )dan iborat va u oldinga harakatning uch uzatmasini va orqaga harakatning bir uzatmasini olishni taʼminlaydi. Uzatmalardan birortasini ularash uchun bir vaqtning oʼzida "+" ishorasi qoʼyilgan (6.5- jadval) ikki boshqarish elementiga taʼsir etish lozim.

## PUQdagi boshqarish elementlarining ulanishi

Uzatma	Elementlarni ulash			
	T <sub>1</sub>	T <sub>2</sub>	F <sub>1</sub>	F <sub>2</sub>
I	-	-	+	+
II	-	+	-	+
III	+	-	-	+
OH	+	-	+	-



6.25-rasm. Ko'p tarkibli planetar UQ ning sxemasi

6.25-rasmda o'nta oldinga va ikkita orqaga harakat uzatmasi bo'lgan PUQning kinematik sxema variantlari keltirilgan. Sxema shesternyalari aralash uzatmali to'rt planetar qatoridan iborat. I planetar qator tormozi T<sub>1</sub> va blokirovka friksion F<sub>1</sub> to'g'ridan-to'g'ri uzatmalik ikki tezlikli (ikki erkinlik darajasiga ega bo'lgan PUQ) reduktordan iborat. II, III va IV planetar qatorlari uch erkinlik darajasiga ega bo'lib beshta oldinga va bitta orqaga harakat uzatmasini ta'minlaydi.

Istalgan uzatmani ulash, bir paytning o'zida uch boshqarish mexanizmini: tormozlar T va friksionlar F ni ulashdan iborat. 6.6-jadvalda ulanadigan boshqarish elementlari "+" ishorasi bilan ko'rsatilgan.

Ko‘p tarkibli planetar UQning boshqarish elementlarini ulash

Uzatma		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	OH <sub>1</sub>	OH <sub>2</sub>
Kirish reduktori	T <sub>1</sub>			+	+			+	+				+
	F <sub>1</sub>	+	+			+	+			+			+
Asosiy uzatmalar qutisi	T <sub>2</sub>					+	+	+	+				
	F <sub>2</sub>									+	+	+	+
T <sub>3</sub>	+	+	+	+									+
	F <sub>3</sub>		+		+		+		+	+			+
F <sub>4</sub>	+		+		+		+						

Ketma-ket joylashgan qatorlarni birlashtiruvchi ichi teshik o‘qdosh vallarning soni ko‘proq bo‘lishi mumkin bo‘lgan PUQ larning tuzilmasi ham uchraydi. Bunday joylashishga ega bo‘lgan o‘qdosh teshik vallarni odatda "qavatlilik" vallar deb ataladi, "qavatlari" kam bo‘lgan vallik sxemalar afzalroq hisoblanadi.

PUQlar qo‘zg‘almas o‘qqa ega bo‘lgan vallik UQlarga nisbatan FIKning yuqoriroq bo‘lishi bilan farq qiladi, energiyaning bir qismini shesternya ilashmalarida yo‘qotishsiz ko‘chirma harakatda uzatilishi; markaziy zvenolarning podshipniklari radial kuchlardan yuksizlashtirilganligi; gabarit o‘lchamlarining va massalarining kichikligi; planetar UQning detalarining kam yuklanganligi, uning ishlash muddatini oshiradi va qo‘llaniladigan materiallarning sifatiga qo‘yilgan talabni pasaytiradi.

PUQlarning kamchiliklariga:

- yasash aniqligiga uning detallarini ko‘pligi va ularni yig‘ishga qo‘yilgan talabning yuqoriligi;
- tuzilmasining murakkabligi;
- past temperatura sharoitida ishlashini ta‘minlash murakkabligi;
- aylanuvchi massalarining kattaligi natijasida aylanma tebranishlarni hosil bo‘lishiga moyilligi kiradi.

## 6.9. Burovchi momentni kuchaytirgichlar

MTA harakat davomida uzatmalari almashtirilmaydigan UQ bilan ishlaganda uning harakatiga qarshilikni ortib borishi, tortish kuchi

katta bo‘lgan uzatmaga almashtirish uchun traktorni to‘xtatishga ehtiyoj tug‘iladi. Bu esa MTAning ilashini murakkablashtiradi va ish unumini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham qator traktorlarga UQning oldidan alohida transmissiya agregati, burovchi momentni kuchaytirgich (BMK) o‘rnataladi.

BMKni qo‘lanilishi quyidagilarga imkon beradi:

– traktorni to‘xtatmasdan, uning tortish kuchini harakat tezligini biroz pasaytirish hisobiga oshirish, bunda u pastroq uzatmaga ulangandek bo‘ladi;

– MTAning joyidan shig‘ovlash natijasida uni yuqoriroq uzatmada harakatlanishini osonlashtiradi, chunki harakatning boshlanishi ortiqcha tortish kuchi va kichik tezlikda sodir bo‘ladi.

BMKdan traktor transport ishlarini bajarishida, temir yo‘l tarmoqlaridan o‘tishda yoki boshqa to‘silalar uchraganda, hamda yo‘lining keskin burilish joylarida MTA harakat tezligini pasaytirish talab etilganda ham foydalilanadi.

Odatda, BMK MTA normal ishlaganda asosiy uzatma hisoblangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatmalik ikki bosqichlik reduktordan iborat. Pasaytiruvchi uzatmaga ulash odatda MTAning nisbatan qisqa muddatga ishlaganda, harakat davomida nazarda tutilmagan qarshiliklarni yengish uchun zaruriyat tug‘ilganda amalga oshiriladi.

Ayrim paytlarda BMKdan pasaytiruvchi reduktor sifatida traktorning pasaytiruvchi tezliklar qatorini olish uchun ham foydalilanadi.

Ko‘p hollarda BMKning uzatishlar soni 1,2...1,35 teng bo‘lib, MTAning harakatida sodir bo‘ladigan qarshiliklarni yengishini ta’minlaydi.


BKMlar: uzatmani hosil qilish turiga qarab ko‘ndalang vallari qo‘zg‘almas bo‘lgan shesternyalik va planetar; ulash mexanizmining turi bo‘yicha blokirovkalovchi friksion (F) muftalik; blokirovkalovchi muftalik va erkin harakatlanuvchi mufta (EHM)lik; blokirovkalovchi muftalik va tormozlik (T) bo‘ladi.

BMKning qo‘zg‘almas vallik asosiy variant sxemalari 6.26-rasmida keltirilgan. Barcha sxemalarda BMK reduktori uch valdan iborat: ikki o‘qdosh bo‘lgan yetaklovchi 1 va yetaklanuvchi 3, ularga parallel bo‘lgan oraliq val 9 dan. Doimiy ilashmada bo‘lgan birinchi juftlik shesternyalari 6 BKMning uzatishlar soni bo‘yicha yasaladi,

ikkinci juftlik uzatishlar soni shesternyalar 4 dagidek birga teng.

6.26-rasmda keltirilgan sxemalarda BMKni boshqarish friksion muftalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatmada  $F_{pr}$  va BMK ulovchi  $F_{BMK}$  bilan amalga oshiriladi. Bu muftalarning boshqalardan farqi shundan iboratki, ularda tashqi shlitsalik friksion disklar komplekti uchun ichki shlitsalik umumiy tashqi baraban 2 ning va ichki shlitsalik disklar uchun alohida tashqi shlitsalik baraban borligi hisoblanadi. Ularning o‘rnatalishi BMKning vazifasiga va boshqarilishiga bog‘liq.

Shunday qilib, 6.26-*a* rasmda mufta  $F_{pr}$  val 1 ga o‘rnatalgan, baraban 2 val 3 qotirilgan, ichki baraban  $F_{BMK}$  esa doimiy ilashmada bo‘lgan erkin aylanuvchi shesternyaning orqa stupitsasiga qotirilgan. Shuning uchun ham traktor odatdag‘i kerakli uzatmada ishlasa, mufta  $F_{BMK}$  ajratilgan va UQga energiya uzatish ulangan mufta  $F_{pr}$  orqali sodir bo‘ladi. MTAning harakatida katta tashqi qarshilik sodir bo‘lsa, mufta  $F_{BMK}$  ni ularash va mufta  $F_{pr}$  ni uzish lozim. To‘xtovsiz harakatlanish uchun ma‘lum vaqt oralig‘ida uzatmalar bir-birlarini qamrashi lozim, bunga BMK ning ikkala muftalarini o‘zaro shataksirashini ta‘minlash yo‘li bilan erishish mumkin. Shuni aytib o‘tish kerakki, ushbu sxemada mufta  $F_{BMK}$  mufta  $F_{pr}$  ga nisbatan BMKning uzatishlar soniga teng marta katta moment bilan yuklangan bo‘ladi.



6.26-rasm. Vollarining o‘qi qo‘zg‘almas bo‘lgan BMKlarning sxemasi

6.26-*b* rasmda mufta  $F_{pr}$  val 3 ga o‘rnatalgan baraban 2 val 1 ga qotirilgan,  $F_{BMK}$  ning ichki barabani esa doimiy ilashmada bo‘lgan


erkin aylanuvchi shesternyaning oldingi gupchagiga qotirilgan. Bu yerda mufta  $F_{BMK}$  ulansa, u avval ko'rilgan sxemaga nisbatan kichikroq burovchi moment bilan yuklangan bo'ladi, chunki u BMK uzatishlar sonini hosil qiluvchi shesternyalik ko'proq qabul qiluvchidan oldin o'matilgan. Shuning uchun ham BMKnning bunday sxemasi ko'proq afzalliklarga ega.

6.26- d rasmida  $F_{BMK}$  vazifasini doimiy ilashmada bo'lgan birinchi shesternalar juftligi yetaklanuvchi shesternya stupitsasiga o'matilgan  $MSX_{BMK}$  bajaradi. Mufta  $F_{PR}$  ulanganda vallar 1 va 2 to'g'ridan-to'g'ri blokirovkalanadi va val 3  $MSX_{UKM}$  da erkin buriladi. BMKn ulash uchun mufta  $F_{PR}$  ni uzish lozim va unda reaktiv moment ta'sirida  $MSX_{UKM}$  ni ponalanishi sodir bo'ladi. Natijada quvvatni val 1 dan val 2 ga uzatish BMK ning uzatishlar sonini ta'minlovchi oraliq val 3 orqali sodir bo'ladi.

BMKnning planetar turi ixchamroq hisoblanib, ular hozirgi zamон traktorlarda keng tarqalgan (6.6- rasm). Ular avvalgi sxemalardagidek muftalar F, tormozlar T va  $MSX$  boshqariladigan, asosan tashqi va aralash ilashmaga ega bo'lgan uch zvenolik planetar mexanizmdan iborat.

6.27- a rasmida to'g'ridan-to'g'ri uzatmani olish uchun blokirovka muftalik  $F_{PR}$  va BMKn ulash uchun tasmalik tormozli  $T_{BMK}$  aralash ilashmalik planetar reduktor ko'rinishidagi BMKnning sxemasi keltirilgan. Planetar qatorning yetaklovchi elementi, BMK yetaklovchi vali 1 ning uchiga o'rnatilgan epitsiklik shesternya 3 hisoblanadi. Yetaklanuvchi elementi esa BMK yetaklanuvchi vali 5 bilan birlashtirilgan vodilo 2 hisoblanadi. Qatorning tormozlovchi elementi bo'lib, quyosh shesternysi 4 ni aylantirmsadan ushlab turuvchi tasmalik tormoz  $T_{BMK}$  hisoblanadi. Bo'shatilgan tormoz  $T_{BMK}$  da mufta  $F_{PR}$  vodilo 2 ni quyosh shesternysi 4 ning va ichi teshik vali 2 ni blokirovka qiladi, shuning bilan bir qatorda uzatishlar soni birga teng bo'lgan BMK ning to'g'ridan-to'g'ri uzatmasini ta'minlaydi. BMKn ulash uchun bir paytning o'zida mufta  $F_{PR}$  ni ajratgan holda, tormoz  $T_{BMK}$  ni ulash lozim. Tormoz  $T_{BMK}$  to'liq tortilganda va mufta  $F_{PR}$  uzunganda shesternya 3, satellitlar 6 ni qo'zg'almas shesternya 4 ga nisbatan aylantirib, o'zining orqasidan vodilo 2 ni val 5 ga BMKnning uzatishlar soniga mos ravishda burovchi moment uzatib ergashtiradi.

6.27-*b* rasmida blokirovka muftalik  $F_{PR}$  va diskali tormozlik  $T_{BMK}$  tashqi ilashmali ikki bosqichli planetar reduktori ko'rinishida yasalgan BMKning sxemasi ko'rsatilgan. Qatorning yetaklovchi elementi bo'lib, yetaklovchi val uchiga o'matilgan quyosh shesternyasi 6, yetaklanuvchi elementi bo'lib esa, BMKning yetaklanuvchi vali 4 ga o'matilgan quyosh shesternyasi 5 hisoblanadi. Mufta  $F_{PR}$  vodilo 2 ni va shesternya 6 ni blokirovka qilib to'g'ridan-to'g'ri uzatmaga ulaydi. Tormoz  $T_{BMK}$  ulanganda va mufta  $F_{PR}$  ajratilganda vodilo 2 qo'zg'almas bo'lib qoladi, uning barmoqlarida aylanuvchi ikki gardishlik stellitlar 3 burovchi momentni BMKdagi shesternyalik uzatmasining uzatishlar soni bo'yicha shesternya 6 dan shesternya 5 ga uzatadi.




6.27-rasm. Planetar xildagi BMKning sxemalari

6.27- *d* rasmida ko'proq qo'llaniladigan blokirovka muftalik  $F_{PR}$  to'g'ridan-to'g'ri uzatmaga va  $MSX_{BMK}$  ning erkin harakatlanish mexanizmlik, tashqi ilashmaga ega bo'lgan planetar BMK ning sxemasi ko'rsatilgan. Bu sxemada, odatda, ko'p disklik blokirovka muftasi  $F_{PR}$  o'rniغا mexanik yuritmalik vodilo 2 ni va yetaklovchi quyosh shesternyasi 6 ni blokirovkalovchi bir disklik ilashish muftasi o'rnatiladi. Ilashish muftasi  $F_{PR}$  uzilganda vodilo 2 yetaklovchi val 1 ning aylanishiga teskari tomonga aylanadi. Natijada vodilo 2 bilan birlashtirilgan ichi bo'sh val 7  $MSX_{BMK}$ ning erkin harakatlanuvchi rolikli mexanizmi bilan ponalanib qoladi. Planetar qator val o'qlari qo'zg'almas bo'lgan uzatishlar soni BMKniga teng bo'lган shesternyalar 6, 3 va 5 orqali yetaklovchi val 1 dan yetaklanuvchi val

4 ga burovchi moment uzatuvchi reduktorga aylanadi.

Rolikli MSXni ishlash prinsipi 6.7-rasmdagi sxemada ko'rsatilgan. Mufta qo'zg'almas korpus 1 dan va uning uyalarida joylashtirilgan roliklar 7 dan iborat.



6.28-rasm. MSXning ishlash sxemasi

Blokirovka ilashish mustasi  $F_{PR}$  ulanganda BMKning yetaklovchi vali 3 va ichi bo'sh bo'lgan vodilo 2 yuritmasining vali 2 II-holatda strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishda bir tomonga aylanadi. Roliklar 7 uyasining qiyaligi shunday qilinganki, val 2 ning korpus 1 ga nisbatan aylanishiga roliklar xalaqit bermasin. Ilashish mustasi  $F_{PR}$  ajratilganda val 2 hosil bo'lgan reaktiv momenti ta'sirida qarama-qarshi tomonga (I holatdagi shtrixlangan strelka bo'yicha) aylanishga harakat qiladi. Biroq bunday aylanishga, aylanayotgan roliklar uyalarining qiya sirti bo'yicha aylanib o'tishiga xalaqit berishi va ularning uya va val oralig'ida ponalanib qolishi, BMK vodilosini aylanishini to'xtatadi. Turki 6 ning prujinasi roliklar 7 ni puxtarloq va tezroq ponalanib qolishiga yordam beradi. Korpusdagi prujinalar rezbalik tiqinlar 4 bilan ushlab turiladi.

## 6.10. Harakatni pasaytirgichlar

Qishloq xo'jalik, sanoat va boshqa ko'pgina ishlab chiqarish texnologiyasi MTA ning past tezliklarda harakatlanishini talab qiladi, ular yuqorida aytilgandek traktor tezligining texnologik oralig'iga

to‘g‘ri kelishi kerak. Ammo odatdagি UQLar, ko‘p hollarda talab etilgan kichik texnologik tezliklarni ta‘minlashga qodir bo‘lmaydi. Masalan, ko‘chat o‘tqazish va o‘g‘it sepuvchi mashinalari talab qiladigan tezliklar 0,027...0,189 m/s, yomg‘ir yog‘diruvchi qurilmalarning, sabzavot yig‘uvchi mashinalarning tezliklari 0,177...0,42 m/s, rotorli ariq qazuvchilarning tezliklari 0,027...0,54 m/s ni tashkil etadi.

Bunday tezliklarni hosil qilish uchun traktor transmissiyasiga tez-tez qo‘sishimcha agregat harakatni pasaytirgich (katta uzatish sonini olish imkonini beruvchi reduktor) qo‘llaniladi. Harakatni pasaytirgichlar traktor transmissiyasining ajralmas agregati yoki ishlatuvchining talabi bo‘yicha o‘rnataladigan ajraluvchi qo‘sishimcha ishchi uskuna bo‘lishi mumkin.

Harakatni pasaytirgichlar UQdagidek belgilari bo‘yicha: uzatmalar sonini o‘zgartirish usuli bo‘yicha bosqichli, bosqichsiz va aralash; burovchi momentni o‘zgartirib berish usuliga qarab mexanik, gidravlik va aralash turlarga bo‘linadi.


Traktor transmissiyasining agregat va qismlariga qo‘yilgan talablarga bog‘liq bo‘limgan holda, barcha harakatni pasaytirgichlar ikki asosiy ishlatish talablariga javob berishi lozim:

1) traktorda (vazifasiga mos keluvchi) kerakli pasaytirilgan harakat tezligini olish uchun uzatmalar soni oralig‘i bo‘lishi;

2) ishlatish joyida, qo‘sishimcha o‘zgartirish yoki moslashtirishlar kiritilmasdan, traktorga o‘rnatish imkoniyati bo‘lishi.

Traktorlarda mexanik shesternyalik harakatni pasaytirgichlar ko‘proq tarqalgan. Ularning afzalliklariga: FIKning yuqoriligi; tuzilmasining nisbatan soddaligi; boshqarish va xizmat ko‘rsatishni osonligi, kamchiliklariga esa sekinlashtirilgan tezliklarni o‘zgartirish chegarasining cheklanganligi kiradi.

Mexanik harakatni pasaytirgichlar shesternyalik uzatmalarni hosil qilish usuliga qarab turlari bo‘lish mumkin. Ular vallari qo‘zg‘almas, planetar va aralash bo‘ladi.



**6.29-rasm. Vallari qo‘zg‘almas bo‘lgan ikki oraliqli harakatni pasaytirgichning sxemasi**


6.29-rasmda sanoat traktorlarida qo‘llaniladiga val o‘qlari qo‘zg‘almas bo‘lgan va doimiy ilashmada bo‘lgan shesternyalik ikki oraliqlik universal harakatni pasaytirgichning kinematik sxemasi keltirilgan.

Bunday harakatni pasaytirgich reduktor bo‘lib, yetaklovchi 1, oraliq 6 va yetaklanuvchi 9 vallardan iborat bo‘lib, ularga traktor harakat tezligini katta miqdorda sekinlashtiruvchi ikki uzatishlar sonini olish imkonini beruvchi, doimiy ilashmada bo‘lgan shesternyalar va shesternyalar bloki o‘rnatilgan.

Val 9 ning aylanishlar chastotasini (taxminan 9 marta) pasaytiruvchi birinchi oraliq uzatmani olish blokirovka tishlik muftasi 8 ni chap holatga surish bilan amalga oshiriladi. Unda burovchi moment val 1 dan doimiy ilashmada bo‘lgan shesternyalar juftligi 12 orqali val 6 doimiy ilashmada bo‘lgan shesternya 10 dan val 9 ga uzatiladi.

Val 9 ning aylanishlar chastotasini (taxminan 28 marta) pasaytiruvchi ikkinchi oraliq, mufta 8 ni o‘ngga surish bilan amalga oshiriladi. Bu holda burovchi moment ketma-ket doimiy ilashmada bo‘lgan shesternyalar 12 va 11 orqali val 1 ga erkin o‘rnatilgan, shesternyalar bloki 2 ga, doimiy ilashmada bo‘lgan shesternya 4 ga, val 6 ga erkin o‘rnatilgan shesternyalar bloki 5 ga, doimiy ilashmada bo‘lgan shesternyalar 6 dan val 9 ga uzatiladi.

Kinematik jihatdan bunday harakatni pasaytirgichlar UQ dan oldin yoki keyin o'rnatiladi. Harakatni pasaytirgichning vallari 9 va 1 mos ravishda birlamchi va UQning ketma-ket joylashgan vallarining birortasi bilan birlashtiruvchi elementlar yordamida ulanadi. Val 1 ning orqa shlitsalik uchi bog'langan QOV ning yuritmasi hisoblanadi.



**6.30-rasm. Ko'ndalang vallik UQga o'rnatilgan planetar harakatni pasaytirgichning sxemasi**

6.30-rasmida g'ildirakli traktorlarda qo'llaniladigan reversli mexanizmlik ko'ndalang joylashgan UQdagi *planetar harakat pasaytirgichning* kinematik sxemasi ko'rsatilgan.

Harakatni pasaytirgich, revers mexanizmiga o'rnatilgan uzatishlar soni  $u = -k$  ga teng bo'lган aralash ilashmalik planetar qatordan tuzilgan reduktordan iborat. Bu yerda  $k$  – planetar qatorming xarakteristikasi.


Revers mexanizmi UQ birlamchi valining oxiriga qotirilgan yetaklovchi shesternya 1 dan va doimiy ilashmada bo'lган ikki yetaklanuvchi konusli shesternyalar 2 va 5 dan iborat. Konusli shesternyalar blokirovkalovchi tishli mufta 4 yordamida UQning oraliq vali 3 ni tutashtirib uning aylanish yo'nalishini va natijada traktorning harakat yo'nalishini oldinga yoki orqaga o'zgartiradi.

Harakatni pasaytirgichning yetaklovchi quyosh shesternysi  $a$  orqaga harakat shesternysi 5 bilan birlashtirilgan bo'lib, uning yetaklovchi vali 6 esa, tishli muftalar 4 yordamida UQning oraliq vali

3 bilan birlashtiriladi. Sxemada harakatni pasaytirgichning ulangan holati ko'rsatilgan. Burovchi moment shesternya 1 dan UQ ning orqaga harakat shesternyasi 1 ga, quyosh shesternyasi  $a$ , tormozlovchi vodilo  $v$  dagi satellitlar 7 ga va undan so'ng epitsiklik shesternya 5 ga va yetaklanuvchi val 6 ga uzatiladi. Chunki satellitlar 7 val 6 ni harakatni pasaytirgichning yetaklovchi valining qarama-qarshi tomonga aylanishiga majbur qiladi, shuning bilan birga u UQning vali 3 ni traktorning oldingi pasaytiruvchi harakat tezligi tomonga aylantiradi.

Mufta 4 traktorning odatdag'i uzatmasida oldinga yoki orqaga harakatlanish uchun ulanganda harakatni pasaytirgich uzib qo'yilgan bo'ladi. 6.31-rasmida aralash mexanik harakatni pasaytirgichning sxemasi keltirilgan.

Harakatni pasaytirgich alohida karter 9 ga o'rnatilgan bo'lib, flanets yordamida UQning korpusi 5 ning yon teshigiga ulangan. Planetar reduktor uzatishlar soni  $u=1+k$  bo'lgan aralash ilashma qatori shaklida yasalgan. Planetar qatordan tashqari harakatni pasaytirgich vali qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan ikki shesternyalik uzatmadan iborat, shuning uchun ham uni aralash deb atash mumkin.



**6.31-rasm. Mexanik aralash harakatni pasaytirgichning sxemasi**

Karter 9 ga shesternya 6 bilan doimiy ilashmada bo'lgan, vodilo vali 7 ga o'rnatilgan oraliq shasternya 4 va yetaklovchi quyosh shesternya  $a$ , satellitlik 10 etaklanuvchi vodilo  $v$  va tormozlovchi


epitsiklik shesternya  $s$  dan tuzilgan planetar reduktor joylashtirilgan. Quyosh shesternya  $a$  harakatlantiruvchi shesternya 8 bilan birgalikda yasalgan, u UQning harakatni pasaytirgichiga o'rnatilganda birinchi uzatma yoki orqaga harakat uzatmasi shesternyasi 2 bilan doimiy ilashmada bo'ladi.

Sxemada harakatni pasaytirgichning uzilgan holati ko'rsatilgan. Uni ular uchun UQ karetkalarini boshqarishga o'xshash richag-tortqi tizimi mayjud, uning povodkali vilkasi blokirovka mufta-karetkani o'ngga shesternya 4 bilan to'liq ilashmaga kirdguncha suradi. Bunda UQning vali 1 burovchi momentni harakatni pasaytirgichdan shesternya 2 orqali traktorning transmissiyaning keyingi bosqichlariga uzatadi.

Mexanik harakatni pasaytirgichdan foydalanilganda, shuni nazarda tutish kerakki, transmissiyaning uzatishlar soni sezilarli oshirilganda, ayrim hollarda uning qismlarini sinishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham MTAdan istalgan ishlatish sharoitida foydalanilganda traktor tomonidan hosil qilinadigan tortish kuchi, transmissiya detallaridagi ruxsat etilgan kuchlanishdan oshib ketmasligini nazorat qilib turish lozim.

Ko'rib o'tilganlarga asoslanib, kombinatsiyalashgan gidrohajmiy harakatni pasaytirgichlar afzalroq hisoblanadi, ular MTAning tezliklarini bosqichsiz rostlash oralig'ining kengroq bo'lishini ta'minlaydi, mayjud transmissiyyalar bilan sodda komponovkada bo'ladi va ularni yuqori yuklanishlardan puxta himoyalash imkonи mayjud.

Bunday gidrohajmiy harakat pasaytirgichning prinsipial sxemasi 6.32-rasmida ko'rsatilgan. Gidravlik nasos 9 qo'shimcha shesternyalik uzatmalar 10 yordamida motor 1 ning tirsakli validan aylanma harakat oladi. Nasos 9 dan moy bosim ostida muayyan moy yo'llari 8 orqali past harakat tezligiga ega bo'lgan gidromotor 7 ga uzatiladi, uning yetaklanuvchi valiga yuritma shesternyasi 6 o'rnatilgan.



**6.32-rasm. Aralash gidrohajmiy harakatni pasaytirgichning sxemasi**


Sxemada harakatni pasaytirgichning uzilgan holati ko'rsatilgan. Uni harakatlantirish uchun UQ 3 oraliq vali uchiga o'rnatilgan shesternya 5 ni ulash, gidromotor shesternyasi 6 ni to'liq ilashmaga kiritish. Unda burovchi moment gidromotor 7 dan UQ dagi istalgan uzatma orqali transmissiya 4 ning davomiga, traktorni sekinlanuvchi tezlik bilan harakatlanishi uchun uzatiladi.

Harakatni pasaytirgich ulanganda transmissiyaning ilashish mustasi 2 avtomatik ravishda ajralishi lozim. Gidravlik uzatmaning FIK nisbatan kichik (odatda 0,6...0,7), MTAning harakatlanishiga nisbatan motorning kichik quvvat sarflanishini hisobga olib, bunday harakatni pasaytirgichning qo'llanilishi talabga to'liq javob beradi.

Aralash gidravlik harakatni pasaytirgichning ikkinchi xili gidronasosdan uning mexanik qismi planetar reduktorining uzatishlar sonini bosqichsiz rostlash uchun gidrotormoz sifatida foydalanish prinsipiiga asoslangan.

Bunday harakatni pasaytirgichning prinsipial gidromexanik sxemasi 6.33-rasmda ko'rsatilgan.

Harakatni pasaytirgichning gidravlik qismi shesternyalik gidronasos 1 dan, so'ruvchi moy yo'li 2 dan, UQ korpusiga o'rnatilgan moy yig'uvchi 3 dan, bosim beruvchi moy yo'li 4 dan, mayin tozalash filtri 5 dan, saqlagich klapan 6 dan, rostlovchisi bo'lgan drossel 7 dan, rostagich tutqichli 8 sterjen 9 dan, to'kish trubkasi 10 dan va UQ bilan umumiy moy vannasiga ega bo'lgan, harakatni pasaytirgich karteri 15 dagi moyni to'kish uchun rezinalik shlang 11 dan tuzilgan.



### 6.33-rasm. Aralash gidrohajmiy harakatni pasaytirgichning sxemasi

Harakatni pasaytirgichning mexanik qismi ko'p jihatdan avval 6.9- rasmida keltirilganiga o'xshash. Harakatni pasaytirgichning asosiy qismi quyosh shesternyasi  $a$ , satellitli vodilo  $v$  va shesternyalik val hamda epitsiklik shesternya  $s$  lardan tuzilgan planetar qator hisoblanadi. Quyosh shesternyasi  $a$  dagi burovchi moment, avval ko'rsatib o'tilgandek, UQ oraliq shesternyasi bilan doimiy ilashmada bo'lgan juftlangan shesternya 13 dan beriladi. Burovchi momentni harakatni pasaytirgichidan UQga uzatish yetaklanuvchi shesternya 14 orqali ta'minlanadi. Harakatni pasaytirgichning traktor transmissiyasiga ulanishi avval ko'rib chiqilgan.

Nasos 1 shlitsalik vtulka 20 epitsiklik shesternya  $s$  ning tashqi tishli gardishi 12 bilan doimiy ilashmada bo'lgan yuritma vali 19 va shesternya 18 bilan birlashtirilgan.

Harakatni pasaytirgichning bu turi ikki vazifani bajaradi:

- 1) past tezlik oralig'ini ta'minlaydi;
- 2) traktor tezligining berilgan oraliqda bosqichsiz o'zgartirish imkonii tug'iladi.

Birinchi vazifa, yuqorida ko'rib o'tilgan, harakatni pasaytirgichning mexanik qismi, ikkinchisi esa harakatni pasaytirgichning hidravlik va mexanik qismlari bilan birgalikda bajariladi. Gidronasos 1, drossel 7 dagi moy oqimini drossellash hisobiga epitsiklik shesternya  $s$  ni aylanishiga to'sqinlik qiluvchi, hidrotormoz sifatida foydalaniлади. Drossel sterjeni 9 ning tutqichi 8

to'liq tortilganda, harakatni pasaytirgichning gidravlik sistemasi yopiq holatda bo'ladi va nasos I burila olmasdan qoladi. Natijada, epitsiklik shesterna s qo'zg'almas bo'lib qoladi, planetar qator esa traktor harakat tezligini doimo pasayishini ta'minlaydi. Moy oqimini drossellanishini paydo bo'lganligi sari, gidronasos 1 ni hamda epitsiklik shesterna s ni aylanishiga imkoniyat paydo bo'la boshlaydi. Bu planetar reduktoriga o'xshash xususiyatlarini uning uzatmalar sonini epitsiklik shesterna s ning aylanish chastatosiga proporsional oshishiga olib keladi, bu traktoring ilgarilanma harakat tezligini bosqichsiz kamayishini ta'minlaydi. Drossel 7 to'liq ochilganda planetar qator differensial mexanizmga aylanadi. Natijada UQ bilan bog'langan yetaklanuvchi shesterna 14 ga burovchi moment uzatilmaydi, traktoring tezligi esa nolga teng bo'ladi. Shunday qilib, traktorchi, tutqich 8 ni burib, traktoring pasaytiruvchi tezlik qiymatini bosqichsiz o'rnatadi.

MTA ishlaganda transmissiyadagi yuklamani ortishi, harakatni pasaytirgich gidrosistemasidagi so'rish bosimini oshiradi. Yuklama oshib ketgan hollarda moyni to'g'ridan-to'g'ri harakatni pasaytirgich karteriga qo'yib yuboruvchi saqlash klapani 6 ishlaydi va shu bilan transmissiya detallarini sinishdan saqlaydi.

Harakatni pasaytirgich gidrosistemasiga UQ korpusiga qo'yiladigan moy me'yordan 10 l atrofida ko'proq moy quyiladi.

## 6.11. Tarqatish qutilari

Tarqatish qutilari barcha g'ildiraklari yetaklovchi traktorlarga UQdan chiqqan burovchi momentni uning yetaklovchi ko'priklariga taqsimlash uchun o'rnatiladi. Odatda, u UQning orqasidan yoki yonidan o'rnatilib, UQ korpusga yoki alohida korpusga joylashtirilgan bo'ladi. Ayrim hollarda u ko'p tarkibli UQning oxirgi reduktori bo'lishi ham mumkin.

*Tarqatish qutilarining turlari.* Traktor tarqatish qutilarini quyidagi asosiy belgilari bo'yicha turlarga bo'lish mumkin:

- burovchi momentni taqsimlash xarakteri bo'yicha;
- chiqadigan quvvat oqimining soni bo'yicha;
- uzatishlar soni bosqichlarining soni bo'yicha;

– yetaklanuvchi vallarni ulash turi bo'yicha.

Uzatmalar qutisi *burovchi momentni taqsimlash xarakteri* bo'yicha *differensiallik* yoki *yetaklanuvchi vallari doimiy yuritmada* bo'lgan turlariga bo'linadi. Birinchi holda har bir yetaklovchi ko'priq harakatlantirgichlarning tuproq bilan tishlashishiga bog'liq holda burovchi moment hissasidan foydalanadi, bu ishlovchi ko'priklarda parazit quvvatni sirkulyatsiyasi sodir bo'lishini bartaraf etadi. Ikkinci holda qattiq qoplamlalik yo'llarda harakatlanganda yetaklovchi g'ildiraklarning dumalash radiuslari farqidan hosil bo'lgan parazit quvvatni sirkulyatsiyasi sodir bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarilayotgan traktorlarda asosan o'qlararo differensiali bo'lмаган tarqatish qutilari qo'llaniladi.

Ajratiladigan quvvat oqimlari soni bo'yicha ular yakkalangan yoki ikkilangan bo'ladi: yakkalangan tarqatish qutilari 4K4a klassik komponovkaga ega bo'lgan oldingi g'ildiraklari yetaklovchi kichik diametrga ega bo'lgan traktorlarga, ikkilangani esa 4K4b yetaklovchi g'ildiraklari bir xil diametrga ega bo'lgan traktorlarga o'ratiladi.

Bosqichlarning soni bo'yicha tarqatish qutilari bir yoki ikki bosqichli bo'ladi. Ikki bosqichli tarqatish qutilari ko'p tarkibli UQ diapazonli chiqish reduktori bilan birgalikda yasalgan hollarda qo'llaniladi.


Yetaklanuvchi vallarni ulash usullari bo'yicha tarqatish qutilari doimo ulangan, avtomatik ulanadigan va aralash turlarga bo'linadi. Birinchi xillari 4K4b traktorlarida qo'llaniladi. Bunda yetaklovchi vazifasini oldingi yoki orqa ko'priq bajarishi mumkin, ikkinchisi esa MTAning ishslash sharoitiga bog'liq holda traktorchi tomonidan ulanishi mumkin.

Avtomatik ulanish, g'ildiraklari doimo yetaklovchi bo'lgan 4K4a traktorining orqa yetaklovchi ko'prigi shataksirashi darajasiga qarab oldigi yetaklovchi ko'prigining ulanishi sodir bo'ladi. Bu holda yuritmada turli-tuman MSXdan yoki boshqa avtomatik tizimlardan foydalaniladi. Odatda oldingi yetaklovchi ko'prigining avtomatik ulanishi, traktorning shataksirashi 4...6% dan oshganda sodir bo'ladi.

Yetaklovchi ko'priksi aralash ulanishi boshqarish organlarining holatiga qarab, avtomatik va (traktorchining ixtiyoriga qarab ulash amalga oshiriladigan) majburiy blokirovkalanadigan turlarga bo'linadi.

**Tarqatish qutilarining sxemalari.** Doimo ulangan oddiy bir bosqichli tarqatish qutisining kinematik sxemasi 6.34-a rasmida keltirilgan.

UQ korpusi 1 ga yetaklanuvchi shlitsalik val 6 ga ega bo'lgan tarqatish qutisining karteri 5 qotiriladi. Val 6 ga UQsining yetaklanuvchi vali 2 yuritma shesternyasi 3 bilan ilashmaga kiruvchi shesternya-karetka 4 o'rataligan. Flanets 7 ga 4K4a traktorining oldingi yetaklovchi ko'priq yuritmasining kardanli vali qotiriladi.



6.34-rasm. Tarqatish qutilarining sxemalari

Murakkabroq kinematik sxemaga ega bo'lgan bir bosqichli tarqatish qutisi 6.34- b rasmida keltirilgan. Tarqatish qutisining barcha qismi va aggregatlari, UQ korpusi 14 yonidan flanets bilan birlashtirilgan karter 6 ga o'rnatilgan. Tarqatish qutisining yetaklovchi

shesternyasi 9 UQning yetaklanuvchi vali 1 shesternyasi bilan doimiy ilashmada bo‘lgan oraliq shesternya 3 dan harakatga keltiriladi. Shesternya 9 rolikli MSX tashqi oboymasiga o‘rnatilgan, uning ichki oboymasi 7 esa tarqatish qutisining yetaklanuvchi vali 5 (chizma bo‘yicha) o‘ng uchiga erkin o‘rnatilgan. Shesternya 9 va oboyma 7 ning chap tomonidan mos ravishda ichki tishli gardishlar 11 va 10 o‘rnatilgan. Val 5 ning chap shlitsalik qismiga uzilgan holatda ko‘rsatilgan ikki gardishlik blokirovka muftasi 12 o‘rnatilgan. U MSXni majburiy ravishda ulash va ajratish hamda oldingi yetaklovchi ko‘prikni majburiy ulash uchun xizmat qiladi. U o‘ng tomonga surilganda uning kichik tishli gardishi tishli ichki gardishi 10 bilan ilashmaga kiradi, natijada MSX yordamida oldingi ko‘prikni avtomatik rejimda ulanishi ta’minlanadi. Mufta 12 ni yanada o‘ngga surilishi, uning katta tishli gardishi MSX ning ishlashini blokirovkalab shesternya 9 ni val 9 bilan birlashtiradi. Val 5 ning uchiga kardanli valning oldingi ko‘prikka ulovchi flanetsi o‘rnatilgan.

Oldingi yetaklovchi ko‘prikni avtomatik ulash prinsipi, traktorming yetaklovchi g‘ildiraklariga quvvat berilganda transmissiyaning uzatishlar sonini sun‘iy ravishda buzishdan iborat. Uzatishlar soni shunday tanlanishi kerakki, traktorming orqa yetaklovchi g‘ildiraklarida shataksirash bo‘limganda, erkin dumalayotgan oldingi g‘ildiraklaridan aylanma harakat oluvchi MSXning ichki oboymasi, motor quvvati berilgan tashqi oboyma 8 ga nisbatan tezroq aylansin. Buning natijasida MSXning roliklari, 4 oboymalarni ponalamasdan va motor oldingi ko‘prikka quvvat uzatmasdan erkin buriladi.

Traktorning tortish kuchini ortishi natijasida orqa g‘ildiraklarnig shataksirashi ortadi, harakat tezligi va oboyma 7 ning aylanishlar chastotasi pasayadi. Orqa yetaklovchi g‘ildiraklarning shataksirashi 4...6% bo‘lganda oboyma 7 va 8 larning aylanishlar chastatotasi tenglashadi. G‘ildiraklarni shataksirashi kattaroq bo‘lganda tashqi oboyma 8 ichki oboyma 7 ga nisbatan tezroq aylanadi, roliklar 4 ponalanib, quvvatni motordan oldigi yetaklovchi ko‘prikka uzatadi va MSX bir butun bo‘lib aylanadi. Shataksirash ko‘rsatilgan chegaralardan pasayganda, oldingi ko‘prik avtomatik ravishda uziladi va u yana yetaklanuvchi bo‘lib qoladi. Traktor g‘ovak va nam

tuproqlarda ishlaganda, yetaklovchi g'ildiraklarning shataksirashi sezilarli bo'lsa, MSXni yeyilishini kamaytirish maqsadida blokirovkalagan MSX bilan ishlash tavsiya etiladi.

Bunga o'xshash tarqatish qutilarining ayrim tuzilmalarida, tishli blokirovka muftalarining o'rniga, gidravlik siqishga ega bo'lgan ko'p disklik friksion muftalar qo'llaniladi.

6.34- d rasmida ikki bosqichli ikkilangan, UQ umumiy korpusi 4 ning alohida bo'linmasiga o'rnatilgan doimiy ulangan tarqatish qutisining prinsipial kinematik sxemasi ko'rsatilgan. Tarqatish qutisinig bunday sxemasi 4K4b traktorlarda qo'llaniladi, ular doimiy ulangan bo'lib, yetaklovchi oldingi ko'priq hisoblanadi. Ikki bosqichli reduktor doimiy ilashmada bo'lgan UQ vali 2 ni oldingi yetaklovchi ko'priq yuritmasi vali 9 bilan birlashtiruvchi ikki juft shesternyalar 1 va 3 dan tuzilgan.

Tishli blokirovka muftasi 8 traktorning kuchaytiruvchi (quvvat shesternya 1 orqali uzatiladi) yoki pasaytiruvchi (quvvat shesternya 3 orqali uzatiladi) tezlik rejimida ishlaydi. Val 9 ning orqa yetaklovchi ko'priq yuritmasi vali 6 ning oldingi tayanchiga podshipnik o'rnatilgan. Orqa etaklovchi ko'priknинг ulanishi tishli blokirovka muftasi yordamida, uni chapga (chizma bo'yicha) surish, vallar 9 va 6 ni bir umumiy valga birlashtirish bilan amalga oshiriladi. Ularning flanetslari 10 va 5 ga yetaklovchi ko'priklarning kardanli vallari ullanadi.

Orqa yetaklovchi ko'priq MTAning ish sharoitiga bog'liq holda traktorchi tomonidan ullanadi va uzeladi. Qattiq qoplamlalik yo'llarda harakatlanganda «parazit» quvvatni aylanishini oldini olish uchun orqa yetaklovchi ko'priksiz ishlash tavsiya etiladi. Mavjud 4K4b traktorlarida orqa yetaklovchi ko'priq doimo ulangan bo'ladi.

## 6.12. Uzatishlar qutisi mexanizmlarini moylash

Ishqalanishda energiya yo'qotilishini kamaytirish va UQni ishlash muddatini oshirish uchun u bilan kinematik bog'langan transmissiya aggregatlari va ularnig barcha podshipikli qismlari, ishlashmadagi shesternya tishlari va boshqa o'zaro tutashuvda bo'lgan harakatlanuvchi detal sirtlari moylanishlari zarur. Moylash ishqalanish sirtlarining temperaturasini pasaytiradi, ulardag'i yeyilish

mahsulotlarini chiqarib yuborishga yordam beradi va detal sirtlarini korroziyadan saqlaydi.

UQ guruh mexanizmlari ishqalanish sirtlariga ularning tuzilmalarini murakkabligiga bog'liq holda moyni uzatishning sachratib, bosim ostida va aralash moylash sistemalari qo'llaniladi.

Sachratib moylash sistemasi tuzilmasi soddarоq bo'lган, tortish sinfi kichikroq bo'lган va uzatmalarni gidravlik siquvchi mustasiz uzatmalari almashtiriladigan traktorlar UQda qo'llaniladi. Ishqalanish sirtlarini sachratib moylash sistemasida moylash, moy tumani bilan amalga oshiriladi. Moy tumani UQ korpusida aylanayotgan shesternya tishlari bilan karterga quyilgan moyni ilashtirish va sachratish natijasida hosil bo'ladi. Moy odatda korpusdagi eng pastki shesternyalik val o'qidan sal pastroq bo'lган sathgacha quyilib, u traktoring harakatidan qat'iy nazar doimo aylanib turishi lozim. Agar val faqat traktorning harakati paytida aylansa, unda UQda yetaklovchi vali bilan kinematik bog'langan alohida moyni sachratuvchi shesternya bo'lishi lozim.

Agar UQ alohida agregat sifatida, traktorning orqa ko'prigi korpusining orqasiga joylashtirilgan bo'lsa, ularning mexanizmlari umumiy moy quyish uchun mo'ljallangan hajmiga ega bo'lsa, moy quyish bo'g'izi UQ korpusining ustida yoki yon qismida joylashgan bo'ladi. Moy sathini nazorat qilish uchun odatda moy o'lchash chizg'ichlaridan, nazorat probkalaridan, moy sarsining chegarasini ko'rsatuvchidan yoki moy sathini ko'rsatuvchi (moyni o'lchash oynasi)dan foydalaniadi.

UQ korpusidagi moy tumanining haroratini oshishini oldini olish uchun (traktor uzoq muddat ishlaganda) uning yuqori qismiga odatda sapun o'rnatiladi. Bunday qurilma UQ ichki bo'shlig'ida havoning atmosfera bosimini ushlab turadi va moy tashqariga chiqarib yuborishni oldini oladi.


Ishlatilgan moyni to'kish uchun mo'ljallangan tilinga, odatda, moydagи yeyilish mahsulotlarini ishonchliroq chiqarib yuborish uchun magnit o'rnatiladi.

Bosim ostida moylash sistemasida yetib borish murakkabroq va UQning yuklangan podshipnik qismlariga hamda boshqa transmissiya agregatlariga moy uzatish uchun odatda shesternyalik nasos va moy yo'llari sistemasi majburiy element hisoblanadi. Bunga o'xshash

tizimlar UQning murakkabroq bo'lgan tuzilmalarida, doimiy ilashmada bo'lgan shesternyali, gidravlik siquvchi friksion mustali planetar UQlarida qo'llaniladi. Ayrim hollarda ularda moyni tozalovchi filtrlar, uni sovitish uchun moy radiatorlari va moy bosimini nazorat qilish uchun manometrlar qo'llaniladi. Bosim ostidagi moy birinchi navbatda doimiy ishlashmada bo'lgan shesternya podshipniklarini moylash uchun uzatiladi, ular uchun odatdagi moy tumani bilan moylash yetarli bo'lmasdan qoladi.

6.14-rasmida tishli blokirovka muftasi 7 ning yetaklovchi stupitsasiga o'rnatilgan doimiy ilashmada bo'lgan shesternya 5 ning ignasimon podshipniklar 4 ni moylash prinsipial konstruktiv sxemasining bir qismi ko'rsatilgan. Moy so'ruvchi nasosdan (gidravlik siqishga ega bo'lgan friksion blokirovka muftasi gidravlik sistemasidan alohida) bosim ostida (odatda  $0.2 \pm 0.05$  MPa) moy o'tkazuvchi mufta 16 ning so'ruvchi moy yo'li 2 ga keladi. Moy halqa bo'yicha kesilgan ariqcha 2 ga keladi va undan so'ng radial teshiklar 15 bo'yicha val 9 ning markaziy taqsimlash kanali 13 ga uzatiladi. Rezbalik qopqoq 14 va zichlovchi 12 kojuxdan moyni tashqariga oqib ketishini oldini oladi. Moy kanal 13 dan radial teshiklar 6 dan stupitsaning ichki ariqchasi 10 ga va undan so'ng radial teshiklar 11 orqali podshipniklar 4 ga kelib tushadi.

Val 9 ni qotirish podshipnigi 3 ni moylash val saphasi va mufta 16 ning orasidagi tirkishlariga kirgan moy bilan amalga oshiriladi.



**6.35-rasm. UQ shesternyalaridagi ignasimon podshipniklarni moylash**

Aralash sistemadagi moylash bosim ostida moylashning bir turi hisoblanadi, moyning bir qismi aylanayotgan shesternyalar bilan moy tumani hosil qilish uchun sachratiladi. Undan tashqari aylanayotgan shesternyalarning bir qismi, UQ ichidagi moyli idishdagi moy bilan tutashib, qo'shimcha moy tumanini hosil qiladi. Ko'pchilik zamonaviy va planetar UQlarda, ayniqsa baquvvat sanoat traktorlarida aralash moylash sistemasi qo'llaniladi. UQ mexanizmlari guruhini moylash uchun transmissiya moyidan foydalilanildi.

### **6.13. Uzatmalar qutisiga texnik xizmat ko'rsatish**

*Asosiy nosozliklar va ularni bartaraf etish.* UQga, planetar UQga va ular bilan yo'l-dosh bo'lgan agregatlarga texnik qarov o'tkazish quyidagilardan iborat: rezbalik birkalmalarni sistemali ravishda tekshirish va ularni qotirish; korpuslardagi va karterlardagi moyning sathini tekshirish, unga qo'shimcha moy quyish yoki to'liq almashtirish; boshqarish tizimlarini tekshirish; lozim bo'lgan barcha rostlash ishlarini amalga oshirish. UQ tashqi nazorat qilinganda vallarning tashqi zichlovchilarini va zichlovchi qistirmalarning ahvoliga moy oqmasligini oldini olish maqsadida ahamiyat berish.

Texnik qarov operatsiyalarini o'tkazishdan oldin, qarov o'tkaziladigan joyini, korpus va karter ichkarisiga abraziv va begona suyuqliklarni tushishini bartaraf qilish maqsadida loydan va namlikdan yaxshilab tozalash.

Friksion muftalarning va gidravlik siquvchi tormozlarning gidravlik boshqarish tizimiga texnik qarov o'tkazilayotganda. asosiy diqqatni moy yo'llaridagi va nazorat asboblaridagi so'ruvchi va bosim hosil qiluvchi tizimlardagi filtrlarning ahvoliga ahamiyat berish lozim.

Ko'rib o'tilgan UQ agregatlar guruhining korpuslaridagi moyni almashtirishda, ishlatib bo'lingan moyni to'kish traktor ishini tugatgandan so'ng darhol amalga oshirish lozim, chunki qizigan moy bilan yeyilish mahsulotlarining ancha qismi chiqib ketadi. Moyni to'kish vaqtli yetarli darajada uzoq muddatli bo'lishi lozim, chunki transmissiya detallarni moylash tizimining turli kanallardagi va UQni boshqarish gidrosistemasi dagi moy oqib ulgurishi kerak. Moy to'kib bo'lingandan so'ng, korpus va karterlar dizel yonilg'isi bilan yuviladi va shundan keyin yangi moy quyiladi.

Tashqi belgilar bo'yicha quyidagi nosozliklar ko'proq uchraydi: agregatlar korpusidan moy oqishi va uni qattiq qizishi; ishslash paytida shovqin-suronlik darajasining kattaligi; uzatmalarni almashtirishning qiyinlashuvi; uzatmalarni o'z-o'zidan uzilishi; UQni boshqarish gidravlik tizimida bosimning pastligi yoki yuqoriligi.

Agregat korpuslaridan moyni oqishiga hamda qizishiga sabab, uning qotirish detallarini bo'shashi va chiqish vallari zichlovchilaridan va zichlovchi qistirmalardan moyning oqishi. Bu nuqsonlarni bartaraf etish uchun korpus va karterlardagi barcha rezbalik birikmalarini qotirish va zichlovchilarni almashtirish mumkinligi.

Shovqin-suron shesternya tishlarining, podshipniklarning va val shlitsalarinning yeyilish oqibati hisoblanadi. Unday nuqsonlarni bartaraf etish uchun yeyilgan detallarni almashtirish talab etiladi.

Uzatmalarni almashtirishning qiyinlashuvi asosan val shlitsalarining yeyilishi, ularda va shesternya tishlarida ezilish (agar uzatmani almashtirish shesternya-karetka bilan amalga oshirilsa), hamda shlitsalarning yeyilishi va tishli blokirovka muftalarida ezilish (uzatmalarni almashtirish doimiy ilashmali shesternya bilan amalga oshirilganda). Uzatmalarni almashtirishdagi buzilish UQ blokirovka qurilmalarida rostlanishni va UQni boshqarish gidravlik tizimidagi nosozliklarni paydo bo'lishi.

Uzatmalar qutisi gidravlik siquvchi muftalaridagi past bosim, ularning korpuslaridagi moyning kamligi moy qabul qilish filtrning haddan tashqari ifloslanishi, reduksion klapanning o'tirib qolishi, moy yo'llarining germetikligini buzilishi va gidronasosning shikastlanishi natijasidir. Bunday nuqsonlar moyni kerakli nazorat sathigacha quyish, filtrni va klapanni yuvish, ularni almashtirish, moy yo'llarini germetiklash va nasosni ta'mirlash yoki almashtirish yo'li bilan bartaraf etiladi.

Moy bosimining yuqori bo'lishi reduksion klapanni noto'g'ri rostlash bilan bog'liq. Bu nuqsonni bartaraf etish klapanni yuvish va kerakli bosimga rostlash bilan amalga oshiriladi.

Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning barcha operatsiyalari, traktorni ishlatish bo'yicha ishlab chiqaruvchi korxonaning ko'rsatmasi asosida bajarilishi lozim.

## 6.14. Mexanik uzatmalar qutisining rivojlanish tendensiyasi

Qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligini ortishi zamonaviy traktorlarning tezligini va energiyaga to'yinganligining ortishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham traktorlarda ko'proq, motorning yuqori yuklanish darajasida va tejamkorlikda ishlashini ta'minlovchi, yuqori darajadagi avtomatlashtirish va yaxshi himoya xususiyatlariga ega bo'lgan bosqichsiz gidromexanik va gidrohajmiy transmissiyalarni qo'llashni taqozo qiladi. Bunday transmissiyalar ayniqsa, tortish yuklamalari o'zgarishining katta oralig'ida ishlovchi sanoat uchun mo'ljallangan traktorlar uchun zamonaviy hisoblanadi.

Shular bilan bir qatorda mexanik UQni tuzilmasini mukammallashtirish va ulardan kelajakda keng foydalanish uchun katta imkoniyatlар mayjud. Mexanik UQning tuzilishini mukammallashtirishning ikki asosiy tendensiyasini kuzatish mumkin:

– odatdagи kinematik sxema asosida yasalgan shesternyalik UQ-larning puxtaligini oshirish;

– UQ ning yangi kinematik sxemalaridan foydalanish, ular yuqori puxtalikda traktorning ishlatish xususiyatlarini va uning ish unumini ancha oshirish, traktorni uzatmalarini uni to'xtatmasdan almashtirish, yuqori tezlikda ishlayotgan traktor aggregatining shig'ovlashini yengillashtirish, kerakli tezliklar oralig'ini kengaytirish imkonini beradi.

UQ dagi tishli uzatmalarni yejilishbardoshligini va ishlash muddatini oshirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

– shesternya tishlariga mukammallahgan korreksiya turlarini tadbiq etish;

– ilashmadagi qiyshayishlarni kamaytirish;

– shesternya va (ayniqsa shlitsalik) vallarni yasash texnologik jarayonlarini mukammallashtirish;

– mexanik va ximik-termik ishlov berishga qulayroq bo'lgan po'latlarning yangi turlarini qo'llash;

– UQ karterining umumiy bikirligini, vallarning markazlash-tirishning aniqligini, podshipniklik qismlarning puxtaligini oshirish;

– o'tqazish sirtlarining qattiqligini oshirish va zichroq o'tqazish tanlash.

UQning zamonaviy tuzilmalarida tish cheti yeyilishga uchramaydigan, doimiy ilashmada bo'lgan shesternyalar keng qo'llanilmoqda. Bunda silindrik qiyishiq tishli shesternyalar zamonaviy hisoblanadi, chunki ular xuddi shunday o'lchamdag'i to'g'ri tishli uzatmalarga nisbatan kattaroq yuk ko'tarish qobiliyatiga ega va UQdagi shovqinni ancha pasaytiradi.

UQning puxtaligiga uning boshqarish mexanizmi tuzilmasining mukammalligi katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqarish vilkalari boshqarish polzunlari bilan bir butun shtamplanadigan tuzilmalar afzalliklariga ega.

UQning zamonaviy tuzilmalarida uzatmalarni almashtirish uchun sinxronizatorlar (g'ildirakli traktorlarda) va gidravlik siquvchi muftalar keng qo'llanilmoqda. Bunda gidravlik siquvchi muftalar uzatmalarni quvvat oqimini uzib yoki uzmasdan almashtirishni ta'minlaydi.

UQning ishslash muddatiga uning karteri germetikligini va detallarining moylash puxtaligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish mukammalroq salnik, zichlovchi qistirmalar, elastik moyga chidamli g'iloflar va salnikli zichlovchilarni ishini yaxshilovchi moy qaytargich qurilmalar qo'llash bilan amalga oshiriladi. Qopqoqlarni o'rnatish va UQ korpus detallarini birlashtirish joylarida germetiklardan foydalanish zamonaviy uslublardan hisoblanadi. Bu usul abraziv zarrachalarni UQga tushib qolish ehtimolini pasayishiga, shesternyalarini va podshipniklari ishslash muddatini sezilarli oshishiga olib keladi.

Katta yuklanishda ishlovchi podshipniklik qismalarni va shesternyalik ilashmalarni yaxshi moylash uchun maxsus moy yig'uvchi lotoklar, o'q va vallarda chuqurchalar va maxsus trubkalar qo'llaniladi. Podshipnik qismlarini va shesternyalarni alohida moy nasosi bosimi ostida moylash ko'proq qo'llaniladi.

Harakat davomida uzatmalari almashtiriladigan UQlari turli kinematik sxemalar bo'yicha yasalishi mumkin, ularda barcha uzatmalar yoki faqat berilgan oraliq guruhidagi uzatmalar traktorni to'xtatmasdan almashtirilishi mumkin, oraliqlarning o'zları esa shesternya-karetkalar bilan yoki tishli muftalar bilan traktorni to'xtatib quyta ulanadi.

Zamonaviy baquvvat g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirlik traktor tuzilmalarida ikki va uch erkinlik darajasiga ega bo'lgan planetar UQ keng tarqalgan. Bunda ko'proq aralash UQ tuzilmasi tez-tez uchrab turadi.

Qishloq xo'jaligida traktor ko'proq past tezliklar 0,027...0,42 m/s oralig'ida ishlagani munosabati bilan, kerakli tezliklar oralig'ini ta'minlovchi harakatni pasaytirgichlar kerak. Ko'proq bosqichsiz aralash harakatni pasaytirgichlar, asosan gidrohajmiy xildagi past tezlikni bosqichsiz rostlovchi harakatni pasaytirgichlar qo'llanilmoqda.

# GIDRODINAMIK, GIDROHAJMIY VA ELEKTRIK UZATMALAR

## 7.1. Gidrodinamik uzatmalar

Yuqorida 4-bobda traktorlarda qo'llaniladigan ikki turdag'i gidrodinamik uzatmalar: gidrodinamik muftalar (gidromuftalar) va gidrodinamik transformatorlar (gidrotransformatorlar) ko'rib o'tildi.

Gidromuftalar transport ishlarida, energiya sig'imi operatsiyalarda, ya'ni harakat yo'nalishini tez-tez o'zgartirishga to'g'ri keladigan yoki MTA harakatiga qarshilik ko'p o'zgaradigan joylarda ishlataladigan o'rtacha va yuqori quvvatli universal qishloq xo'jalik traktorlarida kam tarqalgan.

Gidrotransformatorlar tortish yuklamasining yuqori dinamikligi va maksimal tortish kuchlari sohasida ishlashi bilan tavsiflanadigan sanoat traktorlarida keng tarqalgan.

**Gidrodinamik muftalar.** Gidromuftalarga xos kamchilik - turbina g'ildiragida "qoldiq" moment qolgani sababli toza ajratmaslikdir, bunda uzatmalarни qayta ulash jarayoni qiyinlashadi, chunki mufta sirpanib ishlaydi, uzatmaning FIK pasayadi va yonilg'i ortiqcha sarf bo'ladi.

Gidromustani o'chirgandan so'ng, qoldiq momentini yo'qotishning eng maqsadga muvofiq usuli bevosita friksion ilashmani (FI) o'rnatish hisoblanadi (7.1- a rasm). Uzatmalar almashtirilganda dastlab 4 FM uzeladi va gidrouzatmaning 5 yetaklanuvchi vali UQ ning 6 birlamchi vali ajratiladi.

Bunday konstruktiv yechim odatda qo'zg'almas valli UQ bo'lgan transmissiyalarda qo'llaniladi. Lekin qo'shimcha F kiritish gidrouzatma konstruksiyasini murakkablashtiradi va uning material sarfini oshiradi.


Traktorda planetar UQ yoki yurish chog'ida almashuvchan UQ o'rnatilganda FI rolini UQ ning friksion qismlari bajaradi.

Gidromustaning ulanish aniqligini oshirish uchun boshqa konstruktiv yechimdan ham foydalaniladi, masalan, gidromufsta sirkulyatsiyasi doirasida kirish qurilmasi – halqasimon to'siq 7 turbina g'ildiragidan suyuqlik oqimi chiqish joyiga o'matiladi (7.1- 6 rasm). Nasos g'ildiragini yuqori aylanish chastotasida 2 markazdan

qochma kuchlar suyuqlik oqimini sirkulyatsiya doirasi chekkasi yaqiniga tashlaydi va to'siqcha 7 oqim harakatiga halaqit beradi.

Nasos g'ildiragining aylanish chastotasi pasayganda markazdan qochma kuchlar kamayadi va suyuqlik oqimi gidromufta markaziga yaqinlashadi. Halqasimon to'siq 7 bunda suyuqlik oqimi sirkulyatsiyasiga xalaqit berib, 3 turbina g'ildiragidagi qoldiq momentni kamaytiradi.


Ushbu maqsadda nasos 2 va turbina 3 g'ildiragining parraklari turli uzunlikda tayyorlanib, nasos g'ildiragi parraklari ostida bo'shliq 8 – bo'shatish kamerasi yasaladi (7.1- d rasm). Turbina g'ildiragi aylanish chastotasi kamayganda kamera to'ladi, sirkulyatsiyadanigan suyuqlik miqdori va mos ravishda qoldiq moment kamayadi.



7.1- rasm. Gidromuftalarning sxemalari:

- a – friksion ilashmali; b – halqali to'siq; v – bo'shatish kamerali; 1 – yetakchi val; 2 – nasos g'ildiragi; 3 – turbina g'ildiragi; 4 – friksion ilashma; 5 – yetaklanuvchi val; 6 – UQ ning dastlabki vali; 7 – halqali to'siq; 8 – bo'shatish kamerasi

Halqasimon to'siqli gidromuftalar (7.1-b rasm) mashinaning yuqori qo'zg' alish dinamikasini ta'minlaydi va shuning uchun ishchi sikli yuqori dinamiklik bilan farqlanadigan avtomobillar va traktor yuk ortgichlarda qo'llaniladi.



**7.2-rasm. Avtomatik blokirovkali gidrodinamik musta**

Bo'shatuvchi kamerali gidromuftalar (7.1-*d* rasm) yaxshi himoya xususiyatlariga ega va MTA ning ravon qo'zg'alishini ta'minlab beradi.

Transmissiyadagi gidromufsta sirpanishi bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish, demakki, yonilg'i sarfini kamaytirish gidromufsta yetakchi va yetaklanuvchi vallarini blokirovkalash bilan amalga oshiriladi, bu hol asosan traktor qo'zg'alishi oxirida va MTAni kerakli ish tartibiga chiqqanida sodir bo'ladi. Blokirovkalash majburiy yoki avtomatik bo'lishi mumkin. Blokirovkalovchi qurilmalar sifatida turli konstruksiyadagi friksion elementlardan foydalilanildi.

Avtomatik blokirovkalovchi qurilmali gidromufsta 7.2-rasmda ko'rsatilgan. Nasos g'ildirak 2 motor maxovik 1 da mahkamlangan. Gidromuftaning yetaklanuvchi vali 3 da turbina g'ildiragi *b* va krestovina 5 o'rnatilgan bo'lib, u 9 friksion qistirmalni 8 kolodkalarning ichki o'yiqchasiga kirib turadi. Val 3 ning hisobiy aylanish chastotasidan oshmaydigan aylanishlarida musta odatdagi hidrodinamik kabi ishlaydi. Val 3 ning aylanish chastotasi keragidan

ortganda kolodka 8 ga ta'sir qiluvchi markazdan qochma kuchlar tortib turuvchi 4 prujinaning qarshilik kuchlarini yengadi va kolodkalar 1 maxovikka siqiladi. Natijada turbina g'ildiragi  $b$  bilan bog'langan 8 kolodkalar oralig'idagi va nasos g'ildiragi 2 bilan bog'langan maxovik 1 orasidagi ishqalanish kuchlari ta'sirida gidromustaning turbina va nasos g'ildiraklari blokirovkalanadi.

**Gidrodinamik transformatorlar.** Turbina g'ildiraklari soniga ko'ra gidrotransformatorlar bir, ikki va uch bosqichli mos ravishda bitta turbina g'ildirakli (7.3-  $a,b$  va  $d$  rasm), ikki g'ildirakli (ris. 7.3-  $g$  rasm) va uch g'ildirakli (7.3-  $h$  rasm) bo'ladi.


Bir bosqichli hidrotransformatorlar oddiy, tejamli va ular traktorlarning bareha turlarida qo'llaniladi. Yuqorida aytilganidek, KPD hidrotransformatorning maksimal FIK 0,92 dan oshmaydi. Bunda uzatmaning turbina g'ildiragining aylanish chastotasiga ko'ra yuqori FIK bilan ishslash sohasi juda tordir.

Shu sababli uzatmaning yuqori FIK bilan ishslash sohasini kengaytirish maqsadida reaktor g'ildiragi erkin yurish muftasiga o'rnatiladi (7.3-  $e$  rasm). Bunda qo'zg'almas reaktor g'ildiragida uzatma hidrotransformator tartibida ishlashi mumkin va u aylanganda esa gidromufsta tartibiga o'tishi kuzatiladi.

Yuqori FIK sohasini kengaytirish maqsadida kompleks gidrouzatmalarni ba'zan ikki reaktorli qilib yasaladi (7.3-  $f$  rasm). Bunday hidrotransformatorning tavsifi uchta tavsifdan iborat: yuqori o'zgartiruvchan xususiyatlari hidrotransformator, past o'zgartiruvchan xususiyatlari hidrotransformator va gidromufsta.

Bir turbina g'ildiragi qo'llanilganda hidrodinamik uzatmaning kerakli xususiyatlari olinmagan holda, ikki va uch bosqichli hidrotransformatorlar qo'llaniladi.

Turbina kurakchalari bo'ylab nisbiy harakatlanayotgan suyuqlik oqimining yo'nalishiga ko'ra markazga intiluvchi, o'qli va markazdan qochma turbinali hidrotransformatorlarni farqlaydilar.



### 7.3-rasm. Gidrodinamik transformatorlarning sxemalari:

a, b, d – bir bosqichli turbinali, mos ravishda markazga intilgan, o'qli, markazdan qochma; g, d – bir va ikki reaktorli kompleks gidrouzatma; e – ikki bosqichli hidrotransformator; j – uch bosqichli hidrotransformator; 1 – nasos g'ildiragi; 2 – turbina g'ildiragi; 3 – reaktor g'ildiragi; 4 – erkin yurish muftasi

Markazga intiluvchi turbinali hidrotransformatorlarda ishchi suyuqlik oqimi turbina g'ildiragi kurakchalari bo'ylab chekkadan markazga yo'nalgan. Markazga intiluvchi turbina hidrotransformatorning ishchi bo'shlig'ida qat'iy nasos g'ildiragi qarshisida joylashadi (7.3-a rasm).

O'qli turbina g'ildiraklari (7.3-b rasm) ishchi bo'shliq chekkalarida shunday joylashadiki, undagi ishchi suyuqlik oqimi hidrotransformatorning yetakchi va yetaklanuvchi vallarini aylanish o'qiga taxminan parallel yo'nalgan. Markazdan qochma turbina g'ildiraklari (7.3-d rasm) nasoslar ustiga joylashgan bo'lib, suyuqlik oqimi ular bo'ylab nasos g'ildiraklaridagi kabi markazdan chekkaga qarab harakatlanadi.

Turbina g'ildiragining turi o'zgarsa, reaktor g'ildiragining holati ham o'zgaradi. Zamonaviy traktorlarda faqat markazga intiluvchi turbinali hidrotransformatorlar qo'llaniladi.

Ikki bosqichli (7.3-e rasm) va uch bosqichli (7.3-h rasm) gidrotransformatorlarda turbina g'ildiragining turli bosqichlari markazdan qochma va markazga intiluvchi tarzida ishlanadi.

Turbina validagi yuklanishni nasosning ishlash tartibiga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra razlichayut gidrotransformatorlar shaffof va shaffof bo'limgan tavsifli, to'g'ri va teskari shaffofli turlarga farqlanadi.

*Shaffof bo'limgan tavsifli gidrotransformatorlarda* turbina g'ildiragidagi burovchi moment o'zgarganda, motor vali bilan bog'langan nasos g'ildiragidagi burovchi moment o'zgarmaydi (4.7-rasm). Natijada motor doimiy yuklanish tartibida ishlaydi.

*Shaffof tavsifli gidrotransformatorlarda* turbina g'ildiragidagi burovchi moment o'zgarganda nasos g'ildiragidagi burovchi moment ham o'zgaradi. Ko'rinib turibdiki, traktorga ushbu xususiyatlari gidrotransformator o'matilganda motor ish tartibi turbina validagi yuklamani o'zgarishiga monand o'zgaradi. Bu shaffof gidrotransformatorning ijobiy xususiyati bo'lib, u motorning o'zgartirish xususiyatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, yonilg'ining o'rnatilgan uzatish tartibida tashqi yuklamaning oshishi bilan motor yuqori moment tartibiga o'tadi yoki aksinecha. Bu motorning zaxiraviy burovchi momentga ega bo'lgan traktorning dinamik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Agar shaffof xarakteristikali gidrotransformator trubina validagi moment oshishi bilan nasos g'ildiragidagi moment ham oshib borsa, uning to'g'ri shaffofli gidrotransformator, agar moment kamaysa – teskari shaffofli gidrotransformator deyiladi.

Gidrotransformatorning shaffoflik darajasining  $P$  koeffitsiyenti bilan baholanib, nasos g'ildiragi validagi burovchi momentning  $PM=0$  dagi nasos g'ildiragidagi burovchi momentiga nisbati  $Mm_{mm} = M_m$  aytildi (4.7- rasmdagi  $a$  nuqta).

$P=1$  koeffitsiyentida transformator noshaffof,  $P>1$ - shaffof bo'ladi. 4.7-rasmda noshaffof gidrotransformator tashqi xarakteristikasi berilgan traktordan qo'llanilgan gidrotransformatorlarning shaffoflik koeffitsiyenti  $P=1.2 \dots 2.0$  ga teng bo'ladi.


Doimiy quvvatli motorlardan faqatgina shaffof gidrotransformatorlarni ishlatish lozim, chunki ular uni o'zgartirish xususiyatini ochib beradi. Shaffof gidrotransformatorlar maksimal

FIK noshaffoflarga nisbatan birmuncha yuqori, bu esa suyuqlik bosimining yuqoriligi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, DKM lar shaffof gidrotransformator tashqi yuklanishning ortishi barham topadi, shuning uchun transformator birmuncha kichik transformatsiya ham, koeffitsiyentlarda ishlatalish mumkin, ya'ni maksimal FIK rejimlarga yaqinroq bo'ladi.

Umum qo'llanishli zamona viy sanoat traktorlarining gidromexanik uzatmalarida bir bosqichli bir yoki ikki reaktor g'ildirakli kompleks gidrouzatmalar keng qo'llaniladi (7.3-e, fasm).

Kompleks gidrodinamik uzatmalarni, ular gidrotransformator va gidromusta rejimida ishlashi mumkinligiga qaramasdan, odatda gidrotransformator deyiladi.

7.4-rasmda 3 va 4 sinf sanoat traktorlariga o'rnatish uchun mo'ljallangan GTR-3900 (NATI) gidrotransformatorining konstruksiysi keltirilgan. Gidrotransformator bir diska blokirovkalash muftasi 6, erkin yurish muftasi 12 va mustaqil QOV 1 dan iborat. Ishchi g'ildiraklar alyuminiy qotishmasidan bir butun profilli kuraklar tarzida yasalgan.



**7.4-rasm. GTR-3900 hidrotransformator konstruksiyasi (NATI):**

- 1 – mustaqil QOV; 2 – almashuvchan vtulka; 3 – old sharikli podshipnik;
- 4 – tishli mufta toji; 5 – tishli g’ildirak; 6 – bir diskli blokirovkalash multasi;
- 7 – nasos g’ildiragi qopqog’i; 8 – tayanch disk; 9 – turbina g’ildiragi; 10 – nasos g’ildiragi; 11 – reaktor g’ildiragi; 12 – erkin yurish multasi; 13 – rolikli podshipnik; 14 – orqa sharikli podshipnik; 15 – reaktor o’qi; 16 – reaktor o’qini quvur qismi; 17 – sirpanish podshipnigi; 18 – turbina vali; 19 – turbina g’ildiragi gupchagi


Nasos g’ildiragi 10 va qopqoq 7 bilan jihozlangan aylanuvchi korpusga tishli mustanining ichki 4 toji mahkamlangan, u orqali motor tirsaklı validan moment nasos g’ildiragiga uzatiladi. Hidrotransformatorning korpusi tishli mustanining old chizig’i bilan motor moxovigi yo’nig’ida markazlanadi. Aylanuvchi korpusning 2-tayanchi podshipnik 13 bo’lib, uning ichki oboymasi reaktor o’qi 15 ga presslangan.

Turbina g'ildiragi 9 gupchak 19 ga birikkan, gupchak turbina valiga shlitsalar bilan ulangan va valda markazlovchi kamarlar yordamida markazlanadi. Turbina vali ikkita dumalash podshipnigida 3 va 14 aylanib, birinchisi radialdan tashqari nasos va trubinaga ta'sir etuvchi o'q bo'ylab yo'nalgan kuchlarni qabul qiladi va korpusni turbina valiga nisbatan o'qiy siljishlardan ushlab turadi.

Ikkinci podshipnik 14 trubina valini o'q siljishlardan ushlab turadi. Reaktor g'ildiragi 11 ikki qatorli erkin yurish muftasi 12 da o'matilgan bo'lib, u bir vaqtning o'zida reaktor g'ildiragining radial podshipnigi hisoblanadi. Reaktorning chet tayanchlari sirpanish podshipniklar 17 hisoblanadi.

Gidrotransformatordagagi ishchi jarayon suyuqlik harakati tezligini o'zgarishi, tizimning turli joylarida bosim o'zgarishi bilan kechadi. Bunda kutilmagan holatlar, masalan kavitsatsiya, vibratsiya hodisalarini yuzaga kelishi mumkin. Kavitsiyani yo'qotish va uning oqibatlariga uchramaslik uchun, gidrotransformator ishchi suyuqligi ta'minlash tizimida ortiqcha bosim bilan ushlab turiladi. Uning qiymati ishchi suyuqlikning keltirish joyiga, gidrotransformator turiga va uning ish tartibiga bog'liq. Gidrotransformatorlarda ishchi suyuqlik bosimi 0,15...0,7 MPa bo'ladi.

Kerakli ish sharoitini ta'minlash va gidrotransformator ishini nazorat qilish uchun ta'minlash bloki qo'shimcha qurilmalar: ta'minlovchi nasos, suyuqlikni sovitish radiatorlari, filtrlar, monometrlar va boshqa qurilmalar bilan ta'minlanadi. Gidrotransformatorlarni ta'minlash tizimlarining bir qancha konstruksiyaviy sxemalari mavjud. Lekin ularning barchasi 7.5-rasmda ko'rsatilgan asosiy elementlarni o'z ichiga.



### 7.5-rasm. Gidrotransformatorning ta'minlash tizimini principial sxemasi:

- 1 – moy baki; 2 – moy sathi ko'rsatgichi; 3 – filtrli moy quyish bo'yini;
- 4 – nasos; 5 – filtr, o'tkazib yuboruvchi klapani bilan; 6 – reduksion klapan;
- 7 – gidrotransformator; 8 – termometr; 9 – ko'makchi klapan; 10 – o'tkazib yuboruvchi klapanli moy sovutgich;
- 11 – monometr; 12 – chekllovchi klapan

Moy baki 1 ning hajmi mayjud traktorlarda nasos 4 ning yarim minutlik ish unumdorligiga teng bo'ladi. Maxsus ko'piklashga qarshi qo'shimchalar qo'yilganda va ishchi suyuqlikni atmosfera bilan tutashuvini cheklovchi konstruktiv tadbirlar o'tkazilganda, bak hajmini kamaytirish mumkin. Nasos 4 bak 1 dan moyni so'rib olib, filtr 5 orqali uni asosiy reduksion klapan 6 ga uzatadi. Nasosdan chiqishda cheklovchi klapan 12 qo'yiladi, filtr 5 ga esa parallel ravishda o'tkazib yuboruvchi klapan qo'yiladi, filtr ifloslanganda moy uni chetlab o'tib ketadi.

Reduksion klapan 6 gidromexanik transmissianing gidravlik boshqarish tizimi asosiy magistralidagi bosimni cheklaydi. Unga 7 gidrotransformatori ta'minlash to'kish magistrali orqali amalga oshadigan qilib o'rnatiladi. Ushbu holatda uzatmalarning almashtishida gidrotransformator ta'minlovchi magistraldan uzeladi, bu esa gidrosiquvchi friksion muftalar bilan uzatmalarni almashtirish va ularning sirpanish vaqtini ham kamaytiradi.

Reduksion klapan 6 dan ishchi suyuqlik gidrotransformator 7 ga berilib, unga kirishda ko'makchi klapan 9 o'rnatilgan, bu klapan gidrotransformatorni ta'minlash bosimiga sozlangan. Gidrotransformatorni ta'minlash to'xtaganda u to'kish magistralini bekitadi va bir qancha muddat mobaynida gidrotransformatorda ortiqcha bosimni ushlab turadi. Ko'makchi klapan 9 dan so'ng ishchi suyuqlik 10 sovitgichga tushadi. Unga parallel o'tkazib yuboruvchi klapan qo'yilgan bo'lib, u ishchi sovitgichni suyuqlikning bosimi oshganida buzilishdan saqlaydi. Bosimning oshishi sovitgichni to'lib tiqilib qolishi yoki ishchi suyuqlikni past temperaturada qovushqoqligi tushib ketishi bilan bog'liq bo'ladi.

**Gidromexanik uzatmalar.** Gidrotransformatorlarni kuchini rostlash diapazoni 2,5...3,5 oralig'ida bo'lib, bu traktor transmissiyasi uchun kichik ko'rsatkichdir. Rostlash diapazonlarini kengaytirish uchun traktor transmissiyalarida gidrodinamik transformatorlar faqat mexanik bosqichli UQlar bilan birligida qo'llanib, ular gidromexanik uzatma (GMU) larni tashkil etadi.

GMU gidravlik va mexanik elementlarning joylashishiga ko'ra, to'liq oqimli va ikki oqimli (differensialli) turlarga bo'linadi.

To'liq oqimli GMU gidrotransformator va UQning ketma-ket joylashuvini nazarda tutadi, bunda bir agregatning yetakchilanuvchi validan burovchi moment ikkinchisining yetakchi valiga uzatiladi.

Ikki oqimli GMUlarda motordan burovchi moment transmissiya valiga ikki mustaqil (parallel) oqimlar mexanik va gidravlik zvenolar orqali uzatiladi.


To'liq oqimli GMU yuqori kuch va kinematik rostlash diapazoniga ega bo'lib, nisbatan kichik FIK ga ega. Bunda  $H_{GMU} < \eta_{GT}$ ,  $\eta_{GMU}$  va  $\eta_{GT}$  – mos ravishda GMU va gidrotransformatorning FIK dir. Kichik FIK ga qaramay to'liq oqimli GMU traktorlarda o'z o'rnnini topgan.

Ikki oqimli GMU gidrotransformator va UQdan iborat bo'lib, bir-biri bilan ketma-ket differensial zveno orqali, shesternyalarini aralash yoki tashqi ilashmali planetar mexanizmi ko'rinishda bog'langan. Bunda differensial mexanizm gidrotransformatorga kirishda ham, undan chiqishda ham joylashishi mumkin. Gidrotransformatorni differensial zveno bilan ulanish sxemalari juda ko'p xilda bo'lishi

mumkin. Chiqishida differensial zvenoli ikki oqimli GMU eng ko'p tarqalgan.

Chiqishdagi differensial zvenoli ikki oqimli GMUning aralash ilashmali shesternyali planetar mexanizm ko'rinishdagi ikki oqimli GMUning ko'p qo'llaniladigan sxemasini ko'rib chiqamiz (7.6- rasm).

Bunda quvvat 1 yetakchi valdan 5 yetaklanuvchiga valga ikki oqim bilan uzatiladi. Birinchi quvvat oqimi quyosh shesternyali 6, satellitlar 3 va vodila 4 orqali mexanik yo'l bilan uzatiladi. Quvvatning ikkinchi oqimi nasos g'ildirak  $N$  orqali turbina  $T$  ga kompleks gidrouzatma orqali va keyinchalik epitsiklik shesternya 2, satellit 3 va vodilo 4 orqali uzatiladi. Shunday qilib vodilo 4 da ikkita quvvat oqimi jamlanadi.



7.6-rasm. Chiqishdagi differensial zvenoli ikki oqimli GMU sxemasi:

- 1 – yetakchi val;
- 2 – epitsiklik shesternya;
- 3 – satellit,
- 4 – vodilo,
- 5 – yetaklanuvchi val,
- 6 – quyosh shesternyasi,  $N$  – nasos g'ildiragi,  $T$  – trubina g'ildiragi,  $R$  – reaktor

Ikki oqimli GMUda motor quvvatining bir qismi kompleks gidrouzatma orqali o'tayotgani bois, umumiyl FIK ushbu uzatmada to'liq oqimli GMU va alohida kompleks gidrouzatmalar FIKlariga nisbatan yuqori bo'ladi. Shunday qilib, ushbu sxemada ikki oqimli GMU da  $\eta_{GMU} > \eta_{GT}$ .

Shuni ta'kidlash lozimki  $\eta_{GMU} < \eta_{GT}$  bo'lgan ikki oqimli GMU sxemalar mavjuddir, bunday holat GMU kuch konturida sirkulyatsiyalanuvchi quvvat hosil bo'lгanda yuzaga kelishi mumkin.

Lekin ikki oqimli GMU konstruksiyalash prinsiplarini bilgan holda, har doim  $\eta_{GMU} > \eta_{GT}$  bo'luvchi sxemalarini tanlash mumkin.

Ikki oqimli GMU katta quvvatli va o'ta quvvatli traktorlar transmissiyalarda o'z o'rnini topmoqda. Ko'rinish turibdiki, kelajakda ular o'rta quvvatli traktorlarda ham qo'llanila boshlaydi.

Ko'pincha traktorlar asosida turli ko'targichlar o'rnatiladi, ularning ish sharoitiga ko'ra, motor quvvatining sezilarli qismi ishchi qurilma gidravlik yuritmasiga sarflanadi. Zotan gidroyuritmaga sarflanadigan quvvat ish jarayonida minimaldan maksimalgacha o'zgarishi mumkin. Keyingi holatda bu motor va gidrotransformator xarakteristikasini bir-biriga moslashmasligiga olib kelishi mumkin, chunki gidronasos yuritmasi motordan traktor GMU bog'liq bo'limgan holda amalga oshiriladi.

G'ildirakli ko'targichlardan ushbu moslashmaslikning oldini olish uchun ikkita nasos g'ildirakli gidrotransformator qo'llanilib, ularning biri tirsakli valdan, bevosita ikkinchisi moyda ishlovchi ko'pdiskli friksion ilashma orqali harakat oladi.

Ilashmaning bosuvchan diskini bir vaqtida gidravlik kuchaytirgichning porsheni bo'lib xizmat qiladi. Traktorchi pedal yordamida kuchaytirgich ustidagi ishchi suyuqlik bosimini rostlashi va shu bilan, ikkinchi nasos g'ildirak tomonidan uzatiladigan quvvatning maksimal qiymatdan nolgacha o'zgartirishi mumkin.

Ushbu masalani bir qancha firmalar pedal yordamida turbina kuragi qiyalik burchagini rostlanadigan bir bosqichli gidrotransformator o'rnatish yo'li bilan yechadilar, bunda pedalga bosish GMU uzatadigan quvvatni o'zgartirish va mos tarzda traktorni tortish kuchini maksimal qiymatda nolgacha rostlash imkonini beradi.

Turbina kurakchalari qiyalik burchagini rostlashdan GMUdag'i yuklanish va MTA uzatmalarini almashgandagi harakat ravonligini, shuningdek, traktor reversiv yurishini ta'minlashda foydalanish mumkin. Turbina kurakchalarning burilishi uzatmalarini almashish jarayonidagi avtamatik boshqarish tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Kelajakda UQ uzatmalarini almashtirishda ishchi bo'shlqnini to'ldirish va bo'shatish bilan ishlaydigan gidrotransformatorlar qo'llash ko'zda tutilmoqda. Bu traktor transmissiyasidagi uzatishlarni almashtirishdagi dinamik yuklanishlarni ancha kamaytirish va uni joyidan qo'zg'alishidagi ravonlikni ta'minlaydi.

## 7.2. Gidrohajmiy uzatmalar

GHULarning asosiy agregatlari bo'lib, hajmiy gidravlik nasos va motor xizmat qiladi. Birinchisi ishchi suyuqlikni ilgarilanma kuch gidravlik oqimiga, ikkinchisi – bosim ostida turgan ishchi suyuqlik energiyasini burovchi momentga o'zgartirib beradi.

### Hajmiy nasoslar va motorlar tasnifi.

*Yetaklanuvchi zvenoning harakatalish tabiatiga ko'ra hajmiy nasoslar va motorlar ilgarilanma qaytma va aylanma harakatli yetaklanuvchi zvenolarga bo'linadi.*

*Rostlash imkoniyatiga ko'ra gidromashinalar rostlanmaydigan va rostlanadigan turlarga bo'linadi. Ishchi kameralardan suyuqlikni siqib chiqarish jarayoni xarakteriga ko'ra gidromashinalar porshenli va rotorli turlarga bo'linadi.*


Porshenli deb, ishchi kameralarda suyuqlikni siqib chiqarish ishchi o'rnlarni ilgarilanma-qaytma (yoki ilgarilanma-aylanma) harakatida sodir bo'lib, ular ishchi kameralardan suyuqlikni siqib chiqaradi va so'rib oladi.

Rotorli gidromashinalar deb, ishchi kameralardan suyuqlikni siqib chiqarish yoki so'rib olish siqvchilarни aylanma yoki ilgarilanma-qaytma harakatida amalga oshadi. Hajmiy gidromashinalarni afzalligi shundan iboratki, ularning ko'pchiligi teskari ishlatalishi mumkin, ya'ni bir xil gidromashina nasos yoki motor sirtida ishlatalishi mumkin.

**Gidronasoslar va gidronasoslar konstruksiyalari.** Traktor GHU da ko'proq aksial-porshenli, yonbosh taqsimlagichli va yetakchi aylanish chastotasi ( $1500...2500 \text{ min}^{-1}$ ) gidromashinalar keng tarqalgan. Aksial-porshenli nasosda yoki motorda (7.7-rasm) kichikroq diametrlı silindrлar (25 mm gacha), bir blokka yig'ilgan bo'lib, ular doira bo'ylab parallel yoki blok 1 aylanish o'qiga kichik burchak ostida joylashadi. Silindrлarning porshenlari 2 ularda shaybalar 3 (7.7- a rasm) yoki blok 1 ( 7.7- b rasm) ta'sirida siljishi mumkin.

Uzatishni rostlash silindrлarda porshenlarning yurishini, shayba yoki blokni o'rta (neytral) holatga nisbatan  $\alpha$  dan  $30^{\circ}$  gacha burish bilan o'zgartirish hisobiga kechadi. Har bir agregat yetti – to'qqiz

silindrga ega bo'ladi. Porshenlar o'lchami kichik bo'lganligi uchun, ularni plunjeler tarzida tayyorlash mumkin, ularning zinchlanishi tutashuvchi yuzalar o'lchamlarni aniq tanlash bilan amalga oshiriladi. Porshenlarning aksial joylashuvi va yetakchi valning nisbatan yuqori aylanish chastotasi aksial-porshenli mashinalarni massasi gabarit o'lchamlari va bahosi bo'yicha boshqa turdag'i nasoslarga nisbatan afzalligini ta'minlaydi. Aksial porshenli nasoslar 2,5...3 rostlash diapazonida yuqori FIK ga ega bo'lib, ularning maksimal qiymati yaxshi namunalarda 0,95 ga teng bo'ladi.



**7.7-rasm. Aksial-porshenli gidromashinalar sxemalari:**  
*a* – qiya shaybali, *b* – qiya blokli, 1 – silindrler bloki, 2 – silindr(plunjer),  
3 – shayba

Qiya shaybali va qiya blok silindrli aksial-porshenli nasoslar taxminan bir xil tarqalgan. Ularning har biri o'zining afzallik va kamchiliklariga ega.


Qiya shaybali nasoslarning afzalliklariga nasos taqsimlagichiga ishchi suyuqlikning kelish va ketishining sodda sxemasini ta'kidlash mumkin, chunki blokning aylanish o'qi mashina ostiga nisbatan o'z holatini o'zgartirmaydi. Qiya blokli nasoslarda blokning aylanish o'qi o'z holatining mashina ostliligidagi nisbatan o'zgartiradi, bu esa ishchi suyuqlikni taqsimlagichga yetkazish tizimi konstruksiyasini murakkablashtiradi. Ushbu turdag'i nasoslarda magistrallar, silindrler blokining tayanchi bo'lib xizmat qiladigan sapfalarda joylashgan.

Silindrler bloki qiya joylashgan nasoslar konstruksiyasining kamchiligi nasosning yetakchi valini silindrler bloki bilan kardan uzatmasi orqali bog'lanishi bo'lib, bu nasosning gabarit o'lchamlari va metall sig'imini oshiradi. Qiya shaybali nasoslarda kardan

uzatmalar ishtirok etmaydi yoki ular kichik o'lchamlarda qo'llanadi, chunki ular burovchi momentni yetakchi valdan silindrlar blokiga uzatmaydi.

7.8-rasmda qiya shaybali aksial-porshenli nasos ko'rsatilgan. Gidronasos korpusi 5 ikki tomonidan flanetslar 2 va 11 bilan yopilgan bo'lib, ular korpusga nisbatan shtiftlar 4 va 10 bilan markazlashtiriladi. Flanetslar o'yiglarida 3 va 12 konusli rolikli podshipniklarda val 1 o'rnatilgan bo'lib, u silindrlar bloki 9 va ta'minlash nasosi 13 bilan shlitsali birikkan. Silindrlar blokini 17 silindrik teshik gilzalarda aksial-porshenlar 16 joylashgan bo'lib, ular sharsimon tayanchlar bilan boshmoqchalarga bog'langan. Boshmoqchalar taglik 8 ichiga joylashgan shayba 7 ning ishchi yuzalarida sirc'anadi. Taglik korpus 5 da joylashtirilgan yarim o'qlar 18 ga nisbatan rolikli podshipniklar 6 da burilishi mumkin.

Nasosning uzatish yo'nalishi va kattaligi taglik 8 ni burilishi va shayba 7 ni egilishi bilan rostlanadi. Prujina 15 silindrlar blokini yonbosh taqsimlagichlarga dastlabki siqish uchun xizmat qiladi.



7.8-rasm. Qiya shaybali aksial-porshenli nasos

Val 1 va silindrlar bloki aylanganda porshenlar 16 shayba 7 ning ishechi yuzasida sirpanib, shayba ishchi yuzasining val o'qiga nisbatan qiyalik burchagiga bog'liq amplituda bilan ilgarilanma-qaytma harakat qiladi. Nasos uzatishining yo'nalishini o'zgarishi, shayba qiyaligining yo'nalishi o'zgarishi bilan ya'ni  $\alpha$  burchak bilan amalga oshadi (7.7-a rasm). Diskni neytral holatga nisbatan soat strelkasiga teskari  $\alpha$  burchakka yuqoriga burilishida (7.7-a rasmida o'q chiziq bilan ko'rsatilgan) so'rish va haydash bo'shliqlari o'rnini almashtiradi. Natijada ishechi suyuqlik oqimining yo'nalishi o'zgaradi.


Porshen osti hajmlari silindrlar bloki yon sirtidagi teshik orqali yonbosh taqsimlagich ichidagi mos keluvchi kanallar bilan bog'lanadi va bu bilan so'rish va siqish sikllari almashishi ta'minlanadi. Asosiy nasosning so'rvuchi magistrallari ta'minlash nasosining haydash magistrali bilan bog'lanadi.

Aksial-porshenli nasosning ushbu konstruksiyasi reversivlik xususiyati bilan birga o'zgarish xossalisa ega. Bu xossa nasos bazasida gidromotor yaratishda qo'llaniladi.

Gidromotor bo'shliqlardan biriga bosim ostida ishchi suyuqlik berilganda, porshen osti bo'shliqlari silindrlar bloki yon sirtidagi teshiklar orqali va yon sirt taqsimlagichini mos kanallari yuqori bosim magistrali bilan bog'lanadi, u silindrلarga ta'sir etib, boshmoqchalar bilan diskning qiya tekisligini tutashuv yuzasida tangensial tashkil etuvchi kuchlarni hosil qiladi. Ushbu tashkil etuvchilar evaziga gidromotor valida burovchi moment hosil bo'ladi.

Yuqorida ko'rilgan konstruksiyali rostlanuvchan gidronasos rostlanuvchi yoki rostlanmaydigan gidromotor bilan GHU ni hosil qiladi.

Radial-porshenli gidromashinalar vallarning kichik aylanish chastotalarida katta burovchi momentlarni uzatish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun traktorlarda GHU radial-porshenli gidromotorlar bevosita traktor yetakchi g'ildiraklarida o'matiladi (motor-g'ildirak).



**7.9-rasm. Radial-porshenli gidromotor bilan motor-g'ildirak.**

7.9-rasmida GHULi g'ildirakli traktorning dastlabki namunalaridan biriga o'rnatilgan gidromotor ko'rsatilgan. U ekssentrik turdag'i besh silindrli radial-porshenli gidromashinadan iborat bo'lib, traktor yetakchi g'ildiragi yoniga kronshteynlar bilan mahkamlangan. Silindrlar 2 ichida porshenlar 6 joylashgan bo'lib. ularning shatunlari 5 pastki yoysimon shakldagi kallakkleri bilan, qo'zg'almas o'q 3 ning ekssentrigi 4 ga kiygilgan qo'zg'aluvchan gardishga tiraladi. Ishchi suyuqlik nasosdan bosim chizig'i bo'ylab 7 quvurlardan biri bo'yicha 3 qo'zg'almas o'qdagi kanalga. 8 taqsimlagich orqali porshen bo'shlig'iga tushib porshenlarni siljitadi. Shatunlarning ichki kallakkleri o'qning qo'zg'almas ekssentrigida sirpanib silindrlar blokini aylantiradi, u bilan birga traktorning yetakchi g'ildiragi ham harakatga keladi

Eksentrik radial-porshenli gidromotorlarning katta kamchiligi, burovchi momentni yuqori darajada notekisligi hisoblanadi. Qishloq xo'jalik traktori uchun bu kamchilik ayniqsa, MTAning past texnologik tezliklarda ishlashida sezilib ( $1\text{km}/\text{soatgacha}$ ), bunda burovchi momentning pulsatsiyasi traktorni siltanib yurishga olib keladi. Bu kamchilik ko'p yurishli yuqori momentli gidromotorlarni

qo'llaganda bartaraf etilishi mumkin, ularning porshenlari rotorni bir aylanishida bir nechta yurishni amalga oshiradi. Lekin bu gidromotorlar murakkab va ko'p yurishli radial-porshenli gidromotorlar, bir yurishli kabi, traktorlar va o'zi yurar mashinalar GHUlarida keng qo'llanilmaydi.


Radial-porshenli gidromotoring katta massasi va o'lchamlari, transmissiya detallariga sezilarli dinamik yuklanishlar hosil qilib, traktorlarning ishechi tezliklarni oshirishga halaqt beradi. Tezlikni dinamik yuklanishlarga ta'sirini kamaytirish maqsadida, silindrlar bloki qo'zg'almas va traktor o'qi g'ilofida mahkamlangan gidromotorlardan foydalaniladi. Ushbu holda faqat val unga o'rnatilgan yetakchi g'ildirak bilan aylanadi.

Radial-porshenli gidromotorlarni traktorlarning GHUda chekli qo'llanishi ularni puxtaligi yetarli emasligi, universal kamligi va yuqori qiymati bilan ham tushuntiriladi.

**To'liq oqimli gidrohajmiy uzatmalar.** To'liq oqimli GHUlar kichik o'lchamli bog'-tomorqa traktorlari, kommunal xo'jalik, yordamchi yo'l va qurilish ishlari traktorlari, ya'ni mashinaning siljishiga sarflanadigan quvvat yo'qotishlari kichik va yuqori manevrchanligi, boshqarish yengilligi hamda joylashishi soddaligi bilan oqlanadigan traktorlarning transmissiyalarida qo'llaniladi.

To'liq oqimli GHUlar qo'llanishini boshqa bir sohasi – maxsuslashtirilgan traktorlar transmissiyalari bo'lib, bunda uning kamchiliklari joylashish ixchamligi, agregatlash imkoniyatlarining kengligi va energiyaning iste'molchilarga yetkazib berish soddaligi bilan qoplanadi.

To'liq oqimli GHUlni yana bir qo'llanish sohasi – o'zi yurar shassilar bo'lib, ular yig'im-terim mashinalari bilan jihozlanadi (g'alla o'rish, yem-hashak, lavlagi, kartoshka yig'ish kombaynlari), bularda asosiy texnologik talab bo'lib, tashqi yuklanishning shartlovchi harakat tezligini yig'ib olinadigan o'simlik hosildorligi bilan mos kelishidir.



7.10-rasm. MTZ-082 kichik gabaritli traktorning GHU sxemasi


To'liq oqimli GHUlar o'rmalovchi zanjirli sanoat va qishloq xo'jaligi traktorlari transmissiyalarida cheklangan holda qo'llaniladi.

Misol sifatida quvvati 9,2 kW bo'lgan (7.10-rasm) kichik gabaritli MTZ-082 traktori to'liq oqimli GHU ning sxemasini ko'rib chiqamiz. Rostlanuvchan aksial-porshenli nasos 1 va rostlanmaydigan aksial-porshenli gidromotor 2 yopiq tizimni tashkil etadi, bunda ta'minlash nasosi rolini va bir vaqtda radiatori-sovutgichni bak-akkumulyator 5 bajaradi. Gidrotizimga saqllovchi klapanlar 5, teskari klapanlar 4 va filtr kiritilgan.

Bak-akkumulyator davriy ravishda klapan 4 va filtr 6 orqali suyuqlik hajmini uzatib, nasos 1 va gidromotor 2 o'rtaсидаги тизим yo'qotishlarini to'ldiradi.

Tizim nogermetikligi bilan bog'liq yo'qotishlar, tashqi idishdan klapan 7 orqali bak-akkumulyator 5 ning dastagi 8 ni pastgi holatga siljitim orqali amalga oshiriladi. (7.10-rasmida shtrix-punktir bilan ko'rsatilgan). 7.11-rasmida monoblokli to'liq oqimli GHU keltirilgan

bo'lib, u traktorga friksion ilashma va bosqichli UQ o'rniiga buyurtma bo'yicha o'rnatilishi mumkin. GHU ikkita aksial-porshenli gidromashinadan iborat. Rostlanuvchan nasos 4 ning ishchi hajmi rostlanuvchan motor 3 hajmidan birmuncha kichikdir. 2 va 5 shaybalarning qiyalik burchagi gidrosilindrlar 8 va 7 yordamida o'zgaradi. Nasos vali 6 traktor motori bilan bog'langan motor vali 1 markaziy uzatma bilan bog'langan.



7.11-rasm. Monoblokli to'liq oqimli GHU sxemasi

Shuni ta'kidlash lozimki, GHU ning barcha afzalliklari faqatgina uni avtomatik rostlash tizimi mavjudligida namoyon bo'ladi. Traktor yetakchi g'ildiraklari yuritmasida GHU larni qo'llash, ularning FIK mexanik uzatmalarga nisbatan kichikligi (0,75...0,85 dan kichik) bilan cheklanib qolmoqda.

**Ikki oqimli gidrohajmiy uzatmalar.** Ikki oqimli GHUlarda quvvat oqimini ikkita parallel shoxlarga – gidravlik va mexanik bo'lishi ro'y beradi, keyinchalik ular bitta yagona oqimga aylanadi.


Ikki oqimli GHUlarni traktorda qo'llash, uzatmaning FIKni uzatmalari yurish chog'ida almashtiriladigan bosqichli UQ darajasida saqlagan holda unumdorlikni oshirishga imkon beradi.

Fendt firmasi 1997-yildan buyon ikki oqimli «Vorio» transmissiyasini «Favorit 926» quvvati 191 kVt (260 o.k.) bo'lgan universal chopiq traktoriga qo'ymoqda. Traktor tezligini 0,2 dan 30

km/s tezlikkacha bosqichsiz rostlash GHU va UQ ikki diapazoni yordamida amalga oshirilmoqda.

Kirishda differensial zvenosi bo'lgan ikki oqimli «Vario» uzatmasining sxemasi 7.12-rasmda ko'rsatilgan. Motor tirsakli vali 1 dan kuch oqimi maxovik 2 va g'ovak val 14 orqali planetar qator vodilosi 12 ga yo'nalib, u yerda ikki qismga bo'linadi. Kuch oqimining bir qismi mexanik yo'l bilan 11 satellitlar orqali quyosh shesternyasi 13 va silindrik shesternyalar juftligi 6 hamda 7 dan natijalovchi val 15 ga uzatiladi.

Kuch oqimining boshqa qismi rostlanuvchi nasos 5 va 2 ta rostlanuvchan gidromotorlar 4 va 5 dan iborat GHU da o'zgarishga uchrab, epitsikl 10 va 8, hamda 9 silindrik shesternyalar juftligi orqali val 15 ga uzatiladi.



7.12-rasm. Fendt traktori «Vario» ikki oqimli uzatmasining sxemasi

Val 15 da kuch oqimining ikkala qismi birlashib, ikki diapazonli UQ 16 ga va undan oldi va orqa yetakechi ko'priklarga boradi.

Gidronasos 3 va gidromotorlar 4 va 5 birgalikda boshqariladi. Nasosning maksimal uzatishi va gidromotorlar sarfi bloklar  $45^{\circ}$  ga burilganda amalga oshadi. Traktoring to'xtashi nasos bloklari 3 va motorlari 4 va 5 nol uzatish holatida yuz beradi. Traktor tezlik olishi uchun 4 va 5 gidromotorlarning doimiy ish unumidorligida nasos 3 uzatishni maksimalgacha oshirib borish lozim. Traktor yurishini reverslash uchun ishchi suyuqlik oqimi yo'nalishini nasosdan blokni

teskari tomonga burish bilan amalga oshiriladi, bunda maksimal qiyalik burchagi  $30^{\circ}$  bilan cheklanadi.

8 km/soat tezlik bilan chopiq qilishda burovchi momentninggidravlik tashkil etuvchisi 75% ga, mexanik esa 25% ga yetadi. GHU boshqarish avtomatik tarzda traktorga o'rnatilgan tezlik va chegaraviy yuklanishning rostlovchi elektron tizim bilan boshqariladi.

Traktor joyidan qo'zg'alishida motorning asosiy quvvat oqimi natijalovchi val 15 ga GHU orqali beriladi. So'ngra tezlik ortishi bilan mexanik tarzda 6 va 7 shesternyalar orqali val 15 ga beriladi, so'ngra UQ 16 ga beriladigan quvvat oqimi ortadi.

Traktorni 50 km/soat ga yaqin tezlikdagi harakatida, 4 va 5 gidromotorlar, nasos 3 ning berilgan unumdorligida nol sarf holatiga o'rnatiladi. Natijada nasos vali to'xtaydi, 8 va 9 shesternyalar orqali epitsikl 10 ni blokirovkalaydi. Motordan burovchi moment UQ 16 ga faqat mexanik yo'l va yuqori FIK bilan uzatiladi.

### 7.3. Elektrik uzatmalar

Elektrik uzatmalar (EU) ikkita prinsipial sxema bo'yicha bajarilishi mumkin. Ulardan birinchisida elektr energiya manbai traktorda joylashib, akkumulyator batareyasi yoki generator bo'lishi mumkin. So'nggi holda EU motorning mexanik energiyasini elektr energiyaga va so'ngra mexanik energiyaga aylantirib beradi.

Ikkinci sxemada elektr energiya manbai traktor tashqarida bo'ladi va EU tashqaridan keladigan elektr enegiyasini elektromotorning mexanik energiyasiga aylantirib beradi.

Traktorlarda asosan birinchi tur ko'proq amaliy qo'llaniladi. Bu uzatma ikki xil amalga oshiriladi: *elektrik transmissiya* ko'rinishida bo'lib, bunda elektr motorlari traktorning yetakchi g'ildiraklariga o'rnatiladi (motor-g'ildirak), bu mexanik uzatmalar qo'llashni bartaraf qiladi va *to'liq oqimli EU* ko'rinishida, ya'ni UQ rolini bajaruvchi va mexanik transmissiyaning boshqa agregatlarini qo'llashni istisno etmaydigan qilib bajariladi. Ushbu transmissiyalar elektromexanik transmissiyalar deyiladi.


Traktor tashqarisidagi elektr manbadan foydalanish sxemalari tashqi manbadan elektr energiyasini uzatilishini murakkabligi bois (transformator kichik stansiyalari) qo'llanilmaydi. Lekin bu borada

ba'zi ishlar amalga oshirilgan. Masalan, 1949-56 yillarda quvvati 44 kVt bo'lган, DT-54 о'rmalovchi zanjirli traktor bazasida XTZ-15 hamda MTZ-2 g'ildirakli traktori bazasida 28 kVt quvvatli ET-36 elektr traktorlari sinov namunasi yasalib sinovdan o'tgan. Elektrotraktorlarda uch fazali asinxron motorlar o'rnatilgan bo'lib, ular tokni transformator kichik stansiyasidan, uzunligi 800 m bo'lган, traktor motori o'miga o'rnatilgan maxsus qurilma bilan barabanga o'raladigan va bo'shatiladigan maxsus kabel orqali olgan. Ishlar qator traktor zavodlari va ilmiy tadqiqot institutlari bilan olib borilgan.

Shunday tadqiqotlar O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish instituti (SAIME) Yangiyo'l shahrida ham o'tkazilgan. Keng foydalanishdagi tekshiruvlar ushbu tizimning bir qancha: past universallik; transport sifatida ishlay olmaslik; daladan-dalaga ularning tashib o'tish zarurligi; kabel, elektromotor, transformator stansiyalarini tayyorlash uchun kamyob mis sarfining ko'pligi, kabel ish muddatining kamligi; dala sharoitlarda ishlatishning murakkabligi kabi kamchiliklarini aniqlagan bo'lib, ular umumiy foydalanishdagi traktorlar uchun maqsadga muvofiq emas deb topilgan. 1956-yilda ushbu ishlarni to'xtatish haqida qaror qabul qilingan.

Energiya manbai generator ko'rinishida traktorda joylashgan bиринчи sxema, sanoat maqsadida qo'llaniladigan DET-250 turidagi dizel elektrotraktorlarda rivojlantirildi.

EULarda o'zgaruvchan va o'zgarmas tok mashinalari qo'llanilishi mumkin. O'zgaruvchan tok mashinalari kichik massa va sodda konstruksiyaga ega. Tortish transport mashinalarida o'zgaruvchan tok uzatgichlari qo'llanilmaydi, chunki asinxron motorlarni ratsional rostlash usullari hozirgacha topilmagan.



**7.13-rasm. Traktor elektromexanik transmissiyasini soddalashtirilgan sxemasi:**

1 – dizel; 2 – friksion ilashma; 3 – kuchi generatori; 4 – parallel uyg‘otish chulg‘ami; 5 – ketma-ket uyg‘otish chulg‘ami; 6 – generator yuritmasi; 7 – saqlagich; 8, 18, 19 – qarshiliklar; 9 – qo‘sishchay qutblari chulg‘ami; 10, 22 – mustaqil uyg‘otish chulg‘ami; 11 – maxsus uyg‘otish chulg‘ami; 12, 17, 20 – kontaktorlar; 13 – ikki bosqichli planetar burish mexanizmi; 14 – yetakchi g‘ildirak; 15 – markaziy uzatma; 16 – tortish elektromotori; 21 – akkumulyator batareyasi; 23 – uyg‘otgichni uyg‘onish chulg‘ami; 24 – uyg‘otgich

O‘zgarmas tokdag‘i EU ishlataligan tortish-transport mashinalarida keng diapazonda avtomatik tarzda tortish kuchi va harakat tezligi o‘rtasidagi teskari bog‘lanish, ya’ni giperbolik tortish xarakteristikasi ta’minlanadi. Bu traktor uchun eng ma’qul holdir. EU larni o‘llashning asosiy afzalliklari shundan kelib chiqadi. Traktor elektromexanik transmissiyasining sxemasi 7.13-rasmida keltirilgan.

O‘zgarmas tok kuchi generatori 3, uchta uyg‘otish chulg‘ami bilan maxsus uyg‘otuvchili tortish motori 16 ni ta’minlaydi. Kuch

generatorining parallel uyg'otish chulg'ami 4, saqlagich 7 va qo'shimcha qarshilik 8 bilan asosiy zanjirga ulangan. Mustaqil uyg'otish chulg'ami 22 traktor bort tarmog'idan 24V kuchlanishni kontaktor 20 va qarshilik 19 orqali oladi. Qarshilik generatorining ish tartibini dizel 1 tomonidan hosil qilinayotgan quvvatga bog'liq ravishda o'zgartiradi. Kuch generatorining ketma-ket uyg'otish chulg'ami 5 asosiy zanjirga, u tomonidan hosil qilinadigan magnit oqimlari, generatorning boshqa ikkita chulg'amini magnit oqimlariga ro'para yo'naltirilgan holda ulanadi.

Tortish elektr motori 16 mustaqil o'yg'otish chulg'ami 10 ga ega bo'lib, u 72 va 77 kontaktorlar orqali traktoring bort tarmog'idan ta'minlanadi, hamda o'yg'otgich 24 yakoridan ta'minlanuvchi maxsus uyg'otish chulg'ami 11 ga ega. Tortish elektr motori kuch zanjiriga qo'shimcha qarshilik 18 qo'shilgan bo'lib, u tortish motori 16 ning qo'shimcha qutblarini 9 chulg'ami bilan bilan birga, asosiy zanjirning 2D - S15 uchastkasi bo'yicha yuklanish toki  $J_n$  o'tganda, kuchlanishni tushishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Traktor transmissiyasi elektr qismining asosiy elementlari: doimiy tokli kuch generatori 3, doimiy tokli tortish elektromotori 16, o'yg'otkichi 24, tarkibiga kontakt paneli, qarshiliklar paneli, boshqaruv kontrolleri, qarshiliklar va qayta ulagichlar kiruvchi boshqaruv apparatlari komplektidan iborat.

Ishchi rejimda DET-250M traktoring old va orqaga yurish tezliklari 1.2...15 km/soat oraligida o'zgaradi, ilmoqdagi tortish kuchi 270 kN dan nolgacha, transport rejimida 2...9 km/soat, ilmoqdagi tortish kuchi mos ravishda 185 kN dan nolgacha o'zgaradi.

**Kuch generatori.** U elektr energiyasini olish uchun mo'ljallangan bo'lib, keyinchalik u markaziy uzatma va traktor yetakchi g'ildiraklarining tortish elektr motori yuritmasida ishlatalidi. Kuch generatorini ishi motor quvvatini to'liq ishlatish va ushbu quvvatni elektromotorga uzatishdan iboratdir. DET-250M traktori konstruksiyasida motor quvvati tok kuchi 400...700A bo'lganda yaxshi ishlaydi.


Dizel-generator qurilmasining normal rejimi deb, dizel maksimal quvvatda ishlashi va generator maksimal quvvatni yetkazib berishi tushuniladi. Kerak bo'lganda traktorchi dizel-qurilmasi quvvatini motor silindrlariga beriladigan yonilg'i sarfini kamaytirish hisobiga

bajarishi mumkin. Bunda bu xususiy xarakteristikalardan biri bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida yonilg‘i uzatish pedali bilan bog‘liq boshqaruv kontrolleri parallel uyg‘otish chulg‘amidagi generator 3 ning qo‘shimcha qarshiligidini zanjir 8 ga ulaydi (7.13- rasm). Bunda traktor harakat tezligi va generator bilan induktivlanadigan kuchlanish, generator magnit oqimi kamayadi.

**Tortish elektromotori.** DET-250M turidagi traktorning elektromexanik transmissiyasiga bo‘lgan asosiy talab – traktorning barcha ish rejimlarida motorning maksimal quvvatidan foydalanish va tashqi qarshilikka bog‘liq ravishda tezlik va tortish kuchini avtomatik o‘zgarishini ta’minlashdan iborat. Tortish kuchi va traktor tezligi elektromotor tortish momenti va aylanish chastotasi bilan bog‘liq. Elektromotor momentining yakor aylanish chastotasiga bog‘liqligi elektromotorning tashqi tezlik xarakteristikasi deyiladi.

Turli xil uyg‘otishli doimiy tokli elektromotorlarning xarakteristikasidan ko‘rinib turibdiki, (7.14-rasm) talab etilgan xarakteristikaga 4 ketma-ket uyg‘otishli elektromotor 3 ning tashqi tezlik xarakteristikasi to‘g‘ri keladi, undagi uyg‘otish tok kuchi va magnit oqimi yuklanish tok kuchiga to‘g‘ri proporsionaldir.

Ketma-ket uyg‘otishli elektromotor uchun kichik yuklanishlarda yakor siljishini maxsus himoyasi, asosiy zanjirda traktor harakati yo‘nalishining o‘zgartirish apparatlari, qiyaliklarda elektromashinalar yordamida traktorlarning maxsus tormozlash tizimlarini o‘rnatish lozim. DET-250M traktorida 2 ta parallel uyg‘otish chulg‘amli elektromotor o‘rnatila boshlandi (7.13- rasm), ulardan biri 10 mustaqil bo‘lib, u traktor bort tarmog‘idan 24 V kuchlanish oladi va ikkinchisi 11 maxsus bo‘lib, u uyg‘otuvchidan ta’milanadi. EDT-166A elektromotorining tashqi tezlik xarakteristikasi 5 talab etilganga 4 yaqinroqdir (7.14-rasm).



**7.14-rasm.** Turli uyg'otishli doimiy tok elektromotorining tashqi tezlik xarakteristikalari:

1 – parallel uyg'otish; 2 – aralash uyg'otish; 3 – ketma-ket uyg'otish; 4 – talab etilgan tashqi tezlik xarakteristikasi; 5 – EDT-166A elektromotor xarakteristikasi.

**Uyg'otkich.** Uyg'otish tizimi yuklanish tok kuchi o'zgarishidan qat'iy nazar. generator va motorning berilgan ish rejimini avtomatik ta'minlab beradi, bunday tizimda motor va generator doimiy quvvat rejimida ishlaydi.

Uyg'otkich tortish elektromotori chulg'amini traktor ilgagida o'zgaruvchan yuklanish hosil bo'lganda ta'minlash uchun xizmat qiladi. Tashqi yuklanish oshganda tok kuchi ortadi, bu esa magnit oqimini kuchaytirib, natijada elektromotor natijaviy oqimini oshiradi. Bunda tortuvchi elektromotor yakori aylanish chastotasi kamayib, u tomonidan hosil qilinadigan burovchi moment oshib, traktor tezligi kamayib tortish kuchi oshadi.

**Traktor elektr uzatmasini boshqarish apparatlari.** Ularga kuch generatoridagi tortish elektromotori va uyg'otkichdagi zanjir toklarining ulash va uzish, shuningdek, elektrsxema, zanjirming ortiqcha yuklanish va qisqa tutashuvlardan asrash uchun xizmat qiladi.

Ularga kontaktorlar, rele, selenli to‘g‘rilagichlar, saqlagichlar, qarshiliklar paneli, ulagichlar-uzgichlar kirdi.

#### **7.4. Gidrodinamik, gidrohajmiy va elektrik uzatmalarga texnik qarov**

Gidrodinamik transformatorga texnik xizmat ko‘rsatish uning moy sathini nazorat qilish, ishchi bo‘shliqlarga quyish, moy filtrini yuvish va moy almashishda sapunni yuvishdan iborat.

Traktorlarning gidrotransformatorlarida AU yoki I-12A moylari qishda, yozda esa M-8 V2 va M-8 G2 moylari quyiladi. Gidrotransformator moy sathini nazorat qilishda kichik aylanish chastotasida motor yurgaziladi, uzatmalarni almashtirish richagi neytral holatga o‘tkazilib, ilashish muftasi ulanadi. Moyni nazorat qilish va kerak bo‘lganda quyish traktorning eksplutatsion chiniqtirishda, shuningdek ishlatish ko‘rsatmalari muddatlariga amal qilgan holda bajariladi. Moy sathi motor ishlagandan so‘ng 3...5 minutda o‘lchanilib, kerak bo‘lganda o‘lchagichning yuqori belgisigacha moy quyiladi.

Gidrotransformator filtrini yuvishda etillanmagan benzin, nitroemal eritkichi yoki atsetondan foydalanilib, traktor chiniqtirilganda yoki 500 va 1000 soat ishlagandan so‘ng bajariladi. Har 1000 soatda moy almashiladi, yiliga 2 marta mavsumiy almashuv amalga oshiriladi.

Gidrotransformatorlarning mumkin bo‘lgan nosozliklari: ishchi suyuqlikning yuqori harorati – yo‘l quyilmaydigan yuqori tortish yuklanishi, gidrotransformatordagи yuqori yoki pastki moy sathi bilan ifodalanadi. Gidrotransformatorning yuqori shovqin sabablari bo‘lib, podshipniklarning ishdan chiqishi, gidrotransformator blokirovkasi yoki sirkulyatsiya doirasi klapanining rostlangan tizimdan chiqishi, ta’minalash nasosining nosozliklaridan kelib chiqadi.

Kardan uzatmasi flanetsi manjetasidan moy oqishi yeyilish yoki zichlash manjetalariga zarar yetishidan kelib chiqadi. Gidrohajmiy uzatmalar moyining qizish sabablari ko‘p bo‘lib, ularga moyning past sathi, jismoniy zarar yetish yoki kanallar ifloslanishi natijasida saqlovchi klapanlardan moy oqishidir. Gidrohajmiy uzatma moyining qizib ketishi so‘rvuchi filtr elementi ifloslanishidan, shuningdek

so'rvuchi quvurlarning ifloslanishidan kelib chiqadi. Gidrohajmiy uzatmalarda shovqin paydo bo'lishining sabablari – gidroyuritmada havoning mavjudligi bo'lib, atmosfera havosini so'rib olish bilan bartaraf etiladi, shuningdek quvurlarning turli konstruksiyalarida yaxshi izolyatsiya qilinmaganligi uchun ularni elastik qistirmalar bilan himoyalash lozim. Gidrohajmiy uzatmali traktorning sekin qo'zg'alishi va past tezligi gidrohajmiy uzatmaga havo kirishidan bo'lib, yuqoridaq usul bilan bartaraf etiladi. DET-250M turidagi traktorlarning elekromexanik uzatmalaridan ko'p yillik foydalanish, texnik qarov va nosozliklarini yo'qotish jarayonida katta tajriba to'plangan. Natijada foydalanish qoidalari shakllandи, ular o'xshash turdagи traktorlarning elektrik uzatmalarи uchun universal hisoblanadi.

Traktorlarni ishlash jarayonida elektr mashinalar, priborlar, simlar nomaqbul sharoitlarda ishlatiladi (changlik, nam, ifloslik, yuqori temperatura). Yuqorida sanalgan qismlarga moy, suv va dizel yonilg'isi tushishi materiallarning xususiyatlarini o'zgartirib, qisqa tutashuvga olib kelishi mumkin. Shuning uchun barcha mashinalar, priborlar, simlar doimo quruq va toza bo'lishi lozim. Traktor ishlayotganda yoki motorda yuqori voltli qurilmalarning alohida zanjirlarida 600 V gacha kuchlanish mavjud bo'lib, bu personal uchun xavflidir. Shuning uchun texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlamayotgan motor va uzilgan akkumulyator batareyasida olib boriladi. Barcha elektr apparatlar qobiq bilan ajratilgan bo'lishi lozim. Zarur holatlardagina yuqori kuchlanish ostidagi mashinani ko'zdan kechirishga ruxsat etiladi. Bunda elektr sxema va tok urganda birinchi yordam ko'rsata oladigan 2 kishi bo'lishi lozim.

Elektr mashinalarning texnik ko'rigi (kuch generatori, uyg'otkich, tortish elektromotori) kontakt birikmalar, chulg'amlar holati, cho'tkalar holati, cho'tka ushlagichlar va kollektorlar, podshipniklarning holatini ko'rish hamda podshipniklarni moylash va rezbali birikmalarni tortish uchun o'tkaziladi. Har bir traktordagi elektr uzatmada yuzaga keladigan kamchiliklar va ularni tuzatish uchun shu tur traktorlari ko'rsatmalaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

## 7.5. Uzatmalarining rivojlanish yo‘nalishlari

**Gidrodinamik uzatmalar.** Qishloq xo‘jalik traktorlarining transport tezliklarining oshishi va universalligini kengaytirish maqsadlariga ko‘ra, gidrodinamik mufta va transformatorlarning integral tipdagи traktorlar va boshqa noan‘anaviy komponovkali traktorlarda, hamda transport, o‘rmon tayyorlash ishlarida qo‘llaniladigan universal qishloq xo‘jalik traktorlarida qo‘llanilishi mumkin. Lekin qishloq xo‘jalik traktorlarida gidrodinamik uzatmalarni qo‘llash mexanik uzatmalardek konkurensiyaga kirisha olmaydi.

O‘rmalovchi-zanjirli traktorlarda va sanoat g‘ildirakli traktorlarida gidrodinamik uzatmalarining planetar uzatmalar qutisi bilan uyg‘unlikda qo‘llash an‘anasi saqlanib qolmoqda. Kichik va o‘rta quvvatli sanoat traktorlarida o‘zaro almashuvchan transmissiyalarida qo‘llash (uzatmalar qutili gidrotransformatorlar va mexanik bosqichli uzatmalar qutisi) an‘anasi qolmoqda. Kelajakda sanoat traktorlarida mexanik uzatmalar qutilari gidrotransformatorlar bilan tenglasha olmaydi. Traktorlar transmissiyalarida blokirovkalananadigan gidrodinamik muftalar va gidrotransformatorlar kompleksini qo‘llash istiqbolli hisoblanadi.

**Gidrohajmiy uzatmalar.** Hozirgi paytda to‘liq oqimli gidrohajmiy uzatmalar kichik o‘lchamli bog‘-tomorqa traktorları, kommunal xo‘jalik traktorları, turli qurilishlar yordamchi traktorları, yuqori o‘tag‘onli individual transport vositalari – g‘ildirakli va o‘rmalovchi-zanjirli, qishloq xo‘jaligi uchun moslashtirilgan traktorlarda, o‘ziyurar shassilarda, turli o‘rish kombaynlari bilan agregatlanuvchi mashinalar transmissiyalarida qo‘llanilib kelmoqda. Kelajakda traktorlarning transmissiyalarida gidrohajmiy uzatmalarni qo‘llash saqlanib qoladi. O‘ziyurar shassilarning transmissiyalarida gidrohajmiy uzatmalarni qo‘llash sohasi tobora turli universal va maxsuslashgan holda qolmoqda. Kelajakda 2 oqimli gidrohajmiy uzatmalarni qo‘llash yo‘nalishi istiqbolli bo‘lib, u traktorlarning tezligini bosqichsiz rostlashni yuqori foydali ish koeffitsiyentlari bilan ta‘minlab beradi.

Qishloq xo‘jalik va sanoatga mo‘ljallangan traktorlar transmissiyalarida to‘liq oqimli gidrohajmiy uzatmalarni qo‘llash

gidrohajmiy uzatmalarni arzon avtomatik rostlash va boshqarish tizimi yaratilganda samara beradi.

**Elektr uzatmalar.** Ko'rib chiqilgan uzatmalar ichida elektr uzatmalar eng kam qo'llaniladi, bu esa elektr energiyasini statssionar manbadan mobil energetik vositaga yetkazib berishning texnik-iqtisodiy qiyinchiliklari bilan ifodalanadi. DET-250M traktori transmissiyasida elektr uzatmalarni qo'llash xorij traktorsozligida ham noyob hisoblanadi. 736 kVt quvvatli motorni ko'p o'qli tortish mashinalarida elektr transmissiya bilan qo'yish misollari mavjud. Hozirgi kunda traktorlar va tortish mashinalarida elektr uzatmalarini transmissiyalarda qo'llanish sanoqli holatlari mavjud. Ekologiya va atrof-muhitni saqlash talablariga ko'ra, yuqori sig'imli va maqbul massali akkumulyatorlar batareyalaridan foydalanuvchi avtomobil va traktorlarni ishlab chiqarish istiqbolli sanaladi. Elektr transmissiyali traktorlar mahalliy obyektlar (issiqxona, parranda fabrikalari, qoramol fermalari) uchun samarali hisoblanib, bunda lokal ta'minlash manbalaridan foydalaniladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Solihov. Traktor va avtomobillar. –T.: Cho'lpion nomli NMIU, 2002. – 512 b.
2. Барский И. В. Конструирование и расчет тракторов. –М.: Машиностроение, 1980.
3. Ксеневич И. П., Шарипов В. М., Арутюнов Л. Х. и др. Тракторы. Конструкция. –М.: Машиностроение, 2000. –822 с.
4. Махкамов К. Х., Саидов Ш. В. Пути развития конструкции тракторов. –Ташкент: ТашГТУ, 2005. – 320 с.
5. Рахимов А. Трактор асосий механизмларини лойихалаш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –222 б.
6. Тракторы. Часть I. Конструкции./под ред. В. В. Гуськова. – Минск: Вышайшая школа, 1979. –232 с.
7. Тракторы. Часть III. Конструирование и расчет./под редакции В. В. Гуськова. –Минск. Вышайшая школа, 1981.
8. Шарипов В. М., Эглит И. М., Парфенов А. П. Трансмиссии тракторов/ под ред. В. М. Шарипова. – Москва: Фонд «За экономический грамотность», 1998. –272 с.
9. Internet manzillari: <http://www.traktor.ru>; [tgtu.uz](http://tgtu.uz); [ttz.uz](http://ttz.uz); [avto.ru](http://avto.ru); [auto.de](http://auto.de);

# MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
<b>1-bob. Traktorlar haqida asosiy ma'lumotlar</b>	
1.1. O'zbekistonda traktorsozlikning rivojlanishi .....	5
1.2. Traktorni tasniflanishi .....	21
1.3. Traktorning asosiy mexanizmlari va tizimlari .....	24
1.4. Traktorni turkumlari (tipajii) va uni maqsadga muvoſiq qurish negizlari .....	28
1.5. MTA tarkibida ishlaganda traktorga qo'yiladigan talablar .....	31
<b>2-bob. Traktor motorlari</b>	
2.1. Dizel motorining tuzilishi, uning ishchi sikli, energetik va iqtisodiy ko'rsatkichlari .....	36
2.2. Dizel motorining krivoship-shatun mexanizmi .....	49
2.3. Gaz taqsimlash mexanizmi .....	86
2.4. Dizelning ta'minlash tizimlari .....	96
2.5. Sovutish tizimlari .....	143
2.6. Moylash tizimi .....	166
<b>3-bob. Traktorning elektr jihozlari</b>	
3.1. Traktor elektr jihozlariga bo'lgan umumiy talablar .....	182
3.2. Akkumulyator batareyasi .....	184
3.3. Elektr ta'minoti tizimlari .....	195
3.4. Elektrostartyorlar .....	209
3.5. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi tizimlari .....	224
3.6. Nazorat o'lehov asboblari .....	235
3.7. Tovush signallari. Oyna tozalagichlar .....	254
3.8. Elektrojihoz sxemalari. Kommutatsiya va himoya apparatlari .....	257
<b>4-bob. Traktor transmissiyasi to'g'risida ma'lumotlar</b>	
4.1. Transmissiyalarning vazifasi, tasniſi va unga qo'yilgan talablar .....	261
4.2. Pog'onali transmissiyalar .....	262
4.3. Transmissiyaning uzatish soni. FIK va yetaklovchi momentlar .....	265
4.4. Traktorning tortish balansi va nur grafigi .....	266
4.5. Gidrodinamik uzatmalar va gidromexanik transmissiyalar .....	270
4.6. Gidrohajmiy va elektrik transmissiyalar .....	277
<b>5-bob. Ilashish mustasi</b>	
5.1. Bir disklik ilashish mustalari .....	286
5.2. Ikki disklik ilashish mustalari .....	295
5.3. Yetaklanuvchi friksion disklar .....	300
5.4. Ilashish mustasining friksion elementlari va detallari .....	304
5.5. Ikki oqimli ilashish mustalari .....	310
5.6. Moyda ishlovchi ilashish mustalari .....	315
5.7. Ilashish mustasini boshqarish yuritmalar .....	319
5.8. Mustaning asosiy o'chamalarini aniqlash. Uning yeyilishi va qizishini tekshirish .....	324

5.9. Itashish mustasi detallarining tuzilishi va ularni hisoblash .....	331
5.10. Itashish mustasiga texnik xizmat ko'rsatish va uning tuzilmasini taraqqiyoti .....	335
<b>6-bob. Uzatmalar qutisi, burovchi momentni kuchaytirgichlar, harakatni pasaytirgichlar va tarqatish qutilari</b>	
6.1. Uzatmalar qutisiga qo'yilgan talablar va tasniflar .....	337
6.2. Pog'onali uzatmalar qutisi .....	340
6.3. Vallari qo'zg'aluvechan bo'lgan uzatmalar qutisining prinsipial kinematik sxemasi va ishlashi .....	346
6.4. Uzatmalar qutisini boshqarish mexanizmlari .....	359
6.5. Uzatmalar qutisining vallari va ularni qotirilishi .....	379
6.6. Pog'onali uzatmalar qutisining tishli g'ildiraklarini hisoblash .....	384
6.7. Vallarni hisoblash .....	399
6.8. Planetar uzatmalar qutisi .....	408
6.9. Burovchi momentni kuchaytirgichlar .....	416
6.10. Harakatni pasaytirgichlar .....	421
6.11. Tarqatish qutilari .....	429
6.12. Uzatishlar qutisi mexanizmlarini moylash .....	433
6.13. Uzatmalar qutisiga texnik xizmat ko'rsatish .....	436
6.14. Mexanik uzatmalar qutisining rivojlanish tendensiyasi .....	438
<b>7-bob. Gidrodinamik, gidrohajmiy va elektrik uzatmalar</b>	
7.1. Gidrodinamik uzatmalar .....	441
7.2. Gidrohajmiy uzatmalar .....	454
7.3. Elektrik uzatmalar .....	463
7.4. Gidrodinamik, gidrohajmiy va elektrik uzatmalarga texnik qarov ..	469
7.5. Uzatmalarning rivojlanish yo'nalishlari .....	471
Adabiyotlar ro'yxati .....	473

# ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>Введение .....</b>	<b>3</b>
<b>Глава 1. Основные сведения о тракторах</b>	
1.1. Развитие тракторостроения в Узбекистане .....	5
1.2. Классификация тракторов .....	21
1.3. Основные механизмы и системы трактора .....	24
1.4. Типаж тракторов и принципы его рационального построения .....	28
1.5. Требования, предъявляемые к трактору при работе в составе МТА .....	31
<b>Глава 2. Тракторные двигатели</b>	
2.1. Устройство дизеля, его рабочий цикл, энергетические и экономические показатели .....	36
2.2. Кривошипно-шатунный механизм дизеля .....	49
2.3. Механизм газораспределения .....	86
2.4. Системы питания дизеля .....	96
2.5. Системы охлаждения .....	143
2.6. Система смазывания .....	166
<b>Глава 3. Электрооборудование</b>	
3.1. Общие требования к тракторному электрооборудованию .	182
3.2. Аккумуляторные батареи .....	184
3.3. Системы электроснабжения .....	195
3.4. Электростартеры .....	209
3.5. Системы освещения и световой сигнализации .....	224
3.6. Контрольно-измерительные приборы .....	235
3.7. Звуковые сигналы. Стеклоочистители .....	254
3.8. Схемы электрооборудования. Коммутационная и защитная аппаратура .....	257
<b>Глава 4. Сведения о трансмиссии трактора</b>	
4.1. Назначение, классификация и требования к трансмиссиям .....	261
4.2. Ступенчатые трансмиссии 262	
4.3. Передаточное число трансмиссии, КПД и ведущие моменты .....	265
4.4. Тяговый баланс трактора и лучевой график .....	266
4.5. Гидродинамические передачи и гидромеханические трансмиссии .....	270
4.6. Гидрообъемные и электрические трансмиссии .....	277
<b>Глава 5. Сцепление</b>	
5.1. Однодисковые сцепления .....	286

5.2. Двухдисковые сцепления .....	295
5.3. Ведомые фрикционные диски .....	300
5.4. Фрикционные элементы и детали сцепления .....	304
5.5. Двухпоточные сцепления .....	310
5.6. Сцепления, работающие в масле .....	315
5.7. Привод управления сцеплением .....	319
5.8. Определение основных размеров сцепления. Проверочный расчет на нагрев и изнашивание .....	324
5.9. Устройство деталей муфты сцепления их расчет .....	331
<b>5.10. Уход за сцеплениями и развитие конструкций сцеплений .....</b>	<b>335</b>
<b>Глава 6. Коробка передач, увеличители крутящего момента, ходоуменьшители и раздаточные коробки</b>	
6.1. Назначение, требования и классификация коробок передач .....	337
6.2. Ступенчатые коробки передач .....	340
6.3. Принципиальные кинематические схемы и работа коробок передач с неподвижными осями валов .....	346
6.4. Механизмы управления коробками передач .....	359
6.5. Валы коробок передач и их крепление .....	379
6.6. Расчет зубчатых колес ступенчатых коробок передач .....	384
6.7. Расчет валов .....	399
6.8. Планетарные коробки передач .....	408
6.9. Увеличители крутящего момента .....	416
6.10. Ходоуменьшители .....	421
6.11. Раздаточные коробки .....	429
6.12. Смазывание механизмов коробки передач .....	433
6.13. Уход за коробкой передач .....	436
6.14. Тенденции развития механических коробок передач .....	438
<b>Глава 7. Гидродинамические, гидрообъемные и электрические передачи</b>	
7.1. Гидродинамические передачи .....	441
7.2. Гидрообъемные передачи .....	454
7.3. Электрические передачи .....	463
7.4. Уход за гидродинамическими, гидрообъемными и электрическими передачами .....	469
7.5. Тенденции развития .....	471
Список литературы .....	473

## INTRODUCTION

### **Chapter 1. The Main information about tractors**

1.1. The Development production of tractors in Uzbekistan .....	5
1.2. Categorization of tractors .....	21
1.3. Main mechanisms and systems of tractor .....	24
1.4. Model of tractors and principles its rational building .....	28
1.5. Requirements presented to tractor when functioning (working) in composition MTA .....	31

### **Chapter 2. The Tractor engines**

2.1. Device of diesel, its worker a cycle, energy and economic factors .....	36
2.2. Crank connected rod mechanisms of diesel .....	49
2.3. Mechanism sharing the gas .....	86
2.4. Systems of feeding the diesel .....	196
2.5. Systems of cooling .....	143
2.6. The System of oiling .....	166

### **Chapters 3. Electric equipment**

3.1. General requirements to tractor Electric equipment .....	182
3.2. Storage batteries .....	184
3.3. Systems of supply .....	195
3.4. Electric starter .....	209
3.5. Systems of illumination and warning light .....	224
3.6. Checking-measuring instruments .....	235
3.7. The Bleeps. Wipers .....	254
3.8. The Schemes Electric equipment. The Commutative and defensive equipment .....	257

### **Chapters 4. The Information about transmission's tractor**

4.1. The Purpose, categorization and requirements to transmission .....	261
4.2. Step-like of transmission .....	262
4.3. Reduction rate трансмиссии, КПД and leading moments .....	265
4.4. Tractive balance of tractor and beam graph .....	266
4.5. Hydraulic dynamic Issues and hydraulic mechanical transmission .....	270
4.6. Hydraulic three-dementional and electric transmission .....	277

### **Chapters 5. The Traction**

5.1. One disc Traction .....	286
5.2. Two disc Traction .....	295
5.3. Unleading friction disks .....	300
5.4. Friction elements and detail of traction .....	304
5.5. Two flow Traction .....	310
5.6. Traction, working in butter, oil, grease .....	315

5.7. Drive of control traction .....	319
5.8. The Determination of the main sizes of traction.	
Checking calculation on heating and wear .....	324
5.9. Device of details of muff tractions and their calculation .....	331
5.10. Care for tractions and development of designs of tractions ..	335
<b>Chapters 6. Gearbox, enlargers turning moment, Reak axle and distributing boxes</b>	
6.1. The Purpose, requirements and categorization	
a box of transmissions .....	337
6.2. Step-like gearbox .....	340
6.3. Principle of kinematic scheme and work a box of transmissions with still axes of grosses .....	346
6.4. Mechanisms of control gearboxes .....	359
6.5. Grosses a box of transmissions and their fastening .....	379
6.6. Calculation toothed travell about step-like box of transmissions .....	384
6.7. Calculation of grosses .....	399
6.8. Planetar Gearbox .....	408
6.9. Enlargers turning moment .....	416
6.10. Real axles .....	421
6.11. Distributing boxes .....	429
6.12. Oiling of mechanisms a gearbox .....	433
6.13. Care for gearbox .....	436
6.14. The Trends of development mechanical box transmissions ...	438
<b>Chapters 7. Hydraulic dynamic, hydraulic three-dementional And electric transmissions</b>	
7.1. Hydraulic dynamic Transmissions .....	441
7.2. Hydraulic three-dementional Transmissions .....	454
7.3. Electric transmissions .....	463
7.4. Care for hydraulic dynamic, hydraulic three-dementional and electric transmissions .....	469
7.5. Trends of development .....	471

**Mahkamov Qobul Hamdamovich, Irgashev Amirqul, Imindjanov  
Baxtiyor Mannapovich, Babashev Qutlimurod Aytbergenovich,  
Po'latov Tohir Rustambekovich**

## **TRAKTOR KONSTRUKSIYALARI**

### **I qism**

*Traktor motori, elektr jihozlari va transmissiyasi*

*Darslik*

Muharrir:

D. Xusanova

Kompyuterda sahifalovchi:

U. Saidov

Nashriyot litsenziyasi: AI №160. 14.08.2009-y.  
Bosishga ruxsat etildi 09.12.2014-y. Bichimi 60x84<sup>110</sup>. Sharqli b.t. 27,90.  
Nashriyot b.t. 29,83. Adadi 65. Narxi shartnomaga asosida. Buyurtma №

«AVTO-NASHR» bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.